

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**



“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi

**“BUXGALTERIYA HISOBI”
fanidan
O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

Bilim sohasi: 200 000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta’lim sohasi: 230 000 – Iqtisod
Ta’lim yo‘nalishi: 5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit (ishlab
chiqarish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha)



TOSHKENT-2017

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI



“Buxgalteriya hisobi” kafedrası

“BUXGALTERIYA HISOBI”

fanidan

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Tuzuvchi: S.A.Jumanazarov

TOSHKENT-2017

MUNDARIJA

I. O‘quv materiallar

1. Ma‘ruzalar matni
2. Amaliy mashg‘ulotlar materiallari

II. Mustaqil ta‘lim mashg‘ulotlari mavzulari va ularni o‘zlashtirish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma

III. Glossariy

Ilovalar:

- fan dasturi;
- ishchi fan dasturi;
- tarqatma materiallar;
- testlar.

KIRISH

O‘quv-uslubiy majmua – Toshkent moliya institutida bakalavriat va magistratura ta‘lim bosqichlarining O‘quv rejalarida aks etgan fanlar bo‘yicha professor-o‘qituvchining dars jarayoniga o‘quv-uslubiy tayyorligini tasdiqlovchi eng muhim mezon, me‘yoriy-uslubiy hujjatdir.

Majmuaning asosiy maqsadi – avvalombor fan o‘qituvchisi, xuddi shuningdek talaba uchun, fanni har tomonlama sermazmun, chuqur nazariy, uslubiy va amaliy tarzda etkazish (talaba uchun – o‘zlashtirish) uchun yagona o‘quv-uslubiy va axborot-resurs manbaini yaratish hisoblanadi. O‘quv-uslubiy majmua Toshkent moliya instituti bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan. Mazkur majmua ilg‘or xorijiy tajribani keng o‘rganish, umumlashtirish va undan ta‘lim va tadqiqotlar jarayonida samarali foydalanish mahsulidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 may qarorida oliy o‘quv yurtlari “Jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi etakchi universitetlar va oliy o‘quv yurtlari bilan qalin hamkorlik doirasida keng ko‘lamda ishtirok etgan holda 2016/2017 o‘quv yili boshlangunga qadar barcha o‘quv rejaları va dasturlari tubdan qayta ishlab chiqilishini nihoyasiga etkazishni ta‘minlasin, fanlarni o‘qitishning eskirgan, umrini o‘tab bo‘lgan yondashuv va uslublaridan batamom voz kechishni, bakalavriat va magistraturada jahon fani va ilg‘or pedagogik texnologiyalarning zamonaviy yutuqlariga asoslangan yangi o‘quv rejaları va dasturlarini joriy etishni, shuningdek, ta‘lim jarayonida ularni amalga oshirish hamda oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish uchun ... etakchi xorijiy olimlar va o‘qituvchilarni jalb etishni nazarda tutsin”¹ deb alohida ta‘kidlangan.

O‘quv-uslubiy majmua o‘quv yili mobaynida xalqaro va milliy iqtisodiyot tizimidagi o‘zgarishlar va tendentsiyalar, yangi qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlarni, xorijda va respublikada chop etilgan yangi o‘quv va ilmiy adabiyotlarni, fan-texnika va texnologiya borasida erishilgan yangi yutuqlarni hisobga olgan holda muntazam takomillashtirilib boriladi.

Ushbu majmua 3 kurs talabalari uchun mo‘ljallangan. Ular 2 kurs 4-semestrida “Buxgalteriya hisobi” fanining predmeti, ob‘ekti va tamoyillari, pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobi, mehnat va ish haqini hisobga olish, tovar-moddiy zaxiralar hisobi, investitsiyalar hisobi, asosiy vositalar hisobi, nomoddiy aktivlar hisobi mavzularini o‘zlashtirishgan. Shuni inobatga olgan holda majmua tarkibi mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq xarajatlar hisobi hamda mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilish; tayyor mahsulot va uning sotilishini hisobga olish; xususiy kapital hisobi; majburiyatlar hisobi; moliyaviy natijalar hisobi; hisobotlarni tuzish va taqdim etish mavzularidan iborat.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 maydagi “2016/2017 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida o‘qishga qabul qilish to‘g‘risida”gi qarori. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2016 yil 27 may, №103 (6538).

BUXGALTERIYA HISOBI NAZARIYASI
MA'RUZA MASHG'ULOTI
MATERIALLARI

1-mavzu. Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq xarajatlar hisobi hamda mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilish

Reja

- 1.1. Xarajatlarning turkumlanshi va ular hisobining vazifalari**
- 1.2. Xarajatlarni baholash va xarajatlar dinamikasi**
- 1.3. Ustama xarajatlar hisobi**
- 1.4. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning usullari**
- 1.5. Kompleks ishlab chiqarish va qo‘shimcha mahsulot xarajatlarini hisobi**
- 1.6. «Xarajatlar-hajm-foyda» tahlili**
- 1.7. Smeta tuzish**

Tayanch so‘z va iboralar:

1.1. Xarajatlarning turkumlanshi va ular hisobining vazifalari

Har qanday tijorat korxonasi imkoni boricha ko‘p foyda olishni ta‘minlaydigan qarorlar qabul qilishga harakat qiladi. Mahsulotga qilingan xarajatlar foyda miqdoriga ta‘sir qiladigan xarajatlarning muhim qismidir.

Odatda xarajatlar deganda iste‘mol qilingan resurslar yoki tovarlar va xizmatlar uchun to‘lash lozim bo‘lgan pul tushuniladi. Boshqarish uchun menejerlarga shunchaki xarajatlar emas, balki biror narsaga (mahsulotga, uning turkumiga, xizmatga) chiqimlar to‘g‘risidagi, ya‘ni “xarajatlar hisobi ob‘ektiga” chiqimlar to‘g‘risidagi axborot zarur.

Xarajatlarning maqsadi - xarajatlari aloxida o‘lchanadigan xar qanday faoliyatdir. Mahsulot, tsex, savdo xududi yoki aniqlash mumkin bo‘lgan xar qanday faoliyat bunga misol bo‘la oladi.



Xarajatlar tushunchasi


Bizning fikrimizcha, xarajatlar hisobini tashkil etishdan asosiy maqsad ularni yuzaga kelish joylari bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini nazorat qilish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda hisobotlarda aks ettirish uchun axborotlarni yetazishdir.

Amalda korxonalarda xarajatlarni boshqarishga yondashuvlarda uslublarning ikki guruhi: buxgalteriya-soliq va boshqaruv-tahliliy uslublari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish mumkin. Uslublarning birinchi guruhi buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish sohasida amal qiladigan qonunchilik doirasida foyda solig‘i

bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani o'zgartirish maqsadida sarflar bilan ishlash imkoniyatini ko'zda tutadi. Ikkinchi gurux uslublarini qo'llash jarayonida korxonaning ichki xizmatlari boshqaruv hisobining progressiv uslublaridan foydalangan holda korxonani rejalashtirish hisobini yuritish, nazorat qilish, tannarxini kamaytirish va samaradorligini oshirish sohasida muayyan vazifalarni ishlab chikadi.

Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun sarflarni rejalashtirish, ularning hisobini yuritishga yagona yondashuvni ta'minlash uchun ushbu sarflarning tegishli tasnifi kerak.

Amaliyotda mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun sarflarni rejalashtirish, ularning hisobini yuritish va kalkulyatsiya qilish maqsadida boshqarish uchun: mazmuni va maqsadi; ishlab chiqarish hajmiga bog'likligi darajasi sarflarni ma'lum turdagi mahsulot birligining tannarxiga kiritilishi usuli; ishlab chiqarishda sarflarning shakllantirilishi ketma-ketligi kabi belgilar bo'yicha tasnif ishlatiladi.



Xarajatlarni aks ettiruvchi schyotlar bo'yicha turkumlanishi

Sarflarni shakllantirishni boshqarish tizimida amaliy foydalanish uchun sarflar mazmuni va maqsadiga ko'ra, ikki usulda guruhga bo'linadi: iqtisodiy tarkibi hamda sarflarning moddalariga ko'ra. Guruhga bo'lishning ikkala usulida ayni bir xil sarflar hisobga olinadi, lekin ularni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari tufayli ayni bir nomli moddalar va tarkibiy qismlari kattaligiga ko'ra farqlanadi. Xarajatlarni iqtisodiy tarkibiga ko'ra guruhlashda u yoki bu zahiralari turi qayerda va qaysi maqsadda ishlatilishi muhim emas, faqat sarflar iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir xil bo'lishi muhim hisoblanadi.

Xarajatlarni iqtisodiy tarkibiga ko'ra guruhlariga bo'lish korxonada ishlab

chiqarish-xo'jalik faoliyatini tahlil etish, buxgalteriya hisobini tashkil etish uchun qo'llanadi.

Sarflar tasnifi sarf-xarajatlar mahsulotni ishlab chiqarishga nisbatan turlicha ekanligini aks ettirish va ularning turlarini belgilashga imkon beradi. Buxgalteriya ma'lumotlarini tasniflashning ko'pgina sxemalari mavjudligiga qaramay, ulardan birini namuna sifatida ajratib ko'rsatish mumkin emas. Tasniflash sxemasi ma'lumotning maqsadiga bog'liqdir. Ingiliz olimi Alborov, Rolan A. sarflar hisobining quyidagi yo'nalishlarini va ularning ehtimoliy tasniflarini taklif etadi.

Xarajatlar yo'nalishlari va ularni tasniflashning ehtimoliy turi

№	Hisobning yo'nalishi	Tasniflashning ehtimoliy usuli
1	Mahsulot zahiralarining qiymatini aniqlash uchun	<ul style="list-style-type: none"> • hisobot davri va mahsulot tannarxi sarflari; • mahsulot ishlab chiqarish sarflarining tarkibiy qismlari; • xarajatlarning buyurtma bo'yicha va jarayonlar bo'yicha kalkulyatsiyasi.
2	Qarorlar qabul qilish uchun	<ul style="list-style-type: none"> • xarajatlar dinamikasi; • kelgusi davr xarajatlari va o'tgan davr xarajatlari; • bartaraf etiladigan va bartaraf etilmaydigan xarajatlar; • qaytarib bo'lmaydigan sarflar; • faraz qilingan sarflar; • chegaraviy sarflar.
3	Nazorat va boshqaruv uchun	<ul style="list-style-type: none"> • boshqarib bo'ladigan va boshqarib bo'lmaydigan xarajatlar; • xarajatlar dinamikasi.

Ya'ni, buxgalteriya ma'lumotlarining foydalanuvchilari biror sarf-xarajat haqida nimanidir bilib olmoqchi bo'lsalar, aynan shu narsaning o'zi hisob yo'nalishi bo'ladi. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining yo'nalishiga mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi, sotish bo'limi ta'minoti sarflari kalkulyatsiyasi, ya'ni amalda Biron-bir mansabdor shaxsning ishlatilgan zahiralarini baholash zaruratini yuzaga keltiradigan holatlar misol bo'lishi mumkin.

Sarflarni shakllantirishni boshqarish tizimida amaliy foydalanish uchun sarflar mazmuni va maqsadiga ko'ra, ikki usulda guruhga bo'linadi: iqtisodiy tarkibi hamda sarflarning moddalariga ko'ra. Guruhga bo'lishning ikkala usulida ayni bir xil sarflar hisobga olinadi, lekin ularni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari tufayli ayni bir nomli moddalar va tarkibiy qismlari kattaligiga ko'ra farklanadi. Xarajatlarni iqtisodiy tarkibiga ko'ra guruhlashda u yoki bu zahiralar turi qaerda va qaysi maqsadda ishlatilishi muhim emas, faqat sarflar iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir xil bo'lishi muhim hisoblanadi.

Mahsulotga tegishli xarajatlar tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq. Bu xarajatlar zahiralar qiymatiga kiritiladi. Mahsulotga tegishli

xarajatlarga asosiy materiallarni, asosiy mehnatni va ishlab chiqarishga ustama sarflarni kiritishadi.

Asosiy materiallar – xom-ashyo va materiallar, ular tayyor mahsulotning qismiga aylanadi. Ularning qiymati bevosita va alohida xarajatlarsiz ma'lum buyumga qo'shiladi. Bevosita moddiy xarajatlar miqdorini aniq bir buyumga qo'shish mumkin bo'lgan materiallar miqdorini materiallar birligiga ko'paytirib hisoblab chiqarilishi mumkin.

Asosiy mehnat barcha ishchi kuchi xarajatlarini o'z ichiga oladi, ularni bevosita tayyor mahsulotlarning ma'lum turiga tejab qo'shish mumkin.

Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari – (ishlab chiqarish ustama xarajatlari) – bular mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan asosiy materiallar va asosiy mehnatdan tashqari barcha xarajatlardir, ya'ni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, lekin tayyor mahsulotning aniq bir turiga tegishli deb bo'lmaydigan turli sarf-xarajatlarning yig'indisidir. (Masalan, qo'shimcha materiallar, qo'shimcha ishchilar mehnati, ishlab chiqarish binolari va uskunalarning ammortizatsiyasi, kommunal xizmatlar, ishlab chiqarish binolarini ijaraga olishga doir xarajatlar yig'indisi).

Davr xarajatlariga ular paydo bo'lgan davrda qilingan, lekin zahiralarning qiymatiga qo'shilmaydigan sarflar kiradi. Davr xarajatlariga sotish xarajatlari va ma'muriy xarajatlar kiradi.

Mahsulotni sotish bilan bog'liq xarajatlar – korxonaning mahsulotni sotish, uni bozorga olib borish xarajatlaridir.

Ma'muriy xarajatlar – korxonaning umumiy faoliyati bilan bog'liq (masalan, ma'muriy xodimlarning ish haqi, ma'muriy bino va ofis anjomlari amortizatsiyasi va shu kabi xarajatlardir).

Xarajatlar mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritilish usuli bo'yicha bevosita va bilvosita xarajatlarga ajratiladi.

Bevosita xarajatlar mahsulotning aniq turi talabidan xosil bo'ladi. Ularni dastlabki xujjatlar ma'lumotlariga asoslanib sarflangan paytida mahsulotning ma'lum turiga qo'shish mumkin. Bunga xom-ashyo materiallar, sarfi, ishlab chiqarish bilan band ishchilarning ish haqi, ya'ni dastlabki xarajatlar kiradi.

Bilvosita xarajatlar mahsulotning bir necha turi bo'yicha hosil bo'ladi. Odatda bilvosita xarajatga ishlab chiqarilgan mahsulotning ma'lum turiga bevosita ko'shib bo'lmaydigan ishlab chiqarishning ustama sarf-xarajatlari kiradi, shuning uchun xarajatlarning umumiy summasini maxsus stavkalar asosida mahsulotga taqsimlaydilar.

Ishlab chiqarish xarajatlari (asosiy mehnat, asosiy materiallar sarfi va ishlab chiqarish ustama xarajatlari) yig'iladi hamda ishlab chiqarilgan mahsulot to'g'risida hisobot va sotilgan mahsulot tannarxi to'g'risida hisobot tarzida ko'rsatiladi. Bu hisobotlar alohida tuzilishi yoki ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot tannarxi to'g'risidagi hisobotga birlashtirilishi mumkin.

Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi – bu ma'lum davrda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotga tegishli ishlab chiqarish xarajatlaridir. Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini hisoblash uchun ma'lum davrda qilingan ishlab chiqarish

xarajatlari tugallanmagan ishlab chiqarishning sof o'zgarishiga ko'paytirish yoki kamaytirish (tugallanmagan ishlab chiqarishning boshlang'ich qoldig'i minus tugallanmagan ishlab chiqarishning oxirgi qoldig'i).

Sotilgan mahsulotning tannarxi daromad bilan taqqoslanadigan xarajatlarni ko'rsatadi. Sotilgan mahsulotning tannarxini hisoblashda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi tayyor mahsulot zahiralariidagi sof o'zgarishga ko'payadi yoki kamayadi (tayyor mahsulotning boshlang'ich qoldig'i minus tayyor mahsulotning oxirgi koldig'i).

Umumiy xarajatlar – bu mahsulot yoki korxonaga bo'yicha xarajatlar to'g'risidagi axborot.

O'rtacha xarajatlar – bu mahsulot birligiga ketgan xarajatlar.

Xarajatlarning o'zgarishi deganda faoliyat darajasi o'zgarganda xarajatlarning qanday o'zgarishi tushuniladi.²

O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq. O'zgaruvchan xarajatlar miqdori ishlab chiqarish hajmining (ish bilarmanlik faollik darajasining) o'zgarishiga mutanosib o'zgaradi va mahsulot birligiga hisoblaganda doimiy miqdor bo'ladi. Xom ashyo, asosiy ishchilarning mehnati, komission xarajatlar bunga misol bo'la oladi.

Doimiy xarajatlar miqdori faollik darajasi o'zgargan paytda ham o'zgarmay qolaveradi, ular nisbatan doimiydir, lekin ishlab chiqarish darajasi o'zgarganda mahsulot birligiga hisoblangan doimiy xarajat ham o'zgaradi: amortizatsiya, ijara xarajatlari va aktivlar sug'urtasi, ma'muriy xarajatlar bunga misol bo'la oladi.

Barcha bevosita xarajatlar o'zgaruvchan xarajatlardir, umumiy ishlab chiqarish, tijorat va ma'muriy xarajatlar tarkibida esa o'zgaruvchan xarajatlar ham, doimiy xarajatlar ham bor.

Ba'zi xarajatlarni o'zgaruvchan yoki doimiy sarflar sifatida turkumlab bo'lmaydi.

Yarim o'zgaruvchan xarajatlar – bir vaqtning o'zida ularda o'zgaruvchan va doimiy komponentlar bo'ladi. Bu xarajatlarning bir qismi ishlab chiqarish hajmi o'zgargan taqdirda o'zgaradi, bir qismi esa davr davomida o'zgarmay qoladi, faoliyat hajmiga bog'liq bo'lmaydi.

Masalan, telefon uchun oylik abonent haqi to'lovining summasi doimiyga kiradi va o'zgaruvchan qismi shaharlararo va xalqaro telefon orqali gaplashish soniga va vaqtiga bog'liq. Yarim o'zgaruvchan xarajatlarni aralash xarajatlar ham deb yuritishadi.

Yarimdoimiy xarajatlar – ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'ladi, lekin unga mutanosib ravishda o'zgarmaydi, ular bosqichma-bosqich ko'payadi, ya'ni ishlab chiqarish hajmining ma'lum darajasigacha doimiy bo'ladi, shundan so'ng hajmi o'zgarganda ko'payadi va yana ishlab chiqarishning ma'lum darajasigacha o'zgarmay turadi

Muqobil xarajatlar – bu foydalanilmagan imkoniyatlarga qilingan sarf xarajatlardir. Ular bir harakatni tanlash boshqa harakatning vujudga kelishini istisno qiladigan paytdagi boy berilgan foydani bildiradi. Masalan, sport sumkalari

² O'BAMA. Boshqaruv hisobi-1. –T.: O'BAMA 2006 y. 9-bet.

ishlab chiqaradigan korxonada chemodan tayyorlashga buyurtma oldi. Agar korxonada bu buyurtmani qabul qilsa, sport tovarlarini sotadigan magazinlarning butun bir tarmog‘i uchun odatdagi miqdorda sport sumkalarini ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish imkoniyatlari (mashina va ish vaqti) etishmaydi. Bu buyurtmani qabul qilishning muqobil xarajatlari sport sumkalarini ishlab chiqarish imkoniyati qolmagani sababli boy berilgan foydadir. Bu boy berilgan foydani sport sumkalarini sotishdan olinadigan potentsial daromaddan ularni ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarni chiqarib tashlash yo‘li bilan hisoblanishi mumkin. Muqobil xarajatlar har bir kishi qabul qilgan qarorida ham mavjud bo‘ladi. Muqobil xarajatlarga talabani universitetda o‘qitish uchun sarflangan xarajatlar ham ish haqiga qo‘shiladi. Lekin talaba bu vaqtda ishlamagan va ish haqi hisoblanmagandir.

Muqobil xarajatlar harakatning tanlash chog‘ida harakatlarning boshqa variantlaridan voz kechish natijasida yo‘qotilgan yoki qurbon qilingan potentsial naf sifatida aniqlanadi.

Misol: Kompaniya pulni qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalash yoki asbob-uskunalar sotib olishdan birini tanlashi kerak. Agar korxonada asbob-uskunalar sotib olishni investitsiyalamasdan, qimmatli qog‘ozlarni sotib olgan taqdirda investitsiyadan olgan daromad muqobil xarajat bo‘ladi.

Qaytmaydigan xarajatlar – bu muqaddam qilingan xarajatlardir. Demak ular kelgusidagi xarajatlarga ta’sir qilmaydi va hozirgi yoki keyingi hech qanday harakat uni o‘zgartirmaydi. Bunga misol qilib uskunalar (dastlab sotib olingan)ning boshlang‘ich qiymati va moddiy zahiralarni hosil qilishga sarflangan xarajatlar kiradi. Sotib olingan zahiralalar va uskunalardan hozir foydalanilmayotgan bo‘lsa ham ularni xarid qilishga xarajatlarni kelgusidagi hech qanday harakat o‘zgartira olmaydi. Shu sababli bu xarajatlar kelgusida qaror qabul qilish chog‘ida hisobga olinmaydi.

Relevant xarajatlar va daromadlar kelgusida kutilayotgan va hozirgi va kelgusidagi har qanday harakat o‘zgartira olmaydigan xarajatlar va tushumlar (yoki kelgusi davrdagi xarajatlar va tushumlar, yoki ahamiyatli xarajatlar va tushumlar) bu qaror qabul qilinishi natijasida o‘zgaradigan xarajatlar va tushumlardir. Qabul qilinayotgan qaror ta’sir qilmaydigan xarajatlar va tushumlar norelevant ya’ni unga tegishli bo‘lmagan (ahamiyatsiz) xarajatlar va tushumlardir.

Ko‘payadigan xarajatlar (ular qo‘shimcha yoki tabaqalashtirilgan xarajatlar ham deyiladi) – bu ikki muqobil qarorni ko‘rib chiqish chog‘ida xarajatlar farq qiladigan miqdordir. Ko‘payib boradigan xarajatlar va tushumlar – bu tahlil qilinadigan har bir variantda mahsulotning ko‘rib chiqilayotgan turlari uchun qilingan sarflar va tushumlar o‘rtasidagi farqlar hamda harakatning bir variantida mavjud bo‘lgan, lekin boshqa harakat variantida to‘la yoki qisman mavjud bo‘lmagan har qanday xarajatlardir. Ko‘payadigan xarajatlar ham doimiy, ham o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin.

Marjinal xarajatlar (tushumlar) bir qo‘shimcha ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga qilingan qo‘shimcha xarajatlar (tushumlar)dan iboratdir.

Me’yoriy xarajatlar - bu mahsulot birligiga rejalashtiriladigan xarajatlardir.

Ulardan smeta tuzish va rejalashtirilgan natijalar bajarilishini baholash uchun foydalaniladi. Smeta davri tugagandan so‘ng chetga og‘ishlarni aniqlash uchun haqiqatan qilingan xarajatlar me‘yoriy xarajatlar bilan solishtiriladi.

Tartibga solinadigan va tartibga solinmaydigan (nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan) xarajatlar.

Boshqaruv jarayonida foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan xarajatlarning boshqa turkumlanishi xarajatlarning ayrim moddalari alohida ijrochi tomonidan nazorat qilish imkoniyatini nazarda tutadi. Agar ijrochi xarajatlarni tartibga sola olsa yoki xarajat darajasiga muhim ta‘sir o‘tkaza olsa, bu xarajatlar shu ijrochi nazorat qiladigan xarajat deb hisoblanadi. Xodim miqdoriga ta‘sir o‘tkaza olmaydigan xarajatlar shu xodim nazorat qilmaydigan harajat hisoblanadi. Ko‘p xarajatlar to‘liq alohida ijrochining nazoratida bo‘lmaydi. Boshqaruv hisobi xarajatlarni nazorat qilinadigan yoki nazorat qilinmaydigan xarajatliligini aniqlab, xodimning xarajat darajasiga ta‘sirini aniqlashga urg‘u beradi.

Nazorat qilinadigan xarajatlar ma‘suliyat sohasi shu xarajat bilan bog‘liq bo‘lgan menejer tomonidan boshqarish predmetidir. Odatda menejerlar chiqimlarni xarajatlar markazi orqali nazorat qiladilar. Xarajatlar markazi menejerining maqsadi – bu xarajatlarni minimallashtirish va ularni rejalashtirilgan va haqiqiy xarajatlar asosida baholashdir.

Hisob tizimi sarflarni ma‘lum toifalarga ko‘ra tasniflab yig‘adi. Sarflarning bu toifalari hisob yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimlanadi. Buxgalterlar mahsulot tannarxiga kiruvchi sarflar va hisobot davri xarajatlarini tasniflaydilar. Mahsulot tannarxiga qayta sotish uchun sotib olingan yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlarga oid sarflar kiritiladi. Korxonada bu sarflar tayyor mahsulot yoki tugallanmagan ishlab chiqarishning tannarxini, uning sotilishi paytigacha belgilashda hisobga olinadigan mahsulot birligining tannarxi bo‘ladi. Mahsulot sotilgandan keyin foydani hisoblash uchun bu sarflar sotishdan tushgan tushumlar bilan qiyoslanadi. Hisobot davrining xarajatlari zahiralarni baholashda hisobga olinamaydigan sarflar hisoblanadi. Shuning uchun ular sodir bo‘lgan davridayoq xarajat sifatida tan olinadi. Demak, hisobot davrining sarflari va zahiralarni baholashda hisobga olinadigan sarflar bilan umuman bog‘lanmasligi lozim. Korxonada barcha ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot tannarxiga, noishlab chiqarish xarajatlari esa hisobot davri xarajatlariga kiritiladi.

Ma‘lumotning maqsadi va uni taqdim etishning davriyligi mezoni ham ajratib ko‘rsatilishi lozim. Avval ko‘rsatilgani kabi sarflar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar uch asosiy yo‘nalishda aniqlanadi. Ularning ichida ma‘lumot olinishi maxsus mo‘ljallanishi mumkin. Demak, ma‘lumot maqsadi va uni taqdim etishning davriyligi mezoni ham mustaqil mezon kabi ajratib ko‘rsatilishi kerak.

Korxonada va uni boshqarish nuqtai nazaridan esa xarajatlarning umumiy summasi, alohida ishlab chiqarish bo‘linmalarining unumli hamda unumsiz xarajatlari va boshqalar haqidagi axborotlar yig‘ishni talab etadi.

Shunday qilib, xarajatlarni hisobga olish ham moliyaviy hisobning, ham boshqaruv hisobining eng muhim qismlaridan biri ekan. Mana shu asosda xarajatlar hisobi oldidagi vazifalarni aniqlash mumkin.

Moliyaviy hisobning asosiy vazifasi foydalanuvchilarni korxonada faoliyatining moliyaviy natijalari, uning moliyaviy holati, xususan, mulkiy holati hamda to'lov qobiliyati haqidagi axborot bilan ta'minlashdir. Demak, bu jihatdan, xarajatlar hisobi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- korxonada faoliyati bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z vaqtida to'lagicha hisobga olish;
- xarajatlar haqidagi ma'lumotlarni alohida hisob varaqalarida hamda hisobot shakllarida to'g'ri aks ettirish va soliqlarni hisoblash uchun etarli darajadagi ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash.

Bu vazifalarni bajarish uchun xarajatlarni moliyaviy hisob tamoyillari, xususan, ikki yoqlama yozuv asosida hisobga olish etarlidir. Boshqaruv hisobining eng asosiy xususiyati esa uning ma'lumotlari boshqaruv uchun foydaliligidir. Jumladan, boshqaruv hisobi xarajatlar haqida shunday batafsil ma'lumotlarni berishi kerakki, toki uning asosida eng to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilishning imkoniyati paydo bo'lsin. Bu sohada xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda xarajatlar hisobi haqidagi ma'lumotlarni korxonada quyidagi holatda shakllantirishi kerak:

- xarajatlarni ularni paydo bo'lish joylari bo'yicha hisobga olish;
- xarajatlar hisobini javobgar xo'jalik markazlari bo'yicha tashkil qilish;
- xarajatlarni ularni paydo qilgan ob'ektlari yoki ularni tashuvchilari, ya'ni alohida mahsulot turlari bo'yicha jamlab berish.

Bu vazifalar boshqaruv hisobining asosiy vazifasini bajarishga imkon beradi. Masalan, xarajatlarni ularning paydo bo'lish joylari va javobgar xo'jalik markazlari bo'yicha hisobga olish eng muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon yaratadi.

Demak, xarajatlarni hisobga olishning quyidagi vazifalarini ham sanab o'tishimiz kerak ekan:

- alohida ishlab chiqarish jarayonlari yoki bo'linmalari bo'yicha xarajatlar hisobini tashkil qilish va ular ustidan nazoratni ta'minlash;
- alohida mahsulot turlari bo'yicha asosiy ishlab chiqarish xarajatlari haqidagi ma'lumotni shakllantirib berish;
- korxonaning ishlab chiqarishdan tashqari barcha boshqaruv xarajatlarning tahliliy ma'lumotlarini yig'ib berish va ularning talqinini amalga oshirish.

Bu vazifalardan ko'rinib turibdiki, hisob va tahlil boshqaruv hisobining biri bilan chambarchas bog'langan ikki tomoni ekan. Zero mahsulot bahosining eng quyi chegarasini aniqlash uchun ham tannarxni hisoblash talab etiladi.

O'zbekistonda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish sharoitida raqobatbardosh mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega. Buning uchun mamlakatda iste'molchilar ehtiyojini qondira oladigan arzon hamda sifatli mahsulot ishlab chiqarish lozimdir. Bunda asosiy ko'riladigan masalalardan biri mahsulot tannarxini o'rganib uni imkon qadar pasaytirishdan iborat.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish

tehnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi.

Korxonalarda mahsulot tannarxi hisobi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yili 5 fevraldagi Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Mahsulot tannarxi tarkibiga quyidagi xarajatlar kiritiladi. Bu xarajatlar korxonada mahsulot ishlab chiqarishida bevosita qatnashib mahsulot tannarxini shakllantiradi:

- ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan moddiy xarajatalar;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar;
- asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 8 yanvardagi “Sanoatda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mahsulot tannarxini pasaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5-sonli qaroriga ko‘ra, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mahsulot tannarxini o‘rtacha 10 foizga pasaytirish, shu jumladan ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish hisobiga 8,3 foizga pasaytirish bo‘yicha takliflar qabul qilindi.

Ishlab chiqarish jarayonida mahsulot tannarxini optimallashtirish va samarali moliyaviy yakunuy natijaga erishishda, tayyor mahsulotga qilingan haqiqiy xarajatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Sarflanayotgan xar bir turdagi xarajatlarni mahsulot tannarxiga optimal darajada muvofiqlashtirish esa buxgalterning kasb mahoratidir. Bu borada ishlab chiqarish jarayonini boshqarayotgan buxgalterlar, tahlilchi-iqtisodchilar yoki menejerlar xarajatlarning qay yo‘sinda turkumlanishini mukammal darajada bilishi zarur.

Boshqaruv hisobida xarajatlarni turkumlashdan maqsad korxonada rahbarining to‘g‘ri va asosli qarorlar qabul qilishida menejerlarga amaliy yordam ko‘rsatishidir. Sarflangan xarajatlar bir vaqtning o‘zida ham boshqaruv hisobiga ham moliyaviy hisobga tegishli. Ammo, ularning ba’zi birlari faqat boshqaruv hisobigagina tegishli bo‘lib, korxonada boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanadi va moliyaviy natijalarni tuzishda esa ular ahamiyatsizdir. Shuning uchun ham, xarajatlarni turkumlash jarayoni – menejerlarni boshqaruv qarorlarini qabul qilishda va unga ta’sir ko‘rsatishda ajralmas qism ekanligini belgilab beradi.

Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish asosan sotilgan mahsulot tannarxi va tovar-moddiy zaxiralari o‘rtasidagi xarajatlarni taqsimlash va ularni moliyaviy natijalarda ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Tezkor qarorlar qabul qilishda yoki bir necha variantlar ichidan optimal qarorni tanlash vaqtida korxonada ishlab chiqarish jarayonini o‘zgartirishi mumkin. Ushbu vaziyat yuzasidan korxonada o‘z menejeridan turli bo‘g‘indagi asosli qarorlar qabul qilishi uchun turli yo‘nalishdagi ma’lumotlar talab qilishi mumkin. Masalan, qaysi mahsulotni ishlab chiqarish va qaysi birini to‘xtatish, qanday narx o‘rnatish, yangi asbob-uskunalarni

o‘rnatish yoki yaroqlisini yangilash, o‘z ishchi-xodimlarini malakasini oshirish yoki yangi mutaxassislarni jalb etish, reklama xarajatlarini oshirish va boshqalar.

Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish – boshqaruv hisobining asosiy funksiyasidir. Boshqarish uchun menejerlarga shunchaki xarajatlar emas, balki aniq bir obyektga tegishli (korxonada faoliyat turiga taalluqli bo‘lgan tavar, mahsulot, xizmatga nisbatan qilingan) chiqimlar to‘g‘risidagi, ya‘ni “xarajatlarni qayd qilish obyektiga” nisbatan qilingan xarajatlar to‘g‘risidagi axborot zarur bo‘ladi.

Zahiralarini baholash uchun xarajatlarni turkumlash

Xarajatlarni quyidagi belgilariga qarab turkumlash mumkin:

a) Mahsulotga tegishli xarajatlar va davr xarajatlari

Mahsulotga tegishli xarajatlar tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq. Bu xarajatlar zahiralar qiymatiga kiritiladi. Mahsulotga tegishli xarajatlarga asosiy materiallarni, asosiy mehnatni va ishlab chiqarishga ustama sarflarni kiritishadi.

Asosiy materiallar – xom-ashyo va materiallar, ular tayyor mahsulotning qismiga aylanadi. Ularning qiymati bevosita va alohida xarajatlarsiz ma‘lum buyumga qo‘shiladi. Bevosita moddiy xarajatlar miqdorini aniq bir buyumga qo‘shish mumkin bo‘lgan materiallar miqdorini materiallar birligiga ko‘paytirib hisoblab chiqarilishi mumkin.

Asosiy mehnat barcha ishchi kuchi xarajatlarini o‘z ichiga oladi, ularni bevosita tayyor mahsulotlarning ma‘lum turiga tejab qo‘shish mumkin.

Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari – (ishlab chiqarish ustama xarajatlari) – bular mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan asosiy materiallar va asosiy mehnatdan tashqari barcha xarajatlardir, ya‘ni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan, lekin tayyor mahsulotning aniq bir turiga tegishli deb bo‘lmaydigan turli sarf-xarajatlarning yig‘indisidir. (Masalan, qo‘shimcha materiallar, qo‘shimcha ishchilar mehnati, ishlab chiqarish binolari va uskunalarning ammortizatsiyasi, kommunal xizmatlar, ishlab chiqarish binolarini ijaraga olishga doir xarajatlar yig‘indisi).

Davr xarajatlariga ular paydo bo‘lgan davrda qilingan, lekin zahiralar qiymatiga qo‘shilmaydigan sarflar kiradi. Davr xarajatlariga sotish xarajatlari va ma‘muriy xarajatlar kiradi.

Mahsulotni sotish bilan bog‘liq xarajatlar – korxonaning mahsulotni sotish, uni bozorga olib borish xarajatlaridir.

Ma‘muriy xarajatlar – korxonaning umumiy faoliyati bilan bog‘liq (masalan, ma‘muriy xodimlarning ish haqi, ma‘muriy bino va ofis anjomlari amortizatsiyasi va shu kabi xarajatlardir).

b) Bevosita va bilvosita xarajatlar

Xarajatlar mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritilish usuli bo‘yicha bevosita va bilvosita xarajatlarga ajratiladi.

Bevosita xarajatlar mahsulotning aniq turi talabidan xosil bo‘ladi. Ularni dastlabki xujjatlar ma‘lumotlariga asoslanib sarflangan paytida mahsulotning

ma'lum turiga qo'shish mumkin. Bunga xom-ashyo materiallar, sarfi, ishlab chiqarish bilan band ishchilarning ish haqi, ya'ni dastlabki xarajatlar kiradi.

Bilvosita xarajatlar mahsulotning bir necha turi bo'yicha hosil bo'ladi. Odatda bilvosita xarajatga ishlab chiqarilgan mahsulotning ma'lum turiga bevosita ko'shib bo'lmaydigan ishlab chiqarishning ustama sarf-xarajatlari kiradi, shuning uchun xarajatlarning umumiy summasini maxsus stavkalar asosida mahsulotga taqsimlaydilar.

Izox: ishlab chiqarish ustama xarajatlari mahsulot bilan to'g'ridan-to'g'ri identifikatsiyalangan hollarda ular bevosita xarajatlarga qo'shiladi.

c) Ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi to'g'risida hisobot

Ishlab chiqarish xarajatlari (asosiy mehnat, asosiy materiallar sarfi va ishlab chiqarish ustama xarajatlari) yig'iladi hamda ishlab chiqarilgan mahsulot to'g'risida hisobot va sotilgan mahsulot tannarxi to'g'risida hisobot tarzida ko'rsatiladi. Bu hisobotlar alohida tuzilishi yoki ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot tannarxi to'g'risidagi hisobotga birlashtirilishi mumkin.

Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi – bu ma'lum davrda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotga tegishli ishlab chiqarish xarajatlaridir. Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini hisoblash uchun ma'lum davrda qilingan ishlab chiqarish xarajatlari tugallanmagan ishlab chiqarishning sof o'zgarishiga ko'paytirish yoki kamaytirish (tugallanmagan ishlab chiqarishning boshlang'ich qoldig'i minus tugallanmagan ishlab chiqarishning oxirgi qoldig'i).

Sotilgan mahsulotning tannarxi daromad bilan taqqoslanadigan xarajatlarni ko'rsatadi. Sotilgan mahsulotning tannarxini hisoblashda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi tayyor mahsulot zahiralaridagi sof o'zgarishga ko'payadi yoki kamayadi (tayyor mahsulotning boshlang'ich qoldig'i minus tayyor mahsulotning oxirgi qoldig'i).

Misol:

Kompaniya A

X yil noyabrda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi

Tugallanmagan ishlab chiqarish, boshlang'ich qoldiq	40000	sh.b.
Plyus: Asosiy materiallar	30000	sh.b.
Asosiy mehnat	50000	
Ishlab chiqarish ustama xarajatlari	<u>40000</u>	
Jami ketgan ishlab chiqarish xarajatlari	120000	
Jami ishlab chiqarish xarajatlari	160000	
Minus: tugallanmagan ishlab chiqarish, oxirgi qoldiq	<u>10000</u>	
Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi	<u>150000</u>	sh.b.

Kompaniya A

X yil noyabrda sotilgan mahsulot tannarxi

Tayyor mahsulot, boshlang'ich qoldiq	20000	sh.b.
--------------------------------------	-------	-------

plyus: Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi				<u>150000</u>
Sotish uchun mavjud mahsulot tannarxi				170000
Minus: tayyor mahsulot, oxirgi qoldiq				<u>50000</u>
Sotilgan mahsulot tannarxi				<u>120000</u> sh.b.

1. Asosiy materiallar	+	Asosiy mehnat	+	Ishlab chiqarish ustama xarajatlari	=	Jami ishlab chiqarish xarajatlari
30000	+	50000	+	40000	=	120000
2. Jami ishlab chiqarish xarajatlari	+	Tugallanmagan ishlab chiqarish, boshlang'ich qoldiq	-	Tugallanmagan ishlab chiqarish, oxirgi qoldiq	=	Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi
120000	+	40000	-	10000	=	150000
3. Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi	+	Tayyor mahsulot, boshlang'ich qoldiq	-	Tayyor mahsulot, oxirgi qoldiq	=	Sotilgan mahsulot tannarxi
150000	+	20000	-	50000	=	120000

Kalkulyatsiya – xarajatlarni guruhlash va bir birlik tayyor mahsulotni tannarxini aniqlash, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar hamda tayyorlangan mahsulotlarning qiymati.

Quyidagi uch asosiy maqsadga ko'ra xarajatlarni tasniflaymiz:

Ü ichki va tashqi hisobot xujjatlarini tayyorlash uchun sotilgan mahsulot va tovar-moddiy zaxiralari o'rtasidagi xarajatlarni taqsimlash;

Ü muhim qarorlar qabul qilishi uchun menedjerga to'liqva ishonchli ma'lumot taqdim etish;

Ü rejalashtirish va nazorat qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish.

Xarajatlarni quyidagi belgilari bo'yicha ham tasniflash mumkin:

- 1) tarkibiga ko'ra – xaqiqatdagi, rejadagi, bashoratdagi;
- 2) ishlab chiqarish hajmiga ko'ra – o'zgaruvchan, doimiy, va bashqalar;
- 3) toifasiga ko'ra – umumiy va o'rtacha;
- 4) boshqaruv funksiyasiga ko'ra – ishlab chiqarish, savdo, ma'muriy;
- 5) obyekt tannarxiga bog'liqligiga ko'ra – to'g'ri va egri;
- 6) xarajatning foyda aylanish jarayoniga ko'ra taqsimlash – mahsulot va davr.

Ishlab chiqarish xarajatlari (aynan mahsulotga qilingan xarajat) zaxiralarni, sotilgan mahsulot tannarxi va davr xarajatlarini baholash uchun ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlariga bo'lish kerak bo'ladi.

Ko'pgina mamlakatlarda tashqi foydalanuvchilarga moliyaviy hisobotlarni taqdim etishda, tovar-moddiy zaxiralarini baholash va tannarxni kalkulyatsiya qilish faqat ishlab chiqarish xarajatlariga olib boriladi.


Davlat tomonidan o'rnatilgan umumiy tartib bo'yicha, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlarni sotish xarajatlari mahsulot tannarxiga olib boriladi. Daromad va xarajatlarni guruhlashtirish esa korxonada faoliyati turiga ko'ra mustaqil buxgalteriya hisobiga olib boriladi.

Ishlab chiqarish jarayoni bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga bevosita taalluqli bo'lgan xarajatlar:

- bevosita moddiy xarajatlar;
- bevosita mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarish ustama xarajatlari.

Noishlab chiqarish xarajatlari (davr xarajatalari) – ishlab chiqarish jarayoni bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan xarajatlar, ya'ni:

- sotish xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajatlar.



Xarajatlarning masadiga ko'ra tasniflanishi

Ushbu xarajatlar ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan emas, balki vaqt bilan hamda xo'jalik faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, marketing xarajatlari mahsulot ishlab chiqarishdan oldin boshlanadi, reklama ham ishlab chiqarish davri bilan mos kelmaydi. Agar ishlab chiqarish to'xtab qolgan taqdirda ham, ma'muriyat xarajatlari ya'ni boshqaruv xodimlarining mehnat haqi xarajatlari va konselariya mollari xarajatlari ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga bevosita kiritilmaydi. Ushbu xarajatlarning jami o'zi paydo bo'lgan hisobga olinadi va hisobdan chiqariladi.

Mahsulotga yo‘naltirilgan xarajatlarga qilingan chiqimlarni ikki turga ajratish mumkin: to‘g‘ri hamda egri xarajatalar.

Mahsulotga qilingan to‘g‘ri xarajatlar (direct costs) iqtisodiy mazmun jihatdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahsulot birligiga borib qo‘shiladi. Aniq bir mahsulotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib borilmaydiga xarajatlar esa egri xarajatlar (indirect or overhead costs) bo‘lib, ular tanlangan ma‘lum bir taqsimlanish metodi bo‘yicha taqsimlanadi.

Misol tariqasida poyafzal ishlab chiqaruvchi korxonini ko‘raylik. Korxonada turli o‘lchamdagi va modeldagi poyafzallarni tayyorlaydi. Ularga sarflanadigan xomashyolar, rezinalar va boshqa material xarajatlari, shuningdek, ishchilarga to‘lanadigan mehnat haqi to‘lovi, aniq buyurtma qilingan model bo‘yicha sarflangan xarajatlarni kiritishimiz mumkin. Ishlab chiqarish davomida sarflangan elektr energiya xarajatlari, asosiy vositalar yoki ijaralarning amortizatsiyasini aniq bir birlik mahsulotga yo‘naltirish mumkin emas. Bu xarajatlar mahsulot birliklari o‘rtasida, tanlangan taqsimlanish bazasi bo‘yicha proporsion tarzda taqsimlanadi. Shuning uchun ular egri xarajatlar yoki ustama xarajatlari deb ataladi.


To‘g‘ri material xarajatlari xomashyo va asosiy materiallar bo‘lib, ular mahsulot asosini tashkil qiladi. Ishlab chiqarishda ular asosiy yoki yordamchi ishlab chiqarish materiallariga bo‘linadi. Masalan, poyafzal ishlab chiqarishda charim va rezina – asosiy material, kley, ip va boshqalar qo‘shimcha materiallardir. Agar yordamchi materiallar qimmatbaho yoki kamyoq xomashyolardan iborat bo‘lsa, ularni ham asosiy materiallar safiga kiritishimiz mumkin.

To‘g‘ri mehnat haqi xarajatlari – bu asosiy ishlab chiqarish bilan bo‘lgan ishchilarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarflangan xarajatlari bo‘lib, mahsulot tannarxiga borib qo‘shiladi. Yordamchi ishlab chiqarish ishchilari, mehanik-ustalar va boshqa ishchi-xodimlar ham mahsulot tannarxiga qo‘shiladi, lekin ular egri xarajatlar deb ataladi.

Egri ustama xarajatlariga asosiy vositalar amortizatsiyasi, asosiy fondlarni tashkil qilish, texnik xizmat va asbob-uskunalarini ta‘mirlash, komunal xarajatlar, ijara to‘lovi va boshqalar kiradi.


Buxgalteriya hisobi schotlari va hisobotlarida aks ettirishda sarflangan barcha to‘g‘ri xarajatlar “Tugallanmagan ishlab chiqarish” (“Asosiy ishlab chiqarish”) schotining debitiga, shu davrda bajarilgan ishlab chiqarish ustama xarajatlari esa “Umumishlab chiqarish xarajatlari” schoti debitiga birlashtiriladi va oy oxirida “Tugallanmagan ishlab chiqarish” schotining debitiga yopiladi.

Joriy to‘g‘ri material xarajatlari (“Material” schoti kreditidan), to‘g‘ri mehnatga haq to‘lash xarajatlari (“Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashlar” schoti kreditidan) va shu davrda bajarilgan boshqa ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar “Umumishlab chiqarish xarajatlari” schoti “Tugallanmagan ishlab chiqarish” schotining debitiga yopiladi. Davr boshida “Tugallanmagan ishlab chiqarish” schotida qoldiq bo‘lsa qo‘shiladi va jami ishlab chiqarilgan mahsulot xarajatlari topiladi.



Ishlab chiqarish tannarxini shakllantirish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish

Biz ishlab chiqarish xarajatlari hisobi metodini ko'rib chiqdik, lekin noishlab chiqarish xarajatlari (davr xarajatalari)ni keltirmadik. Ushbu xarajatlar davriy vaqt bilan bo'g'liq bo'lib, shu davrning foydasidan qoplanadi va ular moliyaviy natijalar hisobotiga olib boriladi.



Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlarini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish

Relevant va norelevant xarajatlar.

Relevant yoki bartaraf etiladigan xarajatlar qaror qabul qilinishida o‘zgaradigan xarajat va tushumlardir. Qabul qilinayotgan qaror ta’sir qilmaydigan xarajat va tushumlar norelevant xarajat va tushumlardir.

Misol. Sizga qishloq xo‘jaligi uchun “Ammiak” mineral o‘g‘itlari zarur. Uni ikki “Farg‘onaazot” AJ hamda “Navoiyazot” AJ tonnasini 171500 sh.b.dan taklif etmoqda. Mahsulotni yetkazib berish va boshqa xarajatlar “Farg‘onaazot” AJ 23000 sh.b. va 7000 sh.b., “Navoiyazot” AJ esa 28000sh.b. va 5000 sh.b.ni tashkil etmoqda. Siz qaysi bir korxonadan Ammiak mahsulotini sotib olish uchun qaror qabul qilishingiz zarur.

Relevant va norelevant xarajatlar.

	“Farg‘onaazot”AJ	“Navoiyazot” AJ	
Ammiak qiymati	171500	171500	Norelevant
Yetkazib berish	23500	27500	Relevant
Boshqa xizmatlar	7000	5000	Relevant
Jami xarajatlar	202000	204000	

Qaytmaydigan xarajatlar.

Korxonada o‘z faoliyati davomida shunday xarajatlar qiladiki, kelgusida biron bir natijaga erishish uchun hozirgi davrda ushbu qiymatdagi xarajatni bajarilishini talab qiladi. Bunday sarflar qaytmaydigan xarajatlar bo‘lib, ular sarflangan resurslar uchun o‘z qiymatini yo‘qotadi va hech qanday qaror bilan uni o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydi.

Misol. “Farg‘onaazot” AJ o‘z aktivlari hisobida eskirgan tugatish qiymati 80000 sh.b. bo‘lgan uskuna mavjud. Hisobdan chiqarish yoki likvidatsiya qilish xarajatlari 80000 sh.b.ni tashkil qiladi. Qaytmaydigan xarajatni nol holatida hisobga olish uchun qaror qabul qilish kerak.

Korxonada kelgusi faoliyatida ushbu uskunadan foydalanmaydi va uni xaridor sotib olish uchun 50000 sh.b.ni taklif qilmoqda. Korxonada ushbu kelishuvni qabul qilishi kerakmi? Bu holatda korxonada 30000 sh.b. zarar ko‘rishi mumkin, lekin agar menejer 80000 sh.b.ni qaytmaydigan xarajat sifatida hisobga olsa, uskuna sotishda 50000 sh.b. foyda olishi mumkin. Demak, uskunaning tugatish qiymatini xarajatlarga olib borish korxonada uchun ma’qul hisoblanadi.

Muqobil xarajatlar.

Muqobil xarajatlar – bu faoydalanilmagan imkoniyatlarga qilingan sarf xarajatlardir. Ular bir harakatni tanlash boshqa harakatning vujudga kelishini istisno qiladigan paytdagi qo‘ldan chiqqan foydani bildiradi. Masalan, sport sumkasi ishlab chiqaradigan firma jomodan tayyorlashga buyurtma oldi. Agar korxonada bu buyurtma qabul qilsa, sport sumkalarini sotadigan magazinlarning butun bir tarmog‘i uchun odatdagi miqdorda sport sumkalari ishlab chiqarish imkoniyatlari (mashina va ish vaqti) yetishmaydi. Bu buyurtmani qabul qilishning muqobil xarajatlari sport sumkalarini ishlab chiqarish imkoniyati qolmagani

sababli qo‘ldan chiqarilgan foydadir. Bu qo‘ldan chiqqan foydani sport sumkalarini sotishdan olinadigan potensial daromaddan ularni ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlari chiqarib yashlash yo‘li bilan hisoblanishi mumkin. Muqobil xarajatlar har bir odam qabul qiladigan qarorida ham mavjud bo‘ladi. Muqobil xarajatlarga talabani universitetda o‘qitish uchun sarflangan xarajatlar ish haqiga qo‘shiladi. Lekin talaba bu vaqtda islaamagan va ish haqi hisoblanmagan.

Muqobil xarajatlar harakatni tanlash chog‘ida (qaror qabul qilishda) harakatlarning boshqa variantlaridan voz kechish natijasida yo‘qotilgan yoki qurbon qilingan potensial foyda sifatida aniqlanadi.

1.2. Xarajatlarni baholash va xarajatlar dinamikasi

Xarajatlarni baholash uchun qo‘llaniladigan turli usullarni ko‘rib chiqishdan oldin bu bobda biz foydalanadigan ba‘zi atamalarni bilib olishimiz lozim.

Regressiya tenglamasi tobe o‘zgaruvchan miqdor (bu o‘rinda xarajat) va erkin o‘zgaruvchan xarajatning (ya‘ni faollik ko‘rsatkichi yoki chiqimlar omilining), bitta yoki ko‘p soni o‘rtasidagi kutilayotgan tobelikni ko‘rsatadiki, ular oldingi kuzatuvlarga asoslanadi. Tenglama faqat bitta erkin o‘zgaruvchi xarajatni o‘z ichiga olsa **oddiy regressiya** deyiladi va bunday holatda regressiya tenglamasini to‘g‘ri chiziqli grafik tarzida ko‘rsatish mumkin. Agar tenglama va undan ko‘proq erkin o‘zgaruvchi xarajatlarni o‘z ichiga olsa, gap **ko‘plik regressiyasi** to‘g‘risida boradi. Agar bitta erkin o‘zgaruvchi va tobelik to‘g‘ri chiziqli bo‘lsa, regressiya chizig‘ini to‘g‘ri chiziqli tenglama shaklida ifodalash mumkin:

$$y = a + bx.$$

Agar biz **tobe o‘zgaruvchi** (xarajatlar) va **erkin o‘zgaruvchi** (faoliyat turi), o‘rtasidagi aloqani ifodalamoqchi bo‘lsak u holda:

y — x faollik darajasida hisobot davridagi umumiy xarajatlar;

a — hisobot davridagi umumiy doimiy chiqimlar;

b — mahsulot turi birligiga o‘zgaruvchi o‘rtacha chiqimlar;

x — faoliyat turi hajmi yoki hisobot davrida chiqimlar omillari.

Agar misol uchun olganda, aniq bir davrda doimiy chiqimlar 5000 evroga teng bo‘lsa, o‘zgaruvchi o‘rtacha chiqimlar mahsulot birligida 1 evroni tashkil qilsa, asosiy xodimlarning mehnat soati esa chiqimlar omili bo‘lsa, u holda

Umumiy xarajatlar = 5000 + 1 x asosiy xodimlar mehnat soati (x), yoki

$$y = a + bx, \text{ shu sababli } y = 5000 + 1x.$$

Tobe o‘zgaruvchi yoki bir necha erkin o‘zgaruvchi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi regressiya tenglamasiga nisbatan maqsadli vazifa atamasi ham qo‘llaniladi. Xarajatlarni baholash umumiy xarajatlar bilan bu xarajatlarni talab qiluvchi potentsial omillar o‘rtasidagi oldingi tobelikni o‘lchashdan boshlanadi. Bunday holatda maqsad bo‘lajak sarf-xarajatlarni taxmin qilish uchun yordamchi vosita sifatida oldingi xarajatlarning o‘zgarish turidan foydalanishdir. Lekin kelgusida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaziyatning har qanday o‘zgarishi oldingi ma‘lumotlarga mumkin bo‘lgan shu o‘zgarishlarni hisobga olib, tuzatish kiritishini talab qiladi.

Ayni paytda o‘tgan davr ma‘lumotlari asosida chiqarilgan xarajatlar

vazifalari to'satdan to'xtab qolishi mumkin bo'lgan soxta korrelyatsiya asosida aniqlanishi xavfi mavjud. O'zgaruvchi birliklar iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lsa, kuchli korrelyatsiya (o'zaro bog'liqlik) bo'lishi mumkin. Shu sababli xarajatlar vazifasini faqat ilgari kuzatilgan statistik tobelik asosida aniqlamaslik kerak. Har qanday holatda ham kuzatiladigan statistik tobelikning tabiati oqilona va iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak. Agar bunday sharoit bo'lmasa, turlicha ma'lumotlar asosida natijalarni prognozlash uchun xarajatlar vazifasidan foydalanilganda baholanayotgan karamlik (tobelik) takrorlanishiga ishonib bo'lmaydi.

Xarajatlarni baholash usullari

- 1) muxandislik usullari;
- 2) buxgalteriya usullarini tekshirish;
- 3) grafik usul yoki tarqalish diagrammasi;
- 4) Eng ko'p va eng kam miqdor usuli.

Bu yondashuvlar xarajatlar vazifalarini aniqlashning aniqlik darajasi bo'yicha va ularni amalga oshirish xarajatlari bo'yicha farq qiladi. Bu usullar bir-birini istesno qilmaydi, xarajatlarning turli toifalari uchun turli usullar qo'llanilishi mumkin.

Muxandislik usullari

Xarajatlar o'zgarishini tahlil qilishning muxandislik usullari keltirilayotgan resurslar bilan chiqayotgan mahsulot o'rtasidagi texnologik bog'liqlikni muhandislik tahlilidan foydalanishga asoslanadi. Masalan, ular qatoriga texnik tahlil tusidagi tadqiqot usullari, ishni tanlash va vaqt hamda harakatni o'rganish kiradi. Bu yondashuv xarajatlar bilan chiqimlar o'rtasidagi omillarni jismoniy bog'liqlik (tobelik) mavjud bo'lganda ma'qul hisoblanadi. Texnik tahlilni bajarish protsedurasi faoliyat turi uchun talab qilinadigan asosiy jismoniy xarakteristikani (tavsifni) to'g'ridan-to'g'ri kuzatishga va so'ngra olingan natijalarni chiqimlarning kutilayotgan qiymatiga aylantirishga asoslanadi. Texnik talablarni biladigan muxandislar talab qilinadigan materiallarning miqdorini va xodimlarning mehnati qancha davom etishini, turli operatsiyalar uchun uskunalarning ishini baholaydilar, shundan so'ng qiymat bahosini resurslar narxi va stavkalarini olish uchun jismoniy ko'rsatkichlar bilan bog'lanadi. Muxandislik usuli takrorlanuvchi jarayonlar xarajatlarini aniqlash uchun foydalidir, chunki bu jarayonda keltiriladigan resurslar bilan mahsulot chiqishi o'rtasidagi bog'liqlik ma'lumdir. Masalan, bu usul asosiy ishlab chiqarish materiallariga, xodimlarning mehnatiga, mashina-uskunalarning ishlash vaqtiga tegishli xarajatlarni baholash uchun qo'llaniladi, chunki ularni bevosita kuzatib turish va o'lchash mumkin.

Schetlarni tekshirish

Schetlarni tekshirish usuli bo'linma menejeri va buxgalter schetlardagi aniq bir davrga oid xarajatlarning har bir moddasini tekshirishlarini, so'ngra xarajatlarning har bir moddasini doimiy o'zgaruvchi yoki yarimo'zgaruvchi chiqimlar toifalari bo'yicha turkumlashni talab qiladi. O'zgaruvchi chiqimlar turkumiga kiruvchi moddalar uchun mahsulot birligiga xarajatlarning yagona o'rtacha ko'rsatkichi olinadi. Doimiy turkumidagi moddalar uchun esa boshqa

yagona ko'rsatkichdan – hisobot davridagi umumiy xarajatlar ko'rsatkichidan foydalaniladi. Yarimo'zgaruvchi chiqimlar turkumiga kiruvchi moddalar uchun bo'linma menejeri va buxgalter xarajatlarning ular fikriga ko'ra bunday xarajatlarning o'zgarishini yaqqol ko'rsatadigan xarajat vazifasini (funktsiyasini) tanlaydi.

Masalan, kompaniyada xarajatlar bo'yicha quyidagi axborot mavjud, u chiqimlar markazining 10 000 birlik miqdorida mahsulot chiqqan so'nggi oyi schetidan olingan.

Xarajat moddalari	Summa
Asosiy ishlab chiqarish materiallari	100000
Asosiy xodimlar mehnati	140000
Yordamchi xodimlar mehnati	30000
Amortizatsiya	15000
Ta'mirlash va texnik xizmat	10000
	295000

Bo'linma menejeri va buxgalter xarajatlarning har bir moddasini o'rganadi va ularni o'zgaruvchi va doimiy xarajatlar tarkiblari bo'yicha tahlil qiladi. Bu tahlil quyidagicha bo'lishi mumkin:

Xarajatlar moddalari	O'zgaruvchi chiqimlar, mahsulot birligiga, evro	Umumiy doimiy chiqimlar
Asosiy ishlab chiqarish materiallari	10	
Asosiy xodimlar mehnati	14	
Yordamchi xodimlar mehnati		30000
Amortizatsiya		15000
Ta'mirlash va texnik xizmat	0,5	5000
JAMI:	24,5	50000

E'tibor bering, ta'mirlash va texnik xizmatlar yarimo'zgaruvchi xarajatlar toifasiga turkumlanadi va mahsulot birligiga 0,50 sh.b.ni tashkil qiluvchi o'zgaruvchi xarajatga plyus 5000 sh.b. doimiy xarajatga qo'shiladi. Umumiy xarajatlarni hisoblashni tekshirish 10.000 sh.b. mahsulot chiqqanda mahsulot birligiga o'zgaruvchi xarajatlarni baholash umumiy o'zgaruvchi xarajatlar 24,50 sh.b. bo'lishini ko'rsatadi. Demak o'zgaruvchi umumiy xarajatlar 245000 sh.b.ni tashkil qiladi. Unga 50000 sh.b. doimiy xarajat qo'shilsa jami xarajatlar 295 000 sh.b. bo'ladi. Demak bu erda xarajatlar funktsiyasi bunday ko'rinishda bo'ladi:

$$y = 50\,000 + 24,50 x$$

Xarajatlarning bu funktsiyasidan so'ngra ishlab chiqarishning boshqa sharoitlarida xarajatlarning har bir alohida moddasi bo'yicha xarajatlarni baholash uchun foydalaniladi.


Keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, o'zgaruvchi va doimiy xarajatlar bo'yicha chiqimlarni tahlil qilish etarlicha sub'ektivdir. Buning ustiga bunday tahlilda eng so'nggi ma'lumotlar qo'llaniladiki, ular xarajatlar o'zgarishining oldingi yoki keyingi tuslariga nisbatan tipik bo'lmasligi mumkin. Shu sababli mumkin bo'lgan joylarda xarajatlarni baholash turkum kuzatishlarga asoslanishi

kerak. Shunday usulga asoslanib xarajatlarni baholash yakka va ko‘pincha shartli muloxazalarga asoslanadi. Shu sababli bunday baholar etarlicha aniq bo‘lmasligi mumkin, ayniqsa ularga asoslanib katta mablag‘ bilan bog‘liq qaror qabul qilish uchun aniq emas. Demak bu usulda o‘lchov xatolari bo‘lishi mumkin.

Grafik usul yoki yoyilish diagrammasi. Bu usul faoliyatning har bir turiga umumiy xarajatlar grafikasini chizib borishni o‘z ichiga oladi. Umumiy xarajatlar - tik o‘q (Y) bo‘yicha, ishlab chiqarish hajmi - ko‘ndalang o‘q (X) bo‘yicha o‘tkaziladi, tarqalgan nuqtalar orqali to‘g‘ri chiziq tortiladi.

Masalan, oldingi o‘nta to‘rt haftalik hisobot davri uchun quyida keltirilgan texnik xizmat ko‘rsatishga umumiy xarajatlarga doir ma‘lumotlardan hamda mashinalarning ish vaqtidan foydalanib diagramma tuzamiz.

Davr	Uskunalarining ishlagan vaqti	Texnik xizmat ko‘rsatishga xarajatlar
1	400	960
2	240	880
3	80	480
4	400	1200
5	320	800
6	240	640
7	160	560
8	480	1200
9	320	880
10	160	440



Ishlab chiqarishning turli darajasida texnik xizmat ko‘rsatishga xarajatlarning grafik ifodasi

To'g'ri chiziq tik o'qni kesib o'tadigan nuqtasi (£ 240) doimiy chiqimlarga tengdir, ya'ni $y = a + bx$ – bu a ning qismi regressiya formulasida bir martalik o'zgaruvchi chiqim b to'g'ri chiziq nuqtalari o'rtasidagi og'ishlarni tahlil qilish va quyidagi hisob bilan aniqlanadi:

$$b = (\text{xarajatlardagi farq}) / (\text{Ishlab chiqar. hajmidagi tafovut}) = (720 - 560) / (240 - 160) = 2 \text{ sh.b.}$$

Bu hisob ishlab chiqarish darajasining 160 dan 240 gacha darajasini birlashtiruvchi to'g'ri chiziqda xarajatlarda bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni qiyoslash asosida amalga oshiriladi. Buning natijasida regressiya formulasini olamiz:

$$y = 240 + 2x.$$

Agar X qimmatini 100 deb hisoblasak, tenglama bunday tus oladi

$$y = £240 + (2 \cdot 100) = 440 \text{ sh.b.}$$

Grafik usuldan foydalanish oson va u korrelyatsiya yo'q bo'lgan sharoitda yoki kuzatiladigan miqdorlar betartib o'zgarganda xarajatlarni foydali vizual tasavvur qilishni ta'minlaydi. Biroq bu usulning kamchiligi bor, bu kamchilikning to'g'ri chiziq qaerdan o'tishini aniqlashning sub'ektivligi bilan bog'liq, ya'ni turli kishilar turlicha og'ishdagi chiziq o'tkazishadi. Natijada xarajatlar bahosi ham farq qiladi. Bu qiyinchilikni engish uchun chiziqni sub'ektiv emas, balki matematik usullar asosida, masalan, eng kam kvadratlar usulidan foydalanib o'tkazish afzaldir.

Eng ko'p va eng kam qiymat usuli

Eng ko'p va eng kam qiymat usuli eng yuqori va eng kam faollik davrini tanlash va xarajatlardagi o'zgarishlarni shu ikki darajaga muvofiq ravishda qiyoslashdan iborat. Bunday yondashuv quyidagi misolda ko'rsatilgan.

Quyida mahsulot chiqish va texnik xizmatlar ko'rsatishga oldingi 12 oydagi oylik hisob ma'lumotlari keltirilgan. Bu ma'lumotlar ishlab chiqarishning eng past va eng yuqori darajasida olingan.

	Ishlab chiqarish hajmi, birlik	Texnik xizmatlar ko'rsatishga sarflar
Eng kam faollik darajasi	5000	22000
Eng yuqori faollik darajasi	10000	32000

Mahsulot birligiga o'zgaruvchi xarajatlar quyidagicha hisoblanadi:

$$b = (\text{Xarajatlardagi farq}) / (\text{Ishlab chiqarish hajmidagi farq}) = (32000 - 22000) / (10000 - 5000) = 2 \text{ sh.b.}$$

Doimiy chiqimlar ishlab chiqarishning har qanday darajasida (mahsulot birligida o'zgaruvchi xarajatlar doimiy qoladi, deb faraz qilinadi) umumiy xarajatlardan o'zgaruvchi xarajatlar ulushini chiqarib tashlash yo'li bilan baholanishi mumkin. Chunonchi, ishlab chiqarish darajasi 5000 birlikni tashkil etganla umumiy xarajatlar 22 000 sh.b.ni tashkil qiladi, umumiy o'zgaruvchi chiqimlar esa — 10000 sh.b. (bitta sh.b.ga 2 tadan sh.b. - 5000) farqi £12 000 deb taxmin qilish mumkin. Demak bu doimiy xarajatlarga to'g'ri keladi. Bu holda xarajatlar funktsiyasi bunday ko'rinishda bo'ladi: $y = 12\ 000 + 2x$.

Eng ko‘p va eng kam qiymat usuli xarajatlar bo‘yicha barcha kuzatishlarni hisobga olmaydi, ya‘ni ishlab chiqarishning eng ko‘p va eng kam darajasidagi kuzatishlarnigina hisobga oladi. Afsuski, faollikning eng yuqori darajasida xarajatlarni kuzatish hamisha ham me‘yoriy operatsiya sharoitini aks ettirmaydi va shu sababli tipik vaziyatlarni emas, kam bo‘ladigan vaziyatlarni ko‘rsatishi mumkin.

Masala 1. Quyidagi ma‘lumotlar bo‘yicha 1000 birlik, 1500 birlikdagi mahsulot hajmi uchun jami xarajatlar miqdorini hisoblash

Xajmi, b. Xarajat modda, \$	300	400	500	Xarajat tenglamasi	1000	1500
1. Material xarajatlari	1500	2200	2500	$Y = 5x$	5000	7500
2. Mehnat xarajatlari	2250	3000	3750	$Y = 7,5x$	7500	11250
3. Ishlab chiqarish ustama xarajatlari	1500	1700	2100	$Y = 600 + 3x$	3600	5100
4. Sotish xarajatlari	1200	1250	1400	$Y = 900 + 1x$	1900	2400
5. Ma‘muriy xarajatlar	5500	5500	5500	$Y = 5500$	5500	5500
6. Boshqa operatsion xarajatlar	7000	7000	7000	$Y = 7000$	7000	7000
JAMI				$Y = 14000 + 16,5x$	30500	38750

Materiallar: $y = bx$; $b = (1500 : 300 = 5, 2500 : 500 = 5)$. $Y = 5x$.

Mehnat: $y = bx$; $b = (2250 : 300 = 7,5, 3750 : 500 = 7,5)$. $Y = 7,5x$.

IUX: $y = a + bx$.

$b = ; a = y - bx = 1500 - 3 \cdot 300 = 600$. $Y = 600 + 3x$.

Sotish xarajatlari: $y = a + bx$.

$b = ; a = y - bx = 1200 - 1 \cdot 300 = 900$. $Y = 900 + 1x$.

Ma‘muriy xarajatlar: $y = a$. $Y = 5500$.

Boshqa operatsion xarajatlar: $y = a$. $Y = 7000$.

1.3. Ustama xarajatlar hisobi

Ishlab chiqarish ustama xarajatlari (IUX) - bu ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan, lekin odatda tayyor mahsulotning aniq bir turiga bevosita tegishli deb bo‘lmaydigan xilma-xil sarflarning yig‘indisidir.

Ishlab chiqarish ustama xarajatlari quyidagi sabablarga ko‘ra mahsulotga o‘tkaziladi;

- **Mahsulot birligidagi to‘la xarajatlarni aniqlash.**

Agar narxning shakllanishi sarf-xarajatlarga asoslangan bo‘lsa, u holda ustama xarajatlarni hisobga olmaslik narx belgilashda xatolarga olib kelishi mumkin.

- **Zahiralar tannarxini aniqlash.**

Moliyaviy hisobotlarning milliy standartiga muvofiq «zahiralar tannarxi zahiralarini sotib olish, qayta ishlash xarajatlarini hamda joriy holatiga va joyiga

keltirish maqsadida qilingan barcha xarajatlarni o‘z ichiga olishi kerak» ishlab chiqarish ustama xarajatlari qayta ishlash bilan bog‘liq xarajatlarga qo‘shiladi va shu sababli zahiralarning tannarxiga kiritilishi lozim.

Ustama xarajatlarni taqsimlash stavkasi

1) IUX taqsimlash bazasi

Ustama xarajatlarni taqsimlash kompaniyada ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlarga yoki kompaniya o‘z mijozlariga ko‘rsatadigan xizmatlar uchun umumiy bazani tanlash orqali amalga oshiriladi.

Taqsimlash bazasi sifatida ishlab chiqarish bo‘linmalarining ustama xarajatlariga to‘laroq mos keladigan omil tanlanishi lozim. Bazaga ko‘pincha quyidagilar olinadi:

- Ishlab chiqarishda ishlagan ishchilarni ish vaqti
- Uskunalarni ishlagan vaqti
- Mehnat sarflari
- Ishlab chiqarilgan mahsulot birligi

$$\text{IUXni taqsimlash stavkasi} = \frac{\text{Ustama sarflar}}{\text{Bazaning qiymati}}$$

2) Ustama xarajatlarni taqsimlashning yagona (umumzavod) va alohida (tsex) stavkalari

IUXni taqsimlashning yagona stavkasidan umuman korxonada uchun foydalaniladi. Masalan, ma‘lum davrda ustama sarflar 100 000 sh.b.ni tashkil qilgan, 50 000 soat ish qilingan bo‘lsa, u holda ustama sarflarni taqsimlash stavkasi $100000 \text{ sh.b.} / 50 000 \text{ mehnat soati} = 2 \text{ sh.b. mehnat soatni tashkil qiladi}$. Ustama sarflar shu stavka bo‘yicha mahsulotga tegishlidir. Masalan, mahsulotni tayyorlash 18 soat asosiy mehnatni talab qiladi, bunda ustama xarajatlarning $36 \text{ sh.b. (18 soat} \times 2 \text{ sh.b./mehnat-soat)}$ mahsulotga tegishli bo‘ladi.

Agar ishlab chiqarish bir necha bo‘linmada amalga oshirilgan bo‘lsa, u holda IUXni taqsimlashning alohida stavkalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

	A Bo‘linma	B bo‘linma	V bo‘linma	Jami
Ustama xarajatlar, sh.b.	10000	60000	30000	100000
Mehnat - soati	25000	15000	10000	50000
IUX stavkasi mehnat-soatga	0,4	4	3	2

Masalan, mahsulot ishlab chiqarish uchun asosiy bo‘linmada 10 soat, B bo‘linmasida 5 soat va V bo‘linmasida 3 soat asosiy mehnat talab qilindi. Bu holda ustama xarajatlarning

33 sh.b. miqdori mahsulotga o‘tkaziladi

$(10 \text{ soat} \times 0,4 \text{ sh.b./mehnat-soati} + 5 \text{ soat} \times 4 \text{ sh.b./mehnat-soati} + 3 \text{ soat.} \times 3 \text{ sh.b./mehnat-soati})$

3) Ustama xarajatlarni taqsimlashning reja stavkasidan foydalanish

Ustama xarajatlarni amaldagi miqdoriga asoslanib taqsimlash stavkasini hisoblash ko‘pincha bir qancha muammoni keltirib chiqaradi:

- buyurtmalarining tannarxini hisoblash hisobot davri tugaguncha kechiktirilishi lozim, chunki ustama xarajatlar va ishlab chiqarish hajmini bundan

oldin hisoblab bo'lmaydi;

- ustama xarajatlar ham, ishlab chiqarish faoliyati ham oy sayin o'zgaradi va ustama xarajatlarni taqsimlash stavkalarining ko'p darajada o'zgarishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish ustama xarajatlarini taqsimlashning reja stavkasini hisoblash quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

1. Ustama xarajatlar prognoz miqdorini hisoblash
2. Ustama xarajatlarni taqsimlash bazasini tanlash
3. Kelgusi davr uchun prognoz qilingan ustama xarajatlar miqdorini bazaning prognoz miqdoriga ajratish
4. Ushbu stavkadan foydalanib, ustama xarajatlarni mahsulotning har bir turiga o'tkazish.

Reja stavkasini hisoblash uchun foydalaniladigan prognoz ma'lumotlari amalda haqiqiy ma'lumotlarga mos kelmaydi. Bunday holatda mahsulot tannarxiga o'tkazilgan ustama xarajatlar haqiqatda qilingan ustama xarajatlar summasidan farq qiladi, bu esa **ustama xarajatlarning to'la taqsimlanmasligiga olib keladi** yoki **ustama xarajatlarning ortiqcha taqsimlanishiga sabab bo'ladi**:

To'la taqsimlanmagan ustama xarajatlarni yoki ortiqchasi bilan taqsimlangan ustama xarajatlarni ikki usul bilan hisobdan chiqarish mumkin:

1. Tuzatish kiritilgan (korrektirovka) summasi "Realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi" schetiga o'tkazish orqali.

2. Tuzatish kiritilgan (korrektirovka) summani uchta "Tugallanmagan ishlab chiqarish", "Tayyor mahsulot" va "Sotilgan mahsulot tannarxi" schetlari qoldig'iga mutanosib taqsimlash orqali.

USTAMA XARAJATLAR

Hisoblangan ustama xarajatlar	→ Ma'muriyatning kutishi bo'yicha ustama xarajatlarning hisoblangan summasi davr boshlanishidan oldin ustama xarajatlarni taqsimlashning belgilangan (rejadagi) stavkasini hisoblash uchun qilinadi	
Haqiqatdagi ustama xarajatlar	→ Davr ichida vujudga kelgan haqiqiy qilingan ustama xarajatlar (kommunal xizmatlar, ijara to'lovlari va boshqalar).	Shu summalar o'rtasidagi farq ustama xarajatlar bo'yicha og'ishdan iborat
Ustama xarajatlarni taqsimlash	→ Tugallanmagan ishlab chiqarishga qo'shiladigan (taqsimlanadigan) ustama xarajatlar summasi. Bu summa davr davomidagi faoliyat xajmini ustama xarajatlarni taqsimlashni ko'zda tutilgan stavkasiga taqsimlash yo'li bilan hisoblanadi.	

Kompaniya ustama xarajatlarni taqsimlashning 3 sh.b./mash-soat.

(300 000 sh.b./100 000 mash-soat.)ga teng reja stavkasidan foydalanadi. Haqiqatda ishlagan mashina-soat 110 000ni tashkil qildi. Kompaniya bir yilda

amalda 320 000 sh.b. miqdorida ustama sarf qildi, ustama xarajatlar taqsimi 330 000 sh.b.ni tashkil qildi. (haqiqiy mashina-soat x reja stavkasiga).

Haqiqiy IUX	Ustama xarajatlar		Sotilgan mahsulot tannarxi	
	320 000	330 000	IUXni taqsimlash	10 000
10 000	qol. 10 000	IUX ortiqchasiga o'tkazilgan		

4) Ustama xarajatlarni taqsimlashning to'g'ri (bevosita) usuli

Korxonada mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish bo'linmalaridan tashqari ishlab chiqarish bo'linmalariga va bir-biriga xizmat qiladigan bo'linmalar mavjud.

Xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalarining xarajatlarini taqsimlashning eng ko'p tarqalgan usuli **to'g'ri** (bevosita) taqsimlash usulidir. Bu usulga muvofiq xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalarining xarajatlari bevosita ishlab chiqarish bo'linmalariga o'tkaziladi. Bunda bir bo'linmaning ikkinchisiga qilgan xizmati hisobga olinmaydi, barcha xizmatlar asosiy (ishlab chiqarish) tsexlariga o'tkazilib, hisobdan chiqariladi.

Bo'linmalar

Xizmat ko'rsatuvchi	Ishlab chiqarish
Texnik xizmat	Mashina tsexi
Moddiy-texnik ta'minot	Yig'uv tsexi

Xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar xarajatlarini taqsimlash uchun axborot

	Ishlab chiqarish bo'linmalari		Xizmat ko'rsatish bo'linmalari		Jami
	Mashina tsexi	Yig'uv tsexi	Texnik xizmat ko'rsatish	Moddiy texnik ta'minot	
IUX smetasi	400000	200000	600000	116000	1316000
<i>Ko'rsatilgan xizmatlar:</i>					
Texnik xizmat Rejadagi mehnat -soat	24000	40000	-	16000	80000
Moddiy texnik xizmat rejadagi mehnat- soati	16000	2000	2000	-	20000

Xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar xarajatlarini to'g'ri taqsimlash usuli

To'g'ri taqsimlash usuli	Ishlab chiqarish bo'linmalari		Xizmat ko'rsatish bo'linmalari		Jami
	Mashina tsexi	Yig'uv tsexi	Texnik xizmat	Moddiy-texnik	

			ko'rsatish	ta'minot	
IUX smetasi					
<i>Ko'rsatilgan xizmatlar</i>					
Texnik xizmatning taqsimlash bazasi, Reja mehnat-soat:					
Texnik xizmat bo'limi xizmatini qayta taqsimlash					
Moddiy texnik ta'minot qayta taqsimlash bazasi					
Moddiy texnik ta'minot xizmatini qayta taqsimlash					
Reja xarajatlar jami					

Ishlab chiqarish ustama xarajatlarini taqsimlashga misol

Uchta ishlab chiqarish bo'linmasi (ikkita stanok tsexi va bitta yig'uv tsexi), ikkita xizmat ko'rsatuvchi bo'linmasi (ombor va texnik xizmat ko'rsatish bo'limi) bo'lgan korxonaga bir yilda umumzavod ustama xarajatlari.

<i>Yordamchi ishlab chiqarish ishchilari ish haqi va nazorat:</i>	
Stanok tsexi X	100000
Stanok tsexi U	99500
Yig'uv tsexi	92500
Ombor	10000
Texnik xizmat ko'rsatish bo'limi	60000
JAMI:	362000
<i>Yordamchi materiallarga xarajatlar:</i>	
Stanok tsexi X	100000
Stanok tsexi U	100000
Yig'uv tsexi	40000
Ombor	4000
Texnik xizmat ko'rsatish bo'limi	9000
JAMI:	253000
<i>Yoritish va isitish</i>	50000
<i>Ijara haqi va to'lovlar</i>	100000
<i>Sug'urta va uskuna</i>	15000
<i>Uskunalar amortizatsiyasi</i>	150000
<i>Bino sug'urtasi</i>	25000
<i>Ishlab chiqarish boshqaruv xodimlari ish haqi</i>	80000
JAMI:	1035000

Shu bilan birga yana quyidagi axborotlar mavjud:

	Uskunalar qiymati	Ulu-shi	Maydoni	Ulu-shi	Band ishchilar soni	Ulu-shi	Asosiy xodimlar-ning mehnat vaqti	Stanok-larning ish vaqti
Stanok tsexi X	800000		10000		30		200000	100000
Stanok tsexi U	500000		5000		20		150000	50000
Yig'uv tsexi	100000		15000		30		200000	
Ombor	50000		15000		10			
Texnik xizmat bo'limi	50000		5000		10			
JAMI	1500000		50000		100			

Texnik xizmat ko'rsatish bo'limi hisob yozuvlaridan ma'lum bo'lishicha boshqa bo'linmalarda o'tkazilgan texnik xizmat ko'rsatish ishlari vaqti quyidagicha, soat

Bo'linmalar	Vaqt, soat	Ulushi
Stanok tsexi X	12000	
Stanok tsexi U	8000	
Yig'uv tsexi	5000	
Ombor	1000	
JAMI:	26000	

Ishlab chiqarish tsexlariga berilgan materiallar (asosiy va yordamchi)ning qiymati quyidagicha, \$:

Bo'linmalar	Summasi, \$	Ulushi
Stanok tsexi X	400000	
Stanok tsexi U	300000	
Yig'uv tsexi	100000	
Texnik xizmat bo'limi	100000	
JAMI:	900000	

Misolda keltirilgan ustama xarajatlar moddalarini ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar o'rtasida taqsimlash uchun ustama xarajatlar tahlili vedomostini tayyorlash zarur.

Aytaylik, korxonada mahsulot ishlab chiqarmoqda, ishlab chiqarilayotgan bu mahsulotni X stanok tsexida ishlov beriladi, so'ngra U stanok tsexiga o'tkaziladi, oxirgi bosqichda yig'uv tsexida yig'iladi, shundan so'ng tayyor mahsulotlar omboriga beriladi.

Bo'linmalar	Mahsulot birligiga ishlov berishga ketgan
-------------	---

	vaqt, soat
Stanok tsexi X	3 st/s
Stanok tsexi U	2 st/s
Yig'uv tsexi	1 meh/s

1.4. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning usullari

Xo'jalik yurituvchi sub'ektda va uning ayrim olingan bo'limlarida ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini aks ettiradigan ko'rsatkichlarning umumiy tizimida tannarx ko'rsatkichi asosiy urin tutadi. Chunki tannarxning tarkibi uni tashkil kiladigan tegishli xarajatlarning yigindisidan iborat.

Korxonalarda xarajatlarni boshqarish eng qiyin jarayonlardan biri hisoblanadi. Chunki u ahamiyati bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyatini boshqarish majmuasi deb tushuniladi.

Mahsulot ishlab chiqarish uni tayyorlash jarayonida sarflangan xom ashyo, materiallar, ishlab chiqarish vositalari, ishchilarga to'langan ish haqi, shuningdek mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar uchun to'lov va xarajatlarning pul orqali ifodalanishidir.

Tannarx korxonada iqtisodiy-xo'jalik faoliyatining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi, chunki u mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmat tannarxi qancha past bo'lsa, ya'ni buning uchun qancha kam xarajat qilingan bo'lsa, mahsulot yoki xizmatning qiymati va binobarin uning bahosi shuncha past bo'ladi. Baho qancha past bo'lsa, shu tovar yoki xizmatga bo'lgan talab shuncha yuqori bo'lishi tabiiy.

Mahsulotning tannarxi uning bahosini aniqlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sarflangan xom ashyo, materiallarning bahosi yaratilgan mahsulotning tannarxiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mahsulot tannarxi ko'rsatkichi ishlab chiqarishni rejalashtirish, uning samaradorligini tahlil qilish va xarajatlarni ustidan nazoratni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Mahsulot tannarxi individual va tarmoq tannarxiga bo'linadi. Mahsulotning individual tannarxi deb korxonada xom ashyo va materiallardan foydalanib, mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilishga ketgan xarajatlarga aytiladi. Tarmoq tannarxi esa muayyan mahsulotni ishlab chiqarish uchun tegishli tarmoqda sarflangan xarajatlarning o'rtacha hajmi bilan o'lchanuvchi ko'rsatkichdir.

Mahsulot tannarxi darajasiga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Biroq mahsulot tannarxini pasaytirishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar quyidagilar iborat:


- mehnat unumdorligini oshirish;
- fan-texnika yutuqlaridan foydalanish;
- asosiy va ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish;
- xom ashyo materiallar, yoqilg'i va elektr energiyasidan tejamkorlik bilan foydalanish;
- ishlab chiqarishni boshqarish tizimini takomillashtirish va boshqaruv xarajatlarini kamaytirish.

Mahsulot tannarxini rejalashtirish, korxonaning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini oshirish yo'llarini belgilash uchun korxonada xarajatlarini shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun tarmoq bo'yicha sarflanayotgan xarajatlar bilan taqqoslash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahsulot tannarxini to'g'ri rejalashtirish, hisoblash va tahlil etish hamda uning pasayish manbaalarini aniqlash maqsadida faqat umumiy xarajatlarnigina emas, balki ularning tarkibiy qismlarini ham bilish muhimdir.

Xarajatlar hisobining nazariyasi va amaliyotida birgina "tannarx" tushunchasigina mavjud emas. Uning mazmuni quyidagi omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin: mahsulotning tayyorlik darajasi va uning sotilishiga qarab, yarim tayyor mahsulot, omborda saqlanayotgan mahsulot va sotilgan mahsulot tannarxlari; mahsulot miqdoriga qarab, mahsulot birligining, butun ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi; joriy xarajatlarni kalkulyatsiya ob'ekting tannarxiga kiritish to'liqligiga qarab, to'liq amaldagi tannarx va cheklangan tannarx; tannarxni shakllantirishning tezkorligiga qarab amaldagi yoki me'yoriy, rejali tannarx farqlanadi.³

Ishlab chiqarish turi va murakkabligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi va xarakteri, ishlab chiqarish jarayonining davomiyligi va boshqa omillarga ko'ra kalkulyatsiya qilishning respublikamiz korxonalari quyidagi tannarxni kalkulyatsiya qilish usullaridan foydalanishmoqda:



Kalkulyatsiya qilish usullari

Tannarxni faoliyat va mahsulot turlari, sotish bozorlari, mintaqalar hamda xaridorlar bo'yicha kalkulyatsiya qilish kerak. Sarflarni shakllantirish usullari tannarxni kalkulyatsiya qilish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayon o'zining muhim xususiyatlariga, jumladan, sohaviy xususiyatlariga ega.


Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun sarflarni rejalashtirish, ularning hisobini yuritish hamda tahlil qilishga yagona yondashuvni ta'minlash uchun ushbu sarflarning tegishli tasnifi kerak.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etishga faoliyat turlari, ishlab chiqarishning hamda ishlab chiqariladigan mahsulotning turi, korxonaning boshqaruv tuzilishi va o'lchamlari ta'sir ko'rsatadi.

Mahsulot tannarxini tashkil etuvchi qismlar nafaqat o'z tarkibiga ko'ra, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish ahamiyatiga ko'ra ham turlichadir. Ba'zi birlari uni tayyorlash va ishlab chiqarish bilan, boshqalari ishlab chiqarishni boshqarish va unga xizmat ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Uchinchi toifasi esa amaldagi qonunchilik bo'yicha sarf-xarajatlarga kiritiladi.

³ Qudbiev. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini takomillashtirish. Bozor, pul va kredit.–T.:2005y. 15 b.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi yuritiladigan yo‘nalish-ishlab chiqarish xarajatlarining alohidalangan va maqsadli hisobini talab etuvchi faoliyat sohasidir. Ya‘ni, buxgalteriya ma‘lumotlarining foydalanuvchilari biror sarf-xarajat haqida nimanidir bilib olmoqchi bo‘lsalar, aynan shu narsaning o‘zi hisob yo‘nalishi bo‘ladi. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining yo‘nalishiga mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi, sotish bo‘limi ta‘minoti sarflari kalkulyatsiyasi, ya‘ni amalda Biron-bir mansabdor shaxsning ishlatilgan zahiralarni baholash zaruratini yuzaga keltiradigan holatlar misol bo‘lishi mumkin.



Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar

Ishlab chiqarish bilan bog‘liq moddiy xarajatlarga quyidagilar tegishli bo‘ladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar;
- asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlar ko‘rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan chetdan sotib olinadigan xom ashyo va materiallar. Sotib olinadigan, kelgusida ushbu xo‘jalik yurituvchi sub’ektda montaj qilinadigan yoki qo‘shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar.

Ishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot tayyorlash bo‘yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, xom ashyo va materiallarga ishlov berish, iste‘mol qilinayotgan ashyo va materiallar sifatini aniqlash uchun sinovlar o‘tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini tuzatish va boshqalar tegishli bo‘ladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ichida tashqi yuridik shaxslarning transport xizmatlari (xom ashyo, materiallar, instrumentlar, detallar, tanavorlar, yuklarning boshqa turlarini bazis (markaziy) ombordan tsexga keltirish va tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan

xizmatlarga tegishli bo‘ladi.

Texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg‘ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha transport ishlari.

Ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning yaroqsizlanishi va kam chiqishi. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni etkazish bilan bog‘liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlagi kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to‘lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

«Moddiy xarajatlar» elementi bo‘yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan, barter bitishuvlarida, qo‘shimcha narx (ustama)dan, ta‘minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to‘lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, shu jumladan, brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig‘imlardan, soliqlardan (korxonalar keyinchalik qarz surishish, masalan, qo‘shilgan qiymat solig‘i tarzida qaytarib oladiganlardan tashqari), transportda tashishga haq to‘lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va etkazib berishga haq to‘lashdan kelib chiqib shakllanadi.⁴

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektda qabul qilingan mehnatga haq to‘lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan hisoblangan ish haqi, shu jumladan, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektni mukofotlash to‘g‘risidagi nizomlarda nazarda tutilgan rag‘batlantiruvchi tushadigan to‘lovlar.

Ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan kompensatsiya tushadigan to‘lovlar, shu jumladan: ko‘p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo‘shib olib borganlik va xizmat ko‘rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tushadigan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to‘lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning o‘zi tomonidan amalga oshirilsa pudrat shartnomasi ham shu jumlagi kiradi.

Ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalarga quyidagilar kiradi:

- qonun hujjatlari bilan belgilangan normalar bo‘yicha mehnatga haq to‘lash fondiga ijtimoiy tushadigan majburiy ajratmalar;

-nodavlat pensiya jamg‘armalariga va ixtiyoriy sug‘urtaning boshqa turlariga ajratmalar.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi nizom. 1.1.12 bandi.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi (hisoblangan eskirish), lizing bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham shu jumlagi kiradi.

Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar (Gudvilldan tashqari) eskirishi har oyda xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan (biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo'ladi. Foydali foydalanish muddatini aniqlash imkoni bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish normasi besh yil hisobiga belgilanadi, biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas.

Oddiy va buyurtmali usullar bo'yicha mahsulotlar tannarxini aniqlash

Har bir korxonada shu korxonaning ishlab chiqarish xususiyatlari hisobga olingan holda kalkulyatsiyalashning u yoki bu usuli qo'llanilishi mumkin.

Tannarxni aniqlashning oddiy usuli bir turdagi mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaradigan va yarim tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishga ega bo'lmagan tashkilotlarda qo'llaniladi. Ushbu usul qo'llanilganda hisobot davridagi barcha ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga olib boriladi. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) birligining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlari summasini ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) birliklarining umumiy miqdoriga bo'lish yo'li bilan hisoblab chiqariladi, ya'ni tegishli formula quyidagi ko'rinishga ega:


$$TN_{\text{birlik}} = \frac{\text{Hisobot davridagi jami ishlab chiqarish xarajatlari summasi}}{\text{Ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning umumiy miqdori}}$$

Tannarxni aniqlashning buyurtma usuli ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot (ish, xizmat)ga (bir xildagi mahsulotlar guruhi) doir alohida buyurtmalar bo'yicha identifikatsiyalanadigan va hisobga olinadigan yakka tartibdagi hamda mayda turkumli ishlab chiqarishga ega bo'lgan tashkilotlarda qo'llaniladi. Buyurtmaning ob'ekti bo'lib mahsulot (ish, xizmat), bir xildagi mahsulot (ish, xizmat)ning mayda turkumlari yoki ta'mirlash, montaj va eksperimental ishlar hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayoni uzoq muddat davom etadigan yirik mahsulotlarni tayyorlashda buyurtmalar yaxlit mahsulotga emas, balki uning tugallangan konstruksiyalarga ega bo'lgan alohida agregatlari va alohida uzellariga berilishi mumkin.

Bu usulda barcha to'g'ri xarajatlar ishlab chiqarilgan yoki bajarilgan buyurtma birligiga olib boriladi. Lekin umumishlab chiqarish xarajatlari maxsus usullar bo'yicha aniqlanadi va tannarxga olib boriladi. Bu usullardan ko'p qo'llaniladigan - umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning normativ koeffitsientlar usulidir.

Koeffitsientlarni hisoblash uch bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Umumishlab chiqarish xarajatlari rejasining yillik byudjeti tuziladi. Xarajatlarning umumiy summasi nazarda tutilayotgan ishlab chiqarish hajmiga qarab aniqlanadi.



Tannarxni kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usuli

2-bosqich. Umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash bazasi aniqlanadi. Bunda quyidagi bazalardan foydalanish mumkin:

- ishchilarning ish haqiga nisbatan;
- sarflangan «kishi-soat» miqdoriga nisbatan;
- «mashina-soat» miqdoriga nisbatan va hokazo.

3-bosqich. Rejalashtirilayotgan davr uchun aniqlangan umumishlab chiqarish xarajatlari summasi rejalashtirilgan ishlab chiqarish hajmiga bo‘linadi. Natijada soatda yoki boshqa istalgan ko‘rsatkichda aniqlanishi mumkin bo‘lgan umumishlab chiqarish xarajatlarining normativ koeffitsienti vujudga keladi.

Ishlab chiqarish buyurtmalari chetdan mahsulotning ma’lum turlarini ishlab chiqarish uchun beriladi. Boshqa xarajatlar esa tsex yoki korxonaga bo‘yicha hisob qilinadi, ayrim ishlab chiqarish buyurtmalari tannarxini kalkulyatsiyalashda ularning tannarxi biron-bir ko‘rsatkichga mutanosib ravishda taqsimlash yo‘li bilan o‘tkaziladi. Buyurtmali usulda xarajatlar hisobi va kalkulyatsiyalash ob’ekti ayrim ishlab chiqarish buyurtmalari hisoblanadi. Buyurtmaning haqiqiy tannarxi har oyda emas, balki buyurtma tayyor bo‘lganidan keyin aniqlanadi.

Sanoat sohasida ushbu usuldan, odatda, ishlab chiqarish jarayoni bir turda tashkil qilinadigan korxonalarda qo‘llaniladi. Bunday korxonalar odatda cheklangan iste’molga mo‘ljallangan buyumlarni ishlab chiqarish uchun tashkil qilinadi. Tabiiyki, yirik buyurtmani ishlab chiqarish sezilarli darajadagi moddiy sarflarni, mehnatni va boshqa xarajatlarni taqozo etadi, ammo hamma vaqt ham korxonalarining quvvatlarini to‘liq hajmda ishlatish imkoniyati bo‘lmaydi. Shuning uchun ham, bir vaqtning o‘zida boshqa buyurtmalarni, turli konstruksiyadagi buyumlarni ishlab chiqarish mumkin, lekin ularning har biri cheklangan miqdorda bo‘ladi.

Ishlab chiqarishning alohida turining, ya’ni alohida bo‘lgan buyurtmalarga va mahsulotlar (ish, xizmatlar) partiyasiga asoslangan ishlab chiqarishning o‘ziga xos bo‘lgan muhim xususiyatlarini ta’kidlab o‘tish joiz. Ular sirasiga quyidagilarni olib borish mumkin:

- tayyorlanadigan mahsulot turining xilma-xilligi, uning salmoqli qismi takrorlanmaydi va alohida buyurtmalar bo‘yicha kichik miqdorlarda ishlab

chiqariladi;

- ishchi o‘rinlarining texnologik ixtisoslashuvi va muayyan operatsiyalar hamda detallarning ishchi o‘rinlariga doimo mustahkamlanishi mumkin emasligi;
- odatda universal uskunalar va moslamalardan foydalanish;
- qo‘lda amalga oshiriladigan yig‘ish va yakunlash operatsiyalar salmoqli ulushining nisbatan ko‘pligi;
- ishchilar orasida yuqori malakali universal mutaxassislarining ko‘pligi.

Shu bilan birga, tannarxni hisoblashning (kalkulyatsiya qilishning) buyurtmali usulidan sinov mahsulot namunalarini ishlab chiqarishda, shuningdek, qo‘shimcha ishlab chiqarishlarda - maxsus asbob-uskunalarni tayyorlashda, ta‘mirlash ishlarini olib borishda ham foydalaniladi. Buyurtmali usulidan foydalanish sohasining boshqa yo‘nalishlari bo‘lib mayda turkumli sanoat korxonalar hisoblanadi. Mazkur holatda, turkum deganda ishlab chiqarishga bir vaqtda yoki muayyan ketma-ketlikda tushiriladigan bir xil konstruktiviyali buyumlarning cheklangan miqdori tushuniladi. Mayda turkumli ishlab chiqarishlar iste‘molchiga kichik miqdorlarda kerak bo‘ladigan mahsulotni ishlab chiqarish uchun tashkillashtiriladi. Shuning uchun mayda turkumli ishlab chiqarish korxonalari nisbatan keng bo‘lgan va etarli darajada turli xil nomenklaturadagi mahsulotlar bilan yuklanadi. Misol tariqasida kemasozlik va aviasozlik korxonalarini, shuningdek, nashriyot-matbaa tashkilotlarini keltirish mumkin - ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori buyurtma bo‘yicha aniqlanadi.

Ta‘kidlash joizki, buyurtmali usul bo‘yicha hisoblashning foydalanish sohasi sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan cheklanmaydi. Ushbu usul qurilishda (loyihani muayyan hududga moslashtirish uchun), ilmiy-tekshirish institutlarida, sog‘liqni saqlash muassasalarida (bunda har bir bemorga qilingan operatsiya tannarxi, uning murakkabligi va qo‘yilgan tashxisga bog‘liq holda kalkulyatsiyalanadi) muvaffaqiyat bilan qo‘llaniladi.

Ta‘kidlab o‘tish adolatdanki, so‘nggi yillarda respublikamizda xizmatlar sohasi jadal rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotning ushbu sohasini jadal ravishda kengaytirishda davlatning ko‘magi asosiy turtki bo‘lib kelmoqda. Xizmatlar ko‘rsatishning zamonaviy, ilg‘or turlari ham jadal sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bularga telekommunikatsiya xizmatlari, uyali aloqa, moliyaviy-bank va sug‘urta xizmatlari, sayyohlik-ekskursiya va hokazolar kiradi.

Tabiiyki, aholiga ham, yuridik shaxslarga ham xizmatlar ko‘rsatishda mazkur xizmatlarning tannarxini aniqlash kerak bo‘ladi. O‘z navbatida, ustaxonalar, atele, kimyoviy tozalash shoxobchalari va turli xil xizmatlar ko‘rsatuvchi boshqa xo‘jalik sub‘ektlari ham yakka buyurtmalar bo‘yicha kiyimbosh tikishda, avtomobillar, maishiy texnikani ta‘mirlashda va boshqa xizmatlarni ko‘rsatishda buyurtmali usuldan foydalanishlari mumkin.

Ushbu kalkulyatsiyalash usulining mohiyati quyidagidan iborat: barcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar (asosiy materiallarga xarajatlar, asosiy ishlab chiqarish ishchilarining mehnat haqi xarajatlari va u bo‘yicha ijtimoiy ajratmalar) kalkulyatsiyaning alohida ishlab chiqarish buyurtmalari bo‘yicha belgilangan moddalari doirasida hisobga olinadi. Boshqa ishlab chiqarish ustama xarajatlari

ular paydo bo'lgan joyda hisobga olinadi va taqsimlash stavkasining belgilangan bazasiga muvofiq alohida buyurtmalar tannarxiga kiritiladi.

Ushbu kalkulyatsiyalash usulida xarajatlarni hisobga olish ob'ekti va kalkulyatsiyalash ob'ekti bo'lib alohida ishlab chiqarish buyurtmasi hisoblanadi. Bunda, buyurtma deganda mijozning unga muayyan miqdordagi buyumlarni maxsus yaratish yoki tayyorlash uchun murojaatnomasi tushuniladi. Odatda, buyurtmaning turi buyurtmachi (xaridor) bilan tuzilgan shartnomada belgilanadi. Mazkur shartnomada mahsulotning buyurtmachi tomonidan to'lanadigan qiymati, hisob-kitoblarni amalga oshirish va mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni topshirish tartibi, buyurtmani bajarish muddati, sotishdan keyingi kafolatli xizmat ko'rsatish muddati va boshqa shartlar ko'rsatiladi.

Tannarxni aniqlashning ushbu usulida barcha xarajatlar buyurtma tugaguncha tugallanmagan ishlab chiqarish hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, tannarxni kalkulyatsiyalashning buyurtma usulida ishlab chiqarishda foydalanilgan materiallarga, ishlab chiqarish ishchilari uchun mehnat haqiga xarajatlar va ular bo'yicha ijtimoiy ajratmalar, shuningdek, ishlab chiqarish (umumzavod) ustama xarajatlari har bir yakka tartibdagi buyurtmaga yoki mahsulotning ishlab chiqarish partiyasiga o'tkaziladi. Agar buyurtma bitta buyumga qilingan bo'lsa, uning tannarxi barcha xarajatlar yig'indisi sifatida hisoblab chiqiladi. Agar bir nechta buyum yoki buyumlar partiyasi buyurtma qilingan bo'lsa, xarajatlar summasini qo'shish orqali butun partiyaning tannarxi hisoblab chiqiladi. Bitta buyumning tannarxini aniqlash uchun umumishlab chiqarish xarajatlari partiyadagi mahsulot birliklarining soniga bo'linadi.

Alohida buyurtmalar bo'yicha hisobga olish asosiy hisob registri - buyurtmani hisobga olish kartochkasini ochishdan boshlanadi.

Ushbu hisob hujjati xo'jalik yurituvchi sub'ekt buxgalteriyasi tomonidan yuritiladi. Buyurtmani hisobga olish kartochkasiga yozuvlarni kiritish uchun asosiy dastlabki hisob hujjatlari asosiy materiallardan va asosiy ishlab chiqarish mehnatidan foydalanganlikni tasdiqlovchi boshlang'ich hujjatlardir (asosiy materiallarni ajratish uchun talabnoma, ish naryadi va h.k.). Bunda har bir boshlang'ich hujjatda buyurtmaning identifikatsion raqami qo'yib chiqiladi. Buyurtmani hisobga olish kartochkasidan buyurtma o'tgani sayin to'g'ridan-to'g'ri materiallar, mehnat xarajatlari va ishlab chiqarish ustama (umumzavod) xarajatlari bo'yicha axborot to'planib boradi. Shunday qilib, buyurtmani hisobga olish kartochkasi kalkulyatsiyalashning buyurtmali usulidan foydalanish sharoitida asosiy hisob registri bo'lib hisoblanadi.

Mahsulot tannarxini aniqlashning ushbu usulida materiallarning to'g'ridan-to'g'ri xarajatlari, shuningdek, buyurtmani bajarishda bevosita band bo'lgan asosiy ishlab chiqarish ishchilari uchun mehnat haqi xarajatlari, olingan boshlang'ich hujjatlarga muvofiq tegishli buyurtmalarga hisobdan chiqariladi va 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyotida aks ettiriladi.

Bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarining hisobot davrida bajarilgan alohida ishlab chiqarish buyurtmalari o'rtasida taqsimlanishi muammosi tug'iladi (asosiy ishlab chiqarish vositalari va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, ijara haqi,

yoritish, isitish, shamollatish, konditsionerlash, texnik ko‘rikdan o‘tkazish hamda ishlab chiqarish quvvatlari va ko‘chmas mulkni ta‘mirlash bilan bog‘liq xarajatlar va h.k.), chunki buyurtma narxini rejalashtirish va uni buyurtmachi (xaridor) bilan kelishib olish ishlarini bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasi hali haqiqatdan ma‘lum bo‘lmasidan hisobot davri davomida olib borish kerak.

Amaliyotda ishlab chiqarish ustama xarajatlari (bilvosita xarajatlar) oldindan alohida buyurtmalar o‘rtasida taqsimlanadi, bunda kutilayotgan bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning byudjet (rejali, smetali, baholangan) stavkalaridan foydalaniladi. Odatda, ular ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar) hajmlarining va keyingi davrdagi ishlab chiqarish ustama xarajatlarining baholanadigan miqdorlariga asoslanadi.

Ishlab chiqarish ustama xarajatlari (ICHUX)ni taqsimlashning smetali stavkalarini hisoblab chiqish xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt buxgalteriyasi tomonidan hisobot davri boshlanishidan oldin uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Boshlanadigan (rejalashtirilayotgan) davr uchun ishlab chiqarish ustama xarajatlari baholanadi. Bunday prognozlarning aniqlik darajasi ko‘p jihatdan buxgalter - tahlilchining tajribasi, bilimlari va saviyasiga bog‘liq, chunki bunday prognozlarni ishlab chiqishda ko‘plab omillarni - ham ob‘ektiv (korxonalar faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan), ham sub‘ektiv (unga bog‘liq bo‘lgan) omillarni hisobga olish zarur. Masalan, umumishlab chiqarish xarajatlarining salmoqli qismini kommunal xizmatlar va elektr energiyasi uchun to‘lovlar tashkil qiladi, uning miqdori esa, o‘z navbatida, belgilangan tariflarga bog‘liq. Demak, kommunal xizmatlar va elektr energiyasi to‘lovlari bo‘yicha amaldagi tariflarning oshishi korxonalar uchun ob‘ektiv omil hisoblanadi. Shu bilan birga, elektr energiyasidan qanchalik oqilona foydalanish, uni bekorga sarflamaslik aynan korxonaning o‘ziga bog‘liq. Bunday sub‘ektiv omillar ham tahlilchi-buxgalter tomonidan kelgusi davr uchun ICHUXni prognozlashda hisobga olinishi kerak.

2. Prognozlanadigan ICHUX summasini bazaviy ko‘rsatkich-ning kutilayotgan miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan smeta (byudjet) stavkasi hisoblab chiqiladi, ya‘ni uni hisoblab chiqarish formulasi quyidagi ko‘rinishga ega:⁵

$$\text{ICHUXni taqsimlashning smeta (byudjet) stavkasi} = \frac{\text{Kelgusi (rejalashtirilayotgan) davr uchun ishlab chiqarish ustama xarajatlarining smeta (byudjet) summasi}}{\text{Smetali (byudjet) taqsimlash bazasi (xarajatlar omili)}}$$

3. ICHUXni alohida ishlab chiqarish buyurtmalari o‘rtasida taqsimlash uchun baza tanlanadi va uning miqdori prognozlanadi. Bunda taqsimlash bazasi deyilganda shunday texnik-iqtisodiy ko‘rsatkich tushuniladiki, u xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt rahbari nuqtai nazaridan ishlab chiqarish ustama xarajatlarini tayyor mahsulotni ishlab chiqarish hajmlari bilan eng yuqori darajadagi aniqlikda bog‘laydi.

ICHUXni taqsimlash bazasi xo‘jalik sub‘ekti tomonidan uning faoliyatining

⁵ Ortiqov A. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlariga sharhlar to‘plami. T.: Norma. 2010. 112-b.

o'ziga xos xususiyatlaridan, bajariladigan buyurtmalar turidan, ularning miqdori, o'lchamlari, oldingi hisobot davrlarida bajarilgan buyurtmalar hajmlari va turlaridan va hokazodan kelib chiqqan holda mustaqil tarzda tanlanadi. Buyurtmani kalkulyatsiyalash maqsadida foydalanish uchun tanlangan ICHUXni taqsimlash bazasi xo'jalik sub'ektining hisob siyosatida aks ettirilishi kerak va butun hisobot davrida shundayligicha qoladi.

Odatda sanoatda ICHUXni taqsimlash bazasi sifatidada eng keng qo'llaniladigan ko'rsatkichlar sifatida ishlangan dastgoh-soatlar, asosiy ishlab chiqarish ishchilari uchun hisoblangan ish haqi summasi, kishi-soat va hokazolardir. Biroq, masalan, gilamlarni yakka tartibda ishlab chiqarishda - kvadrat metrlar, transport xizmatlarini ko'rsatishda - tonna yoki yo'lovchi-kilometrlar (avtomobil bosib o'tgan yo'l), auditorlik xizmatlari ko'rsatishda - auditorlik tashkiloti xodimlari ishlangan soatlar, o'quv markazlarida - o'qituvchining ish soatlari, Internet-kafelarda - kompyuterlar ishlatilgan soatlar va shu kabi boshqa o'lchov birliklari qo'llanilishi mumkin.

Mahsulotlar tannarxini aniqlashning bosqichli (jarayonli) usuli

Tannarxni aniqlashning bosqichli usuli boshlang'ich xom ashyo va materiallar ishlab chiqarish jarayonida bir qator bosqich, faza, pog'onalardan o'tadigan tashkilotlarda qo'llanadi. Odatda, ushbu usuldan mahsulot muayyan ketma-ketlikda ishlab chiqarishning barcha bosqichlaridan o'tadigan sanoat korxonalarida foydalaniladi. Aksariyat hollarda, bunday ishlab chiqarishlarda xom ashyo fizikaviy-kimyoviy va kimyoviy usullarda qayta ishlanadi hamda mahsulot olish jarayoni bir nechta ketma-ketlikdagi texnologik bosqichlardan iborat bo'ladi. Bunda kulkulyatsiyalash ob'ekti bo'lib, har bir yakunlangan bosqich (jarayon) mahsuloti hisoblanadi, o'z navbatida birato'la bir nechta mahsulot olinadigan bosqichlar (jarayonlar)ga ham tegishlidir. Ishlab chiqarish va boshqaruv hisobi bo'yicha xorijiy adabiyotlarda ushbu usulni tannarxni kulkulyatsiyalashning jarayonli usuli deb ham ataladi.⁶

Bosqichli (jarayonli) usulning mohiyati shundan iboratki, to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni joriy hisobda mahsulot turlari bo'yicha emas, balki ishlab chiqarish bosqichlari (jarayonlari) bo'yicha aks ettiriladi, hattoki bitta bosqichda turli xildagi mahsulotlarni olish imkoniyati bo'lganda ham. Demak, xarajatlarni hisobga olish ob'ekti bo'lib bosqich, ya'ni ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi.

Tegishli ravishda, mahsulot tannarxini aniqlashning bosqichli usulidan kelib chiqib «bosqich» so'ziga ta'rif berish mumkin. Bosqich - bu texnologik jarayonning bir qismi (texnologik operatsiyalar yig'indisi) bo'lib, natijada tayyor yarim fabrikatni olish bilan yakunlanadi hamda ushbu mahsulotni ishlab chiqarishning keyingi bosqichiga (jarayoniga) o'tkazish yoki chetga realizatsiya qilish mumkin bo'ladi. Birlamchi materialning barcha ishlab chiqarish bosqichlardan o'tishi natijasida tayyor mahsulot olinadi, ya'ni oxirgi bosqichdan endi yarim fabrikat emas, balki oxirgi tayyor mahsulot chiqadi.

Xarajatlarni hisobga olishning bosqichli (jarayonli) usulining xususiyatlari

⁶ Хонгрэн Ч.Т., Фостер Дж. Бухгалтерский учет: управленческий аспект: Пер. с англ. / Под ред. Я.В.Соколова. - М.: Финанси и статистика, 2003.- 416 с.

bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- har bir bosqich (jarayon) uchun 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» sintetik schyotiga analitik hisobni tashkil qilish;
- alohida buyurtmalarni hisobga olmasdan xarajatlarni bosqichlar (jarayonlar) bo‘yicha umumlashtirish, ya’ni har bir bosqich mahsuloti tannarxini butunlay kalkulyatsiya qilish;
- xarajatlarni tayyorlash vaqti bo‘yicha emas, balki kalendar davr bo‘yicha hisobdan chiqarish.

Shuni ham ta’kidlash joizki, bosqichli kalkulyatsiyalash xom ashyodan kompleks foydalanadigan sanoat tarmoqlarida keng qo‘llanilib, unda ishlab chiqarish jarayoni mustaqil texnologiyaga va ishlab chiqarishni tashkil qilish alohida texnologik tsikllariga ega bo‘lgan alohida bosqichlardan iborat. Bunday tarmoqlarga, masalan, kimyo, neft qazib olish, tsement ishlab chiqarish, metallurgiya, tsellyuloza-qog‘oz, ip-gazlama va boshqalar sanoat turlari kiradi. Sanab o‘tilgan sanoat korxonalarida material sarflanishi yuqori darajadiligini hisobga olinib, ishlab chiqarishni hisobga olish shunday tashkil etiladiki, ishlab chiqarishda materiallardan foydalanish nazorat ostida bo‘ladi. Aksariyat hollarda ushbu tarmoqlar korxonalarida birlamchi xom ashyo, mahsulotning yoki yarim fabrikatning, brak va chiqindilarning chiqish balanslarini hisoblab chiqish qo‘llaniladi. O‘z navbatida, turli xildagi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar, agar butun texnologik jarayonni doimiy takrorlanib turuvchi operatsiyalarga bo‘lish imkoniyati mavjud bo‘lsa, xarajatlarni hisobga olishning ushbu usulidan foydalanadi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi katta bo‘lmagan, ammo ishlab chiqarish darajasi ommaviy tusga ega bo‘lgan sharoitda ham hisobga olishning bosqichli (jarayonli) usulidan foydalaniladi. Ommaviy turdagi ishlab chiqarishning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- katta bo‘lmagan nomenklaturadagi mahsulotni yirik miqdorlarda hajmlarda ishlab chiqarish doimiyliigi;
- ishchi o‘rinlarining odatda bitta doimiy birlashtirilgan operatsiyani bajarishga ixtisoslashtirilishi;
- mexanizatsiyalangan va avtomatlashtirilgan jarayonlarning ulushli salmog‘ining sezilarli darajada oshishi hamda qo‘lda bajariladigan ishlarning keskin kamaytirilishi va hokazo.

Ta’kidlash joizki, tannarxni kalkulyatsiyalashning bosqichli usulida xarajatlarni hisobga olish va jamg‘arish jarayoni mahsulotni ishlab chiqarish bosqichida uning ketma-ketligidan keyin amalga oshiriladi. Har bir bosqich (jarayon) (bo‘linma, tsex) uchun odatda nazorat (analitik) schyoti belgilanadi hamda bevosita va bilvosita xarajatlar har bir bosqich bo‘yicha taqsimlanadi. Xarajatlarni bosqichli (jarayonli) kalkulyatsiya qilish tizimi buyurtmali usuldagi kalkulyatsiyalash tizimiga qaraganda amalga oshirish (foydalanish) uchun osonroq hisoblanadi, chunki bu yerda xarajatlarni har bir mahsulot birligi bo‘yicha batafsil detallashtirish kerak emas. Bundan tashqari, xarajatlarni buyurtmali usulda kalkulyatsiyalashda bilvosita hisoblangan ko‘pgina sarf-xarajatlar bosqichli

kalkulyatsiyalash usulida bevosita xarajatlarga aylanishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish xarajatlari yoki ishlab chiqarish quvvatlarining amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar bitta bo'linmada ishlab chiqarish xarajatlarini bosqichli kalkulyatsiyalashda bevosita sarf-xarajatlarning bir qismi hisoblanadi, chunki bevosita muayyan maqsadli sarf-xarajatga (muayyan bo'linmaga yoki jarayonga) tegishli. Biroq buyurtmali usulda kalkulyatsiyalash tizimida ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish xarajatlari yoki ishlab chiqarish quvvatlarining amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar, odatda, bilvosita xarajatlar, ya'ni ishlab chiqarish ustama xarajatlari hisoblanadi, chunki bevosita aniq bir buyurtmaga nisbatan hisobga olinmaydi.

Bosqichli usul tashkilotning qaysi tarmoqqa mansubligiga bog'liq holda ikki variantda amalga oshirilishi mumkin: yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz variantlarda.⁷

Yarim tayyor mahsulotli variantda har bir bosqich bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisoblab chiqariladi hamda u avvalgi bosqichlar mahsuloti (ishlar, xizmatlar)ning tannarxi va mazkur bosqich bo'yicha xarajatlardan iborat bo'ladi. Oxirgi bosqich mahsulotining tannarxi barcha tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi bo'lib hisoblanadi.

Yarim tayyor mahsulotsiz variantda faqat oxirgi bosqich mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxigina hisoblab chiqariladi. Bunda xarajatlar avvalgi bosqichlar mahsuloti (ishlar, xizmatlar)ning tannarxini hisobga olmasdan, har bir bosqich bo'yicha alohida hisobga olinadi. Tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga barcha alohida bosqichlar bo'yicha uni ishlab chiqarish xarajatlari kiritiladi.

Xarajatlarni bosqichli (jarayonli) usulda hisobga olishning yarim tayyor mahsulotli variantida batafsilroq to'xtalib o'tamiz, chunki ushbu variant nisbatan ko'proq tarqalgan hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, tayyorlanayotgan mahsulot bir jarayondan boshqasiga o'tkazilgani sayin, u bilan birga oldingi bosqichdagi ishlab chiqarish xarajatlari ham o'tib boradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish jarayonida joriy tannarx jamg'arilib boradi va oldingi umumiy xarajatlar summasiga oxirgi bo'linma xarajatlarining qo'shilishi yakuniy tannarxni keltirib chiqaradi. Demak, tayyor mahsulot birligining tannarxi oldingi ishlab chiqarish jarayonlarida jamg'arilgan barcha xarajatlarini va ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'lish natijasida hosil bo'ladi.

Mahsulot birligiga sarflarni aniqlash uchun qilingan barcha ishlab chiqarish xarajatlarini ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga taqsimlash lozim. mahsulot birligiga xarajatlar boshqa jarayonga (bo'linmaga) berilgan mahsulotga va davr oxirida jarayon zaxirasidagi (shu bo'linmadagi) mahsulotga xarajatlarni o'tkazish uchun bazadir. Tugallanmagan ishlab chiqarish bo'lmaganda, ya'ni jarayonga kiritilgan barcha mahsulot birliklariga ma'lum davrda ishlov berish tugallangan bo'lganda hisoblar oson bo'lar edi. Amalda davr boshida (oxirida) mahsulotga ishlov berish qisman tugallangan hamda, tugallanmagan birliklarga ham taqsimlanishi kerak. Bunda ommaviy ishlab chiqarish korxonalarida hisobot davri

⁷ Ortiqov A. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlariga sharhlar to'plami. T.: Norma. 2010. 121-b.

boshlanishida va oxirida hamisha bo‘ladigan tugallanmagan ishlab chiqarish shartli tugallangan buyumga aylantirib hisoblanadi. Bu miqdor quyidagi summaga tenglashtiriladi:

1. Mazkur hisobot davrida boshlangan va tugallangan buyumlarning umumiy miqdoriga.

2. Hisobot davri boshida va oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish ustida bajarilgan ishlar aks ettiruvchi yig‘masiga.

Tannarxni jarayonlar bo‘yicha kalkulyatsiya qilish usulida bevosita material sarflar buyumni ishlab chiqarishga kiritish paytida amalga oshadi, bevosita mehnat xarajatlari va umumiy ishlab chiqarish sarflari ishlov berish xarajatlari deb atalgan guruhga birlashtiriladi hamda butun ishlab chiqarish bosqichi davomida baravar (bir maromda) taqsimlanadi. Shu sababli materiallar bo‘yicha shartli birliklar ishlov berish bo‘yicha shartli birliklar miqdoridan farq qiladi.

Odatda amaliyotda tugallanganlik darajasini aniqlash vaqti ishlab chiqarishni hisobga olish schyotlari qanchalik tez-tez tahlil qilinishiga hamda ishlab chiqarish (ichki) hisoboti davriyligiga (haftalik, o‘n kunlik, oylik va h.k.), shuningdek, ishlab chiqarish jarayonining smenaligi bilan bog‘liq. Tugallangan foizi ko‘rsatkichi, odatda, tegishli malakaga ega bo‘lgan mutaxassislar, masalan, texnolog, muhandis, bosh laborant, ishlab chiqarish bo‘limi boshlig‘i va hokazolar tomonidan aniqlanadi. Albatta, tugallanganlik foizini aniqlash tegishli resurslarni va ma‘lum vaqtni taqozo etadi, monitoring shaklida (ko‘lamli ko‘rik), yarim tayyor mahsulot namunalarini olish hamda o‘lchashlar va hisob-kitoblarni o‘tkazish, laboratoriya tahlili natijalarini olish, ishlab chiqarish dastgohlari va o‘lchagichlari ko‘rsatkichlarini olish va hokazolar yordamida olib boriladi.

Ekvivalent birliklarni qo‘llashda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar shundan iboratki, har qanday tovarlar partiyasida buyumlarning hammasi (ularning tannarxi mahsulot chiqishi tannarxiga teng) bir xil tugallanganlik darajasiga ega bo‘lmaydi. Chunonchi, ishlab chiqarish tsiklining boshidanoq materiallar to‘liq ishlab chiqarishga berilishi mumkin, ularning tannarxi butunlay mahsulotga o‘tadi, mehnat xarajatlari va ishlab chiqarish ustama xarajatlari esa jarayon davomida oshib boradi. Shunday ekan, materiallar qiymati yuz foizga mahsulotga o‘tishi mumkin, mehnat xarajatlari va ishlab chiqarish ustama xarajatlari esa faqat qisman o‘tadi. Bunday hollarda tannarxning har bir komponenti bo‘yicha ishlab chiqarish xarajatlarini kalkulyatsiyalash zarur.

Shartli (ekvivalent) birliklarni aniqlash: Barcha ishlab chiqarish faqat tugallangan birlikka olib borganda, ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan birliklar miqdori hisoblab chiqiladi. Masalan, davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarishda 1000 ta mahsulot birligi bo‘lsa va 80 % iga ishlov berish tugallangan bo‘lsa, ekvivalent ishlab chiqarish 800 birlikni tashkil qiladi ($1000 \times 80 \%$).

Ekvivalent ishlab chiqarish materiallar va qo‘shilgan xarajatlar bo‘yicha alohida hisoblanadi. Masalan, davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarishda 1000 ta birlik bo‘lib, 90 % materiallar bo‘yicha tugallangan va 50 % qo‘shilgan xarajatlar bilan tugallangan bo‘lsa, materiallar bo‘yicha ishlab chiqarish ekvivalenti 900 birlikni ($1000 \times 90 \%$) va qo‘shilgan xarajatlar bo‘yicha 500

birlikni (1000 x 50 %) tashkil qiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari o'rtacha tortilgan usuldan va FIFO usulidan foydalanib, tugallanmagan ishlab chiqarishga, tayyor mahsulotga, sotilgan mahsulotning tannarxiga o'tkaziladi.

Boshqa jarayonga berishni (tayyor mahsulotni) va tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash. Kalkulyatsiyalashning jarayonli usulida o'rtacha tortilgan usuldan yoki FIFO usulidan foydalanish mumkin.

1) O'rtacha tortilgan usul.

O'rtacha tortilgan usul hisobot davridagi ishlab chiqarish xarajatlarini davr boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari bilan o'rtacha miqdorga keltiradi. Ekvivalent ishlab chiqarish davr davomida tugallangan mahsulot birliklarini tugallangan ishlab chiqarishdagi ekvivalent birliklarini qo'shish bilan aniqlanadi. So'ngra umumiy xarajatlar (davr boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari va joriy xarajatlar) mahsulot birligiga xarajatlarni aniqlash uchun ekvivalent birliklarga taqsimlanadi.

2) FIFO (FIFO) usuli.

FIFO usuli tugallanmagan ishlab chiqarishdagi buyumlar davr boshida tugallanishini, so'ngra yangi buyumlar ishlab chiqarishga kiritilishini nazarda tutadi. FIFO usuli tushunish uchun murakkab bo'lsa ham o'rtacha tortilgan usulga nisbatan aniqroq natija beradi, eng muhimi esa, haqiqiy shart-sharoitga asoslanadi. Bunday yondashuv davr davomida ekvivalent birliklarni ishlab chiqarish natijasida vujudga kelgan joriy xarajatlarni taqsimlashga olib keladi. Ekvivalent ishlab chiqarish uch elementdan iborat:

1. Davr boshiga tugallanmagan ishlab chiqarishdan tugallangan birliklar;
2. Ishlov berish boshlangan va tugallangan birliklar;

O'rtacha tortilgan usulni FIFO usuli bilan qiyoslash

O'rtacha tortilgan usul		FIFO usuli
1.	Davr boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot birligiga xarajatlarni hisoblash uchun joriy davr xarajatlariga jamlanadi.	mahsulot birligiga xarajatlarni hisoblash uchun faqat joriy davr xarajatlari kiritiladi.
2.	Davr boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarishdagi birliklar davr boshida ishlov berish boshlangan va tugallangan birlik sifatida hisobga olinadi.	Davr boshidagi qoldiqni tugallash uchun zarur ishgina ekvivalent birlik hisobiga kiritiladi. Davr boshida ishlov berish boshlangan va tugallangan birliklar alohida ko'rsatiladi.
3	Mahsulot birligidagi xarajatlarga o'tgan davr xarajatlari ham qo'shiladi.	Bir birlik xarajatlariga joriy davr xarajatlari ham qo'shiladi.
4.	Ishlab berish tugallangan birliklarning hammasi (boshqa jarayonga berilgan) bir xil hisobga olinadi	Ishlov berish tugallangan (boshqa jarayonga berilgan) birliklar ikki guruhga ajraladi: 1. tugallanmagan ishlab chiqarish boshidagi qoldiqlardagi birlik 2. davr davomida boshlangan va tugallangan birlik
5.	Tugallanmagan ishlab chiqarishdagi birliklar o'rtacha xarajatlar bo'yicha baholanadi	Tugallanmagan ishlab chiqarishdagi birliklar so'nggi xarajatlar bo'yicha baholanadi

Davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarishni hamda tugallangan mahsulot xarajatlarini baholash tartibi xarajatlarni bosqichli kalkulyatsiya qilishning har ikkala usulida o'xshash. Agar xaziralarning miqdori va jarayonda ishlatiladigan resurslarning narxi har oyda keskin o'zgarib, FIFO usulidan va o'rtacha hisoblangan narx usulidan foydalanganda hisob-kitoblardagi farqlar katta bo'lmaydi. Xarajatlarni kalkulyatsiyalashning bosqichli usuli maqsadlarida yuqorida ko'rilgan har ikkala usul maqbul hisoblanadi. Biroq xarajatlarni kalkulyatsiyalashning bosqichli usulini qo'llaydigan xo'jalik sub'ekti o'z hisob siyosatida ishlab chiqarishni hisobga olish qismida albatta foydalanadigan usulni ko'rsatishi kerak.

Standart-cost, Direkt-costing, Abzorption-costing tizimlarini qo'llash

Mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarishni boshqarish muammolarini yechishning obyektiv tendensiyalari 20-yillar boshidan AQShda qo'llaniladigan ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash usulini qaytadan ko'rib chiqishni taqozo qildi. Mahsulot birligining tannarxini hisoblash, narxlarni o'rnatish, xarajatlarni tezkor boshqarish va nazorat qilish uchun moddiy va mehnat xarajatlarning me'yorlari ishlab chiqila boshlandi.

Akslanishga yondashishga muvofiq ishlab chiqarish xarajatlari hisobida qo'llaniladigan usullarni ikkita asosiy guruhga ajratish ko'zda tutildi: o'tgan xarajatlar hisobi va standartlashtirilgan xarajatlar va ulardan chetga chiqishlarning hisobi. Ishlab chiqarishga bo'lgan xarajatlar hisobi va kalkulyatsiya usullari tizimida standart xarajatlar hisobi tizimi buyurtmalararo va jarayonlararo hisobda qo'llashni ko'zlab uni mustaqil va muhimlashgan sifatida ko'rilmaydi.

Me'yor-standartlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarishning boshlanishigacha standart kalkulyatsiyalarni tuzish va to'plam sifatida tizimlashgan standartlardan chetga chiqishlarni ajratish bilan haqiqiy xarajatlarning hisobi «standart-cost» tizimi nomini oldi.

Xarajatlarni normativ xarajatlar bilan aniqlashning to'liq amaldagi tizimini birinchi marta 1911 yilda AQSh da Ch.Garrison ishlab chiqdi va xayotga tatbiq etdi. Uning «Tanner hisobi ishlab chiqarishga yordam bermogda» mavzusiga (1918y) bag'ishlangan maqola oldindan nafakat «tarixiy» tannarx hisob tizimining uyg'unligiga e'tibor qaratgandi, balki ««Standart-cost»» ni tashkil etish variantlarining ko'plab tavsiflari keltirilgan.

Ch.Garrisonning «Standard-cost» g'oyasi ikki qoidaga bo'lingan:

- 1) barcha xarajatlar hisobda andozalar bilan solishtirilgan bo'lishi kerak;
- 2) haqiqiy xarajatlarga andozalar bilan qiyoslaganda aniqlangan og'ishlar sabablar bo'yicha bo'laklarga ajratilgan bo'lishi kerak.

O'zining vujudga kelish vaqti bilan ««Standart-cost»» hisob tizimi muvaffaqiyatli rivojlandi va hozir bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning ko'plab firmalari keng foydalanmoldalar.

«Standart-cost» atamasi ikki so'zdan tashkil topgan: «standart» mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun zaruriy ishlab chiqarish xarajatlari miqdorini (moddiy va mehnat) yoki mahsulot, xizmat ko'rsatish birligi ishlab chiqarishga oldindan hisoblab qo'yilgan xarajatlarni anglatadi, «cost» so'zi esa mahsulot

birligiga to'g'ri keladigan harajatlardir. Shunday qilib, «Standart-cost» so'zining to'liq ma'nosidan andozali harajatlarni anglatadi. Bu tizim eng avvalo ishlab chiqarishning bevosita chiqimlaridan foydalanish ustidan o'rnatilgan nazoratga yunaltirilgan, bir-biriga bog'liq kalkulyatsiyalar esa qo'shimcha sarflar nazorati uchun.

Amerika adabiyotida standart-cost tizimiga har-xil tushunchalar beriladi, bu tushunchaga har-xil mazmun kiritiladi. Lekin hamma hollarda ham bu tizim ishlab chiqarishning to'g'ri xarajatlarini tartibga solishga qaratilgan nazorat instrumenti sifatida tavsif qilinadi. Standart-cost tizimining ustunliklari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish va buyumlarning realizatsiyasi bo'yicha kutiladigan xarajatlar haqidagi ma'lumot bilan ta'minlash;
- mahsulot birligining oldindan hisoblab chiqilgan tannarxi asosida narxni o'rnatish;
- me'yordan chetga chiqishlar va ularning vujudga kelish sabablarini ko'rsatib daromad va sarflar haqidagi hisobotni tuzish.

Kutiladigan xarajatlar firma ichida hisoblab chiqilgan standartlar asosida aniqlanadi. Bu standartlar tizim funksiyalanishining asosi bo'ladi va uning mazmunini ochadi. Standartlarning butun yig'imi quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Hisobga olinadigan baholarning darajasiga muvofiq.

Ideal: materiallar, xizmatlarga bo'lgan tariflar, mehnatga haq to'lashga bo'lgan stavkalar va ustama sarflarning smeta stavkalariga bo'lgan eng ma'qul narxlarni ko'zlaydi.

Me'yoriy: iqtisodiy sikl mobaynida o'rtacha narxlar bo'yicha hisoblab chiqiladi.

Joriy: ma'lum hisob davrida kutilayotgan va bu davrda harakatda bo'lgan narxlar asosida hisoblashni ko'zlaydi.

Bazis: yil boshida o'rnatiladi va yil davomida o'zgarmay qoladi. Odatda ulardan narxlar indeksini hisoblash uchun qo'llaniladi.

2. Quvvatdan foydalanish darajasiga nisbatan.

Nazariy: ulardan yaxshi yoki ideal foydalanishda subyekt tomonidan erishiladi. Ular subyektning maqsadi hisoblanadi, quvvatdan to'liq foydalanish, dam olish vaqtining me'yorlangan qiymatiga asoslangan, yaroqsiz, turib qolishlar, buzilishlarga vaqt sarflashni ko'zda tutmaydi.

O'tgan o'rtacha bajarish: statistik ma'lumotlar bo'yicha hisoblanadi va yaroqsiz, turib qolishlar va buzilishlarga sarflangan vaqtni hisoblaydi, ya'ni oldingi davrning hamma kamchiliklarini nazarda tutadi.

Me'yoriy bajarish: kelajak davrda me'yorlarning kutilayotgan o'rtacha darajasini ko'zda tutadi.

3. Mahsulot chiqarish hajmiga nisbatan. Mahsulotning ishlab chiqarish hajmi standartlarni ishlab chiqarishga yondashishga birinchi darajada ta'sir ko'rsatadi.

Nazariy: subyektning nazariy quvvatiga asoslangan holda oldindan belgilangan. Ularga yoki erishib bo'lmaydi, yoki bir martalik tartibda erishiladi.

Amaliy: yaxshi bajarilishda subyekt tomonidan erishiladi, ular o'z darajasi

bilan yaxshi bajarilishida nazariy standartlarga yaqin, ishlab chiqarishning real erishiladigan darajasiga asoslangan va qochib bo'lmaydigan yo'qotishlarga yo'l qo'yadi.

Me'yoriy: sikl mobaynida ishlab chiqarishning yuqori va past hajmining o'rtacha qiymatidan kelib chiqqan holda mahsulot chiqarishning erishish darajasida hisoblanadi.

Kutilayotgan: mahsulot chiqarishning kutilayotgan hajmida ishlab chiqarishning aniq sharoitlari asosida hisoblanadi.

Mazkur tavsif Amerika firmalarida xarajatlarning moddalari bo'yicha standartlarni o'rnatishga har xil yondashishlarning mavjudligini ko'rsatadi. Lekin har bir yondashishda qabul qilingan standartlar buxgalteriyada ishlab chiqarish jarayoni boshlanguncha standart tannarx xaritalariga umumlashtiriladi. Kartalar buyum, bu buyumni, buyurtmani tayyorlashda ishtirok etadigan ishlab chiqarish bo'linmalari va buyurtmalar bo'yicha tuziladi.

Standart-cost tizimi to'g'ri xarajatlarni boshqarish vositasi sifatida namoyish qilinadi. Bu tizimning bir necha variantlaridan foydalaniladi. Bitta variantda xarajatlar «ishlab chiqarish» schyotining debetida to'planadi va standart qiymat bo'yicha baholanadi, tayyor mahsulot xuddi shunday standart qiymat bo'yicha shu schyotning kreditidan chiqarib tashlanadi, tugallanmagan ishlab chiqarish standart qiymat bo'yicha baholanadi. Ikkinchi variantning mazmuni «Ishlab chiqarish» schyotining debetida umumlashtirilgan xarajatlar haqiqiy qiymati bo'yicha baholanishdan, schyotning kreditidan esa tayyor mahsulot standart qiymat bo'yicha chiqarib tashlanishidan iborat. Tugallanmagan ishlab chiqarish haqiqiy xarajatlardan u yoki bu tomonga chiqib ketishlarni hisobga olgan holda standart qiymat bo'yicha hisoblanadi.

Haqiqiy xarajatlarning standartlardan chetga chiqishini Amerika firmalari odatda tannarxga olib bormasdan «Mahsulot, xizmat, ishlarning realizatsiyasi» schyotiga chiqarib tashlaydilar.

Subyektning quvvatlariga nisbatan standart-cost tizimini tashkil etish, standartlardan chetga chiqishlarni aniqlash va ularni chiqarib tashlash uslubiyati bo'yicha ishlar koordinatsiyasini standart-cost tizimi bilan bog'liq bo'lgan hamma bo'linmalarning vakillari amalga oshiradilar. Yanada yirik kompaniyalarda standartlarni tuzish, ularga o'zgartirishlar kiritish, hisoblash va boshqalar bo'yicha barcha ishlar jamlangan standartlar bo'linmasi tuziladi.

Standart-cost tizimi amaliyotda qo'llaniladigan xarajatlarni hisoblashning boshqa tizimiga ko'ra o'z xususiyatlariga ega. Birinchidan, vositalarni sarflash jarayonida standartlardan chiqib ketishlarni aniqlash asosi bo'lib ularni hujjatlashtirish emas, balki maxsus schyotlardagi buxgalteriya yozuvlari hisoblanadi. Menedjerlarning oldiga esa chetga chiqishlarni hujjatlashtirmaslik emas, ularga yo'l qo'yimaslik masalasi qo'yiladi. Ikkinchidan, aniqlangan chetga chiqishlarni hamma kompaniyalar ham emas, joriy standartlardan foydalanadiganlari buxgalteriya hisobida aks ettiradi. Standartlardan chetga chiqishlarni aks ettirish qismida uchinchi xususiyat bo'lib chetga chiqishlarni hisobga olish uchun maxsus sintetik schyotlarning kalkulyatsiya moddalarini, chiqib

ketishlarning omillari bo'yicha ajratish hisoblanadi.

Standart-cost tizimining mazkur xususiyatlari shuni ifodalaydiki, xarajatlarni boshqarish maqsadida har doim bu chetga chiqishlar, ularni hisoblash uchun, qanchalik muhimligi ko'rib chiqiladi; ular nimalarni ko'rsatadilar, qaysi muammolarni yechishda ulardan foydalanish mumkinligi; aniqlangan chetga chiqishlarning ishlab chiqarishga bo'lgan xarajatlarni tahlil qilishdagi muhimligi asosan e'tiborga olinadi.

Qo'shimcha sarflarning beqaror smetalari belgilarining asosida doimiy, o'zgaruvchan va yarim o'zgaruvchan harajatlarga mahsulot chiqarish hajmi kattaligiga bog'lik ravishda harajatlar tasnifi yotadi. So'ngilari o'z navbatida, doimiy va o'zgaruvchan tarkibiy unsurlarga bo'lib chiqiladi. Natijada qo'shimcha sarflarning smeta stavkasi (me'yori) mahsulot chiqarish va doimiy chiqimlar birligiga oldindan belgilangan me'yorlar ulushining o'zgaruvchan qismi sifatida aniqlanadi.

Kalkulatsiya qilishning milliy tizimining nazariyasi va amaliyoti rivojlanayotgan bozor munosabatlari sharoitlarida bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan boshqaruv hisobining tashkiliy tizimlarini o'rganishga muhtoj. Bunday tizimlardan biri to'g'ri xarajatlar bo'yicha mahsulotning tannarxini kalkulatsiya qilish tizimi hisoblanadi.

O'zgaruvchan xarajatlarni hisobga olish tizimi AQShda Buyuk depressiya davrida vujudga keldi va 50-yillarda keng tarqaldi. Buyuk depressiyadan oldin (1928 y) tayyor mahsulotning qoldiqlari to'liq xarajatlar bo'yicha hisoblangan tannarx bo'yicha baholanadigan edi. Depressiya realizatsiya qilinmagan mahsulotning katta zaxiralarini yaratishga olib keldi, to'liq xarajatlar bo'yicha baholash esa, o'sha davr tahlilchilarining fikricha foydani sun'iy buzishga olib kelgan. Ishlab chiqarishning hajmi va foydaning miqdoridan holi bo'lgan doimiy xarajatlarning hisobi daromadning qiymatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Tahlilchilarning fikricha, sarflangan xarajatlarning qaytishini va ishlab chiqarishning hajmini xarajatlar va foydalar aloqasi orqali hisoblash lozim. Bu aspektida, o'xshashlikka ega bo'lgan o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lish foydasiz deyilgan va egrilar bilan o'xshashlikka ega bo'lgan doimiy xarajatlarga ajratishga ijozat etilgan. Xarajatlarning yangi tizimi «direct-costing» nomini oldi.

Tizimning mazmuni- korxonada ishlab chiqarish xarajatlarini kalkulatsiya qilish uslubini ko'rib chiqishda 1936-yilda Djonatan Xarris tomonidan kiritilgan «direct-costing reja» mazmuniga asoslanadi.

Daromadlar va zararlar to'g'risidagi oylik hisobotning mazmunida oddiy ishlab chiqarish xarajatlari va egri ustama sarflarni chegaralash boshlandi. Ishlab chiqarish sarflarini differentsiyalash daromadning hajmini, mahsulot realizatsiyasi hajmining bog'langanligini aniqlashga va tannarxni boshqarishga yordam berdi. Shunday qilib, bu tizimning mazmuni quyidagiga olib kelindi: to'g'ri xarajatlar tayyor mahsulotlarning turlari bo'yicha umumlashtiriladi, egri xarajatlar esa alohida schyotda to'planadi va ular vujudga kelgan davrning umumiy moliyaviy natijalariga olib boriladi. Agar har bir buyum bo'yicha tushgan daromad summasidan bu buyum bo'yicha sarflangan o'zgaruvchan xarajatlar chiqarib

tashlansa unda buyum bo'yicha brutto-daromad olamiz. Hamma buyumlar bo'yicha olingan brutto-daromadni jamlab doimiy xarajatlarning umumiy summasini qoplash uchun mo'ljallangan daromadning umumiy qiymatini olish mumkin.

Direkt-costing tizimidagi amaliy izlanishlar xarajatlar bo'linishining shartlilikini ko'rsatadi. Bir subyektda qabul qilingan yo'l qo'yishlar natijalarni hisoblab chiqishda hisoblanishi kerak. Direkt-costing tizimi bo'yicha tannarxni kalkulyatsiya qilish ishlab chiqarishning turli hajmida doimiy sarflarning o'zgarmas qiymatini ko'zlaydi, shuning uchun boshqaruv hisobida asosiy e'tibor doimiy sarflarga qaratiladi. Subyekt va tizimli bo'linmalarning rahbarlari bu xarajatlarni boshqarishning nazorat funksiyalarini kuchaytiradilar.

Direkt-costing tizimi bir necha farqlovchi xususiyatlarga ega: birinchisi- ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgaruvchan va doimiyga ajratish; ikkinchisi- mahsulot tannarxini cheklangan xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiya qilish; uchinchisi- foydalar haqidagi hisobotlarni tuzishning ko'p bosqichligi.

Birinchi bosqichda tayyor mahsulotni ishlab chiqarish hajmining to'g'ri (o'zgaruvchan) xarajatlar bilan aloqasi o'rnatiladi, alohida turdagi mahsulotni ishlab chiqarishning rentabelligi aks ettiriladi. Ikkinchi bosqichda bitta schyotda umumlashtirilgan egri (doimiy) sarflar bir turdagi mahsulot realizatsiyasidan olingan qo'yilma bilan taqqoslanadi. Natijada butun ishlab chiqarish va realizatsiyaning rentabelligini aks ettiradi. Shunday qilib, bu tizim realizatsiyaga qaratilgan. Realizatsiyaning hajmi qancha ko'p bo'lsa subyekt shuncha ko'p daromad oladi. Tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish faqat o'zgaruvchan (to'g'ri) xarajatlar bo'yicha baholanadi. Baholashning bunday tizimi subyektlarda realizatsiyani ko'paytirishning yangi imkoniyatlarini izlashga qiziqish uyg'otadi.

Subyektlarda direct-costing hisobi tizimi har-xil tartibda tashkil etilishi mumkin. Bu yerda ikkita avtonom va integratsiya yondashish ishlatiladi. Xarris tizimi boshqaruv va moliyaviy hisob integratsiyasiga asoslangan. Boshqaruv va moliyaviy hisobning umumiy tizimi bosh kitobda hamma ichki oborotlarni aks ettirishni ko'zlaydi.

Hisob yuritishning integratsiyalangan tizimining murakkabligi, hisob muomalalarining katta hajmi bilan farq qiladi, ko'p hollarda qimmat va oddiy emasligi bilan ajralib turadi. Ko'p hollarda integratsiyalashgan tizim boshqaruv hisobi prinsipiga, ya'ni tijorat sirlarini saqlashga rioya qilmaydi (buzadi).

Shunday qilib, "Direkt-costing" hisob tizimi qisqartirilgan qo'rinishda quyidagi xususiyatlarga:

- 1) Hisobni birinchi navbatda marjinal daromad, ya'ni oraliq natijani aniqlashga yo'naltirilishi;
- 2) Mahsulotni faqat o'zgaruvchan xarajatlar nuqtai-nazaridan hisob qilish va ishlab chiqarish tannarxini aniqlash;
- 3) Butun korxonaga bo'yicha doimiy xarajatlar hisobi va ularni yakuniy moliyaviy natijani aniqlash uchun operatsion foydani kamaytirishga qaratish;
- 4) Baholar va ularni tezkor boshqarish jarayoni bazasi sifatida marjinal

daromadni aniqlash;

5) Sotish hajmi, tannarx va foyda o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va munosabatni aniqlash;

6) Zararsizlik nuqtasini belgilash, (bunda mahsulot sotishdan tushgan kirim uning to'la tannarxiga teng bo'ladi).

«Direkt-costing hisobi tizimi»ning asosiy afzalliklari quyidagilar:

1. Mahsulot tannarxini hisoblashdagi soddalashtirish va aniqlik (chunki tannarx faqat o'zgaruvchan xarajatlar qismidagina rejalashtiriladi va hisobga olinadi).

2. Mehnat turlari o'rtasida doimiy xarajatlarni shartli taqsimlash uchun murakkab hisob-kitoblar tuzish bo'yicha dasturlarning yo'qligi (ularni mahsulot tannarxi tarkibiga kiritmaydilar va moliyaviy natijani kamaytirishga bevosita yozib qyadilar).

3. Rentabellik darajasi (zararsizlik nuqtasi, sotish hajmi), korxonahazirasi va mahsulot yoki buyurtma bahosining quyi chegarasini aniqlash imkoniyati.

4. Mahsulotning xilma-xil turlari bo'yicha rentabellik darajasini qiyosiy tahlil qilish imkoniyati.

5. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishning qulay dasturini aniqlash imkoniyati.

6. O'zi ishlab chiqargan mahsulot yoki xizmatlar, ularni chetdan sotib olish o'rtasidagi tanlov imkoniyati.

«Direkt-costing» rahbarlarga butun korxonaham, turli mahsulotlar bo'yicha ham marjinal daromadning o'zgarishiga e'tiborni kuchaytirishga imkon beradi: yuqori rentabelli mahsulotni aniqlash, chunki sotish bahosi va o'zgaruvchan xarajatlar summasi o'rtasidagi tafovut alohida mahsulotlar tannarxi doimiy xarajatlarni yozib qo'yish natijasida yashirinib qolmaydi, tizim bozor sharoitlari o'zgarishga javoban ishlab chiqarishni tez ilg'ab olish imkonini beradi. Bunday sharoitda u yana bozor va erkin raqobat sharoitida korxonani boshqarish tizimi-marketingning tarkibiy qismiga aylanadi.

Foydalar to'g'risidagi hisobotni tuzishni ko'p jarayonlik asosida marjinal foydalar haqidagi hisobot yotadi. Direkt-costing tizimidagi foyda va sarflar haqidagi taxminiy hisoboti quyidagi jadvalda keltirilgan (shartli).

Marjinal daromad usuli bo'yicha daromadlar va sarflar to'g'risidagi hisobot

№	Ko'rsatkichlar	Summa, ming so'm
1.	Realizatsiya qilingan mahsulotning hajmi	5700
2.	O'zgaruvchan xarajatlar	3300
3.	Marjinal foyda (1 qator-2 qator)	2400
4.	Doimiy sarflar	1370
5.	Sof foyda (yoki zarar) (3 qator-4 qator)	1030

Keltirilgan hisobda ikki pog'ona mavjud: yuqori - marjinal daromad; pastki - hisobda bosqichlar bo'yicha jarayonda to'ldiriladigan sof foyda. Agar o'zgaruvchan xarajatlarni ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga bo'lsak mazkur hisobot uch bosqichda tuziladi. Birinchi bosqichda marjinal foyda mahsulot

realizatsiyasidan tushgan pul bilan o'zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi. Uchinchi bosqichda jamlama marjinal foyda bilan doimiy xarajatlar summasini taqqoslash yo'li bilan sof foyda (yoki sof zarar) hisoblanadi. Keyin hisobotning pog'onaliligini doimiy xarajatlarni shartli-doimiy va shartli-o'zgaruvchanlarga bo'lish bilan ko'paytirsang bo'ladi. Ayrim hollarda pog'onalar xarajatlar va foydalarni guruhlashning boshqa belgilarini ko'zda tutishi mumkin. Masalan, aniq buyumlar yoki buyumlar guruhiga to'g'ri munosabatga ega bo'lgan doimiy xarajatlarning guruhlanishi; doimiy xarajatlarning hududlar, sotuv segmentlari yoki taqsimlash kanallari bo'yicha bo'linmalarini nazarda tutadi.

O'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha tannarxni kalkulyatsiya qilish doimiy xarajatlar, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning har bir turiga foyda olish uchun qo'yilmalar, mahsulot chiqarishning assortimentiga rioya qilish ustidan nazorat o'rnatishni ta'minlaydi. Bunday kalkulyatsiyalar mas'uliyat markazlari tomonidan nazorat qilinmaydigan xarajatlarni, daromadli va daromadsiz muomalalar o'rtasidagi farqni, me'yorga nisbatan xarajatlarning hulqini aniqlaydi. Nazoratning asosiy prinsipi bog'liqlik bo'ladi: material - jonli mehnat - ustama sarflar.

Mahsulot tannarxini o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiya qilishning boshqa muhim momenti bo'lib kalkulyatsiyani hajm va daromadning muqobil nisbatini hisoblash uchun ma'lumotni shakllantiruvchi ishlab chiqarishning zararsizlik tahlili bilan aloqasi hisoblanadi.

O'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiya qilish prinsipi tanlovining ustunliklariga uning buyumlarga narx o'rnatishda to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini, biznesning turli segmentlarining ishlab chiqaruvchanligini rag'batlantirishni kiritish lozim.

Direkt-costing tizimi boshqaruv tizimining takomillashuviga muvofiq rivojlanadi. Rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishning qayishqoqligi direct-costing tizimiga budjetlar (smetalar) va topshiriqlarni, ulardan foydalanish tahlilini kiritishni talab qildi. Zamonaviy direct-costing tizimining xususiyati bo'lib standartlarni nafaqat o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha, balki doimiy xarajatlar bo'yicha ham, qisman doimiy ustama sarflarning o'zgaruvchan qismi bo'yicha ishlatish hisoblanadi. Standart direct-costing- bu subyektning yakuniy maqsadi- sof foyda olishga erishish vositasidir.

Direkt-costingning nazariy va amaliy tadqiqoti uni xos bo'lgan kamchiliklarini aniqlashga imkon beradi:

1) Raqobat kurashida demping – bu alohida mahsulotlar bo'yicha bozorda imtiyozli holatga erishish uchun ataylab pasaytirilgan baholar bo'yicha tovarlar sotishdan foydalanganda shunday xatar yuzaga keladiki, doimiy xarajatlar marjinal daromad hisobidan qoplanishi mumkin bo'lmaydi, ya'ni korxonalar zararlar qopqoniga tushib qoladi.

2) Direkt-costing tizimini qo'llab quvvatlamaydiganlar fikricha, amaliy faoliyatda xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarga taqsimlashda birmuncha qiyinchiliklar yuzaga keladi. U ko'rib chiqiladigan vaqtning uzoqligiga va mahsulot hajmining tahlil etiladigan miqyosiga bog'liq bo'ladi. Ularning

fikricha, Direkt-costing tizimi ishlab chiqarilgan mahsulot qancha turadi va uning to'liq tannarxi qanaqa degan savollarga javob bermaydi. Shu bois tayyor mahsulot yoki tugallanmagan mahsulotning to'liq tannarxini bilish zarur bo'lganda shartli-doimiy xarajatlarning qo'shimcha tarzda taqsimlash talab etiladi. Aks holda ular qiymati pasayib ketadi.

3) Faqat ishlab chiqarish tannarxi, ya'ni moddalarning qisqartirilgan nomenklaturasi nuqtai-nazaridan hisob olib borish hisobning O'zbekiston tizimi talablariga javob bermaydi, chunki qonunga binoan zaruriy mahsulotning to'la tannarxi hisob-kitobi yo'q bo'ladi.

Endi Direkt-costing tizimini O'zbekiston korxonalarini boshqarishda qo'llashning imkoniyatlari va maqsadga muvofiqligini qo'rib chiqamiz.

Kalkulyatsion variant O'zbekistondagi buxgalteriya hisobi uchun an'anaviy hisoblanadi. Undagi hisob mahsulotning to'la tannarxi haqida ma'lumotlar olishga qaratilgan. Bu variantda mahsulot tannarxi doimiy va o'zgaruvchan, asosiy va qo'shimchalarga, bevosita va bilvosita, uzluksiz ishlab chiqariladigan va davriylikka bo'linishdan qat'iy nazar korxonaning barcha xarajatlari kiradi. Bevosita mahsulotga ta'lluqli bo'lmaydigan xarajatlar bir oy mobaynida taqsimot schyotlarida to'planadi, keyin tanlangan bazaga mutanosib tarzda mahsulot tannarxiga o'tkaziladi. Biroq bu variantda bir muhim holat hisobga olinmaydi: mahsulot birligi tannarxi mahsulotni ishlab chiqarish hajmi o'zgarganda o'zgaradi. Agar korxonada mahsulot chiqarish va sotishni kengaytirsam mahsulot birligi birligi tannarxi pasayadi, agar korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmini qisqartirsam, tannarxi qisqaradi.

Bunday sharoitda O'zbekiston korxonalarida Direkt-costing tizimi qo'llash zarurligi va maqsadga muvofiqligi dolzarb bo'lib qoladi. Bu borada 1991 yil burilish davri bo'ldi. Bunda O'zbekiston korxonalarida asta-sekin cheklangan tannarxni kalkulyatsiya qilishning O'zbekiston hisobi uchun no'an'anaviy bo'lgan usulini o'zlashtira boshladilar. Bu usul Direkt-costing tizimi asosida joriy qilina boshladi.

Korxonada va tashkilotlar moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarining rejasi yo'riqnomasining taxririda, 9400 schyotga tushuntirishlarda paydo bo'ladi. Unda shunday deb ko'rsatilgan: «Korxonada ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarni korxonada qabul qilgan tartibga bog'liq ravishda ko'rsatib o'tilgan xarajatlar shartli-doimiy xarajatlar sifatida 9000-«Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan daromadlar» schyot debetiga yozib qo'yishlari mumkin».

Direkt-costing hisob tizimini vaqtincha korxonalarda tatbiq etishda buxgalteriya hisoboti tuzish bilan bog'liq normativ xujjatlar imkon berdi.

Xulosa qilib ta'kidlamog'chimizki, Direkt-costing tizimi bo'yicha O'zbekiston korxonalarida hisobi amaliyotini tashkil etish shunchaki xavafli emas, balki uni amaliyotga joriy etish bugungi kunda talabidir. Uni qo'llash korxonalar ishlab chiqarishi va tijorat faoliyati samaradorligini oshirishga, sanab qutilgan ko'rsatkichlar nazoratini, tahliliyligi va ishonchliligini kuchaytirishga va mahsulot tannarxini pasaytirishning zahiralari to'la aniqlash va foydalanishga

imkon beradi.

Xarajatlarni to'la taqsimlab tannarxni kalkulyatsiya qilish (abzorpshen-costing) – bu mahsulot tannarxini sotilgan mahsulotlar va omborda mahsulot qoldig'i o'rtasidagi barcha ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlab kalkulyatsiyalash usulidir, ya'ni bu usuldan foydalanganda doimiy ishlab chiqarish sarflari zaxira sig'imi bo'ladi. Kalkulyatsiyadan tashqi foydalanuvchilar uchun foyda va zarar to'g'risida hisobot tayyorlash maqsadida foydalaniladi.

Quyida xarajatlarni to'la taqsimlab tannarxni kalkulyatsiyalash (abzorpshen-costing) va o'zgaruvchi xarajatlar bo'yicha (direct yoki veribl-costing) kalkulyatsiyalashdan foydalanib tayyorlangan foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotlar keltirilgan.

Foyda va zararlar to'g'risida hisobot (abzorpshen-costing), sh.b.

Sotishdan tushgan daromad	1 000
<i>Minus</i> Sotilgan mahsulot tannarxi (barcha ishlab chiqarish xarajatlari kiritiladi)	<u>600</u>
Yalpi foyda	400
<i>Minus</i> Ma'muriy sarflar va sotish bo'yicha sarflar (doimiy va o'zgaruvchi)	<u>300</u>
Operatsion foyda	<u>100</u>

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot (direct-costing), sh.b.

Sotishdan tushgan daromad	1 000
<i>Minus</i> O'zgaruvchi ishlab chiqarish xarajatlari (bevosita materiallar, to'g'ri mehnat, o'zgaruvchi ishlab chiqarish ustama sarflari)	<u>360</u>
<i>Minus</i> O'zgaruvchi ma'muriy sarflar va savdo sarflari	<u>120</u>
Marjinal daromad	520
<i>Minus</i> Doimiy xarajatlar:	
Doimiy ishlab chiqarish ustama sarflari	240
Doimiy ma'muriy sarflar va sotish sarfi	<u>180</u>
Operatsion foyda	<u>100</u>

Xarajatlarni to'la taqsimlab kalkulyatsiyalash va tannarxni o'zgaruvchi xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiyalashning foyda miqdoriga ta'siri

Holatlar	Foyda miqdoriga ta'sir
Ishlab chiqarish sotilgan mahsulotga teng	Agar ishlab chiqarilgan mahsulotning hammasi har bir davrda sotilsa, bu holda ikkala kalkulyatsiyadan foydalanganda operatsiya foydasi bir xil bo'ladi
Ishlab chiqarish sotilgan mahsulotdan ko'p	Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining sotilgan mahsulot miqdoridan ko'p bo'lishi zaxiralarning ko'payishiga olib keladi. Abzorpshen-costingdan foydalanilganda doimiy ICHUXning bir qismi zaxiradagi mahsulot birligining tannarxiga o'tadi. Direkt-costingdan foydalanilganda barcha doimiy ishlab chiqarish ustama sarflari shu davr sarflariga qo'shiladi. Shu sababli abzorpshen-costing usulida hisoblangan foyda direct-costing bo'yicha hisoblangan foydadan ko'p bo'ladi.
Sotilgan mahsulot ishlab chiqarilgan	Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarilgan mahsulotdan ko'p bo'lishi zaxiralarning kamayishiga olib keladi. Abzorpshen-costingdan

mahsulotdan ko'p	foydalanganda zaxiradagi birliklarning tannarxiga o'tkazilgan doimiy ishlab chiqarish ustama sarflarining bir qismi sotilgan mahsulotning tannarxi sifatida sarflarga o'tadi. Direkt-costingdan foydalanganda barcha doimiy ishlab chiqarish ustama sarflari ular sodir bo'lgan davrning xarajatlariga qo'shilgan. Shu sababli abzorpshe-costingda olingan foyda direct-costing bo'yicha hisoblangan foydadan kam bo'ladi.
------------------	--

Abzorpshe-costing:

- Doimiy ishlab chiqarish xarajatlariga etarli e'tibor beradi. Xalqaro moliyaviy hisobot standarti (XMHS) doimiy ishlab chiqarish xarajatlarini zaxiralari qiymatiga qo'shishni talab qiladi. Tashqi maqsadlar uchun abzorpshe-costingdan foydalanish moliyaviy ko'rsatkichlarni o'z hisobotlarini XMHS bo'yicha tuzadigan boshqa kompaniyalarning ko'rsatkichlari bilan taqqoslashni ta'minlashga imkon beradi.

- Hisobotda xaddan ortiq zararlar va foydani aks ettirishdan qochish imkonini beradi.

Mavsumiy biznesda zaxiralarni ko'paytirish davrida direct-costingdan foydalanilganda doimiy ishlab chiqarish xarajatlari davr xarajatlariga qo'shiladi. Shu sababli zaxiralarni ko'paytirish davrida katta zarar qayd etiladi, tovarlarni sotish davrida katta foyda qayd etiladi. Abzorpshe-costingdan foydalanilganda zararlar va foyda ancha barobarlashadi.

Mahsulot tannarini aniqlashning JIT va AB- costing tizimlari

Ma'lumki, ishlab chiqaruvchilar faoliyati ishlab chiqarish xarajatlarini maksimal darajada kamaytirib, yuksak sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Bunday sharoitda ishlab chiqarishni boshqarish va mehnatni tashkil etishning iqtisodi rivojlangan mamlakatlarda qo'llaniladigan ilg'or shakl va uslublaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan biz uchun JIT (Just-in-time, ya'ni «Aniq muddatda») tizimi bo'yicha ishlab chiqarishni boshqarish usuli alohida qiziqish uyg'otadi.

JIT tizimi XX-asrning 70-yillarida Yaponiyada «Tayoto» kompaniyasida joriy qilindi va hozirgi vaqtda mamlakatning juda ko'p sanoati rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Yaponiyada «Kenbon» ya'ni «Kartochka» yoki «yozuvning vizual tizimi» ma'nosida qo'llanilib kelmoqda.

Umuman JIT tizimining asl mohiyati shundaki, u mahsulotni yirik turkumlarda ishlab chiqarishdan voz kechishni, buning o'rniga uzluksiz - oqimli mahsulot ishlab chiqarishni maqbul deb biladi. Bunda ishlab chiqarish tseklari va uchastkalari mayda-mayda turkumlar bilan ta'minlanadi va donalab mahsulot ishlab chiqarila boshlanadi. Mazkur tizim tovar-materiallar zahiralar mavjudligiga o'ta salbiy munosabatda bo'ladi. Sababi, ularni saqlashga ko'p xarajatlar talab etiladi, qolaversa katta moddiy g'amlama va zahiralar hamda moliyaviy resurslar korxonada faoliyati samaradorligini so'ndiradi va raqobatbardoshligini susaytiradi. Amaliyot nuqtai-nazaridan JITning bosh maqsadi har qanday ortiqcha xarajatlarni yo'qqa chiqarish va korxonada ishlab chiqarish quvvatidan samarali foydalanish hisoblanadi.

Ushbu tizimda bir tamoyil hukm suradi: mahsulotni unga talab bo'lgandagina chiqarish, xaridor nechta so'rasa, shuncha chiqarish. shunda talab har doim mahsulot bilan ta'minlangan bo'ladi. Har bir operatsiya chog'ida keyingi operatsiya uchun talab etilgan ish bajariladi. Ishlab chiqarish jarayonida operatsiyalarning qat'iy ketma-ketligi ta'minlanadi. Detallar, qismlar va materiallar ishlab chiqarish jarayonida ulardan foydalanish zaruriyati tug'ilgandagina etkazib beriladi.

JIT tizimi ishlab chiqarilayotgan turkum miqdorini kamaytirishni, tugallanmagan mahsulot (ishlab chiqarish)ni amalda yo'qqa chiqarishni, tovar-moddiy zahiralari hajmini eng kam darajaga keltirish va ishlab chiqarish buyurtmalarining oylar va haftalar bo'yicha emas, balki kunlar va soatlar bo'yicha bajarishni ko'zda tutadi. Bunday sharoitda ishlab chiqarish hisobi tizimi ham soddalashadi, chunki ishlab chiqarishga ketadigan materiallar va xizmatlar hisobini birgina yaxlitlashgan hisobda amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu tizimni qo'llash chog'ida korxonalar xarajatlarining bir qismi bevosita razryadidan bilvosita razryadiga o'tadi. Masalan, JIT tizimi bo'yicha ishlab chiqarishni tashkil etish sharoitida ishlab chiqarish liniyalarida ishchilar texnik xizmat, ta'mir va sozlash ishlarini ham bajarishlari kerak bo'ladi, aslida bularni boshqa ishchilar bajarar va bilvosita xarajatlarga kiritishar edi. Bu o'z navbatida, mahsulot birligi tannarxining aniqligini oshiradi.

Qiymatni boshqarish ishlab chiqarish hisobidan shu bilan farq qiladiki, bunday olganda xarajatlar tovar-moddiy zahiralari va moliyaviy hisobotga bevosita ta'sir ko'rsatadimi, yo'qmi, bundan qat'iy-nazar xarajatlar darajasini boshqarish tushuniladi. JIT tamoyillarini qo'llash xizmat sifatini ko'tarishga va bahoni aniq belgilashga imkoniyat tug'diradi. Ishlab chiqarish xarajatlari jarayonini soddalashtiradi va xarajatlarni soddalashtirish mahsulot sifatini yaxshilashga. An'anaviy boshqarish va nazorat qilishda menenjerlarga yordam beradi. Bunday tarzda ishlab chiqarish hisobi tizimi ko'plab hisob-kitob operatsiyalari va hisobot ma'lumotlari bilan yanada murakkab tizimga aylana boradi. Bu jarayonning soddalashishi ishlab chiqarish hisobi tizimini bahoni boshqarish tizimiga aylantiradi. JIT hisob tizimida materiallar va tugallanmagan mahsulot hisobi bitta yaxlit hisobda olib boriladi. Bunday sharoitlarda materiallar, ombor zahiralari ustidan nazorat uchun alohida hisobdan foydalanish o'z dolzarbligini yo'qotadi. Moddiy boyliklar harakati bo'yicha buxgalteriya qaydlari quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

1. Pudratchilardan moddiy zahiralarning kelib tushishi:

Debet-«Tugallanmagan mahsulotdagi resurslar» schyoti.

Kredit-«Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» schyoti.

2. Tayyor mahsulotni chiqarish va sotish:

«Mahsulot sotishdan olingan daromadlar» schyoti debeti.

«Tugallanmagan mahsulotdagi resurslar» schyoti krediti.

JIT hisob tizimini qo'llashda mehnatga haq to'lash va zavodning qo'shimcha xarajatlariga sarflangan bevosita xarajatlar ishlab chiqarish hisobiga

yoziqmaydi. Bevosita mehnat umumzavod qo'shimcha xarajatlarining qo'shimcha qismi sifatida qarab chiqiladi. Zavodning qo'shimcha xarajatlari, mehnatga to'langan bevosita xarajatlar bilan birgalikda sotilgan mahsulot tannarxiga yoziladi. Ularning mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi yozilishi, ya'ni «Tugallanmagan mahsulotdagi resurslar» hisobraqamida aks ettirilishi bunday sharoitda hech qanday ma'noga ega emas.

Ko'plab firmalar sotib olinshni tashkil etishda an'anaviy buxgalteriyaning materiallarni sotib olish bahosidan og'ishlar hisobiga asosiy e'tiborni qaratadilar. Tegishli chegirishlar bilan katta miqdordagi materiallarni sotib olish yoki past sifatli mahsulot sotib olish hisobiga, odatda, hisob-kitob bahosidan maqbul tarzda og'ishlarga erishiladi. JIT sharoitlarida esa faqatgina sotib olish baholari darajasiga emas, balki operatsiyalarning sifatiga, olish mumkinligiga va umumiy qiymatiga zo'r e'tibor beriladi.

Ishlab chiqarish an'anaviy tashkil etilgan ko'plab korxonalarda ishlab chiqarish hisobi sohasidagi operatsiyalarning aksariyat qismi mehnat xarajatlari va qo'shimcha xarajatlar bo'yicha me'yoriy xarajatlarni tatbiq etishga, shuningdek, bu me'yoriy xarajatlar bo'yicha eski og'ishlar hisobini ham aniqlashga harakat qilinadi. JIT tizimi bo'yicha ishlaydigan kompaniyalarda esa Dj.Shin va Dj.Sigel ta'kidlaganidek, «ishchi kuchi va qo'shimcha xarajatlar bo'yicha og'ishlar hisobiga e'tibor susayadi. Og'ishlar tahlilidan foydalanish korxonada darajasida saqlanib qoladi, biroq har bir muayyan xodisa uchun og'ishlarning mutloq ahamiyati nuqtai-nazaridan asosiy e'tibor ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishning ma'lum tendentsiyalari hisobiga o'tadi»

Bundan tashqari, ishlab chiqarish samaradorligi hisobining ko'plab tizimlarida e'tirof etilgan an'anaviy ko'rsatkichlar (masalan, mahsulot ishlab chiqarish normasining bajarilishi va uskunalardan foydalanish koeffitsienti). JIT tizimidagi bahoni boshqarish tamoyillari doirasiga kiritilmaydi. Bunday nomuvofiqlik:

1. Aniq vaqt rejimidagi zaruriy ehtiyojlar hisobisiz tovar-moddiy boyliklar shakllanishini kuchaytiradi;
2. Ko'proq me'yoriy ko'rsatkichlar asosida samaradorlikni baholashga sotish hajmi va mahsulot sifatiga nisbatan ishlab chiqarish hajmining ustuvorligiga bo'lgan e'tiborni kuchaytiradi;
3. Tovar-material boyliklari zahiralarning ularga bo'lgan ehtiyoji darajasiga nisbatan ko'p bo'lishga olib keladi.

Xarajatlarning bevosita va bilvosita tasniflanishi

№	Xarajatlarning turlari	Hisobning an'anaviy tizimida	JIT hisob tizimida
1	Mehnat xarajatlari	Bevosita	Bevosita
2	Moddiy xarajatlar	Bevosita	Bevosita
3	Materiallarni qayta ishlash	Bilvosita	Bevosita
4	Ta'mirlash va texnika xizmati	Bilvosita	Bevosita
5	Energiya ta'minoti	Bevosita	Bevosita
6	Joriy xarajatlar	Bilvosita	Bevosita
7	Sifat nazorati	Bilvosita	Bevosita

8	Binolar va inshootlar amortizatsiyasi	Bilvosita	Bilvosita
9	Sug'urta to'lovlari, soliq va yig'imlar	Bilvosita	Bilvosita
10	Binolar ijarasi	Bilvosita	Bilvosita
11	Texnologik jihozlar amortizatsiyasi	Bilvosita	Bevosita
12	Ishlab chiqarish xizmatlari va ularni boshqarish	Bilvosita	Bilvosita

JIT tizimining qator afzalliklari ham bor. Birinchidan, uni qo'llash g'amlamalar va zahiralar darajasining kamayishiga olib keladi. Dj.Shim va Dj.Sigellarning ta'kidlashicha, ko'plab yapon kompaniyalarida JIT tizimidan foydalanish zaxaralarni shu darajada kamaytirib yuboradiki, buning oqibatida bir yilda kapital aylanmasining aylanishi AQSh firmalariga nisbatan bir necha yuqori bo'lgan.

Ikkinchidan, JIT tizimini qo'llash sharoitida buyurtmani bajarish ishonchi ancha oshadi, chunki materiallarni sotib olish va saqlashga ancha oz vaqt ketadi. Buyurtmani bajarish jarayonining qisqarishi va uni bajarishning hisobi ham zahiradagi ehtiyojining jiddiy kamayishiga imkon tug'diradi. Bu ehtimol tutilgan etishmovchilik oldini olish uchun saqlanadigan zahiralarining qo'shimcha hisoblar birligini o'zida namoyon etadi. Bunday sharoitda ishlab chiqarish grafigi reja ishlab chiqarish istiqboli doirasida ham qisqaradi. Bu bozor konstrukturasining o'zgarishini hisobga olish uchun zarur bo'lgan vaqtdan yutishga imkon beradi.

Qulay ishchi holatiga tezkor o'tish munosabati bilan mayda turkumli mahsulotlarni ishlab chiqarishning ham katta moslashuvchanligiga erishiladi.

Uchinchidan, ushbu tizimni qo'llashda mahsulot sifatini yaxshilanishi kuzatiladi. Buyurilgan mahsulot miqdori katta bo'lmaganda sifat bilan bog'liq muammo engil hal bo'ladi va tuzatishlar tezlik bilan kiritiladi. Bunday sharoitda ko'pgina firmalarning ishchilarida sifat haqidagi tushuncha ortadi, o'z navbatida ish joylaridagi mahsulot sifati ham yaxshilanadi.

JITning boshqa afzalliklari:

1. Materiallar va tayyor mahsulotlar zahiralar uchun omborxonalarni tutishga ketgan kapital xarajatlari kamayadi;
2. Zahiralarining ma'noviy jihatdan eskirish tavakkali kamayadi;
3. Yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarish tufayli zarar ko'rish kamayadi va qayta ishlash xarajatlari ozayadi;
4. Xarajatlarning hajmi qisqaradi;
5. Sifatni oshirish hisobiga asosiy ishlab chiqarish materiallari xarajatlari kamayadi.

Bundan tashqari, JIT tizimi ishlab chiqarish hisobi xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Uni qo'llash sharoitida bilvosita xarajatlarning ahamiyati oshadi. Bunday hol turlar o'rtasida xarajatlar taqsimoti uchun turli xarajatlarni eltuvchilardan foydalanish maromini pasaytiradi, shu bilan birgalikda xarajatlar kalkulyatsiyasining aniqligi ortadi. Pirovardida ishlab chiqarish hisobining boshqarish tizimiga aylanishi sodir bo'ladi. Undan mahsulot turi, baho, tannarx, mahsulotni sotish tarkibi va yo'llari haqida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi talabni qondirish uchun foydalaniladi. Bu esa ishlab chiqarish va tijorat

faoliyatining bundan keyingi takomillashuviga imkon tug'diradi.

Activity Based Costing (yoki ABC) usuli turli yo'nalishdagi Evropa va Amerika korxonalarida yoyilgan. Tom ma'noda bu usul ishlar bo'yicha xarajatlar hisobini anglatadi (xarajatlarning funktsional hisobi). U iqtisodiy tuzilmada sodir bo'lgan o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan. Ilgari tannarx hisob-kitobi doimiy (absorbtion costing) va o'zgaruvchan (direct costing) xarajatlar hisobiga bo'linar edi.

O'zgaruvchan xarajatlar mahsulot tannarxiga taqsim qilinadi, shu tariqa u to'la ishlab chiqarish chiqimlarini aks ettiradi. Doimiy xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilmaydi, balki xarajatlar kabi davriy xarajatlarga yoziladi. Biroq amalda korxonada faoliyatini yurgizish uchun resurslarni uzoq muddat bilan ishlab chiqarishga, marketingga, sotishga, xizmat ko'rsatishga jalb etishni talab etiladi. Shu bois hisob-kitoblarga marjinal chiqimlar va daromadlar katta daromad keltirishga qaramay, Direkt-kosting usulini qo'llash faqat ma'lum sharoitlardagina samara beradi.

Birinchi, korxonadagi bevosita xarajatlar xarajatlarning juda katta qismini tashkil etishi kerak.

Ikkinchi, u oz miqdordagi mahsulotni ishlab chiqarishi kerak (bir-ikki turni, ulardan har biri uchun deyarli tepa-teng mo'ljallangan xarajatlar talab etiladi). Agar korxonada bunday talablarga javob bermasa, tannarx ko'rsatkichlarining buzilishi muqarrar tusni oladi: mayda turkumli mahsulotga past baholar va yirik turkumlarga yuqori baholar, boshqaruv hisobiga qaraganda moliyaviy hisobda daromadlar ancha past, oddiyliklarga qaraganda texnologik jihatdan murakkab va innovatsion mahsulotlarni foydaliligi yuqori bo'lib ko'rinadi. Binobarin, boshqaruv hisobining asosiy vazifalarini hal etish uchun doimiy va o'zgaruvchan ko'rsatkichlariga qo'llash samara bermaydi.

Xarajatlar haqida xolis axborotni olishning yangi usullarini qidirib topish ABC usulining paydo bo'lishiga olib keldi. Unga ko'ra korxonada uning xususiyatini aniqlovchi ishchi operatsiyalar to'plami deb qaraladi. Ish jarayonida resurslar iste'mol qilinadi (materiallar, axborot, jihozlar), muayyan natija yuzaga keladi. Binobarin resurslardan foydalanishni hisobga olgan holda parallel ravishda murakkab ishchi operatsiyalarini eng oddiy tarkiblarga bo'lib chiqish yo'li bilan korxonadagi ishlar miqdori va ketma-ketligini aniqlash ABCni qo'llashning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. ABC doirasida mahsulot chiqarishdagi ishtiroklari usuli bo'yicha ishlarni uch tipga ajratadilar: Unit Level (donali ish), Batch Level (xaltali ish) va Product Level (oziq-ovqatli ish). Bunday tasnif xarajatlar va turli ishlab chiqarish jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga asoslanadi: mahsulot birligini ishlab chiqarish, buyurtma (xalta)ni ishlab chiqarish, oziq-ovqatni ishlab chiqarish. Bunda xarajatlarning ishlab chiqarish voqealariga bog'liq bo'lgan yana bir muhim kategoriyasi hisobga olinmaydi — bu butun korxonada faoliyatini ta'minlovchi xarajatlardir. Bunday xarajatlar hisobi uchun ishlarning to'rtinchi tipi - Facility Level (umumxo'jalik ishlari) kiritiladi. Dastlabki uch toifa ish, to'g'rirog'i, ularga ketgan xarajatlar bevosita ma'lum bir oziq-ovqatga tegishli bo'lishi mumkin. Umumxo'jalik ishlari natijalarini u yoki bu oziq-

ovqatga tegishli qilib ko'rsatib bo'lmaydi, shu bois ularni taqsimlash uchun turli arifmetik hisoblarni taklif etishga to'g'ri keladi.

Samarali tahlilga erishish uchun resurslar ham quyidagicha tasniflanadi: iste'mol qilinadigan vaqtda etkazib beriladiganlar va oldin etkazib beriladiganlar.

Birinchisini mehnatning ishbay haq to'lash usuliga kiritish mumkin. Bunda ishchilarga bajarib bo'lgan ishlari hajmiga qarab haq to'lanadi.

Ikkinchisi - taxminiy ish haqi bo'lib, oldindan kelishib olinadi va vazifalarni ma'lum miqdoriga bog'lab qo'yilmaydi. Zahiralarining bunday taqsimlanishi xarajatlar va daromadlar haqida davriy hisobotlar uchun oddiy tizimni tashkil etish imkonini beradi.

Ish jarayoniga sarflangan barcha zahiralar uning qiymatini tashkil etadi. Tahlilning birinchi bosqichi oxirida korxonaning barcha ishlari ularni boshqarish uchun zurruriy barcha resurslar bilan solishtirib chiqilishi kerak. Ayrim hollarda xarajatlar moddasi qaysidir bir ishga mos keladi.

Biroq u yoki bu ishlar qiymati hisob-kitobining oddiyligi yakuniy mahsulot tannarxini hisoblash uchun etarli emas. ABC ga ko'ra ish jarayoni so'nggi natija - kost-drayver indeks o'lchamiga ega bo'lishi kerak. Masalan, Ta'minot xarajatlari moddasi uchun «Sotib olishlar miqdori» kost-drayver bo'la oladi, «Sozlash» moddasi uchun - «Sozlashlar miqdori».

ABCni qo'llashning ikkinchi bosqichi kost-drayver hisob-kitobi va ularning har bir resurslarini iste'mol qilish ko'rsatkichlaridan iborat. Bu ko'rsatkich ish chiqishi birligi qiymatiga ko'paytiriladi. Natijada ma'lum mahsulotni tayyorlashga ketgan mehnat xarajatlari summasini olamiz. Mahsulot ishlab chiqarish uchun xarajat bo'lgan ishlar summasi tannarx hisoblanadi. Bu hisob-kitoblar ABC usulini amaliy qo'llashning uchinchi bosqichini tashkil etadi.

Korxonaning ish jarayonlari to'plami sifatida nomoyon etilishi uning faoliyatini takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar ochadi, investitsiyalash xodimlar hisobi, kadrlarni boshqarish kabi sohalar faoliyatini sifatli baholashga imkon beradi.

Korporativ strategiya deganda tashkilot erishishni istagan maqsadlar to'plami anglanadi. Uning ishlarini bajarish natijasida tashkilot maqsadga erishish mumkin. Ishlar modelini tuzish, ularning munosabatlari va bajarish shartlarini aniqlash korporativ strategiyani ro'yobga chiqarishda korxonaga biznes jarayonining rekonfigura qilinishini ta'minlaydi. Oqibatda ABC dan foydalanish korxonaga raqobatdoshligini oshiradi. Chunki bunda barcha darajalardagi tezkor axborotning yig'ilishi ta'minlanadi.

1.5. Kompleks ishlab chiqarish va qo'shimcha mahsulot xarajatlarini hisobi

Birgalikda ishlab chiqariladigan va qo'shimcha mahsulotlar bir mahsulotni ishlab chiqarish muqarrar ravishda boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishga olib boradigan ishlab chiqarishga xosdir. Quyidagilar bunday tarmoqlarga misol bo'la oladi:

Tarmoq**Tayyor mahsulot**

1. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash

Sut zavodi

sut, qaymoq, saryog‘, tvorog

Go‘sh t kombinati

Go‘sh t, teri, yog‘, suyak

2. Kimyo sanoati

Organik kimyo zavodi

Etilen, propilen, benzol

Quyida kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish chog‘ida foydalaniladigan atamalar keltirilgan:

Kompleks yoki qo‘shimcha ishlab chiqarish xarajatlari. Bunga yagona texnologik jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan, shu jarayon davomida ikki yoki undan ortiq turdagi mahsulot ishlab chiqariladigan xarajatlar kiradi.

Qo‘shma mahsulotlar - bu (1) ancha bozor qiymatiga ega bo‘lgan, (2) ajralib chiqish nuqtasiga qadar alohida mahsulot bo‘la olmaydigan ikki va undan ortiq mahsulotdir.

Ajralish nuqtasi – bu texnologiya jarayonidagi qo‘shma mahsulot alohida mahsulot sifatida tan olinadigan nuqta.

Alohida xarajatlar ~ ajralish nuqtasidan keyin mahsulot bilan bog‘liq xarajatlar

Qo‘shimcha mahsulotlar - bu (1) ancha bozor qiymatiga ega bo‘lgan, (2) ajralish nuqtasiga qadar asosiy mahsulotdan ajralmaydigan mahsulotlar.

Kompleks ishlab chiqarishda bir mahsulotni ikkinchi mahsulotsiz ishlab chiqarib bo‘lmaydi, lekin nisbati turlicha bo‘lishi mumkin. Go‘sh t etkazib beruvchi kompaniya qushxonada faqat bir xil mahsulot olmaydi, chunki go‘sh t bilan birga suyak, teri, yog‘ chiqadi.

Kompleks ishlab chiqarishda xarajatlarni taqsimlash sabablari:

1. Tashqi moliya hisobotlari va soliq organlari uchun zahiralarni va sotilgan mahsulot tannarxini baholash.

2. Ichki maqsadlar uchun, masalan, ijrochilarni mukofotlash uchun zahiralarni va sotilgan mahsulot tannarxini baholash.

3. Xaridorga birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotning faqat bir qismini sotishni ko‘zda tutuvchi shartnomalar bo‘yicha xarajatlarni aniqlash.

4. Tariflarni davlat yo‘li bilan tartibga solish. Masalan, neft va tabiiy gaz kompleks qayta ishlanadi, lekin AQShda faqat tabiiy gaz narxni tartibga solish ob‘ektidir.

Birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot ajralish nuqtasida tayyor hisoblansa, va yana qayta ishlashni talab qilmasa, kompleks xarajatlarni taqsimlashning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. Sotishga asoslangan usul

2. Natural ko‘rsatkichlar usuli.

1) Sotishga asoslangan usul

Bu usul kompleks xarajatlarni ajralish nuqtasida mahsulotlarning bozor

qiymati asosida taqsimlaydi, ya'ni bu usuldan foydalanilganda kompleks chiqimlar birgalikda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga ularni sotish qiymatining baholariga mutanosib taqsimlanadi, bunda sotishning yuqori narxlariga ko'p xarajatlar muvofiq kelishi nazarda tutiladi.

Misol

Kompleks xarajatlar 1000 sh.b.

Mahsulotlar	Birliklar miqdori	Birlikning ajralish nuqtasidagi bozor qiymati, sh.b.	Sotishning jami qiymati, sh.b.
A Mahsulot	100	20	2000
B Mahsulot	400	15	<u>6000</u>
Jami			<u>8000</u>

A mahsulotga 1000 sh.b. taqsimlangan $x (2000 \text{ sh.b.} / 8000 \text{ sh.b.}) = 250 \text{ sh.b.}$

B mahsulotga 1000 sh.b. taqsimlangan $x (6000 \text{ sh.b.} / 8000 \text{ sh.b.}) = \underline{750 \text{ sh.b.}}$

Taqsimlangan jami kompleks xarajatlar 1000 sh.b.

Sotish qiymatiga asoslangan usul natural ko'rsatkichlar usuli kamchiliklaridan holi bo'lsa-da, uning bitta nuqsani bor: u oldingi xarajatlar sotishdan olingan daromadlar bilan aniqlanadi, degan tasavvurga asoslanadi.

Masalan, sotishdan kam daromad tushadigan foydasiz mahsulotga kompleks xarajatlar-ning kam qismi tasdiqlanadi va shu bilan u foyda beradi, degan taassurot hosil qilinadi.

2) **Natura ko'rsatkichlar usuli.** Bu usulda kompleks xarajatlarni ajralish nuqtasida ularning o'zaro nisbati asosida taqsimlashda mahsulotning vazni yoki hajmi kabi haqiqiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Kompleks xarajatlar 1000 sh.b.

Mahsulotlar	Birliklar Miqdori
A Mahsulot	100
B Mahsulot	400
Jami	500

A mahsulotga 1000 sh.b. taqsimlangan $x (100 \text{ b.} / 500 \text{ b.}) = 200 \text{ sh.b.}$

B mahsulotga 1000 sh.b. taqsimlangan $x (400 \text{ b.} / 500 \text{ b.}) = \underline{800 \text{ sh.b.}}$

Jami taqsimlangan kompleks xarajat 1000 sh.b.

Natural ko'rsatkichlar usulidan foydalanilganda har turdagi mahsulot birligining tannarxi bir xil bo'ladi.

Birgalikda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sotish narxi har xil bo'lsa, mahsulot har bir turi birligi tannarxi bir xil bo'lishini nazarda tutish shunga olib keladiki, qandaydir mahsulotga katta foyda, boshqalariga zarar ko'rsatiladi. Agar kompleks ishlab chiqarishning natijasi suyuq va qattiq mahsulot bo'lsa, natural ko'rsatkichlardan foydalanish usuli shartli natural birlikni joriy etishni talab qiladi.

Natural ko'rsatkichlar usulidan foydalanishning asosiy afzalligi uning qulayligidir, biroq bu qulaylik usulning ko'p sonli kamchiliklari oldida yo'qqa chiqadi.

Agar mahsulot yana qayta ishlanadigan bo'lsa, bu holatda kompleks

chiqimlarni taqsimlashning quyidagi usullari qo‘llaniladi.

3. Mumkin bo‘lgan sof sotish qiymati usuli

4. Yalpi foydadan doimiy ulush usuli

3) Sof sotish qiymati usuli

Kompleks xarajatlar sof sotish qiymati asosida taqsimlanadi. Sotish sof qiymatini aniqlash uchun ajralish nuqtasidan keyingi qo‘shimcha xarajatlarni sotish narxidan olib tashlash lozim.

Kompleks xarajatlar, sh.b. 30 000

Alohida xarajatlar, sh.b.:

A Mahsulot 16000

B Mahsulot 24000

	Birliklar miqdori	Tayyor mahsulotni sotish narxi, sh.b	Sotish qiymati, sh.b.	Alohida xarajatlar, sh.b.	Sof sotish qiymati, sh.b.
A Mahsulot	1600	25	40000	16000	24000
B Mahsulot	800	50	40000	24000	16000
Jami					40000

A Mahsulotga taqsimlangan 30 000 sh.b. x (24 000 sh.b. / 40 000 sh.b.) = 18 000 sh.b.

B Mahsulotga taqsimlangan 30 000 sh.b. x (16 000 sh.b. / 40 000 sh.b.) = 12 000 sh.b.

Taqsimlangan jami kompleks xarajatlar 30 000 sh.b.

4) Yalpi foyda doimiy ulushi usuli

Bu usulda kompleks ishlab chiqarish xarajatlari yalpi foydaning umumiy foizi mahsulotning har bir turi uchun bir xil qilib taqsimlanadi. Bu usul quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Yalpi foyda foizini hisoblash.

2. Sotilgan mahsulot tannarxini aniqlash va kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash.

Misol:

Kompleks xarajatlar, sh.b.	30 000
Alohida xarajatlar, sh.b.:	
A Mahsulot	16 000
B Mahsulot	<u>24 000</u>
	40 000

	Birliklar soni	Tayyor mahsulotni sotish narxi, sh.b.	Sotish qiymati, sh.b.
AMahsulot	1600	25	40 000
BMahsulot	800	50	<u>40 000</u>
Jami			<u>80 000</u>

1. Yalpi foyda foizini hisoblash.

Sotish qiymati, sh.b. 80 000 sh.b.

Minus kompleks ishlab chiqarish xarajatlari va alohida qilingan xarajatlar, sh.b. 70 000 sh.b.

Yalpi foyda, sh.b. 10 000 sh.b.

Yalpi foyda foizi

12,5 %

2. Sotilgan mahsulot tannarxini aniqlash va kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash

	A Mahsulot, sh.b.	B Mahsulot,sh. b	Jami, sh.b.
Sotish qiymati	40000	40000	80000
<i>Minus</i> Yalpi foyda, 12,5 %	<u>5000</u>	<u>5000</u>	<u>10000</u>
Sotilgan mahsulot tannarxi	35000	35000	70000
<i>Minus</i> Alohida xarajatlar	<u>16000</u>	<u>24000</u>	<u>40000</u>
Kompleks ishlab chiqarish xarajatlari	<u>19000</u>	<u>11000</u>	<u>30000</u>

Bu usuldan foydalanilgandagi yagona gumon (taxmin) shundan iboratki, yakka darajada har bir mahsulot bo'yicha xarajatlar va savdo hajmi o'rtasida bir xil o'zaro bog'liqlik nazarda tutiladi. Bunday o'zaro bog'liqlik ko'p turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi kompaniyalarda kamdan-kam kuzatiladi.

(Mahsulotga taqsimlangan xarajatlar bu usuldan foydalanganda hamisha ijobiy bo'lmaydi. Kompleks ishlab chiqarish xarajatlari ba'zi mahsulotlarga manfiy belgi bilan o'tadi)

Kompleks va qo'shimcha mahsulotlar hamda chiqindilar o'rtasidagi tafovut ularning nisbiy qiymatidan iborat.

Qo'shimcha mahsulot – bu kompleks ishlab chiqarish natijasidir. Ular birgalikdagi mahsulot yoki asosiy mahsulotning sotilgan qiymatiga nisbatan ancha past qiymatga ega bo'ladi. Bunga paxtani qayta ishlash chog'idagi tola (asosiy mahsulot) va chigit po'yloq (qo'shimcha mahsulot), benzin ishlab chiqarishda kerosin va bitum bunga misol bo'la oladi.

Chiqindilar bilan qo'shimcha mahsulotlarni aniq chegaralab qo'yish mumkin emas. Qo'shimcha mahsulot:

- a) chiqindiga nisbatan bozorda katta qiymatga ega;
- b) ko'pincha keyingi texnologiya jarayonining ob'ekti bo'ladi, chiqitlar esa darhol sotilishi shart, degan fikrlar bor.

Qo'shimcha mahsulotlar va chiqindilarni hisobga olish asoslari bir xil. Asosiy mahsulot xarajatlarini qo'shimcha mahsulotlarning yoki chiqitlarning bozor qiymatiga kamaytirish eng yaxshi usul hisoblanadi.

Qo'shimcha mahsulot daromadlari yoki sof daromadlari (qo'shimcha mahsulotni sotishdan olingan daromad miqdori minus ajralish nuqtasidan keyingi ishlov berishga qo'shimcha xarajatlar) birgalikda ishlab chiqariladigan yoki ishlab chiqarish qo'shimcha mahsulot olishga imkon beradigan asosiy mahsulot tannarxidan chiqarib tashlanadi.

Qo'shimcha mahsulotlarni hisoblashning ikki usuli mavjud:

1) Sotishdan tushgan sof daromadni qo'shimcha mahsulotning haqiqatan sotilishiga qarab taqsimlash. Bu usulda qo'shimcha mahsulotni sotishdan tushgan pul sotish paytidagi daromad sifatida kirim qilinadi.

2) Sotishdan olingan sof daromadni haqiqatan ishlab chiqarilgan

qo‘shimcha mahsulotga qarab taqsimlash. Bu usulda qo‘shimcha mahsulotdan olingan daromad ishlab chiqarishni tugallash paytidagi kompleks xarajatlarni aks ettiradigan schetda kirim qilinadi.

Misol.

A mahsulotni ishlab chiqarish chog‘ida ishlab chiqarish jarayonining oxirida V qo‘shimcha mahsulot hosil bo‘ladi. 1 davrda quyidagi ma’lumot olingan:

Ikki mahsulot ajralguncha mahsulotga xarajatlar, \$	60000
Davrdagi ishlab chiqarish:	
A Mahsulot, birlik	20000
V Qo‘shimcha mahsulot, birlik	4000
V mahsulot ajralgach qo‘shimcha mahsulotga ishlov berishga xarajat (4000 b. har biri \$ 0,1/b.)	400
Davrda sotildi:	
A Mahsulot, 15000 birlik	\$ 5/b.
V Qo‘shimcha mahsulot, 2000 birlik	\$ 1/b.

Qo‘shimcha mahsulotning haqiqatan sotilishiga qarab qo‘shimcha mahsulotni hisobga olish:

1. Asosiy mahsulot bir donasining tannarxi qo‘shimcha mahsulot sotilmaydigan nazarda tutib aniqlanadi. Buning uchun kompleks chiqimlar asosiy mahsulotga o‘tkaziladi: $60000/20000 = \$ 3/b.$

2. Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot tuzish chog‘ida sotilgan mahsulotning tannarxidan qo‘shimcha mahsulotni sotishdan olingan sof tushum olinadi va shu bilan asosiy mahsulotga o‘tkazilgan xarajatlar kamaytiriladi:

Qo‘shimcha mahsulotni sotishdan olingan sof tushumni hisoblash:

$$2000 \cdot (1 - 0,1) = \$ 1800$$

Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot:

Ko‘rsatkichlar	Summa
1. Sotish	$15000 \cdot 5 = 75000$
2. Sotilgan mahsulot tannarxi	$15000 \cdot 3 - 1800 = 43200$
3. Yalpi daromad	31800

Qo‘shimcha mahsulotni uning haqiqatan ishlab chiqarilishiga qarab hisoblash.

1. Ishlab chiqarilgan qo‘shimcha mahsulotning taxmin qilingan sof sotish qiymati aniqlanadi $\{4000 \cdot (1 - 0,1) = \$3600\}$.

2. Kompleks chiqimlar kelgusidagi taxminiy sotish qiymati miqdoriga kamaytiriladi ($60000 - 3600 = \$ 56400$).

3. Asosiy mahsulot bitta birligining tannarxi qo‘shimcha mahsulotdan kelgusida olinadigan sof tushumni hisobga olgan holda aniqlanadi ($56400/20000 = \$ 2,82/b.$). Asosiy mahsulot shu tannarx bo‘yicha sotish uchun hisobdan chiqariladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot:

Ko'rsatkichlar	Summa
1.Sotish	$15000 \cdot 5 = 75000$
2. Sotilgan mahsulot tannarxi	$15000 \cdot 2,82 = 42300$
3. Yalpi daromad	32700


1- va 2- usuldan birini tanlash savdo kon'yukturalariga bog'liq. Sotilmagan qo'shimcha mahsulotning sotilishini kafolatlab bo'lmasa va bozor narxlari foyda keltirmasa, mahsulot sotib bo'lingunga qadar sof daromadni e'tirof etmaslik kerak. Ishlab chiqarish bosqichida sof daromadni tan olishning asosiy nuqsoni shuki, bu foydani vaqtidan oldin tan olishga olib keladi, lekin bu foyda miqdori kam bo'lsa, uni e'tiborga olmasa bo'ladi.

1.6. «Xarajatlar-hajm-foyda» tahlili

Ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish chog'ida ko'pincha xarajatlar-xajm-foydaning o'zaro nisbatini tadqiq etishga asoslangan tahlildan foydalaniladi. Agar ishlab chiqarish hajmi tushgan buyurtmalarga asoslanib belgilangan bo'lsa, kompaniya ma'lum miqdorda foyda olish uchun shu tahlildan foydalanib xarajatlar miqdorini va sotuv narxini hisoblab chiqarish mumkin.

«Xarajatlar –ishlab chiqarish xajmi — foyda» (cost — volume — profit analysis or CVP analysis) — tahlili bu xarajat qilishning tahlili bo'lib, u xarajatlar sotuvdan tushgan pul (daromad), ishlab chiqarish va foyda hajmining o'zaro bog'liqligiga asoslangan. Bu boshqaruvni rejalashtirish va nazorat qilish vositasidir. Bu o'zaro bog'liqlik moliyaviy faoliyatning asosiy modelini shakllantiradi, bu esa menejerga undan qisqa muddatli rejalashtirish va muqobil qarorlarni baholash uchun foydalanish imkonini beradi.

«Xarajatlar –foyda –ishlab chiqarish hajmi» o'zaro bog'liqligi



«Xarajatlar – mahsulot hajmi — foyda» ning o'zaro bog'liqligi chizma bilan yoki formula yordamida ifodalanishi mumkin. Quyidagi chizmada «xarajatlar - hajm — foyda»ning asosiy modeli ko'rsatilgan. Chizma tushum (daromad), xarajatlar, mahsulot hajmi, foyda yoki zarar bir-biriga bog'liqligini ko'rsatadi. Bu

model bir qancha qayd etilgan o'zaro bog'liqlikka asoslanadi. Agar mahsulot birligini narxi, xarajatlar, samaradorlik yoki boshqa shartlar o'zgarsa, model qayta ko'rib chiqilishi lozim bo'ladi.

«Xarajatlar — mahsulot hajmi — foyda» o'zaro bog'liqligi quyidagi formulada ifodalanishi mumkin:

$$\text{Sotuvdan tushgan pul} = \text{O'zgaruvchan xarajatlar} + \text{Doimiy xarajatlar} + \text{Foyda}$$

«Xarajatlar — hajm — foyda» o'zaro bog'liqligini tahlil qilish barcha xarajatlarni, o'zgaruvchan xarajatlarni ham qoplash uchun zarur bo'ladigan ishlab chiqarish xajmini aniqlash imkonini beradi. Chizmada ko'rsatilganidek, **kritik nuqta** — bu jami daromadlar xajmi jami xarajatlar xajmiga teng nuqtadir. Binobarin kritik nuqta kompaniya foyda bilan ishlay boshlaydigan nuqtadir. Kritik nuqtani zararsizlik nuqtasi yoki rentabellik ostonasi deb ham yuritishadi.

Kritik nuqta tahlilidan maqsad mahsulotni sotishdan olinadigan pul barcha o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar miqdoriga tenglashadigan faoliyat darajasini (ishlab chiqarish xajmini) topishdan iborat, bu darajada kompaniyaning foydasi nolga teng bo'ladi. Shu tariqa quyidagi formulaga ega bo'lamiz:

$$\text{Sotuvdan tushgan pul} = \text{O'zgaruvchan xarajatlar} + \text{Doimiy xarajatlar}$$

Kritik nuqta sotuv birliklari atamasida yoki dollarda ifodalanishi mumkin. Kritik nuqtani topishning asosiy tenglamasi quyidagicha:

$$\text{Sotuv birliklaridagi kritik nuqta} = \frac{\text{Doimiy xarajatlar}}{\text{Narx} - \text{Mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar}}$$

Kritik nuqtani topish uchun shu tenglamadan foydalanish misolini ko'rib chiqaylik. Kompaniya yozuv stollari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. O'zgaruvchan xarajatlar mahsulot birligiga bir yilda 50 sh.b., doimiy xarajatlar — 20,000 sh.b.ni tashkil qiladi. Birlikning sotuv narxi — 90 sh.b.. Shu axborotdan foydalanib, sotuv xajmi birligini X orqali ifodalab tenglamani yozishimiz mumkin:

$$X = 20000 / (90 - 50) = 500 \text{ birlik}$$

Jadvaldan foydalanib kritik nuqtani aniqlash mumkin. Chizmada misolni ko'rib chiqish uchun kritik nuqta grafikasi keltirilgan. Unda kritik nuqta jami xarajatlar chizig'i bilan sotuvdan tushgan jami daromadlar chizig'i kesishgan nuqtada joylashgan. Bu nuqtada daromad xarajatlarga teng.

Hayotda turli vaziyatlar bo'ladi, boshqaruv modeli esa ma'lum bo'lgan shartlarga bog'liq. Noaniqlik sharoitidagi tahlil va sezgirlik tahlili agar shunday qilinsa nima bo'ladi, degan savolga javob topish imkonini beradi. Sezgirlik tahlilidan foydalanish chog'ida, misol uchun, bunday savollarga javob topish mumkin: «Hajm ko'rsatkichlari rejalashtirilganidan farq qilsa foyda qanday bo'ladi?» yoki «Agar mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar 10 % oshsa, foyda qanday bo'ladi?». Kritik nuqta ortidagi daromad miqdori sezgirlik tahlili vositasidir.

Kritik nuqta ishlab chiqarish zarar keltirmasligi uchun daromad qanchagacha kamayishi mumkinligini ko'rsatadi. Korxonada oladigan foydaning miqdori mahsulotni sotishdan tushgan pul bilan jami xarajatlar o'rtasidagi tafovut bilan

aniqlanadi. Foyda sohasi 11.2. chizmada ko'rsatilgan.

Har bir korxonada imkon qadar ko'p foyda olishga harakat qiladi, lekin cheksiz miqdordagi mahsulotni bir xil narxda sotib bo'lmaydi. Sotiladigan xajmning ko'payishi bozorning to'lib ketishiga, mahsulotga to'lov qobiliyatli talabning kamayishiga olib keladi. Ma'lum vaqtda ko'p miqdordagi tovarni sotish uchun narxni kamaytirishga to'g'ri keladi, bu esa foydaning kamayishiga olib keladi.

Kritik nuqtani aniqlashning boshqa usuli marjinal foyda kontsepsiyasidan foydalanadi. **Marjinal daromad** — bu mahsulotni sotishdan tushgan pulning sotilgan shu xajm bilan bog'liq barcha o'zgaruvchan xarajatlardan ortishidir. Boshqacha aytganda, marjinal daromad – bu mahsulotni sotishdan olingan pul bilan o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasidagi tafovutdir:

$$\text{Marjinal daromad} = \text{Sotuv tushumi} - \text{O'zgaruvchan xarajatlar}$$

Marjinal daromaddan doimiy xarajatlar chiqarib tashlansa, u holda operatsion foyda miqdori aniqlanadi:

$$\text{Operatsion foyda} = \text{Marjinal daromad} - \text{Doimiy xarajatlar}$$

Kritik nuqta marjinal daromad bilan doimiy xarajatlar o'rtasidagi farq nolga teng nuqta, yoki marjinal daromad doimiy xarajatlarga teng nuqta sifatida aniqlanishi mumkin. Mahsulot birligi atamalarida marjinal yondashish chog'ida kritik nuqta tenglamasi bunday bo'ladi:

$$\text{Sotuv birligida kritik nuqta} = \frac{\text{Doimiy xarajatlar}}{\text{Mahsulot birligiga marjinal daromad}}$$

Foyda omiliga tuzatish kiritish bilan kritik nuqta tahlili korxonaning foyda berishini baholash uchun asos sifatida foydalanilishi mumkin. Buxgalter ishlab chiqarishning turli muqobil rejaları uchun mumkin bo'lgan foydaning tegishli miqdorini hisoblay oladi. Bu holatda tenglamadan foydalaniladi:

$$\text{Sotuvdan olingan tushum} = \text{O'zgaruvchan xarajatlar} + \text{Doimiy xarajatlar} + \text{Foyda}$$

Shu tariqa, maqsadli foyda olish hajmini ta'minlash uchun mumkin bo'lgan mahsulotni sotish xajmini quyidagi formula bo'yicha hisoblash mumkin:

$$\text{Sotuv birligidagi kritik nuqta} = \frac{\text{Doimiy xarajatlar} + \text{Maqsadli foyda}}{\text{Narx} - \text{Mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlar}}$$

Marjinal daromaddan foydalanganda bu tenglama quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\text{Sotuvdagi birliklarning maqsadli xajmi} = \frac{\text{Doimiy xarajatlar} + \text{Maqsadli foyda}}{\text{Birlikka marjinal daromad}}$$

Foydani rejalashtirish chog'ida kritik nuqta tahlilidan foydalanishni namoyish qilish uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz:

Kompaniya kelgusi yilda 10,000 sh.b. xajmida foyda olishni xoxlaydi. O'zgaruvchan xarajatlar mahsulot birligiga 50 sh.b.ni, doimiy xarajatlar — 20,000 sh.b.ni, sotish narxi bir donasiga — 90 sh.b.ni tashkil qiladi. Ko'zlangan xajmda foyda olish uchun sotiladigan mahsulot hajmi qancha bo'lishi kerak?

$$X = (20000 + 10000) / (90 - 50) = 750 \text{ birlik}$$

Demak 10,000 sh.b. foyda olish uchun sotiladigan mahsulot 750 birlikdan iborat bo'lishi kerak.

Sotuvning maqsadli xajmini pul birligida aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish zarur:

$$\text{Pul birligida maqsadli sotish xajmi} = \frac{\text{Doimiy xarajatlar} + \text{Maqsadli foyda}}{\text{Marjinal daromad darajasi}}$$

$$\text{Marjinal daromad darajasi} \times 100 = \frac{\text{Foyda birligiga marjinal daromad} \%}{\text{Mahsulot birligining sotish narxi}}$$

Bizning misolimiz uchun:

Marjinal daromad darajasi %da = 40 sh.b. : 90 sh.b. = 0.44444 = 44.444 %

Maqsadli sotuv hajmi = (20000+10000) : 0.44444 = 67,500 sh.b.

Xavfsizlik marjasi daromadning zararlik nuqtasida erishiladigan oshgan daromad sifatida aniqlanadi. U kompaniya zarar keltira boshlashidan oldin kamayishi mumkin bo'lgan daromad summasini ko'rsatadi. Xavfsizlik marjasi pul ifodasida ham, foiz ifodasida ham hisoblanadi.

$$\text{Xavfsizlik marjasi pul ifodasida} = \text{Umumiy daromad} - \text{Zararsizlik nuqtasiga etgandagi daromad}$$

$$\text{Xavfsizlik marjasi \%da} = \frac{\text{Xavfsizlik marjasi pul hisobida}}{\text{Umumiy daromad}}$$

Misol

Quyida A kompaniyasi bo'yicha axborot keltirilgan

	sh.b. da	% da
Daromad	200 000	100
O'zgaruvchan chiqimlar	150 000	75
Marjinal daromad	50 000	25
Doimiy chiqimlar	40 000	
Foyda	10 000	

Talab qilinadi: Pul hisobida va foiz hisobida xavfsizlik marjasini aniqlash.

Echim:

1. Zararsizlik nuqtasi sh.b.da = 40000/0,25=160000 sh.b.

2. Xavfsizlik marjasi sh.b.da = 200000 sh.b. -160000 sh.b.=40000 sh.b.

3. Xavfsizlik marjasi % da = 40000 sh.b. /200000 sh.b. = 20 %

Operatsion dastag kompaniyada doimiy chiqimlardan foydalaniladigan darajani ko'rsatadi. O'zgaruvchan chiqimlarga nisbatan doimiy chiqimlar ulushi katta kompaniyalarda bu daraja ancha yuqori. Operatsion dastag yuqori kompaniyalarda foyda daromadning o'zgarishiga juda sezgir bo'ladi: daromadning biroz ko'payishi yoki kamayishi foydaning ko'p foiz ko'payishi yoki kamayishiga olib keladi. Foydaning daromadga nisbatan ko'payishi (kamayishi) **operatsion dastag darajasi** vositasida ifodalanadi.

Operatsion dastag daromad foizining o'zgarishi foydaning foiz o'zgarishiga qanday ta'sirini o'taydi.

$$\text{Operatsion dastag darajasi} = \frac{\text{Marjinal daromad}}{\text{Foyda}}$$

Misol

Quyida A kompaniyasi bo'yicha axborot keltirilgan

	sh.b.da
Daromad	200 000
O'zgaruvchan chiqimlar	150 000
Marjinal daromad	50 000
Doimiy chiqimlar	40 000
Foyda	10 000

$$\text{Operatsion dastag darajasi} = 50000/10000=5$$

Agar kompaniyaning daromadi 10 % ko'paysa, foyda 50 % ko'payadi (5*10 %) yoki 5000 sh.b. ko'payadi (10000*50 %)

Quyida sotuv 10 % ko'paygandan so'ng foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot keltirilgan.

	sh.b.da
Daromad	220 000
O'zgaruvchan chiqimlar	165 000
Marjinal daromad	55 000
Doimiy chiqimlar	40 000
Foyda	15 000

«Xarajatlar — xajm — foyda» tahlili chog'ida qabul qilingan taxminlar

«Xarajatlar — mahsulot xajmi — foyda» o'zaro bog'liqligini tahlili, kritik nuqtaning tahlili foydali bo'lishi va shu tahlil zamiridagi farazlar bajarilsa, aniq ma'lumot berishi mumkin. Bu taxminlar quyidagilardir:

1. Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning qanday bo'lishini aniq o'lchash mumkin va u rejalashtirilgan davr davomida o'zgarmaydi;
2. O'zgaruvchan xarajatlar va mahsulotni sotishdan olinadigan daromad ishlab chiqarish darajasiga bevosita bog'liq;
3. Unumdorlik faollikning relevant darajasida o'zgarmaydi;
4. O'zgaruvchan xarajatlar va narxlar rejalashtirilgan davr davomida o'zgarmaydi;
5. Mahsulot tuzilishi rejalashtirilgan davr davomida o'zgarmaydi;
6. Sotuv xajmi va ishlab chiqarish xajmi taxminan teng, ya'ni tayyor mahsulot qoldig'i nolga teng.

Shu taxminlardan biriga yoki bir nechtasiga rioya qilinmasa, «xarajatlar — xajm — foyda» taxlilini qo'llanish xato qaror qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

1.7. Smeta tuzish


Rejalashtirish nazorat bilan bir qatorda boshqaruvning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, kelgusida bajarilishi lozim bo'lgan xarakatlarni aniqlash jarayonidir.

Rejalashtirish

bu boshqaruv funksiyalaridan biri bo'lib, keyingi faoliyatda amalga oshirilishi lozim bo'lgan xarakatlarni aniqlash va belgilash jarayonidir.

bu joriy va uzoq muddatli maqsadlarni tanlash, ularga erishish uchun taktik, strategik xarakatlarni ishlab chiqish jarayoni.

Byudjetni rejalashtirish bu jarayonning eng batafsil darajasi bo'lib, bu tashkilotning tarkibiy bo'linmalari bo'yicha yoki faoliyat sohalari bo'yicha rahbariyat tasdiqlagan dasturlar asosida ishlab chiqilgan alohida byudjetlarni tayyorlash jarayonidir. Ba'zan bu atama ba'zan qabul qilingan strategiya doirasida korxonada darajasida rejalashtirishning taktik maqsadlarini tanlashning yaxlit tizimi, kompaniyaning kelgusidagi o'preatsiyalari rejasini (xarajatlar va daromadlar smetasini) ishlab chiqish va shu rejalar bajarilishini nazorat qilish, ya'ni mohiyat e'tibori bilan ichki moliyaviy boshqarish tizimi sifatida talqin qilinadi.



Operativ reja — bu firma maqsadlariga erishish bilan bevosita bog'liq taktik reja. Ular yillik yoki uch oylik byudjetlar sifatida tuzilgan qisqa muddatli rejalaridir. Ishlab chiqarish rejasini, moddiy-texnika ta'minoti rejasini, umumiy ishlab chiqarish sarflari rejasini operativ rejaga misol bo'la oladi.

Ma'muriy rejalar — bular tashkiliy tuzilmani rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash rejasidir. Ularning maqsadi - rejalashtirilgan ko'rsatkichlar bajarilishining kutilgan darajasiga erishish mumkin bo'lgan tashkilotni tuzishdir. Ular o'rtacha muddatli, har yili qayta ko'rib chiqiladigan rejalaridir.

Strategik rejalar — bu biznesni rivojlantirishning va tashkilot uzoq muddatli tuzilmasining bosh rejasidir. Tashkilot strategiyasi muntazam ko'rib chiqilmaydi, balki zarur bo'lganda, ya'ni yangi texnologiyani joriy etish, nufuzli iste'molchilar o'zgargan, yangi raqobatchi paydo bo'lgan hollarda qayta ko'rib chiqiladi.

Byudjet boshqaruv nazorati tizimining asosiy vositasidir. Deyarli barcha kompaniyalar (eng kichiklaridan tashqari) byudjet tuzadi. Ko'p kompaniyalar

foйда olish uchun ma'sul markazlar bo'yicha kompaniyaning rejalashtiriladigan faoliyatini ko'rsatuvchi foйда rejasini yillik byudjet deb qaraydi. Foйда olmaydigan tashkilotlar ham byudjet tuzadi.

Byudjet nazarda tutilgan xarakterlar bajarilganga qadar tuzilgan moliyaviy xujjatdir. Uni ko'pincha moliyaviy xarakterlar rejasini ham deyiladi. (Buni qiymat o'lchovida ifodalangan reja deb tushunsa bo'ladi). «Byudjet» atamasini tushunishning kaliti bu bir varaq qog'oz emas, undan ko'proq narsa ekanini, unda moliyaviy va boshqa ma'lumotlar borligini anglab etishdir. Bu ma'lumotlar kelgusida sodir bo'ladigan voqealar turkumini rejalashtiradi. Bu bo'lajak moliyaviy operatsiyalarning farazidir.

Iqtisodiy adabiyotda byudjet ko'p hollarda ma'lum davrga, odatda bir yilga mo'ljallab, miqdor bilan, odatda pul bilan ifodalangan reja deb qaraladi.

Byudjet (smeta) — bu ma'lum davrga qadar tayyorlangan va qabul qilingan, odatda erishish lozim bo'lgan daromadning yoki shu davr ichida qilinishi lozim bo'lgan sarf-xarajatlarning hamda ushbu maqsadga erishish uchun jalb etish zarur bo'lgan kapitalning rejalashtirilgan miqdorini pul bilan ifodalangan miqdoriy rejasidir.

Tafsillashtirilgan byudjetlar ko'pincha kelgusi cheklangan davrga, odatda uzog'i bilan bir yilga tuzilib, ancha qisqa davrlarga: uch oy, bir oy yoki to'rt xaftalik davrlarga bo'linadi. Qisqa boshqaruvni nazorat qilish maqsadida qisqa muddatli davrga reja tuziladi. Nazorat davri oxirida joriy faoliyatni tahlil qilish va baholash uchun haqiqiy ma'lumotlar byudjetdagi ma'lumotlarga solishtiriladi. Shu munosabat bilan turli oylardagi kunlar sonidagi tafovut bo'lmasligi uchun bir oylik davrni emas, balki to'rt haftalik davrni qiyoslash afzaldir. Kunlar miqdoridagi farq qiyoslash chog'ida ma'lum qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Amalda yillik byudjet ko'p hollarda yilning choraklari bo'yicha ishlab chiqiladi va faqat birinchi chorak oylar bo'yicha tafsillashtiriladi. Byudjetlar yil davomida vaziyatni hisobga olib o'zgartirilishi mumkin. Uzluksiz yoki davomli byudjetlar keng qo'llaniladi. Ularning mohiyati shundaki, oy yoki yil choragi tugallangan sari byudjetga navbatdagi tafsillashtirilgan byudjet qo'shiladi va shu tariqa uzluksiz ichki yillik rejalash ta'minlanadi. Umuman, byudjetni ishlab chiqishning davriyligi rejalashtiriladigan ma'lumotlar hajmiga va muayyan korxonaning ehtiyojiga qarab belgilanadi.

Yangi mahsulot ishlab chiqarish, yangi texnika va yangi texnologiyani joriy etish kabi muhim o'zgarishlar bo'lgan qo'shimcha kapital sarflashni talab qiladigan hollarda byudjetlar besh yilga va undan ko'proq davrga tuziladi. Tobora ko'payib boradigan miqdordan byudjetda uzoq muddatli rejalashtirish vositasi sifatida foydalaniladi.

Byudjetlar umuman tashkilot uchun ham tarkibiy bo'linmalari yoki faoliyatning ayrim vazifalari uchun ham tuziladi.

Byudjetning vazifasi

Byudjetning vazifasi quyidagilardir:

1. Korxonaga maqsadiga erishishni ta'minlaydigan operatsiyalarni rejalashtirish.

2. Faoliyatning turli xillarini va alohida bo‘linmalarni muvofiqlashtirish. Ayrim xodimlarning va tashkilot bo‘yicha umumiy guruhining manfaatlarini kelishtirish.

3. Barcha darajadagi rahbarlar o‘z ma‘suliyat markazlarida maqsadga erishishlarini rag‘batlantirish.

4. Joriy faoliyatni nazorat qilish, reja intizomini ta‘minlash.

5. Ma‘suliyat markazlari va ularning rahbarlari tomonidan reja bajarilishini baholash uchun asos.

6. Menedjerlarni o‘qitish vositasi.

Umumiy (asosiy) byudjet

Umumiy byudjet umuman tashkilot uchun barcha bo‘linmalar bo‘yicha yoki vazifalar bo‘yicha muvofiqlashtirilgan ish rejasidir. U ikki asosiy byudjetdan — operativ va moliyaviy byudjetdan iborat.

Operativ byudjet. U yana joriy, davriy byudjet deyiladi. Operativ byudjet kompaniyaning segmenti uchun yoki alohida vazifasi uchun kelgusi yilga rejalashtirilayotgan operatsiyalarni ko‘rsatadi. Uni tayyorlash jarayonida faraz (prognoz) qilinayotgan sotuv va ishlab chiqarish hajmlari kompaniyaning ishlab turgan har bir bo‘linmasi uchun daromadlar va xarajatlarning miqdoriy bahosiga aylanadi. Operativ byudjet foyda va zararlar to‘g‘risida byudjet (faraziy) hisobotini o‘z ichiga oladi, o‘z navbatida bu hisobot sotuv byudjeti (daromadlar byudjeti), ishlab chiqarish byudjeti (ishlab chiqarish xarajatlarining barcha asosiy elementlari bo‘yicha ayrim byudjetlarda tafsillashtirilgan holda), tovar moddiy zahiralar byudjeti hamda tijorat va umumiy, ma‘muriy sarflar byudjeti asosida tuziladi (shakllanadi).

Sotuv byudjeti. Sotuv hajmining farazi byudjetni tayyorlash butun jarayonining boshlang‘ich va eng nozik paytidir. Sotuv rejasi yuqori rahbariyat tomonidan marketing bo‘limini tadqiq qilish asosida aniqlanadi. Ko‘p hollarda sotuv hajmi mavjud ishlab chiqarish quvvatlari bilan cheklanadi. Sotuv hajmi byudjeti va uning tovar tuzilishi kompaniyaning butun faoliyati darajasini va xarakterini belgilash bilan birga boshqa byudjetlarning ko‘piga ta‘sir qiladi, chunki boshqa byudjetlar sotuv byudjetida belgilangan axborotga asoslanadi. Sotuv xajmi bahosini aniqlash va uning hajmiga ta‘sir qiluvchi omillar bilan bog‘liq muammolar keyinroq batafsil ko‘rib chiqiladi.

Tijorat sarflari byudjeti. Bu byudjetda kelgusi davrda xizmat va mahsulotni sotish bilan bog‘liq barcha taxminiy sarflar tafsillashtiriladi. Komission haq va transport xarajatlari kabi ba‘zi sarflar o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin, reklama xarajatlari va katta nazoratchilarning ish haqi kabi ayrim sarflari doimiy sarflardir. Tijorat sarflari byudjetini tuzish va so‘ngra uning ijrosi uchun sotuv bo‘limi ma‘suldir.

Ishlab chiqarish byudjeti. Sotuvning rejalashtirilayotgan hajmi natura ifodasida aniqlangandan so‘ng rejalashtirilgan sotuvni va zahiralarining zarur darajasini ta‘minlash uchun ishlab chiqarish zarur bo‘lgan mahsulot birligi va xizmat hajmini aniqlash mumkin bo‘ladi. Rahbariyat avvalo tayyor mahsulotlar zahirasi darajasi oldingidek qoladimi yoki u ko‘paytirilishi, yoxud kamaytirilishi

lozimligini aniqlashi lozim. Davr oxirida tayyor mahsulot zahiralarning istalgan darajasi to'g'risidagi, byudjet davri boshlanishida mavjud mahsulot to'g'risidagi va sotuv birligi miqdori to'g'risidagi axborot asosida ishlab chiqarish jadvali ishlab chiqiladi.

Materiallarni xarid qilish, foydalanish byudjeti. Materiallarni xarid qilish va ulardan foydalanishning rejadagi ehtiyoji bir hujjatda yoki alohida mustaqil byudjetlarda tayyorlanishi mumkin. Ko'plar yagona hujjatni afzal ko'radi. Bu hujjatda ishlab chiqarish rejalarini amalga oshirish uchun xarid qilish lozim bo'lgan xom-ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarning turlari miqdori, xarid muddati aniqlanadi. Materiallardan foydalanish ishlab chiqarish byudjetida va moddiy zahiralarning taxmin qilingan darajasida aniqlanadi. Materiallar birligi miqdorini shu materiallarga xarid va sotuv narxlariga ko'paytirilib, materiallarni xarid qilish byudjeti olinadi.

Mehnat sarflari byudjeti. Bu byudjet rejalashtirilgan ishlab chiqarish hajmini bajarish uchun talab qilinadigan zarur ish vaqti soatlari mahsulot yoki xizmat birligi miqdorini mahsulot birligiga mehnat soatlari sarfini ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi. Shu hujjatda yoki alohida hujjatda mehnat sarfi zarur mehnat sarfini mehnatga haq to'lashning tegishli soat stavkalariga taqsimlab, pul bilan ifodasi aniqlanadi.

Umumiy ishlab chiqarish sarflari byudjeti. Bu byudjet materiallarning to'g'ri (bevosita) xarajatlaridan bevosita mehnat xarajatlaridan farq qiladigan nazarda tutilgan ishlab chiqarish xarajatlarining batafsil rejasi bo'lib, kelgusi davrda ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun shu xarajatlar qilinishi kerak. Bu byudjetning ikki maqsadi bor:

- 1) Ishlab chiqarish va unga xizmat qilish bo'yicha menejer, ishlab chiqqan barcha umumiy ishlab chiqarish sarflari byudjetlarini birlashtirish.
- 2) Bu axborotlarni to'plab, bu sarflarni kelgusi hisob davrida mahsulotning ayrim turlariga yoki xarajatlarni kalkulyatsiyalashning boshqa ob'ektlariga taqsimlash uchun shu xarajatlar normativlarini hisoblash.

Umumiy va ma'muriy sarflar byudjeti. Bu ishlab chiqarish va sotish bilan bevosita bog'liq sarflardan farq qiladigan, kelgusi davrda umuman korxonada bo'yicha faoliyatni davom ettirish uchun zarur bo'ladigan joriy operatsiya sarflarining batafsil rejasidir. Bu axborot rejalashtirilayotgan davrda korxonada faoliyatining moliyaviy natijasini aniqlash uchun ham zarur bo'ladi. Bu byudjet elementlarining ko'pchiligi doimiy xarajatlarni tashkil etadi.

Foyda va zararlar to'g'risida faraziy (prognozniy) hisobot. Byudjet tuzish bo'yicha bosh menejer yoki direktor tayyorlangan davriy byudjetlar asosida materiallardan foydalanish, mehnat sarfi va umumiy ishlab chiqarish sarflari byudjetlaridagi ma'lumotlardan foydalanib, sotilgan mahsulot tannarxi farazini ishlab chiqa boshlashi mumkin. Daromadlar to'g'risidagi axborot sotuv byudjetidan olinadi. Kutilayotgan daromadlar va sotilgan mahsulot tannarxi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanib va tijorat xarajatlari hamda umumiy va ma'muriy sarflar byudjetlaridagi axborotlarni qo'shib, foyda va zararlar to'g'risida taxminiy hisobotni tayyorlash mumkin.

Ta'kidlash lozimki, ayni shu hisobotni tuzish operativ byudjetni tayyorlash chog'idagi so'nggi qadamdir.

Moliyaviy byudjet. Moliyaviy byudjet — bu moliyaviy mablag'larning faraz qilingan manbalari va kelgusi davrda ulardan foydalanish yo'nalishlari aks etadigan rejadir. Moliyaviy byudjetga kapital xarajatlar byudjeti, kompaniyaning pul mablag'lari byudjeti, ularga asoslanib tayyorlangan foyda va zararlar to'g'risida byudjet hisoboti, buxgalteriya byudjet balansi va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot kiradi.

Kapital sarflar byudjeti. Kapital yotqizishga ehtiyojlarni aniqlash va ular uchun investitsiya resurslarini olish butun boshqaruv hisobining kompleks vazifasidir. Qanday uzoq muddatli aktivlarni sotib olishni hal qilish yoki investitsiyalar rentabelligini aniqlash bilan bog'liq shunday qaror qabul qilish uchun tanlangan mezon asosida byudjet tuzish muammosi paydo bo'ladi. Uzoq muddatli kapital yotqizish xususidagi axborot xarid qilishga yoki qurishga sarflar masalasiga hamda kredit uchun foiz to'lashga, foyda va zararlar to'g'risidagi faraziy hisobotga daxl qilib, asosiy vositalar schetidagi qoldiqni va boshqa uzoq muddatli aktivlarni o'zgartirib, pul mablag'lari byudjetiga ta'sir qiladi. Demak, kapital sarflar bo'yicha barcha qarorlar rejalashtirilishi va umumiy byudjetga qo'shilishi lozim.


Barcha joriy byudjetlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Sotuv hajmining farazi byudjet tuzishda dastlabki qadam bo'ladi. Shundan so'ng tijorat sarflari byudjeti tayyorlanishi mumkin. Ishlab chiqarish byudjeti asosida esa to'g'ri materiallarni xarid qilish va ulardan foydalanish byudjeti, mehnat byudjeti va ishlab chiqarish umumiy sarflari byudjeti ishlab chiqiladi. Ko'p hollarda umumiy va ma'muriy sarflar rejalari, kapital yotqizish rejasi boshqaruvning yuqori darajalarida qabul qilinadi. Biroq bunday axborotning ko'p qismi firma bo'linmalari darajasida ishlab chiqilishi va davriy byudjetlarga kiritilishi mumkin.

Pul oqimlari farazi / Pul mablag'lari byudjeti. Bu byudjet kompaniyaning umumiy faoliyatini rejalashtirish jarayonida eng muhim byudjet hisoblanadi, shu sababli uning asosiy maqsadlari va ishlab chiqish qoidalari keyinchalik alohida bo'limda ko'rib chiqiladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risida farazli hisobot. Umuman kompaniya uchun moliyaviy ahvolning farazini yoki buxgalteriya balansi loyihasini ishlab chiqish umumiy byudjetni tayyorlash jarayonidagi so'nggi qadamdir. Unda rejalashtirilgan faoliyat haqiqatda amalga oshishi nazarda tutiladi.

Pul mablag'lari byudjeti tayyorlangandan so'ng byudjet davri oxirida pul mablag'larining prognoz qoldig'ini bilib va sof foyda hamda zarur kapital yotqizish hajmini aniqlab, buxgalter prognoz balansini tayyorlash mumkin bo'ladi, bu balans asosiy byudjetni tuzish jarayonining qoldiq mahsulidir.

Rahbariyat ayni shu nuqtada taklif etilgan umumiy byudjetni qabul qilish yoki rejalarni o'zgartirib, byudjetning ayrim qismlarini yana ko'rib chiqishni hal qiladi.



Byudjet tuzish bosqichlari

Byudjetning bajarilishi. Byudjetning bajarilishi uchun butun ma'suliyat byudjet tuzish bo'yicha direktorning zimmasiga tushadi. Bu jarayonning muvaffaqiyatini ikki muhim jihat belgilaydi. Birinchidan, kompaniyaning barcha ma'sul shaxslari nimalar kutilayotganini va maqsadlarni aniq va to'g'ri tushunishlari zarur. Kompaniyaning faoliyatiga jalb etilgan barcha shaxslar ulardan nimani kutishayotganini bilishlari va o'z maqsadlariga qanday erishish to'g'risida ko'rsatma olishlari lozim. Ikkinchidan, yuqori rahbariyat tomonidan qo'llab-quvvatlash va uni rag'batlantirish tizimi ham juda muhimdir. Byudjet tuzish jarayoni qanchalik murakkab bo'lmasin, o'rta va quyi darajadagi rahbarlar oliy rahbariyat qoldiq natijalardan haqiqatan manfaatdorligiga byudjetning rejalashtirilgan maqsadlari bajarilishini rag'batlantirishiga ishonch hosil qilsalargina bu jarayon muvaffaqiyatli bo'ladi.

Byudjetning ijrosini baholash haqiqatda erishilgan natijalar byudjetda rejalashtirilganidan chetga chiqqanligini tahlil qilishga asoslanadi. Chetga chiqishni (og'ishni) belgilash va ularning vujudga kelishining sabablarini aniqlash masalalari me'yoriy xarajatlarni hisobga olish va og'ishlarni (chetga chiqishni) tahlil qilish tizimiga bag'ishlangan navbatdagi bobda batafsil ko'rib chiqiladi.

Pul mablag'lari byudjeti

Pul mablag'larining xarakatlari korxonada operatsiya tsiklining eng muhim jihatlaridan biridir. Umumiy byudjetni tayyorlash doirasida pul mablag'lari byudjeti barcha davriy byudjetlar, kapital sarflar byudjeti, foyda va zararlar to'g'risidagi farazli hisobot tugallangandan keyingina ishlab chiqiladi.

Pul mablag'lari byudjeti (yoki pul oqimlari farazi) kelgusi davrdagi pul mablag'lari tushumi va to'lovlar rejasidan iborat. Unda umumiy byudjetning barcha fazalarida rejalashtirilgan operatsiyalar natijasida vujudga keladigan barcha pul mablag'lari oqimini jamlaydi. Byudjet umuman byudjet davri oxirida pul mablag'lari schetidagi kutilayotgan pirovard qoldiqni va yilning har bir oyi uchun moliyaviy ahvolni ko'rsatadi va shuning uchun byudjet tuziladi.

Shu tariqa pul mablag'lari miqdori eng ko'p va eng kam bo'ladigan davrlar rejalashtirilishi mumkin. Pul mablag'lari schetidagi katta qoldiq moliyaviy vositalardan mumkin bo'lgan eng ko'p samaradorlik bilan foydalanilmaganini bildiradi. Past daraja esa korxonada joriy majburiyatlarini to'lashga qodir emasligini ko'rsatishi mumkin. Shu sababli pul mablag'larini puxta rejalash zarur.

Pul mablag'lari byudjetining tuzilishi va vazifalari. Pul mablag'lari byudjeti ikki qismdan kutilayotgan pul mablag'lari tushumi va kutilayotgan to'lovlardan iborat. Davr mobaynida kutilayotgan tushumlarni aniqlash uchun sotish byudjetidagi axborotdan, kreditga sotish yoki naqd pulga sotish to'g'risidagi ma'lumotlardan, olinishi lozim bo'lgan schetlar bo'yicha mablag' to'plash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Shuningdek, aktsiyalarni sotish, aktivlarni sotish, qarz olish foiz va dividendlarni olish kabi boshqa manbalardan pul mablag'lari oqimi rejalashtiriladi.

Kutilayotgan to'lovlar summasi turli davriy byudjetlardan olinadi. Pul mablag'lari byudjetini tayyorlashga javobgar shaxs davrda materiallarga va ishchi kuchiga qanday xarajatlar ko'zda tutilganini, qanday tovarlar va xizmatlarni sotib

olish zarurligini, shuningdek ularga darhol haq to'lanishi yoki to'lovni kechiktirish mumkinligini bilishi kerak. Shu munosabat bilan kompaniyaning to'lovlar siyosatini va to'lash muhlatlarini bilish juda muhimdir.

Doimiy joriy sarflardan tashqari pul mablag'laridan uskunalarni va boshqa aktivlarni sotib olishga, qarzlarni qaytarishga va boshqa uzoq muddatli majburiyatlarni to'lashga sarflanishi mumkin. Bu axborotlarning hammasi pul mablag'larining to'g'ri byudjetini tuzish uchun to'plash zarur bo'ladi.

Byudjet mablag'lari byudjeti ikki maqsadni ko'zlaydi. Birinchidan, u byudjet davri oxirida pul mablag'lari schetida pirovard qoldiqni ko'rsatadi. Bu qoldiq miqdorini buxgalteriya farazli (istiqbolli) balansi tugallanishiga qadar bilish zarur. Ikkinchidan, byudjet davri ichida har oyning oxirida pul mablag'lari qoldig'ini faraz qilib, moliyaviy resurslar ortiqcha yoki etishmagan davrlarni aniqlaydi.

Asosiy byudjet uchun funksional smetalarini tuzish misoli.

AVS kompaniyasi moy va yonilg'i nasoslari ishlab chiqarmoqchi bo'lyapti. Quyidagi boshlang'ich ma'lumotlar mavjud:

Asosiy materiallar qiymati:

Latun	\$ 1.20/kg
Alyuminiy	\$ 2.60/kg
Asosiy ishchilar ish haqi stavkasi	\$ 2.05/soat

Mahsulot birligiga materiallar va ishchi kuchiga ehtiyoj:

	<i>Moy nasosi</i>	<i>Yonilg'i nasosi</i>
Latun	12 kg	12 kg
Alyuminiy	6 kg	8 kg
Mehnat sarfi	14 s	20 s

Quyida sotish va zahiralarining rejadagi hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan:

	<i>Moy nasosi</i>	<i>Yonilg'i nasosi</i>	<i>Summa</i>
Rejadagi sotuv hajmi, b.	5000	1000	
Bir donaning sotish narxi	\$ 105.40	\$ 164.00	
Davr boshidagi zahira:	100 b.	50 b.	
	\$ 8670	\$ 5810	\$ 14480
Davr oxiridagi zahira:	1100 b.	50 b.	

Asosiy materiallar

	<i>Latun</i>	<i>Alyuminiy</i>
Davr boshida zahira	5000 kg x \$ 1.2 = \$ 6000	5000 kg x \$ 2.6 = \$ 13000
Davr oxirida zahira	6000 kg x \$ 1.2 = \$ 7200	1000 kg x \$ 2.6 = \$ 2600

Ishlab chiqarish ustama sarflari:

Yordamchi materiallar	\$ 30000
Bilvosita ish haqi	\$ 70000
Boshqa to'lovlar	\$ 25000
Elektr energiya	\$ 9000
Xizmat ko'rsatish	\$ 24500

Amortizatsiya	\$ 25000
Sug'urta mulki	\$ 4500
Nazoratchilar ish haqi	\$ 20000
JAMI:	\$ 208000

Tijorat sarflari:

Komission to'lov	\$ 20000
Reklama	\$ 3000
Savdo agentlariga ish haqi	\$ 10000
Transport sarflari	\$ 5000
Xizmatchilar ish haqi	\$ 10000
Idishlarga sarflar	\$ 1000
JAMI:	\$ 49000

Ma'muriy sarflar:

Ish haqi	\$ 21000
Boshqa sarflar	\$ 5000
JAMI:	\$ 26000

Talab qilinadi: Hozirgi davrga asosiy byudjetni tuzish

Echimi:

1 - qadam. «Sotuv byudjeti» (Sotuv dasturi)

Mahsulot	Talab, dona	Bir donaning narxi	Sotuv summasi, \$
Moy nasosi			
Yonilg'i nasosi			
JAMI:			

2 - qadam. «Ishlab chiqarish byudjeti» (Ishlab chiqarish dasturi)

	Moy nasosi, b.	Yoqilg'i nasosi, b.
Sotuv rejali hajmi		
<i>Plyus</i> Tayyor mahsulotning oxirgi zahirasi		
Umumiy ehtiyoj		
<i>Minus</i> Tayyor mahsulotning boshlang'ich zahirasi		
Ishlab chiqarish dasturi		

3 - qadam. «Asosiy materiallarning foydalanish va sotib olish byudjeti»

Mahsulot	Ishlab chiqarish dasturi, birlik	Materiallar			
		Latun		Alyuminiy	
		Me'yor, kg/b.	Ehtiyoj, kg	Me'yor, kg/b.	Ehtiyoj, kg
Moy nasosi					
Yonilg'i nasosi					
Ishlab chiqarish ehtiyoji, kg					

Plyus Davr oxirida material zahirasi, kg		
Materiallarga umumiy ehtiyoj, kg		
Minus Davr boshida material zahirasi, kg		
Material xaridiga umumiy ehtiyoj, kg		
Material narxi, \$/kg		
Material xaridiga xarajat		

4 - qadam «Ish vaqti byudjeti»

Mahsulot	Ishlab chiqarish dasturi, b.	Birlikka mehnat sarfi, s	Umumiy mehnat sarfi, s	Soatbay stavka, \$/s	Mehnat sarfi
Moy nasosi					
Yonilg'i nasosi					
JAMI:					

5 - qadam «Ishlab chiqarish ustama sarflari byudjeti»

Yordamchi materiallar	
Bilvosita ish haqi	
Boshqa to'lovlar	
Elektr energiya	
Xizmat ko'rsatish	
Amortizatsiya	
Sug'urta mulki	
Nazoratchilarning ish haqi	
JAMI:	
Asosiy mehnat soatlarining umumiy miqdori	
IUXni taqsimlash stavkasi	

6 - qadam «Mahsulot birligi va davr oxirida tayyor mahsulot zahiralarning tannarxi byudjeti»

Moddalar	Moy nasosi	Yoqilg'i nasosi	
Asosiy materiallar:			
- latun			
- alyuminiy			
Mehnat sarflari			
Ishlab chiqarish ustama sarflari			
Mahsulot birligi tannarxi			
Davr oxirida tayyor mahsulotlar, b.			
Davr oxirida Tayyor mahsulot zahirasi tannarxi			
JAMI:			

7 - qadam. «Sotilgan mahsulot tannarxi byudjeti»

Moddalar, \$	Moy nasosi	Yoqilg'i nasosi	JAMI:
Asosiy materiallar:			
- davr boshidagi zahira			

- xarid			
-foydalanish uchun materiallar			
- Davr oxiridagi zahira			
- Ishlab chiqarishga berilgan materiallar			
Mehnat sarflari			
Ishlab chiqarish ustama sarflari			
Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi			
Davr boshida tayyor mahsulot zahirasi			
Sotishga tayyor mahsulot			
Davr oxirida tayyor mahsulot			
Sotilgan mahsulot tannarxi			

8 - qadam «Tijorat va ma'muriy sarflar byudjeti»

Tijorat sarflari:

Komission haq	
Reklama	
Savdo agentlariga ish haqi	
Transport sarflari	
Xizmatchilarning ish haqi	
Mahsulotni joylash sarflari	
JAMI:	

Ma'muriy sarflar:

Ish haqi	
Boshqalar	
JAMI:	

9 - qadam «Foyda byudjeti»

Sotish	
Sotilgan mahsulot tannarxi	
Yalpi daromad	
Operatsion sarflar	
Operatsion foyda	

Kassa birlashgan (konsolidirollangan) smetasini tuzish

Kassa birlashgan smetasining maqsadi – istalgan vaqtda kassada turli smetalar bo'yicha operatsiyalar darajasiga javob beradigan etarli naqd pul bo'lishini ta'minlashdir. Naqd mablag'ni rejalashtirish noaniqlikka moyil bo'lgani sababli rejalashtirish kamchiliklarining ayrim darajalariga yo'l qo'yib, mablag'ning eng kam hajmidan bir muncha ortadigan summani ko'zda tutish zarur. Kassa birlashgan smetasi firmaga uning ehtiyojidan ortiq naqd pul paydo bo'lishidan xoli bo'lishga yordam beradi, rahbariyatning ortiqcha mablag'ni qisqa muddatli investitsiyaga aylantirishga imkon beradi.

Yil boshiga ma'lumotlar:

AVS kompaniyasi 2016 yil 01.01 dagi balansi		
	AKTIVLAR	
Aylanma aktivlari:		
Kassa (pul mablag'lari)	10000	
Debitorlar	25000	
Asosiy materiallar	19000	
Tayyor mahsulot	<u>14480</u>	68480
Asosiy vositalar:		
Yer	50000	
Bino va uskunalar	380000	
To'plangan eskirish	<u>(75000)</u>	355000
JAMI AKTIVLAR:		<u>423480</u>
	KAPITAL	
Kreditorlik qarzi:		
Kreditorlar	8200	
Foyda solig'idan qarz	<u>5000</u>	13200
Aksioner kapitali:		
Oddiy aksiyalar (25000 dona.)	350000	
Taqsimlanmagan foyda	<u>60280</u>	<u>410280</u>
		<u>423480</u>

AVS kompaniyasi 2016 yilga pul mablag'lari byudjeti.				
	Yil choraklari			
	1	2	3	4
Xaridorlardan tushumlar	125000	150000	160000	221000
Taqsimlangan:				
Materiallarga	20000	35000	35000	54200
Boshqa joriy sarflarga	25000	20000	20000	17000
Ish haqi	90000	95000	95000	109200
Foyda solig'iga	5000	-	-	-
Ukunalar xarid qilishga	-	-	-	20000

Kompaniya yil har choragining oxiriga 15000 \$ qoldirish zarur deb hisoblaydi.

50 000 dollarga qadar pulni bankdan 10 % foyda to'lab olish mumkin. Asosiy qarz summasini to'lash paytida foizlar jamlanib, to'lanadi. Qarz yil boshida olingan va har chorak oxirida to'lanadi, deb tasavvur qilaylik.

Talab qilinadi:

Pul oqimi byudjeti loyihasini tuzing.

Kutilayotgan foizlar ta'sirini (% hisoblang) va umumiy foyda solig'ini (20 000 \$) hisobga olib foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot loyihasini tayyorlang.

Balans loyihasini tuzing.

1. Pul oqimi byudjeti loyihasi.

AVS kompaniyasi 2016 yilga pul oqimlari byudjeti loyihasi, \$ da					
	Chorakliklar				Jami
	1	2	3	4	
Davr boshidagi qoldiq	10000				
Xaridorlardan tushumlar					
a) qo‘shimcha moliyalashdan oldingi jami mablag‘					
To‘lovlar chiqarib tashlanadi:					
Materiallar					
Boshqa joriy sarflar					
Ish haqi					
Foyda solig‘i					
Uskuna sotib olish					
b) Jami to‘lovlar					
Rejalashtiriladigan eng kam qoldiq					
Pul mablag‘lariga umumiy ehtiyoj					
Kassa imkoniyatlaridan barcha kassa ehtiyojlari chiqarib tashlanadi					
Moliyalashtirish:					
qarz (chorak boshida)					
Qarzni qaytarish (chorak oxirida)					
Foiz					
s) Moliyalashning umumiy natijasi					
d) Pul mablag‘lari qoldig‘i (a+s-b)					

2. Foyda byudjeti

AVS kompaniyasi 2016 yilga foyda byudjeti \$		
	Axborot manbai	Summa
Sotish	1 - qadam	
Sotilgan mahsulot tannarxi	7 - qadam	
Yalpi daromad		
Tijorat va ma'muriy sarflar	8 - qadam	
Operatsion foyda	9 - qadam	
Foiz sifatidagi sarflar		
Soliqqa tortishdan oldingi foyda		

Foyda solig'i		
2016 yilgi sof foyda		

3. Balans loyihasi

AVS kompaniyasi 2017 yil 01.01.dagi balans, \$ da		
		AKTIVLAR
Aylanma aktivlar:		
Kassa (pul mablag'lari)		
Debitorlar		
Asosiy materiallar		
Tayyor mahsulot		
Yer		
Bino va uskunalar		
To'plangan eskirish		
JAMI AKTIVLAR:		
		KAPITAL
Kreditorlik qarzi:		
Kreditorlar		
Foyda solig'idan qarzlari		
Aksioner kapitali:		
Oddiy aksiyalar (25000 sht.)		
Taqsimlanmagan foyda		

2-mavzu. Tayyor mahsulot va uning sotilishini hisobga olish Reja

- 2.1. Tayyor mahsulot haqida tushuncha va uning hisobini tashkil etish**
- 2.2. Tayyor mahsulotni ombordagi va buxgalteriyadagi hisobi.**
- 2.3. Respublikamizda savdo faoliyatini tashkil etish**
- 2.4. Sotish muomalalarining analitik va sintetik hisobi**
- 2.5. Mahsulot va xizmatlar sotish jarayonining hisobini yuritish**
- 2.6. Tovarlarini sotish muomalalari hisobi**
- 2.7. Konsignatsiya qilingan tovarlar hisobini yuritish**

Tayanch soʻz va iboralar:

2.1. Tayyor mahsulot haqida tushuncha va uning hisobini tashkil etish

Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida mamlakat ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash borasida koʻpgina chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda har bir xoʻjalik yurituvchi subʼekt koʻproq miqdorda foyda olish maqsadida oʻz ichki imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishga harakat qilmoqda. Ammo hozirgi sharoitda respublikamizda mavjud tovar ishlab chiqaruvchi subʼektlar mahsulot ishlab chiqarish jarayonida uni faqat vositachi tashkilotlarga etkazib berish bilan cheklanmoqda.

Oʻz-oʻzicha bu uchta markaziy savollar - «Nima?», «qanday?» va «Kim uchun?» bozor munosabatlari sharoitida dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotini barpo etish sari dadil ildamlab borayotgan respublikamizda bu har bir korxonada, har bir firma oldida turgan markaziy muammolar sifatida qabul qilinadi. Bu muammolarni hal qilishda korxonaning butun xodimlari, shu jumladan buxgalterlar ham muhim oʻrin tutadi. Buxgalteriya boʻlimi korxonada qancha miqdorda mahsulot ishlab chiqarish lozimligini, uni qaysi bozorda sotish mumkinligi xususida qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi rol oʻynaydi.

Korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish tizimida tayyor mahsulot, uni ortib joʻnatish vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tayyor mahsulot harakati bilan bogʻliq hamma xoʻjalik operatsiyalarini hisobda oʻz vaqtida va toʻgʻri aks ettirish, ombordagi mahsulotning belgilangan zahira va meʼyorlariga rioya qilish hamda saqlanishi ustidan nazorat olib borish;
- ombordagi zahiralarning holatini va butligini saqlash;
- ish va xizmatlarning bajarilish hajmi, tayyor mahsulot ishlab chiqarish boʻyicha uzluksiz nazorat oʻrnatish, ortib joʻnatilgan va yuborilgan mahsulotlar (ish, xizmat) boʻyicha hujjatlarni oʻz vaqtida va toʻgʻri rasmiylashtirish, xaridorlar bilan hisob-kitoblarni aniq tashkil qilish.

Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi korxonaning bir maromda ishlashiga, ombor xoʻjaligi va mahsulot sotishni toʻgʻri tashkil qilishga, xoʻjalik operatsiyalarining hujjatlarda oʻz vaqtida rasmiylashtirilishiga bogʻliqdir.

«Tovar-moddiy zaxiralar» nomli 4-son BHMSga muvofiq tayyor mahsulot

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarida bo‘lgan aktivlar hisoblanadi va ular xo‘jalik yurituvchi sub’ektning kundalik faoliyatida sotish uchun mo‘ljallangan tayyor mahsulot, tovarlar sifatida korxonaning tovar-moddiy zaxiralari tarkibiga kiradi.⁸

Tayyor mahsulot — korxonalarda ishlab chiqarish jarayonining pirovard mahsulotidir. Texnologik ishlov berinshing barcha bosqichlaridan o‘ttan, tasdiqlangan standartlar va texnik shartlarga muvofiq keladigan (uning sifatini tasdiqlaydigan sertifikat yoki boshqa hujjat bilan ta‘minlangan), texnik nazorat bo‘limi qabul qilgan va omborga topshirilgan yoki xaridorga yuklab jo‘natilgan mahsulot tayyor mahsulot deb hisoblanadi.⁹

Korxonada mahsulot (ish, xizmat)ni sotish hisobini tashkil qilish va yuritish vazifalariga quyidagilar kiradi:

- mahsulot (ish, xizmat)larning sotilishi bilan bog‘liq bo‘lgan hamma xo‘jalik operatsiyalarini hisobda to‘g‘ri va o‘z vaqtida aks ettirish;
- mahsulot (ish, xizmat) sotishda shartnomalar bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatish;
- sotilgan mahsulotning assortiment va hajmi bo‘yicha hamda sotish rejasining bajarilishini nazorat qilish;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan davr xarajatlarini o‘z vaqtida aniq hisob-kitob qilish;
- sotilgan mahsulot uchun olingan tushumni aniq hisob-kitob qilish, foyda summasini to‘g‘ri aniqlash va boshqalar.
- korxonalar mahsulot (ish, xizmat)larini sotganlaridan so‘ng shu faoliyat natijasi, ya‘ni moliyaviy natijalarini aniqlashlari va buni atroflicha tahlil qilish lozim.

Mahsulot sotish orqali qilingan xarajatlar qoplanadi va korxonada foyda olishga erishadi.

Sotish hajmi ishlab chiqarish jarayonining so‘nggi bosqichidir. Mahsulot sotishdan kelgan tushum orqali korxonada birinchi galdagi to‘lovlarni amalga oshiradi. Soliq bo‘yicha to‘lovlar mol etkazib beruvchilar, ishchi xizmatchilar bilan ish haqi bo‘yicha hisob-kitoblarni bajaradi. Demak, korxonaning moliyaviy holati, aylanma mablag‘larning aylanish tezligi va uni holati, moliyaviy natijalarni sotish hajmi bo‘yicha rejaning bajarilishi va uning dinamikasiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Sotish jarayonining tezlashishi korxonaning ishlab chiqarish va ta‘minot jaryonlarini ham tezlashishiga ta‘sir etadi, debitorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartiradi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi ishlab, chiqarilayotgan mahsuloti bozorda raqobatdoshligidan, uning ichki va tashqi bozorda talabidan, realizatsiya hajmiga bog‘liqdir.

Mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish aholini ehtiyojlarini ta‘minlashga qaratilgan har bir korxonada ishlab chiqarish faoliyatining yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Mahsulotni rejadagi hajmi bo‘yicha sotish tashkilotga ishlab

⁸ «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli 4-son BHMS. 5,3-band.

⁹ G‘ulomova F.G’. Buxgalteriya hisobini mustaqil o‘rganish uchun qo‘llanma. Toshkent: NORMA, 2009. 397-b.

chiqarish xarajatlarini, qoplash, davlat byudjeti, kredit bo'yicha banklar va boshqa ho'jalik sub'ektlar oldidagi majburiyatlarni bajarish imkoniyatini yaratadi, hamda ishlab chiqarishni takomillashtirish va kelajakda rivojlanish uchun muhim bo'lgan foyda olishga yordam qiladi.

Mahsulotni sotish bilan bog'liq bo'lgan muomallarining manbalari:

- mahsulotni ishlab chiqarish va sotilishini hisobga olishga doir qonunchilik;
- tayyor mahsulotni rejalashtirish va tayorlash bo'yicha korxonadagi hujjatlar;
- mahsulot ishlab chiqarish, jo'natish va sotilishiga doir dastlabki hujjatlar va shartnomalar;
- 4010, 2810, 9010, 9110 schyotlar va boshqa schyotlardagi ma'lumotlar;
- 10,11 - sonli jurnal - order, 16 - sonli qaydnoma ma'lumotlari;
- 2-sonli "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"dagi ma'lumotlar.

2.2. Tayyor mahsulotni ombordagi va buxgalteriyadagi hisobi.

Korxonalarda tayyor mahsulot hisobi vazifalarini aniq tashkil qilish maqsadida ular omborda va buxgalteriyada hisobga olib boriladi. Pirovard, iste'molga yaroqli bo'lgan mahsulot texnik nazorat bo'limi tomonlaridan tekshirilganidan so'ng omborga topshiriladi. Tayyor mahsulotni omborga qabul qilishda topshirish nakladnoyi yoki mahsulot topshirish vedomostida rasmiylashtiriladi. Bu hujjatlarda topshiruvchi tsex, topshirilish muddati, mahsulotning nomenklatura raqami, uning soni, reja tannarxi va tegishli moddiy javobgar shaxslarning imzosi ko'rsatiladi. Qabul hujjatlari asosida buxgalteriya mahsulot topshirish vedomostini yuritadi. Bajarilgan ish yoki xizmatlar qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Omborlarda mahsulot harakatining miqdor ko'rsatkichlaridagi hisobi varaqlarda yuritiladi. Varaqaga har bir kirim va chiqim hujjatlari asosida mahsulot harakati bilan bog'liq operasiyalar yozib boriladi. Tayyor mahsulotning ombordagi hisobi operativ buxgalteriya usulida tashkil qilinadi, yani har bir buyum nomenklatura raqamiga ombor materiallari hisob kartochkasi ochiladi (№ M-17) tayyor mahsulotning kelib tushishi va chetga borilishi bilan oq ombor xodimi hujjatlar asosida ularning sonini kartochkalarga yozib qo'yadi va har bir yozuvdan keyin hisoblab qo'yiladi. Buxgalter har kuni tugagan sutka uchun ombordan hujjatlarni qabul qilib olishi kerak (qabul qilish-topshirish nakladnoyi, buyruq-nakladnoy, tovar-transport).

Ombor hisobining to'g'ri yuritilganligi ombor hisobi kartochkasiga buxgalterning imzosi bilan tasdiqlanadi. Moddiy javobgar shaxs ombor hisobi kartochkalari asosida har oyda tayyor mahsulot nomenklaturasi, o'lchov birligi soniga tayangan holda tayyor mahsulotning qoldiq hisobi vedomostini to'ldiradi. Bu erda hisob baholari bo'yicha qoldiqlar taksirovka qilinadi va buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

Mahsulot kirimi va chiqimi bilan bog'liq muomalalar rasmiylashtirilgan dastlabki hujjatlar ombor varaqlariga yozilganidan keyin buxgalteriyaga

topshiriladi. Bu erda hujjatlar tekshiriladi, guruhlanadi va ular asosida tegishli hisob registrlari tuziladi. Tayyor mahsulot harakatining pul shaklida ifodalangan hisobi ombor hisobi ma'lumotlari asosida buxgalteriyada yuritiladi.

Tayyor mahsulot harakati hisobini to'g'ri tashkil qilish korxonada tomonidan ishlab chiqilgan buyum turlari nomining ro'yxati – nomenklaturasidan foydalanish katta ahamiyatga ega. Uni tuzish asosida tayyor mahsulotni turkumlash, yani, ushbu korxonada ishlab chiqiladigan bir mahsulot turini boshqa mahsulotlardan ajratib turuvchi malum belgilari yotadi. Nomenklatura ro'yxatini tuzishda asos qilib quyidagi belgilar olinadi: model, fason, artikul, marka va hokazo. Har bir mahsulot turiga nomenklatura raqami biriktiriladi, u turli sonlardan iborat bo'ladi.

Mahsulot nomenklaturasidan (ro'yxatdan) korxonaning quyidagi xizmatlaridan foydalaniladi:

- dispetcherlik xizmat turi mahsulot ishlab chiqarish grafigining bajarilishini nazorat qiladi;

- tsexlar ishlab chiqilgan mahsulot assortimentini qilishda, omborga tayyor mahsulotni sotishda yuk xati yozish uchun foydalaniladi;

- marketing bo'limi-jo'natish bo'limi shartnomalarini bajarish imkoniyatini nazorat qilish uchun;

- buxgalteriya –tayyor mahsulotning analitik hisobini yuritishda umumiy malumotlar va hisobotlar tuzish uchun foydalaniladi.

Hisob-kitobning jurnal – order shaklida tayyor mahsulotning analitik hisobi 16-qaydnomada yuritiladi. Bu qaydnoma to'rtta bo'limdan iborat bo'lib ular quyidagilardan iborat:

1-bo'lim “Tayyor mahsulotning pul shaklidagi harakati ” deb nomlanadi va unda mahsulotning hisobot oyi boshlanishiga qoldig'i, omborga qabul qilingani xaridorlarga jo'natilgan va hisobot oyi oxiriga qoldig'i hisobida qabul qilingan baho hamda haqiqiy tannarxda ko'rsatiladi.

2-bo'lim “Jo'natilgan va sotilgan mahsulotlar” deb nomlanib, unda jo'natilgan mahsulotlarning analitik hisobi xaridor korxonalar nomiga yozilgan har bir to'lov talabnomasi bo'yicha alohida yuritiladi.

3-bo'lim “To'langan va to'lanmagan schyotlar haqida umumiy ma'lumotlar” deb nomlanib, unda jo'natilgan va sotilgan mahsulotlar to'g'risida umumiy malumotlar ko'rsatiladi.

4-bo'limda soliq bo'yicha soliq idoralari bilan hisob-kitob ma'lumotlari keltiriladi.

Hisobot davri oxirida 16-qaydnomaning oylik jami summasi 11-jurnal orderga ko'chiriladi. Bu jurnal-order ikki bo'limdan iborat bo'lib, 1-bo'limida tayyor mahsulot, realizatsiya bilan bog'liq xarajatlar hisobvarag'i, jo'natilgan tovarlar, sotish, xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitob hisobvarag'ining krediti bo'yicha yozuvlar keltiriladi. Ikkinchi bo'limda mahsulot sotish bo'yicha analitik hisob ma'lumotlari keltiriladi. 16-qaydnoma va 11-jurnal-order asosida tuziladigan tovarni sotish haqidagi hisobotda quyidagi ko'rsatkichlar ko'rsatiladi: sotilgan mahsulotning reja tannarxi, reja va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq, sotish

bilan bog‘liq xarajatlar hisobvarag‘i, soliq, sotishdan olingan tushum va oxirgi moliyaviy natija, ya‘ni foyda yoki zarar summasi.

Tayyor mahsulotni jo‘natishni hisobga olish. Ombordan tayyor mahsulot xaridorlarga korxonaning sotish bo‘limi buyrug‘iga asosan jo‘natiladi. Mahsulotni sotish xaridor korxonalar bilan tuzilgan shartnoma va jo‘natish grafigiga muvofiq amalga oshiriladi. Sotish rejasini bajarishda xaridorlarga jo‘natilgan mahsulot hisobini to‘g‘ri tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Buni mahsulot ortib jo‘natishdan tortib to uning uchun xaridorlardan pul kelib tushgunicha bo‘lgan Tovar mahsulotining harakatini doimiy ravishda kuzatib turish kerak. Bunday nazorat har bir dastlabki hujjat bilan jo‘natilgan mahsulot bo‘yicha alohida yuritilib, shu mahsulotning qachon va kimga jo‘natilganligi, uning yo‘ldagi harakatiga qancha vaqt ketishi kerakligi va haqiqatda qancha vaqt ketganligi, qanday xaridorlar mahsulotni qachon qabul qilib olganliklari va qachon pulini to‘lash kerakligi, qanday xaridorlar ularga jo‘natilgan molar uchun pul to‘lamagan va nima uchun to‘lanmaganligini, xullas, yo‘ldagi barcha tovar mahsulotning taqdiriga doir masalalar haqida xabardor bo‘lib turish imkonini beradi.

Schyot-faktura yoki to‘lov talabnomasining alohida bo‘lmasida tara va qadolash qiymati hamda xaridor tomonidan to‘lanadigan temir yo‘l bo‘yicha tarif summasi ko‘rsatiladi. Bazida xaridor tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan temir yo‘l tarifi bo‘yicha summaga umumiy mahsulotning sotish bahosi qo‘shib ko‘rsatilishi mumkin. Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi alohida bo‘limda ko‘rsatiladi. Mol etkazib beruvchi va xaridor o‘rtasida tuzilayotgan shartnoma vaqtida franko-joy to‘g‘risida to‘xtalib o‘tiladiki, bunda mahsulotni ortib jo‘natish bilan bog‘liq xarajatlarni mol etkazib beruvchi o‘z zimmasiga oladi. Franko-joyning quyidagi turlari mavjud: Franko-ombor mol etkazib beruvchi. Bunda mahsulot ortib jo‘natish bilan bog‘liq xarajatlarni mol etkazib beruvchi korxonaga to‘lov-talabnomasiga qo‘shadi (ombordagi ortib tushurish ishlarining qiymati temir yo‘l tarifi va etkazib berish xarajatlari). Franko-stansiya jo‘natish shunday narxki, u mol etkazib beruvchi to‘lov talabnomasining summasi, temir yo‘l tarifi va mahsulotni vagonga ortish xarajatlari yig‘indisidan iborat. Belgilangan stansiyagacha franko-vagon shunday narxki, bunda mol etkazib beruvchi to‘lov talabnomasiga faqat temir yo‘l tarif summasini qo‘shadi.

Belgilangan stansiyagacha franko. Bunda jo‘natish bo‘yicha barcha xarajatlar temir yo‘l tarifi qo‘shilgan holda mol yetkazib beruvchi tomonidan to‘lanadi. Narxning franko ombor xaridor turida mol etkazib beruvchi ko‘rsatilgan xarajatlardan tashqari xaridorning stansiyadagi ortib tushirish ishlari, uning ombordagi va omborga etkazib berish ishlari bo‘yicha xarajatlarni to‘liq qoplaydi. Bizning respublikamizda eng keng tarqalgan turi franko stansiya jo‘natish hisoblanadi.

Xo‘jalik shartnomasi – bu korxonalarining xo‘jalik munosabatlari o‘rnatish haqidagi o‘zaro kelishuvi. Shartnoma tomonlar majburiyati va huquqlarini belgilovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Yuz bergan sharoitni hisobga olib vaqti-vaqti bilan shartnoma shartlari ko‘rib chiqilishi va ularga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin. Agar korxonaga belgilangan nomenklaturadagi mahsulotni jo‘natish

yuzasidan shartnoma shartlarini buzsa, u holda ushbu korxonaga nisbatan jazo choralari ko‘riladi. Demak, shartnoma bilan rasmiylashtirilgan har bir rejali buyurtma korxonada bajarishi shart bo‘lgan qonundir. Bunday tartib ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yuqori ish unumdorligiga erishishni taminlaydi. Belgilangan muddatda mahsulot sotish rejasining bajarilmagani uchun jarima to‘lash chorasi qo‘llaniladi. Jarima miqdori mahsulot sotish shartlariga qarab aniqlanadi.

Mahsulotlar xaridorlarga jo‘natilganda jo‘natilgan tovar qiymatiga quyidagicha provodka beriladi:

D-t 9110- “Sotilgan mahsulotning tannarxi”

K-t 2810-“Ombordagi tayyor mahsulot”.

Jo‘natilgan tovarlarning analitik hisobi o‘z vaqtida bank inkassasiga berilgan hisob-kitob hujjatlari bo‘yicha, to‘lash muddati etgan va to‘lash muddati etmagan hisob-kitob hujjatlari bo‘yicha alohida hamda to‘lashga qabul qilinmagan, masul shaxsda bo‘lgan jo‘natilgan tovarlar alohida hisobga olinadi.

2.3. Respublikamizda savdo faoliyatini tashkil etish

Savdo tushunchasiga kitoblarda turlicha ta‘rif berilsada, mohiyatan, savdo foyda olish maqsadida bir tovarni pulga yoki boshqa tovarga ayirboshlash hisoblanadi. Bugungi kunda iqtisodiyotning bu mustaqil tarmog‘i tovarlarning ishlab chiqaruvchidan iste‘molchiga etib borishini ta‘minlaydi. Tarmoqxaridorlarga xizmat ko‘rsatish, tovarlarni yetkazib berish, ularni saqlash hamda sotishga tayyorlash singari ketma-ketlikdagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Savdo, bir tomondan, o‘ta muhim iqtisodiy va ijtimoiy omil, ikkinchitmondan esa soliq tushumlarining katta manbai hisoblanadi. Shu bois mazkursohaga davlat tomonidan katta e‘tibor ko‘rsatilyapti.

Ma‘lumki, mamlakatimiz mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotini shakllantirish borasida ulkan yutuqlarga erishdi. Shu bilan birga iqtisodiyotni, xususan, savdo sohasini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini doimo mukammallashtirish talab etilishi tabiiy. Xususan, amaldagi qonun hujjatlaridan ulgurji savdodan chakana savdoning qanday farqi bor degan oddiy savolga javob topish oson emas.

Soliq kodeksiga muvofiq savdo faoliyati qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyatdir.¹⁰

Faoliyat sifatida savdo yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni sotib olish va sotish, ularni aylanishini tashkil qilish bo‘yicha olib boriladigan tadbirkorlikning bir turi hisoblanadi. U ishlab chiqarish sohasini iste‘mol sohasi bilan bog‘lovchi bo‘g‘indir. Savdosiz yaratilgan mahsulotlar o‘z iste‘molchilariga yetib bormaydi.


Savdo tovar-pul munosabatlarining majmuasidir. Ushbu munosabatlarda bir tomondan sotuvchi, ikkinchi tomondan esa sotib oluvchi ishtirok etadi. Tovar-pul munosabatlari majmuasi savdoni iqtisodiyotning maxsus tarmog‘i darajasida

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasining “Soliq Kodeksi” 22-moddasi (25.12.2007 yildagi O‘RQ-136-son bilan tasdiqlangan)

harakat qilishiga olib keladi.

Savdo jismoniy shaxslarning ham tadbirkorlik va tijorat faoliyati hisoblanadi. Savdo makon va zamonda uzluksiz, doimiy yuz beruvchi tovar-pul munosabatlarning majmuasidir. Ushbu munosabatlarda bir tomondan sotuvchi, ikkinchi tomon esa oluvchi sifatida ishtirok etadi. Tovar - pul munosabatlarning majmuasi savdoni jamiyat iqtisodiyotining maxsus tarmog'i darajasida harakat qilishiga olib keladi.

Savdoning mohiyati va ahamiyati u bajaradigan funktsiyalarda namoyon bo'ladi. Savdoning asosiy funktsiyalariga quyidagilar kiradi:



Savdoning asosiy funktsiyalari


Sotish funktsiyasi – bu ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan mahsulotlarni iste'molchilarga etkazadi. Ushbu funktsiyani bajarilishi “tovar aylanmasi” ko'rsatkichining miqdori bilan o'lchanadi. Tovar aylanmasi o'zida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar-moddiy boyliklarni qanday miqdorda iste'mol qilinganligini bildiradi.

Taqsimot funktsiyasi – bu ishlab chiqarilgan mahsulotlarni mamlakatning turli hududlari, tarmoqlari, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida taqsimlash. Ushbu funktsiyani bajarilishi bevosita aholida tuman, shaxar va viloyatlarning, shuningdek iqtisodiyotning alohida tarmoqlari bo'yicha tovar aylanmasining miqdorida o'z aksini topadi.

Ishlab chiqarish funktsiyasi - bu tovarlarni xaridorlarga etkazishgacha bajarilgan tashish, saqlash, o'rash va shu kabi qushimcha jarayonlar majmuasi.

Ijtimoiy funktsiya – bu xaridorlarni, shu jumladan aholini, tovarlarni va savdo xizmatining sifati hamda estetik jihatlariga, ularning tegishli assortimentiga, shuningdek savdo-sotiqqa sarflanadigan vaqtlarini kamaytirishga bo'lgan talablarini qondirish.


Fiskal funktsiya – bu tovar-pul munosabatlari orqali pul mablag'larini to'plash. Aynan savdo orqali davlatning pul mablag'larining banklardagi yig'imi, kassa rejasi bajariladi.



Amal qilish hududiga ko'ra savdo faoliyati turlari

Ichki savdo – bu bir mamlakat hududida amalga oshiriladigan savdo faoliyati. Tashqi savdo – bu bir mamlakat ichida ishlab chiqarilgan mahalliy tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotish faoliyati.

Tovarlarni savdo-sotig‘ini amalga oshirish va unda qo‘llaniladigan hisob-kitob shakliga ko‘ra savdo ulgurji, mayda ulgurji va chakana savdo turlariga bo‘linadi.



Tovarlarni savdo-sotig‘ini amalga oshirishda savdo turlari

Ulgurji savdo – tashkilotlararo, tashkilotlar va tadbirkorlar o‘rtasida, tadbirkorlararo savdodir. Ya’ni bu shunday savdoki, tovar pirovard foydalanish uchun emas, balki biznes ehtiyojlari (qaytadan sotish yoki ishlab chiqarishda foydalanish) uchun sotiladi, bunda xaridor identifikatsiyalanadi. Ulgurji savdo – bu savdo sohasida tovarlarning yirik turkumlarini o‘zaro hisob-kitoblarning naqd pulsiz shakli bo‘yicha, uni tijorat tadbirkorlik faoliyati maqsadida yoki o‘z ishlab chiqarish-xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalanishni mo‘ljallayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish. Ulgurji savdo ham ichki, tashqi savdo faoliyati bo‘lishi mumkin.

Tijorat maqsadlarida foydalanish yoki o‘z ishlab chiqarish-xo‘jalik ehtiyojlari uchun hisob-kitoblarning naqd pulsiz shaklida xarid qilinadigan tovarlarni sotish ulgurji savdo faoliyati deb e’tirof etiladi.¹¹

Ulgurji savdo bilan yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar, faqat ular tegishli litsenziya olgan taqdirda, shug‘ullanishlari mumkin.¹²

Ulgurji savdo faoliyatini amalga oshirish huquqiga namunaviy (oddiy) litsenziyalar beriladi. Ulgurji savdo faoliyatini litsenziyalash yuridik shaxs-litsenziya talabgori ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi shahar (tuman) hokimligi tomonidan amalga oshiriladi.

Ulgurji savdoning xarakterli xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 5 noyabrdagi 242-son qaroriga ilova “Ulgurji savdo faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risida”gi Nizom, 2-bandi

¹² “Ulgurji va chakana savdo faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom 3-bandi (O‘zR VM 02.11.2011 y. 294-son Qarori tahriridagi Nizom)

- tovarlarning xaridorlarga katta partiyalarda naqd pulsiz sotilishi;
- har bir sotish muomalasini albatta schyot-faktura bilan qat'iy rasmiylashtirishi;
- tovarlarning faqat omborxonalar yoki maxsus sotish joylaridan xaridorlarga jo'natilishi.

Litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziya talabgorining arizasi ko'rib chiqilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida yig'im undiriladi. Litsenziya berish yuzasidan hujjatlar ko'rib chiqilganligi uchun yig'im summasi litsenziyalovchi organ hisob raqamiga o'tkaziladi.

Quyidagilar ulgurji savdo faoliyatini amalga oshirishning litsenziya talablari va shartlari hisoblanadi:¹³

- O'zbekiston Respublikasining ulgurji savdo faoliyatini amalga oshirishni tartibga soluvchi qonun hujjatlariga rioya qilish;
- eng kam oylik ish haqining kamida 3500 baravari miqdorida, ulardan eng kam oylik ish haqining kamida 1200 baravari miqdorida pul mablag'lari bilan shakllantirilgan ustav fondining mavjud bo'lishi;
- majburiy tartibda sertifikatlanishi kerak bo'lgan tovarlar sotilgan taqdirda muvofiqlik sertifikatlari yoki mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda sertifikatlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar yoxud ularning nusxalari mavjud bo'lishi.

Litsenziya olish uchun litsenziya talabgori litsenziyalovchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bank muassasasidagi hisob raqami, faoliyatning litsenziyalanadigan turi ko'rsatilgan holda litsenziya berish to'g'risida ariza;

b) yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi;

c) eng kam oylik ish haqining kamida 3500 baravari miqdorida ustav fondi shakllantirilganligini tasdiqlovchi hujjatning, shu jumladan eng kam oylik ish haqining kamida 1200 baravari miqdorida pul mablag'lari kiritilganligini tasdiqlovchi bank hujjatining nusxasi;

d) litsenziya berish to'g'risidagi ariza litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat.

Mayda ulgurji savdo-savdo sohasida tovarlarni kichik turkumlar bilan o'zaro hisob-kitoblarning naqd pulsiz va naqd pul shakllari bo'yicha sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish. Mayda ulgurji savdo faqat ichki savdo faoliyati hisoblanadi. Ushbu savdo faoliyati chakana savdo korxonalari, ulgurji savdo korxonalari va yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan turg'un savdo shaxobchalari hamda iste'mol buyum bozorlarida ajratilgan joylar orqali amalga oshiriladi.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 5 noyabrdagi 242-son Qarori "Ulgurji savdo faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi Nizom, 10-bandi

Chakana savdo – pirovard iste'molchiga tovarlarni sotish. Ulgurji savdodan farqli o'laroq, chakana savdo tizimida sotib olingan tovar keyinchalik qayta sotishga emas, balki pirovard iste'molchi tomonidan bevosita foydalanishga mo'ljallangan. Chakana savdo-savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun, undan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqsiz aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish. Ushbu savdo faqat ichki savdo faoliyati hisoblanadi.

Ushbu ta'riflar nazariy ta'riflardir. Amaliyotda ulgurji va chakana savdo o'rtasidagi chegarani belgilash oson kechmaydi. Bu esa muayyan muammolarni, shu jumladan mazkur faoliyatga soliq solishda ham muammolarni yuzaga keltiradi. Ko'pgina mamlakatlarda ushbu savdo faoliyatlari uchun turlicha soliqlar belgilangan. Rossiyada, masalan, chakana savdo qiluvchilar belgilangan daromad bo'yicha yagona soliq to'laydilar, ulgurji savdo qiluvchilar esa umumiy va soddalashtirilgan soliq solish tizimini qo'llaydilar.

Bizning respublikamizda bu sohada Ulgurji va chakana savdo faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida nizom amal qilmoqda. Unga muvofiq:¹⁴

- ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o'z ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanish uchun hisob-kitoblarning naqddinasiz shaklida xarid qilinadigan tovarlarni sotish;

- chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun, undan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqsiz aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirishdir.

Ko'rib turganimizdek, savdo turi identifikatsiyalash mezonlariga naqd va naqd pulsiz hisob-kitob shakllari hamda realizatsiya qilinadigan tovarlar miqdori ham qo'shiladi. Darhol savollar tug'iladi. Kichik miqdor – bu qancha degani? Ulgurji savdoda kichik miqdorlarda sotish mumkin emasmi? Nega chakana savdoda tovarlar naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha sotilmaydi?

Ta'kidlash joizki, rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida “chakana” tushunchasi savdoning hajmiy-miqdor jihatidan o'zini oqlamaydi. Oldi-sotdi buyumlarining miqdori savdo faoliyatini hamda xaridorlar ehtiyojini va ularni qondirishda sotuvchining imkoniyatlarini ifodalaydi.

Savdo korxonalarida chakana sotish tovarlarni so'nggi iste'molchiga yetkazib berishni ifodalaydi. Mazkur savdo turini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar chakana savdo korxonalari deb ataladi. Chakana savdoning o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

– tovarlarni savdo shohobchalarida savdo ustamalari bilan birga hisobga olinishi;

– tovarlarni naqd pulga sotilishi;

– har bir tovarning sotilishini hujjatli rasmiylashtirilmasligi, biroq, kassa apparati pattasi bilan sotish summasini qayd etilishi;

– naqd pulsiz plastik kartochkalar orqali amalga oshirilishi;

¹⁴ “Ulgurji va chakana savdo faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida”gi Nizom 2-bandi (O'zR VM 02.11.2011 y. 294-son Qarori tahriridagi Nizom)

– tovarlarni naqdsiz ulgurji sotishning chegaralanganligi.

Tovarlarni chakana sotish yuridik shaxslar tomonidan faqat turg'un savdo shohobchalari orqali, nazorat-kassa mashinalarini majburiy qo'llangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Turg'un chakana savdo shohobchasi - joylardagi davlat hokimiyati organlari qarori bilan ajratilgan yer uchastkalaridagi O'zbekiston Respublikasi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi organlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha qurilgan, sanitariya va yong'in xavfsizligi normalari va talablariga javob beradigan, savdo zaliga, savdo asbob-anjomlariga hamda tovarlarni saqlash, sortlarga ajratish va qadoqlash uchun xonalarga ega bo'lgan, shuningdek nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan ob'ekt (bino, inshoot).¹⁵

Chakana savdoni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar tovarlarning sotib olinganligini tasdiqlovchi xujjatlarga, qonun xujjatlarida belgilangan holda sotish joylarida sotilayotgan tovarlarning muvofiqlik sertifikatlariga ega bo'lishlari shart. Sotiladigan tovarlar vitrinalarga qo'yilgan bo'lishi va kelib chiqqan mamlakati, ishlab chiqaruvchisi va narxi ko'rsatilgan narxnomalarga ega bo'lishi kerak. Yaroqlilik muddatiga ega bo'lgan tovarlarni sotish chog'ida narxnomalarda yaroqlilik muddati ham ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar chakana savdo bilan faqat turg'un chakana savdo shohobchasi joylashgan joydagi tuman (shaxar) hokimliklaridan chakana savdoni amalga oshirish huquqiga ruxsat guvoxnomasi olgan taqdirda shug'ullanishlari mumkin.

Yurituvchi shaxslarning maqomiga ko'ra savdo faoliyati jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar tomonidan olib boriladigan savdoga bo'linadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan olib boriladigan savdo faoliyati deganda yuridik shaxs maqomisiz mahalliy hokimlikdan ro'yxatdan o'tgan va savdo faoliyatini yuridish huquqiga ega bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan savdo tushuniladi. Bunday yakka tartibdagi tadbirkorlar savdo faoliyatini o'zlarining hususiy savdo do'konlari yoki buyum bozorlarida ajratilgan joylar orqali amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslar tomonidan olib boriladigan savdo faoliyati deganda yuridik shaxs sifatida mahalliy hokimlikdan ro'yxatdan o'tgan va savdo faoliyatini yuritish huquqiga ega bo'lgan davlat, nodavlat va aralash mulk korxonolari tomonidan amaga oshiriladigan savdo tushuniladi. Bunday korxonalar savdo faoliyatini o'zlarining savdo do'konlari, shaxobchalari, bazalari, omborlari yoki buyum bozolarida ajratilgan savdo tarmog'lari orqali amalga oshiradilar.

Respublikamizda savdo faoliyatining turlari, ularning amalga oshirish shartlari va tartibi hukumatimiz tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar bilan qat'iy tartibga solinadi.

Chakana savdo bilan shug'ullannuvchi yuridik shaxslarga, shuningdek

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 26 noyabrda 407-son Qarori bilan tasdiqlangan "Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risida" Nizomning 2-bandi.

kichik turkumlar bilan turg'un savdo shaxobchalari orqali chakana savdo bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga tovarlarni ulgurji sotishda shartnomaga sotib oluvchi ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi Davlat soliq xizmati organi turg'un savdo shaxobchasi mavjudligi va nazora-kassa mashinasining ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi ilova qilinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 26 noyabrdagi 407-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq chakana savdoni ro'yxatga olish va amalga oshirishning turlari va tartiblari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 19 martdagi "Iste'mol tovarlari bilan ulgurji va chakana savdo qilishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 125-son Qarori va ushbu qarorga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar o'zlari ishlab chiqargan tovarlarni o'z do'konlari orqali faqat belgilangan namunadagi nazorat-kassa apparatlaridan foydalangan holda chakana sotishlari mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, chakana savdo bilan shug'ullanish uchun ruxsat guvohomasini olish tartibi barcha turdagi korxonalar, shu jumladan maxsus chakana savdo korxonalari, umumiy ovqatlanish korxonalari, o'zining savdo do'konlari va umumiy ovqatlanishni tashkil etish bo'linmalari mavjud bo'lgan ishlab chiqarish va xizmat sohasi korxonalari uchun bir xildir. Umumiy ovqatlanish faoliyati o'zining mohiyatiga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektlarning chakana savdo faoliyatiga to'liq, tenglashtiriladi va ularning ushbu faoliyati ham chakana savdoga ruxsat guvohnomasini olish asosida amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarga umumiy ovqatlanishni tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat etilmaydi. Uy sharoitlarida va maxsus ajratiladigan joylarda ovqatlanish joylari tashkil etmasdan donali taomlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish davlat hokimligi organlarining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Buyum bozorlarida chakana savdoni amalga oshirmoqchi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkor ruxsat guvohnomasini olish uchun buyum bozori joylashgan joydagi tuman (shahar) hokimligiga quyidagilarni taqdim etishi zarur:

- yakka tartibdagi tadbirkor chakana sotishni muljallayotgan tovarlar guruhlari ko'rsatilgan ariza.
- yuridik shaxs bo'lmasdan yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchining jismoniy shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma nusxasi.
- buyum bozori ma'muriyatidan yakka tartibdagi tadbirkorga savdo joyi berilganligi to'g'risida ma'lumotnoma.
- chakana savdo huquqiga mahalliy yig'im to'langanligini tasdiqlovchi bank hujjati nusxasi.

Chakana savdoni alohida tovarlar bo'yicha yuritishning, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan umumiy ovqatlanish mahsulotlari (xizmatlari) ni

ishlab chiqarish va sotishning o'ziga xos tartib va qoidalari mavjud. Bunday tartib va qoidalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 13 fevraldagi 75-son Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari" va "O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlari (xizmatlari)ni ishlab chiqarish va sotish qoidalari"da, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 15 maydagi 217-sonli Qaroriga muvofiq bu qoidalarga kiritilgan o'zgarishlarga atroflicha yoritilgan.

Tovarlarni chakana savdo tashkilotlar orqali naqd pulsiz sotish shartlari va tartibi. Respublikamiz chakana savdo tashkilotlari orqali tovarlarni naqd pulsiz sotish shartlari va tartibi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 5 noyabrdagi 407-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom va unga kiritilgan o'zgartirishlarda o'z aksini topgan. Ushbu Nizomga ko'ra savdo korxonalarini tomonidan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha sotish o'tgan oy mobaynidagi oylik tovar aylanmasi umumiy hajmining 10 foizi doirasida amalga oshirilishi mumkin. Bunda sotilishini hisoblab chiqish har bir oy bo'yicha alohida amalga oshiriladi. Tovarlarni oldingi oylar hisobiga sotilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Chakana savdo tashkilotlariga tovarlarni tovar aylanmasi umumiy hajmining 10 foizidan ortiqcha naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha faqat ijtimoiy soha tashkilotlari va muassasalari (bolalar, davolash muassasalari, qariya uylari, mehribonlik uylari, nogiron uylari, o'quv va ma'rifiy yurtlari) ga sotishga ruxsat beriladi.

Savdo faoliyatini yurituvchi subyektlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish ularning mulkiy va tashkiliy shakliga bog'liq bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 357- son Qarori va ushbu qaror bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida Nizom"ga muvofiq savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini quyidagi davlat organlari tomonidan ro'yxatga olinadi:

- Toshkent shahrida tashkil etiladigan ulgurji va chakana bozorlar, xorijiy investitsiya ishtirokidagi savdo korxonalarini, shuningdek qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda boshqa savdo tashkilotlari – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan;

- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va tegishli ravishda Qorakalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda tashkil etiladigan bozorlar, ochiq aktsiyadorlik jamiyatlari va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tashkilotlar - Qorakalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi va viloyatlar adliya boshqarmalari tomonidan;

- ma'suliyati cheklangan jamiyat, xususiy firma (korxonalar), xo'jalik jamiyati, sho'ba xo'jalik jamiyati va boshqa shakllardagi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini – ular joylashgan joydagi tuman va shahar hokimliklari xuzuridagi "Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari"

tomonidan.

Savdo korxonalarining tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab beruvchi mezonlardan biri bo‘lib belgilangan ustav fondini o‘z vaqtida (davlat ro‘yxatidan o‘tgan kundan boshlab bir yil muddatda) shakllantirish hisoblanadi. Ustav fondining chegeralangan miqdori faqat xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalariga, shuningdek, ulgurji savdo bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslarga taalluqlidir.

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish bilan shug‘ullanuvchi mahalliy yuridik shaxslar uchun ustav fondining chegeralangan miqdori davlat tomonidan belgilanmagan. Faqat qonun hujjatlariga muvofiq ularning muassislari korxonani davlat ro‘yxatidan o‘tkazishgacha ta‘sis hujjatlarida belgilangan hissalarining 30 foizidagi miqdorini pul mablag‘lari bilan oldindan kirishlari va bu bank hujjatlari bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Agar tadbirkorlik subyekti ustav fondi yoki uning bir qismi mulkiy ulush (ko‘chmas mulk, asbob-uskunalar va boshqalar) yoki intellektual mulk hisobiga shakllantirilgan taqdirda bank ma‘lumotnomasi talab qilinmaydi.

Bu ikki faoliyat turlarini o‘ta qat‘iy tarzda farqlash biznes va iste‘molchilar uchun qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Shu bois 407-son Nizomda tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitob bo‘yicha (oylik tovar aylanmasi umumiy hajmining 10%i doirasida, ijtimoiy sohaga sotilgan tovarlar hisobga olinmaydi) hamda korporativ plastik kartochkalar bo‘yicha cheklanmagan miqdorda sotishga ruxsat etiladi.

Yana savollar tug‘iladi: nega 15% emas, balki 10%? Masalan, mavjud barcha tovarlarni ijtimoiy sohaga sotish mumkinmi? Bu foizlarni kim nazorat qiladi va bu nima uchun kerak? Buni uddalash ancha mushkul, chunki ulgurji va chakana savdoda tovarlarning katta qismi uchun “plastic” orqali haq to‘lanadi (bu esa davlat siyosatining katta ijobiy natijasidir). Ya‘ni naqd yoki naqd pulsiz hisob-kitob turi ulgurji va chakana savdoning ajralish mezoni sifatida amal qilmay qo‘ydi. Bugungi kunda chakana savdoga haqiqatda naqdsiz hisob-kitob yo‘li bilan tovarlarni hech bir cheklovlarsiz sotish imkoniyati berildi. Bu esa juda yaxshi, ham so‘m qadrini mustahkamlaydi, ham naqd va naqdsiz pullar qiymatini yaqinlashtiradi.

Ulgurji va chakana savdoni qiyoslash jadvali

№	Ko‘rsatkichlar	Ulgurji savdo	Chakana savdo
1	Vikipediya bo‘yicha xalqaro tushuncha	Tovar pirovard foydalanish uchun emas, balki biznes ehtiyojlari uchun sotiladigan, bunda xaridor identifikatsiyalanadigan tashkilotlar o‘rtasidagi savdo	Pirovard iste‘molchiga tovarlarni sotish
2	O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bo‘yicha tushuncha	Tijorat maqsadlarida yoki o‘z ishlab chiqarish-xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalanish uchun hisob-kitoblarning naqdasiz shaklida xarid qilinadigan tovarlarni sotish	Savdo sohasida yakuniy iste‘mol uchun, undan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan

			miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish
3	Litsenziyalash	Hokimiyat tomonidan amalga oshiriladi	Talab etilmaydi
4	Ustav fondi miqdori	EKIHning 3 500 baravaridan kam emas, unda pul mablag‘lari – EKIHning 1 200 baravaridan kam bo‘lmasligi lozim	Cheklanmagan
5	Savdo faoliyati subyektlari	Yuridik shaxslar	Yuridik va jismoniy shaxslar
6	Naqd yoki naqdsiz hisob-kitob	Naqd pulsiz hisob-kitob; o‘zining firma do‘konlari orqali naqd hisob-kitob	Naqd hisob-kitob; oylik tovar oborotidan 10% doirasida naqdsiz hisob-kitob; umumiy tovar oboroti hajmining 10%idan ortiq miqdorda naqdsiz hisob-kitob – faqat ijtimoiy soha tashkilotlari uchun
7	Plastik kartochka bo‘yicha realizatsiya qilish	Mumkin	Mumkin
8	Realizatsiya hajmi	Cheklanmagan	Donalab yoki kichik miqdorda
9	Soliq solish	Yagona soliq to‘lovi (YaST)	Yagona soliq to‘lovi (YaST)

Ulgurji savdoda ham ahvol shunday. Bir tomondan, tovarlar faqat tuzilgan shartnomalar asosida va o‘zaro hisob-kitoblarning naqd pulsiz shaklida ulgurji sotilishi mumkin.¹⁶ Ikkinchi tomondan, ulgurji savdo korxonalariga o‘zining firma do‘konlari orqali naqd pulga mayda ulgurji va chakana savdoni amalga oshirishga ruxsat beriladi.¹⁷

Demak, ko‘rib turganimizdek, bugungi kunda ulgurji va chakana savdo o‘rtasidagi to‘siq borgan sari yo‘qolib boryapti. Nazariyada ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlarini ulgurji savdo korxonalariga, ular esa chakana korxonalariga, ushbu korxonalar iste‘molchilarga sotishadi deb ta‘kidlanadi. Biroq, shohidi bo‘lganimizdek, amalda ulgurji korxonalar chakana savdo bilan shug‘ullanyaptilar, chakana savdo korxonalari esa tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitob yo‘li bilan – plastik kartochkalar orqali hech bir cheklovlarisiz realizatsiya qilishlari mumkin.

Bularning hammasi tadbirkorlik faoliyatini yuritish shartlarining

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 26 noyabrdagi 407-son Qarori bilan tasdiqlangan “Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro‘yxatdan o‘tkazish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida” Nizomning 10-bandi.

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.06.2003 yildagi “Savdo va umumiy ovqatlanish sohasida soliqqa tortish tizimini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3270-son Farmoni 4-bandi.

liberallashtirishga olib kelishidan dalolatdir. Biroq, bizning fikrimizcha, bu ijobiy jarayonlarda ulgurji va chakana savdo faoliyatiga soliq solishning turli rejimlarining mavjudligi ba’zida muammolar tug’dirmoqda.

Soliq kodeksida belgilanishicha, savdo korxonalarini (ulgurji va chakana) xodimlarning sonidan qat’i nazar yagona soliq to’lovini (YaST) to’lovchilardir.

Shunday qilib, ulgurji va chakana savdo o’rtasidagi to’siqlarning bartaraf etilishi, savdo faoliyati uchun sharoitlarni yanada liberallashtirish yo’lida, fikrimizcha, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1) ulgurji va chakana savdo tushunchalari ta’riflarida farqlarni olib tashlash, birinchi navbatda, ulardan naqd-naqdsiz hisob-kitob shakllari va realizatsiya qilingan tovarlar miqdori mezonlarini chiqarib tashlash kerak. Keyinchalik ulgurji savdoni litsenziyalashni bosqichma-bosqich bekor qilish to’g’risidagi masalani ko’rib chiqish;

2) barcha savdo korxonalarini – ulgurji, ulgurji-chakana, chakana savdo korxonalarini uchun joylashgan joyiga qarab, YaSTning yagona stavkasini joriy qilish, masalan, barcha imtiyozlarni bekor qilish bilan tovar oborotidan 3%. Byudjet yo’qotishlari bo’lmazligi uchun hisob-kitob asosida stavka miqdorini aniq belgilash lozim;

3) barcha savdo korxonalarini uchun YaSTning yagona eng kam miqdorini joriy qilish. Bu, bizning fikrimizcha, biron-bir ob’ektiv ko’rsatkichga tutashgan qat’iy belgilangan soliq bo’lishi mumkin;

4) barcha savdo korxonalarini uchun (ilgari faqat ulgurji korxonalar uchun bo’lgan) YaST stavkasi miqdorida yagona bo’lak to’lovini joriy qilish.

Mamlakatimizda bozor islohotlarining muvaffaqiyatli rivojlanib borishi va turli faoliyat uchun xo’jalik yuritish sharoitlarining birxillashtirilishi natijasida savdoni chakana va ulgurji turlarga ajratish masalasi dolzarbligini yo’qotadi. Bunday ajratish kunu tun va kunduzi, ishlatilgan va yangi tovarlar bilan savdo qilishga ajratish kabi tobora amaliy ahamiyat kasb etmay qoladi. Sotuvchining u qachon, kimga va qancha sotishini o’zi hal qiladi. Xaridor ham bu masalaning hal etilishida chetda qolmaydi, bunda moliyaviy imkoniyati rol o’ynaydi. Albatta, “to’liq” liberallashtirishda ham absolyut erkin savdo haqida so’z bormaydi, negaki xalq manfaatlarini himoya qilish maqsadida muayyan talablar yoki cheklovlar nazarda tutilishi tabiiy.

2.4. Sotish muomalalarining analitik va sintetik hisobi

Mahsulotning sotilishi korxonalar mablag’lari aylanishining yakunlovchi jarayonidir. Bu jarayon korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotning xalq xo’jaligi iste’molida o’z o’rnini topganligini anglatadi. Hozirgi paytda korxonalar ishini baholashda mahsulot sotilishi asosiy ko’rsatkichlardan biri bo’lib hisoblanadi.

Xalqaro hisobda mahsulot, tovarlar sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko’rsatishdan olinadigan tushumni belgilashning ikki usuli mavjud:

1. Kassa usuli-bunda sotuvdan olingan tushum, yuklab jo’natilgan mahsulot uchun haq sifatida pul kelib tushishiga qarab e’tirof etib boriladi.

2. Yuklab jo‘natish usuli- bunda mahsulot xaridorlarga jo‘natilib, ularga hisob-kitob hujjatlari (schyot-faktura, transport yuk xatlari va boshqa shunga o‘xshash hujjatlar) topshirilishiga qarab bu mahsulot sotilgan hisoblanadi.

Kassa usuli qo‘llanilganda mahsulotni topshirish va uning haqini to‘lashga doir xo‘jalik operatsiyalari bajarilganidan keyingina mahsulot sotish ishlari tugatilgan hisoblanadi. Agar mahsulot jo‘natilib, uning puli xaridorlardan kelib tushmagan bo‘lsa, sotish ishi yakunlangan deb hisoblanishi mumkin emas.

Yuklab jo‘natish usuli qo‘llanilganda mahsulot va tovarlar jo‘natilib, ishlar va xizmatlar bajarilganidan keyin, ularning hisob-kitob hujjatlari xaridor (buyurtmachi)ga taqdim etilgan bo‘lsa, ana shunday mahsulot (ish, xizmat)lar va tovarlar sotilgan hisoblanadi. Hisob-kitob hujjatlari xaridor (buyurtmachi)ga shartnomada ko‘zda tutilgan usulda berilgan vaqtdan e‘tiboran bu hujjatlar xaridor (buyurtmachi)ga taqdim etilgan hisoblanadi. Agar shartnoma shartlariga ko‘ra xaridor (buyurtmachi) mahsulotni bevosita ishlab chiqaruvchi korxonaning o‘zida qabul qilsa, u holda bunday mahsulot xaridor (buyurtmachi) ga topshirilib, shartnomada ko‘zda tutilgan hujjatlar rasmiylashtirilib, hisob-kitob hujjatlari xaridor (buyurtmachi)ga yoxud uning vakiliga taqdim etilganidan keyin sotilgan hisoblanadi.

16-qaydnoma va 11-jurnal-order asosida tuziladigan tovarni sotish haqidagi hisobotda quyidagi ko‘rsatkichlar ko‘rsatiladi: sotilgan mahsulotning reja tannarxi, reja va haqiqiy tannarx o‘rtasidagi farq, sotish bilan bog‘liq xarajatlar hisobvarag‘i, soliq, sotishdan olingan tushum va oxirgi moliyaviy natija, ya‘ni foyda yoki zarar summasi.

Korxonada ishini sotish rejasining bajarilishiga qarab baholash korxonada raxbarlarini mahsulot sotish va moliyaviy faoliyat masalalariga ko‘proq e‘tibor berishga chaqiradi hamda korxonaning bir maromda ishlashiga va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishiga ijobiy tasir ko‘rsatadi. Bular esa, o‘z navbatida, korxonadagi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Xaridorlar tomonidan to‘langan pul mol etkazib beruvchi korxonaning hisob-kitob schyotiga kelib tushadi. Mol etkazib beruvchi tashkilotlarning tayyor mahsulotni xaridorlar tomonidan shu mahsulotni tayyorlovchi korxonaning o‘zida bevosita qabul qilib olinsa yoki u mahsulot transit usuli bilan (taminot sotish tashkilotlarining ishtirokisiz) jo‘natilsa, mahsulotning xaridorga topshirilishi tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi va u moliyaviy natijalarga kiritiladi. Korxonada sotish uchun mo‘ljallangan mahsulot (ish, xizmat) tovar mahsuloti deb nomlanadi. Tovar mahsuloti (ish, xizmat) tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- buyurtmachi va xaridorlarga sotilgan tayyor mahsulot (ish, xizmat) va korxonaning o‘zida ishlab chiqarilgan yarim fabrikat;
- xalq istemoli tovarlari, chiqindilardan tayyorlangan ishlab chiqarish-texnika maqsadlariga mo‘ljallangan buyumlar, yarim fabrikatlar hamda mahalliy xom-ashyodan xalq istemoli uchun tayyorlangan nooziq-ovqat (turlari) tovarlari;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari;
- sanoat xusiyatidagi ishlar va xizmatlar;

- o‘z kapital qurilishi etiyojlariga sotiladigan mahsulot, ish, xizmatlar;
- sanoat xususiyatiga ega bo‘lmagan ishlar va xizmatlarning amalga oshirilishi, qiymati xaridorlar tomonidan to‘langan va komplektlash uchun sotib olingan buyumlar;

- o‘z kuchi bilan chetga bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari.

Mahsulot (ish, xizmat) sotilishi hisobini tashkil qilishda, sotilgan mahsulot, tovarlar, ish va xizmatlarning har birining alohida turi bo‘yicha yuritilib, sotilayotgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlarning tarkibiy tuzilishi hamda ularning har birining umumiy sotilish summasidagi hissasi, har qaysisining rentabellik darajasi va boshqa malumotlar aks ettirilishi lozim.

Sotilgan mahsulot 9010-“Mahsulot sotishdan olingan daromadlar”, 9020-“Tovarlarni sotishdan olinadigan daromadlar”, 9030-“Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar” hisobvaralarida hisobga olinadi.

9040-“Sotilgan tovarlarning qaytarilishi” va 9050-“Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar” hisobvarag‘ida sotilgan tovarlarning qaytarilishi hamda xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar aks ettiriladi.

9010, 9020, 9030-hisobvaraqlarining kreditida 4010-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” hisobvarag‘i bilan korrespondensiyalangan holda mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum aks ettiriladi. Bu hisobvaraqlarda xaridorlarga jo‘natilgan mahsulot (ish, xizmat)lar bo‘yicha hisoblangan aksiz solig‘i va QQS summalari aks ettirilmaydi.

Tayyor mahsulotning sotilishida sotish bahosining aks ettirilishiga quyidagicha provodka beriladi:

D-t 4010-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”;

K-t 6410-“Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar”;

K-t 9010-“Mahsulot sotishdan olingan daromad”.

4010-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” hisobvarag‘i aktiv bo‘lib, uning saldosi xaridor va buyurtmachilarning korxonadan sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar bo‘yicha qarzini ko‘rsatadi, debet oboroti hisobot oyida topshirilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning sotish qiymatini, kredit oboroti esa hisobot oyida xaridorlar tomonidan to‘langan summani ko‘rsatadi.

Mahsulot (ish, xizmat) sotilishi hisobini tashkil qilishda sotilgan mahsulot, tovarlar, ish va xizmatlarning har birining alohida turi bo‘yicha yuritilib, sotilayotgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlarning tarkibiy tuzilishi hamda ularning har birining umumiy sotilish summasidagi hissasi, har qaysining rentabellik darajasi va boshqa ma‘lumotlar aks ettirilishi lozim.

Xaridorlarga yuklab jo‘natilgan mahsulotlar harakatining hisobi 16-qaydnomaning 2-bo‘limida yuritiladi. Yuklab jo‘natilgan va sotilgan mahsulotlarning hisobvaqralari bo‘yicha sintetik hisob 11 jurnal – orderda yuritiladi. Bu jurnal-order 2810, 9410, 9010,9020, 9030, 9210, 4010 – hisobvaraqlarining kredit oboroti hamda 9010, 9020, 9030 – hisobvaraqlarining analitik malumotlarini yozish uchun mo‘ljallangan. 11-jurnal-order 15 va 16-vedomostlarning analitik malumotlariga asosan to‘ldiriladi.

Hisobot davri yakunida 9010, 9020, 9030-hisobvaraqlari yopiladi:

D-t 9010, 9020, 9030-hisobvaraqlar;

K-t 9900-“Yakuniy moliyaviy natija”.

Shu bilan birga sotilgan mahsulotning tannarxi ham hisobot davri yakunida yakuniy moliyaviy natijaga o‘tkaziladi:

D-t 9900-“Yakuniy moliyaviy natija”;

K-t 9110, 9120, 9130.

Tayyor mahsulot (ish, xizmat)larni hisobga olishda foydalanilgan analitik schyotlarning oxiridagi qoldig‘i hisobot davri tugaganidan so‘ng sintetik schyotlarga mos kelishi shart. Hamda har bir bo‘lib o‘tgan jarayon tegishli hujjatlarda aks ettirilishi kerak. Aks holda hisob-kitob ishlarida xatolikka yo‘l qo‘yilgan, yoki berkitish, turli yashirishlar bo‘lgan deb qaraladi. Bu kabi holatlarni bartaraf etish uchun buxgalteriya hisobida alohida ehtiyotkorlik, aniqlik, haqoniylik, adolatlilik, o‘z vaqtidalik, to‘liqlilik tamoyillaridan foydalaniladi.

Mahsulot (ish, xizmat) sotilishi hisobini tashkil qilishda, sotilgan mahsulot, tovarlar, ish va xizmatlarning har birining alohida turi bo‘yicha yuritilib, sotilayotgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlarning tarkibiy tuzilishi hamda ularning har birining umumiy sotilish summasidagi hissasi, har qaysisining rentabellik darajasi va boshqa malumotlar aks ettirilishi lozim.

Korxonalar o‘z mahsulotlarining sotilishini hisobga olish bilan bir qatorda mahsulot(ish, xizmat) lar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ini (QQS) ham hisobga olib borishlari shart.

Ba’zi korxonalar tayyor mahsulotni sotishda qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan birgalikda aktsiz solig‘ini ham to‘lashi mumkin. Aktsiz solig‘i sof daromad narxida va qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan bazada hisobga olinadigan, bilvosita soliq sifatida byudjetga to‘lanadigan soliqdir. Buxgalteriya hisobi haqidagi qonunlarga muvofiq berilgan xom-ashyo mahsulotni ishlab chiqaruvchi korxonadan balansdan tashqarida hisobga olinadi.

Hozirgi kunda buxgalteriya hisobida tayyor mahsulot sotishning yangi qirralari namoyon bo‘lmoqda. Bu, ayniqsa, tashqi iqtisodiy faoliyat hamda barter muomalalarida o‘z ifodasini topmoqda. Aynan bu muomalalar buxgalteriya hisobining hozirgi amaliyotida hisob yuritishda bir qancha muammolari mavjudligi bilan ko‘zga tashlanmoqda. Fikrimizcha, respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarda barter muomalalarini keng qo‘llashga alohida e‘tibor qaratilishi lozim. Agarda barter muomalalari amaliyotga keng tatbiq etilsa, birinchidan, mavjud inflyatsiya sur‘atini jilovlash imkoniyati tug‘iladi, ikkinchidan, hisob ishlarida ortiqcha rasmiyatchiliklar miqdori kamayib, uning samaradorligi yanada oshishi uchun zamin yaratiladi.

2.5. Mahsulot va xizmatlar sotish jarayonining hisobini yuritish

Elektron tijorat — bu axborot tizimlar (veb-saytlar, dasturiy mahsulotlar, mobil ilovalar) orqali tuzilgan shartnomalar bo‘yicha tovarlar (ishlar,xizmatlar) oldi-sottisini amalga oshirish.

Har qanday tovarlar, ishlar yoki xizmatlar, maxsus ro‘yxatga kiritilganlardan

tashqari, (Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalariga Vazirlar Mahkamasining 02.06.2016 yildagi 185-son qaroriga №2 ilova va b.2, bundan so‘ng – Qoida) elektron tijorat shaklida realizatsiya qilinishi mumkin.

Odatda ushbu shaklda mahsulotlarni realizatsiya qilish alohida ruxsatni talab etmaydi. Biroq, u elektron tijoratdan tashqari, mahsulotlarni realizatsiya qilish uchun zarur bo‘lsa (masalan, ulgurji savdo uchun letsenziya olish), u holda elektron savdoda ham bunday faoliyatga ruxsat rasmiylashtirish zarur.

Umumiy aytganda, elektron tijoratni amalga oshirish tartibi quyidagicha: sotuvchi axborot tizimga **oferta** (taklif) joylashtiradi. U, sotib oluvchi o‘z xohishiga ko‘ra **aktsept** (lot.*acceptus* – qabul qilingan) yo‘li bilan qabul qiladigan shartnoma shartlarini (shartnoma predmeti, narxi va to‘lov tartibi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, nizolarni hal qilish tartibi va bosh.) o‘z ichiga oladi.

Aktsept elektron raqamli imzo (ERI) bilan tasdiqlangan elektron hujjat, elektron xabar shaklida sotuvchiga yo‘naltiriladi yoki ofertada ko‘zda tutilgan biron-bir boshqa harakat bilan tasdiqlanadi. Bundan so‘ng elektron tijorat shartnomasi bitilgan hisoblanadi. Bunday shartnoma yozma shaklda tuzilgan, tomonlar tomonidan imzolangan, hamda ularning muhrlari bilan tasdiqlangan shartnoma bilan bir xil kuchga ega.

Mahsulotning alohida turlari uchun qonukchilik sotish bo‘yicha cheklovlarni ko‘zda tutishi yoki ularning maxsus tartibini o‘rnatishi mumkin. Masalan, moddiy-texnika resurslarining strategik turlarini sotish davlat tomonidan nazorat qilinadi va maxsus tartibda amalga oshiriladi (05.02.2004 y. №57 VMQga №2 va №3 ilova).

Shu bilan birga, bilamizki, alkogolli mahsulotlarni o‘rnatilgan narxlardan past narxga sotish yoki ularni sotish bo‘yicha cheklovlarga amal qilmaslik (05.10.2011 y. №302 O‘RQ 13mod.), alkogolli mahsulotlarning chakana savdosi qoidalarini buzganlik sifatida qaraladi.

Har qanday alkogolli ichimliklar, tamaki va tamaki mahsulotlari reklamasi ta‘qiqlanadi (25.12.1998y. №723-I Qonunning 23 moddasi). 2015 yil 1 apreldan boshlab esa, alkogolli va tamaki mahsulotlariga aktsiz markalarining yangi namunasi joriy etildi, shu sababli barcha eski aktsiz markalari bilan markalangan mahsulotlar markalanmagan hisoblanadi va ulgurji hamda chakana savdo tarmog‘idan olib qo‘yiladi. (11.02.2015 y.№20 VMQ 1,2 m.).

Alkogol mahsulotlari shu jumladan, piva ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlarini faqatgina, alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilish uchun ruxsatnomaga hamda NKM va to‘lov terminallari bilan jihozlangan statsionar savdo joylariga (zallar) ega bo‘lgan yuridik shaxslarga ko‘tarasiga sotishlari mumkin.

Lekin alkogolli mahsulot narxi davlat tomonidan nazorat qilinadigan yagona mahsulot turi emas. Ko‘mirchilik sohasidagi korxonalar uchun ko‘mirning ulgurji chiqarish narxiga maxsus ustama joriy etilgan. Aholiga va byudjet tomonidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarga sotiladigan ko‘mir hajmi bundan mustasno. Byudjet tashkilotlariga “Uzbekko‘mir” AJning hududiy distribyutorlik markazlari orqali ko‘mir briketlarini sotish tartibi maxsus Nizom (02.07.2015y. №177 VMQga №5 ilova) bilan o‘rnatilgan.

Tayyor mahsulotlarni xaridorlarga jo‘natish xaridor bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bu shartnomalarda jo‘natiladigan mahsulot muddati, miqdori, qiymati va hisob-kitob shartlari keltiriladi. Jo‘natilgan mahsulot schyot-faktura, chiqim hujjati, to‘lov talabnomasi va boshqa hujjatlarda rasmiylashtiriladi.

Xizmat ko‘rsatishni (ishlarni bajarishni) o‘z ichiga oladigan bitim natijasi aniq belgilanadigan bo‘lsa, ushbu bitim bilan bog‘liq bo‘lgan daromad yillik moliyaviy hisobot tuzish vaqtida bitimning bajarilishi bosqichiga qarab tan olinadi. Bitim natijasi esa quyidagi shartlarni bajarish bo‘yicha aniq belgilanishi mumkin:

- bitimni bajarish chog‘idagi daromadlar hamda amalga oshirilgan xarajatlar va bitimni nihoyasiga etkazishga doir xarajatlar yuqori darajadagi ishonchlilik bilan baholanishi mumkin;

- xo‘jalik yurituvchi sub‘ektga bitim bilan bog‘liq bo‘lgan daromadlar kelib tushishining katta ehtimoli mavjud;

- buxgalteriya balansi hisobot sanasigacha bitim bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi yuqori darajadagi ishonchlilik bilan baholanadi.

Xaridorlar va buyurtmachilar bilan tovarlar, tayyor mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun debitorlik qarzlari bo‘yicha hisob-kitoblar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

4010 “Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”;

4020 “Olingan veksellar”.

4010 “Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” schyotida sotilgan mahsulot (tovar)lar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun xaridorlar va buyurtmachilarga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlari bo‘yicha debitorlik qarzlari hisobga olinadi.

4020 “Olingan veksellar” schyotida olingan veksellar bilan ta‘minlangan xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar bo‘yicha debitorlik qarzi hisobga olinadi. (Respublikamizda veksellari amalga oshirilmaydi)

Olinadigan schyotlar (4000) asosiy (operatsion) faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000), asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar (9200) va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar (9300) bilan bog‘langan holda xaridor (buyurtmachi)larga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlaridagi summaga debetlanadi.

Olinadigan schyotlar (4000) pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan kelib tushgan to‘lovlar summasiga, olingan bo‘naklarni hisobga olish va boshqalar bilan bog‘langan holda kreditlanadi.

Olinadigan schyotlar bo‘yicha analitik hisob har bir xaridor (buyurtmachi) bo‘yicha yuritiladi.

Tayyor mahsulotlar xaridorlari va buyurtmachilari bilan hisob-kitoblarning aks ettirilishi

№	Muomalalar mazmuni	Summa	Debet	Kredit
1.	Tayyor mahsulotlar sotishdan olingan daromad aks ettiriladi	600000	4010	9010
2.	QQS hisoblab yozildi	120000	4010	6410

3.	Xaridorlar va buyurtmachilardan to'lovlar kelib tushdi	720000	5110	4010
----	--	--------	------	------

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt quyidagi bandlar bo'yicha bitimda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar bilan kelishuvga erishgandan so'ng ishonchli tarzda baholashi mumkin bo'ladi:

- tomonlarning xizmat ko'rsatishi va qabul qilishi xususida da'vo qilish kuchiga ega bo'lgan huquqlari;
- ko'zda tutilayotgan qoplamalar hajmi;
- hisob-kitob qilish usuli va shartlari.

Buning ma'nosi shundan iboratki, xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha tomonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shartnoma bilan rasmiylashtirilib, unda qoplamaning (kompensatsiyaning) aniq summalari, to'lovning shartlari va shakllari, tovar-moddiy zaxiralar qiymatini ko'rsatilgan xizmatlar summasiga kiritish kabi masalalar ko'zda tutiladi.

Har bir bitimning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xo'jalik yurituvchi sub'ekt uning tugallanish bosqichini quyida keltirilgan usullardan birini qo'llagan holda aniqlaydi:¹⁸

1. Bajarilgan ishlarni tahlil qilish, ya'ni nazorat tartibida ishlarni o'lchab chiqish.

2. Ma'lum bir hisobot sanasigacha bajarilgan xizmatlar hajmining (summasining) bitim bo'yicha xizmatlarning butun hajmiga (summasiga) bo'lgan foizli nisbati.

3. Ma'lum bir hisobot sanasigacha amalga oshirilgan xarajatlarning bitim bo'yicha xizmatlarni bajarish uchun jami xarajatlarga bo'lgan foizli nisbati. Ushbu sanagacha amalga oshirilgan xarajatlar sirasiga bajarilgan xizmatlar hajmi uchun sarflangan faqatgina haqiqiy xarajatlar olib boriladi. Bitim bo'yicha baholangan umumiy xarajatlar sirasiga esa bajarilgan yoki bajarilishi lozim bo'lgan xizmatlarni aks ettiruvchi xarajatlar kiritiladi.

Misol. "Paxta tozalash" AJ 2016 yil 10 sentyabrda qurilish bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun yangi turdagi qurilish uchun ishlatiladigan bo'z-mato ishlab chiqish bo'yicha shartnomani imzoladi.

Mazkur shartnomaga muvofiq, bajariladigan xizmatlardan olinadigan daromad summasi 200000000 so'mni tashkil etadi. Shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun rejalashtirilgan xarajatlar 170000000 so'mga baholandi. Amalga oshirilgan hisob-kitoblar bo'yicha ishlarni bajarish uchun 6 oy sarflanishi kutilmoqda. Hisobotni tuzish sanasiga, ya'ni 2016 yil 31 dekabr holatida sarflangan haqiqiy xarajatlar 102000000 so'mga teng ekanligi aniqlandi.

Mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni bajarishdan olingan daromadni 2016 yil 31 dekabr sanasiga tugallanish bosqichini yuqorida keltirilgan usullardan biri yordamida aniqlash va olingan natijalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish talab qilinadi.

¹⁸ Ortiqov A. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlariga sharhlar to'plami. T.: Norma. 2010. 36-b.

Yechimi: Ushbu holatda shartnomaning tugallanish bosqichi aniqlashning uchinchi usulidan - ma'lum bir hisobot sanasigacha amalga oshirilgan xarajatlarning bitim bo'yicha xizmatlarni bajarish uchun jami xarajatlarga bo'lgan foizli nisbatidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki bajarilgan ishlarni tahlil qilish, ya'ni nazorat tartibida ishlarni o'lchab chiqishni o'tkazish yoki ma'lum bir hisobot sanasigacha bajarilgan xizmatlar miqdorining bitim bo'yicha xizmatlarning butun miqdoriga bo'lgan foizli nisbatini ishlatish imkoniyati mavjud emas. Tegishli ravishda hisob-kitoblar quyidagicha bo'ladi:

- 2016 yil 31 dekabr sanasi holatiga amalga oshirilgan xarajatlarning bitim bo'yicha xizmatlarni bajarish uchun jami (baholangan) xarajatlarga bo'lgan foizli nisbatini aniqlash - 60 foiz:

$$60 \% = 102\,000\,000 \text{ so'm} / 170\,000\,000 \text{ so'm} \times 100 \%$$

- 2016 yil 31 dekabr sanasi holatiga mazkur shartnoma bo'yicha 120 000 000 so'mlik summadagi daromadni tan olish lozim:

$$120\,000\,000 \text{ so'm} = 200\,000\,000 \text{ so'm} \times 60 \% / 100.$$

Shartnomani qisman bajarishdan olingan daromadni va bitim bo'yicha realizatsiya qilingan ishlarning tannarxini tan olish bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik operatsiyalari korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

- 2016 yil uchun ishlarni realizatsiya qilish (bitimning bir qismini bajarish)dan olingan daromad summasiga:

debet 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" schyoti 120 000 000 so'm;

kredit 9010 "Ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar" schyoti 120 000 000 so'm;

- 2010 yil uchun realizatsiya qilingan (bitimning bir qismini bajarishning) ishlar tannarxi summasiga:

debet 9110 "Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi" schyoti 102 000 000 so'm;

kredit 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyoti 102 000 000 so'm.

Quyida xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan bitimlarning turli xillari va xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadni tan olish paytining aniqlanishi keltirilgan:

1. O'rnatib berish uchun to'lov (yo'ldoshli televizion antennalar, telefon aloqasini va hokazolarni o'rnatish).

O'rnatib berish (yo'ldoshli televizion antennalar, telefon aloqasini va hokazolarni o'rnatish) bo'yicha xizmatlar uchun daromad montaj (o'rnatish) tugagandan so'ng tugallanish bosqichi ko'rsatilgan holda bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomani tuzish sanasiga tan olinadi. Agar bunday holatda oldindan to'lov olingan taqdirda, uni 6310 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar" schyotida bajarilgan ishlar tugallanganiga qadar hisobga olib borish lozim.

Bunda avanslarni olish bo'yicha buxgalteriya hisobi yozuvi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

debet 5110 “Hisob-kitob schyoti” schyoti
kredit 6310 “Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar” schyoti.

2. Xizmatlar uchun to‘lov mahsulotning bahosiga kiritilgan. Mahsulotlarni sotish bahosi sotishdan keyingi xizmatlar (masalan, dasturiy ta‘minot sotilganda mahsulot sifatini oshirishni ta‘minlash bo‘yicha sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatishlar) uchun ma‘lum bir summani o‘z ichiga olgan taqdirda, ushbu summa kelgusi davrga o‘tkazilib, 6230 “Boshqa kechiktirilgan daromadlar (kelgusi davr daro-madlari) schyotida hisobga olinadi va xizmatlar ko‘rsatilgan davrda daromad sifatida tan olinadi.

Hisobvaraqa-fakturalar, tovarlar jo‘natilganligini (topshirilganligini) tasdiqlovchi kvitantsiyalar, cheklar va boshqa hujjatlar tayyor mahsulotni realizatsiya qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlardir.

Mahsulotni to‘lovni bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotish xaridor tovar qiymatini darhol emas, balki shartnomada belgilangan muddatlarda bir necha to‘lovlar bilan to‘lashini bildiradi. To‘lovni bo‘lib-bo‘lib to‘laganlik uchun bitim taraflarining kelishuviga ko‘ra qo‘shimcha to‘lov (bo‘lib-bo‘lib to‘laganlik uchun foiz) belgilangan bo‘lishi mumkin.

Sotuvchi mahsulotni yuklab jo‘natish sanasida foizlar chegirilgan holda sotish narxidan kelib chiqib daromadni tan olishi lozim. Foizlar olinishiga qarab moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromad sifatida tan olinishi lozim.

Ta‘kidlash lozimki, to‘lovni bo‘lib-bo‘lib to‘laganda ham 15 foizlik bo‘nakning mavjudligi zarur hisoblanib, qarz esa mahsulot yuklab jo‘natilgan kundan boshlab 90 kundan oshmagan muddatda to‘lanishi lozim.

To‘lovni bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlarida mahsulotlarni sotish bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari quyidagicha bo‘ladi:

Korxonada tulovni bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlarida mahsulotlarni sotish

№	Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
1.	Xaridordan bo‘nak odindi	5110-“Hisob-kitob hisobvarag‘i”	6310-“Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar”
2.	Mahsulotni sotishdan olingan daromad aks ettirildi	4010-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar”	9010-“Tayyor mahsulotlarni sotishdan olintan daromadlar”
3.	Sotilgan mahsulot bo‘yicha QQS hisoblandi	4010-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar”	6410-“Byudjega to‘lovlar bo‘yicha karz (turlari bo‘yicha)”
4.	Sotilgan mahsulotning tannarxi hisobdan chiqarildi	9110-“Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi”	2830- “Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar”
5.	To‘lovlarning kelib tushishiga qarab	5110-“Hisob-kitob hisobvarag‘i”	4010-“Xaridor va buyurtmachilardan

	xaridor qarzlari to'lanishi aks ettirildi		olinadigan hisobvaraqlar
6.	Bo'nakning hisobga olinishi	6310-"Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar"	4010-"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar"

QQSsiz yagona soliq to'lovini to'lovchi korxonaya ushbu vaziyatni hisobda QQSdan tashqari xuddi shunday yozuvlar bilan aks ettiradi.

Mahsulotni vositachilar orqali (komissiya shartnomasi bo'yicha) sotishdagi tushum tayyor mahsulotlarni oluvchi tayyor mahsulotlarni yuk jo'natuvchi (sotuvchi) nomidan sotish bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga olishi nazarda tutilgan komissiya shartlarida sotishda daromad yuk jo'natuvchi tomonidan tovarlarni yuklab jo'natish paytida emas, balki mahsulot oluvchi tomonidan uchinchi tarafga sotilgan paytda tan olinadi.

Misol. "Roison" ishlab chiqarish korxonasi avtomatlashtirilgan rangli televizor chiqarib, 480000 so'mdan QQSni hisobga olgan holda sotadi, shu jumladan kafolat xizmat ko'rsatilishi summasi 50000 so'mga teng. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi 268000 so'mga teng.

2017 yil 21 fevralda korxonada savdo tarmoqlariga 50 dona rangli televizorlarni yuklab jo'natdi. Shartnoma bo'yicha oldindan to'lov hajmi 15 % ni tashkil etadi va qolgan summasi 2 oy mobaynida to'lanishi lozim. Realizatsiya qilish qiymatidan 15 % hajmidagi oldindan to'lov summasi korxonaning hisobraqamiga 2017 yil 3 martda kelib tushdi.

Yuqorida keltirib o'tilgan xo'jalik operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi yozuvlari quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

- rangli televizorlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadning tan olinishi, bunda rangli televizorlarning sotish bahosi realizatsiya qilingan mahsulotlarni sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish qiymatini o'z ichiga oladi:

debet 4010 24 000 000 so'm;

kredit 9010 17 500 000 so'm;

kredit 6410 4 000 000 so'm;

kredit 6230 2 500 000 so'm;

24 000 000 so'm = 480 000 so'm x 50 dona; 4 000 000 so'm = 24 000 000 so'm x 20 / 120; 2 500 000 so'm = 50 000 so'm x 50 dona;

- realizatsiya qilingan rangli televizorlarning tannarxi summasiga:

debet 9110 13 400 000 so'm;

kredit 2810 13 400 000 so'm;

13 400 000 so'm = 268 000 so'm x 50 dona;

- rangli televizorlarni sotib olgan xaridordan oldindan to'lov summasining kelib tushishini aks ettirish:

debet 5110 3 600 000 so'm;

kredit 6310 3 600 000 so'm;

3 600 000 so'm = 24 000 000 so'm x 15 / 100.

3. Reklama uchun mukofot.

Ommaviy axborot vositasi tomonidan vositachilik haqi omma oldida tegishli reklama yoki reklama tasmasi chiqarilganda tan olinadi. Ishlab chiqarish vositachilik haqi loyihani tugallanish bosqichi ko'rsatilganda tan olinadi.

Reklama uchun olingan oldindan to'lov summasini 6310 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar" schyotida hisobga oladilar, xizmat ko'rsatilgandan so'ng esa ushbu oldindan to'lovni tushumga ki-ritadilar, ya'ni daromad sifatida tan olinadi va quyidagi buxgalteriya hisobi yozuvi bilan aks ettiriladi:

- reklama bo'yicha komission xizmatlarni ko'rsatish uchun oldindan to'lovning olinishida:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;

kredit 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyoti;

- ommaviy axborot vositalari tomonidan reklama xizmatlari ko'rsatilgandan so'ng xizmatlarni bajarishdan olingan daromadning tan olinishi:

debet 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyoti;

kredit 9030 «Ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar» schyoti.

4. Sug'urta agentliklarining vositachilik haqi. Sug'urta agentligi tomonidan olingan yoki olinishi lozim bo'lgan vositachilik haqi, agent tomonidan keyinchalik xizmat ko'rsatish talab etilmasa, agent tomonidan sug'urta polisi kuchga kirgan yoki tiklangan kundan keyin daromad deb tan olinadi. Lekin, agentdan polis amalda bo'lgan muddatda keyinchalik xizmat ko'rsatish talab qilinishi ehtimoli mavjud bo'lsa, komission haq yoki uning qismi kechiktiriladi va polis kuchga ega bo'lgan davr mobaynida daromad sifatida tan olinadi.

5. Abonement yig'implari. San'atkorlarning chiqishlari, banketlar va boshqa alohida hollardan tushum bunday hollar ro'y berganda daromad sifatida tan olinadi. Qator voqealarga chiptalar sotilganda, to'lov har bir voqea ko'rsatilgan vaqtda ko'rsatilgan xizmat hajmi bo'yicha har bir voqea orasida taqsimlanadi.

6. O'qitish uchun to'lov. Daromad o'qitish davri mobaynida tan olinadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy hisobotni tuzish chog'ida "izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar" da quyidagi ma'lumotlarni ochib berishi lozim:

1. Daromadni tan olish uchun qabul qilingan hisob siyosati, shu jumladan xizmat ko'rsatishni o'z ichiga olgan bitimlarning nihoyasiga etishi bosqichlarini belgilash uchun qabul qilingan usullar.

2. Daromadning hisobot davri davomida aks ettirilgan har bir muhim toifasi miqdori, shu jumladan quyidagilardan olingan daromadlar: tovarlarni sotishdan, xizmat ko'rsatishdan, foizlardan, royaltidan, dividendlardan.

3. Daromadlarning har bir muhim toifasiga kiritilgan tovarlar yoki xizmatlarni ayirbosh qilishdan olingan daromad miqdori.

Tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 9010 “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar”;
- 9020 “Tovarlarni sotishdan daromadlar”;
- 9030 “Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar”;
- 9040 “Sotilgan tovarlarning qaytishi”;
- 9050 “Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar”.

9010 “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar”, 9020 “Tovarlarni sotishdan daromadlar”, 9030 “Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar” schyotlarining kreditida korxonaning asosiy faoliyati (tayyor mahsulotlar, tovarlarni sotish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish)dan daromadlar olinadigan schyotlar va pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi, biroq, oldingi hisobot davrlarida olingan, ammo joriy hisobot davriga tegishli bo‘lgan daromad summolari 6230 “Boshqa kechiktirilgan daromadlar” schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Mahsulot, tovar, ish, xizmatlarni sotishda 9010 “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar”, 9020 “Tovarlarni sotishdan daromadlar”, 9030 “Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar” schyotlarida sotishdan tushgan sof tushum summasi aks ettiriladi.

Hisobot davrining oxirida 9010 “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar”, 9020 “Tovarlarni sotishdan daromadlar”, 9030 “Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar” schyotlari 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” schyoti bilan yopiladi.

9040 “Sotilgan tovarlarning qaytishi” schyoti sotilgan mahsulot va tovarlarning qaytishini hisobga olish uchun mo‘ljallangan. Bu schyot asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000) guruhiga kontr-passiv schyot hisoblanadi va uning debet aylanmasi mahsulotlar va tovarlar sotishdan daromadni kamaytiradi. 9040 “Sotilgan tovarlarning qaytishi” schyotining debetida qaytarilgan tovarlar qiymati, tegishli: pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan - xaridorlar va buyurtmachilar tomonidan qaytarilgan tovarlarning qiymati; olinadigan schyotlar bilan - qaytarilgan tovarlar bo‘yicha bekor qilingan debitorlik qarzlari summasi; to‘lanadigan schyotlar bilan - mazkur tovarlar uchun xaridorlar va buyurtmachilardan olingan to‘lovlar va bo‘naklar bo‘yicha vujudga kelgan qarz summasi aks ettiriladi. Bunda ilgari hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aktsiz solig‘i bo‘yicha byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga oluvchi tegishli schyotlarning debeti va pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar, olinadigan schyotlarning kreditida yozuv amalga oshiriladi. Qaytarilgan mahsulotlar va tovarlarning tannarxi TMZlarni hisobga oluvchi tegishli schyotlarning debetida va sotilgan mahsulotlar va tovarlarning tannarxini hisobga oluvchi tegishli schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

9050 “Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar” schyoti shartnoma shartlariga muvofiq berilgan sotuv chegirmalari, shuningdek sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larda aniqlangan yaroqsizliklar va hokazolar natijasida berilgan narx chegirmalarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan. Ushbu schyot asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000)

guruhiga kontr-passiv schyot hisoblanadi va uning debet aylanmasi mahsulotlar va tovarlarni sotishdan, ish bajarishdan va xizmat ko'rsatishdan daromadlarni kamaytiradi. 9050 "Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar" schyotining debetida sotuv va narxlardan berilgan chegirmalarning summasi tegishli olinadigan schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi

Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000) bo'yicha analitik hisob sotilgan mahsulotlar (tovarlar), bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning har bir turi bo'yicha alohida yuritiladi. Bundan tashqari, analitik hisobni sotuvning geografik segmentlari (hududlar) va korxonani boshqarish uchun zarur bo'lgan boshqa segmentlar bo'yicha yuritish mumkin.

Sotilgan tayyor mahsulotlar, tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi: (3-ilova)

9110 "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi";

9120 "Sotilgan tovarlarning tannarxi";

9130 "Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi";

9140 "Davriy hisobda TMZ sotib olish / xarid qilish";

9150 "Davriy hisobda TMZ bo'yicha tuzatishlar".

Tayyor mahsulotlar, tovarlar, ishlar, xizmatlar sotilganda, sotilgan tayyor mahsulotlar, tovarlar, ishlar, xizmatlarning tannarxi 9110 "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi", 9120 "Sotilgan tovarlarning tannarxi", 9130 "Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi" schyotlarining debetida tayyor mahsulotlarni (2800), tovarlarni (2900) hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks etiriladi.

Hisobot davrining oxirida 9110 "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi", 9120 "Sotilgan tovarlarning tannarxi", 9130 "Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi" schyotlari 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schyoti bilan yopiladi.

Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schyotlar (9100)dan amalda foydalanish korxonada qo'llaniladigan tovar-moddiy zaxiralarning hisob usuliga, ya'ni tovar-moddiy zaxiralarning uzluksiz yoki davriy hisobiga bog'liq.

Tovar-moddiy zaxiralarni uzluksiz hisobga olish usuli qo'llanilganda har bir mahsulot yoki tovarning tannarxi uning ishlab chiqarish jarayonidagi harakatiga qarab xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarda to'planadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni davriy hisobga olish usulidan foydalanilganda har bir mahsulot (tovar)ning tannarxi hisobot davri davomida vaqtinchalik 9140 "Davriy hisobda TMZ sotib olish/xarid qilish" schyotida yig'iladi, biroq sotilgan mahsulotlar, tovarlarning haqiqiy tannarxini faqat TMZ inventarizatsiya qilingandan so'ng aniqlash mumkin. 9150 "Davriy hisobda TMZ bo'yicha tuzatishlar" schyoti - hisobot davrining oxirida inventarizatsiya natijasida TMZni mavjudligini aks ettirish uchun foydalaniladigan vaqtinchalik schyot. Ko'rsatilgan schyotning debeti bo'yicha TMZning kamayishi, krediti bo'yicha TMZning o'sishi TMZni hisobga oluvchi schyotlar (1000-2900) bilan bog'langan holda aks

ettiriladi.

9150 “Davriy hisobda TMZ bo‘yicha tuzatishlar” schyotining qoldig‘i 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” schyotiga o‘tkazilishi orqali yopiladi.


Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yaratilayotgan mahsulotlarni o‘z vaqtida xaridorlarga, ya’ni chakana va ulgurji savdo nuqtalariga etkazib berish katta ahamiyatga ega. Chunki bizning korxonalarimiz etkazib bermasa, bizning raqobatchilarimiz etkazib beradi yoki xaridorlar muqobil mahsulotlarni sotib oladilar. Bu borada albatta korxonalarimiz tashish xarajatlarini amalga oshirishga majbur bo‘ladi. Tayyor mahsulotlarni tashish uchun qilingan sarflar korxonalarimiz sotish xarajatlari hisoblanadi. Sotish xarajatlari mahsulot tannarxiga kiritilmay davr xarajatlari tarkibida hisobga olinadi va bu xarajatlar korxonalarimizning yalpi foydasi hisobidan qoplanadi.

Tashish xarajatlari: tovarlarni temir yo‘l, havo, avtomobil, dengiz, daryo transportida tashish xarajatlari, ushbu moddaga tashish xarajatlari hamda transport vositalari bekor turib qolganligi uchun to‘langan jarimalar ham kiritiladi.

Tayyor mahsulot eng ko‘p avtomobil transportida tashiladi. Korxonalar o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib, sotilayotgan mahsulotlarni tashishni quyidagi shakllardan birida yoki birgalikda olib borishi mumkin:

- o‘z avtotransportlarida;
- transport korxonalarining avtotransportlarida;
- ijaraga olingan avtotransportlarda.

Agar korxonalarimiz tayyor mahsulotlarni o‘z avtotransportida tashisa quyidagicha xarajatlar bo‘ladi.



Sotilayotgan mahsulotlarni tashish shakllari

Avtomobil transportida tashish xarajatlari iqtisodiy jihatdan jonli mehnat xarajatlari hamda buyumlashgan mehnat o‘rnini qoplash (ishlab chiqarish vosita va buyumlari) xarajatlaridan iborat ikki guruhga bo‘linadi.

Mahsulot tashish xarajatlari o‘tkazish usuliga qarab ham ikki guruhga bo‘linadi: tashishning bir tsiklida o‘z qiymatini tashish xarajatlari qiymatiga to‘liq o‘tkazadigan mehnat ashyolari (yonilg‘i, ehtiyot qismlar, materiallar, ish haqi) xarajatlari hamda ko‘p vaqt qatnashib, o‘z qiymatini tashish xarajatlari qiymatiga emirilish va eskirish natijasida qisman-qisman (yil, yil choragi yoki har oyda) o‘tkazib turuvchi mehnat vositalari xarajatlari (asosan amortizatsiya ajratmalari xarajatlari).

Barcha chiqimlar yig‘indisi ro‘yxatini tuzishda ular qanday maqsadlarga va

qaysi mahsulotga o'tkazilishidan kat'i nazar, iqtisodiy belgilari bir xil bo'lgan xarajatlarga bo'linadi va ularga xarajat elementlari deyiladi,

Barcha sohalar va, shu jumladan, avtomobil transporti tashish xarajatlari quyidagi elementlardan iboratdir:

- § mehnat haki xarajatlari;
- § ijtimoiy sug'urta ajratmalari
- § materiallar xarajatlari;
- § asosiy fondlarni to'la tiklash amortizatsiya xarajatlari;
- § boshqa xarajatlar.

Avtotransport tashish xarajatlarini hosil qilishga qarab ham ikkiga bo'linadi: bevosita va bilvosita tashish xarajatlari.

Bevosita tashish xarajatlari: shofyorlarning oylik ish haqlari (ish haqlariga qo'shimcha ajratmalari bilan), yonilg'i va moylash materiallari xarajatlari, harakatlanuvchi sostavlarga texnika xizmati ko'rsatish va uni joriy tuzatish xarajatlari, avtomobil shinalari emirilish xarajatlari, harakatlanuvchi sostavlar amortizatsiyasi.

Bilvosita tashish xarajatlariga shu ishlarga umumiy rahbarlik qilish va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va transport mahsuloti birligiga kiritish bevosita mumkin bo'lmagan ustama xarajatlar kiradi.

Avtomobil transportida tashish xarajatlarining asosiy moddalariga quyidagilar kiradi:

- shofyorlar ish haqlari va ularga qo'shimcha ajratmalar
- avtomobillar ishlashi uchun yonilg'i xarajatlari;
- harakatlanuvchi sostavlarni moylash va boshqa ishlatish materiallari xarajatlari;
- tuzatish (joriy va katta) va harakatlanuvchi sostavlarga texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari;
- avtomobil shinalari emirilishi xarajatlari;
- harakatlanuvchi sostavlar amortizatsiyasi xarajatlari;
- umumxo'jalik (ustama) xarajatlar.

Nojo'ya xarajatlarga yonilg'i, shina, ehtiyot qism etishmovchiligi va yo'llarda yurib bo'lmaslik va boshqa sabablarga ko'ra ishchilarning turib qolish to'lovlari, buyumlarning tabiiy kamayishi (belgilangan me'yorda), korxonada aybi bilan mayib va shikastlanish xarajatlari kiradi.

Avtomobillar yaqin masofaga tayyor mahsulot tashisa, ko'p yuk tashiydi va kam miqdorli tonna-kilometrli ish bajaradi. Aksincha bo'lganda esa tonna-kilometrli ish ko'p bo'lib, tashilgan yuk xajmi kam bo'ladi. Birinchi holda avtomobillarniig umumiy yo'l bosish masofasi kam, lekin ishbay usuli bilan shofyorlar mehnatiga haq to'lashda ular miqdorlari teng yoki bir-biriga yaqin bo'ladi.

Agar korxonada tayyor mahsulotlarni o'z avtotransportida tashisa quyidagicha provodkalar bo'ladi:

Xaridorlarga etkazilayotgan tayyor mahsulotlarni tashuvchi avtotransport vositalariga yoqilg'i-moylash materiallari sarflandi:

D-t 9410 “Sotish xarajatlari”

K-t 1030 “Yoqilg‘ilar”

Shofyorlarga ish haqi hisoblandi:

D-t 9410 “Sotish xarajatlari”

K-t 6710 “Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisob - kitoblar”

Shofyorlarning ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to‘lov hisoblandi:

D-t 9410 “Sotish xarajatlari”

K-t 6520 “Davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar”

Sotilayotgan mahsulotni tashiyotgan avtotransport vositalariga eskirish hisoblandi:

D-t 9410 “Sotish xarajatlari”

K-t 0260 “Transport vositalarning eskirishi”

Tayyor mahsulotlarni tashishdigan avtotransport vositalari joriy ta‘mirlandi:

D-t 9410 “Sotish xarajatlari”

K-t 1040 “Ehtiyot qismlar”

Sotish xarajatlari yakuniy moliyaviy natijaga o‘tkazildi:

D-t 9910 “Yakuniy moliyaviy natija”

K-t 9410 “Sotish xarajatlari”

Agar korxonaga tayyor mahsulotlarini tashishda transport korxonalarining avtotransportlaridan foydalansa, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun taqdim qilingan transport korxonalarining schet-fakturada ko‘rsatgan summalarini to‘laydilar. Bunda quyidagicha provodkalar berish mumkin:

Schet-fakturada taqdim qilinganda xizmat va QQSning summasiga:

D-t 9410 “Sotish xarajatlari”

D-t 4410 “Byudjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari”

K-t 6990 “Boshqa majburiyatlar”

Transport korxonasiga pul o‘tkazilganda:

D-t 6990 “Boshqa majburiyatlar”

K-t 5110 “Hisob-kitob scheti”

Sotish xarajatlari yakuniy moliyaviy natijaga o‘tkazildi:

D-t 9910 “Yakuniy moliyaviy natija”

K-t 9410 “Sotish xarajatlari”

Agar korxonaga tayyor mahsulotlarini tashishda qisqa muddatga ijaraga olingan avtotransport vositalaridan foydalansa, ijara to‘lovlari summasini sotish xarajatlariga o‘tkazadi. Bunda quyidagicha provodkalar berish mumkin:

D-t 9410 “Sotish xarajatlari”

K-t 6910 “To‘lanadigan qisqa muddatli ijara haqi”

Qisqa muddatli ijara haqi to‘langanda:

D-t 6910 “To‘lanadigan qisqa muddatli ijara haqi”

K-t 5110 “Hisob-kitob scheti”

Sotish xarajatlari yakuniy moliyaviy natijaga o‘tkazildi:

D-t 9910 “Yakuniy moliyaviy natija”

K-t 9410 “Sotish xarajatlari”

Agar korxonaga tayyor mahsulotlarini tashishda foydalanigan avtotransportini

moliyanadigan lizing shartnomasi bo'yicha olgan bo'lsa, unda tashish xarajatlari xuddi o'zining avtotransportidan foydalanganday hisobga olinadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, tashish xarajatlariga transport vositalari bekor turib qolganligi uchun to'langan jarimalar ham kiritiladi. Masalan, Sotish uchun xaridorlarga jo'natilayotgan tayyor mahsulotni tashish uchun transport korxonasiga buyurtma qilingan avtotransport (poezd, samolyot, kema) o'z vaqtida yuk to'ldirilmadi va u shartnomada ko'rsatilmagan muddatda bizning aybimiz bilan ushlanib qoldi. Buning uchun transport korxonasi bizga jarima soldi:

D-t 9410 "Sotish xarajatlari"

K-t 6990 "Boshqa majburiyatlar"

Jarima to'landi:

D-t 6990 "Boshqa majburiyatlar"

K-t 5110 "Hisob-kitob scheti"


Ushbu xarajat O'zR Soliq Kodeksining 147-moddasiga muvofiq doimiy farq, ya'ni soliq solianadigan bazadan chegirilmaydigan xarajat hisoblanadi. Bu esa xo'jalik shartnomalarini o'z vaqtida bajarishni talab etadi.

Mahsulotning xaridorga etib borishi har gal ham avtomatik ravishda amalga oshmaydi. Faqat mahsulot taqchilligi sharoitidagina bozor to'g'ri kelgan mahsulotni "yutib" yuborishi mumkin. Bunday holda bozor talabni vujudga keltiruvchi sifat, baho, mavsumiylik kabi mahsulotning muhim omillarini hisobga olmaydi. Lekin hozirda mavjud jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz bunga umuman teskari holat hisoblanadi. Chunki hozirgi inqiroz iste'mol bozorining to'yinishi natijasida vujudga keldi, ya'ni taklif juda ko'p, talab esa kam. Bunday sharoitda bozorni o'rganmay oldingiday mahsulot ishlab chiqarish korxonani juda qiyin ahvolga solib qo'yadi. Bunday sharoitda yangi talablarni yaratish uchun sotish bozorlarini o'rgangan holda yangi-innovatsiya mahsulotlarini ishlab chiqarish lozim.

2.6. Tovarlarini sotish muomalalari hisobi

Tovar – bu korxonaning sotish uchun sotib olingan yoki ishlab chiqarilgan moddiy aktivlari tushuniladi. Bu turdagi korxonaning aktivlarni xarakterli xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- ular iste'mol qiymatiga ega bo'ladi, ya'ni jamiyat a'zolarining iste'mol talablarini qondiradi;
- ular qiymatga ya'ni pulda ifodalangan bahoga ega bo'ladi;
- aylanma aktivlar (joriy aktivlar) bo'lib hisoblanadi, ya'ni ma'lum bir sikl davomida ularning zaxiralari yangilanib turiladi;
- pulga va boshqa aktivlarga almashtiriladi;
- investitsiya vositasi sifatida qo'llaniladi;
- ijaraga berish ob'ekti hisoblanmaydi.



Turgan joyiga qarab korxonada tovarlar ombordagi tovarlar, jo'natilgan tovarlar, ko'rgazmadagi tovarlar va yo'ldagi tovarlarga bo'linadi.

Egalik qilish huquqiga ko'ra, korxonaga tegishli tovarlar, komission tovarlar va konsignatsion tovarlariga bo'linadi.

21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma"ga muvofiq tovarlarning sintetik hisobini barcha savdo korxonalarida quyidagi schyotlarda olib borish nazarda tutilgan.

2910 "Ombordagi tovarlar". Ombordagi tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarida hisob bahosi bo'lib tannarx, ya'ni sotib olish bahosi (tayyorlov-transport va boshqa sotib olishga doir xarajatlar bilan birgalikda) hisoblanadi.

2920 "Chakana savdodagi tovarlar". Chakana savdo shohobchalari (savdo do'kon, palatka, laryok, kioska va boshqalar)dagi tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarining chakana savdo shohobchalarida hisob bahosi bo'lib sotish bahosi, ya'ni savdo ustamali bilan birgalikdagi hisoblangan chakana baho hisoblanadi.

2920 "Ko'rgazmadagi tovarlar". Ko'rgazma zallariga qo'yilgan tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

2940 "Vaqtincha foydalanishga (prokatga)berilgan tovarlar". Vaqtincha foydalanishga (prokatga) berilgan tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

2950 "Tovar ostidagi va qaytariladigan idishlar". Tovar ostidagi va qaytariladigan taralarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarida hisob bahosi bo'lib tannarx, ya'ni sotib olish bahosi yoki o'rtacha hisob bahosi hisoblanadi.

2960 "Komissiya (vositachilik) orqali sotishga berilgan tovarlar".

Shartnomalar asosida boshqa korxonalariga komissiya va konsignatsiya shartnomalari asosida berilgan tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

2970 "Yo'ldagi tovarlar". Guvohlik beruvchi boshlang'ich hujjatlari asosida hisobga kiritilgan lekinda oy oxirida yo'lda bo'lganligi uchun omborlarga kirim qilinmagan tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi

2980 "Savdo ustamasi". Hisob bahosining tarkibiy elementi bo'lib, chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridagi tovarlarning sotib olish baholari ustiga qo'yilgan savdo ustamalarini qoldig'i va ko'payishi kreditida, kamayishi esa debetida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarida faqat chakana savdo shohobchalaridagi tovarlar bo'yicha qo'llaniladi.

2990 "Boshqa tovarlar". Yuqoridagi schyotlarda aks ettirilmayin qolingan tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

Tovarlarni hisobga oluvchi schyotlarning bog'lanishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Debet	Kredit
1	Savdo korxonalarining asosiy va yordamchi ishlab chiqarishdan qayta ishlash jarayonida olingan tovarlarni kirim qilish	2920	2010, 2310
2	Tovarlarni hisobdor summa hisobidan sotib olish	2920	6970
3	Mol yetkazib beruvchilardan tovarlar olindi	2920	6010
4	Ustav kapitaliga ulush sifatida kelib tushgan tovarlarning kirim qilinishi	2910- 2990	4610
5	Tekinga olingan tovarlarni kirim qilish	2920	8530
6	Inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovarlar va idishlar	2910- 2990	9390
7	Yaroqsiz holga kelgan prokat buyumlarini hisobdan chiqarish	9430	2940
8	Tovarlarni qayta ishlashga berildi	2010	2920
9	Inventarizatsiya natijasida aniqlangan kamomad, agar aybdor shaxs aniqlanmagan bo'lsa	5910	2920
10	Sotilgan tovarlarning tannarxini hisobdan chiqarish	9120	2920
11	Inventarizatsiya natijasida moddiy javobgar shaxs aybi bilan aniqlangan kamomad	4730	2920
12	Tovarlarga savdo ustamasi	2920	2980
13	Sotilgan savdo ustamasining hisobdan chiqarilishi	2980	9120

Agar yagona soliq to'lovchilari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan aylanmalarni amalga oshirsalar, qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashlari mumkin. Tegishincha, ixtiyoriy ravishda QQS to'lovchi savdo korxonalarini hisobot davri mobaynida haqiqatda kelib tushgan, shu jumladan import qilingan, soliq solinadigan aylanma,

jumladan nol darajali stavka bo'yicha aylanma uchun foydalaniladigan tovarlar uchun olingan schyot-fakturatar bo'yicha to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan QQS summasini hisobga kiritishlari mumkin.

Misol. Chakana savdo korxonasi birining narxi 15000 so'm bo'lgan 40 ta bolalar kiyimini sotib oldi. Xaridning umumiy qiymati 600 ming so'm. To'lov 100 % miqdorida oldindan to'lov tarzida amalga oshirildi. To'plamga ustama 20 % miqdorida belgilandi.

Tovarni sotish narxi bo'yicha hisobda aks ettirish

T/r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so'm	Debet	Kredit
1	40 to'plam bolalar kiyimi qiymati bo'nak tariqasida to'lanadi	600	4310	5110
2	Bolalar kiyimi kirim qilindi	600	2920	6010
3	Bo'naknint hisobga olinishi aks ettiriladi	600	6010	4310
4	Kirim qilingan bolalar kiyimlariga savdo ustamasi aks ettiriladi	120	2920	2980

Tovarlarni import shartnomalari asosida sotib olishda (xarid qiymati "Chet el valyutasidagi operatsiyalarni bugalteriya hisobi, statistika va boshqa hisobotlarda aks ettirish tartibi to'g'risidagi nizom"ga (AV tomonidan 17.09.2004 y.da 1411-son bilan ro'yxatga olingan) asosan quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S = Shq + T + Bx,$$

bu erda:

S-import qilingan tovar-moddiy qimmatliklar va boshqa aktivlarning xarid qiymati;

Shq-bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish sanasidagi Markaziy bank kursi bo'yicha hisoblangan import qilingan tovar-moddiy boyliklar va boshqa aktivlarning shartnoma qiymati;

T - bojxona to'lovlari. Import qilinadigan tovarlar bo'yicha QQS summasi ixtiyoriy ravishda QQS to'lovchilari hisoblanmagan korxonalar tomonidan ularning xarid qiymatiga qo'shiladi. QQS to'lovchilari hisoblangan korxonalar import qilingan tovarlar bo'yicha QQS summasini umumbelgilangan tartibda hisobga kiritish huquqiga ega bo'ladi;

Bx - import qilingan tovar-moddiy boyliklar va boshqa aktivlarni sotib olish bilan bog'lik boshqa xarajatlar.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat soligi quyidagi formula orqali hisoblab chiqariladi:

$$S_{qqs} = (S_b + B_b + A_s) \times S : 100, \text{ bu erda:}$$

S_{qqs} – qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

S_b – import qilinadigan tovarning bojxona qiymati;

B_b – bojxona boji summasi;

A_s – aktsiz solig'i solinadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i summasi;

S — qo'shilgan qiymat solig'ining foizdagi stavkasi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshiruvchi bojxona organi tomonidan bojxona deklaratsiyasi qabul qilinishiga qadar yoki u bilan bir vaqtda to‘lanadi.

Tovarlarining sotib olinishi va kirimini hujjatlashtirish ularning yuqorida keltirilgan kelib tushish manbalariga hamda ularni tashib keltirish transportining turiga bog‘liq. Ulgurji savdo korxonalariga tovarlar chet el mamlakatlaridan, respublikamizning boshqa shahar va tumanlaridan, shuningdek mahalliy ta‘minotchilardan turli transport vositalarida (temir yo‘l, suv va havo yo‘llari transporti, ixtisoslashgan avtotransport korxonalarining transport vositalari va savdo korxonasining xususiy avtotransporti) tashib keltirilishi mumkin.

Korxonalar rahbariyati tovar operatsiyalari hisobini to‘g‘ri olib borilishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishi lozim. Bunday shart-sharoitlar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- tovar-moddiy boyliklar bo‘yicha ombor xo‘jaligining mavjudligi;
- tovar-moddiy boyliklar bo‘yicha moddiy javobgarlikning o‘rnatilishi;
- tovar-moddiy boyliklar bo‘yicha kirim va chiqimiga doir hujjatli rasmiylashtirish;
- tovar-moddiy boyliklarning holati va xarakterini miqdor hamda qiymat jihatdan aniq, o‘z vaqtida tavsiflovchi ombor va buxgalteriya hisobini yuritilishi.

Chet mamlakatlardan iste‘mol tovarlarini olib kelinishining alohida shartlari va tartibi mavjud. Ular O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 20 avgustdagi “Litsenziyalarni bekor qilish hamda iste‘mol tovarlarini olib kelish va O‘zbekiston Respublikasining ichki bozorida sotishni takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-son qarori va ushbu qarorga muvofiq ishlab chiqilgan “Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste‘mol tovarlarini olib kelish va sotish tartibi to‘g‘risida Nizom”¹⁹ da keltirilgan. Ushbu qaror va Nizomga muvofiq chet eldan import qilingan barcha iste‘mol tovarlari respublikamiz xududida erkin muomalaga faqat bojxona rasmiylashtiruvidan keyin chiqariladi.

Chet eldan keltirilgan iste‘mol tovarlarining bojxona rasmiylashtiruvi quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

- bojxonaga iste‘mol tovarlarini qabul qilish uchun yuridik shaxslar tomonidan belgilangan tartibda tuzilgan va ro‘yxatga olingan xorijiy kontraktlar mavjud bo‘lishi kerak.
- bojxona chegerasi orqali iste‘mol tovarlarini olib kelishda bojxona to‘lovlari va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiy to‘lovlar va yig‘imlar o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishi lozim.
- olib kelinayotgan iste‘mol tovarlariga ta‘minotchilarning muvofiqlik sertifikatlarini mavjud bo‘lishi lozim.
- sotib oluvchi savdo korxonalarini bojxona rasmiylashtiruvida bojxona yuk deklaratsiyasi (BYuD) bilan birga o‘zining rasmiy distribyuterlarining ro‘yxatini belgilangan shaklda taqdim qilishlari shart.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha schet-faktura bo‘lib bojxona yuk

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2002 yil 31 avgustda № 1169 bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

deklaratsiyasi va qo‘shilgan qiymat solig‘i amalda to‘langanligini tasdiqlovchi to‘lov hujjatlari hisoblanadi.

Import shartnomalari bo‘yicha haq evaziga sotib olingan tovarlarning kelib tushishi

№	Muomala mazmuni	Debet	Kredit
1	Markaziy bankning bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish sanadagi kursi bo‘yicha tovarlar kirim qilindi	2920	6010
2	Tovarlarining xarid qiymatiga qo‘shiladigan, import vaqtida yuzaga kelgan bojxona to‘lovlari va boshqa xarajatlar aks ettirildi	2920	6990
3	Tovarning xarid qiymatiga qo‘shiladigan QQS summasi (QQS to‘lamaydiganlar tomonidan) aks ettirildi	2920	6990
4	Import qilingan tovarlar bo‘yicha QQSni (ixtiyoriy ravishda QQS to‘lovchilar tomonidan) hisobga kiritish aks ettirildi	6410	6990

Bojxonadan import tovarlar savdo korxonasi vakili (ekspeditori) tomonidan BYuD asosida qabul qilib olinadi. Ombor mudirlari ekspeditorlardan import tovarlarni tasdiqlangan shakllardagi “Kirim orderi” (M-3, M-4) tuzish yo‘li bilan qabul qilib oladilar.

Boshqa shaharlarda joylashgan ta‘minotchilardan tovarlar asosan temir yo‘l va yo‘l avtotransporti orqali, bir shaharda joylashgan ta‘minotchilardan ular asosan yo‘l avtotransporti bilan tashib keltiriladi.

Ta‘minotchilar tovarlarni ulgurji savdo korxonalariga jo‘natishni tuzilgan shartnomalarga asosan oldindan to‘lovni kamida 15 foizi o‘tkazib berilgan taqdirda amalga oshiradilar. Tovarlarini jo‘natishda ta‘minotchilar quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- yuklash hujjatlari – bular temir yo‘l naklodnoyi, tovar-transport naklodnoyi;
- tovarlarni sifat jihatlarini tasdiqlovchi hujjatlar – bular muvofiqlik sertifikat, spetsifikatsiyalar, laboratoriya tahlili dalolatnomasi, o‘lchov tahlili dalolatnomasi, o‘rov yorliqlari;
- hisob-kitob hujjatlari – bular belgilangan shakllarda tuzilgan schyot-fakturalar, invoys va to‘lov talabnomasi.

Tovarlarini bevosita ta‘minotchilardan yoki temir yo‘l transporti stantsiyasidan qabul qilish va olib kelish uchun ulgurji savdo korxonalarini o‘zlarining vakillarini safarbar etadilar va ularning nomlariga ishonchnomalar beradilar. Tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalar O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2003 yil 7 maydagi 62-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tovar-moddiy boyliklarni olishga ishonchnomalarni berish va ishonchnomalar bo‘yicha ularning berish tartibi to‘g‘risida Nizom” va unga Moliya Vazirligining 2003 yil 28 oktyabrdagi 121-son buyrug‘i bilan kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Ishonchnoma berilgan vakil boyliklarni olganidan so‘ng korxonada buxgalteriyasiga topshiriq bajarilganligi to‘g‘risidagi va olingan tovar-moddiy

boyliklarni omborxonaga yoki tegishli moddiy javobgar shaxsga topshirganligi to'g'risidagi hujjatlarni taqdim etishi (topshirishi) shart. Ishlatilmagan ishonchnomalar amal qilish muddati tugagan kundan keyingi kun uni bergan korxonaga qaytarilishi kerak.

Tovar-moddiy boyliklarni olish va olib chiqib ketish uchun berilgan ishonchnomalar ularni yetkazib beruvchilarda qoladi. Etkazib beruvchida ishonchnomaning tartib raqami va berilgan sanasi tovarlarni jo'natish hujjatlarida (schyot-faktura, invoys, tovar-transport naklodnoyi, temir yo'l naklodnoyi, yuk kvitantsiyasi va shu kabi yuklab jo'natilgan tovarlarga guvohlik beruvchi hujjatlarda) ko'rsatiladi. Etkazib beruvchida tovarlarni yuklab jo'natish tugagach ishonchnomalar moddiy javobgar shaxslar tomonidan tovar hujjatlari bilan buxgalteriyaga topshiriladi.

Temir yo'l stantsiyalariga vagonlarda (konteynerlarda) yetkazib keltirilgan tovarlarni qabul qilib olish ulgurji savdo korxonalarining ishonchnoma, farmoyish va yuk kvitantsiyalariga ega bo'lgan vakillari (odatda, ekspeditorlar) tomonidan amalga oshiriladi. Vagonlarda plombalar buzilmagan bo'lsa, bu to'g'risida ekspeditor temir yo'l naklodnoyi va yuk kvitantsiyasiga imzo chekadi, shuningdek tovarlarni naklodnoy bo'yicha qabul qilib oladi.

Agar vagon (konteyner) plombalarida, tovarlar joylashtirilgan idishlar va o'rovlarda buzilish hollari bo'lsa, shuningdek tovarlar miqdori, og'irligi va soni bo'yicha temir yo'l naklodnoyida ko'rsatilganidan chetlanishlar aniqlansa, u holda ekspeditor barcha tovarlarni tortishni, sanashni, shuningdek aniqlangan chetlanishlar bo'yicha tasdiqlangan shakldagi "Tovar-moddiy boyliklarni qabul qilish to'g'risida dalolatnoma"ni (M-7) tuzishni talab qiladi. Ushbu dalolatnoma uch nusxada tuziladi, uning bir nusxasi transport tashkilotiga, ikki nusxasi—ulgurji savdo korxonasi ekspeditoriga beriladi. Dalolatnomaga stantsiya boshlig'i, ulgurji savdo korxonasining vakili (ekspeditor) va tovarlarni qabul qilishda ishtirok etgan boshqa shaxslar imzo chekadilar. Dalolatnomada tovarning nomi, uning haqiqiy soni va og'irligi, yetkazib beruvchining hujjatiga muvofiq soni va og'irligi, shuningdek son va og'irlik bo'yicha aniqlangan farq ko'rsatiladi.

Temir yo'l stantsiyasida tovarlar kamomadining miqdori tabiiy kamayish me'yorlari doirasida aniqlansa, u holda M-7 shaklli dalolatnoma tuzilmaydi, balkim aniqlangan kamomad to'g'risida temir yo'l naklodnoyida yozuvlar qilinadi. Agar tovarlar og'irligi aniqlanmasdan qabul qilinsa, bu haqda temir yo'l naklodnoyiga yozuvlar qilinishi lozim.

Qabul qilishda kamomad yoki tovarlarni buzilishi aniqlanmagan bo'lsa, u holda ekspeditor yuk kvitantsiyasiga, temir yo'l naklodnoyiga tovarlarni qabul qilib olganligi to'g'risida imzo chekadi, temir yo'l stantsiyasi vakili tovarlarni topshirganligini o'z imzosi bilan tasdiqlaydi.

Agar, tovarlar temir yo'l stantsiyasidan ulgurji savdo korxonasiga avtotransport tashkilotining transporti bilan etkazilsa, u holda ekspeditor uch nusxada tovar-transport naklodnoyi tuzadi, uning bir nusxasini tovarlarni qabul qilgan shaxsning imzosi bilan o'zida qoldiradi, qolgan tovarlarni topshirganligi to'g'risida imzo chekilgan ikki nusxasini yetkazib beruvchi avtotransport tashkiloti

vakiliga beradi. Temir yo‘l stantsiyasidan ulgurji savdo korxonasiga tovarlarni yetkazib berishga va ularning butligiga ushbu vaqtdan boshlab avtotransport tashkiloti vakili javob beradi. Agar, avtotransport tashkiloti vakili bilan tovarlarni ekspeditorning o‘zi ulgurji savdo korxonasigacha kuzatib borsa, u holda tovar-transport naklodnoyining bir nusxasi avtotransport tashkiloti vakiliga ko‘rsatgan xizmati uchun to‘lov hujjatlarini taqdim etish uchun beriladi.

Tovarlar ta‘minotchilarning avtotransporti orqali jo‘natilganda, shuningdek savdo korxonasining o‘z avtomashinasida yuborilganda ekspeditorga bir nusxa tovar-transport naklodnoyi (TTN) va bir nusxa schyot-faktura (invoys) taqdim etiladi. Bu holda ham ombor mudiri tovarlarni ekspeditoridan M-4 shaklli kirim orderi tuzish orqali qabul qilinadi. Qabul qilishda chetlanishlar aniqlansa, shuningdek hujjatsiz tovarlar kelib tuganda ombor mudiri transport tashkiloti yoki ta‘minotchi vakili, ekspeditor va boshqa xodimlar ishtirokida M-7 shaklli “Tovar-moddiy boyliklarni qabul qilish to‘g‘risida dalolatnoma”sini tuzadi va u bo‘yicha tovarlarni moddiy javobgarlikga qabul qiladi

Ekspeditorlar qabul qilingan va omborlarga topshirilgan tovarlar bo‘yicha belgilangan shakl va tartibda hisobot topshiradilar.

Ekspeditorlarning tashib keltirgan va omborga topshirgan tovarlari bo‘yicha tuzilgan hisobotlari asosida savdo korxonasining buxgalteriyasi yoki marketing bo‘limi tasdiqlangan shakldagi “Kelib tushayotgan yuklarni hisobga olish jurnali”ni (M-1) yuritadi. Ushbu jurnalga yozuvlar TTN, temir yo‘l naklodnoylari, schyot-fakturalar, kirim orderlari, tovar-moddiy boyliklarni qabul qilib olish to‘g‘risida dalalatnomalar asosida amalga oshiriladi.

Ulgurji savdo korxonalari tomonidan tovarlarni tuzilgan shartnomalar asosida xaridorlarga sotilishi Soliq Kodeksiga muvofiq tasdiqlangan shakldagi schyot-faktura bilan rasmiylashtiriladi. Xaridorlarning talablariga ko‘ra tovarlar o‘zga transport tashkiloti avtotransporti bilan olib ketilayotgan holda schyot-fakturaga qo‘shimcha tarzda TTN ham tuzilishi mumkin. Tovarlarni vositachilik yoki konsignatsiya yo‘li bilan komisioner yoki konsignatorga sotishga berish ham schyot-faktura bilan rasmiylashtiriladi, bu holda schyot-fakturaning predmet qismida “Vositachilikga berish” yoki “Konsignatsiyaga berish” degan yozuvlar bo‘lishi lozim.

Tovarlar bir ombordan ikkinchi omborga yoki boshqa saqlash joylariga, shuningdek omborlardan xususiy chakana savdo savdo do‘konlariga berilishi ichki almashuv naklodnoylari bilan rasmiylashtiriladi. Bunday ichki almashuv operatsiyasini amalga oshirish va rasmiylashtirishga asos bo‘lib rahbarning farmoyishi hisoblanadi.

Omborlarda tovarlar saqlanish vaqtida to‘kilishi, sinishi, qurib qolishi, buzilishi mumkin. Misol tariqasida, shakarni to‘kilishi, shisha buyumlarni sinishi, bo‘yoqni, atseton va boshqa suyuqliklarni qurib qolishi, to‘kilib ketishi va boshqalarni keltirish mumkin. Ushbu holatlar sababli tovarlarning haqqoniy holati hisob ma‘lumotlaridan kam bo‘lib qolishi mumkin. Tovarlar bunday sabablarga ko‘ra kamayishi ikki turga bo‘linadi:

- Me‘yordagi tabiiy kamayishlar – bu tovar-moddiy boyliklarni oldingi va

keyingi inventarizatsiya o'tqazish vaqti ichidagi tabiiy kamayishining belgilangan me'yorlardagi miqdori.

- Me'yordan ortiq kamayishlar - bu tovar-moddiy boyliklarni oldingi va keyingi inventarizatsiya o'tqazish vaqti ichidagi tabiiy kamayishining belgilangan me'yorlardan ortiq bo'lgan, shuningdek sinish, yaroqsiz holga kelish va buzilishi evaziga vujudga kelgan yo'qotishlar miqdori.

Tovarlarni tabiiy kamayishini har oyda dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra aniqlab borish va hisobdan chiqarish mumkin emas. Uni faqatgina inventarizatsiya tugagach tovarlar sanog'ida kamomadlar chiqqan holda maxsus hisob-kitob va belgilangan me'yorlar asosida aniqlash va hisobdan chiqarish lozim. Tovarlarning tabiiy kamayishi me'yorlari savdo korxonasi tabiiy shartlariga, yilning fasllariga, tovarlarni saqlash muddatlari va sharoitlariga (masalan, muzlatkichlarda, yopiq omborlarda, ochiq ayvonlarda va boshqalar) qarab belgilanadi. Ushbu me'yorlar davlat mulki hisoblangan savdo korxonalari uchun tarmoq vazirliklarining maxsus ma'lumotnomalarida ko'rsatiladi.

Tovarlarni tabiiy kamayish hisob-kitobi quyidagi tartibda tuziladi.

Birinchi, tovarlarning o'rtacha saqlash muddati ($S_{o'm}$) aniqlanadi. Buning uchun inventarizatsiya davrlari (oldingi va keyingi)dagi o'rtacha tovar zahiralarning miqdori ($Z_{o'}$) o'rtacha bir kunda sotilgan tovarlar miqdoriga ($T_{o'}$) bo'linadi.

Misol: Yilning birinchi yarmida (oldingi va keyingi inventarizatsiya davrida) 360 tonna shakar sotildi. Ushbu davr oylari boshidagi tovarzahiralari quyidagicha: 1.01.14ga -30 tonna, 1.02.14ga -25 tonna, 1.03.14ga -40 tonna, 1.04.14ga -50 tonna, 1.05.14ga 20 tonna, 1.06.14ga 10 tonna, 1.07.14ga 8 tonna. 1-yarim yillikdagi kunlar soni 180 kun. Yuqoridagi shartli ma'lumotlarga ko'ra bir kunlik sotish miqdori ($T_{o'}$) -2 tonna (360/180). Shakarning 1-yarim yillik uchun o'rtacha zahirasining miqdori

$$Z_{o'} = (30/2 + 25 + 40 + 50 + 20 + 10 + 8/2) / 6 = 168 / 6 = 28 \text{ tonna}$$

$$\text{Shakarning o'rtacha saqlash muddati } S_{o'm} = Z_{o'} / T_{o'} = 28 / 2 = 14 \text{ kun.}$$

Ikkinchi, jami sotilgan va sotilmagan shakarning o'rtacha miqdorini topamiz. Bizning misolimizda u 388 tonnani (360+28) tashkil qiladi.

Uchinchi, ma'lumotnomada yil fasli va saqlash muddatiga ko'ra belgilangan tabiiy kamayish me'yoriga asosan sotilgan va sotilmayin qolgan o'rtacha tovarlar miqdoriga to'g'ri keladigan tabiiy kamayish miqori topiladi. Misol uchun, tabiiy kamayish miqdori 0,02 % etib belgilangan, deylik. U holda bizning misolimizda tabiiy kamayish miqdori 77,6 kg.ni tashkil qiladi (388000 x 0,02% / 100%)

To'rtinchidan, 1 kg shakarning sotib olish bahosi 2400 so'm deb olsak, u holda tabiiy kamayishning summasi bu tovar-moddiy boyliklarni oldingi va keyingi inventarizatsiya o'tqazish vaqti ichidagi yo'qotishlarining belgilangan me'yorlardagi miqdori 186240 so'mni (77,6x2400) tashkil qiladi.

Agar shakar bo'yicha inventarizatsiyada hisob ma'lumotlaridan chetlanish aniqlanmasa, u holda tabiiy kamayish hisob-kitobi tuzilmaydi. Agar inventarizatsiyada 100 kg shakar kamomad chiqsa, u holda uning 77,6 kg tabiiy

kamayish, qolgan 22,4 kg yoki 53760 so‘mi (22,4 x 2400) me‘yordan ortiq kamayish deb tan olinishi lozim. Me‘yordan ortiq kam chiqishlar kamomad kamomad deb tan olinadi va buning uchun moddiy javobgar shaxs aybdor deb topiladi. Agar, moddiy javobgar shaxs bo‘yniga ushbu aybni qo‘yishga asoslar etarli deb topilmasa, u holda me‘yordan ortiq kamomadlar ham korxonaning zarariga olib boriladi. Tovarlarining tabiiy kamayishi quyidagicha hisoblanadi.

Tovarlarining bunday yo‘qotishlarini aniqlash va hujjatli rasmiylashtirish uchun korxonalar rahbari tomonidan komissiya tuziladi. Ta‘minotchilardan qabul qilib olishda aniqlangan tovarlarning siniqligi, yaroqsizligi va sifat sertifikatiga mos kelmasligi natijalari M-7 shaklli “Tovar-moddiy boyliklarni qabul qilish to‘g‘risida dalolatnoma”da aks ettiriladi. Tovarlarini omborlarga qabul qilinib olingandan so‘ng ularni sotishgacha bo‘lgan davrda sinishi, yaroqsiz holga kelishi va sifatini pasayishi komissiya tomonidan maxsus “Tovarlarini buzilishi, sinishi to‘g‘risida dalolatnoma” bilan rasmiylashtiriladi.

Ulgurji savdo korxonalar ma‘lum ob‘ektiv sabablarga ko‘ra (masalan, kirim qilingan tovarlar qayta ekspertiza qilinganda sifat sertifikati talablariga mos kelmaganda, hujjatsiz kelgan tovarlar bo‘yicha baholar bo‘yicha ta‘minotchilar bilan kelishuvga kelinmaganda va shu kabi boshqa sabablarga ko‘ra) sotib olgan tovarlarini ta‘minotchilarga qaytarib berishlari ham mumkin. Bunday hollarda tovarlarni ta‘minotchilarga qaytarilishi uchun ulardan ishonchnoma talab qilinadi, haqiqatda qaytarilgan tovar schyot-fakturalar bilan rasmiylashtiriladi va ularning predmet qismida “tovarlarni qaytarish” yozuvi qo‘yiladi.

Chakana savdo korxonalar sotib olingan tovarlar hisobini sotish narxlari bo‘yicha ustama qiymatini ajratib ko‘rsatgan holda yuritishlari mumkin. Bunda sotib olingan va hisobga olingan tovarlar qiymati ustama summasiga ko‘payadi.

Buxgalteriya. hisobida bu operatsiya 2910-«Ombordagi tovarlar» va 2920-«Chakana savdodagi tovarlar» schyotlarining debetida 2980-«Savdo ustamasi» schyotining krediti bilan korrespondentsiyada aks ettiriladi.

Haq evaziga xarid qilingan tovarlarning kelib tushishi (2980-«Savdo ustamasi» schyoti qo‘llanilgan o‘ holda sotish narxi bo‘yicha hisob)

Muomala	debet	kredit
Mol etkazib beruvchining yuk-xati yoki hisobvara-q-fakturasi asosida tovarlar kirim qilindi	2910; 2920	6010
QQSni hisobga kiritish aks ettiriladi (QQS tulovchilari uchun)	4410; 6410	6010; 4410
Kirim qilingan tovarga savdo ustamasi aks ettiriladi	2910; 2920	2980

Tovar etkazib beruvchidan olingan chegirma summasi yagona soliq to‘lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazadan chegiriladi (Soliq kodeksining 356-moddasi).

Xaridorlar tomonidan sotib olingan tovarlarning qaytarilishi — bu savdo faoliyatidagi oddiy bir hol sanaladi. Bu buxgalteriya hisobida ham hisobga olinishi va 9040-«Sotilgan tovarlarning qaytarilishi» maxsus kontrpassiv schyotida aks ettirilishi lozim. Bunda debitorlik qarzlari ham, ilgari hisoblangan soliqlar

bo'yicha majburiyatlar schyotlari ham to'g'rilanishi lozim.

Xaridorlar tomonidan tovarlarning qaytarilishi bilan bog'liq operatsiyalar aks ettirilishi

Muomala	debet	kredit
Sotilgan tovarlarning qaytarilishi va ularning qiymatini pul mablag'lari bilan to'lash aks ettiriladi	9040	5010; 5110
Sotilgan tovarlarning qaytarilishi aks ettiriladi va debitorlik qarzi bekor qilinadi	9040	4010
Xaridorlar tomonidan qaytarilgan tovarlar kirim qilinadi	2900	9120
Ilgari hisoblangan soliqlarni (QQS) to'g'rilash aks ettiriladi	6410	5010; 4010
Hisobot davri oxirida 9040-schyotning yopilishi	9020	9040

Misol. Korxonada xarid qiymati 950 ming so'mlik tovarni 15 %lik oldindan to'lov sharti bilan 1 330 ming so'mga sotdi. Xaridor 385 ming so'mlik tovarning bir qismini sifati yomon bo'lgani sababli qaytardi (qaytarilgan tovarning xarid qiymati —275 ming so'm). Korxonada QQS to'lovchisi emas.

Bu holatda korxonada 385 ming so'mlik summaga:

—operatsiya bo'yicha tan olingan daromad summasini;

—agar taraflar kelishuviga qo'ra sifatsiz mahsulot boshqasiga almashtirilishi kerak bo'lmasa, xaridorning debitorlik qarzini tuzatishi kerak.

T/R	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so'm	debet	kredit
1	Tovarning qaytarilishi aks ettirildi	385	9040	4010
2	Qaytarilgan tovarning tannarxi aks ettirildi	275	2910	9120
3	9040-schyotning yopilishi	385	9020	9040

Tovarlar qaytarilib, soliq solinadigan baza tuzatilganda etkazib beruvchi korxonada «Ilgari yozilgan hisobvaraqa-faktura o'rniga» yozuvi qayd etilgan yangi hisobvaraqa-fakturani yozib berishi shart. Tovarlarini oluvchi korxonada yangi hisobvaraqa-faktura olinganini tasdiqlashi lozim.

Savdo ustamasini hisobga olish

Sotish narxlari bo'yicha hisob yuritadigan chakana savdo korxonalarida sotilgan tovarlarga to'g'ri keluvchi savdo ustamasi summasini hisobdan chiqarishlari kerak. 21-son BHMS buni quyidagi yozuv bilan aks ettirishni tavsiya etadi: 2980-«Savdo ustamasi» schyoti debeti — 9120-«Sotilgan tovarlarning tannarxi» schyoti krediti.

Sotilmagan tovarlar qoldig'iga to'g'ri keladigan savdo ustamalari summalari bel-gilangan miqdorlarga muvofiq tovarlarga qo'yiladigan ustamalarni belgilash yo'li bilan inventarlash ro'ixatlari asosida aniqlashtiriladi.

Chakana savdo korxonalarida sotilmagan tovarlar qoldig'iga ustama summasi oy boshidagi tovarlar qoldig'iga to'g'ri keluvchi ustama summasi va 2980-«Savdo ustama-si» schyoti debeti bo'yicha aylanma summasiga (boshqa hisobdan chiqarishlarga) kamaytirilgan 2980-«Savdo ustamasi» schyoti krediti bo'yicha aylanma summasining oy davomida sotilgan tovarlar summasi (hisob narxlari bo'yicha) va oy oxiridagi tovarlar qoldig'iga (hisob narxlari bo'yicha) nisbati tariqasida hisoblangan foiz bo'yicha aniqlanishi mumkin.

Tovarlarni sotishda savdo ustamasini hisobdan chiqarilishi

Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	debet	kredit
Sotilgan tovarlarning tannarxi hisobdan chiqarildi	9120	2900
Tovarlarni sotishdan olingan daromad aks ettiriladi	4010	9020
Sotilgan tovarlar bo'yicha savdo ustamasi hisobdan chiqarildi	2980	9120

Misol. Chakana savdo korxonasi 10to'plam oshxona servizini 1 to'plam uchun 55 ming so'm narx bo'yicha sotdi. Bir to'tam servizning xarid qiymati 45ming so'm.

Ushbu operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

T/r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so'm	debet	kredit
1	Sotilgan servizlar tannarxi hisobdan chiqarildi	550	9120	2920
2	Servizlarni sotishdan olingan daromad aks ettiriladi	550	5010	9020
3	Sotilgan servizlar bo'yicha savdo ustamasi hisobdan chiqarildi	100	2980	9120

Tovarlarni chegirma bilan sotish

Savdo korxonalarida xaridorlar gomonidan katta summadagi tovarlar sotib olinganda, sotilgan tovarlar ichida yaroqsizlari aniqaanganda va shunga o'xshash vaziyatlarda chegirma tizimidan foydalanishlari mumkin. Buxgalteriya hisobida xaridorlarga taqdim etiladigan chegirmalar maxsus kontrpassiv 9050-«Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar» schyotida aks ettiriladi. 9050-schyot debetiga narxga va sotuvga berilgan chegirmalar summaları 4010-«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti bilan korrespondentsiyada kiritiladi.

Tovarlarni chegirma bilan sotish

Xo'jalik operatsiyalari mazmuni	debet	kredit
Tovarlarni sotishdan olingan daromad aks ettiriladi	4010; 5010	9020
Sotilgan tovarlarning tannarxi hisobdan chiqarildi	9120	2900
Sotuvdan (narxdan) chegirmalarni taqdim etish	9050	4010
Hisobot davri oxirida 9050-«Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar» schyotining yopilishi	9020	9050

Misol. Korxonada tovarlarni sotish chog'ida doimiy xaridorlaridan biriga buyurtma qiymatining 10 %i miqdorida chegirma taqdim etdi. U xarid qilingan tovar turkumining realizatsiya qiymati 2 500 ming so'mni, ushbu turkumning xarid qiymati 1 500 ming so'mni tashkil etadi.

T/r	Xo'jalik operatsiyalari mazmuni	Summa, ming so'm	debet	kredit
1	Tovarlarning sotilishidan daromad aks ettirildi	2 500	4010	9020

2	Chegirma aks ettirildi	250	9050	4010
3	Tovarlarning xarid qiymati hisobdan chiqarildi	1 500	9120	2910
4	Xaridor tomonidan qarz so'ndirildi	2 250	5110	4010
5	9050-schyotning yopilishi	250	9020	9050

Tovarlarni to'lovni kechiktirish sharti bilan sotish

Sotuvchi korxonaga xaridorga sotilgan tovar uchun to'lov summasini kechiktirib to'lash imkonini berishi mumkin, ya'ni xaridorga tijorat krediti taqdim etiladi va odatda xaridor govarning qiymatini ham, uning uchun to'lov kechiktirilganligi uchun foizlarni ham to'lashi kerak bo'ladi.

To'lov kechiktirilganligi uchun sotuvchi korxonaga olishi kerak bo'lgan foizlar summasi moliyaviy faoliyatdan daromadlarga kiritilishi lozim (Soliq kodeksining 132-moddasiga ko'ra solish maqsadida — boshqa daromadlarga).

Misol. Korxonaga shartnoma bo'yicha narxi 1200ming so'mni tashkil qilgan tovarni sotadi. Sotilgan tovarning tannarxi — 820ming so'm, Shartnoma shartiga ko'ra xaridor bilan hisob-kitobning quyidagi tartibi belgilangan:

tovar qiymatidan 20 % oldindan to'lov;

tovar qiymatining qolgan qismi u olingandan so'ng 30 kun o'tgach to'lanadi;

bo'nak tariqasida to'lanmagan tovar qiymatidan 5 % miqdorida foizlar to'lanadi.

T/R	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so'm	debet	kredit
1	Xaridordan bo'nak olindi	240	5110	6310
2	Tovarni sotishdan olingan daromad aks ettiriladi	1 200	4010	9020
3	Sotilgan tovarning tannarxi hisobdan chiqarildi	820	9120	2910
4	Tovar uchun to'lov kelib tushdi	960	5110	4010
5	Oldin olingan bo'nakni hisobga olish aks ettiriladi	240	6310	4010
6	To'lov kechiktirilganligi uchun foizlar aks ettiriladi	48	4830	9530
				9590

Tovarlarni tekinga berish

Soliq solish maqsadida tovarlarning beggul topshirilishi Soliq kodeksining 22-moddasiga muvofiq realizatsiya deb e'tirof etiladi va qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari uchun ushbu soliq solinadigan aylanmalarga kiritiladi (Soliq kodeksining 199-moddasi).

Tovarlarni bepul topshirilishida topshirilgan tovarlar tannarxi (xarid qiymati)ga yagona soliq to'lovi solinadi.

Tovarlarni bepul topshirilganda qo'shilgan qiymat solig'i solish maqsadlari uchun kiritiladigan aylanma tovarlarning tannarxi yoki tovarlar olingan baho asosida (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda) aniqlanadi (Soliq kodeksining 130-moddasi).

Soliq solish maqsadida tovarlarni beggul topshirishdan ko'rilgan zararlar foyda solig'i hisob-kitobida chegirilmaydigan xarajatlar deb e'tirof etiladi,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning qaroriga ko‘ra toshiiriladigan tovarlar bundan mustasno.

Tovarlarni tekinga berish

Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	debet	kredit
Hadya shartnomasi bo‘yicha berilgan tovarlarning tannarxi hisobdan chiqarildi	9120	2900
Tovarlarni hadya shartnomasi bo‘yicha berish aks ettiriladi	4010	9020
Tovarlarni tekinga berishdan ko‘rilgan zarar aks ettiriladi	9430	4010

Misol. Chakana savdo korxonasi 850ming so‘mlik bolalar assortimen-tidagi tovarlarni maktab-internatga tekinga beradi. Tovarlarning xarid qiymati — 850 ming so‘m.

T/R	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so‘m	debet	kredit
1	Berilgan tovarlarning tannarxi hisobdan chiqarildi	850	9120	2910
2	Tovarlarni hadya shartnomasi bo‘yicha berish aks ettiriladi	850	4010	9020
3	Tovarlarni tekinga berishdan ko‘rilgan zarar aks ettiriladi	850	9430	4010

Tovarlarning ustav kapitaliga ulush hisobiga berilishi

Tovarlarni boshqa tashkilot ustav kagaggaliga ulush hisobiga berishda ta‘sischi korxonasi (ishtirokchi) tovarlarning chiqib ketishini ularning balans qiymati bo‘yicha 2900-«Tovarlar» guruhi schyotlari kreditida aks ettiradi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i solish maqsadida tovarlarni ustav kapitaliga qo‘shilgan hissa sifatida berish realizatsiya qilish oboroti deb e‘tirof etiladi va QQS solinadigan aylanmalarga kiritiladi (Soliq kodeksining 199-moddasi).

Tovarlarning boshqa tashkilotlar ustav kapitaliga ulush hisobiga berilishi

Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	debet	kredit
Tovarlarni ustav kapitaliga berishda ularning haqiqiy qiymati hisobdan chiqarildi	9120	2900
Ustav kapitaliga muassislar o‘rtasida kelishilgan (baholangan) qiymati bo‘yicha tovarlar bilan kiritilgan ulush aks ettirildi	0600	9020

Misol. Kichik chakana savdo korxonasi ishlabchiqaruvchidan 800ming so‘m qiymatdagi tovarni sotib oladi. Tovarni sotib olishdagi transport xarajatlari 50ming so‘mni tashkil qildi. Pirovardida tovar korxonasi tomonidan boshqa tashkilot (MChJ)ning ustav kapitaliga ulush sifatida kiritildi. Kiritilgan ulushning baholangan tsiymati 1100 ming so‘mni tashkil qildi. Korxonasi QQS to‘lovchisi hisoblanmaydi.

T/R	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so‘m	debet	kredit
1	Tovarni xarid qilish aks ettirildi	800	2910	6010
2	Chet tashkilot tomonidan tovarni etkazib berish bo‘yicha xarajatlar aks ettirildi	50	2910	6010
3	Tovarlarni boshqa tashkilotning ustav kaga taliga ulush sifatida berish aks ettirildi	1 100	0600	9020
4	Berilgan tovarning tannarxi hisobdan chiqariladi	850	9120	2910

Misol. Ixtiyoriy asosda QQS to‘laydigan korxonalar ulgurji savdo korxonasi xarid qiymati 850 ming so‘mlik tovarni boshqa tashkilot (MChJ) ustav kapitaliga hissa sifatida kiritdi. Kiritilgan hissaning baholash qiymati 1 200 ming so‘mga teng.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i 200 ming so‘mni tashkil etadi ($1200 \times 20 : 120$). Shu tariqa tovar xarid qiymatidai yuqori narxda berilib, korxonalar soliq solinadigan daromad oladi ($1200 - 200 - 850 = 150$).

T/r	Xo‘jalik operaniyalarining mazmuni	Summa, ming so‘m	debet	kredit
1	Tovarlarning ustav kapitalita hissa sifatida chiqib ketishi aks ettirildi	1 000	0630	9020
2	QQS hisoblandi	200	0630	6410
3	Tovarlarning xarid qiymati hisobdan chiqarildi	850	9120	2910

Tovarlarni oluvchi tashkilot ustav kapitaliga qo‘yilma sifatida olingan tovarlar bo‘yicha etkazib beruvchi tomonidan to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini quyidagi shartlarga rioya qilgan holda hisobga oladi (Soliq kodeksining 218-moddasi);

- tashkilot qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchi bo‘lsa;
- hisobvaraqa-faktura yoki qo‘shilgan qiymat solig‘i alohida ajratib ko‘rsatilgan boshqa hujjat mavjud bo‘lsa.

Agar tovar xarid qiymatidan past narxda hissa sifatida berilsa, QQS xarid qiymati summasidan hisoblanadi.

Misol. QQS to‘lovchi ulgurji savdo korxonasi xarid qiymati 850ming so‘mlik tovarni boshqa tashkilot (MChJ) ustav kapitaliga hissa sifatida kiritadi. Kiritilgan xissaning baxolash qiymati 1 000 ming so‘mga, shu jumladan QQS 166,7 ming so‘mga teng.

Bu vaziyatda tovar tannarxidan past narxda berilayapti— 833,3 ming so‘m ($1\ 000 - 166,7$).

QQS summasi tovarning xarid qiymatidan (850 ming so‘m) hisoblanadi va 170 ming so‘mni tashkil etadi ($850 \times 20\%$).

Bunda 166,7 ming so‘m miqdoridagi QQSning bir qismi investitsiyalar qiymatiga (0630-schyot), soliqning qoldig‘i — 3,3 ming so‘m esa realizatsiya xarajatlariga (9410-schyot) kiritiladi.

T/R	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so‘m	debet	kredit
1	Tovarlarning ustav kapitaliga hissa sifatida chiqib ketishi aks ettirildi	833,3	0630	9020
2	Tovarlarning xarid qiymati hisobdan chiqarildi	850	9120	2910
3	QQS hisoblandi	3,3 166,7	9430 0630	6410

Tovarlarning qarz shartnomasi bo‘yicha chiqib ketishi

Qarz shartnomasi bo‘yicha natura shaklida boshqa tashkilotlarga berilgan tovarlar korxonaning xo‘jalik aylanmasidan nomenklaturasi va haqiqiy tannarxi bo‘yicha chiqib ketadi. Buxgalteriya hisobida tovarlarning qarz shartnomasi bo‘yicha chiqib ketish operatsiyasi 5820-«Berilgan qisqa muddatli qarzlar» schyotining debeti bo‘yicha aks ettiriladi.

QQS solish maqsadida zayom shartnomalari asosida tovarlarni berish realizatsiya qilish oboroti deb e’tirof etiladi va QQS solinadigan aylanmalarga kiritiladi (Soliq kodeksining 199-moddasi).

Tovarlarning boshqa tashkilotlarga natura shakldagi qarz sifatida berilishi

Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni		debet	kredit
Tovarlarni qarz shartnomasi bo‘yicha berishda ularning haqiqiy qiymatini hisobdan chiqarish		9120	2900
Tovarlarni qarz shartnomasi bo‘yicha berish aks ettirildi		5820	9020

Tovarlar o‘z ehtiyojlariga berilganda savdo ustamasi summasi teskari o‘tkazma bilan hisobdan chiqariladi (tovarlar sotish narxlarida hisobga olinganda).

Misol. Savdo korxonasi o‘z omborlarini ta‘mirlash uchun 7 500 ming so‘mlik kiymatdagi qurilish materiallarini hisobdan chiqaradi. Kurilish materiallari hisobi sotish narxi bo‘yicha yuritiladi. Ta‘mirlash uchun ishlatilgan tovarlarga savdo ustamasi 1 250 ming so‘mni tashkil qildi.

T/r	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so‘m	debet	kredit
1	Omborlarni ta‘mirlash uchun berilgan tovarlar bo‘yicha savdo ustamasi hisobdan chiqarildi	1 250	2980	2910
2	Magazin omborlarini ta‘mirlashga tovarlar hisobdan chiqarildi	6 250	9410	2910

2.7. Konsignatsiya qilingan tovarlar hisobini yuritish

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan 1999 yil 10 sentyabrda 02/19-67-son bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999 yil 15 sentyabrda 832-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarida kontraktlar (shartnomalar) va bitimlarni hisobga

qo'yish tartibiga muvofiq, konsignatsiya shartnomasi – konsignant va konsignator o'rtasida tovarni konsignator orqali sotishga tuzilgan shartnoma, bunda konsignator omboriga tushgan tovarga mulk huquqi tovar xaridorga sotilishiga qadar konsignantga tegishli bo'ladi.

Konsignant²⁰ — yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lib, konsignatorga tovarlar sotilishini tashkillashtirish bo'yicha topshiriqberadi, bunda tovarga bo'lgan mulk huquqi konsignantda koldiriladi, konsignator esa tovarlarni konsignant nomidan mukofot uchun sotish majburiyatini o'z zimmasiga oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Konsignator schyotiga uning tomonidan sotilgan tovar-moddiy qiymatliklar uchun kelib tushgan pul mablag'lari, unga qoladigan mukofot haqini chegirib tashlagan holda konsignantning mulki hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga konsignatsiya shartnomasi bo'yicha olib kirilgan tovarlar shartnomada belgilangan muddat mobaynida sotilishi kerak. Ushbu muddat tugashi bilan shartnoma shartlaridan kelib chiqqan holda tovar to'liq mulkdorga qaytarilishi shart yoki qisman konsignatorning ixtiyoriga uning qiymatini mulkdorga (konsignantga) to'lashi bilan o'tadi. Shunday qilib, shartnoma shartlari bilan belgilab olingan, konsignator tomonidan tovarni sotishga ajratilgan muddat davomida tomonlar o'rtasidagi munosabatga komissiya shartnomasi shartlari qo'llaniladi.

Buxgalteriya hisobida konsignantga bo'lgan chet el valyutasidagi kreditorlik qarzi konsignatsiyaga olingan tovarlarni sotish sanasida Markaziy bankning shu sanadagi kursi bo'yicha vujudga keladi.

Konsignator va konsignant o'rtasida sotilgan tovarlar bo'yicha hisob-kitoblar ularni sotilishi doirasida amalga oshiriladi. Tovarlar katta partiyada yetkazib berilganda yoki doimiy yetkazib berilganda, yetkazib berilgan tovarlarning hajmiga bog'liq tarqatish jadvali (grafigi)ni (har hafta, har o'n kunda, har safar sotilganda va boshqalar) joriy qilish mumkin. Ushbu holatda shartnomada shuningdek, konsignator tomonidan konsignatsion omborda tovarlarning harakati va ularning qoldikdori to'g'risidagi hisobotlarni topshirish tartibi va muddatni ham kelishib olish mumkin. Hisobotlarning ma'lumotlari buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtiriladi va ular orasida tafovut paydo bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi va tegishli tuzatishlar amalga oshiriladi.

Konsignatsiya shartnomasining predmeti bo'lib komission bitimning bajarilishi sanaladi, ya'ni konsignator haqiqiy xarakatni amalga oshirmaydi, balki huquqiy xarakatni bajaradi – bitta yoki bir nechta shartnomalarni tuzadi. Bitim tuzish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa pullik xizmatlarni ko'rsatish konsignatorning majburiyatiga kirmaydi. Agar u shunday xizmatlarni ko'rsatsa, u holda bu ko'shimcha xizmatlar bo'ladi va konsignant va konsignator o'rtasidagi shartnoma aralash shartnoma hisoblanadi (komissiya shartnomasining va pullik xizmat ko'rsatish shartnomasining elementlarini o'zida mujassam qiladi). Qo'shimcha xizmatlar bo'yicha xarajatlar umumiy tartibda to'lanadi, konsignant tomonidan konsignatorga esa xaridorlar bilan bitimlar tuzish bo'yicha konsignant

²⁰ Gadoyev E. va boshqalar. Yillik hisobot-2008. T.: NORMA, 2009. 248-b.

topshiriklarini bajarish bilan bog'lik xarajatlargina qoplanib beriladi.

Tovarlarni konsignatsion omborda saqlash xarajatlari konsignatorning xarajatlari deb tasavvur qilinadi, chunki ular o'zining yoki ijaraga olingan omborlardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar hisoblanadi. Ular komission faoliyatdan olinadigan daromadlar hisobidan qoplanishi lozim. Tovarlarni xaridorlarga sotilmagan taqdirda, agar bunda konsignatorning aybi bo'lmasa, tovarlarni qaytarish bilan bog'liq xarajatlar tovarning egasi tomonidan, ya'ni konsignant (komitent) tomonidan qoplanishi lozim.

Konsignatsiya shartnomasi bo'yicha import qilingan tovarlar kelib tushishi konsignatorning buxgalteriya hisobida balansdan tashqari 004 "Komissiyaga qabul qilingan tovarlar" schyotining debeti bo'yicha aks ettiriladi na sotilishiga qarab, ushbu balansdan tashqari schyotning kreditidan hisobdan chiqariladi.

Balansdan tashqari 004 "Komissiyaga qabul qilingan tovarlar" schyotining analitik hisobi moddiy javobgar shaxslar bo'yicha har bir narsa bo'yicha topshirish-qabul qilish dalolatnomasida yoki invoysda yoki bojxona yuk deklaratsiyasida nazarda tutilgan narxda yuritiladi.

Konsignatsiya shartnomasida tovarlarning qaytarilishi nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Konsignatsiya shartnomasi bo'yicha xarid qilingan tovarlar konsignantga qaytarilgan hollarda, 3290 "Boshqa kechiktirilgan xarajatlar" schyotida aks ettirilgan konsignatorning bojxona to'lovlari bo'yicha xarajatlarining qaytarilgan tovarlar ulushiga to'g'ri keladigan qismi konsignatorning moliyaviy natijalariga (davr xarajatlariga) olib borib hisobdan chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 204-moddasiga muvofiq, vositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha boshqa shartnoma asosida o'zga shaxsning manfaatlarini ko'zlab xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmat uchun pul mukofoti (foiz) tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik shartnomasiga, topshiriqqa binoan ishonchli shaxs yoki komitent O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i qo'shilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

YaST to'lovchisi bo'lgan firmaning asosiy faoliyat turi xonalarni ijaraga berish hisoblanadi. Ulgurji savdoga litsenziyasi bo'lgani bois u Koreyadagi xorijiy hamkor bilan konsignatsiya shartnomasi tuzdi. Unga ko'ra realizatsiyaga beriladigan tovarning narxi o'rov uchun 12 AQSh dollarini tashkil etadi; kontrakt qiymati – 12 000 000 AQSh dollari.

Konsignant konsignatorga yozma ravishda realizatsiya qilinayotgan tovarning narxi va haqni – bojxona tozalovi, transport chiqimlari va hujjat bilan tasdiqlanadigan boshqa xarajatlarni kiritgan holda konsignatorning realizatsiya qilish xarajatlarini chegirib turib tovar realizatsiyasidan tushum hajmining 10%i

etib belgilaydi.

Tovarning kontrakt qiymati bilan realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi farq summasi, bundan haq va konsignatorning hujjat bilan tasdiqlanadigan xarajatlari mustasno, norezidentning daromadi hisoblanadi. U konsignant tomonidan birja yoki yarmarka kimoshdi savdolarida xarid qilinadigan tovar uchun konsignantning topshirig'iga ko'ra o'tkazilishi kerak. Olingan import tovar turkumi uchun konsignator AQSh dollarida haq to'laganidan keyingina unga haq to'lanadi. Bunda konsignator to'lov manbaida belgilangan tartibda norezidentning daromadidan soliq ushlashi shart.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini qo'llash bo'yicha yo'riqnomaning²¹ 439-bandiga ko'ra komissiyaga qabul qilingan tovarlar 004-hisobvaraqa qabul qilish-topshirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan narxlarda hisobga olinadi. Xorijiy hamkor bilan konsignatsiya shartnomasi AQSh dollarida tuzilganligi bois qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va 004-balansdan tashqari hisobvaraqa tovar AQSh dollarida hisobga olinadi.

Import qilingan tovar-moddiy boyliklarning (bundan konsignatsiya shartnomalari bo'yicha olib kirilgan tovarlar mustasno) xarid qiymati bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish hamda bojxona bojlari va yig'imlarini to'lash sanasiga Markaziy bank kursidan kelib chiqib belgilangan ularning shartnoma qiymatidan, shuningdek xarid qilish bilan bog'liq boshqa xarajatlardan kelib chiqib so'mda belgilanadi²².

Chet el tovarlari O'zbekiston bojxona hududida erkin muomala uchun chiqarilganidan keyin, ya'ni BYuD 40-“Erkin muomala (import) uchun chiqarish” rejimida rasmiylashtirilganidan so'ng O'zbekiston tovarlari maqomini oladi. Import shartnomasi bo'yicha sotib olingan tovar BYuD 40-rejimida rasmiylashtirilgan kundagi Markaziy Bank kursi bo'yicha kiritiladi.

O'zbekiston hududidagi valyuta operatsiyalari 22-son BHMS va Chet el valyutasidagi operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to'g'risida nizom²³ bilan tartibga solinadi.

Buxgalteriya hisobida konsignatsiya shartnomasi bo'yicha tovar operatsiyalari quyidagicha aks ettiriladi:

1) tovarlar konsignatsiyaga qabul qilish-topshirish dalolatnomasi valyutasida kelib tushdi

Debet 004

Kredit 00;

2) bojxona to'lovlari BYuDni rasmiylashtirish sanasida kurs bo'yicha hisoblab yozildi

²¹ Moliya vazirining AV tomonidan 23.10.2002 yilda 1181-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan buyrug'i bilan tasdiqlangan 21-son BHMSga 2-ilova.

²² “Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi” (Moliya vazirining AV tomonidan 21.05.2004 yilda 1364-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan buyrug'i bilan tasdiqlangan). 13-band

²³ MV, IV, DSQ, MB boshqaruvi va Davstatqo'mning AV tomonidan 17.09.2004 yilda 1411-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan.

Debet 3290

Kredit 6990;

3) bojxona to'lovlari BYuDni rasmiylashtirish sanasida kurs bo'yicha to'landi

Debet 6990

Kredit 5110;

4) konsignatsiya tovari uni realizatsiya qilish sanasidagi MB kursiga ekvivalent bo'lgan konsignant narxlari bo'yicha realizatsiya qilingan:

sotilgan konsignatsiya tovari uchun konsignantga qarz aks ettiriladi

Debet 4010

Kredit 6990;

konsignatorning vositachilik haqi summasi (sotilgan tovar soniga va 10% ga ko'paytirgan holda realizatsiya qilish narxi bilan kontrakt narxi o'rtasidagi farq) aks ettiriladi

Debet 4010

Kredit 9030;

5) realizatsiya qilingan konsignatsiya tovarining qiymati hisobdan chiqarilgan

Debet 00

Kredit 004;

6) realizatsiya qilish paytida realizatsiya qilingan tovarlar ulushiga bojxona xarajatlari hisobdan chiqarildi

Debet 9430

Kredit 3290;

7) sotilgan tovar uchun konsignantdan qarz so'ndiriladi

Debet 6990

Kredit 5110;

8) to'lov manbaida norezidentning daromad solig'i hisoblab yozilgan

Debet 6990

Kredit 6410;

9) norezidentga daromad o'tkazilgan

Debet 6990

Kredit 5210.

Konsignatsiya shartnomasi bo'yicha import qilingan tovarlar bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha misol. Savdo firmasi chet ellik mol yetkazib beruvchidan konsignatsiya shartnomasi asosida 100 dona kir yuvish mashinalarini xarid qilmoqda. Kir yuvish mashinasining har bir donasi qiymati 450 AQSh dollari va umumiy shartnoma qiymati 45 000 AQSh dollarini tashkil etadi. Bojxona to'lovlari quyidagilardan iborat: bojxona boji 10 %, QQS 20 % va bojxona yig'imi 0,2 %. Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan bir AQSh dollarining so'mga nisbatan kursi quyidagicha bo'lgan: bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish sanasidagi — 2500 so'm, kir yuvish mashinalarini sotish va konsignant oldidagi qarzдорlikni to'lash sanasida — 2550 so'm. Hisobot oyining oxirida 40 dona kir yuvish mashinasi sotildi. Komission mukofot kir

yuvish mashinasining qiymatining 40 foizini tashkil etadi. Tovarlarni bojxonadan o'tkazish jarayoni va omborda saqlash bilan bog'liq xarajatlar konsignatorning xarajatlari hisoblanadi. Ular komissiya mukofoti hisobidan qoplanishi kerak. Agar tovar zavoddan yaroqsiz holda chiqqan va ularni qayta tiklash mumkin bo'lmasa, bunda konsignatorning aybi bo'lmagan hollarda, tovarlarni qaytarish bilan bog'liq xarajatlarni tovarning egasi o'z zimmasiga, ya'ni konsignant (komitent) o'z zimmasiga olishi kerak. Sotish paytidagi tekshirish natijasida 5 dona kir yuvish mashinasi zavoddan yaroqsiz holda chiqqanligi va ularni qayta tiklash mumkin emasligi aniqlandi. Oyning oxirida ular qaytarildi va konsignant bojxona bo'yicha xarajatlarni qarzdorlik hisobidan qoplab berdi.

Birinchi navbatda bojxona to'lovlarini hisoblash uchun kir yuvish mashinalarini shartnoma qiymatini bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish sanasidagi Markaziy bank kursiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlaymiz, ya'ni ning $45\,000\text{ AQSh dollari} \times 2500\text{ so'm} = 112\,500\,000\text{ so'm}$.

Ikkinchi navbatda kir yuvish mashinalarini shartnoma qiymatidan kelib chiqib bojxona to'lovlarini aniqlaymiz. Bojxona to'lovlari:

- bojxona boji: $11\,250\,000\text{ so'm}$ ($112\,500\,000\text{ so'm} \times 10\% / 100$),
- QQS $24\,750\,000\text{ so'm}$ ($(112\,500\,000\text{ so'm} + 11\,250\,000\text{ so'm}) \times 20\% / 100$),
- bojxona yig'imi: $2\,240\,000\text{ so'm}$ ($112\,500\,000\text{ so'm} \times 0,2\% / 100$).

Xarid qiymatiga qo'shiladigan bojxona to'lovlari $38\,240\,000\text{ so'm}$ ni tashkil etadi: ($11\,250\,000\text{ so'm} + 24\,750\,000\text{ so'm} + 2\,240\,000\text{ so'm}$)

Operatsiyalar savdo firmasining buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar amalga oshiriladi:

— kir yuvish mashinalari kelib tushganda:

debet balansdan tashqari 004 "Komissiyaga qabul qilingan tovarlar" schyoti $45\,000\text{ AQSh dollari}$;

— kir yuvish mashinalari bo'yicha QQSni qo'shgan holda, bojxona to'lovlari hisoblanganda:

debet 3290 "Boshqa kechiktirilgan xarajatlar" schyoti $38\,240\,000\text{ so'm}$;

kredit 6410 "Byudjetga to'lov bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)" schyoti $38\,240\,000\text{ so'm}$;

— kir yuvish mashinalari bo'yicha QQS va bojxona to'lovlari bo'yicha qarz qoplanganda:

debet 6410 "Byudjetga to'lov bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)" schyoti $38\,240\,000\text{ so'm}$;

kredit Pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar $38\,240\,000\text{ so'm}$;

— kir yuvish mashinalari sotilganda:

debet 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" schyoti $45\,900\,000\text{ so'm}$;

kredit 9030 "Ish bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar" schyoti $18\,360\,000\text{ so'm}$;

kredit Turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) $27\,540\,000\text{ so'm}$

45 900 000 so‘m = 40 dona x 450 AQSh dollari x 2550 so‘m;

18 360 000 so‘m = 45 900 000 so‘m x 40 % / 100;

27 540 000 so‘m = 45 900 000 so‘m - 18 360 000 so‘m.

Bir vaqtning o‘zida sotilgan kir yuvish mashinalarining qiymati hisobdan chiqarilishi:

kredit 004 “Komissiyaga qabul qilingan tovarlar” schyoti 18 000 AQSh dollari;

— sotilgan kir yuvish mashinalarining ulushiga to‘g‘ri keluvchi QQS summasini qo‘shgan holda, bojxona to‘lovlari bo‘yicha xarajatlarni moliyaviy natijalarga olib borilishi:

debet 9410 “Sotish xarajatlari” schyoti 15 296 000 so‘m;

kredit 3290 “Boshqa kechiktirilgan xarajatlar” schyoti 15 296 000 so‘m

15 296 000 so‘m = 38 240 000 so‘m / 100 dona x 40 dona;

— qaytarilgan (yaroqsiz bo‘lgan) kir yuvish mashinalarining ulushiga to‘g‘ri keluvchi QQS summasini qo‘shgan holda, bojxona to‘lovlari bo‘yicha xarajatlarni moliyaviy natijalarga olib borilishi:

debet 9410 “Sotish xarajatlari” schyoti 1 912 000 so‘m;

kredit 3290 “Boshqa kechiktirilgan xarajatlar” schyoti 1 912 000 so‘m

1 912 000 so‘m = 38 240 000 so‘m / 100 dona x 5 dona.

Bir vaqtning o‘zida qaytarilgan kir yuvish mashinalarining qiymati hisobdan chiqarilishi:

kredit balansdan tashqari 004 “Komissiyaga qabul qilingan tovarlar” schyoti 2 250 AQSh dollari 2 250 AQSh dollari = 5 dona x 450 AQSh dollari;

— qaytarilgan (yaroqsiz bo‘lgan) kir yuvish mashinalarining ulushiga to‘g‘ri keluvchi QQS summasini qo‘shgan holda, bojxona to‘lovlari bo‘yicha xarajatlarni kreditorlik qarzi hisobidan ushlab qolish bilan qoplanishi (agar konsignatsiya shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa):

debet Turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) 1 912 000 so‘m;

kredit 9390 “Boshqa operatsion daromadlar” schyoti 1 912 000 so‘m;

— xaridorlardan pul mablag‘lari kelib tushganda:

debet pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar 22 680 000 so‘m;

kredit 4010 “Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” schyoti 45 900 000 so‘m;

— konsignatorga bo‘lgan qarz koplenganda:

debet Turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) 43 988 000 so‘m;

kredit Pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar 43 988 000 so‘m

43 988 000 so‘m = 45 900 000 so‘m - 1 912 000 so‘m.

2.3. Ulgurji va chakana savdo korxonalarida tovarlar hisobi

Tovarlarni sotishda savdo korxonalarini vositachilik korxonalarini xizmatidan foydalanishlari mumkin. Ushbu holda komissiya yoki topshiriq shartnomasiga

ko'ra sotuvga berilgan tovarlarning qiymati 2960-“Komissiyaga berilgan tovarlar” schyotida komissionerdan (vositachidan) yakuniy xaridorga ular yuklab jo'natilgani haqida hisobot (xabarnoma) olinmagunga qadar aks ettiriladi.

Tovarlarni vositachi orqali sotish 2 xil variantdagi hisob-kitoblarni ko'zda tutadi:

- vositachining hisob-kitoblarda ishtiroki bilan;
- vositachining hisob-kitoblarda ishtirokisiz.

Agar vositachi hisob-kitoblarda ishtirok etsa, tovarlarni sotishdan tushum vositachi hisob-kitob hisobvarag'iga yoki kassasiga kelib tushadi, u esa o'z navbatida shu pullarni tovarlar egasi (komitent) hisobvarag'iga o'tkazadi. Odatda, vositachi komitentga o'tkazishi kerak bo'lgan summadan o'z vositachilik haqini ushlab qoladi.

Tovarlarni komissiya shartnomasi bo'yicha vositachining hisob-kitoblarda ishtirokisiz sotish

Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
Tovarlarni komissiya shartnomasi bo'yicha sotishga berish aks ettiriladi	2960	2910
Komissionerdan tovar sotilganligi haqidagi xabarnoma olingandan so'ng		
Tovarni sotishdan olingan daromadlar aks ettiriladi	4010	9020
Sotilgan tovarlarning tannarxi hisobdan chiqarildi	9120	2960
Komissionerga to'lanadigan haq aks ettiriladi	9410	6990
Komissionerga to'lanadigan haq o'tkaziladi	6990	5110

Agar vositachi hisob-kitoblarda ishtirok etmasa, tovarlarni sotishdan tushum komitentning hisob-kitob hisobvarag'iga yoki kassasiga kelib tushadi, u vositachiga to'lanadigan vositachilik haqini o'tkazadi.

Misol. Ulgurji savdoni amalga oshirish huquqini beradigan litsenziyaga ega bo'lgan foyda solig'i va QQS to'lovchi korxonaga komissiya shartnomasiga ko'ra tovarlarni sotishga beradi. Shartnomaga ko'ra tovarlar QQS hisobga olingan holda 12 000 ming so'mga sotilishi kerak. Tovarlarning tannarxi 6 000 ming so'mni tashkil etadi. Vositachilik haqi summasi sotilgan tovarlar qiymatining 10 % i miqdorida belgilandi. Vositachi hisob-kitoblarda qatnashmaydi.

Muomalalarni aks ettirish

T/r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so'm	Debet	Kredit
1	Komissiya shartnomasiga ko'ra tovarlarni sotishga berish aks ettiriladi	6 000	2960	2910
2	Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar aks ettirildi	10 000	4010	9020
3	QQS hisoblab yozildi	2 000	4010	6410
4	Sotilgan tovarlar tannarxi hisobdan chiqarildi	6 000	9120	2960
5	Komissionerga to'lanadigan haq aks ettiriladi	1 000	9410	6990
6	QQS hisobga kiritishga qabul qilindi	200	4410	6990

			6410	4410
7	Komissionerga to'lanadigan haq o'tkaziladi	1 200	6990	5110

Sotish narxlari bo'yicha hisob yuritadigan chakana savdo korxonalarini sotilgan tovarlarga to'g'ri keluvchi savdo ustamasi summasini hisobdan chiqarishlari kerak. Sotish narxlari bo'yicha hisobga olishda 2980-“Savdo ustamasi” kontraktiv schyoti qo'llanadi.

Tovarlarni hisobga olish usuli korxonaning hisob siyosatida aniq ko'rsatilishi shart.

21-son BHMS buni quyidagi yozuv bilan aks ettirishni tavsiya etadi: 2980-“Savdo ustamasi” schyoti debeti — 9120-“Sotilgan tovarlarning tannarxi” schyoti krediti.

Sotilmagan tovarlar qoldig'iga to'g'ri keladigan savdo ustamalarini summalari belgilangan miqdorlarga muvofiq tovarlarga qo'yiladigan ustamalarni belgilash yo'li bilan inventarlash ro'yxatlari asosida aniqlashtiriladi.

Chakana savdo korxonalarida sotilmagan tovarlar qoldig'iga ustama summasi oy boshidagi tovarlar qoldig'iga to'g'ri keluvchi ustama summasi va 2980-“Savdo ustamasi” schyoti debeti bo'yicha aylanma summasiga (boshqa hisobdan chiqarishlarga) kamaytirilgan 2980-“Savdo ustamasi” schyoti krediti bo'yicha aylanma summasining oy davomida sotilgan tovarlar summasi (hisob narxlari bo'yicha) va oy oxiridagi tovarlar qoldig'iga (hisob narxlari bo'yicha) nisbati tariqasida hisoblangan foiz bo'yicha aniqlanishi mumkin.

Tovarlarni sotishda savdo ustamasini hisobdan chiqarilishi

Muomalalar mazmuni	debet	kredit
Sotilgan tovarlarning tannarxi hisobdan chiqarildi	9120-“Sotilgan tovarlarning tannarxi”	2900-“Tovarlar”
Tovarlarni sotishdan olingan daromad aks ettiriladi	4010-“Xaridor buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” va	9020-“Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar”
Sotilgan tovarlar bo'yicha savdo ustamasi hisobdan chiqarildi	2980-“Savdo ustamasi”	9120-“Sotilgan tovarlarning tannarxi”

Chakana savdo korxonalarini sotib olingan tovarlar hisobini sotish narxlari bo'yicha ustama qiymatini ajratib ko'rsatgan holda yuritishlari mumkin. Bunda sotib olingan va hisobga olingan tovarlar qiymati ustama summasiga ko'payadi.

Haq evaziga xarid qilingan tovarlarning kelib tushishi (2980schyoti qo'llanilgan holda sotish narxi bo'yicha hisob)

Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
Mol etkazib beruvchining yuk-xati yoki hisobvara-q-fakturasini asosida tovarlar kirimi qilinadi	2910; 2920	6010
QQSni hisobga kiritish aks ettiriladi (QQS to'lovchilari uchun)	4410; 6410	6010; 4410
Kirim qilingan tovarga savdo ustamasi aks ettiriladi	2910; 2920	2980

Buxgalteriya hisobida bu operatsiya 2910-“Ombordagi tovarlar” va 2920-“Chakana savdodagi tovarlar” schyotlarining debetida 2980-“Savdo ustamasi” schyotining krediti bilan korrespondentsiyada aks ettiriladi.

Konsignatsiya shartnomalariga ko‘ra import qilingan tovarlarning kelib tushishi

Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
Konsignatsiya tovarlarining sotilishi aks ettirildi, komission mukofotlar summasiga; tovar invoysi va BYuD bo‘yicha sotish sanasidagi Markaziy bank kursi bo‘yicha konsignatsiya tovari qiymatiga; komission mukofot summasidan kelib chiqib aniqlanadigan QQS summasiga	4010	9030 6990 6410
Sotilgan konsignatsiya tovari qiymati hisobdan chiqariladi		004
Sotilgan konsignatsiya tovar-larining ulushiga to‘g‘ri keladigan import qilingan konsignatsiya tovarlari bo‘yicha QQS qo‘shilgan holda bojxona to‘lovlari ushbu tovarlarni sotish paytida hisobdan chiqariladi	9430	3290
Xaridorlardan pul mablag‘larining kelib tushishi aks ettiriladi	5110	4010
QQS bo‘yicha qarz to‘lanadi (QQS to‘lovchilari uchun)	6410	5110
Konsignatorga qarzlar to‘lanadi	6990	5110
Tovarlar konsignantga qaytarilganda bojxona to‘lovlarining qaytarilgan tovarlar hissasiga to‘g‘ri keladigan qismi hisobdan chiqariladi	9430	3290

Tovarlar bitimda nazarda tutilgan chegirma bilan xarid qilinganda, tovarlarning qiymati hisobga qabul qilinayotganda chegirma summasiga kamaytirtshmaydi. Tovarlar chegirma hisobga olinmagan qiymat bo‘tticha kirim qilinadi, chegirmalar esa yuzaga kelgan hisobot davrida moliya-xo‘jalik faoliyati natijalariga kiritiladi.

Tovar etkazib beruvchidan olingan chegirma summasi yagona soliq to‘lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazadan chegiriladi (Soliq kodeksining 356-moddasi).

Chegirmalar bilan xarid qilingan tovarlarning kelib tushishi (chegirmalar summasi mol etkazib beruvchidan tovarlarni olish vaqtida ma‘lum)

Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
Mol etkazib beruvchining hisobvara-q-fakturasi asosida tovarlarning xarid qiymati aks ettirildi	2900	6010 9390 (chegirmalar summasiga)

Agar chegirma to‘g‘risidagi shart shartnomada nazarda tutilgan va xaridor unga tovarlar yuklanishiga qadar chegirmalar olish uchun shartlarni to‘liq bajargan taqdirdagina ushbu o‘tkazma qayd etiladi, ya’ni chegirmalar summasi ma‘lum, u hisobva-raqfakturada aks ettirilgan va to‘lov chog‘ida muayyan shartlar bajarilishi bilan og‘irlik qilmaydi.

Chegirmalar xaridor tomonidan tovarga haq to'lanishi shartlari bajarilishiga qarab taqdim etilishi mumkin. Masalan, 10 kun mobaynida to'liq summa to'langanida 10 foiz miqdorida chegirma beriladi, 20 kun mobaynida to'lansa, chegirmaning miqdori 5 foizga pasaytiriladi va hokazo. Bunday hollarda o'tkazmalar quyidagicha bo'ladi:

Chegirmalar bilan xarid qilingan tovarlarning kelib tushishi (chegirmalar summasi xaridor tomonidan kelgusida shartlar bajarilishiga bog'liq)

Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
Mol etkazib beruvchining hisobvara-q-fakturasi asosida tovarlarning xarid qiymati aks ettiriladi	2900	6010
Chegirmalar hisobga olingan holda xaridga haq to'lanadi	6010	5110
Chegirmalar summasiga daromad aks ettiriladi	6010	9390

Inventarizatsiya vaqtida aniqlangan ortiqcha tovarlar, ular aniqlangan paytdagi amal qiluvchi ushbu yoki shunga o'xshash tovarlarning bozor narxi bo'yicha baholanadi va balansga qabul qilinadi.

Inventarlash natijasida aniqlangan ortiqcha tovarlar qiymati foyda solig'i va yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq solinadigan baza hisob-kitob qilinayotganda boshqa daromadlarga kiritiladi (Soliq kodeksining 132, 353 va 355-moddalari) va unga asosiy faoliyat turi stazkasi bo'yicha soliq solinadi.

Xaridorlar tomonidan sotib olingan tovarlarning qaytarilishi — bu savdo faoliyatidagi oddiy bir hol sanaladi. Bu buxgalteriya hisobida ham hisobga olinishi va 9040-“Sotilgan tovarlarning qaytarilishi” maxsus kontrpassiv schyotida aks ettirilishi lozim. Bunda debitorlik qarzlari ham, ilgari hisoblangan soliqlar bo'yicha majburiyatlar schyotlari ham to'g'rilanishi lozim.

Xaridorlar tomonidan tovarlarning qaytarilishi bilan bog'liq operatsiyalar aks ettirilishi

Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
Sotilgan tovarlarnig qaytarilishi va ularning qiymatini pul mablag'lari bilan to'lash aks ettiriladi	9040	5010; 5110
Sotilgan tovarlarning qaytarilishi aks ettiriladi va debitorlik qarzi bekor qilindi	9040	4010
Xaridorlar tomonidan qaytarilgan tovarlar kirim qilindi	2900	9120
Ilgari hisoblangan soliqlarni (QQS) to'g'rilash aks ettirildi	6410	5010; 4010
Hisobot davri oxirida 9040-schyotning yopilishi	9020	9040

Tovarlar qaytarilib, soliq solinadigan baza tuzatilganda etkazib beruvchi korxonaga “Ilgari yozilgan hisobvara-q-faktura o'rniga” yozuvi qayd etilgan yangi hisobvara-q-fakturani yozib berishi shart. Tovarlarini oluvchi korxonaga yangi hisobvara-q-faktura olinganini tasdiqlashi lozim.

3-mavzu. Xususiy kapital hisobi

Reja

3.1. Xususiy kapital shakllanishi hisobining maqsad hamda vazifalari

3.2. Ustav kapitali shakllanishi va o'zgarishini hisobda aks ettirish

3.3. Qo'shilgan va rezerv kapitali xarakatini hisobda aks ettirish

3.4. Maqsadli tushumlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi

Tayanch so'z va iboralar:

3.1. Xususiy kapital shakllanishi hisobining maqsad hamda vazifalari

Respublikamiz mustaqillikka erishgan vaqtdan boshlab bozor iqtisodiyoti talablari va moliyaviy hisobotning xalqaro andozalariga muvofiqlashtirish maqsadida buxgalteriya hisobi va audit tizimi bosqichma-bosqich isloh qilib kelinmoqda. Bozor iqtisodiyoti buxgalteriya hisobi faqat hisob yuritish siyosati va statistika vazifasini bajarib qolmasdan, balki manfaatdor tomonlarga tasarrufida mavjud bo'lgan moliyaviy resurslardan qanday qilib yaxshiroq foydalanish to'g'risida xolis va asoslangan qaror qabul qilishi uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyati to'g'risida axborot to'plash, uni qayta ishlash va uzatish vositasiga aylandi.

Yangi tashkil etilayotgan korxonalar o'z moliyaviy va moddiy resurslarini mustaqil shakllantiradi. Bunday resurslar, odatda, korxonada ta'sischi tomonidan o'z xususiy mulklarini ustav kapitaliga ulush sifatida qo'shish bilan yaratiladi.

Shuning uchun ham turli mulkchilik shaklidagi korxonalarni tashkil etish bosqichida xususiy kapitalning shakllanishi hisobiga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki, xususiy kapital moliyaviy aktivlar bilan ta'minlashning asosiy manbai hisoblanadi.

Ulushlarga (qo'shilgan hissalariga) yoki muassislarning (ishtirokchilarning) aksiyalariga bo'lingan ustav fondi (ustav kapitali)ga ega bo'lgan tijoratchi tashkilotlar xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari hisoblanadi. Muassislar (ishtirokchilar) qo'shgan hissalar yoki ular sotib olgan aksiyalar hisobiga vujudga keltirilgan, shuningdek xo'jalik shirkati yoki jamiyati o'z faoliyati jarayonida ishlab chiqargan va sotib olgan mol-mulk mulk huquqi asosida unga tegishlidir.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari to'liq shirkat, kommandit shirkat, mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat, aksiyadorlar jamiyati shaklida tuzilishi mumkin.

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidari javobgar bo'ladilar.²⁴

²⁴ O'zbekiston Respublikasining 06.12.2001 yildagi (N310-II) "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdordagi ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat deb hisoblanadi. Bunday jamiyatning ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulkilari bilan hamma uchun bir xil bo'lgan va qo'shgan hissalarini qiymatiga nisbatan jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar. Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat ishtirokchilari javobgarligining eng yuqori miqdori qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning ustavida nazarda tutiladi.²⁵

Ustav kapitali (fondi) jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo'jalik yurituvchi sub'ekt aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlarini qo'lga kiritadi. Jamiyat, agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, cheklanmagan muddatga tuziladi.²⁶

Ishtirokchilari o'zlariga qarashli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning roziligisiz o'zga shaxslarga berishlari mumkin bo'lgan aksiyadorlar jamiyati ochiq aksiyadorlar jamiyati hisoblanadi. Bunday aksiyadorlar jamiyati o'zi chiqaradigan aksiyalarga qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan shartlar asosida ochiq obuna o'tkazishga va ularni erkin sotishga haqli.

Aksiyalari faqat o'zining muassislari orasida yoki oldindan belgilab qo'yiladigan boshqa shaxslar doirasida taqsimlanadigan aksiyadorlar jamiyati yopiq aksiyadorlar jamiyati hisoblanadi. Bunday jamiyat o'zi chiqaradigan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazishga yoki ularni sotib olish uchun cheklanmagan doiradagi shaxslarga boshqacha tarzda tavsiya etishga haqli emas.

Agar bir (asosiy) xo'jalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xo'jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeiga ega bo'lgan holda ishtirok etishi tufayli yoxud ular o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo'lmasa boshqacha tarzda ikkinchi xo'jalik jamiyati tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo'lsa, ushbu ikkinchi xo'jalik jamiyati sho'ba xo'jalik jamiyati hisoblanadi.²⁷

Xo'jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat xo'jalik jamiyatiga qarashli ovoz beradigan aksiyalarning yigirma foizidan ko'prog'iga ega bo'lsa, bunday xo'jalik jamiyati qaram jamiyat deb hisoblanadi.

Davlat organining qaroriga muvofiq davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi (davlat korxonasi) tashkil etilishi mumkin.

Mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot xususiy korxonasi deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonasi

mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasi.

²⁵ O'zbekiston Respublikasining 06.12.2001 yildagi (N310-II) "Mas'uliyatli cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasi.

²⁶ O'zbekiston Respublikasining 26.04.1996 yildagi (N223-I) "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 2-moddasi.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 29.08.1996 y. 257-I-son Caroriga muvofiq 01.03.1997 y. e'tiboran amalga kiritilgan "O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi" 67- modda.

tadbirkorlik sub'ektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir. Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudga da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin. Xususiy korxonalar o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi.

Fermer xo'jaligi ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir. Fermer xo'jaligi O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy sub'ektidir.²⁸

Xalqaro andozalar talablaridan kelib chiqqan holda, buxgalteriya hisobi va hisobotini soddalashtirilgan tizimi, korxonaning olib borayotgan faoliyati va iqtisodiy ahvoli to'g'risida to'liq tasavvurni shakllantirishda yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, buxgalteriya hujjatlarini barcha foydalanuvchilarga, jumladan, chet el investorlariga qulayligini oshiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi tashkil etilayotgan korxonalar o'z moliyaviy va moddiy resurslarini mustaqil shakllantiradi. Bunday resurslar, odatda, korxonalar ta'sischilari tomonidan o'z xususiy mulklarini ustav kapitaliga ulush sifatida qo'shish bilan yaratiladi.

Shuning uchun ham turli mulkchilik shaklidagi korxonalar tashkil etish bosqichida xususiy kapitalning shakllanishi hisobiga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki, xususiy kapital moliyaviy aktivlar bilan ta'minlashning asosiy manbai hisoblanadi.

Xususiy kapital – bu korxonaning aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi farqdir. Xususiy kapital - barcha majburiyatlarni chegirib tashlangandan keyin korxonaning aktivlarini bir qismidir, yani xususiy kapital - bu mulkdorning firmadagi egaligiga oid ulushidir. Bu qoldiq ulush sifatida ta'riflanadi, chunki firma aktivlaridan majburiyatlarni ayirgandan keyin qolgan summasini tashkil etadi.²⁹

Shuni ta'kidlab o'tish joizki ba'zi me'yoriy - huquqiy hujjatlarda va ilmiy adabiyotlarda xususiy kapital tarkibidagi ko'rsatkichlar turlichaligini va ularga berilgan tariflar ham noaniqligini ko'rishimiz mumkin.

Masalan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 14 - moddasida xususiy kapital - ustav kapitali, qo'shilgan va zahira kapitalidan hamda taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi deyilgan.

Shuningdek, I. A. Zavalishina ham xususiy kapitalni manbalar bo'yicha quyidagi tarkibiy qismlarga bo'lgan³⁰:

- ustav kapitali;
- qo'shilgan kapital;
- rezerv kapitali;
- taqsimlanmagan foyda;

²⁸ O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 26 avgustdagi 662-II-sonli "Fermer xo'jaligi to'g'risida" qonuni (yangi tahriri) 3-modda.


²⁹ "Moliyaviy hisob-1" o'quv qo'llanma. T.: O'BAMA Nashriyot - ma'lumot Markazi, 2009 y. 18-bet.

³⁰ Zavalishina I.A. "Yangicha buxgalteriya hisobi", T.: 2003y. "Itisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 364-bet.

- maqsadli jamg'armalar (grantlar va subsidiyalar);
- rezervlar.

I.Ochilov, J.Qurbonboevlarning "Moliyaviy hisob", A.Ibragimov, I.Ochilov, I.Qo'ziev va N.Rizaevlar muallifligida yozilgan "Moliyaviy va boshqaruv hisobi" nomli o'quv qo'llanmalarida ham xususiy kapital tarkibi ustav kapitali, qo'shilgan kapital va rezerv kapitalidan tashkil topadi, deb ta'kidlangan.

Lekin 21 - sonli BHMSda xususiy kapital tarkibida qonunda sanab o'tilgan ko'rsatkichlar bilan birgalikda "sotib olingan xususiy aksiyalar", "maqsadli tushumlar" hamda "kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervi" nomli ko'rsatkichlar ham sanab o'tilgan. 5-shakl "Xususiy kapital to'g'risida"gi hisobotda ham huddi shu nomli ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumot berish uchun joy ajratilgan:



Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettiriluvchi ko'rsatkichlar

Shulardan kelib chiqib, xususiy kapital tarkibini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Aktsiyadorlik jamiyati tashkil etilayotganda shakllanadigan kapitallar:

- ustav kapitali;
- qo'shilgan kapital;

2. Aktsiyadorlik jamiyati faoliyati davomida hosil bo'ladigan kapitallar:

- sotib olingan xususiy aksiyalar;
- rezerv kapitali;
- taqsimlanmagan, jamg'arilgan foyda yoki qoplanmagan zarar (*jami xususiy kapitalni aniqlashda ayriladi*);
- maqsadli moliyalashtirish mablag'lari;
- kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlari.

Xususiy kapital hisobining asosiy maqsadi buxgalteriya hisobi axborotidan foydalanuvchilar uchun xususiy kapital shakllanishi, tarkibiy tuzilishi va dinamikasi to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlarni tayyorlash hamda taqdim etish.

Barcha mulk shakllaridagi korxonalarda xususiy kapital hisobining asosiy

vazifalari quyidagilardan iborat:

- ustav kapitalini shakllanishi va undan foydalanishni nazorat qilish;
- korxonalar muassislari, kapitalning shakllanish bosqichlari va aksiyalar turlari bo'yicha axborot to'plash;
- ustav kapitalining holati va harakati xususida xisobot tuzish bo'yicha ma'lumotlar olishni ta'minlash;
- qo'shilgan kapital hamda rezerv kapitalining shakllanishi bilan bog'liq muomalalarni o'z vaqtida xisobda aks ettirish;
- korxonalar sof foydasining shakllanishi va uning taqsimlanishini o'z vaqtida hisobga olish hamda nazorat qilish;
- davlatga qarashli korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarning ustav fondini, shuningdek, xususiy hamda aralash mulkchilikka asoslangan korxonalar ustav kapitali ahvolini va harakatini o'rganish;
- oddiy va imtiyozli aksiyalarni qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mulklar hamda ustav kapital (fond)ga kiritilgan mablag'larni qayta baholash natijasida yuzaga kelgan tafovut summalar monitoringini o'tkazish;
- rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (pul mablag'laridan tashqari), korxonalar ta'sis hujjatlariga asosan foyda hisobidan hosil qilingan kapitallar, keyinchalik kiritilgan (ustav kapitalida ko'rsatilmaydigan) aktivlarni qayta baholash yuzasidan keladigan farq mablag'larining mavjudligi va harakatini belgilash;
- korxonalar faoliyatining hamma davri va hisobot davridagi taqsimlanmagan foydalari hamda qoplanmagan zararlar summasining holati, harakati yuzasidan axborotlarni umumlashtirish;
- xususiy kapital qatoriga qo'shiladigan va korxonalar faoliyatini moliyalashtirish manbai sifatida qaraladigan grantlar hamda subsidiya kapitalining holati, harakati to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish va hakoza.

3.2. Ustav kapitali shakllanishi va o'zgarishini hisobda aks ettirish

Korxonaning xususiy kapitalining asosini tashkil etadigan ustav kapitali haqida so'z yuritilar ekan, ustav kapitali korxonaning o'z mablag'lari manbaining asosini tashkil etishi bilan ahamiyatlidir.

Korxonaning o'z mablag'larini shakllantirish asosiy manbai bo'lib uning mulkdorlari tomonidan korxonaga qo'yilgan mablag'lar majmui bo'lgan ustav kapitali hisoblanadi. Ustav kapitalini shakllantirish tartibi qonunchilik va ta'sis hujjatlari bilan amalga oshiriladi.

Ustav kapitali - bu ta'sis hujjatida belgilangan doiradagi faoliyatni ta'minlash uchun ta'sischilarning (ishtirokchilarning) korxonalar mulkiga qo'ygan mablag'lari (ulushlari, aksiyalar nominal qiymatida va hokozolar)ning pul ifodasidagi yig'indisidir.³¹

Tashkilot ustav kapitaliga (fondiga) hissa sifatida pullar, qimmatli qog'ozlar,

³¹ O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-sonli BHMS) "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma"ga 2-ilova.4-qism 8-bo'lim 1-§ 341-band.

boshqa buyumlar yoki mulkiy huquqlar yoxud pul bahosiga ega boshqa huquqlar kiritilishi mumkin.

Ustav kapitaliga olingan hissalar, shu jumladan aktsiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi daromad sifatida qaralmaydi va tegishincha, unga foyda solig'i va yagona soliq to'lovi solinmaydi (Soliq kodeksining 129 va 355-moddalari).

Ustav kapitali – xuquqlar va imtiyozlar olish uchun korxonaga muassislari tomonidan ta'sis hujjatlariga muvofiq qo'shilgan hamda korxonaga xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar, pul mablag'lari va xarajatlar majmuidir³².

Kengroq ma'noda ta'rif beradigan bo'lsak, uni shunday ta'riflash mumkin: Ustav kapitali – xo'jalikning daromad (foйда) olish maqsadida ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan dastlabki mablag'lar manbai, uning boshqarilish jarayonida har bir a'zoning hissasi va xususiy kapitalini oshirish maqsadida kiritilgan mablag'lar hamda o'z kreditorlarini, ta'sischilarining qiziquvchanligini kafolatlovchi mablag'lar manbaidir.

Ustav kapitali hisobini tashkil etish va uni yuritish amaldagi qonunlar va ta'sis hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ustav kapitaliga hissa shaklida qo'shiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta'sischilar kelishuviga yoki yuridik shaxs ijroiya organining qaroriga ko'ra baholanadi hamda hisobga olinadi.

Ustav kapitalining eng kam miqdori quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- banklar uchun — 10 mln evro ekvivalentida;
- xususiy banklar uchun — 5 mln evro ekvivalentida.

Umumiy sug'urtalash tarmog'ida faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun — 500 ming AQSh dollariga teng bo'lgan summani;

Hayotni sug'urtalash tarmog'ida faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun — 750 ming AQSh dollariga teng bo'lgan summani;

Majburiy sug'urtalash bo'yicha faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun — 1000 ming AQSh dollariga teng bo'lgan summani;

Faqat qayta sug'urtalash bo'yicha faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun — 3000 ming AQSh dollariga teng bo'lgan summani tashkil etadi.

Faqat tashabbuskorlik asosida auditorlik tekshiruvlarini amalga oshiruvchi auditorlik tashkilotlari eng kam oylik ish haqining **1500** baravari miqdoridan kam bo'lmagan ustav kapitaliga va shtatida kamida 2 nafar auditorga ega bo'lishi;

Aktsiyadorlik jamiyatlari, banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tashabbuskorlik asosida va majburiy auditorlik tekshiruvlarini amalga oshiruvchi auditorlik tashkilotlari eng kam oylik ish haqining **3000** baravari miqdoridan kam bo'lmagan ustav kapitaliga va shtatida kamida 4 nafar auditorga, ularning kamida bittasi buxgalter xalqaro sertifikatiga ega bo'lishi;

Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari eng kam oylik ish haqining **5000** ming baravari

³² Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. – T.: "Sharq" NMAK, 2004. – 362 bet.

miqdoridan kam bo‘lmagan ustav kapitaliga va shtatida kamida 6 nafar auditorga, ularning ikkitasi buxgalter xalqaro sertifikatiga ega bo‘lishi kerak.

Aktsiyadorlik jamiyatlari uchun ustav jamg‘armasining eng kam miqdori jamiyat davlat tomonidan ro‘yxatga olingan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki kursi bo‘yicha ekvivalenti 400.0 ming AQSh dollari.

Ustav kapitalining holati va xarakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:³³

8310- “Oddiy aktsiyalar”;

8320- “Imtiyozli aktsiyalar”;

8330- “Pay va qo‘yilmalar”.

Ustav kapitali harakatining buxgalteriya hisobi 13-jurnal orderda yuritalidi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ustav kapitalining analitik hisobi ishtirokchilar (ta’sischilar) bo‘yicha kartochkalar yoki vedomostlarda yuritiladi.

8310-“Oddiy aktsiyalar” - schyoti oddiy aktsiyalarning qiymatini qo‘shilgan holdagi aktsiyadorlik kapitalining holati va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umulashtirish uchun mo‘ljallangan.

8320-“Imtiyozli aktsiyalar” - schyoti imtiyozli aktsiya ko‘rinishida chiqarilgan hissadorlik kapitalining holati va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan.

Aktsiyalar 8310-“Oddiy aktsiyalar” va 8320-“Imtiyozli aktsiyalar” schyotlarda aktsiyalarning nominal qiymati bo‘yicha hisobga olinadi.

8330-“Pay va qo‘yilmalar” - schyoti o‘zida mulk egasining kapitali yoki korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllariga asosan qatnashuvchilarning ulushlarini mujassamlashtiradigan korxonaning ustav kapitalini holati va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan.

Aktsiyadorlik jamiyatning ustav kapitali aktsiyadorlar olgan jamiyat aktsiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aktsiyalarning nominal qiymati bir xil bo‘lishi kerak.

Aktsiya — o‘z egasining aktsiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aktsiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog‘oz.

Aktsiyadorlik jamiyatlari ikki turdagi: oddiy va imtiyozli aktsiyalar chiqarishi mumkin. Jamiyat oddiy aktsiyalarni joylashtirishi shart, shuningdek imtiyozli aktsiyalarni joylashtirishga haqli. Joylashtirilgan imtiyozli aktsiyalarning nominal qiymati jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizidan oshmasligi kerak.³⁴

Aktsiyalarning nominal qiymati — qimmatli qog‘ozda ko‘rsatilgan qiymat bo‘lib, aktsiyadorlik jamiyati kapitali miqdorini belgilaydi hamda aktsiya chiqarish

³³ 21-sonli BHMS

³⁴ O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 maydagi “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri), 16-modda

(emissiya)ga ruxsatni ro'yxatdan o'tkazishda belgilanadi.


Jamiyatning ustav kapitali jamiyat mol-mulkinging jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

Aktsiyadorlik jamiyati davlat mulki negizida tashkil etilayotganda tashkilotning (mol-mulkning) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aniqlangan bozor qiymati jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) summasini tashkil etadi.

Jamiyat oddiy aktsiyalarni joylashtirishi shart, shuningdek imtiyozli aktsiyalarni joylashtirishga haqli. Joylashtirilgan imtiyozli aktsiyalarning nominal qiymati jamiyat ustav kapitalining yigirma foizidan oshmasligi kerak.

Aktsiyadorlik jamiyati ustav kapitalining eng kam miqdori jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha to'rt yuz ming AQSh dollariga teng summadan kamni tashkil etmasligi kerak. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) jamiyat ustavida nazarda tutilgan miqdorda shakllantirishning eng ko'p muddati jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi lozim.³⁵

ustav kapitalini shakllanishida kiritilishi mumkin bo'lgan aktivlar quyidagi chizmada ko'rsatilgan.



Ustav kapitali shakllanishida kiritiladigan aktivlar

Aktsiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalini shakllantirishni aks ettiruvchi buxgalteriya o'tkazmalari standart ko'rinishga ega:

Aktsiyadorlik jamiyati ustav kapitalining shakllantirilishi

№	Muomala mazmuni	Debet	Kredit
1.	Ro'yxatdan o'tkazish paytida aktsiyadorlik jamiyati ustav kapitaliga ta'sischilarning ulushlari bo'yicha	4610	8310; 8320

³⁵ O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 maydagi "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri), 17-modda

	qarzi (to'liq miqdorda) aks ettirildi		
2.	Aktsiyadorlik jamiyati aktsiyalarini nominal qiymati bo'yicha sotilishi aks ettirildi	5010; 5110	4610
3.	Aktsiyadorlik jamiyati aktsiyalarining nominal qiymatidan yuqori narxda sotilishi (aktsiyalarning birlamchi emissiyasi chog'ida farq) aks ettirildi	5010; 5110	8410
4.	Aktsiyadorlik jamiyati ustav kapitaliga ulush hisobiga aktivlarning kelib tushishi	0820; 0830; 1000 va b.	4610

Korxonada ta'sischi tomonidan ustav kapitaliga o'z ulushlari hisobidan asosiy vositalarini kiritganda quyidagicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarni ustav kapitalga kiritilishi AV-1 qabul qilish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi.

Debet 0800 – “Kapital qo'yilmalar”

Kredit 4610 – “Ustav kapitaliga badallar bo'yicha muassislarning qarzlari”.

Asosiy vositalar foydalanishga berilgandan so'ng esa quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

Debet 0100 – “Asosiy vositalar”

Kredit 0800 – “Kapital qo'yilmalar”.

Korxonaning ustav kapitaliga nomoddiy aktivlarning ulush sifatida kiritilishi hisobda ta'sis bitimi va ob'ektning kirim-chiqim dalolatnomasiga asosan aks ettiriladi. Kelib tushgan ob'ektlar buxgalteriyada quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 0400 – “Nomoddiy aktivlar”

Kredit 4610 – “Ustav kapitaliga badallar bo'yicha muassislarning qarzlari”.

Korxonada ta'sischi tomonidan ustav kapitaliga ulush sifatida aylanma mablag'lar ham kiritilishi mumkin. Buxgalteriya hisobi bu muomalalar moddiy ishlab chiqarish zaxiralarining turidan kelib chiqib tuziladi.

Debet 1010 – “Ishlab chiqarish zaxiralar”

Kredit 4610 – “Ustav kapitaliga badallar bo'yicha muassislarning qarzlari”.

Ustav kapitaliga tovarlar kiritish bo'yicha muomalalar buxgalteriyada quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 2900 – “Tovarlar”

Kredit 4610 – “Ustav kapitaliga badallar bo'yicha muassislarning qarzlari”.

Korxonada muassislari qaroriga muvofiq ustav kapitaliga qo'shimcha ulush sifatida tovar moddiy zaxiralar, pul va valyuta mablag'lari kiritilishi mumkin. qo'shimcha badallar hujjatlarda rasmiylashtirilishi va buxgalteriya hisobida aks ettirilishi shart.

Aktsiyadorlik jamiyatining ustav kapitali aktsiyalarning nominal qiymatini oshirish yoki qo'shimcha aktsiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin. Jamiyatning ustav kapitalini aktsiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan yoki, agar jamiyat ustaviga yoxud aktsiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq jamiyatning kuzatuv kengashiga bunday qarorlar qabul qilish huquqi tegishli

bo'lsa, jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

Qo'shimcha aksiyalar e'lon qilingan jamiyat ustavida belgilangan aksiyalarning soni doirasidagina jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.

Jamiyatning ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan yoki, agar jamiyat ustaviga yoxud aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq jamiyatning kuzatuv kengashiga bunday qarorlar qabul qilish huquqi tegishli bo'lsa, jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari belgilangan bo'lishi kerak.

Jamiyatning ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda jamiyat ustavida ko'rsatilgan e'lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga qisqartirilishi kerak.

Aksiyadorlik jamiyatining tegishli boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qo'shimcha aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi yoki aksiyaning nominal qiymatini oshirish haqidagi qaror jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qarordir. Jamiyatning ustav kapitalini aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan ko'paytirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda faqat jamiyatning o'z kapitali hisobidan amalga oshiriladi.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Jamiyatning ustav kapitalini uning o'z kapitali hisobidan qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirishda bu aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning ustav kapitali ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

Jamiyatning ustav kapitalini aksiyalarning bir qismini olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirishga, agar bunday imkoniyat jamiyatning ustavida nazarda tutilgan bo'lsa, yo'l qo'yiladi.

Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalini kamaytirishga, agar buning natijasida

uning miqdori jamiyat ustav kapitalining jamiyat ustavidagi tegishli o'zgartishlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasida aniqlanadigan, belgilangan eng kam miqdoridan kamayib ketsa, haqli emas.³⁶

Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish/ko'paytirish to'g'risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav kapitalini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

Joylashtirilgan aksiyalar nominal qiymatini oshirish hisobiga aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalining oshirilishi

Muomala mazmuni	Debet	Kredit
Taqsimlanmagan foyda hisobiga kapitalning oshishi aks etgiriladi	8700; 6610	6610; 8310, 8320

Obuna vositasida qo'shimcha aksiyalarni joylashtirishda buxgalteriya yozuvlari quyidagicha bo'ladi:

Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish hisobiga aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalining oshirilishi

Muomala mazmuni	Debet	Kredit
Taqsimlanmagan foyda hisobiga qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ustav kapitalning oshirilishi	8720; 6610	6610; 8310; 8320
Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish hisobiga ustav kapitalning oshirilishi	4610	8310; 8320

Turli mulkchilik shaklidagi korxonalar xususiy kapitali o'zgarshi to'g'risidagi ma'lumotlarni 5-shakl "Xususiy kapital to'g'risida hisobot"da aks ettiradi. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tuzish maqsadi bo'lib, xususiy kapitalning hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan holati va hisobot davri mobaynida uning tarkibidagi o'zgartirishlar haqidagi axborotni ochib berish hisoblanadi.

Hisobotda xususiy kapital va uning tarkibiy qismlari to'g'risidagi, ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) sotib olingan o'z aksiyalari va boshqa xususiy kapital elementlari haqidagi axborot ochib berilishi kerak.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot xususiy kapital to'g'risidagi hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan tegishli axborotni ochib berishi kerak.

8330-«Pay va ulushlar» schyoti davlat korxonalari, mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar, xususiy va boshqa korxonalar hisobida ishlatiladi.

MChJ (QMJ) ustav kapitalining miqdori jamiyatni davlat ro'yxatidan

³⁶ O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri), 19-modda

o'tkazish uchun hujjatlarni taqdim etish sanasidagi holatga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan kam bo'lmasligi lozim.

MChJ (QMJ) davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan paytga qadar uning har bir ishtirokchisi ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) o'z hissasining kamida o'ttiz foizini kiritishi shart.

Jamiyatning barcha ishtirokchilari ta'sis hujjatida belgilangan va jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab bir yildan oshmaydigan muddat mobaynida o'z hissalarini to'liq kiritishi kerak. Hissalar to'liq kiritilganda ishtirokchi(lar)ga tasdiqlovchi guvohnoma beriladi.

Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirishga u to'liq to'langanidan keyingina yo'l qo'yiladi.

Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining jamiyat ishtirokchilari umumiy ovozlari sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan (agar jamiyatning ustavida bunday qarorni qabul qilish uchun ovozlarning bundan ko'proq soni zarurligi nazarda tutilgan bo'lmasa) qabul qilingan qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Jamiyat ustav kapitalining ko'paytirilishi jamiyatning mol-mulki hisobiga yoki jamiyat ishtirokchilarining qo'shimcha hissalarini hisobiga va agar bu jamiyatning ustavi bilan taqiqlangan bo'lmasa, jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslarning hissalarini hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

Korxonalar ro'yxatidan o'tgandan keyin uning ustav kapitali ta'sischilarning ta'sis hujjatlarida belgilangan hamda ustavda qayd etilgan pay va ulushlaridan tashkil topadi va 8330-«Pay va ulushlar» schyotining kreditida 4610-«Ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha ta'sischilarning qarzlari» schyoti bilan korrespondentsiyada aks ettiriladi.

Misol. MChJ ustav kapitali 73,1 million so'mdan iborat. Ta'sischilar ustav kapitalini quyidagicha shakllantiradilar:

- ikki komplekt mebel – 5000 ming so'm;
- bir dona LG LCD televizori – 3000 ming so'm;
- bir dona Noutbuk – 1500 ming so'm;
- bir dona LG konditsioneri – 500 ming so'm;
- bir dona gilam – 400 ming so'm;
- bir dona faks apparati – 200 ming so'm;
- 7,7 tonna temir metal Ugolok – 15400 ming so'm;
- 13,75 tonna temir-metal Armatura – 22000 ming so'm;
- naqd pul – 25100 ming so'm.

MChJ ustav kapitali shakllanishini aks ettirish

№	Muomala mazmuni	Summa, ming so'm	Debet	Kredit
1	Ro'yxatdan o'tkazish paytida MChJ ustav kapitaliga ta'sischilarning ulushlari bo'yicha qarzi	73100	4610	8330
2	Mebel va ofis jihozlari	8900	0140	4610

3	Kompyuter jihozlari kirimga olindi	1500	0150	4610
4	Bir dona faks apparati inventar va xo‘jalik jihozlari sifatida qaul qilindi	200	1080	4610
5	Ta‘sischilar qarzi evaziga xom-ashyo va materiallar olindi	37400	1010	4610
6	Ta‘sischilar qarzlarini naqd pulda bankdagi hisobraqamiga to‘ladi	25100	5110	4610


Ustav kapitali schyoti bo‘yicha analitik hisob xo‘jalik yurituvchi sub’ektning har bir ta‘sischi bo‘yicha ayrim olgan holda yuritiladi.

Misol. “Minitexinvest” MChJning ustav kapitali 87500000 so‘m miqdorida belgilangan bo‘lib, har bir ishtirokchining hissasi quyidagicha taqsimlangan: A 74500000 so‘m, B 2000000 so‘m, C 10000000 so‘m, D 1000000 so‘m.

“Minitexinvest Lizing” MChJ ustav kapitali shakllanishini aks ettirilishi

№	Muomala mazmuni	Summa, ming so‘m	Debet	Kredit
1	Ro‘yxatdan o‘tkazish paytida MChJ ustav kapitaliga ta‘sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi, jami:	87500	4610	
	A	74500		8311
	B	2000		8312
	C	10000		8313
	D	1000		8314
2	Ta‘sischilar qarzlarini bankdagi hisobraqamiga to‘ladi	87500	5110	4610

Ma‘suliyati cheklangan jamiyat ustav kapitalini u to‘liq shakllanganidan keyingina ko‘paytirishi mumkin. Jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirish jamiyat ishtirokchilari umumiy yig‘ilishining jamiyat ishtirokchilari umumiy ovozlari sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilingan qaroriga binoan amalga oshiriladi.



Ma‘suliyati cheklangan jamiyat ustav kapitalini ko‘paytirish yo‘llari.

Ma‘suliyati cheklangan jamiyat ustav kapitalini jamiyatning mol-mulki hisobiga ko‘paytirish to‘g‘risidagi qaror bunday qaror qabul qilingan yildan oldingi yil uchun jamiyatning buxgalteriya hisoboti ma‘lumotlari asosidagina

qabul qilinishi mumkin,³⁷ ya'ni ustav kapitalini mol-mulk hisobiga ko'paytirish to'g'risidagi qaror yakunlangan hisobot yili uchun balans ma'lumotlari asosida qabul qilinadi. Kapitalni mol-mulk hisobiga ko'paytirish to'g'risidagi qarorning joriy yilning choragi, yarim yilligi yoki 9 oyi uchun buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosida qabul qilinishi mumkin emas.

Ma'suliyati cheklangan jamiyatlar ustav kapitali jamiyatning mol-mulki hisobiga ko'paytiriladigan summa jamiyat sof aktivlarining qiymati bilan ustav kapitali hamda rezerv kapitali summasi o'rtasidagi farqdan ortiq bo'lmasligi kerak.

Jamiyat sof aktivlarining hajmi mohiyatiga ko'ra tashkilotning o'z manbalari, ya'ni ustav kapitali va foyda hisobiga xarid qilingan mol-mulki hisoblanishi sababli, ustav kapitalini ko'paytirish yil tugagandan va balans reformatsiyasidan keyin jamiyatning ixtiyorida qoladigan foydasi hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

Ma'suliyati cheklangan jamiyatning ustav kapitali ko'paytirilganda jamiyat barcha ishtirokchilari ulushlarining miqdorlari o'zgarmagan holda ular ulushlarining nominal qiymati mutanosib ravishda ko'payadi.

Misol. MChJ 6000 ming so'm ustav kapitaliga ega. Jamiyat ishtirokchilari tarkibiga 2 ta shaxs kiradi, birinchisiga ustav kapitalining 45 %i (2700 ming so'm), ikkinchisiga 55 %i (3300 ming so'm) tegishli. 2012 yil martda yakunlangan yil uchun hisobot topshirilgandan so'ng ishtirokchilarning yig'ilishida jamiyatning ixtiyorida qolgan foyda hisobiga ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Jamiyatning ustav kapitalini uning foydasi hisobiga ko'paytirish mumkin bo'lgan eng katta miqdorni aniqlash uchun o'tgan hisobot yili yakuni bo'yicha jamiyatning sof aktivlari miqdori hisoblab chiqariladi. Balans ma'lumotlariga ko'ra jamiyat sof aktivlarining qiymati 25000 ming so'mni tashkil qildi.

Ma'suliyati cheklangan jamiyatda rezerv kapitali tashkil etilmasligi sharti bilan, u joriy yilda o'z ustav kapitadini 19000 ming so'mdan (25000 - 6000) oshmaydigan summaga ko'paytirish huquqiga ega.

Agar ishtirokchilar yig'ilishida ustav kapitalini 4000 ming so'mga ko'paytirish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa quyidagi o'tkazmalar bilan aks ettiriladi.

MChJ ustav kapitalining ko'paytirilishi

Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so'm	Debet	Kredit
Jamg'arilgan foyda hisobiga ustav kapitali	4 000	8720	6610
ko'paytirildi	4 000	6610	8330

Shu tariqa, ustav kapitali miqdori 10 000 ming so'mni tashkil qiladi, biroq bunda har bir ishtirokchi ulushining miqdori o'zgarmaydi va ilgorigidek 45 va 55 % ga teng bo'ladi.

MChJ ustav kapitali miqdori ko'paytirilganda ishtirokchilar ulushlari

³⁷ O'zbekiston Respublikasining 06.12.2001 yildagi (N310-II) "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni 17-moddasi

nominal miqdorining o'zgarishi

Ishtirokchi	Ulush miqdori, %	Ustav kapitali miqdori quyidagicha bo'lganda ulushning nominal qiymati, ming so'm	
1-chi	45	2 700	4 500
2-chi	55	3 300	5 500
Jami	100	6 000	1 000

Ma'suliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining jamiyat barcha ishtirokchilari tomonidan qo'shimcha hissalar qo'shish hisobiga jamiyat ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qarorida qo'shimcha hissalarining muayyan umumiy qiymati, jamiyat har bir ishtirokchisining qo'shimcha hissasi qiymatining miqdori, ishtirokchilar tomonidan qo'shimcha hissalarini to'liq qo'shish muddati belgilanishi kerak.

Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qaror bilan bir vaqtda uning ta'sis hujjatlariga jamiyat barcha yoki ayrim ishtirokchilarining qo'shimcha hissalarini qo'shish hisobiga yoki jamiyatga uchinchi shaxsning qabul qilinishi, jamiyat ishtirokchilari ulushlarining nominal qiymati tegishli bo'lgan ko'paytirilishi yoki uchinchi shaxs ulushining nominal qiymati va miqdori aniqlanishi munosabati bilan o'zgartishlar, zarur hollarda, shuningdek jamiyat ishtirokchilari ulushining miqdorlari o'zgarishi bilan bog'liq o'zgartishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilinishi kerak. Bunda jamiyat ishtirokchisi ulushining nominal qiymati uning qo'shimcha hissasi qiymatidan ko'proq summaga ko'paytirilishi mumkin emas, jamiyatga qabul qilinadigan har bir uchinchi shaxs tomonidan olinadigan ulushning nominal qiymati uning hissasi qiymatidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Qo'shimcha hissalarini qo'shishning muddati tugagan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay jamiyat ishtirokchilarining qo'shimcha hissalarini yoki uchinchi shaxslarning hissalarini qo'shish yakunlarini tasdiqlash haqida, shuningdek jamiyat ustav kapitali miqdorini ko'paytirish, qo'shimcha hissalar qo'shgan jamiyat ishtirokchilari ulushlarining nominal qiymatini ko'paytirish va uchinchi shaxs ulushining nominal qiymati va miqdorlarini aniqlash, zarur hollarda jamiyat ishtirokchilari ulushlarining miqdorlari o'zgarishi bilan bog'liq o'zgartishlarni jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritish to'g'risida jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilinishi kerak.

Misol. Ustav kapitali miqdori 10000 ming so'mni tashkil qiladigan MChJ ustav kapitalini ishtirokchilarning qo'shimcha hissalarini hisobiga 6000 ming so'mga ko'paytirish to'g'risida qaror qabul qildi.

MChJ ishtirokchilari ulushlarining miqdori va nominal qiymati yuqoridagi jadvalda keltirilgan.

Ma'suliyati cheklangan jamiyat qarorida belgilanishicha, har bir ishtirokchi qo'shimcha hissalar umumiy qiymatining ushbu ishtirokchining jamiyat ustav kapitalidagi ulushi miqdoriga mutanosib qismidan oshmaydigan qo'shimcha hissasini ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oy ichida qo'shishi lozim.

Ustav kapitali 6000 ming so'mga ko'paytiriladi, tegishli bo'lgan, birinchi

ishtirokchi o'z ulushi nominal miqdorini 2700 ming so'mdan (6000 x 45 %) oshmaydigan summaga, ikkinchi ishtirokchi — 3300 ming so'mdan (6000 x 55 %) oshmaydigan summaga ko'paytirishga haqli. Ushbu chegaradan oshadigan summalar ishtirokchi ulushi nominal qiymatini ko'paytirmaydi hamda jamiyat tomonidan unga qaytarilishi yoki tekinga olingan mulk sifatida daromadga o'tkazilishi lozim.

Bir oy ichida birinchi ishtirokchi tomonidan qo'shimcha hissa hisobiga pul mablag'lari to'liq hajmda, ikkinchi ishtirokchi tomonidan uskuna kiritildi. O'zgartirishlar jamiyat ta'sis hujjatlariga kiritildi va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazildi.

MChJ ustav kapitalining qo'shimcha hissa hisobiga ko'paytirilishi

T/r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so'm	debet	kredit
1	1-chi ishtirokchi pul mablag'lari ko'rinishida qo'shimcha hissa qo'shdi	2700	5110	6630
2	2-chi ishtirokchi uskuna ko'rinishida qo'shimcha hissa kiritdi	3300	0890	6630
3	1-chi ishtirokchi tomonidan xissa kiritilganda ustav kapitalining ko'payishi	2700	6630	8330
4	2-chi ishtirokchi tomonidan hissa kiritilganda ustav kapitalining ko'payishi	3300	6630	8330

Ma'suliyati cheklangan jamiyat o'z ustav kapitalini kamaytirishga haqlidir. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yil mobaynida uning ustav kapitali to'liq to'lanmagan taqdirda, jamiyat o'zining ustav kapitalini amalda to'langan miqdorgacha kamaytirishini e'lon qilishi va uning kamaytirilganligini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishi yoki jamiyatni tugatish to'g'risida qaror qabul qilishi lozim.

Agar ikkinchi va har bir keyingi moliya yili tugaganidan keyin jamiyat sof aktivlarining qiymati jamiyatning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi sanasidagi holatga qonunda belgilangan ustav kapitalining minimal miqdoridan kam bo'lib qolsa, jamiyat tugatilishi kerak. Jamiyat sof aktivlarining qiymati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

MChJ ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kun ichida jamiyatning ustav kapitali kamaytirilgani va uning yangi miqdori haqida jamiyatning o'ziga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlarini yozma ravishda xabardor qilishi, shuningdek qabul qilingan qaror to'g'risida ommaviy axborot vositalarida xabar e'lon qilishi shart. Bunda jamiyat kreditorlari o'zlariga xabarnoma yo'llangan sanadan e'tiboran o'ttiz kun ichida yoki qabul qilingan qaror to'g'risida xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kun ichida jamiyat tegishli majburiyatlarini muddatidan ilgari tugatishini yoki ijro etishini hamda o'zlari ko'rgan zararining o'rnini qoplashini yozma ravishda talab qilishga haqlidirlar.

Jamiyat ishtirokchisi jamiyatning ustav kapitalidagi o'z ulushini yoxud uning bir qismini jamiyatning bir yoki bir necha ishtirokchisiga sotishga yoki

o'zga tarzda ular foydasiga voz kechishga haqlidir. Bunday bitimni tuzish uchun, agar jamiyat ustavida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, jamiyatning yoki jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligi talab qilinmaydi. Jamiyat ishtirokchisi, agar jamiyatning ustavida taqiqlangan bo'lmasa, o'z ulushini (ulushining bir qismini) uchinchi shaxslarga sotishi yoki boshqacha tarzda ularning foydasiga voz kechishi mumkin.

Jamiyat ishtirokchisining ulushi to'liq to'langunga qadar bo'lgan davrda u faqat to'langan qismi bo'yicha boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin.

Jamiyat ishtirokchilari jamiyat ishtirokchisining ulushini (ulushining bir qismini) uchinchi shaxsga taklif qilinadigan baho bo'yicha o'z ulushlari miqdorlariga mutanosib ravishda sotib olishda imtiyozli huquqdan, agar jamiyatning ustavida yoki jamiyat ishtirokchilarining kelishuvida mazkur huquqni amalga oshirishning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa, foydalanadilar. Agar jamiyatning boshqa ishtirokchilari ulushni (ulushning bir qismini) sotib olishda o'zlarining imtiyozli huquqlaridan foydalanmagan bo'lsalar, jamiyat o'zining ishtirokchisi tomonidan sotilayotgan ulushni (ulushning bir qismini) sotib olishda imtiyozli huquqqa ega bo'ladi.

O'z ulushini (ulushining bir qismini) uchinchi shaxsga sotish niyatida bo'lgan jamiyat ishtirokchisi ulushi sotiladigan bahoni va boshqa shartlarni ko'rsatgan holda bu haqda jamiyatning qolgan ishtirokchilarini va jamiyatning o'zini yozma ravishda xabardor qilishi shart. Jamiyatning ustavida xabarnoma jamiyat ishtirokchilariga jamiyat orqali yuborilishi nazarda tutilishi mumkin. Jamiyat ishtirokchilari va (yoki) jamiyat sotish uchun taklif qilinayotgan butun ulushni (ulushning butun qismini) sotib olishda imtiyozli huquqdan, shunday xabar berilgan kundan e'tiboran bir oy ichida foydalanmagan taqdirda (agar jamiyat ustavida yoki jamiyat ishtirokchilarining kelishuvida boshqa muddat nazarda tutilgan bo'lmasa) ulush (ulushning bir qismi) jamiyatga va uning ishtirokchilariga xabar qilingan baholarda va shartlarda uchinchi shaxsga sotilishi mumkin.

Ulushni jamiyat ishtirokchilari ulushlarining miqdorlariga nomutanosib ravishda sotib olishning imtiyozli huquqini amalga oshirish tartibini belgilovchi qoidalar jamiyat ustavida uni ta'sis etish chog'ida nazarda tutilishi, jamiyat barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilingan umumiy yig'ilishning qaroriga binoan jamiyatning ustaviga kiritilishi, o'zgartirilishi va jamiyatning ustavidan chiqarib tashlanishi mumkin.

Ulush sotib olishning imtiyozli huquqi buzilgan holda sotilgan taqdirda, jamiyatning istalgan ishtirokchisi va (yoki) jamiyat, agar jamiyatning ustavida ulushni sotib olishda jamiyat imtiyozli huquqqa egaligi nazarda tutilgan bo'lsa, bunday buzilishni bilgan yoxud uni bilishi lozim bo'lgan paytdan e'tiboran uch oy ichida sotuvchining huquqlari va majburiyatlarini o'zlariga o'tkazishni sud tartibida talab qilishga haqlidirlar. Mazkur imtiyozli huquqdan boshqaning foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

Jamiyatning ustavida jamiyat ishtirokchisining ulushini sotishdan boshqacha tarzda uchinchi shaxslar foydasiga voz kechish uchun jamiyatning yoki jamiyat qolgan ishtirokchilarining roziligini olish zarurligi nazarda tutilishi

mumkin.

MChJ ustav kapitalidagi ulushdan boshqa shaxsning foydasiga voz kechish, agar uni notarial shaklda amalga oshirish to'g'risidagi talab jamiyatning ustavida nazarda tutilgan bo'lmasa, oddiy yozma shaklda amalga oshirilishi kerak. Jamiyatning ustav kapitalidagi ulushdan o'zganing foydasiga voz kechish bo'yicha bitimning ushbu modda yoki jamiyatning ustavida belgilangan shakliga rioya etmaslik uning haqiqiy emas deb topilishiga olib keladi.

Jamiyat ustav kapitalidagi ulushdan boshqa shaxsning foydasiga voz kechilgani haqida bunday voz kechishning dalillarini taqdim etgan holda yozma ravishda jamiyat xabardor qilinishi lozim. Jamiyatning ustav kapitalidagi ulushni oluvchi mazkur voz kechish to'g'risida jamiyat xabardor qilingan paytdan e'tiboran jamiyat ishtirokchisining huquqlariga ega bo'ladi va majburiyatlarini amalga oshiradi.

MChJning ustav kapitalidagi ulushni oluvchiga jamiyat ishtirokchisining mazkur ulushdan voz kechishiga qadar yuzaga kelgan barcha huquqlari va majburiyatlari o'tadi.

Jamiyatning ustav kapitalidagi ulushlar jismoniy shaxslarning merosxo'rlariga va jamiyatning ishtirokchilari bo'lgan yuridik shaxslarning huquqiy vorislariga o'tadi. MChJning ishtirokchisi bo'lgan yuridik shaxs tugatilgan taqdirda, uning kreditorlari bilan hisob-kitob tugallanganidan so'ng qolgan unga qarashli ulush, agar qonun hujjatlarida yoki tugatilayotgan yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, tugatilayotgan yuridik shaxsning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanadi.

Jamiyatning vafot etgan ishtirokchisining merosxo'ri tomonidan meros qabul qilingunga qadar jamiyatning vafot etgan ishtirokchisi huquqlari vasiyatnomada ko'rsatilgan shaxs tomonidan, bunday shaxs bo'lmagan taqdirda esa notarius tayinlagan boshqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar jamiyatning ustavida jamiyatning ustav kapitalidagi ulushdan jamiyatning ishtirokchilari yoki uchinchi shaxslar foydasiga voz kechish, ulushning merosxo'rlariga yoki huquqiy vorislariga o'tishi yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning ishtirokchilari o'rtasida ulushning taqsimlanishi uchun jamiyat ishtirokchilarining roziligini olish zarurligi nazarda tutilgan bo'lsa, agar jamiyat ishtirokchilariga murojaat etilgan paytdan boshlab o'ttiz kun mobaynida yoki jamiyatning ustavida belgilangan boshqa muddat davomida jamiyatning barcha ishtirokchilaridan birortasidan rozilik olingan bo'lsa yoki jamiyat ishtirokchilarining birortasidan rozilik berishga yozma raddiya olingan bo'lmasa, bunday rozilik olingan deb hisoblanadi.

Agar jamiyatning ustavida jamiyatning ustav kapitalidagi ulushdan jamiyatning ishtirokchilari yoki uchinchi shaxslar foydasiga voz kechish uchun jamiyatning roziligini olish zarurligi nazarda tutilgan bo'lsa, agar jamiyatga murojaat etilgan paytdan e'tiboran o'ttiz kun mobaynida yoki jamiyat ustavida belgilangan boshqa muddat mobaynida jamiyatning yozma roziligi olingan bo'lsa, yoxud jamiyatdan rozilik berishga yozma raddiya olingan bo'lmasa, bunday rozilik olingan deb hisoblanadi.

3.3. Qo‘shilgan va rezerv kapitali xarakatini hisobda aks ettirish

Korxonalarining xususiy kapitalini shakllantirishda ustav kapitalidan tashqari qo‘shilgan kapital va rezerv kapitallari ham tashkil qilinadi.

Qo‘shilgan kapital hisobini yuritishdan maqsad xo‘jalik yurituvchi sub’ektning ro‘yxatga olingan sanasidan boshlab uning aktsiyalarini joylashtirishgacha bo‘lgan davr mobaynida faoliyatning qonuniyligini, barqaror faoliyat olib borishi, raqobatbardoshligi va ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishni ta‘minlashni investorlarga isbotlab, aktsiyalarni nominal qiymatidan yuqori sotilgan qismini hamda aktsiyalarni sotishdagi kurs farqlarini hisobda to‘g‘ri aks ettirishdan iborat.

Qo‘shilgan kapital aktsionerlik jamiyatlarida korxonalar aktsiyalarining nominal qiymatidan ortiq narxda sotish natijasida olingan emissiya daromadidan tashkil etilsa, mulkchilikning boshqa shakllarida esa ta‘sischilarning pul mablag‘laridan tashkil topadi.

Qo‘shilgan kapitalni hisobga oluvchi schyotlar oddiy va imtiyozli aktsiyalarni sotishdan olingan summalarining nominal qiymatidan oshiqcha summalarining, bundan tashqari bepul olingan mulklar qiymatining mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan.

Emission daromad – aktsiyalarning nominal qiymatdan oshiqcha bahosi bo‘yicha birlamchi sotishdan olingan emissiya daromadini aks ettiradi.

Qo‘shilgan kapital – bu tashkil etilayotgan xo‘jalikning daromad (foyda) olish maqsadini ko‘zlab, kiritilgan va kiritilayotgan dastlabki mablag‘larning Respublikamiz yuqori tashkilotlari hamda bozor talablari asosida yuzaga kelgan mulk tafovutlarini, qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mablag‘lardir.

Bundan tashqari qo‘shilgan kapital schyotida ustav kapitaliga qo‘yilgan qo‘yilmalarni to‘lashda hosil bo‘ladigan kursdagi farqlar summasi ham hisobga olinadi.

Qo‘shilgan kapitalning mavjudligi va harakati quyidagi schyotlarda hisobga olinadi.

8410 – “Emissiya daromadi”

8420 – “Ustav kapitalini shakllantirishda kursdagi farqi”

8410 – “Emissiya daromadi” schyoti – aktsiyalarning nominal qiymatidan yuqori olingan mablag‘lar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan.

Emissiya daromadi emitent tomonidan aktsiyalar dastlabki egalari aktsiyalarning realizatsiya narxi bilan nominal qiymati o‘rtasidagi farq sifatida joylashtirilganda (sotilganda) yuzaga keladi.

8410 “Emissiya daromadi” schyoti aktsiyalarni dastlabki sotishda nominal qiymatidan yuqori bahoda olingan mablag‘lar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan. Ushbu mablag‘lar kelib tushganda 8410 “Emissiya daromadi” schyoti kreditlanib, xususiy aktsiyalarni bekor qilishda sotib olish qiymati va nominal qiymati o‘rtasidagi farq qoplanganda esa ushbu schyot debetlanadi.

8410 “Emissiya daromadi” schyoti bo‘yicha analitik hisob oddiy va imtiyozli aktsiyalardan olingan daromadlar bo‘yicha alohida yuritiladi.

Misol (shartli). AJ ta‘sis hujjatlariga ko‘ra 1000 so‘m nominal qiymatida 1000000 dona aktsiya chiqarildi. Ular bir dona aktsiya uchun 1060 so‘m narx bo‘yicha sotildi.

Jamiyatning emissiya daromadi 60000 ming so‘mni (1060000-1000000) tashkil qiladi.

AJda emissiya daromadining shakllanishi

T/r	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so‘m	debet	kredit
1.	Aktsiyalar nominal qiymatiga	1000000	4610	8310
2.	Aktsiyalar nominal qiymatidan yuqori narxda sotilgan qismiga	60000	4610	8410
3.	Aktsiyalarga to‘lov amalga oshirilganda	1060000	5010, 5110, 0100 va boshqalar	4610

Qo‘shma korxonaning ustav kapitalini shakllantirishda ta‘sis hujjatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish paytidagi va ustav kapitaliga amalda valyuta hamda valyuta boyliklariga oid badallarni kiritish paytidagi valyuta kurslarining farqlanishi natijasida kursdagi tafovut yuzaga keladi. Ushbu kurs farqi 8420-“Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi” schyotida hisobga olinadi.

Ustav kapitalini shakllantirish uchun berilgan valyuta va valyuta qiymatliklari, ustav kapitaliga ulushlarni kiritish sanasidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha baholanadi. Valyuta va valyuta qiymatliklarini va boshqa mulklarni baholash ro‘yxatdan o‘tkazish sanasidagi ta‘sis hujjatlarida belgilangan baholardan farq qilishi mumkin. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt ustav kapitalini shakllantirishda Markaziy bank kurslarining o‘rtasida ta‘sis hujjatlari ro‘yxatdan o‘tkazilgan sanada va ustav kapitaliga mablag‘lar haqiqatda kiritilgan sanada vujudga keladigan ijobiy kurs farqi buxgalteriya hisobida qo‘shilgan kapital sifatida 8420-“Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi” schyotida aks ettiriladi. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt ustav kapitalini shakllantirishda Markaziy bank kurslarining o‘rtasida ta‘sis hujjatlari ro‘yxatdan o‘tkazilgan sanada va ustav kapitaliga mablag‘lar haqiqatda kiritilgan sanada vujudga keladigan salbiy kurs farqi 8420-“Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi” schyoti debetida ustav kapitalini shakllantirishda oldin vujudga kelgan ijobiy kurs farqi summaları doirasida aks ettiriladi. Ustav kapitalini shakllantirishda ijobiy kurs farqi summasidan oshgan salbiy kurs farqi summasi 9620-“Valyutalar kurslari farqidan zararlar” schyotining debetiga kiritiladi. Kurs farqlarini bu tartibda hisobdan chiqarilishi ta‘sis hujjatlarida oldindan kelishilgan, ustav kapitalidagi ta‘sischilarning ulushining o‘zgarishligiga imkon beradi.

Ustav kapitalini shakllantirishda hosil bo'lgan kursdagi farqlarning analitik hisobi har bir ta'sischi bo'yicha yuritiladi.

Qo'shilgan kapital hisobi schyotlari korrespondentsiyasi

№	Xo'jalik muomalarining mazmuni	Debet	Kredit	Tasdiqlovchi hujjatlar
1.	Aktsiyalarning emissiya va nominal qiymatlari o'rtasidagi farq qo'shimcha to'langan mablag'larning kelib tushishi	5010	8410	Kassa - kirim orderi, bank ko'chirmasi
2.	Sotib olish qiymatidan yuqori bahoga o'z aktsiyalarini qayta sotishdan mablag'larning kelib tushishi	5010 5020	8610 8620	Kassa - kirim orderi, bank ko'chirmasi
3.	Sotib olish qiymatidan past bahoga o'z aktsiyalarini qayta sotishda qo'shilgan kapital mablag'laridan foydalanish	8410	8610 8620	Ta'sisчилarning qarori, hisob-kitob schyotidan ko'chirma
4.	Kapitalni to'lash paytida ustav kapitalining shakllanishidan kelib chiqadigan ijobiy kurs farqining aks ettirilishi	4610 4890	8420	Buxgalteriya ma'lumotnomasi
5.	Kapitalni to'lash paytida ustav kapitalining shakllanishidan kelib chiqadigan salbiy kurs farqining aks ettirilishi	8420	4610 4890	Ta'sis hujjatlari, buxgalteriya ma'lumotnomasi

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, 8410-“Emission daromad” krediti bo'yicha faqatgina aktsiyalarning birlamchi emissiyasi paytidagi nominal qiymatidan ortiqcha summa hisobga olinadi. Mazkur summa foyda solig'iga tortish ob'ekti bo'lib hisoblanmaydi.

Misol (shartli ma'lumotlar asosida). Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi ma'suliyati cheklangan jamiyatning ustav kapitali ta'sis hujjatlariga muvofik 100 ming AQSh dollarini tashkil qiladi. Xorijiy ta'sischining ulushi 40 % ga teng. Ulush sifatida 40 ming AQSh dollari qiymatidagi uskunalar kiritiladi.

Dollar kursi quyidagicha bo'lgan:

- korxonani davlat ro'yxatdan o'tkazish paytida 1 AQSh dollari 3820so'm;
- ulushni kiritish paytida 1 AQSh dollari 3830 so'm.

152800 ming so'mga ($100000 \times 40 \% \times 3820$) teng bo'lgan ulush (uskuna) qiymati keyinchalik o'zgarmaydi. 400 ming so'm [$40000 \times (3830 - 3820)$] miqdoridagi kurs farqi 8420-«Ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi» schyotiga kiritiladi.

Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqini aks ettirish

T/R	Xujalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so'm	debet	kredit
1	Ro'yxatdan o'tkazish paytida MChJ ustav kapitaliga ta'sisчилarning	382 000	4610	8330

	ulushlari bo'yicha qarzi			
2	Mahalliy ta'rischi ustav kapitaliga ulush sifatida naqd pul bankka topshirdi	229 200	4610	8330
3	Xorijiy ta'rischi ustav kapitaliga ulush sifatida uskunalar kiritdi	152 800 400	0820 0820	4610 8420
4	Ustav kapitaliga ulush sifatida kiritilgan uskuna foydalanishga topshiriladi	153 200	0130	0820

Shuni ham ta'kidlash lozimki, xorijiy valyutada aks ettirilgan ustav kapitali oshirilganda (kamaytirilganda) ustav kapitalining faqat oshirilgan (kamaytirilgan) qismi qayta hisoblanadi. Milliy valyutaga qayta hisoblash ta'ris hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar ro'yxatdan o'tkazilgan sanadagi Markaziy bank kursi bo'yicha amalga oshiriladi.

Rezerv kapital - bu taqsimlanmagan daromaddan ajratmalar hisobiga tashkil etiladigan aktsiyadorlik jamiyati yoki xo'jalik shirkati xususiy kapitalining bir qismidir. Rezerv kapitali operatsion faoliyatdan kelib chiqqan zararlarni qoplash va/yoki sof daromad etarli bo'lmagan holatlarda dividendlar to'lash uchun foydalaniladi. Rezerv kapitalidan foydalanish va uni tashkil etish tartibi amaldagi qonunchilik va ta'ris hujjatlari bilan belgilanadi. Uning miqdori jamiyat ustav kapitalining 15 foizidan kam bo'lmasligi kerak. Rezerv kapitali har yili sof foydadan ajratmalar o'tkazish yo'li bilan jamiyat ustavida belgilangan miqdorga etguncha tashkil etiladi. Har yilgi ajratmalar miqdori jamiyatning ustavida nazarda tutiladi, lekin u jamiyatning ustavida belgilangan miqdorga etgunga qadar sof foydaning besh foizidan kam bo'lishi mumkin emas.

Jamiyatning rezerv kapitali uning zararlarini qoplash va jamiyat tomonidan jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushni (ulushning bir qismini) olish uchun mo'ljallangandir.

Aktsiyadorlik jamiyatining zaxira kapitali ko'rilgan zararni qoplash, jamiyat obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aktsiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va ushbu Qonunga muvofiq aktsiyalarni sotib olishni talab qilish huquqiga ega bo'lgan aktsiyadorlarning talabiga binoan aktsiyalarni sotib olish uchun mo'ljallanadi. Zaxira kapitalidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

Korxonaga ta'ris hujjatlariga asosan foyda hisobidan shakllantiriladigan rezerv kapitali (fond), mulkni qayta baholashdan yuzaga keladigan inflyatsiya rezervlari, pul mablag'laridan tashqari tekinga olingan mulklar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun 21-son BHMSga asosan quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

8510 - "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar";

8520 - "Rezerv kapitali (fondi)";

8530 - "Tekinga olingan mulk".

8510 "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyotida mulklarni qayta baholash natijasida vujudga kelgan o'zgarishlar hisobga olinadi. Mulklarni qayta baholash natijasida rezerv kapitalining shakllanishi va to'ldirilishi 8510 "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar"

schyotining kreditida qayta baholash natijasida qiymati oshgan mulklarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Mulkni qayta baholashda paydo bo‘lgan rezervlarning aks ettirilishi

T/r	Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
1.	Korxonalar mulkini qo‘shimcha baholash summasi (saldo) aks ettirilishi	0100; 0400	8510
2.	Mulk narxining arzonlashgan summasi avvalgi qo‘shimcha baholash summalarida aks ettirilishi	8510	0100; 0400
3.	Chiqib ketayotgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar qo‘shimcha baholash summasining hisobdan chiqarilishi aks ettirilishi	8510	9210; 9220
4.	Mulk narxining avvalgi qo‘shimcha baholash summasidan oshgan arzonlashgan summasi aks ettirilishi	9430	0100; 0400

Asosiy vositalarni qayta baholash hukumat yoki korxonalar mulkining egalari (ta‘sischilar)ning qarori bo‘yicha, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog‘ozlar va boshqa uzoq muddatli investitsiyalarni bozor qiymatiga qadar qayta baholash aktivlarning bozor qiymatining aniq belgilanishi sharti bilan korxonaning hisob siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar qayta baholash natijasida mulklarning qiymati kamaysa, kamaygan summa o‘sha mulkning navbatdagi qiymati oshishi hisobiga to‘ldiriladi va u 8510 “Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” schyotining debetida aks ettiriladi. Shu mulkning avvalgi qayta baholashdagi qiymatidan oshgan arzonlashtirilgan summa xarajat sifatida tan olinadi va 9430 “Boshqa operatsion xarajatlar” schyotida aks ettiriladi.

Masalan, transport vositasining boshlang‘ich qiymati 45000 ming so‘mga, eskirish qiymati 9000 ming so‘mga teng. 1,1 koeffitsient bilan qayta baholash natijasida transport vositasining boshlang‘ich qiymati 49500000 so‘m ($45000000 \times 1,1$)gacha, eskirishi qiymati esa 9900000 so‘m ($9000000 \times 1,1$)gacha oshgan. Transport vositasining boshlang‘ich qiymati o‘rtasidagi farq 4500000 so‘m ($49500000 - 45000000$)ga, eskirish qiymati o‘rtasidagi farq 900000 so‘m ($9900000 - 9000000$)ga teng.

Ushbu muomalalar hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 0160 4500000 so‘m;
Kredit 8510 4500000 so‘m,
Debet 8510 900000 so‘m;
Kredit 0260 900000 so‘m.

Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar ob‘ektlari chiqib ketishida 8510-“Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” schyotidagi qayta baholash saldosi daromadga kiritiladi hamda unga foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovi solinadi. Asosiy vositalarni tugatish (hisobdan chiqarish) chog‘ida olingan daromadlar yagona soliq to‘lovi hisob-kitobida soliq solinadigan bazadan chegiriladi (Soliq kodeksining 356-moddasi).

Mulkni qayta baholash bo‘yicha jamlangan summaning ta‘sischilar o‘rtasida

taqsimlanishi 8510 “Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar” schyotning debetida 6620 “Chiqib ketayotgan ta‘sischilarga ulushlari bo‘yicha qarzlari” schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

8520 “Rezerv kapitali (fondi)” schyoti korxonadan tomonidan ta‘sis hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tashkil etilgan rezerv kapitalining holati va xarakati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan.

Rezerv kapitali mablag‘lari imgiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash, aksiyadorlarning talabiga binoan aksiyalarni sotib olish, aksiyadorlik jamiyati obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, umumiy balans zararini, biror-bir noordinar operatsiyalar bo‘yicha kutilayotgan xarajatlarni qoplash uchun hamda qoplashning boshqa imkoniyatlari mavjud bo‘lmaganda qarzlarni hisobdan chiqarish va boshqa maqsadlarga ishlatilishi mumkin.³⁸

8520 “Rezerv kapitali” schyoti korxonadan tomonidan ta‘sis hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tashkil etilgan rezerv kapitalining holati va xarakati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan.

Rezerv kapitali mablag‘lari korxonadan zararlarini qoplash va boshqa qoplash manbalari bo‘lmagan boshqa maqsadlarga sarflanishi mumkin.³⁹

Rezerv kapitalining shakllanishi 8520 “Rezerv kapitali” schyotining kreditida 8710 “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

8530 “Tekinga olingan mulklar” schyoti korxonadan tekinga olingan mulkni hisobga olish uchun mo‘ljallangan.

Tekinga olingan mulklar 8530 “Tekinga olingan mulklar” schyotining kreditida korxonadan mulklarini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Tekinga olingan mulklar qiymati soliqqa tortish maqsadida umumiy korxonadan umumiy daromadiga qo‘shiladi.

Bepul olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar soliq to‘lovchining daromadi hisoblanadi. Soliq solish maqsadida daromadlar bozor qiymati bo‘yicha belgilanadi. Mol-mulk, mulkiy huquqlarning bozor qiymati hujjatlar bilan yoki baholovchi tomonidan tasdiqpanadi. Quyidagilar hujjatli tasdiqnoma deb e‘tirof etiladi:

- yuklab jo‘natish (etkazib berish) hujjatlari;
- etkazib beruvchilarning narxga oid ma‘lumotlari (prays-varaqlar);
- ommaviy axborot voeitalaridan olingan ma‘lumotlar;
- birja ma‘lumotlari;
- davlat statistika organlarining ma‘lumotlari.

Beruvchi tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash majburiyatlari yuzaga keladi. Bunda asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish ob‘ektlarini bepul berish realizatsiya bo‘yicha aylanma hisoblanmaydi va unga qo‘shilgan qiymat solig‘i solinmaydi.

³⁸ Gadoev E. va boshq. Yillik hisobot-2008. T.: NORMA, 2009. 355-bet.

³⁹ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 23.10.2002 yilda № 1181 bilan ro‘yxatga olingan 21-son BHMS “Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnomasi” 3-§ 353-band.

Tekinga olingan mulk korxonaning hisob siyosatiga muvofiq amortizatsiyalanadi (agar bu amortizatsiyalanadigan aktiv bo'lsa) hamda mol-mulk solig'ini hisoblashda hisobga olinadi.

Keyinchalik qayta sotish yoki bekor qilish maqsadida sotib olingan xususiy aktsiyalarning holati va harakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

8610 "Sotib olingan xususiy aktsiyalar - oddiy";

8620 "Sotib olingan xususiy aktsiyalar - imtiyozli"

Sotib olingan xususiy aktsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar 8300 "Ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar"ga nisbatan kontrpassiv schyot hisoblanib, aktsiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitali miqdorini kamaytiradi va balansda ustav kapitali summasidan chegiriladigan summa sifatida ko'rsatiladi.

Emitent tomonidan sotib olingan xususiy aktsiyalarning qiymati 8610 "Sotib olingan xususiy aktsiyalar - oddiy" va 8620 "Sotib olingan xususiy aktsiyalar - imtiyozli" schyotlarining debetida haqiqiy sotib olish bahosida pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Sotib olingan xususiy aktsiyalarni sotib olish bahosidan yuqori bahoda qaytadan sotganda o'rtadagi farq summasi 9590 "Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari" schyotiga kreditlanadi. Agarda sotib olingan xususiy aktsiya sotib olish bahosidan past bahoda qayta sotilsa o'rtadagi farq summasi 9690 "Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar" schyotining debet tomonida ko'rsatiladi.


Nominal qiymatidan past bahoda sotib olingan xususiy aktsiyalarni bekor qilishda ushbu qiymatlar o'rtasidagi farq 9590 "Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari" schyotining kreditida aks ettiriladi.

Agar bekor qilingan sotib olingan xususiy aktsiyalarning qiymati ularning nominal qiymatdan yuqori bo'lsa, unda farq 9690 "Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar" schyotining debetida aks ettiriladi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, sherikchilik va boshqalar sotib olingan xususiy aktsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (8600)ni korxonada tomonidan o'rnatilgan tartibda boshqa qatnashuvchilarga yoki uchinchi shaxsga berish uchun sotib olingan ustav kapitalidagi ulushni hisobga olish uchun foydalanadi.

3.4. Maqsadli tushumlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi

Maqsadli moliyalashtirish - bu mablag'larni ularni ajratgan shaxs qanday maqsadlarni ko'zlagan bo'lsa, o'sha maqsadlarda ishlatish uchun olish. Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra maqsadli moliyalashtirish - bu tadbirkorlik (shuningdektijorat) faoliyatining turli darajalarida pul mablag'larini nazorat ostida birtarkibiy birlikdan boshqasiga har qanday o'tkazish; korxonani rivojlantirishni moliyalashtirish (reklama kampaniyalari, kapital qurilish, faoliyatning yangi yo'nalishini rivojlantirish, boshqa investitsiyalar); maqsadli tadbirlarni o'tkazish uchun davlat organlaridan mablag'lar olish; notijrat tashkilotlariga hissa tariqasida mablag'lar olish va boshqalar. Maqsadli moliyalashtirish tushunchasi fuqarolik qonunchiligi tizimida muayyan shartnoma turi yoki muayyan moliyalashtirish manbasi turi bilan



bog‘liq emas⁴⁰.

Maqsadli moliyalashtirish mablag‘larining holati va harakati, shuningdek a‘zolik badallari va maqsadli yo‘nalish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan boshqa qaytarilmaydigan mablag‘larning kelib tushishi va sarflanishi to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 8810 – “Grantlar”;
- 8820 – “Subsidiyalar”;
- 8830 – “A‘zolik badallari”;
- 8840 – “Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari”
- 8890 – “Boshqa maqsadli tushumlar”.

Maqsadli moliyalashtirish mablag‘lari tarkibi

Ushbu maqsadli tushumlarni korxonaning xususiy kapitali sifatida aks ettirish shartlari quyidagilar hisoblanadi:

- a) mablag‘larning maqsadli yo‘nalish bo‘yicha ishlatilishi;
- b) mablag‘larni jalb qilish bilan bog‘liq xarajatlarning yo‘qligi;
- c) belgilangan shartlar bajarilganda qaytarib berilmasligi.

Grant - davlatlar, davlatlar hukumatlari, xalqaro va xorijiy hukumat tashkilotlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan ro‘yxatga kiritilgan xalqaro va xorijiy nohukumattashkilotlari tomonidan bepullik asosida O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan mol-mulk, shuningdek, bepullik asosida xorijiy fuqarolar va fuqarosi bo‘lmagan shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga beriladigan mol-mulk.

Aktivlarga kiritiladigan subsidiyalar - bu uzoq muddatli aktivlarni muayyan qurilish loyihalari uchun sotib olish yoki qurish maqsadida xo‘jalik sub’ektlari ajratadigan davlat subsidiyalaridir, ishga tushirish yoki xarid qilish muddatlari, ushbu aktivlarning muayyan joylashishi.

Daromadga kiritiladigan subsidiyalar - bu aktivlarga kiritiladiganlaridan tashqari, davlatning har qanday boshqa subsidiyalari.

Qaytarmaslik asosidagi ssudalar - bu kreditor qaytarishni talab qilmagan holda, muayyan shartlarga rioya qilib beradigan ssudalardir.

⁴⁰ “Finansovaya gazeta. Regionalniy vipusk”, 9-son, 2006 y. mart.

A'zolik badallarini odatda notijorat tashkilotlar ishlatadi. Notijorat tashkilotlar tomonidan ustav faoliyatining ta'minoti va uni amalga oshirish uchun olingan, belgilangan maqsadga ko'ra va (yoki) tekin kelib tushgan mablag'lar daromad deb qaralmaydi va ularga foyda solig'i solinmaydi⁴¹.

Boshqa maqsadli tushumlar — maqsadli tadbirlarga sarflanadigan mablag'lar manbai. Maqsadli tushumlar byudjetdan ajratilgan mablag'lar, otionalarning farzandlari maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalarida tarbiyalanganligi uchun to'lovlari va boshqa manbalar hisobiga tashkil bo'lishi mumkin. Maqsadli tushumlardan mablag'lari qat'iy belgilangan maqsadlar: bolalar muassasalarini asrash, madaniy muassasalar, bolalar ormgoxlari, kadrlar tayyorlash, xodimlarning malakasini oshirish, qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashish va boshqa tadbirlar uchun foydalanilishi mumkin.

Davlat subsidiyalari sifatida ajratilgan maqsadli moliyalashtirish mablag'lari quyidagilarga ishlatilishi mumkin:

a) uzoq muddatli aktivlarni (asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni va h.k.) xarid qilish, qurish yoki boshqacha yo'l bilan qo'lga kiritish bilan bog'liq kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish;

b) tashkilotning muntazam ravishda kompensatsiya qilinishi kerak bo'lgan joriy xarajatlarini qoplash (moddiy-ishlab chiqarish zaxiralarini sotib olish, xodimlar mehnatiga haqto'lash va shu turdagi boshqa xarajatlar);

c) tashkilot amalga oshirib bo'lgan sarf-xarajatlarni kompensatsiya qilish, xususan, uy-joy kommunal xo'jalikda, agrosanoat majmuasida [munitsipal uy-joy kommunal xo'jalik, davlat xo'jaligining munitsipal mulkchilik ijtimoiy sohasi ob'ektlarini issiqlik va energiya resurslari bilan ta'minlaydigan korxonalarini zararlarini qoplash qismida (xizmatlar uchun tariflar va xarajatlar o'rtasidagi farq)] va h.k.;

d) tashkilotni kelgusida sarf-xarajatlar qilmaslikka aloqador bo'lmagan favqulodda yordam ko'rinishidagi shoshilinch moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

e) davlat subsidiyalarini ajratish bo'yicha hukumat qarorlarida va hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa maqsadlar.

Korxonalar xo'jalik amaliyotida tez-tez uchraydigan, xo'jalik sub'ektlariga davlat subsidiyalarini berish hisobiga ularga ta'sir o'tkazishning asosiy maqsadlari va usullari quyida keltiriladi.

Davlat subsidiyalari ta'siri maqsadlari va usullari

Iqtisodiy maqsad	Iqtisodiy ta'sir ko'rsatish usuli
Ishsizlik darajasini pasaytirish	Yangi ish o'rinlarini yaratish va o'qitishga subsidiyalar
	Yangi zavodlar/korxonalar qurilishi va ish o'rinlarini yaratishga subsidiyalar
Turizmni rivojlantirish	Aviakompaniyalarga samolyotni qo'ndirish uchun to'lovga tortilmaydigan davrlar berish, mehmonxonalar qurilishini subsidiyalash

⁴¹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 129-moddasi. (yangi tahriri) 2007 yil 22 noyabrda tasdiqlangan.

Aholi sog'lig'ini muhofaza qilish	Xavfli materiallar va sanoat chiqindilarini, masalan, asbestni olib chiqib ketishni tashkillashtirishga subsidiyalar
Havoga SO ₂ ajralishini pasaytirish	Elektr energiyasi yo'qotishlarini qisqartirish bo'yicha tadbirlar uchun subsidiyalar berish hisobiga umumiy energiya iste'moli darajasini pasaytirish

Davlat subsidiyalarini tan olish tartibi va ularning buxgalteriya hisobi uslubiyati, shuningdek ular bo'yicha axborotni berish tartibi O'zbekiston Respublikasining 10-son buxgalteriya hisobi milliy standarti "Davlat subsidiyalarining hisobi va davlat yordami bo'yicha ko'rsatiladigan ma'lumotlar" bilan tartibga solinadi.

Korxonalar belgilangan talablarga mos ekanligiga va subsidiya olinishiga etarlicha ishonch bo'lmaganlikda davlat yordami tan olinmaydi.

Misol(shartli): 2 yil avval korxonalar ma'muriyat binosini rekonstruktsiya qilish uchun mahalliy hokimiyatdan qarz oldi. Qarz shartnomasiga qo'shimcha kelishuvga ko'ra, agar korxonalar o'z xonalaridan birini yoshlar ijodi ko'rgazmalarini o'tkazish uchun qayta hujjatlashtirsa va o'z zimmasiga bu xonani ko'rgazmalar o'tkazish uchun bepul berish majburiyatini olsa, hukumat qarzini so'ndirish majburiyatini to'xtatiladi. 2017 yil 1 dekabr gacha 1500000 ming so'm miqdoridagi qarzni to'lashdan ozod qilish uchun zarur barcha shartlar bajarilgan. Bu kompaniya buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 7820 1 500 000 ming so'm;

Kredit 9390 1 500 000 ming so'm.

Qaytarmaslik asosida muayyan shartlar bilan berilayotgan davlat ssudasiga xo'jalik sub'ekti ana shu shartlarni bajarishiga etarlicha kafolat mavjud bo'lgan taqdirda davlat subsidiyasi deb qaraladi.

Grant ajratilgan hollarda tegishli grant ajratuvchi tashkilot va fondlar tomonidan korxonaga xabarnoma yuboriladi. Ushbu xabarnomada ko'rsatilgan summaga korxonalar quyidagicha provodka beradi:

D-t 4890 "Boshqa debitorlarning qarzlari"

K-t 8810 "Grantlar"

Chet el valyutalarida olingan grantlar summasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan xo'jalik muomalalarini sodir bo'lish kuniga belgilangan kurs bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasiga aylantiriladi.

A'zolik badallari – notijorat tashkilotlar tomonidan ustav faoliyatining ta'minoti va uni amalga oshirish uchun olingan, belgilangan maqsadga ko'ra va (yoki) tekin kelib tushgan mablag'lar hisoblanadi.

A'zolik badallari sifatida kelib tushadigan maqsadli moliyalashtirish mablag'lari qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan ta'sis hujjatlarida (ustavda) ko'zda tutilgan maqsadlarga ishlatiladi.

8830 "A'zolik badallari" schyotida ta'sis hujjatlari bilan belgilangan jamiyat a'zolarining a'zolik badallari summasi aks ettiriladi.

A'zolik badallarining tushumi quyidagi provodka bilan rasmiylashtiriladi:

Debet Pul mablag'larini hisobga oladigan schyotlar

Kredit 8830 “A’zolik badallari”

8840-“Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari” schyotida maqsadli vazifalarni bajarish uchun soliq to‘lashdan ozod qilish natijasida bo‘shagan summalar aks ettiriladi. Soliq imtiyozlarining buxgalteriya hisobi “Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlarni byudjetga to‘lash bo‘yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom⁴² bilan tartibga solinadi. Qabul qilingan Nizom mulkchilik shaklidan, faoliyat turidan, idoraviy mansubligidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha birlashmalar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalarga tatbiq etiladi.

Maqsadli ishlatish sharti bilan beriladigan imtiyozlar hisobi 8840-“Maqsadli ishlatiladigan soliq imtiyozlari” schyotida, berilgan soliqlar va bojxona imtiyozlarining turlari bo‘yicha yuritiladi. Bunda maqsadli soliq imtiyozlarini batafsil hisobga olish uchun korxonalar ishchi schyotlar rejasining tegishli schyotlar guruhiga qo‘shimcha schyotlar kiritilishi lozim.

Soliqlar va bojxona imtiyozlari ikki turga bo‘linadi:

- korxonalar bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli foydalanish sharti bilan berilgan imtiyozlar;

- korxonalar bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatishning biror-bir shartisiz qo‘llash huquqiga ega bo‘lgan imtiyozlar.

Maxsus industrial zonalar qatnashchilari:

- foyda solig‘i, mol-mulk solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lashdan, kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi, shuningdek Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lashdan;

- respublikada ishlab chiqarilmaydigan loyihalarni amalga oshirish doirasida “Angren” MIZ hududiga Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha olib kiriladigan uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallar boj to‘lovlari (bojxona yig‘imlaridan tashqari) to‘lashdan ozod etiladi. Soliq va bojxona imtiyozlari kiritilgan investitsiyalarning hajmiga qarab 3 yildan 7 yilgacha muddatga beriladi, shu jumladan, ekvivalenti:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha bo‘lganda – 3 yil muddatga;
- 3 million AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha bo‘lganda – 5 yil muddatga;

- 10 million AQSh dollaridan ortiq bo‘lganda – 7 yil muddatga beriladi.

Prezidentning 27.01.2009 yildagi PQ-1048-son qarorining 3-bandi, Prezidentning 29.07.2011 yildagi PQ-1590-son qarorining 3-bandi va Prezidentning 4.10.2011 yildagi PQ-1623-son qarorining 5-bandiga asosan mahalliyashtirish dasturi loyihalari amalga oshirilayotgan korxonalar bo‘shayotgan soliq imtiyozlari berilgan bo‘lib, bunday korxonalar quyidagilarni to‘lashdan ozod etiladilar:

- mahalliyashtirish loyihalari bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo‘yicha foyda solig‘idan, yagona soliq to‘lovidan (soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo‘llaydigan sub’ektlar uchun);

⁴² O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2005 yil 2 aprelda 1453-son bilan ro‘yxatga olingan

– mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha mol-mulk solig'idan;

– chetdan olib kelinadigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan texnologik asbob-uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, shuningdek mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik jarayonida foydalaniladigan komponentlar uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvchi yig'imlaridan tashqari).

Mazkur imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shaydigan mablag'lar yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga, faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarishlarni kengaytirishga, rekonstruktsiya qilishga, modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga, korxonalarining muhandis-texnik xodimlarini rag'batlantirishga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini (ITTKI) moliyalashtirishga, shuningdek ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini pasaytirishga yo'naltirilishi shartdir.

Imtiyozni qo'llash tartibi tasdiqlangan mahalliyashtirish Dasturi loyihalari amalga oshirilayotgan korxonalar tomonidan soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risidagi nizom⁴³ bilan tartibga solinadi.

Bo'shaydigan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarishga yo'naltirish sharti bilan soliq imtiyozlari berilganida soliqlar umumbelgilangan tartibda qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab yoziladi. Biroq ular byudjetga o'tkazilmaydi, bo'shagan mablag'larni esa maqsadli vazifalarni bajarishga (sizning holatda - mehmonxonani rekonstruktsiya qilishga olingan kreditni uzishga) yo'naltirish kerak.

QQS ham, foyda, mol-mulk va er soliqlari singari, odatdagi tartibda hisoblab yoziladi. Hisobvaraqa-faktura QQSni ajratgan holda yoziladi. Byudjetga to'lanadigan soliq summasi soliq solinadigan oborotlar bo'yicha hisoblab yozilgan QQS summasi bilan hisobga kiritiladigan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Maqsadli ishlatish sharti bilan hisoblab yozilgan soliqlarni aks ettirish

№	Operatsiyalar mazmuni	Debet	Kredit
1.	Realizatsiya qilish oborotlaridan QQS hisoblab yozilgan	4010	6410
2.	QQS hisobga qabul qilingan	4410 6410	6010 4410
3.	Mol-mulk, yer soliqlari hisoblab yozilgan	9430	6410
4.	Foyda solig'i hisoblab yozilgan	9810	6410
5.	Maqsadli foydalanish sharti bilan hisoblab yozilgan soliqlar aks ettirilgan (8840-hisobvaraqaqqa hisobdan chiqarish)	6410	8840

Bo'shaydigan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarishga yo'naltirish sharti bilan soliq imtiyozlarining buxgalteriya hisobi 8840-“Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari” hisobvarag'ida berilgan imtiyozlarning turlari bo'yicha yuritiladi.

⁴³ AV tomonidan 17.05.2012 yilda 2365-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan

Soliq imtiyozlari hisoblab yozilayotganda batafsil hisobga olish uchun xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar hisobvaraqlarining ish rejasida soliqning har bir turiga (va unga doir bo‘nak to‘lovlari)ga alohida hisobvaraqlar ochiladi. Masalan, 6411-“Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz - soliq imtiyozlari (QQS)”, 6412-“Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz - soliq imtiyozlari (yer solig‘i)” va hokazo.

Kreditlarni uzishga maqsadli foydalanish bilan soliq imtiyozlarini hisobdan chiqarish

Operatsiya mazmuni	Debet	Kredit
Kreditlarni uzish chog‘ida maqsadli foydalangan holda mablag‘lar - soliq imtiyozlarini hisobdan chiqarish aks ettirilgan	8840-“Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari”	8530-“Tekinga olingan mol-mulk - soliq imtiyozlari hisobiga”

Ushbu provodka har yili yoki kreditni uzish muddati tugagach beriladi (biroq kredit shartnomalari bilan belgilangan muddatdan ko‘pga emas).

21-son BHMS uzoq muddatli kreditni uzayotganda qarzning mazkur hisobot davrida to‘lanadigan qismini uzoq muddatli qismidan joriy qismga o‘tkazishni tavsiya qiladi. Buning uchun 6950-“Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi” hisobvarag‘idan foydalaniladi, u 7810-“Uzoq muddatli bank kreditlari” hisobvarag‘i bilan korrespondentsiyada tegishli summaga kreditlanib, bunda majburiyatning boshlang‘ich summasi kamaytiriladi.

Misol. Korxonaga (umumbelgilangan soliqlar to‘lovchisi) rekonstruktsiyaga berilgan 95000 ming so‘m bank kreditini uzishga bo‘shagan mablag‘larni yo‘naltirish sharti bilan QQS, foyda, yer va mol-mulk soliqlarini to‘lashdan ozod qilingan.

Yil yakunlari bo‘yicha hisoblab yozilgan:

3 100 ming so‘m mol-mulk solig‘i;

2 500 ming so‘m er solig‘i;

11 500 ming so‘m foyda solig‘i.

Soliq solinadigan oborotlar bo‘yicha hisoblab yozilgan QQS summasi 12000 ming so‘mni tashkil qildi. Soliq solinadigan oborotlarda foydalaniladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha 4300 ming so‘m QQSni hisobga qabul qilgan.

Hisobot yilida korxonaga kreditning bir qismi - 22 000 ming so‘mni uzdi, kreditlar bo‘yicha foizlar - 1 600 ming so‘mni to‘ladi.

Muomalalarni provodkalarda aks ettirish

T\r	Xo‘jalik operatsiyasining mazmuni	Summa ming so‘m	Debet	Kredit
1.	Soliq solinadigan oborotlar bo‘yicha QQS hisoblab yozildi	12 000	4010	6410
2.	QQS hisobga qabul qilindi	4 300 4 300	4410 6410	6010 4410
3.	Hisoblab yozilgan: yer solig‘i; mol-mulk solig‘i	5 600 2 500 3 100	9430	6410

4.	Foyda solig'i hisoblab yozilgan	11 500	9810	6410
5.	8840-hisobvaraqa soliqlarning hisoblab yozilgan summolari hisobdan chiqarildi ((12000 - 4300) + 3100 + 2500 + 11500)	24 800	6410	8840
Soliq imtiyozlari summalarining hisobdan chiqarilishi				
6.	Kreditni uzishga yo'naltirilgan (maqsadli foydalanish) soliq imtiyozlarining summolari hisobdan chiqarilgan	22 000	8840	8530

Prezidentning "Sanoat kooperatsiyasi asosida 2011-2013 yillarda tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorining (29.07.2011 yildagi PQ-1590-son) 5-bandiga ko'ra imtiyozlar taqdim etilishi munosabati bilan bo'shaydigan mablag'lar quyidagilarga yo'naltiriladi:

- yangi ishlab chiqarishlarni barpo etish, faoliyat yuritayotganlarini kengaytirish, rekonstruktsiya qilish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga;

- sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga;

- korxonalarining muhandis-texnik xodimlarini rag'batlantirishga;

- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini (ITTKI) moliyalashtirishga;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxini pasaytirishga.

Shu sababli siz Mahalliyashtirish dasturi bo'yicha imtiyozlardan foydalanish natijasida bo'shagan mablag'lar hisobvarag'iga hisobdan chiqarayotgan xarajatlar moddalarini sinchiklab tahlil qilishingiz kerak bo'ladi. 8840-"Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari" hisobvarag'ida hisobga olinadigan bo'shagan mablag'lar summolari quyidagi tartibda hisobdan chiqariladi:

a) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy boyliklarni xarid qilish, kreditlar va qarzlarni so'ndirish, asosiy vositalarni rekonstruktsiya qilish va modernizatsiyalashga yo'naltirilganda:

8840-"Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari" hisobvarag'i debeti;

"Soliq va bojxona imtiyozlari" hisobvarag'ini ajratgan holda 8530-"Tekinga olingan mulk" hisobvarag'i krediti;

b) joriy majburiyatlar hosil bo'lishiga olib keladigan joriy xarajatlarni qoplashga yo'naltirilganda (ish haqini hisoblab yozish, ijara, davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar va hokazo):

8840-"Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari" hisobvarag'i debeti;

6010-"Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan hisobvaraqlar" yoki 6120-"Shu'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga to'lanadigan hisobvaraqlar" yoxud 6710-"Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar" yoki turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar (6900) krediti yoxud boshqa tegishli hisobvaraqlar.

4-mavzu. Majburiyatlar hisobi

Reja

- 4.1. Majburiyatlarning iqtisodiy mohiyati va mazmuni**
- 4.2. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda olingan schyotlar va majburiyatlar hisobining vazifalari**
- 4.3. Majburiyatlarning yuzaga kelishi va tan olinishi holatini buxgalteriya hisobida aks ettirish**
- 4.4. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda joriy va uzoq muddatli majburiyatlar hisobi**
- 4.5. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda olingan kreditlar hisobini yuritish**

Tayanch so‘z va iboralar:

4.1. Majburiyatlarning iqtisodiy mohiyati va mazmuni

Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil va samarali islohotlar natijasi o‘laroq iqtisodiy ko‘rsatkichlarning barqarorligi saqlanib qolinmoqda, bunga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida iqtisodiyotning modernizatsiya qilinishi, ishlab chiqarishni erkinlashtirish dasturining bekamu-ko‘st bajarilishi hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasida o‘zaro majburiyatlarning o‘z vaqtida ijro etilishi, to‘lov intizomiga amal qilinishini keltirishimiz mumkin.

Majburiyatlar miqtsori xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning faolidtini belgilab beruvchi muhim ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 234-moddasiga muvofiq, “Majburiyat- fuqarolik huquqiy munosabati bo‘lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, pul to‘lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o‘zini saqlashga majbur bo‘ladi, kreditor esa - qarzdordan o‘zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi»⁴⁴.

O‘z faoliyatini amalga oshirish uchun korxonada tasarrufida muayyan iqtisodiy resurslar - bozor talabi bilan ta’minlanadigan iqtisodiy ne’matlar, ishchilar chiqarish uchun foydalaniladigan elementlar mavjud bo‘lishi lozim.

Mulkdorlar tomonidan kiritilgan mablag‘larning (pul, moddiy yoki nomoddiy) umumiy summasi o‘z kapital deb ataladi. Resurslarning bir qismi mulkdor hisoblanmagan boshqalar tomonidan kiritiladi yoki korxonada bilan korrespondent aloqalarga kirgan yuridik va jismoniy shaxslardan (kreditorlar, mol etkazib beruvchilar) jalb qilingan mablag‘larni tashkil qiladi.

Jalb qilingan kapital sifatida xo‘jalik sub’ektining jismoniy yoki yuridik shaxslar oldidagi qarzdorligi natijasida, ya’ni firmaning o‘rnatilgan muddatda

⁴⁴ O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 234-moddasi.

olingan iqtisodiy resurslarni yoki ularning pul ekvivalentini (tomonlar kelishuviga binoan), shuningdek, ularga hisoblangan mukofotlarni (agar shartnomada bu nazarda tutilgan bo'lsa) egalariga (qarz beruvchilarga) qaytarish majburiyati yuzaga keladi.

Majburiyat - bu xo'jalik sub'ektining amalga oshirilgan harakatlari (bitimlar) natijasida shakllangan jalb qilingan mablag'lar manbai bo'lib, tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar yoki bajarilgan yshlar uchun kelgusi to'lovlar uchun yuridik asos sifatida xizmat kiladi. Tenglamaning o'ng va chap tomoni miqdori doimo moe keladi, chunki aynan bir narsa turli nuqtai nazar bilan ko'rib chiqiladi.

“Majburiyat” tushunchasiga berilgan ko'plab ta'riflarning tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda har bir ta'rif o'z muallifining fikr va qarashlarini tasdiklash maqsadida shakllantirilgan bo'lib, ularda bu tushuncha bilan bog'liq ko'plab jixatlari bir tomonlama alohida asoslangan holda ko'rsatilgan. Holbuki, ilmiy kategoriya va tushunchalar o'rganilayotgan sohaning muhim jixatlarini qamrab olishi, ixcham, sodda va qulay tuzilishga ega bo'lishi fanning ham, amaliyotning ham samarasini yanada oshiradi. Bitiruv malakaviy ishida "majburiyat" tushunchasini tadqiq etishda mavjud ta'riflarning qiyosiy tahlili asosida ularning asosiy jihatlarini umumlashtirishga xarakat qilingan.

Yuqoridagilarni umumlashtirib majburiyatlarni tavsiflovchi quyidagi holatlarini keltirish mumkin:

- majburiyatlar - avval bo'lib o'tgan xo'jalik muomalalari natijasidir;
- majburiyatlar - bir korxonaning ikkinchisiga bo'lgan qarzdorligidir;
- majburiyatlar - korxonaning aktivlarining kamayishiga sabab bo'luvchi, undiriluvchi qarzdorlikdir.

“Majburiyat” tushunchasining asosiy ta'riflarini muayyan tizimga asoslangan tahlili natijasida quyidagi xulosaga kelindi “majburiyat bir korxonaning ikkinchisiga bo'lgan qarzdorligini ko'rsatuvchi, ularning so'ndirilishi esa, qarzdor korxonaning aktivlarini kamaytiruvchi, oldindan yuz bergan xo'jalik muomalalarning natijasidir”.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda majburiyatlarning yuzaga kelish sabablarini quyidagicha tarkiblash mumkin:

- iqtisodiy aloqaga kirishayotgan korxonalar tomonidan shartnomaviy majburiyatlarni belgilashga ma'suliyatsizlik bilan yondashuvi, natijada, shartnoma shartlarini bajarmaganligi uchun vujudga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy holatlarning shartnoma shartlarida aniq ko'rsatilmaganligi;

- majburiyatlarning o'z vaqtida, to'liq va aniq hisobi yuritilmasligi;
- mahsulot, ish va xizmatlarni sotishda hisob-kitoblarning zamonaviy shakllaridan keng foydalanmaslik;
- korxonalarining moliyaviy ahvolini mukammal tarzda tahlil qilinmasligi hamda ularning natijalarini boshqaruv xodimlariga o'z vaqtida taqdim etilmasligi;
- o'zaro hisob-kitoblarda tomonlarning to'lov layoqati pastligi;
- kredit tashkilotlari bilan mijoz o'rtasida bo'ladigan munosabatlarda korxonalar faoliyatini baholashdagi kamchiliklarning mavjudligi.


Bizning fikrimizcha majburiyat uchta asosiy xususiyatga ega bo'lishi kerak:

- majburiyat, boshqa sub'ektga aktivlarning o'tkazilishi, ishlar bajarib berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi yoki hisob-kitob raqamidan pul to'lab berilishi bilan qondirilishi mumkin;
- majburiyatlar munozarali bo'lmasligi kerak, ya'ni korxonada tomonidan tan olingan qarzidorlik majburiyatlar bo'lib hisoblanadi;
- majburiyatning kelib chiqish sababi sub'ektiv omil tufayli bo'lmasligi kerak.

Birinchi holatda, majburiyatlarni qarzidor korxonada tomonidan albatta to'lanishi lozimligi nazarda tutilgan. Ularning o'z vaqtida to'lanmasligi turli salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, qarz bergan korxonada o'z haqini talab qilib, xo'jalik sudiga murojaat qilishi mumkin. Buning natijasida, qarzidor korxonada sudda yutqazib qo'yishi hamda sud jarayoni bilan bog'liq xarajatlarni, qarz summasini, qarzni o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun sud tomonidan belgilangan jarima summasini va etkazilgan ma'naviy zararni qoplab berishiga to'g'ri keladi. Bu holat korxonada katta zarar etkazib, uning moliyaviy ahvolini yomonlashishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun majburiyatlarni, o'z vaqtida mahsulot etkazib berish, xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarib berish yoki pul to'lovi orqali undirib borilishi talab qilinadi.

Ikkinchi holat, qarzidor korxonada ham, qarz beruvchi korxonada ham majburiyat miqdori bir hil bo'lishi hamda ushbu majburiyat har ikkalasi tomonidan tan olingan bo'lishini anglatadi.

Qarzidorlikning kelib chiqish sababi o'rinli bo'lishi kerak deyilganda, majburiyat paydo bo'lishi uchun qarz bergan korxonada tomonidan qarzidor korxonada mahsulot etkazib berilgan, xizmat ko'rsatilgan, ishlar bajarib berilgan yoki pul ko'rinishida to'lov amalga oshirilgan bo'lishi kerak. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zaro iqtisodiy munosabatga kirishishlari natijasida paydo bo'lgan majburiyatlarini o'z vaqtida, aniq va to'g'ri hamda turlarga ajratgan holda hisobga olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, majburiyatlarni o'z vaqtida va aniq hisobga olib bormasligi korxonada uchun keyinchalik yuqorida aytib utilgan bir qator unumsiz xarajatlarni keltirib chiqaradi.




Korxonalarda kreditorlik qarzlarning mohiyati va yuzaga kelishiga ko'ra turlari

Kreditorlik qarzi tashqaridan mablag'lar kelishi hamda xo'jalik faoliyati jarayonida qarz paydo bo'lib, uning yozilishi natijasida vujudga keladi. Masalan,

byudjetga qarzar soliqlar hisoblanishi natijasida, mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzar ish haqi hisoblash bilan yuzaga chiqadi va hokazo.

Kreditorlik qarzi tashqaridan mablag‘lar kelishi hamda xo‘jalik faoliyati jarayonida qarzar paydo bo‘lib, uning yozilishi natijasida vujudga keladi. Masalan, byudjetga qarzar soliqlar hisoblanishi natijasida, mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzar ish haqi hisoblash bilan yuzaga chiqadi va hokazo. Bu qarzar shu korxonada hosil qilingan qo‘shimcha qiymat evaziga yoki uning qayta hisoblanishi hisobiga vujudga keladi. Kreditorlik qarzining ushbu guruhi bo‘yicha qarzar xo‘jalik faoliyati jarayonida yozilganida paydo bo‘ladi, qarzar olingan daromadlar hisobiga to‘lanadi.

Qarzar korxonaning turli bitimlarni bajarishi natijasida vujudga keladi va tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar yuzasidan kelgusidagi to‘lovlar uchun huquqiy asos bo‘lib hisoblanadi.



Joriy kreditorlik qarzlari tarkibi.⁴⁵

I.A.Zavalishinani fikricha, qarzar, qo‘llanishi iqtisodiy foydaning kamayishiga, ya‘ni amaldagi aktivlarning kamayishiga olib kelishiga ishonch mavjud bo‘lgan, hisobot davrida yoki o‘tgan davrlarda yuzaga kelgan kreditorlik qarzlari va boshqa qarzlardir. Qarzar tashkilot tomonidan amalga oshirilgan turli bitimlar natijasida vujudga keladi hamda tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar va

⁴⁵ Buxgalteriya balansiga asosan muallif ishlanmasi

bajarilgan ishlarga bo'lg'usi to'lovlar uchun yuridik asos hisoblanadi.⁴⁶

1-sonli BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot"ga binoan qarzlarni baholashning asosi bo'lib, sotib olingan aktivlar, xizmat va ishlarning tannarxi yoki qiymati hisoblanadi.

Qarzarlar qisqa (joriy) va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Joriy qarzarlar—bu kreditor talabiga ko'ra bir yil ichida to'lanadigan qarzlardir. Uzoq muddatli qarzlarga to'lov muddati bir yildan ortiq bo'lgan qarzarlar kiradi.

4.2. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda olingan schyotlar va majburiyatlar hisobining vazifalari

Majburiyat - fuqarolik huquqi me'yorlari - fuqarolik huquqiy munosabatlari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlarning eng keng tarqalgan shaklidir. Majburiyat-huquqiy munosabat bo'lib, uning ta'sirida bir tomon (qarzdor) boshqa tomon (kreditor) foydasiga, masalan, mulkni o'tkazish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash kabi muayyan harakatni bajarish yoxud muayyan harakatdan chetlanishga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega. Majburiyatlar tegishli ravishda va o'rnatilgan muddatda qonun va shartnoma ko'rsatmalariga muvofiq, bunday ko'rsatmalar mavjud bo'lmaganda esa - odatda qo'yiladigan talablarga muvofiq tarzda bajarilishi lozim. Majburiyatlarni bajarish muddati va usuli qonun yoki shartnoma asosida o'rnatiladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullariga quyidagilar kiritiladi: jarima, garov, kafillik, kafolat, chegirib qolish.

Shunday qilib, majburiyatlar vositasida tadbirkor o'z ishini oqilona tashkil etgan holda uni barcha zaruriy narsalar bilan ta'minlaydi, uz tovarini sotadi va buning oqibatida boshqa shaxslar oldida yuzaga kelgan majburiyatlarni bajaradi. Korxonalar majburiyatlarini hisoblash tizimiga makroiqtisodiy yondashuv hisobot ma'lumotlarini taqdim etish metodlarining tarmoq va umuman mamlakatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashdan iborat. Milliy iqtisodiy maqsadlar iqtisodiy tanazzul vaqtida kapital qo'yilmalarni ko'payishini rag'batlantiruvchi moliyaviy hisobotni talab etadi.

Buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan majburiyat xo'jalik faoliyatida yuz bergan voqeani o'zida aks ettirib, bu axborot moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga taqdim etilishi lozim. O'z navbatida, majburiyatlar paydo bo'lishi, o'zgarishi va bekor qilinishi holatlari moliyaviy hisobotda umumiy yondashuvlar bilan aniqlanadi.

Korxonalar xo'jalik faoliyati faktlarining umumiy majmui qismi sifatida iqtisodiy yoki yuridik faktlar haqida gapira olamiz. Bunda buxgalteriya axborotlaridan tashqari iqtisodiy yoki yuridik mazmunli faktlar bir-biridan mustaqil ravishda ko'rib chiqilishi mumkin.

Korxonalar xo'jalik operatsiyalari va boshqa xo'jalik faoliyati faktlarini ko'rib chiqishda ikki ko'rish burchagi ostida odatda ularning mutlaqo farqli talqinini olamiz. Masalan, korxonaga etkazib beruvchilardan mol-mulk tushumi

⁴⁶ I.A.Zavalishina. Yangicha buxgalteriya hisobi. T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi".2003 y, 327-bet.

iqtisodiy nuqtai nazardan firma mablag‘lari hajmi ortganini, uning ishlab chiqarish quvvatlari va potentsiali o‘shishini anglatadi. Mol etkazib beruvchilar oldida qarzdorlikning yuzaga kelishi ular tomonidan korxonaga taqdim etilgan qarz xajmining oshishini anglatadi. Firmaning ixtiyoriy qarzi yuzaga kelganidan tortib to qaytarilgunga qadar amalda tashkilot tomonidan olingan qarzni o‘zida aks ettiradi. Ixtiyoriy foizlardan xoli kreditorlik qarzi - korxonalarining vaqtinchalik daromadi hisoblangan bepul qarzdir.

“Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning kontseptual asoslari” deb nomlangan O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartida majburiyatni odatda, aktiv olinganda yoki xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt aktivni sotib olish to‘g‘risida bitimga kirishgan daqiqadan paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatilgan.

Majburiyatlarning yuridik va iqtisodiy mazmuni xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar majburiyatlarining moliyaviy hisobot maqsadlari uchun zarurligini taqozo etadi. Hisob nazariyasida majburiyatlar asoslar bo‘yicha tasniflangan bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, majburiyatlarni quyidagicha guruhlashni taklif qilamiz:

- 1) ularda hisob sub‘ektlari - korxonalarining ishtirok etishi varianti bo‘yicha;
- 2) tashkilotning moliyaviy ahvoriga ta‘sir ko‘rsatishi davomiyligi bo‘yicha;
- 3) muddatlari bo‘yicha;

Iqtisodiy ma‘nosiga ko‘ra majburiyatlar korxonaga tomonidan olingan yoki olinishi mumkin (kreditorlik qarzi), taqdim etilgan va taqdim etilishi mumkin (debitorlik qarzi), kelgusida monetar kabi nomonetar aktivlar oqimini shakllantiruvchi qarzlarning hajmini o‘zida aks ettiradi.

Masalan, mol etkazib beruvchilardan pulni kelgusida to‘lash sharti bilan tovarlar olishda xaridor amalda ushbu tovarlarga egalik huquqi yuzaga kelganidan to mol etkazib beruvchilarga pul o‘tkazilguncha bo‘lgan muddatga qadar amalga oshirilgan etkazma hajmida qarz oladi. Buning ustiga, agar tuzilgan shartnoma shartlarida tijorat kreditlash yoki mol etkazib beruvchilar yo‘qotishlarini qoplashning boshqa variantlari ko‘zda tutilmasa, pulning vaqt bo‘yicha qiymati omili ta‘sirida xaridor mol etkazib beruvchilardan mutlaqo bepul qarz oladi.

Shunga o‘xshash sotuvchi kelgusida tulash sharti bilan tovar sotishda tovar sotilganidan to xaridor tomonidan pul to‘langunga qadar muddat mobaynida bir tomondan tovarga egalik huquqini yo‘qotadi, ikkinchi tomondan, sotilgan mulk narxini tashkil etuvchi pulga ega bo‘lmaydi. Shundan kelib chiqilsa, moliyaviy hisobotda aks ettirilgan debitorlik qarzi amalda korxonaga aylanmasidan chiqarilgan (chetga jalb qilingan) mablag‘ hajmini ko‘rsatadi.

Majburiyatlar iqtisodiy talqini buxgalteriya axborotlarini shakllantirishda ularni baholashga pulning vaqtinchalik qiymati tamoyiliga qurilgan mutanosib yondashuvlarni taqozo etadi. Baholash miqdorlarining hisob-kitobi bu erda yo “bugungi” summalarni “ertangi” pullarda hisoblashni - o‘stirish jarayonini, yoki “ertangi” summalarni “bugungi” pullarda - diskontlash jarayonini talab qiladi. Bunday yondashuv (albatta muayyan darajadagi nisbiylik bilan) majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan to ular qaytarilguncha bo‘lgan davr uchun olinishi lozim

bo‘lgan summaning qanchalik qadrsizlanishini ko‘rishga imkon beradi.

Majburiyatlarning huquqiy jihatdan tartibga solish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va boshqa me‘yoriy hujjatlarda o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 4 martdagi PF-1938-sonli “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiy nochorligi va shartnoma majburiyatlarining bajarilishi uchun mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Farmoni korxon va tashkilotlarning iqtisodiy nochorligi uchun xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar mansabdor shaxslarining mas‘uliyatini kuchaytirish, shartnomalarning o‘z vaqtida tuzilishi va belgilangan majburiyatlarning lozim darajada bajarilishini ta‘minlash maqsadida qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 apreldagi 177 sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiy nochorligi va shartnoma majburiyatlarining bajarilishi uchun mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytirish to‘g‘risida” 1998 yil 4 martdagi PF-1938-son farmonining bajarilishini ta‘minlash chora-tadbirlari haqida”gi Qarori ham respublikamizda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning shartnoma majburiyatlarini bajarishga qaratilgan.

Bundan tashqari Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 14 apreldagi “Muddati o‘tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish va byudjetga to‘lovlar intizomini mustahkamlash bo‘yicha respublika komissiyasi to‘g‘risida nizom” haqida 182-son qarori qabul qilingan. Mazkur Qarorga binoan Komissiya o‘z faoliyatini to‘lovlar intizomini mustahkamlash, muddati o‘tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksni yshlab chiqish va amalga oshirish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi to‘lovlar va hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish, byudjetga hamda davlat maqsadli fondlariga soliqlar va majburiy to‘lovlarning o‘z vaqtida tushishini ta‘minlash, byudjetga hamda davlat maqsadli fondlariga qarzlarni qisqartirish va ular vujudga kelishining oldini olish, keyinchalik ushbu chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish maqsadida olib boradi.

Joriy qarzlarni so‘ndirish ushbu qarzlarni mavjud bo‘lmaganda sub’ektlarning kundalik faoliyatida foydalanishi mumkin bo‘lgan resurslarni qo‘llashni taqozo etadi. Aynan shu jihati bilan ular uzoq muddatli qarzlardan farq qiladi. Joriy qarzlarni so‘ndirish uchun joriy aktivlardan foydalanilgani sababli ularning mavjud bo‘lish davri ko‘pincha bir xilda – bir yildan ortiq bo‘lmaydi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarida mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitob muomalalari hisobining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- hisob-kitob muomalalarini o‘z vaqtida hisobga olish;
- o‘zaro hisob-kitob muomalalarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri xujjatlashtirish;
- mol etkazib beruvchiilar bilan o‘z vaqtida, shartnomada belgilangan hisoblashish shakllariga amal qilishni nazorat qilish;
- qarzlarni qaytarish muddatidan o‘tkazib yubormaslik maqsadida debitor va kreditorlar bilan olib boriladigan hisob-kitoblarni o‘z vaqtida solishtirish;

- hisob-kitob to'lov imtizomiga rioya qilinishi ustidan nazorat olib borish.

4.3. Majburiyatlarning yuzaga kelishi va tan olinishi holatini buxgalteriya hisobida aks ettirish

Buxgalteriya schyotlarida aks ettirilgan foyda va xarajatlar majburiyatlarning buxgalteriya rekonstruktsiyasi natijalaridan tashkil topgan; ular korxonaga xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasini o'zgartiradi. Iqtisodiy, yuridik va buxgalteriya nuqtai nazaridan korxonaga shajburiyatlarining oqibatlari tarzida qaraladigan foyda va xarajatlar kategoriyalarini tahlil qilish mumkin.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, foyda - berilgan qarz natijasida mablag'larning firma ixtiyoriga kirishi hisoblanadi. Bu talqinda kreditor qarzdorlik o'sishi bilan bog'liq aktivning (mablag'lar) har qanday o'sishi foyda deb tan olinadi.

Mablag' buxgalteriya hisobida aktivlar tushunchasiga kiradigan firmaning xo'jalik operatsiyalarida unga foyda keltirib, qatnasha oladigan mulkdir, ayni paytda bu foyda firma mablag'lari hajmini oshirish tarzida talqin qilinadi. Bu holda mablag'larni ishlatish imkoniyati mulk huquqini yaratadigan foydalanish huquqini emas, balki mablag'larni o'zining iqtisodiy faoliyatida ishlatish imkoniyatini anglatadi. Masalan, uskunalarni ijaraga olayotib, firma mulk huquqi tegishli bo'lgan uskunada mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Demak, bu nuqtai nazardan, ya'ni ishlab chiqarish vositasining xo'jalik faoliyatidagi roli pozitsiyasidan, ijaraga olingan uskuna to'laligicha korxonaga xususiy asosiy vositalariga tenglashtiriladi. Demak, ushbu fikrlarni umumlashtirib, aytish mumkinki, iqtisodiy talqinda xarajat - korxonaga egaligidan mablag'ning (aktivlar) har qanday chiqarib yuborilishi, ya'ni xarajat - aktivning korxonaga tomonidan o'zining kontragentlariga qarz berishi bilan bog'liq kamayishi hisoblanadi. Ayni paytda qaysi operatsiyalar natijasida bunday kamayish yuz berishining mutlaqo ahamiyati yo'q. Chunki bu mablag'lar xo'jalik aylanmasidan chiqarib yuboriladi va mana shuning o'zi bu faktni xarajat deb tan olish uchun etarli asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, iqtisodiy nuqtai nazardan korxonaning mahsulot sotishi, ish yoki xizmatlar ko'rsatishi va xaridorlarda ular uchun to'lashdan oldin qarz paydo bo'lishining o'zi xarajatlardan boshqa narsa bo'lishi mumkin emas. Korxonaga xaridorga mol beradi (korxonaga mablag'ining hajmi kamayadi), ma'lum bir vaqtgacha esa o'rniga pul olmaydi.

Yuridik nuqtai nazardan moddiy aktivlar yoki nomoddiy mulk (intellektual mulk) kirimi hamda debitorlarning kreditorlar oldidagi majburiyatlari paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lmagan majburiyatlarining paydo bo'lishi ham foyda deb hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, kirim - korxonaning biror narsaga huquqi, foyda esa o'xshash huquqlarning yo'qotilishi bilan bog'liq bo'lmagan huquqlarning ko'payishi hisoblanadi.

Yuridik nuqtai nazardan xarajatlar moddiy aktivlar yoki nomoddiy mulkning (intellektual mulk) chiqib ketishi hamda kreditorlar oldida majburiyatlarning paydo bo'lishi va foydaning esa debitorlarning korxonaga oldidagi majburiyatlari paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lmagan qismida mulkning chiqib ketishi sifatida belgilanadi. Shunday qilib, yuridik nuqtai nazardan korxonaning xo'jalik

faoliyatida band bo'lgan mablag'ining real harakati emas, balki korxonaning bu vositalar bilan bog'liq huquqdari va majburiyatlarining dinamikasi muximdir. Demak, agar iqtisodiy nuqtai nazardan mollarning xaridorlardan to'lovlarni olishga qadar sotilishi - xarajat - mablag'larning xo'jalik aylanmasidan chiqishi bo'lsa, yuridik nuqtai nazardan bu fakt xaridorning pul to'lash majburiyati ko'rinishidagi kirimni bildiradi.

Bitim bo'yicha ishlarning bajarilishidan kirimni tan olish momenti sifatida bevosita buyurtmachidan pulni olish momentini ko'rsatishimiz mumkin. Faqat buyurtmachi qarzni uzgandan so'nggina biz amalga oshirilgan kelishuv sotuvchi firmaning mablag'lari hajmini qanchaga oshirganini, ya'ni kirim qancha bo'lganini aniq ayta olamiz. Bu yondashuv ehtiyotkorlik talabiga o'liq javob beradi. Demak, ishlar bajarilishi faktining o'zi kirim bo'lishi deb tan olinmasligi lozim. Gap shundaki, bu holda buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan nafaqat faoliyatning rejalashtirilayotgan rivoji chegaralarini, balki bajarilgan kelishuvlar bilan bog'liq kelgusi pul oqimlarining hajmlarini ham bilolmaymiz.

Etkazib beruvchiga pul o'tkazish momenti xarajatlar paydo bo'lishining (tan olishning) momenti deb hisoblanishi mumkin. Bu erda shuni e'tirof etish kerakki, iqtisodiy nuqtai nazardan so'nggi yondashuv buxgalteriya hisobi ma'lumotlari yordamida qarz hajmini ko'rsatish imkonini bermaydi, xaridor uni mollarni olish momentidan to ular uchun pul to'lash muddatigacha etkazib beruvchidan oladi.

Odatiy faoliyat jarayonida korxonalar majburiyatlarini baholash quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Balansda majburiyatlar baholanishi

Majburiyatlar turi	Baholash
Ta'minot	Mos majburiyatlarni qaytarish uchun zaruriy resurslarning hisob bahosi (kutilgan tovonlar summasi chegirilgan holda).
Foiz hisoblanadigan uzoq muddatli majburiyatlar	Haqiqiy qiymat - majburiyatlarni so'ndirish uchun zarur bo'lishi kutilgan bo'lg'usi to'lovlarning diskontlangan summasi (kutilgan tovonlar summasi chegirilgan holda) bo'yicha baholash.
Joriy majburiyatlar	Qaytarish summasi - pul mablag'ining diskontlanmagan summasi yoki majburiyatlarni so'ndirish uchun to'lanishi kutilgan ekvivalenti bo'yicha baholash.
Kelgusi davr daromadlari	Olingan yoki olishga taalluqli aktivlarning haqqoniy qiymati bo'yicha baholash.

Qarz kapitalining alohida tarkibiy elementlari qiymati va ushbu elementlar har birining umumiy summadagi solishtirma og'irligi bahosi korxonaga qarz kapitalining o'rtacha o'lchangan qiymati bilan aniqlanishi mumkin. Aksariyat majburiyatlar shartnoma bilan qayd qilinadi.

Umumiy qoidalarga binoan korxonaga tomonidan tuzilgan bitimdan kelib chiqadigan majburiyatlar bitimni tomonlardan bittasi bajargan momentidan buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Masalan, ikki korxonaga mollar uchun keyin pul

to'lash sharti bilan bitim tuzadi. Bitimni tuzish paytidan kelishuv ishtirokchilari bo'lgan tashkilotlarda shartlar orqali belgilab qo'yilgan ma'lum bitim-majburiyatlar paydo bo'ladi.

Sotuvchida belgilangan muddatda molni uning miqdori, sifati, butlovchilari, o'rami va hokazolar to'g'risidagi bitimning shartlariga binoan berish majburiyatlari paydo bo'ladi. Xaridorda bu molni qabul qilib olish va belgilangan muddatda uning pulini to'lash majburiyati bo'ladi. Mazkur majburiyatlar bitim bo'yicha tomonlar zimmasiga yuklatilgan, ularning bajarilishi shart, ularning bajarilmasligi majburiyatni buzgan tomon uchun qonun va odatda, bitim orqali ma'lum mas'uliyatni ko'zda tutadi. Buning ustiga, bajarilish ehtimoli nuqtai nazaridan xaridorning mol uchun uni amalda olishgacha mavjud to'lov aslida sotuvchi tomonidan amalga oshirilgan molni etkazish orqali amalga oshirilgan majburiyatdan farq shylmaydi. Shunga qaramay, eng avvalo schyotlar rejasi tomonidan belgilangan amaldagi qoidalarga muvofiq ko'rsatilgan majburiyatlar bitim tomonlarining hisobida uni bajarish boshlanganidan so'ngina aks ettiriladi.

Mol etkazib berish bo'yicha mazkur bitimni tuzish fakti tomonlarning buxgalteriya hisobida umuman aks ettirilmaydi. Bitimning sotuvchi tomonidan bajarilishi boshlangan paytdan esa xaridorning buxgalteriya hisobida tovarning tovarlarni egalikka olish fakti ko'rsatilishi bilan bir vaqtning o'zida ular uchun to'lash majburiyati xam qayd qilinadi.

Sotuvchining buxgalteriya hisobida xaridor majburiyati ham faqat bitim bajarilishi boshlanganidan so'ng, ya'ni tovarni xaridorga berganidan so'ng ko'rsatiladi. Ayni paytda xaridorning qarzi summasi hisobda xaridor mulkiga aylangan tovarlarning sotilishidan kelgan kirim sifatida qayd qilinadi.

4.4. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda joriy va uzoq muddatli majburiyatlar hisobi

Joriy majburiyatlar - kreditor talabiga ko'ra bir yil davomida to'lanishi kerak bo'lgan majburiyatlardir. Uzoq muddatli majburiyatlarga to'lash muddati bir yildan oshadigan majburiyatlar kiradi. Buxgalteriya hisobida "debitor" atamasi muayyan jamiyatdan qarzdor bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxsga aytiladi. "Kreditor" atamasi muayyan jamiyatni qarzdor qilgan jismoniy yoki yuridik shaxsga aytiladi. Ya'ni boshqa jamiyatlarning bu jamiyat oldida hisob-kitoblar bo'yicha majburiyatlari bo'ladi. Bunda jamiyat tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar kreditorlik majburiyatlari, olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar esa debitorlik majburiyatlar hisoblanadi. Ikki tomonlama shartnoma majburiyatlarda bir jamiyat ham debitor ham kreditor bo'lishi mumkin. Masalan, tovar etkazib berish shartnomasi bo'yicha tovarlar etkazib berilgan bo'lsayu, ularning puli to'lanmagan bo'lsa, mahsulot etkazib beruvchiga bu summa debitorlik majburiyati deb ko'rsatiladi va u debitor, ya'ni xaridorlarga ma'lum summadagi tovarlarni majburiyatga bergan deb hisoblanadi. Shu jamiyatning o'zi mazkur tovarlarni sotib olgan jamiyatlar uchun kreditor bo'ladi. Xaridor sotib olingan tovar bo'yicha mana shu majburiyat summasini batamom to'lab bo'lgunicha kreditor majburiyati deb ko'rsatadi.

Korxonada debitorlik majburiyati - bu jamiyatning aylanmasidan chiqib qolgan va boshqa jismoniy va yuridik shaxslarda to'rgan mablag'laridir. Jamiyatning o'z mablag'lari yoki boshqa jamiyatlarning mablag'lari bu majburiyatlarni qoplash manbai bo'lib xizmat qiladi.

Korxonaning kreditorlik majburiyati-bu jamiyatning boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan vaqtincha jalb etilgan mablag'laridir. Ulardan shu jamiyatning aylanmasida vaqtincha foydalaniladi. Ularni to'lash muddati kelganida bu mablag'lar aylanma mablag'lar summasidan olib berilishi kerak.

Joriy qarzlarning quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

6000 "Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lovlar schyotlari";

6100 "Ajratilgan bo'linmalar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga to'lovlar schyotlari";

6200 "Kechiktirilgan qarzlarning hisobga olinadigan schyotlari";

6300 "Olingan bo'naklar hisobga olinadigan schyotlari";

6400 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarning hisobga olinadigan schyotlari (soliqlar turlari bo'yicha)";

6500 "Sug'urta va maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlarning hisobga olinadigan schyotlari";

6600 "Muassislarga qarzlarning hisobga olish schyotlari";

6700 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblarning hisobga olish schyotlari";

6800 "Qisqa muddatli kredit va qarzlarning hisobga olish schyotlari";

6900 "Turli kreditorlarga qarzlarning hisobga olish schyotlari".

Mol etkazib beruvchilar bilan hisoblashishlar umumlashtirilgan holda 6-jurnal orderda 6010-"Mol etkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan schyotlari", 6110- "Ajratilgan bo'linmalarga to'lanadigan schyotlari", va 6120 - "Shuba va qaram korxonalariga to'lanadigan schyotlari" kabi schyotlarning krediti bo'yicha qayd qilib boriladi. Bu jurnal orderda analitik va sintetik hisob bir vaqtning o'zida olib boriladi, analitik hisob xar bir to'lov xujjati, kirim orderi yoki qabul qilish dalolatnomasiga asosan yuritiladi. Shuningdek bu jurnal order xar o'yning boshiga mol etkazib beruvchilarga to'lanmagan summa bilan ochiladi va unda:

-to'lov muddati kelmagan xujjatlar bo'yicha;

-to'lov muddati o'tgan xujjatlar bo'yicha;

-qiymatliklar kelib tushmagan lekin to'lov xujjati bo'yicha qiymati to'langan;

-qiymatliklar kelib tushmagan va to'lov xujjatlari to'lanmagan;

-fakturasiz qabul qilingan qiymatliklarning oy boshiga qoldiq summasi alohida ko'rsatilishi lozim.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatida kelgusi davrga tegishli daromad bo'yicha olgan bunagi, kelishi kutilayotgan debitorlik qarzlari, chiqarilgan obligatsiyalar yuzasidan chegirma yoki ustamalar, soliqlar va majburiy to'lovlar muddatining uzaytirilish muomalalari sodir bo'ladi.

Joriy davrda to'lov muddati uzaytirilgan va vaqtincha qarzlarning sifatida

kelgusida to‘lanadigan joriy majburiyatlar quyidagi schyotlarda hisobga olinadi:

6210-“Muddati uzaytirilgan diskont (chegirma)lar”;

6220-“Muddati uzaytirilgan mukofotlar”;

6230-“Muddati uzaytirilgan daromadlar”;

6240-“Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddati uzaytirilgan majburiyatlar”;

6250-“Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha muddati uzaytirilgan daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha majburiyatlar”;

6290-“Boshqa muddati uzaytirilgan majburiyatlar”.

6210-“Muddati uzaytirilgan diskont (chegirma)lar” va 6220-“Muddati uzaytirilgan mukofotlar (ustama)lar” schyotlari obligatsiya chiqarilgan davrdan boshlab, yilning oralig‘ida xarajat yoki daromadga taqsimlanadigan, obligatsiyalar yuzasidan chegirma yoki ustama bo‘yicha sub‘ektning uzoq muddatli majburiyatlari joriy qismini aks ettirishga muljallangan. Ushbu schyotlarni obligatsiya sotuvchilargina qo‘llaydi.

Obligatsiyalar mukofot yoki chegirma bilan sotilsa, buxgalteriya o‘tkazmasida aks ettiriladigan foizlarning to‘lovi yuzasidan sarflar, haqiqiy to‘lanadigan foizlardan farq qilishi kerak. Ushbu sarflarni chegirmalar summasi oshirilsa, mukofotlar summasi kamaytirilishi lozim. Obligatsiyalarni chegirmalar summasi bilan sotilishi quyidagicha aks ettiriladi:

debet 6210-“Muddati uzaytirilgan diskontlar (chegirmalar)”

debet 5110-“Hisob-kitob schyoti”

kredit 6920-“Hisoblangan foizlar” yoki

7830-“To‘lanadigan obligatsiyalar”

Obligatsiyalar yuzasidan joriy foizlarning to‘lanishi summasiga esa 9610-“Foizlar ko‘rinishidagi sarflar” schyoti debetlanib, to‘lanadigan foizlar va krplanadigan chegirmalarni o‘zida aks ettiradi. Bunda 6210-“Muddati uzaytirilgan diskontlar (chegirmalar)” va 5110-“Hisob-kitob schyoti” kreditlanadi.

Kechiktirilgan majburiyatlarni buxgalteriya schyotlarida aks ettirilishi

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Debet	Kredit
1	Obligatsiyalar diskont bilan sotib olinganda diskont summasi hisobga olindi	0600, 5800	6210, 5110- 5530
2	Joriy obligatsiyalar diskonti hisobdan chiqarildi	6210	9530
3	Kechiktirilgan diskontning uzoq muddatli qismi joriy qismga o‘tkazildi	7210	6210
4	Obligatsiyalar mukofot bilan sotilganda, mukofot summasi hisobga olindi	5110- 5530	6220
5	Joriy obligatsiyalar mukofotining hisobdan chiqarilishi	6220	9530
6	Kechiktirilgan mukofotlarning uzoq muddatli qismi joriy qismga o‘tkazildi	7220	6220
7	Kelgusida jo‘natiladigan TMZ, ko‘rsatiladigan xizmatlar, bajariladigan ishlar uchun pul mablag‘lari kelib tushdi	5110- 5530	6230

8	Kechiktirilgan daromadlarning tayyor mahsulotlar, tovarlar sotilganda, ishlar bajarilganda va xizmatlar ko'rsatilishi bilan daromadga qo'shilishi	6230	9010, 9020, 9030
9	Ijara bo'yicha kechiktirilgan daromad summasi tegishli davrda daromadga qo'shildi	6230	9350, 9550
10.	Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlarning joriy qismi hisobot davrida byudjetga to'lash uchun hisobdan chiqarildi	7240	6240
11	Vaqtinchalik farqlar bo'yicha foyda solig'i bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar joriy qismiga o'tkazildi	7250	6250

6210-“Muddati uzaytirilgan diskontlar (chegirmalar)”, 6220-“Muddati uzaytirilgan mukofotlar (ustamalar)” schyotlari bo'yicha analitik hisob har bir obligatsiyaning turi va qoplash (so'ndirish) muddati bo'yicha alohida yuritiladi.

Obligatsiyalarni mukofotlar bilan sotilishi 6220-“Muddati uzaytirilgan mukofot (ustama)lar” va 6830- “To'lanadigan obligatsiyalar” yoki 7830-“To'lanadigan obligatsiyalar” schyotlarning krediti va 5110-“Hisob-kitob schyoti” ning debetida aks ettiriladi.

Obligatsiya qarzining davri mobaynidagi mukofotlar 9530-“Foizlar ko'rinishidagi daromadlar» schyotiga o'tkaziladi.

Sub'ektlar o'zlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotganda yuqorida qayd qilingan joriy majburiyat qarzlaridan tashqari, quyidagi majburiyatlari vujudga keladi: lizing muomalalari bo'yicha qarzlar, hisoblangan foizlar, royalti va gonararlar, kafolatlar bo'yicha qarzlar, uzoq muddatli qarzlarning bir qismini joriy majburiyatga o'tkazish, da'volar bo'yicha va aktsiyador shaxslarga bo'lgan qarzlar va boshqa joriy qarz majburiyatlari vujudga keladi.

Ushbu muomalalar natijasida vujudga kelgan qarzlar va ularni to'lash bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlarni quyidagi schyotlarda 21 -sonli BHMSga muvofiq qayd qilish va umumlashtirish ko'zda tutilgan:

6910- “To'lanadigan qisqa muddatli ijara”;

6920- “Hisoblangan foizlar”;

6930- “Royalti va gonorarlar bo'yicha qarzlar”;

6940- “Kafolatlar bo'yicha qarzlar”;

6950- “To'lanadigan uzoq muddatli qarz majburiyatlarini joriy qismi”;

6960- “Da'volar bo'yicha to'lanadigan schyotlar (to'lovlar)”;

6970- “Hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlar”;

6990- “Bopshcha majburiyatlar”.

Bu majburiyatlar korxonaning faoliyati davomida vujudga kelib, u tovar-moddiy qiymatlarni sotib olish va xizmatlardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Turli kreditorlar bo'yicha joriy majburiyatlarni buxgalteriya schyotlarida aks ettirilishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Debet	Kredit
-----	----------------------------------	-------	--------

1	Operativ ijara bo'yicha foiz hisoblandi	Xarajatlarni hisobga oluvchi schetlar	6910
2	Operativ ijara bo'yicha qarz to'landi	6910	5010-5530
3	Moliyaviy ijara bo'yicha foiz hisoblandi	9610	6920
4	Qarzlar bo'yicha foizlar hisoblandi	9610	6920
5	Qarzlar bo'yicha hisoblangan foizlar to'landi	6920	5110-5530
6	Kafolatli xizmat bo'yicha haqiqiy xarajatlar hisobdan chiqarildi	6940	Xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar
7	Uzoq muddatli majburiyatlar joriy qismga o'tkazildi	7810-7920	6950
8	Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi bo'yicha to'langan summa	6950	5110-5530
9	Asosiy ishlab chiqarish, yordamchi ishlab chiqarish, umumishlabchiqarish va boshqaruv ehtiyojlari, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarga taalluqli xarajatlarni amalga oshirganligi uchun hisobdor shaxslarga qarzlar hisoblandi	2010, 2310, 2510, 2710, 9420	6970
10	Mahsulotni sotish bilan bog'liq bo'lgan (transport va boshqa) xarajatlarni amalga oshirganligi uchun hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlar hisoblandi	9410	6970
11	Turli korxonalar asosiy, yordamchi, umumishlabchiqarish tsexlari va xizmat ko'rsatish xo'jaliklarga xizmatlari ko'rsatishdi	2010, 2310, 2510, 2710	6990

6400-“Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni (turlari bo'yicha) hisobga oluvchi schyotlari” xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mamlakat hududida xarakat qilayotgan sonlarga ko'ra, faoliyatining barcha turlaridan olayotgan daromadlari, qo'shilgan qiymat summasi, mulk solig'i, xodimlarning ish haqidani daromad solig'i va boshqa soliqlar bo'yicha yuzaga kelayotgan majburiyatlar hisobini to'g'ri tashkil qilishga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Schyotlar rejasida ushbu yo'nalishdagi majburiyatlarni hisobga olish uchun 6410 dan 6500 gacha bo'lgan schyotlardan foydalanish ko'zda tutilgan. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zlarining hisob siyosatida soliq turlari bo'yicha alohida schyotlar ochish imkoniyatiga ega. Bizning fikrimizcha, soliq turlari bo'yicha yuzaga kelayotgan majburiyatlarni quyidagi schyotlarda hisobga olish maqsadga muvofiq:

6410-“Xodimlarning ish haqidani olingan daromad solig'i bo'yicha majburiyatlar”;

- 6411-“Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha majburiyatlar”;
 6412-“Aksiz solig‘i bo‘yicha majburiyatlar”;
 6413-“Mulk solig‘i bo‘yicha majburiyatlar”;
 6414-“Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha majburiyatlar”;
 6415-“Qo‘shimcha foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar»;
 6416-“Foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar”;
 6417-“Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzulmani rivojlantirish bo‘yicha soliq majburiyatlari”;

6420- “Boshqa soliqdar bo‘yicha majburiyatlar”;

6610 – “To‘lanadigan dividendlar” schyoti. Aktsiyadorlar yig‘ilishi tomonidan e‘lon qilinganidan keyin, pul mablag‘lari va mulk shaklidagi dividendlar, ular bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilguniga qadar, buxgalteriya hisobida joriy majburiyatlar sifatida aks ettirib boriladi. Oddiy va imtiyozli aksiyalar bo‘yicha hisoblangan, lekin, xali to‘lab ulgurilmagan dividendlar summasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari talablariga binoan, moliyaviy hisobotlarning tushuntirish xatlarida ochib berilishi lozim.

Amaldagi schyotlar rejasida uzoq muddatli majburiyatlarni hisobga olish uchun 7010 dan 7990gacha bo‘lgan schyotlar ajratilgan. Uzoq muddatli majburiyatlarning hisobi joriy majburiyatlar hisobiga o‘xshash bo‘lgani bilan uning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar uzoq muddatli majburiyatlar hisobini tashkil qilish jarayoniga baholash va o‘lchash tamoyillarini qo‘llashda namoyon bo‘ladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Uzoq muddatli majburiyatlar qarzga olingan tovar va xizmatlarning haqqoniy bozor qiymati bo‘yicha qayd qilinadi. Bozor foiz stavkasi – bu xo‘jalik muomalalaridagi e‘tiroz qilinmaydigan stavkadir va u tovar va xizmatlarning haqqoniy bozor qiymati bo‘yicha talab qilinadigan kelgusi naqd to‘lovlarning haqqoniy qiymatiga teng;

2. Foizlarning davriy to‘lovi qarzning chiqarilish sanasiga bo‘lgan bozor foiz stavkasiga asoslangan;

3. Balans sanasiga bo‘lgan uzoq muddatli qarzning qoldiq qiymati – bu emissiya vaqtida bozor foiz stavkasigacha diskontlangan barcha qolgan naqd to‘lovlarning haqiqiy qiymatidir.

Majburiyatlar hisobini tashkil qilishning shartlaridan biri ularni to‘g‘ri baholashni ta‘minlashdir. Baholash esa, turli usullarda bo‘lishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

Haqiqiy qiymat usuli - bunda majburiyat summasi hisobot davrida haqqqatda e‘tirof etilgan qarzdorlik summasiga teng bo‘ladi.

Qayta hisoblangan qiymat usuli - bu usulda majburiyatlar hisobot tuzish sanasida qayta tiklanib boriladi.

Qoplash (sotish) mumkin bo‘lgan baho usuli - bu usulda majburiyatning qoplash (sotish) bahosi aks ettiriladi.

Diskontlangan qiymat usuli - bu usulda majburiyat kelgusida uni qoplash uchun sarf bo‘ladigan pul okimlarining diskont qiymatida aks ettiriladi.

Majburiyatlar hisobini yuritishda ayrim hollarda va ayniqsa, uzoq muddatli majburiyatlarni hisobga olish jarayonida ularni bir toifadan ikkinchisiga o'tish muomalalarini hisobga olish zarurati tug'iladi. Bu holat birinchidan, hisobot davrida to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar summasini nazoratga olish, ikkinchidan, korxonada faoliyatini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. 21-son BHMSga ko'ra uzoq muddatli majburiyatlarni hisobga olish uchun quyidagi guruh schyotlaridan foydalanish ko'zda tutilgan:

- 7000- "Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan hisobvaraklar -uzoq muddatli qismi";
- 7100- "Ajratilgan bo'linmalar, shuba va qaram xo'jalik jamiyatlariga bo'lgan uzoq muddatli qarzlari";
- 7200- "Muddati uzaytirilgan uzoq muddatli majburiyatlar";
- 7300- "Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklarning hisobvaraklari - uzoq muddatli qismi";
- 7800- "Uzoq muddatli bank kreditlarining schyotlari";
- 7900- "Turli kreditorlarga bo'lgan uzoq muddatli qarzlari schyotlari".

7010-"Mol etkazib beruvchi va pudratchilarga uzoq muddatli to'lanadigan schyotlar" bo'yicha majburiyatlar - xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni ular bilan iqtisodiy aloqada bo'layotgan korxonalar tomonidan qarzga, 1 yildan ortiq muddatga etkazib bergan xom ashyo, materiallar, yoqilg'i resurslari, asosiy aktivlar hamda xizmatlar bo'yicha yuzaga kelayotgan uzoq muddatli majburiyatlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan (4-jadval).

Uzoq muddatli majburiyatlar schyotlar turkumiga kiruvchi schyotlar ichida 7200-"Kechiktirilgan uzoq muddatli majburiyatlar"ni hisobga oluvchi schyotlar alohida o'rin tutadi.

7210-"Uzoq muddatli daromad bo'yicha muddati uzaytirilgan diskontlar (chegirmalar)" schyoti harakat muddati davomida daromad sifatida taksimlanadigan obligatsiyalarning diskonti (chigirmasi) bo'yicha muddati uzaytirilgan daromadlarni aks ettiradi. Ushbu schyot obligatsiya sotib oluvchi korxonalarda foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Uzoq muddatli kreditlar va qarzlarni buxgalteriya schyotlarida aks ettirilishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Debet	Kredit
1	Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari olindi	5110-5530	7810-7820
2	Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari hisobiga olingan TMZ qabul qilindi	1010-2910	7810-7820
3	Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari hisobidan bo'naklar berildi	4310-4330, 4410, 4510- 4520	7810-7820
4	Uzoq muddatli kreditlar va qarzlari hisobidan mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'lgan qarzlari to'landi	6010	7810-7820
5	Berilgan veksel va obligatsiyalar evaziga	5110-5530	7830-7840

	uzoq muddatli qarz olindi		
6	Uzoq muddatli kreditlar, qarzlarni, obligatsiyalar va veksellarni joriy qismga o'tkazish	7810-7840	6950

7220-“Uzoq muddatli daromad bo'yicha muddati uzaytirilgan mukofotlar (ustamalar)” schyoti harakat qilish davri davomida daromadga taksimlanadigan obligatsiyalarning mukofoti (ustamasi) bo'yicha korxonaning uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlarini aks ettirish uchun muljallangan.

Ushbu schyot fakat obligatsiya sotuvchi korxonalarda foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Turli kreditorlar bo'yicha majburiyatlarni buxgalteriya schyotlarida aks ettirilishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Debet	Kredit
1	Moliyaviy ijaraga ijara shartlari asosida kelib tushgan asosiy vositalar uchun ijaraga beruvchi oldidagi qarz	0310	7910
2	Moliyaviy ijaraga bo'yicha to'lovlarni joriy qismga o'tkazish	7910	6950
3	Turli korxonalar va shaxslardan tovar-moddiy zaxiralari sotib olindi	1010-2990	7920
4	O'rnatiladigan asbob-uskunalarini sotib olishda va kapital qo'yilmalarda turli korxonalarining ko'rsatgan xizmati	0710-0720, 0810-0890	7920
5	Turli korxonalarining asosiy, yordamchi tsexlarga, umumishlabchiqarish va administrativ maqsadlarga, yaroqsiz mahsulotni tuzatishga, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarga ko'rsatgan xizmatlari	2010,2310, 2510,2610, 2710, 9420	7920
6	Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishida ko'rsatgan xizmatlari uchun turli korxonalar oldidagi qarz	9210, 9220	7920
7	Turli korxonalar va shaxslardan pul ekvivalentlari kelib tushdi	5610	7920
8	Boshqa shaxslardan pul o'tkazmalari kelib tushdi	5710	7920
9	Boshqa shaxslardan qimmatli qog'ozlar sotib olindi	0610, 5810	7920
10	Ijtimoiy soha ob'ektlarini saqlash uchun turli korxonalarining ko'rsatgan xizmatlari	9430	7920

Bitiruv malakaviy ishida uzoq muddatli majburiyatlar hisobini yuritishga muljallangan yana bitta schyot bo'yicha alohida tuxtalib o'tish lozim deb hisoblaymiz. Bu schyot 7250-“Vaqtinchalik farqlar bo'yicha muddati uzaytirilgan daromad (foyda) solig'i bo'yicha majburiyatlar” bo'lib, u mamlakatimiz hisob amaliyotiga yangi schyotlar rejasiga o'tish munosabati bilan kiritilgan. Uning joriy qismini hisobga olish uchun yangi schyotlar rejasining 6-bo'limida 6250-

“Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha muddati uzaytirilgan daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha majburiyatlar” deb nomlangan schyot ochilgan. Ushbu schyotda vaqtinchalik farqlar natijasida yuzaga keladigan kechiktirilgan foyda solig‘i summasi aks ettiradi.

Korxonalarda foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar hisob daromadidan kelib chiqqan holda hisoblanadi, to‘lanadigan foyda solig‘i esa soliq solinadigan daromaddan kelib chiqib hisoblanadi. Hisob daromad va soliq solinadigan daromadni aniqlashdagi yondashuvlardagi farq moliyaviy hisobotda aks ettirilishi lozim. Korxonaning hisob siyosatiga muvofiq hisob ma‘lumotlari bo‘yicha hisoblangan foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar korxonada tomonidan daromadni olish da‘vomida amalga oshirilgan deb qaralib, tegishli daromadlar va xarajatlar yuzaga kelgan davrda hisoblanadi va korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijasi to‘g‘risidagi hisobotda aks ettiriladi. Bunda hisob daromadidan kelib chiqib, hisoblangan foyda solig‘i va soliqqa tortiladigan daromaddan kelib chiqib hisoblangan to‘lanadigan foyda solig‘i o‘rtasidagi farq, vaqtinchalik farq sifatida yuritiladi va 7250 “Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar” schetining kreditida aks ettiriladi.

Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlarning tegishli joriy qismi 7250 “Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar” schyotining debetidan 6250 “Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar” schyotining kreditiga o‘tkaziladi.

4.5. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda olingan kreditlar hisobini yuritish


Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘z mablag‘lari etarli bo‘lmaganida bankdan kredit mablag‘lari yoki boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan qarz mablag‘lari olishlari mumkin.

Kredit — bu vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini ma‘lum muddatga, haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir.

Kreditlash orqali aholining, korxonaning va davlatning bo‘sh turgan pul mablag‘lari banklarda to‘planadi hamda muayyan haq evaziga vaqtincha foydalanish uchun xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga beriladi. Ma‘lumki, ishlab chiqarish vositalari ko‘rinishidagi kapitalning tarmoqdan-tarmoqqa o‘tish imkoniyatlari juda cheklangan, lekin iqtisodiyotda har doim iqtisodiy resurslarni, eng avvalo kapitalni, tarmoqlar o‘rtasida qayta taqsimlash zaruriyati mavjud bo‘ladi. Bu vazifani eng oqilona tarzda kredit mexanizmi va uning tarkibiy kismi bo‘lgan bank krediti ado etadi. Bank krediti vositasida moliyaviy resurslar pul kapitali sifatida jamlanadi hamda tarmoqlar va mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘rtasida bozor talablari asosida taqsimlanadi, kreditni belgilangan muddat davomida qaytarish va kreditdan foydalanganlik uchun muayyan haq to‘lash zarurligi kreditga olingan mablag‘lardan yuqori samara bera oladigan faoliyat sohalarida foydalanishga majbur etadi. Shunday qilib, kredit iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bank kreditining muhim

vazifalaridan biri bu ishlab turgan korxonalar mablag'larini doiraviy almashtirishning uzluksizligini ta'minlashdan iborat. Bu asosan qisqa muddatli kreditlash vositasida amalga oshiriladi.

Bank kreditlari — xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va ayrim jismoniy shaxslarning qarzga oladigan mablag'larining muhim manbai. Banklar vaqtincha bo'sh turgan mablag'lardan foydalanib, xo'jalik yurituvchi sub'ekt va aholining iste'mol ehtiyojlari uchun ana shu mablag'larni qarzni qaytarib olish tartibida ishga soladi. Banklar amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan va tomonlar bilan kelishilgan holda kreditni qaytarib berish, muddatlilik, to'lovga qobillik va ta'minlanganlik printsiplariga qat'iy amal qilib beradi. Muddatiga qarab bank kreditlari qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'ladi. Kreditning muddatliligi uni qaytarish muddati (sanasi) bilan belgilanadi. Kisqa muddatli kredit bir yildan kam muddatga beriladi. Uzoq muddatli kreditlar bir yildan ortiq muddatga, odatda, yangi texnikani tatbiq etishga, ishlab chiqarishni kengaytirishga, uni qaytadan tiklashga, qimmat asbob-uskunalarni sotib olishga va boshqa maqsadli dasturlarni amalga oshirishga olinadi.



Bank kreditlarining muddatiga ko'ra turlari

Bank kreditlarini olish bilan bog'liq bo'lgan muomalalar hisobi 6810-“Qisqa muddatli bank kreditlari” va 7810-“Uzoq muddatli bank kreditlari” schyotlarida aks ettiriladi⁴⁷.

Banklar, asosan, korxonalar mablag'larini jalb qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish va qaytarib olish, to'lovlilik va muddatlilik sharti bilan bo'sh mablag'larni joylashtirish uchun tashkil etilgan. Bundan tashqari, banklar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga kreditlar berish bilan ham shug'ullanadi. Kredit resurslaridan samarali foydalanish natijasida korxonalar faoliyati uzluksizligi ta'minlanadi hamda ularning iqtisodiy ahvoli yaxshilanadi.

Kredit berish va uni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar bank qoidalarini va bank bilan kredit oluvchilar o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida tartibga solinadi. Kredit olishda qarz oluvchilar bankka asoslangan ariza va unga tegishli hujjatlarni ilova qilib topshiradi.

Kredit olish uchun qarz oluvchi bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- quyidagilar ko'rsatilgan kredit buyurtmanomasi: kredit miqdori, foydalanish muddati, maqsadi, ta'minoti, asosiy qarzlarni qaytarish va foizlarni to'lash manbalari;
- kredit hisobidan moddiy boyliklar sotib olish (ishlar bajarish, xizmatlar

⁴⁷ 21-sonli BHMS - Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma. O'zR MV tomonidan 09.09.2002 yilda tasdiqlangan

ko'rsatish) uchun qarz oluvchi bilan tuzilgan shartnoma (kontrakt)lar yoki niyat bayonnomasining nusxasi;

- 1-shakl buxgalteriya balansi oxirgi hisobot davri uchun. Bu hujjat belgilangan tartibda soliq inspeksiyasi organlari tomonidan tasdiqlangan va unga quyidagilar ilova qilingan bo'lishi lozim:

- moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot;
- pul oqimlari harakati to'g'risida hisobot;
- boshqa kreditorlardan qarzlari hamda boshqa banklarda saqlanayotgan bo'sh mablag'lar bor-yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma;

- boshqa korxonalarini tashkil etishda o'z sarmoyasi bilan qatnashgani yoki qatnashmagani to'g'risidagi ma'lumotlar;

- debitorlik va kreditorlik qarzlari talqini. Unga muddati o'tgan debitorlik qarzlari (90 kundan ortiq) to'g'risidagi taqqoslash dalolatnomalari ilova qilinadi;

- kredit o'zini oqlashi hisob-kitobini chiqarish hamda kredit berishning maqsadga qanchalik muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilish uchun bankka kerak bo'ladigan boshqa qo'shimcha hujjatlar.

Kreditlash davri uchun biznes-reja o'z oborot mablag'larini to'ldirish uchun kredit berilayotganda biznes-reja xo'jalik boshqaruvining yuqori organi (vazirlik, idora) tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak;

O'z oborot mablag'larini to'ldirish uchun kredit berilayotganda yana quyidagilar ham taqdim etiladi:

- mablag'larga bo'lgan ehtiyoj hisob-kitobi;
- yangi ishlab chiqarishlarni joriy etish, texnikaning yangi turlarini o'zlashtirish orqali qo'shimcha foyda olishga qaratilgan tashqiliy-texnikaviy tadbirlar rejasi.

Ular xo'jalik boshqaruvining yuqori organi (vazirlik, idora) tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Bank talab qilingan hujjatlar to'plamini olib, ularni sinchiklab o'rganib chiqqach, korxonaning kredit qobiliyatini va to'lov layoqatini aniqlaydi hamda kredit bitimi tuzish mumkin yoki mumkin emasligi to'g'risida xulosa tayyorlaydi.

Unda quyidagilar aks etadi:

- kredit maqsadi, muddati va miqdori;
- qarz oluvchining Ustav faoliyati kredit maqsadlariga mosligi;
- qarz oluvchining kredit qobiliyati;
- qarz oluvchining kredit tarixi;
- qarz oluvchining asosiy qarz va uning foizlari o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash bo'yicha moliyaviy imkoniyatlari;

- kredit narxi (foizlari);
- kredit ta'minoti etarfiligi, but saqlanishi va nazorat qilina olishi;
- kredit berish bilan bog'liq xatar darajasi;
- kredit shartnomasi kuchga kirishi shartlari.

Kredit shartnomasida quyidagilar ko'zda tutiladi:

- kredit summasi va maqsadi, uni berish va qaytarish tartibi;

- kredit bo'yicha majburiyatlar ta'minotining turi hamda baholangan qiymati;
- foiz stavkasi, foizlarni hisoblash va to'lash tartibi;
- tomonlarning kredit berish va uni qaytarish chog'idagi huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi;
- kredit berish uchun zarur ma'lumotlar, hisob-kitoblar va boshqa hujjatlar ro'yxati va ularning davriyligi;
 - bankning qarz oluvchi kredit bitimi shartlarini bajarishi, kreditdan maqsadli foydalanishi va uni qanday o'zlashtirayotgani masalalarini tekshirishga doir huquqi;
 - tomonlarning boshqa majburiyatlari. Bank kreditini foydalanganlik uchun to'lanadigan haq foiz stavkasida o'z ifodasini topadi. Kreditlar bo'yicha foiz stavkasi Bank kredit siyosatiga asoslanib, korxonalar bilan o'zaro kelishilgan holda – boshqa garovdan holi bo'lishi.
 - yuqori darajada likvid bo'lishi, ya'ni pul mablag'lariga aylantirish osonligi;
 - uzoq vaqt (kamida kreditlash muddati) davomida qimmatini yo'qotmay saqlash mumkinligi;
 - mulk qiymati, mabodo uni sotishga to'g'ri kelsa, sotuv bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni qoplash hamda bunday mulkni sotganda qonunlarga ko'ra ko'zda tutilgan barcha soliqlarni to'lash uchun etarli diskont bilan belgilanishi lozim;
 - mulkni garovga qo'yish uchun qonunlarga hamda Garov qo'yuvchining ta'sis hujjatlariga muvofiq davlat organlarining ham, barcha mulkdorlarning ham hamma zarur rozilik va ruxsatlari olinishi lozim. Garov sifatida ko'rsatiladigan mulkning but saqlanayotganini bank xodimlari kamida har yili ikki marta tekshirishlari va qayta baholashlari kerak. Foizlarni to'lash muddatlari kredit shartnomasida belgilanadi.

Bank amaldagi qoidalarga muvofiq tasdiqlangan Kreditlarni monitoring qilish tartibiga binoan qarz oluvchi faoliyatini doimiy nazorat qilib boradi, uning kredit qobiliyatini, to'lov intizomini tahlil qiladi va ma'lumotlar bazasini vujudga keltiradi.

Mamlakat hududidagi va chet eldagi banklardan olingan qisqa muddatli kredit bo'yicha bank bilan bo'ladigan hisob-kitoblar analitik hisobi olingan qarzlarning turlari bo'yicha 38-qaydnomada, sintetik hisobi esa 4-jurnal-order yordamida yuritiladi.

Qisqa muddatli bank kreditlari olinganda 5110-“Hisob-kitob schyoti”, 6010-“Mol etkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar” va boshqa schyotlar debetlanadi va 6810-schyot kreditlanadi.

Limitlangan chek daftarchalari olish va akkreditiv qo'yish uchun qisqa muddatli kreditlar rasmiylashtirilganda 5510-“Akkreditivlar”, 5520-“Chek daftarchalari” schyotlari debetlanadi va 6810-schyot kreditlanadi.

Limitlangan chek daftarchalari va ishlatilmay qolgan akkreditivlarning qoldig'i hisoblab o'tkazish yo'li bilan yoki hisob-kitob schyotidan qisqa muddati

kreditlarni qaytarishda 6810-schyotning debeti va 5110, 5210, 5220, 5510, 5520 va 5530-schyotlar krediti bo'yicha aks ettiriladi.

Bir yildan oshmagan muddatda to'lanadigan veksellar va boshqa qarz majburiyatlarini hisobga olishga doir muomalalar bo'yicha bank bilan hisob-kitoblar 6810-"Qisqa muddatli bank kreditlari" schyotining alohida analitik schyotida hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasidagi va xorijdagi qarz beruvchilardan 12 oydan oshmagan muddatga olingan qarzlarni 6820-"Qisqa muddatli qarzlarni" schyotida hisobga olinadi. Qarz beruvchilardan (banklardan tashqari) olingan mablag'lar kirimi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar debeti va 6820-"Qisqa muddatli qarzlarni" schyotining krediti bo'yicha aks ettiriladi. Olingan qisqa muddatli qarzlarni qaytarilganda esa 6820-"Qisqa muddatli qarzlarni" schyoti debetlanadi va pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar kreditlanadi. 6820-"Qisqa muddatli qarzlarni" schyoti bo'yicha analitik hisob qarz beruvchilar va qarzlarni qaytarish muddatlari bo'yicha yuritiladi.

6830-"To'lanadigan obligatsiyalar" schyotida qaytarish muddati 12 oydan oshmaydigan obligatsiyalarni berish hisobiga korxonadan jalb etilgan mablag'lar hisobga olinadi. Agar korxonadan mablag'larni jalb etish obligatsiyalarni nominal qiymatidan yuqori bahoda sotish yo'li bilan amalga oshirilgan bo'lsa, u holda obligatsiyalarning sotish bahosi va nominal qiymati o'rtasidagi farq 6240-"Muddati uzaytirilgan mukofot(ustama)lar" schyotining krediti bo'yicha hisobga olinadi. Davriy ajratmalar summasi ushbu farq va obligatsiya chiqarilgan muddatdan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Qisqa muddatli bank kreditlari hisobini hisobga olish uchun quyidagi qaydnomadan foydalaniladi. Ushbu qaydnoma xo'jalik openatsiyalarini qayd etish jurnali va boshlang'ich hisob hujjatlari ma'lumotlari asosida to'ldiriladi.

Qisqa muddatli bank kreditlari bo'yicha operatsiyalar aks ettirilishi

№	Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
1	Kredit olish aks ettiriladi (kredit qarz oluvchi korxonaning hisob-kitob hisobvarag'iga kelib tushdi)	5110	6810
2	Qarz oluvchi korxonaning mol etkazib beruvchi (pudratchi)ga bo'lgan qarzining kredit bilan to'lanishi aks ettirildi	6010	5110
3	Qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizlar hisoblandi	9610	6920
4	Kredit va foizlarni to'lanishi aks ettirildi	6810 6920	5110

Agar kreditni qaytarishni ta'minlash bo'yicha moddiy boyliklar garov sifatida rasmiylashtirilsa, ushbu boyliklar qiymatiga balansdan tashqari 009-"Majburiyatlar va to'lovlarni ta'minlash – berilgan" hisobvarag'i bo'yicha yozuv qayd etiladi.

Agar kreditning ta'minoti sifatida uchinchi shaxs (boshqa bank yoki boshqa korxonaning kafolati rasmiylashtirilsa, unda olingan kafolatlar summasiga balansdan tashqari 008-"Majburiyatlar va to'lovlarni ta'minlash – olingan" hisobvarag'ida yozuv qayd etiladi.

Kredit shartnomasida belgilangan vaqtda to'lanmagan kreditlar va ular

bo'yicha foizlar alohida hisobga olinishi lozim. Agar kredit shartnomasi muddati qarz oluvchi korxonaga va bank tomonidan kelishilib, kredit shartnomasiga tegishli qo'shimcha rasmiylashtirilgan holda uzaytirilsa, kredit muddati o'tgan hisoblanmaydi.

Misol. 2017 3 martda Bankdan 43400000 ming so'mlik 1 yil muddatga, ya'ni qisqa muddatli bank kreditini yillik 21% stavka bilan olgan. Kredit summasi mol etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnoma asosida qurilish materiallari uchun avans tariqasida o'tkazib beriladi. Garov sifatida CAPTIVA rusumli avtomashina qo'yilgan. Shartnoma shartida har oyning 25 sanasida foiz to'lovlarini amalga oshirishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, shartnoma shartlarida 300000 so'm menejment uchun bir martalik komissiya, 434000 so'm kredit liniya tashkil etilganligi uchun bir martalik komissiyalarni uch kun ichida to'lash ko'zda tutilgan. Asosiy qarzni qoplash quyidagi jadval asosida:

Olingan qisqa muddatli kreditning asosiy qarzini qoplash jadvali⁴⁸

To'lov raqami	To'lash sanasi	To'lov summasi so'm	Qoldiq summa so'm	Foiz summasi so'm
1.	03.03.2017	-	43400000	759500
2.	02.04.2017	1500000	41900000	733250
3.	02.05.2017	1500000	40400000	707000
4.	02.06.2017	1500000	38900000	680750
5.	02.07.2017	3000000	35900000	628250
6.	02.08.2017	3000000	32900000	575750
7.	02.09.2017	3000000	29900000	523250
8.	02.10.2017	3000000	26900000	470750
9.	02.11.2017	4500000	22400000	392000
10.	02.12.2017	4500000	17900000	313250
11.	02.01.2018	5000000	12900000	225750
12.	02.02.2018	5000000	7900000	138250
13.	02.03.2018	7900000	-	-
Jami		43400000		6147750

Ushbu muomalalar korxonaga buxgalteriyasida quyidagi yozuvlar bilan amalga oshiriladi:

Qisqa muddatli bank kreditlari bo'yicha operatsiyalar aks ettirilishi

№	Muomalalar mazmuni	Summa	Debet	Kredit
1	Garov qo'yildi	43 400 000	008	
2	Kredit olish aks ettiriladi	43 400 000	4310	6810
3	Menejment uchun bir martalik komissiya to'landi	300000	9430	5110
4	Kredit liniya tashkil etilganligi uchun bir	434000	9430	5110

⁴⁸ "APG" MChJ ma'lumotlariga asosan muallif ishlanmasi

	martalik komissiyalar to'landi			
5	25.03.2017 yilda foiz hisoblandi. $759500=43400000*21\%/12$	759500	9610	6920
6	Hisoblangan foiz to'landi	759500	6920	5110
7	02.04.2017 yilda asosiy qarzning bir qismi qaytarildi	1500000	6810	5110
Shu tariqa belgilangan grafik bo'yicha foizlar va asosiy qarz qoplanib boriladi				
8	02.03.2018 asosiy qarzning qolgan qismi yopiladi	7900000	6810	5110
9	Garov hisobdan chiqariladi	43 400 000		008

Banklardan olingan uzoq muddatli kreditlar summasi 7810-“Uzoq muddatli bank kreditlari” schyotining krediti va pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar debeti bo'yicha aks ettiriladi.

Uzoq muddatli bank kreditlarining joriy qismini o'tkazishda 7810-“Uzoq muddatli bank kreditlari” schyoti debetlanadi va 6950-“Uzoq muddatli majburiyatlar – joriy qismi” schyoti kreditlanadi. Bunda uzoq muddatli bank kreditining dastlabki summasi kamayadi.

Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlarni hisobini yuritishda quyidagi qaydnomadan foydalaniladi. Ushbu qaydnoma xo'jalik openatsiyalarini qayd etish jurnali va boshlang'ich hisob hujjatlari ma'lumotlari asosida to'ldiriladi.

Uzoq muddatli bank kreditlarini hisobga olish

QAYDNOMASI

20__ yil _____ uchun

7800 - schyot bo'yicha

Boshqa kreditor nomi	20__y.	7800- schyotning kreditidan quyidagi schyotlar debetiga				7800 - schyotning debetidan quyidagi schyotlar kreditiga				20__y.
	dagi qoldiq kredit	5100	5200	6010	jami	5100	5500	_____	jami	dagi qoldiq kredit
1	2	3	4	5	6	7	9	10	11	12

Rahbar

imzo

F.I.Sh.

Buxgalter

imzo

F.I.Sh.

Uzoq muddatli bank kreditlarining analitik hisobi kreditlarning turlari va muddatlari hamda ularni taqdim etgan banklar bo'yicha yuritiladi.

5-mavzu. Moliyaviy natijalar hisobi

Reja

- 5.1. Moliyaviy natijalar hisobining maqsadi hamda vazifalari**
- 5.2. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda (zarar) hisobi**
- 5.3. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hisobi**
- 5.4. Davr xarajatlari hisobi**
- 5.5. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar hisobi**
- 5.6. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar hisobi**
- 5.7. Favqulodda foyda va zararlar hisobi**
- 5.8. Yakuniy moliyaviy natija hisobi**

Tayanch so'z va iboralar: Sotishdan tushgan tushum, sotilgan mahsulot tannarxi, sotishdan tushgan sof tushum, mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari), sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, boshqa operatsion xarajatlar, asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, asosiy faoliyatning foydasi (zarari), dividendlar shaklidagi daromadlar, foizlar shaklidagi daromadlar, valyuta kursi farqidan daromadlar, foizlar shaklidagi xarajatlar, uzoq muddatli ijara (lizing) bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlar, valyuta kursi farqidan zararlar, umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari), favquloddagi foyda va zararlar, daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar), daromad (foyda) solig'i, foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar, hisobot davrining sof foydasi (zarari).

5.1. Moliyaviy natijalar hisobining maqsadi hamda vazifalari

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa faoliyatlarning natijasi sifatida foyda olish asosiy maqsad hisoblanadi. Foyda olishga intilish tovar ishlab chiqaruvchilarni mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirishga, ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarni kamaytirishga undaydi. Foyda olishni ko'paytirish jamiyat manfaatiga ham mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos" ko'ra, moliyaviy natijalar - Fermer xo'jaligining foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakunidir, yoki boshqacha qilib aytganda, moliyaviy natijalar – bu fermer xo'jaligining ma'lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishidir⁴⁹. Bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinib turibdiki, moliyaviy natijalarni aniqlash uchun ma'lum bir davrdagi olingan daromadlar bilan qilingan xarajatlarni taqqoslash, ya'ni olingan daromadlardan qilingan xarajatlarni ayirish lozim.

Moliyaviy natijalar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy moliyaviy natijada olingan daromad qilingan xarajat summadan yuqori bo'ladi va uni foyda sifatida tan olinadi. Moliyaviy natijada qilingan xarajat olingan daromad summasidan ortib ketsa, u zarar hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning asosiy maqsadi

⁴⁹ "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos" (O'zRAV tomoni ro'yxatga olingan, №17-07/86, 26. 07. 1998 y.)

foйда olishga qaratilganligi bois har bir xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ko‘proq foйда olishga intiladi. Binobarin, foйда miqdorida fermer xo‘jaligi, fermer xo‘jaligi jamoasining har bir xodimining manfaatlari o‘z ifodasini topadi. Shu bois foйда iqtisodiy kategoriya bo‘lib u o‘zida ishlab chiqarish va taqsimot orqali tovar-pul munosabatlarini aks ettiradi.

Fermer xo‘jaligining olgan foydasi qancha ko‘p bo‘lsa, mulk egasi har bir xodimni shuncha ko‘p rag‘batlantirishga, fermerni har tomonlama kengaytirishga, takror ishlab chiqarish fondlari mablag‘ini ko‘paytirishga imkoniyati tug‘iladi. Bundan jamiyat ham manfaatdor, zero fermer xo‘jaligining olgan foydasi qancha ko‘p bo‘lsa foйдadan davlat byudjetiga to‘lanadigan soliq ham shuncha ko‘p bo‘ladi.

Jamiyat, fermerlik jamoasi va har bir xodimning manfaatlarining mushtarakligi foйдani taqsimlash va uning hisobidan takror ishlab chiqarish fondlarini tashkil etish orqali namoyon bo‘ladi. Foйдani taqsimlashda manfaatlar mushtarakligini ta‘minlash tamoyiliga amal qilinmaslik yoxud ishlab chiqarishning ob’ektiv qonun va qoidalarini nazardan chetda qoldirish, so‘zsiz mamlakatning iqtisodiy rivojlanish sur‘atlarining keskin tusda pasayishiga va oxir-oqibat jamiyatni siyosiy va iqtisodiy tanazzulga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, foйда qilingan mehnatning xarakteridan qat’iy nazar ishlab chiqarish yoki savdo sohasida yoxud unda band bo‘lgan xodimlar mehnati natijasida yaratiladi.

Foйдaning mohiyati xususida gap ketganda uning turlarini ham yodda tutmoq kerak. Bular tarkibiga tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foйда, asosiy savdo faoliyati foydasi, umumxo‘jalik foydasi, tasodifiy foйда, soliq to‘lagunga qadar foйда, sof foйда, taqsimlanmagan foйда kabilarni kiritish mumkin. Ana shu foйдaning turlari asosida qanday qilib jamiyat, mehnat jamoasi va har bir xodimning iqtisodiy manfaatlarining mushtarakligini ta‘minlash muommosi ham ko‘ndalang turibdi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida foйдani taqsimlashda iqtisodiy jihatdan asoslangan tartibni qo‘llash avvalambor uning bajaradigan funktsiyalarini chuqur va har tomonlama bilishga bog‘liq. Foйдaning bajaradigan funktsiyalari xususida qator iqtisodchi olimlar⁵⁰ etarli darajada Bitiruv malakaviy ishi o‘tkazganlar. A.D.Sheremet⁵¹ foйдaning bajaradigan uchta funktsiyasini ko‘rsatgan:

1) xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini baholovchi ko‘rsatkich sifatida. Lekin u foйдani xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning xo‘jalik faoliyatini baholovchi universal ko‘rsatkich emas deb ta‘kidlaydi. Foйда ko‘p omilli kategoriya sirasiga kirganligi tufayli foйда bilan bir qatorda ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar (sotilgan mahsulot hajmi, tovar aylanmasi, mehnat unumdorligi, kapital samarasi, material sig‘imi, avanslashtirilgan kapitalning aylanish tezligini jadallashtirish) kabilardan foйдalanishni tavsiya etadi;

2) foйдaning taqsimlash funktsiyasi. Bunda foйда qo‘shimcha mahsulotni

⁵⁰ Parдаev M.Q., Isroilov B., Shoalimov A.X. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2004 y.

⁵¹ Шеремет А.Д. Теория экономического анализа. – М.: ИНФРА-М, 2008. С. 105


davlat va korxonalar, korxonalar va uning xodimlari hamda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o'rtasida qayta taqsimlashda moliyaviy dastak vazifasini o'taydi;

3) foydaning rag'batlantirish funksiyasi. U korxonalar va har bir xodimni moddiy rag'batlantirishga qaratilgan.

Foyda ko'rsatkichining xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini baholovchi sintetik ko'rsatkichi funksiyasi xususida quyidagilarni aytish mumkin. Masalan, fermer xo'jaliklarning ixtiyorida qolgan sof foyda tarkibida mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bevosita va bilvosita xarajatlar, asosiy faoliyatning boshqa daromadlari va xarajatlari, moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va xarajatlar qoldig'i, tasodifiy foyda va zararlar qoldig'i o'z aksini topadi. Shu bois, ikki avtonom tushuncha bo'lmish daromad bilan foydani bir-biriga o'xshatish mumkin emas. Daromad ancha kengroq iqtisodiy kategoriya hisoblanib, u tovar aylanmasi qiymatiga yaqin turadi.

Fikrimizcha, "Xarajatlar tarkibi to'g'risida..." gi Nizom⁵² asosida foydaning har bir turi bajaradigan funksiyasini ko'rsatish kerak. Masalan, mahsulot (tovar, ish, xizmat) larni sotishdan tushgan yalpi daromadning bajaradigan funksiyasi orqali mahsulotlarning shartnoma bahosiga nisbatan qo'yiladigan ustama baho darajasini o'zgarishini nazorat qilishimiz mumkin. Fermerlarning asosiy faoliyatdan olgan foydasi (operatsion foyda) bajaradigan funksiyasi orqali mahsulot (ish, xizmat) larni sotishdan tushgan foyda miqdorini, davr xarajatlarning, boshqa operatsion daromadlar va xarajatlarning o'zgarishini nazorat qilish imkoni tug'iladi. Fermer xo'jaliklarning umumxo'jalik faoliyatidan ko'rilgan foydasi funksiyasi orqali moliyaviy faoliyatdan yuzaga keladigan foyda (zarar) o'zgarishi ustidan nazorat o'rnatishimiz mumkin.

Shunday qilib foyda olish har qanday iqtisodiy formatsiyaning pirovard natijasi ekan. Shu bois har bir xodimning foyda olishga bo'lgan manfaatdorligi ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida foydaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, shakllanishi va taqsimlanishi xususida o'z echimini kutayotgan muommolar talaygina ekan.



Faoliyat turlaridan olinadigan daromadlarning guruhlanishi

Agar korxonalar o'z faoliyatini zarar bilan yakunlasa moliyaviy holati

⁵² "Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida" gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son Qarori bilan tasdiqlangan (qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilgan).

yomonlashib, korxonalar inqirozga yuz tutishi mumkin. Ko'plab fermer xo'jaliklarning, moliyaviy muassasalarining zarar bilan faoliyat ko'rsatishi mamlakatning iqtisodiyotiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday sharoitda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning zarar bilan faoliyat ko'rsatishlarining, ya'ni salbiy moliyaviy natijaning oldini olish lozim. Zarar – bu xarajatlarning daromadlar oshishidir, natijada fermer xo'jaligining kapitalining kamayishi vujudga keladi. Demak, zararning oldini olish uchun xarajatlarning daromadlar oshishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Asosiy faoliyat daromadi asosan mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum va operatsion daromadlardan tashkil topadi.

Asosiy faoliyat daromadining keyingi tarkibiy qismi — bu asosiy faoliyatning boshqa (operatsion) daromadlaridir. Bunga asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni sotishdan tushgan daromad, undirilgan yoki qarzdorlar tomonidan e'tirof etilgan har xil jarimalar va vaqtda to'lanmagan qarzlarning, hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar foydasi, da'vo bildirish muddati o'tgan kreditlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar va xolisona moliyaviy yordamlar kabi moddalar kiradi.

Asosiy faoliyat daromadi korxonalar yalpi daromadining salmoqli ulushini tashkil qilishi uning muhim ko'rsatkich sifatida fermer xo'jaligining kelgusi rivojlanish istiqbollari belgilab beradi. Moliyaviy faoliyat daromadi tarkibini quyidagicha ko'rsatish mumkin: dividendlar va boshqa korxonani tashkil qilishda ulushli qatnashishdan olingan daromadlar, qimmatli qog'ozlar va qarz mablag'lari bo'yicha olingan daromadlar, valyuta va valyuta muomalalari bo'yicha daromadlar, mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan va boshqa moliyaviy mablag'larni qayta baholashdan olingan daromadlar, olingan royalti, moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari.

Daromadlarning bunday guruhlanishi, fermer xo'jaligining turli xil faoliyatidan olingan daromadlarini hisobotda alohida ko'rsatish zarurati bilan izohlanadi. Bu korxonalar faoliyati bilan qiziquvchi tomonlar uchun zarur ma'lumotlarni shakllantirish imkonini beradi.

Favqulodda daromad (zarar) - fermer xo'jaligining odatdagi faoliyatidan aniq farq qiladigan, ya'ni tez-tez yoki muntazam sodir bo'lmaydigan voqealar yoki bitimlar natijasida yuz bergan daromadlar yoki xarajatlarning.⁵³

Korxonalar faoliyatining sof moliyaviy natijasini aniqlash uchun hisobot davrida qilingan barcha sarf va xarajatlarning to'g'ri taqsimlanishi lozim.

Barcha xarajatlarning, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga va tannarxga kiritilmaydigan, ammo davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlarga bo'linishi zarur.

Davr xarajatlari, soliq to'laguncha bo'lgan foydani hisoblashda inobatga olinadi. Bundan tashqari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda moliyaviy faoliyat va favqulodda holat bo'yicha xarajatlarning ham alohida ko'rsatiladi.

Xo'jalik umumiy faoliyati - xo'jalikning har qanday tadbirkorlik faoliyati bo'lib, uning oddiy faoliyati, shuningdek xo'jalikning kelgusidagi taraqqiyotga,

⁵³ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 25.08.1998 yilda tasdiqlangan 3-son BHMS "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" 5-bandi.


xo‘jalik yurituvchi sub’ekt iqtisodiy foydalarni mustahkamlash va o‘stirishga qaratilgan faoliyatidan iborat.⁵⁴

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning mohiyati shundan iboratki, u korxonada faoliyati to‘g‘risidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni shakllantirish bilan birgalikda uning samaradorligi va moliyaviy barqarorligini tavsiflash uchun zarur ma‘lumotlarini ham o‘zida aks ettiradi. Moliyaviy natijalarni aniqlash va ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlar berish moliyaviy hisobot ma‘lumotlaridan foydalanuvchilar uchun o‘ta ahamiyatlidir. Shuning uchun ham har qanday tuzumda faoliyat yuritayotgan xo‘jalik su‘bektlar o‘z faoliyatlarining moliyaviy natijalarini aniqlaydilar.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning moddalarini hamda barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunda bayon qilingan umumiy qoidalarga muvofiq ravishda hisobotni tuzish va taqdim etishlari uchun bu moliyaviy natijalarni tasnif etishni bayon qilish uchun “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” nomli 3-son buxgalteriya hisobi milliy standarti qabul qilingan. Bu esa turli davrlarga doir hisobot ma‘lumotlarini boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning shunga o‘xshash hisoblari bilan qiyoslashni ta‘minlaydi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mamalakat rivojlanishining asosi, korxonada faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichi – foyda hisoblanadi. Foyda fermer xo‘jaligining yashovchanligi manbaidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 15 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning rasmdagi ko‘rsatkichlari bilan tasniflanadi.



⁵⁴ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 25.08.1998 yilda tasdiqlangan 3-son BHMS “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” 5-bandi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

— mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{YaF=SST-IT,}$$

bunda,

YaF — yalpi foyda;

SST — sotishdan olingan sof tushum;

IT — sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

— asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o‘rtasidagi tafovut, va plyus asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{AFF = YaF-DX+BD-BZ,}$$

bunda,

AFF — asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX — davr xarajatlari;

BD — asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ — asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar;

— xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$\mathbf{UF=AFF+MD-MX,}$$

bunda,

UF — umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD — moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX — moliyaviy faoliyat xarajatlari;

— soliq to‘langungacha olingan foyda, u umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{STF=UF+FP-FZ,}$$

bunda,

STF — soliq to‘langungacha olingan foyda;

FP — favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ — favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar;

— yilning sof foydasi, u soliq to‘langandan keyin xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ixtiyorida qoladi, o‘zida foydadan to‘lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to‘lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to‘langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$\mathbf{SF= STF-DS-BS,}$$

bunda,

SF — sof foyda;

DS — foydadan to‘lanadigan soliq;

BS — boshqa soliqlar va to‘lovlar.

Moliyaviy natijalarning shakllanishi va ishlatilishi 21-son BHMS “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnoma”ning 5-qism 9-bo‘limida keltirilgan schetlarda hisobga olinadi.⁵⁵

Moliyaviy natijalarning shakllanishi va ishlatilishi hisobi quyidagi schyotlarda yoritiladi:

9000 - Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar;

9100 - Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schyotlar;

9200 - Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar;

9300 - Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar;

9400 - Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar;

9500 - Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar;

9600 - Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar;

9700 - Favquloddagi foyda (zarar)larni hisobga oluvchi schyotlar;

9800 - Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schyotlar;

9900 - Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotlar.

Moliyaviy natijalarni shakllantirish uchun alohida daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar va alohida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar ishlatiladi. Mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishdagi qo‘shilgan qiymat solig‘i, aktsiz va boshqa to‘lovlar olinadigan schyotlar yoki pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debetida va byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga oluvchi schyotlarning (6400) kreditida aks ettiriladi.

9010 “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar”, 9020 “Tovarlarni sotishdan daromadlar”, 9030 “Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar” schyotlarining kreditida fermer xo‘jaligining asosiy faoliyati (tayyor mahsulotlar, tovarlarni sotish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish)dan daromadlar olinadigan schyotlar va pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi, biroq, oldingi hisobot davrlarida olingan, ammo joriy hisobot davriga tegishli bo‘lgan daromad summalari 6230 “Boshqa kechiktirilgan daromadlar” schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Hisobot davrining oxirida ushbu schetlar yakuniy moliyaviy natijalarga olib boriladi.

9910 “Yakuniy moliyaviy natija” schyoti hisobot yilida korxonada faoliyati yakuniy moliyaviy natijasining shakllanishi to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan. 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” schyotining debetida fermer xo‘jaligining xarajat (zarar)lar, kreditida esa foydalar aks ettiriladi. Har bir hisobot davri oxirida 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” schyotining debeti va krediti bo‘yicha aylanmalar yig‘iladi va hisobot davrining

⁵⁵ O‘zR Moliya vazirligi tomonidan 09.09.2002 yildagi 103-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining 21-sonli BHMS. “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schetlari rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”.

yakuniy moliyaviy natijasini ifodalovchi ushbu schyot bo'yicha umumiy qoldiq hisoblab chiqariladi.

Hisobot davrining tugashi bilan yillik moliyaviy hisobot tuzishda 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schyoti 8710 "Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)" schyoti bilan bog'langan holda yopiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, moliyaviy natijalarni buxgalteriya hisobida hisobga olishning asosiy vazifalari quyidagilardir:

- Ø moliyaviy natijalarning shakllanishi to'g'ri ekanligini o'rganish;
- Ø olingan foyda miqdorini har oyda hamda yil boshidan o'z vaqtida va to'g'ri hisob-kitob qilish;
- Ø moliyaviy natijalarni oldindan bashorat qilgan holda zarar ko'rmaslik yo'llarini ishlab chiqish;
- Ø moliyaviy natijalar bilan bog'liq operatsiyalarni va ularning taqsimlanishini buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida va tegishli registrlarda to'g'ri aks ettirish.

5.2. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda (zarar) hisobi

Mahsulot (ish xizmatlar)ni sotishdan olingan yalpi foyda korxonada yaratilgan foydani ifodalaydi. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydani topish uchun mahsulotni sotishdan tushgan sof tushumlardan shu sotilgan mahsulot tannarxini chegirib tashlash kerak, o'z navbatida, mahsulot sotishdan tushgan sof tushumni topish uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan keyin kelgan tushumdan qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, qaytarilgan tovarlar qiymati, xaridorga berilgan skidkalar (chegirmalar) ayirib tashlanadi. Mahsulotni eksport qiluvchi korxonalar eksport tariflarini ham chegirib tashlaydilar. Mahsulotni sotishdan keladigan tushum esa O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuniga asosan aniqlanadi.

Demak, mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda mahsulot sotishdan tushgan sof tushum bilan sotilgan mahsulot tannarxi orasidagi farqqa teng. Bu farq ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy farq foyda sifatida, salbiy farq esa zarar sifatida e'tirof etiladi.

Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushumni hisobga olish uchun quyidagi hisobvaraqlar ochilgan:

9010-«Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromad»

9020-«Tovarlarni sotishdan olingan daromad»

9030-«Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar»

9040-«Sotilgan tovarlarning qaytarilishi»

9050-«Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar».

9010-«Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadlar», 9020-«Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar», 9030-«Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar» hisobvaraqlarining kreditida korxonaning asosiy faoliyatidan (mahsulot sotish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish) olingan daromadlar aks ettiriladi va 4010-«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar», 4110-«Alohida balansga ajratilgan bo'linmalardan olinadigan schyotlar» hamda pul

mablag'larini hisobga oluvchi hisobvaraqlarning debeti bilan o'zaro korrespondentsiyada bo'ladi.

9040-«Sotilgan tovarlarning qaytarilishi» va 9050-«Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar» hisobvaraqlari kontrpassiv hisobvaraqlar bo'lib, 9010, 9020, 9030-hisobvaraqlar summasini korrektirovka qilib turadi. 9040-hisobvaraqlarning debet oboroti mahsulot sotishdan tushgan tushum summasidan chiqarib tashlanadi.

Sotilgan mahsulotning qaytarib olinishiga quyidagicha provodka beriladi:

D-t 9040-«Sotilgan mahsulotning qaytarilishi»

K-t Pul mablag'lari hisobvaraqlari.

Qaytarib olingan mahsulot va tovarlarning tannarxiga qizil storno yozuvi orqali quyidagicha provodka beriladi:

D-t 9110, 9120, 9130

K-t 2810, 2910, 2920

Qaytarib olingan mahsulot va tovarlar bo'yicha hisoblangan QQS summasiga quyidagicha provodka beriladi:

D-t 6410-«Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni»

K-t 5110-«Hisob-kitob schyoti».

Hisobot davri oxirida 9040-hisobvaraqlarning debet saldosi yakuniy moliyaviy natijaga o'tkaziladi:

D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 9040-«Sotilgan tovarlarning qaytarilishi».

9050-«Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar» schyotida tayyor mahsulot va tovarlar qiymatidan xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar hisobga olinadi. Xaridor va buyurtmachilarga chegirmalar berilganida quyidagicha provodka beriladi:

D-t 9050-«Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar»

K-t 4010, 4110-hisobvaraqlar.

Hisobot davri oxirida 9050-hisobvaraqlarning debet saldosi yakuniy moliyaviy natijaga o'tkaziladi:

D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 9050-«Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar».

Sotilgan tayyor mahsulot, tovarlar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi to'g'risidagi axborotlar quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

9110-«Sotilgan mahsulot tannarxi»

9120-«Sotilgan tovarlar tannarxi»

9130-«Sotilgan ish va xizmatlar tannarxi»

9140-«Davriy hisobda TMZlarni xarid qilish va sotish»

9150-«Davriy hisobda TMZlar bahosiga tuzatishlar».

Ushbu hisobvaraqlarning debeti ko'payishni, krediti kamayishni ko'rsatadi. 9110, 9120, 9130-hisobvaraqlar tranzit bo'lib, hisobot davrining boshiga qoldiq qolmaydi.

Sotilgan tayyor mahsulot, tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi 9110, 9120, 9130-hisobvaraqlarning debeti va 2011-«Asosiy ishlab

chiqarish», 2810-«Ombordagi tayyor mahsulot», 2910-«Ombordagi tovarlar» hisobvaraqlarining krediti bilan o‘zaro korrespondentsiyada aks ettiriladi.

Oy oxirida mahsulot, ish va xizmatlarning haqiqiy tannarxi bilan reja tannarxi orasidagi farqi tegishli hisobvaraqlarga o‘tkaziladi.

Bunda quyidagicha provodkalar beriladi:

D-t 2810, 2820 - tayyor mahsulotga tegishli farq summasiga

D-t 9110, 9130 - sotilgan mahsulot, ishlar va xizmatlarga tegishli farq summasiga

K-t 2011, 2310

Agar ushbu farq summasi ortiqcha qilingan xarajatni ko‘rsatsa, yuqoridagi provodkalar beriladi. Agarda tejalgan summani ko‘rsatsa, ushbu provodkalar qizil storno yozuvi orqali reja tannarx haqiqiy tannarxga etkazib quyiladi.

4010-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” hisobvarag‘i aktiv bo‘lib, uning savdosi xaridor va buyurtmachilarning korxonadan sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar bo‘yicha qarzini ko‘rsatadi, debet oboroti hisobot oyida topshirilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning sotish qiymatini, kredit oboroti esa hisobot oyida xaridorlar tomonidan to‘langan summani ko‘rsatadi.

Mahsulot (ish, xizmat) sotilishi hisobini tashkil qilishda sotilgan mahsulot, tovarlar, ish va xizmatlarning har birining alohida turi bo‘yicha yuritilib, sotilayotgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlarning tarkibiy tuzilishi hamda ularning har birining umumiy sotilish summasidagi hissasi, har qaysining foydalilik darajasi va boshqa ma‘lumotlar aks ettirilishi lozim.

Sotish muomalalarini aks ettirish

№	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Debet	Kredit
1	Mahsulotlar xaridorlarga jo‘natilganida jo‘natilgan tovar qiymatiga	4010	9010
2	Tayyor mahsulotning sotilishida sotish bahosining aks ettirilishi	4010	6410, 9010
3	Xaridorlarga jo‘natilgan tayyor mahsulotlarga QQS va aktsiz solig‘i hisoblanganida	4010	6410
4	QQS summasi byudjetga o‘tkazib berilganida	6410	5110
5	Sotilgan tovarlarning qaytishi	9040	4010
6	Sotilgan tovarlar yoki mahsulototning tannarxiga	9110	2810
7	Hisobot davri oxirida 9040 schyotning yopilishi	9010	9040

Xaridorlarga yuklab jo‘natilgan mahsulotlar harakatining hisobi 16-qaydnomaning 2-bo‘limida yuritiladi. Yuklab jo‘natilgan va sotilgan mahsulotlarning hisobvaqralari bo‘yicha sintetik hisob 11 jurnal-orderida yuritiladi. Bu jurnal-order 2810, 9410, 9010,9020, 9030, 9210, 4010 – hisobvaraqlarining kredit oboroti hamda 9010, 9020, 9030 – hisobvaraqlarining analitik malumotlarini yozish uchun mo‘ljallangan. 11-jurnal-order 15 va 16-vedomostlarning analitik malumotlariga asosan to‘ldiriladi.

Hisobot davri oxirida 9110, 9120, 9130-hisobvaraqlarning debet

oborotlaridagi summalar yakuniy moliyaviy natijaga o'tkaziladi:

D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 9110, 9120, 9130-hisobvaraqlar.

5.3. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hisobi

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi:

- undirilgan yoki qarzdor tomonidan e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to'lanmagan qarzlari va xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun boshqa xil jazo jarimalari, shuningdek etkazilgan zararlarni undirish bo'yicha daromadlar;

- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi foyda;

- ishlab chiqarish va mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan renta daromadi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar huzuridagi oshxonalaridan tushumlar, yordamchi xizmatlardan daromadlar sifatidagi kirim qilingan boshqa daromadlar;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy fondlarini va boshqa mol-mulklarini sotishdan olingan daromadlar;

- da'vo muddati o'tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

- tovar-moddiy boyliklarni qayta baholash;

- davlat subsidiyalaridan daromadlar;

- xolisona moliyaviy yordam;

- boshqa muomala daromatlari.

Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

9310-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishidan olingan foyda»

9320-«Boshqa aktivlarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishidan olingan foyda»

9330-«Undirilgan jarima, boqimanda va burdsizliklar»

9340-«O'tgan yil foydasi»

9350-«Operativ lizingdan olingan daromad»

9360-«Kreditorlik va deponentlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar»

9370-«Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarning daromatlari»

9380-«Qaytarilmaydigan moliyaviy yordam»

9390-«Boshqa operatsion daromadlar».

Ushbu hisobvaraqlar tranzit hisoblanadi. Yuqoridagi hisobvaraqlarning kredit oboroti foyda (daromad)ning ko'payishini, debet oboroti esa ularning hisobdan chiqarilishini ko'rsatadi.

5.4. Davr xarajatlari hisobi

Davr xarajatlari - bu korxonada xarajatlarini hisobga olish tizimida yangi ko'rsatkichdir. Davr xarajatlari tarkibiga fermerni ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlar kiradi.

Davr xarajatlari bu – bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajat va sarflaridir. Ushbu xarajatlar tarkibiga boshqaruv xarajatlari, mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar kiritiladi.

Davr xarajatlari tarkibiga korxonada ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlar kiradi. Bular jumlasiga boshqaruv, tijorat bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek umumxo'jalik xarajatlari, jumladan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bo'yicha xarajatlar ham kiradi. Bu xarajatlar korxonada asosiy faoliyati va mahsulot sotish bilan bog'liq bo'lmaganligi, lekin ma'lum bir jarayonlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lganligi uchun ular operatsion xarajatlar, umumiy va ma'muriy xarajatlar deyiladi. Ular mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga bog'liq bo'lmagan, va aksincha, vaqt bilan, xo'jalik faoliyatining davomiyligi bilan bog'liq bo'lgani sababli ular davr xarajatlari deb yuritiladi.

Mahsulot sotish, ma'muriy xarajatlar, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar xarajatlari, boshqa operatsion xarajatlar davr xarajatlari tarkibiga kiritiladi.

Hisobvaraqlar rejasiga binoan davr xarajatlari quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

9410-«*Sotish xarajatlari*»

9420-«*Ma'muriy xarajatlar*»

9430-«*Boshqa operatsion xarajatlar*»

Sotish xarajatlariga «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan quyidagilar kiradi:

- temir yo'l, suv, avtomobil, ot-ulovda tashish xarajatlari hamda transport vositalari bekor turib qolganligi uchun to'langan jarimalar;
- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining xarajatlari;
- mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bog'liq mehnatga haq to'lash xarajatlari (ma'muriy-boshqaruv xodimlaridan tashqari);
- ularning ijtimoiy sug'urta ajratmalari;
- savdo ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar, inshootlar va xonalarni ijaraga olish, saqlash va tuzatish xarajatlari;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- sanitariya kiyim-boshi, oshxona dasturxon va sochiqlari, oshxona idish-tovog'i va anjomlarining eskirishi;
- gaz, yog'qilg'i, elektr energiyasi xarajatlari;
- tovarlarni saqlash, ularga ishlov berish va ularni sortlarga ajratish xarajatlari;
- savdo reklamasi xarajatlari;
- tashish, saqlash va sotish chog'ida tovarlarning norma doirasida va undan ortiqcha yo'qotilishi;

- o‘rash-joylash materiallari xarajatlari;
- mol-mulkni majburiy sug‘urta qilish xarajatlari;
- mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi xarajatlari;
- ventilyatorlar, mashinalar va ularning harakatlanuvchi qismlarini o‘rnatish va saqlash, tuynuklar, o‘yiqalar va boshqalarning atrofini o‘rash bo‘yicha joriy (nomukammal tUSDagi) xarajatlar;
- maxsus kiyim-bosh va poyafzalni yuvish va tuzatishga materiallar qiymati;
- *bank xizmatlariga to‘lovlar.*

Yuqorida keltirilgan xarajatlar 9410-«*Sotish bo‘yicha xarajatlar*» schyotida hisobga olinadi. Ushbu hisobvaraQ tranzit hisobvaraQ bo‘lib, qaysi davr bo‘lmasin uning oy boshida qoldiq summasi bo‘lmaydi. HisobvaraQning debet tomonida tovarlarni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar ko‘rsatilsa, kredit tomonida ushbu xarajatlarni hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi. Bu summa foydaning kamayishiga olib keladi, ya‘ni foyda hisobidan qoplanadi.

9410-«*Sotish bo‘yicha xarajatlar*» schyotining analitik hisobi 15-sonli qaydnomada xarajatlarning debet va kredit oboroti ko‘rsatiladi. Debet oborotining jami summasi №1, 2, 7, 10/1-jurnal orderlarda aks ettirilsa, kredit bo‘yicha oborot summolari esa №11-jurnal-orderida aks ettiriladi.

- Soliq qonuni va boshqa qonunlarni buzganlik uchun jarima va penyalar.
- To‘langan boshqa jarimalar.
- Boshqa xarajatlar.

Yuqoridagi keltirib o‘tilgan xarajatlar 9430-«*Boshqa operatsion xarajatlar*» schyotida hisobga olinadi.

5.5. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar hisobi

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom»ga binoan moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

- Olingan royaltlar va sarmoya transferti.
- O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida boshqa xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatida ulush qo‘shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aktsiyalar bo‘yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda xo‘jalik yurituvchi sub‘ektga tegishli qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlar.
- Mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to‘lovini olish).
- Valyuta schyotlari, shuningdek chet el valyutalaridagi muomalalari bo‘yicha ijobiy kurs tafovutlari.
- Sarflangan (qimmatli qog‘ozlarga, sho‘ba korxonalariga va hokazolarga) mablag‘larni qayta baholashdan olingan daromadlar.

Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar soliqqa tortishda yalpi daromadga kiritilmaydi.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromadlar hisobi «Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar» nomli 2-son BHMS, «Ijara hisobi» nomli 6-son BHMS, «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» nomli 12-son BHMSlar bilan tartibga solinadi.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha olinadigan daromadlar uchun quyidagi

hisobvaraqlar ochilishi mumkin:

9510-«Royaltidan olingan daromadlar»

9520-«Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar»

9530-«Foiz ko‘rinishidagi daromadlar»

9540-«Kurs farqlaridan olingan daromadlar»

9550-«Moliyalanadigan lizingdan olinadigan daromadlar»

9560-«Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan daromadlar»

9590-«Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa daromadlar».

Ushbu hisobvaraqlar tranzit bo‘lib, passiv xarakterga ega. Ularning kredit oborotida tegishli manbalar hisobidan moliyaviy foydaning ko‘payishi, debet oborotida esa ularning hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi.

9510-«Royaltidan olingan daromadlar» schyotida royalti va kapital transferti bo‘yicha olingan daromadlar aks ettiriladi.

Royaltidan olingan daromadlarga quyidagicha provodka beriladi:

D-t 4850-«Royalti bo‘yicha olishga tegishli schyotlar»

K-t 9510-«Royaltidan olingan daromadlar».

9520-«Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyotida O‘zbekiston Respublikasi hududida va chet ellarda ulush qo‘shish yo‘li bilan boshqa korxonalar faoliyatida qatnashishdan olingan daromadlar, aksiyalar bo‘yicha dividendlar aks ettiriladi.

Dividendlar bo‘yicha olinadigan daromadlarga quyidagicha provodka beriladi:

D-t 4840-«Olinadigan dividendlar»

K-t 9520-«Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar».

9530-«Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyotida uzoq va qisqa muddatli investitsiyalar bo‘yicha hisoblangan foizlar aks ettiriladi.

Foizlar hisoblanganida quyidagicha provodka beriladi:

D-t 4830-«Olinadigan foizlar»

K-t 9530-«Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar».

9540-«Kurs farqlaridan olingan daromadlar» schyotida valyuta schyotlari, shuningdek xorijiy valyuta muomalalari bo‘yicha ijobiy kurs farqlaridan olingan daromadlar aks ettiriladi.

9550-«Moliyalanadigan lizingdan daromadlar» schyotida mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromad aks ettiriladi.

Hisobot davri yakunida 9510, 9520, 9530, 9540, 9550, 9560, 9590-hisobvaraqlarning kredit oborotidagi summalar yakuniy moliyaviy natijaga o‘tkaziladi.

5.6. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar hisobi

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan hisob stavkalari darajasida va ulardan ortiqcha olingan qisqa muddatli hamda uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha, shu jumladan to‘lov muddati o‘tgan va uzaytirilgan ssudalar bo‘yicha to‘lovlar.

- Mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlar.
- Chet el valyutasi bilan muomalalar bo'yicha salbiy kurs tafovutlaridan zararlar.
- Sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, sho''ba korxonalariga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar.
- O'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar.
- Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar, shu jumladan salbiy diskont.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni hisobda aks ettirish uchun quyidagi hisobvaraqlar ochilgan:

9610-«Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar»

9620-«Kurs farqlaridan zararlar»

9630-«Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bo'yicha xarajatlar»

9690-«Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar».

Ushbu hisobvaraqlar tranzit bo'lib, aktiv hisobvaraqlar xarakteriga ega. Ularning debet oborotlari sodir bo'lgan moliyaviy xarajatlarni, kredit oboroti esa ularning hisobdan chiqarilishini ko'rsatadi.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar hisobi «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar» nomli 2-son BHMS, «Lizing hisobi» nomli 6-son BHMS, «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» nomli 12-son BHMSlar bilan tartibga solinadi.

5.7. Favqulodda foyda va zararlar hisobi

Favqulodda foyda moddalari - bu ko'zda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bo'lgan, hodisa yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektning odatdagi faoliyat doirasidan chetga chiqadigan tusdagi muomalalar natijasida paydo bo'ladigan va olinishi kutilmagan foydadir. Bunga daromadlarning favqulodda moddalari yoki asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar bo'limida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davrlardagi foyda kirmaydi.

Favqulodda zararlar - bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki muomalalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlardir. Bunga favqulodda va davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davr xarajatlari kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda foyda va zararlar sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga xos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq emaslik.

Favqulodda foyda va zararlar quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

9710-«Favqulodda foyda»

9720-«Favqulodda zarar».

Ushbu hisobvaraqlar tranzit bo'lib, 9710-hisobvaraqlar passiv, 9720-hisobvaraqlar aktiv xarakterga ega.

5.8. Yakuniy moliyaviy natija hisobi

Yakuniy moliyaviy natija - bu korxonaning hisobot davrida jami faoliyat turlaridan olingan daromadlari bilan jami faoliyat bo'yicha ko'rilgan zararlarining farqidir.

Yakuniy moliyaviy natija buxgalteriya hisobida 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» schyotida hisobga olib boriladi. Ushbu hisobvaraqa tranzit bo'lib, aktiv-passiv hisobvaraqa xarakteriga ega. Hisobvaraqaqning debetida zararlar, kreditida esa foyda aks ettiriladi. Ushbu hisobvaraqaqning debet va kredit oborotlarining farqi korxonaning hisobot yilidagi moliyaviy natijasini, ya'ni soliq to'langunga qadar bo'lgan foydasini aks ettiradi. Hisobot yilining oxirida 9810-«Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar», 9820-«Boshqa soliq va yig'implar bo'yicha xarajatlar» hisobvaraqlarida foyda (daromad)dan hisoblangan umumiy summa aks ettiriladi. Hisobot davrida hisoblangan soliq va yig'implar summasi quyidagi provodka orqali chegirib tashlanadi:

D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 9810, 9820.

Ushbu muomaladan so'ng 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» schyotida qolgan summa korxonaning hisobot yilida olgan sof foyda (yoki zarar)ini anglatadi va ushbu summa quyidagi provodka orqali 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyotiga o'tkaziladi:

- sof foyda summasiga:

D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»

K-t 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» 152

- zarar summasiga:

D-t 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»

K-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija».

9910-«Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'ining debet va kredit oborotlarining farqi korxonaning hisobot yilidagi moliyaviy natijasini, soliq to'langunga qadar bo'lgan foydasini aks ettiradi. Hisobot yilining oxirida 9810-«Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar», 9820-«Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha xarajatlar» hisobvaraqlarida foydadan hisoblangan umumiy summa aks ettiriladi. Hisobot davrida hisoblangan soliq va yig'implar summasi quyidagi provodka orqali chegirib tashlanadi:

D-t 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» 23744 ming so'm.

K-t 9810-«Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar» 23744 ming so'm.

D-t 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» 174 ming so'm

K-t 9820-«Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha xarajatlar» 174 ming so'm

Yakuniy moliyaviy natijalarning shakllanish hisobi muomalalari

T/r	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa ming so‘m	Debet	Kredit
1	Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi	13509130	9010	9910
2	Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi	12571340	9910	9110
3	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi	362875	9310- 9390	9910
4	Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi	1167920	9910	9410- 9430
5	Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi	1226	9510- 9590	9910
6	Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi	108046	9910	9610- 9690
7	9710-“Favqulodda foydalar” schyotining yopilishi	-	9710	9910
8	9720-“Favqulodda zararlar” schetining yopilishi	-	9910	9720
9	Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi	23744 174	9910 9910	9810 9820
10	Hisobot yilining sof foydasi hisobdan chiqariladi	2007	9910	8710
11	Hisobot yilining sof zarari hisobdan chiqariladi	-	8710	9910

Hisobot yilining yakunlari bo‘yicha korxonada foyda olsa (ya‘ni, 9910-schyotning kredit tomonidagi saldo), unda hisobda bu operatsiya quyidagi jadvaldagi 10-raqamli yozuv bilan, zarar ko‘rsa (ya‘ni, 9910-schyotning debet tomonidagi saldo), 11-raqamli yozuv bilan aks ettiriladi. Yuqoridagi muomalarni umumiy qilib quyidagi jadvalda keltirish mumkin.

Ushbu muomaladan so‘ng 9910-“Yakuniy moliyaviy natija” hisobvarag‘ida qolgan summa korxonaning hisobot yilida olgan sof foyda (yoki zarar)ini anglatadi va ushbu summa quyidagi provodka orqali 8710-“Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” hisobvarag‘iga o‘tkaziladi:

- sof foyda summasiga:

D-t 9910-“Yakuniy moliyaviy natija” 2007 ming so‘m

K-t 8710-“Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” 2007 ming so‘m

Sof foyda miqdorini o'rganish va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish ularni chuqur har tamonlama o'rganish imkoniyatlarni aniqlashga hamda korxonada samaradorligini oshirishga olib keladi. Har bir xo'jalik sub'ekti o'z faoliyati natijasida sof foydaga erishishni ko'zlaydi. Ushbu ko'rsatkich soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda summasidan foydadan soliq va boshqa soliqlar va ajratmalarni chegirish asosida aniqlanadi.


Sof foyda - korxonaning butun ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatining hamma turlari bo'yicha, shu jumladan, mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bevosita va bilvosita xarajatlar, asosiy faoliyat daromadlar va xarajatlar qoldig'i, moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va xarajatlar qoldig'i, tasodifiy foyda va zararlar qoldig'i bo'yicha aniqlanadi.

Taqsimlanmagan foyda — sof foydaning aktsiyadorlar (ishtirokchilar) tomonidan taqsimlanmagan va tashkilotning ixtiyorida qolgan qismi.

Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) va o'tgan yillarning jamg'arilgan foydasi (qoplanmagan zarari) bir-biridan farq qiladi. Taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar hisobi quyidagi schyotlarda yuritiladi:

8710-“Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)”;

8720-“Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)”.



Foydaning shakllanishi va ishlatilishi

Sof foydaning shakllanishi va uni to'g'ri taqsimlash hamda undan oqilona foydalanishda shunday maqbul tartibni qo'llash kerakki, toki u korxonada jamoasi va har bir xodim mehnatining korxonada jamoasi va har bir xodim mehnatining xodim mehnatining samaradorligini oshirishga bo'lgan moddiy manfaatdorligini o'z-o'zidan kuchaytirishga olib kelsin.

Taqsimlanmagan (jamg'arilgan) foydaning o'zgarishini aks ettirish

№	Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
1.	Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi aks ettirildi (transformatsiya o'tkazmasi)	9910	8710
2.	Foyda hisobidan dividendlar hisoblandi	8710	6610
3.	Hisobot davri taqsimlanmagan foydasining jamg'arilgan foydaga o'tkazilishi	8710	8720
4.	Jamg'arilgan foyda ustav kapitalini ko'paytirishga yo'naltiriladi	8720	8300
5.	Hisobot davrining zarari jamg'arilgan foyda hisobiga qoplandi	8720	8710
6.	Jamg'arilgan foyda rezerv kapitalini to'ldirishga yo'naltirildi	8720	8520

Foydani taqsimlash to'g'risidagi qarorni korxonaning mulkdorlari (AJ aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi, MChJ ishtirokchilarining yig'ilishi, xususiy korxonaga egasi) qabul qiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Sarflar, ularning mohiyati, turkumlanishi va yo'nalishini tasniflang.
2. Sarflarni tan olish va ularning tarkibini tushuntiring.
3. Sotilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatning tannarxini hisobga olishni tushuntiring.
4. Davr sarflari, ularni turkumlash va tarkibiy tuzilishini tushuntiring.
5. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish sarflari nimalardan iborat?
6. Ma'muriy-boshqaruv sarflarini hisobga olish qanday amalga oshiriladi?
7. Daromadlar, ularning mohiyati, turkumlanishi va kelish yo'llarini tushuntiring.
8. Moliyaviy faoliyat bo'yicha sarflarni hisobga olish qanday amalga oshiriladi?
9. Daromadlar, ularning mohiyati, turkumlanishi va kelish yo'llarini tushuntiring.
10. Daromadlarni tan olish va ularning tarkibi nimalardan iborat?

6-mavzu. Hisobotlarni tuzish va taqdim etish

Reja

- 6.1. Buxgalteriya hisobotining maqsad va vazifalari
- 6.2. Buxgalteriya hisobotlarini tuzish tartibi
- 6.3. Buxgalteriya hisobotlarini taqdim etish
- 6.4. Buxgalteriya balansini tuzish tartibi
- 6.5. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi
- 6.6. Pul oqimlari va hamda taqdim etish tartibi
- 6.7. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tuzish


Tayanch so'z va iboralar: aktsiya, aktsiyadorlik jamiyati, dividend, investitsiya muhiti, investitsiya, investor, innavatsion faoliyat, infratuzilma, kapital, kapital qo'yilmalar, likvid aktivlar, likvidatsiya qiymati, buxgalteriya hisoboti.

6.1. Buxgalteriya hisobotining maqsad va vazifalari

Buxgalteriya shaxs, firma uchundir, faqat xarajatlar va daromadlar ta'sirining xolisligi moliyaviy hisobotlarda e'tirof etiladi. Barcha tashqi ma'lumotlarga e'tibor berilmaydi. Shuning uchun firmalar jamiyat, kelajak avlod va jaxonga tartibga soluvchi joriy qilingan muayyan qonun va jarimalarsiz zarar etkazishi mumkin. Tashqi faktorlar mas'uliyatining samaradorligi bunga misoldir, faqat jamoatchilik fikri va siyosiy bosim uni orbitani o'rtasiga harakatlantiradi, shundan keyin, kutilayotgan kelajak avlod joriy jamiyatni o'rnini egallaydi.

Agar siyosiy bosim etarlicha kuchli bo'lsa, muammo unimas'uliyatli ichki orbitasiga uni harakatlantiradigan qonunchilikni tortadi, huquqni muhofaza qilish xodimlari muvofiqligini ta'minlash uchun vakolatli bo'ladi.⁵⁶

Korxonaning joriy faoliyati ma'muriyat tomonidan boshqaruv funktsiyalarini safarbar qilish yo'li bilan amalga oshirilib, uning natijalari buxgalteriya hisobi tizimida aks ettiriladi. Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ma'lum vaqt oralig'ida amalga oshirilgan xo'jalik muomalalari to'g'risidagi axborotlar tegishli hisob registrlarida umumlashtiriladi va guruhlangan holda ulardan buxgalteriya hisobotlariga o'tkaziladi. Buxgalteriya hisobini huquqiy-



me'yoriy tartibga solish tizimida hisobot korxonaning mulkiy va moliyaviy ahvoli hamda moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona tizimi sifatida qaraladi. Hisobotlar ma'lum hisobot davri uchun belgilangan shakllar bo'yicha tayyorlangan buxgalteriya hisobi axborotlari asosida tuziladi. O'z navbatida hisobot davri – bu korxonada moliyaviy hisobotini tuzishi lozim bo'lgan

⁵⁶ “An Introduction to Accounting Theory” Gabriel Donleavy. 2016 yil 141-149 betlar

davr.

Hisobot – xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘tgan vaqt ichidagi ishlari natijalari va sharoitlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar majmui bo‘lib, undan faoliyatini tahlil, nazorat qilish va boshqarish maqsadida foydalaniladi.

Hisobot axborotlari sotilgan mahsulot, ish va xizmatlar, ularni ishlab chiqarish xarajatlari, xo‘jalik mablag‘lari va ularni tashkil bo‘lish manbalari, ishlarning moliyaviy natijalari, soliqqa tortish va dividendlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z faoliyati ustidan kundalik nazoratni hujjatlar va hisobot registrlariga asosan olib boradilar. Lekin uzoq vaqt (oy, chorak, yil) davomida xo‘jalik faoliyatini yakunini bilish uchun bu ma‘lumotlar etarli emas. Ularni umumlashtirish va tizimga keltirish zarur. Bunga hisobot tuzish yo‘li bilan erishiladi.

Moliyaviy hisobotga qo‘yiladigan talablardan biri – uni rasmiylashtirish hisoblanadi. Bu moliyaviy hisobotni tuzish ham mulklar, majburiyatlar va xo‘jalik muomalalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish kabi, o‘zbek tilida va milliy valyuta – so‘mda amalga oshirilishini bildiradi. Moliyaviy hisobot korxonaning rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanib, muhr bilan tasdiqlanadi.

Birinchi navbatda, shuni aytish joizki, korxonalar (xorijiy investitsiyali korxonalaridan tashqari) majburiy tartibda quyidagi foydalanuvchilarga chorak va yillik hisobotini topshiradi:

- ta‘sis hujjatlariga binoan mulkdorlar (mulkni boshqarish bo‘yicha vakolatli organlar, ta‘sischilar);
- davlat soliq inspeksiyasiga (bir nusxa);
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan korxonalar faoliyatini ayrim tomonlarini tekshirish va tegishli hisobotni olish vazifalari yuksaltirilgan boshqa davlat organlariga.

«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga binoan: - barcha korxonalar va muassasalar uchun hisobot yili 1 yanvardan 31-dekabrigacha bo‘lgan davr hisoblanadi.

- yangi tashkil etilgan korxonalar va muassasalar uchun birinchi hisobot yili bo‘lib, ular yuridik huquqqa ega bo‘lgan sanadan shu yilning 31-dekabrigacha bo‘lgan davr hisoblanadi. 1-oktyabrdan keyin tashkil etilgan (tugatilgan, qaytadan tashkil etilgan) korxonalar va ularning strukturaviy bo‘linmalari asosida tashkil etilganlardan tashqari korxonalar uchun ularning yuridik huquqqa ega bo‘lgan sanadan keyin yilning 31-dekabrigacha bo‘lgan davrni birinchi hisobot yili davri hisoblashga ruxsat beriladi.

- korxonalar choraklik va yillik buxgalteriya hisobotlarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda topshiradilar.

Shuni ham eslatib o‘tish kerakki, korxonaning xo‘jalik faoliyati natijalari, mulkiy va moliyaviy holati to‘g‘risidagi yillik buxgalteriya hisoboti foydalanuvchilar (birja, xaridor, mol yurituvchi va boshqalar) uchun ochiq bo‘lib nashr etilishi mumkin. Nashr etilgan hisobotning to‘g‘riligi mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlanadi.

Moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi tizimining yakuniy natijasi sifatida moliyaviy hisobot subyektining moliyaviy holatini va uning moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. Bunday axborotlardan ko'plab iste'molchilar quyidagi maqsadlarda foydalanadi:

- a) kreditlar berish bo'yicha qarorlar qabul qilish va investitsion qarorlar qabul qilish uchun;
- b) subyektning kelgusidagi pul oqimlarini baholash;
- c) subyektning resurslari, majburiyatlari va ulardagi o'zgarishlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

Buxgalteriya hisobotlarining tarkibi va shakllari hamda ularni to'lg'azish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan belgilanadi.

Yillik moliyaviy hisobot shakllarini tuzishdan oldin katta tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Uning mazmuni hisob ma'lumotlarining mulklar va ular manbalarining haqiqiy mavjud qoldiqlariga mosligini tasdiqlash bilan belgilanadi.

Shuning uchun yillik balansni tuzishga yil davomida tuziladigan balanslarga qaraganda juda yuqori ishonchlilikni ta'minlash talabi qo'yiladi.

Bunda tayyorgarlik ishlarining negizi barcha turdagi xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarini to'liq inventarizatsiya qilishdan iborat.

Buxgalteriya balansini tuzish texnikasi uning isbotlovchi hujjatlar bilan tasdiqlangan hisob yozuvlari asosida to'ldirilishini nazarda tutadi. Balansni tuzishdan oldin analitik hisob schyotlari bo'yicha qoldiqlar va oborotlar bosh daftardagi schyotlar bo'yicha qoldiqlar va oborotlar bilan solishtirilib, tekshirilishi lozim. Bunda ularning tengligiga ishonch hosil qilish zarur.

Hisobotning ayrim shakllarini tuzish jarayonida ularga ma'lum talablar qo'yiladi. Masalan, balansni tuzishda uning ayrim moddalarini baholash qoidalariga rioya qilish kerak.

Yillik buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayidan kechikmasdan e'lon qilinishi lozim. Yillik moliyaviy hisobot e'lon qilinishidan oldin auditorlik tekshiruvdan o'tkazilib, ijobiy auditorlik xulosasi olingan va xo'jalik yurituvchi subyektning boshqaruv organi (aktsiyadorlarning umumiy majlisi, ta'sischilar majlisi va h.k.) tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Yillik moliyaviy hisobot shakllaridan buxgalteriya balans (1-shakl) va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl) e'lon qilinishi lozim. Bunday tajriba xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan bo'lib, tashqi axborotdan foydalanuvchilarga mazkur korxonaga kapital qo'yish va boshqa masalalar bo'yicha asosli qarorlar qabul qilishga imkon beradi. Buxgalteriya balans qisqartirilgan shaklda e'lon qilinishi mumkin va uning mazmuni korxonaga tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining qoidalarida ko'zda tutilgan talablar doirasida bo'lishi lozim. Yillik moliyaviy hisobot bilan birga auditorlik xulosasi ham e'lon qilinishi mumkin. Uning mazmuni mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan moliyaviy hisobotning ishonchliligi to'g'risidagi fikr (baho) dan iborat.

Ichki buxgalteriya hisobotlari korxonaning tijorat sirlari oshkor qilinishiga uchun e'lon qilinmaydi. Tijorat siri hisoblangan ma'lumotlarni noqonuniy olish va

oshkor etish qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Elementlar – bu moliyaviy hisobotlarga kiritilishi lozim bo‘lgan moddalarning guruhlaridir.

Moliyaviy hisobot elementlari.

Elementlar	Xususiyati
1. Aktivlar – bu o‘tgan xo‘jalik muomalalari va xodisalari natijasida xo‘jalik sub’ekti tomonidan nazorat qilinadigan iqtisodiy resurslar bo‘lib, ular kelajakda foyda keltirishi extimoliga ega.	Aktiv sifatida ko‘rib chiqilayotgan resurslar quyidagilarga mos bo‘lishi shart: a) Kelgusida iqtisodiy foyda keltirishi kerak. b) Nazorat qilinishi kerak. Egalik huquqiga asosan xo‘jalik sub’ektiga tegishli bo‘lishi kerak. c) Oldingi xo‘jalik muomalalarini natijalari bo‘lishi kerak (yani joriy vaqtda zahiralari sifatida haqiqatdan ham mavjud bulishlari kerak, yoki ishlab chiqarishda, yaratishda eki yo‘lda bo‘lishlari kerak).
2. Majburiyatlar - bu xo‘jalik sub’ektining o‘tgan xo‘jalik muomalalari va xodisalarini amalga oshirish natijasidagi majburiyatlar bo‘lib, ularni hisob-kitob qilish aktivlarning topshirilishi yoki ishlatilishiga, xizmatlarning ko‘rsatilishi, yoki boshqa kelgusi iqtisodiy foydaning kamayishiga olib kelishi mumkin.	Ko‘rib chiqilayotgan majburiyatlar quyidagilarga mos bo‘lishlari shart: a. Kelgusida iqtisodiy foyda keltirishi kerak bo‘lgan aktivlarni o‘tkazishlari kerak. b. Muqarrar bo‘lishlari kerak. c. Oldingi xo‘jalik muomalardan kelib chiqishlari kerak.
3. Aksionerlik kapitali/sof aktivlar – bu majburiyatlar chiqarib tashlangandan keyingi xo‘jalik sub’ektining aktivlardagi egalik ulushidir.	Xisobotdagi aktivlardan majburiyatlarni chiqarilgandan keyingi qoldiq ulushini tashkil qiladi.
4. Daromadlar – bu sub’ektning xo‘jalik faoliyatini natijasida, odatda, ijara xaqi, foizlar, litsenziya to‘lovlari va dividendlar shaklida daromad keltiradigan faoliyat, ya’ni tovarlarning sotilishi, xizmatlarning ko‘rsatilishi yoki boshqa shaxslarning xo‘jalik sub’ektlarining resurslaridan foydalanishi natijasida aktivlarning kelib tushishi yoki majburiyatlarning kamayishi orqali ro‘y beradigan iqtisodiy resurslarning ko‘payishidir.	Xo‘jalik muomalalardan olinadigan daromadning ikki muxim xususiyati: a. Tasodifiy yoki investitsion xo‘jalik muomalalari natijasida emas balkim daromad olishga qaratilgan korxonaning asosiy faoliyati natijasidagi xo‘jalik muomalalaridan olinadigan daromad. b. Daromad olish bo‘yicha asosiy faoliyat takrorlanadigan va uzluksiz jarayondir.
5. Xarajatlar – bu foydani ko‘paytirish maqsadida xo‘jalik faoliyatidan kelib chiqadigan aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarni o‘z zimmasiga olish orqali ro‘y beradigan iqtisodiy resurslarning kamayishidir.	Xarajatlarning muhim xususiyati shundaki, ular kompaniyaning dapromad olishi jarayoni bilan bir vaqtda amalga oshirilishi kerak.
6. Foyda – bu xo‘jalik sub’ektiga ta’sir etadigan asosiy va asosiy bo‘lmagan faoliyat, xodisalar, sharoitlar natijasida kapitalning ko‘payishi bo‘lib. Xususiy kapitalga to‘lanadigan badallar bundan mustasnodir.	Xo‘jalik muomalalarining xususiyati shunga shubxa tug‘dirmasligi kerak-ki, bu: (1) asosiy faoliyatdan daromad olish bo‘yicha xo‘jalik muomalalari va (2) Ustav kapitaliga qilinadigan badallar bo‘yicha xo‘jalik muomalasidir.
7. Zaralar – bu asosiy faoliyat va barcha boshqa xo‘jalik muomalalari, xodisalar, sharoitlar natijasida xususiy kapitalining	Xo‘jalik muomalalarining xususiyati shunga shubxa tug‘dirmasligi kerak-ki, bu: (1) chiqimlar bo‘yicha xo‘jalik muomalalari va (2)

kamayishi bo‘lib, xarajatlar yoki xususiy kapitalning taqsimlanishi natijasidagi kamayish bundan mustasnodir.	kapitalni taqsimlash bo‘yicha xo‘jalik muomalasidir.
---	--

Hisobotning har bir shakli va undan foydalanish xo‘jalik mablag‘larini hamda ularni qoplash manbalarini tahlil qilishda batafsilroq ko‘rib chiqiladi.

Birinchi uch guruh elementlar (aktivlar, majburiyatlar va aksionerlik kapitali/sof aktivlar) to‘g‘risidan – to‘g‘ri balans hisobotiga, keyingi turt element esa (daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlar) moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotga tegishlidir.

6.2. Buxgalteriya hisobotlarini tuzish tartibi

Xo‘jalik yurituvchi subyektning hisobotlari uchta asosiy mezon bo‘yicha turkumlanadi:

- ✓ axborotlar hajmiga ko‘ra;
- ✓ tuzilish maqsadiga ko‘ra;
- ✓ davriyligi bo‘yicha.

Hisobotdagi ma‘lumotlar hajmiga ko‘ra xususiy hisobot va umumiy hisobotlarga bo‘linadi.

Xususiy hisobot xo‘jalik yurituvchi subyektning batta faoliyat uchastkasidagi ishi to‘g‘risidagi axborotlarni o‘z ichiga oladi.

Umumiy hisobot xo‘jalik yurituvchi subyektning butun moliya-xo‘jalik faoliyatini tavsiflaydi.

Hisobotlar tayinlanishiga ko‘ra tashqi va ichki hisobotlarga bo‘linadi.

Tashqi hisobotlar xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyat tavsifi, daromadliligi mulkiy hamda moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi axborotdan tashqi foydalanuvchi-manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni axborot bilan ta‘minlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari va O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunining 20-moddasiga muvofiq tashqi yillik moliyaviy hisobot e‘lon qilinishi lozim.

Ichki hisobotlar xo‘jalik yurituvchi subyektning ichki ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tuziladi.

Hisobot qamrab oladigan davrlar bo‘yicha davriy (joriy) va yillik hisobotlarga bo‘linadi.

Korxonaning yillik buxgalteriya hisoboti tegishli organlarga topshirishidan oldin ta‘sis hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonun bilan yillik hisobotning quyidagi shakllarini tuzish nazarda tutilgan:

- 1 - «Korxonalar balansi» (1-shakl);
- 2 - «Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot» (2-shakl);
- 3 - «Pul oqimi to‘g‘risida hisobot» (4-shakl);
- 4 - «Xususiy kapital to‘g‘risida hisobot» (5-shakl).

Yuqoridagi hisobot shakllariga izohlar hisob-kitoblar va tushuntirishlar ilova qilinadi.

Balans chorak va yillik hisobot tarkidiga kiritiladi. Bu «netto» nomli balans

bo'lib, foydalanuvchilarga korxonaning sof qiymatining hajmi to'g'risida axborot beradi. Chunki mumkin qiymati jami ko'rsatkichga quyidagi moddalar bo'yicha eskirishni chiqarib tashlab ko'rsatiladi.

Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqalar, foyda summasi esa, jamiga faqat hisobot davrida tasdiqlanmagan foyda hajmigina qo'shiladi. Lekin xo'jalik faoliyatini tahlil etish maqsadida balansda quyidagi ko'rsatkichlar saqlanib kelgan: dastlabki qiymat va ularning eskirishi, olingan foyda.

Sho'ba korxonalari, filiallar va vakilliklariga ega bo'lgan korxonalar konsolidallashtirilgan (birlashtirilgan) moliyaviy hisobot tuzadi.

Sho'ba korxonalariga qo'yilgan qo'yilmalar bosh korxonaning moliyaviy hisobotida uning moliyaviy qo'yilmalari sifatida aks ettiriladi.

Yuridik shaxslar o'zlarining filiallari, vakilliklari va boshqa strukturaviy bo'linmalarini mustaqil balansga ajratishi mumkin, lekin ularning balansi va boshqa hisobot shakllari tegishli yuridik shaxsining konsolidatsiyalashgan hisobotiga, albatta, qo'shiladi.

Konsolidatsiyalashgan hisobotga bosh korxonaning moliyaviy hisoboti andozasiga binoan tuziladi. Lekin vazirliklar, idoralar va byudjet tashkilotlari bo'yicha tuziladigan yig'ma moliyaviy hisobotlar bundan mustasno.

Moliyaviy hisobot yil boshidan yig'ilib boruvchi jami bilan har chorakdan tekshiriladi.

Byudjet muassasalari chorak va yillik hisobotlarini yuqori organi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda topshiradi.

Ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Moliyaviy hisobot topshirish bo'yicha boshqa muddatlar belgilanishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning yillik moliyaviy hisoboti qiziquvchi banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar va boshqalar uchun ochiq hisoblanadi.

Ochiq tipdagi aksionerlik jamiyatlari, sug'urta kompaniyalari, banklar, fond va tovar birjalari, investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy muassasalar, hisobotda keltirilgan ma'lumotlar to'g'riligini auditorlar tomonidan tasdiqlagandan so'ng yillik moliyaviy hisobotni hisobot yilidan keyingi yilning birinchi mayigacha, albatta, nashr etishlari kerak.

Xo'jalik yurituvchi subyekt tugatilganda xotima moliyaviy hisobot tuziladi.

Korxonani tugatish bo'yicha muammolaning buxgalteriya hisobi, tugatish balansi va hisobotini tuzish, aktivlar qiymatini aniqlash ishlari tugatish komissiyasiga yuklatiladi.

Umidsiz qarzlilar va zararlar tugatish balansiga qo'shiladi.

Tugatish balansida majburiyatlar ularning qaytarish vaqtiga hisoblangan foizlar bilan birga aks ettiriladi.

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot ma'lum yuridik va moliya-xo'jalik munosabatlarida bo'lgan ikki va undan ortiq korxonalarining hisobotlarini umumlashtirishdan iborat. Konsolidatsiyalash metodologiyasi va texnikasi xalqaro hamda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning milliy standartlarida ishlab

chiqilgan va bayon qilingan. Konsolidatsiyalashning maqsadi korporativ guruhga kiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi axborotlarni yagona xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida umumlashtirilgan holda taqdim etishdan iborat. Bunda korporativ guruhga kiruvchi har bir mustaqil korxonalar barcha xo‘jalik muomalalarini amaldagi standartlarga muvofiq hisobga olishi va ularning natijalarini moliyaviy hisobot ko‘rinishida rasmiylashtirishi lozim.

Moliyaviy hisobotlarni konsolidatsiyalash XIX asrning o‘rtalarida AQShda, kapitalning konsentratsiyalashuvi va kompaniyalarning birlashishi natijasida vujudga kelgan. Keyinchalik Evropa mamlakatlarida ham konsolidatsiyalash masalalariga kirishilgan. Hozirgi vaqtda ikki va undan ortiq korxonalarining birlashishi, xoldinglar, korporatsiyalar va moliya-sanoat guruhlarining tashkil etilishi mamlakatimiz amaliyotida ham keng tus olmoqda. Konsolidatsiyalashning zarurligi uning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Agar guruhga kiruvchi korxonalar turli mamlakatlarda joylashgan bo‘lsa, guruhning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotini tuzishda ularning hisobot ma‘lumotlari yagona valyutaga keltiriladi. Guruhga kiruvchi korxonalar bosh kompaniya bilan bitta mamlakatda joylashganda ularning moliyaviy hisobotlarini bitta valyutaga keltirishga ehtiyoj bo‘lmaydi va konsolidatsiyalashning yagona uslublaridan foydalaniladi.

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunning 17-moddasi, buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlariga muvofiq tuziladi. Bunda bosh korxonadan ajralib chiqib faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar guruhi uchun umumlashgan moliyaviy moddalarni tuzish va taqdim qilish to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Qonunning mazkur moddasiga muvofiq bir yoki bir necha sho‘ba korxonalar, filiallar va vakolatxonalariga ega bo‘lgan korxonalar umumlashgan moliyaviy hisobot tuzadilar.

Ushbu moddaning talablari vazirliklar, idoralar va byudjet tashkilotlarining jamlama moliyaviy hisobotiga nisbatan tadbiq etilmaydi. Umumlashgan moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq tuziladi.

Bosh korxonaning sho‘ba korxonalariga qo‘shgan hissalarini uning moliyaviy hisobotida moliyaviy qo‘yilma sifatida aks ettiriladi.

Yuridik shaxslar o‘z filiallari, vakolatxonalarini va boshqa tarkibiy bo‘linmalarini, ularning balanslari va hisobot shakllarini belgilangan tartibda tegishli yuridik shaxsning umumlashtirilgan hisobotiga kiritish sharti bilan mustaqil balansga ajratib chiqarishlari mumkin.

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot, agar bosh kompaniya o‘zining barcha shu‘ba korxonalarini yopib, ular faoliyatini boshqarishni bitta yuridik shaxs doirasida amalga oshirsa, kompaniyaning hisoboti qanday bo‘lishini ko‘rsatadi.

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot rahbariyatga va korporativ guruhga kiruvchi korxonalar kuzatuv kengashiga, shuningdek, mavjud va potentsial investorlar, kreditorlar, mol etkazib beruvchilar, xaridorlar va davlat kabi tashqi axborotdan foydalanuvchilarga ham taqdim etiladi. Shunisi bilan u axborot funksiyasida yopiq bo‘ladi.

Axborotlardan tashqi foydalanuvchilar uchun konsolidatsiyalangan hisobot xususiy balanslarning cheklanganliklarini bartaraf etadigan, qo‘shimcha axborot manbai hisoblanadi. Konsolidatsiyalangan hisobot bosh kompaniya uchun o‘z hisobotini o‘ziga xos «kengaytirish» va «to‘ldirish» hisoblanadi.

Yuqorida bayon qilinganlarni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash joizki, konsolidatsiyalangan hisobot bir necha xususiyatlarga ega:

Ø konsolidatsiyalangan hisobot yuridik mustaqil korxonaning hisoboti hisoblanmaydi. Uning maqsadi korporativ guruh faoliyatining natijalari to‘g‘risida umumiy tasavvur shakllantirishdan iborat. U aniq axborot bilan ta’minlash va tahlil uchun yo‘naltirilgan;

Ø korporativ guruh a’zolari hisoblangan korxonalar o‘rtasidagi kelishuvlar konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotga kiritilmaydi. Unda faqat aktivlar va majburiyatlar, tashqi kontragentlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha daromadlar va xarajatlar ko‘rsatiladi. Har qanday guruh ichidagi moliya-xo‘jalik operatsiyalari identifikatsiyalanadi va konsolidatsiyalash jarayonida chiqarib tashlanadi (konsolidatsiyalanayotgan hisobotga kiritilmaydi). Konsolidatsiyalash bosh kompaniya tarkibiga kiruvchi kompaniyalar moliyaviy hisobotlarining bir xil nomdagi moddalarini oddiy (arifmetik) jamlash emas.

Ø guruhlar hisoboti birlashma tarkibiga kiruvchi har bir kompaniyaning moliyaviy ahvoli va faoliyat natijalari to‘g‘risidagi yig‘ma axborotlarni aks ettiradi. Bu demak, bitta sho‘ba korxonaning foydasi boshqasining zararini «yashirishi», bitta sho‘ba korxonaning mustahkam moliyaviy ahvoli boshqasining potentsial to‘lov layoqatini “yashirishi” mumkin;

Ø agar guruh biznesning har xil turlari bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalardan iborat bo‘lsa, u holda mazkur guruh bo‘yicha konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot ayrim muhim tafsilotlarni ochib bermasligi mumkin. Guruh faoliyatining har biri segmenti to‘g‘risida qo‘shimcha axborotlar etishmagan xollarda esa №27 MHXS va EH Ettinchi direktivasi bunday ochib berishni talab qiladi.

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotning ushbu xususiyatlari uning guruh faoliyatidagi rolini to‘liq ochib berishga imkon yaratadi. Xususan:

Ø guruh to‘g‘risidagi ijobiy fikrlarni qo‘llab quvvatlash va uning fond bozoridagi mavqeyini mustahkamlash (guruh va guruhdagi boshqa kompaniyalar aktsiyalari kotirovkasining o‘ssishi) uchun butun guruh bo‘yicha umumlashgan axborotni taqdim etish;

Ø yagona iqtisodiy birlikning moliyaviy ahvolini va xo‘jalik muomalalarini aniqroq tasvirlaydi, ammo alohida moliyaviy hisobotlarining o‘rnini bosmaydi;

Ø boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘ladi;

Ø guruh a‘zolarining iqtisodiy o‘zaro bog‘liqliligi va o‘zaro ta’sirini tavsiflaydi;

Ø ushbu hisobot bosh kompaniyaning valyutasida tuzilganligi sababli bosh kompaniya uchun nazorat funksiyasini ham bajaradi;

Ø guruh faoliyatini moliyaviy rejalashtirish va moliyalashtirishga ta’sir ko‘rsatadi va b.

Moliyaviy hisobotlarni konsolidatsiyalash zaruriyati eng avvalo axborotdan foydalanuvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot axborotlaridan foydalanuvchilarga aktsiyadorlar, investorlar, kreditorlar, korporativ guruhning boshqaruv xodimlari va davlat boshqaruv organlarini kiritish mumkin.

Albatta, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotdan asosiy foydalanuvchilar aktsiyadorlar bo'lib hisoblanadi. Bosh kompaniya aktsiyasining egasi uning aktsiyalar paketiga to'g'ri keladigan sof aktivlar hajmini baholay olmaydi. Chunki, bosh kompaniya balansi faqat shu'ba korxonalariga qilingan qo'yilmalar summasini o'z ichiga oladi va ushbu qo'yilmalarning jami real qiymatini va aktsiyadorlarning ulushini aks ettirmaydi. Aktsiyadorlarga esa ular qo'yilmalarining qiymatini obyektiv aks ettiradigan, bosh kompaniyaga qarashli barcha sho'ba va tobe korxonalar faoliyatining ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan axborotlar zarur.

Investorlarga konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot, bir tomondan, guruh aktivlari va kapitalining umumiy miqdorini (uning imkoniyatlarini) baholash uchun zarur. Boshqa tomondan, guruhning o'zi konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni taqdim etishdan manfaatdor. Chunki, bu o'zining to'lov layoqatini va moliyaviy barqarorligini ko'rsatish uchun ham zarur.

Xalqaro Hisobot Tashabbusi (XHT) va Barqarorlik hisoboti.⁵⁷

XHT o'z ishini 1997-yilda Ceres tashkiloti ostida boshladi. 2002-yilda uning ilk erkin hisobot statistikasi taqdim etilganda Ceres qaramog'idan chiqdi. Quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga olgan: globallashtiruv, global boshqaruvning yangi shakllarini izlash, ma'lum iqtisodiy holatlarning roli va boshqalar. Braziliya, Hindiston, Janubiy Afrika kabi davlatlarning hukumati ham bozori ham ishonchli hisobotlarga tayanadi. Ishonchli hisobotlar bo'yicha XHT dunyoning eng ishonchli statistika manbasidan bo'lgan va statistika tizimida eng so'ngi ularning avlodi J-4 hisoblanadi.

Yillik xabar berishlaricha XHT tashkil qilingan XHT ma'lumotlarining foydali tomonlaridan o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ommaviy iqtisodiyotda samarali boshqaruvi.
- tashqi partiyalar bilan aloqasi bo'lgan kompaniyaga ko'proq e'tibor berish.
- statistik hisobot funksiyalar o'rtasidagi bog'lanishlarni ta'minlaydi.
- yordamchilar tashkilotning tabiiy, insoniy va ijtimoiy kapitalga bo'lgan hissasini baholash uchun o'zining qobiliyatini kuchaytiradi.
- narxlarning o'zgaruvchanligidagi bo'lgan ulushini kamaytirishi mumkin.

J-4 hisobotning ikki turi mavjud:

1. Umumiy standart hisoboti. Bu hisobot umumiy holda beriladi, korxonalar faoliyati haqida bayonot va uning ishlab chiqarish jarayoni yoritiladi. Bular ularning materiallar bo'yicha tahlilidan qat'iy nazar korxonalar uchun muhimdir. Korxonaning istiqbolda qachongacha dosh berishi va bu jarayonga investorlarni qanday jalb qilishi, ahloq va to'g'rilik yo'li bilan qanday bartaraf etishiga qarab

⁵⁷ "An Introduction to Accounting Theory" Gabriel Donleavy. 2016 yil 141-149 betlar

umumiy standart hisobot berishning 7 turi bor.

2. Maxsus standart hisoboti. Bu hisobot firmalar o'zlarining mol-mulklarini qanday boshqarishlari haqida tushuntiradigan, atrof-muhitni va aholiga ta'sir ko'rsatishi, raqobatga dosh bera olishini ta'minlash haqida yoritiladigan J-4 hisobotning tarkibiga kiradigan boshqaruv hisobotidir. Boshqaruv hisobotida 3 jihatga e'tibor beriladi: mol-mulklar holati haqida, ularni qanday boshqarish va baholash kerakligiga.

Xalqaro yig'ma hisobot konsolidatsiyasi (XYHK). XYHK hisobotning mohiyati bilan shug'ullanadi, qisqartmasi YH deb nomlanib, yig'ma hisobot korxonaning strategiyasi, boshqaruvi, ijro etishi va kelajakdagi rejalari, shuningdek, tashqi muhitdagi o'rni bo'yicha o'zaro qisqa aloqasiga aytiladi. Shuni nazarda tutish lozimki, yig'ma hisobot korxonaning moliyaviy holati haqidagi hisobot emas, balki korxonaning narx qo'yishni qanday tanlashi kerakligi to'g'risidagi hisobotning yangi turi hisoblanadi.

Yig'ma hisobotning aniq auditoriyasi moliyaviy kapitalni ta'minlab beruvchilar sifatida tasdiqlanadi. Xalqaro yig'ma hisobot konsolidatsiyasi shuni ta'kidlaydiki, yig'ma hisobotning oliy maqsadi bu moliyaviy kapitalni ta'minlovchi investorlarga korxonaga ma'lum vaqt davomida narxni qanday tanlashini tushuntirishdir. Shuning uchun yig'ma hisobot bir qancha ma'lumotlar, ham moliyaviy va ham boshqaruv ma'lumotlaridan tashkil topadi. Narx nafaqat firmaning bozordagi mahsuloti narxining ko'tarilishini, balki xalqaro yig'ma hisobot tasdiqlagan kapitalning 5 turidan istalgan birining ko'tarilishini ham anglatadi. Bu kapitalga moliyaviy, ishlab chiqarish, intellektual, inson, ijtimoiy munosabatlar va tabiat kiradi. Korxonaning aktivlari va ishlab chiqarish hajmi kapitallardan ba'zi yoki bir qanchasining o'zgarishiga olib keladi. Bular oshkor etilishi shart.

Yig'ma hisobot korxonaning biznes rejasi qanday degan savolga javob berishi lozim. Korxonaning biznes rejasi bu korxonaning strategik maqsadlari va narxlarni belgilashni aniqlashi kerakligi uchun uning aktivlari, ularning kirimi va samaradorligini yoritish tizimi hisoblanadi.

Yig'ma hisobot korxonaning boshqaruv strategiyasi qisqa, joriy va uzoq muddatli mavsumlarda narxni qanday qilib tanlash va ushlab turish kerakligiga javob berishi lozim.

6.3. Buxgalteriya hisobotlarini taqdim etish

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladigan va tegishli organlarga topshiriladigan moliyaviy hisobotlar 1 - BHMS bilan tartibga olinadi. Moliyaviy hisobotlarda quyidagi axborotlar to'liq aks ettirilishi kerak:

Xo'jalik yurituvchi subyektning nomi, mulkchilik shakli, yuridik manzili, identifikatsiyalangan nomeri va subyektning aniqlab olish uchun zarur bo'ladigan boshqa rekvizitlar;

1. Xo'jalik yurituvchi subyektning nomi, mulkchilik shakli, yuridik manzili, identifikatsiyalangan nomeri va subyektning aniqlab olish uchun zarur bo'ladigan boshqa rekvizitlar;

2. Moliyaviy hisobot bir korxonanikimi yoki bir guruh korxonanikimi;
3. Hisobot sanasi yoki moliyaviy hisobotlar qaysi davarni o'z ichiga olishi;

Topshirilgan hisobot ahborotlarini to'g'ri tushunish uchun quyidiga rekvizitlar keltirilishi lozim;

1. Moliyaviy hisobotda qo'llanilgan valyuta turi;
2. Hisobotda foydalanilgan raqamlarning aniqlik darajasi, masalan, keltirilgan raqamlar ming hisobida yoki million hisobida ekanligi va h.k.

Moliyaviy hisobotning hisobot davri bo'lib 1 yanvardan 31 -dekabrgacha bo'lgan kalendar yil hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi . Qonunning 18 - moddasiga binoan agar yuridik shaxs 1 oktyabrdan qat'iy ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, birinchi hisobot yili keyingi yilning 31 dekabrda tugaydi. Moliyaviy hisobot qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda kalendar yilidan tashqari oylik yoki choraklik qilib ham topshiriladi.

Moliyaviy hisobotlar uchun hisobot sanasi bo'lib hisobot davrining oxirgi kuni hisoblanadi. Chunonchi, subyektning yillik buxgalteriya balansi uchun hisobot sanasi bo'lib 31 dekabr hisoblanadi, moliyaviy natijalar, to'g'risidagi yillik hisobot uchun hisobot davri bo'lib 1 yanvardan 31 dekabrgacha hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot quyidagi organlarga topshiriladi:

1. Sub'ekt mulkdorlariga (davlat mulkni boshqarish vakolati berilgan organlarga, ta'sisчилarga, qatnashuvchilarga binoan);
2. Davlat statistika organlariga;
3. Qonunchilika binoan boshqa organlarga.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarini keyingi yilning 15 fevraldan kechiktirmasdan topshirishlari kerak.

Bir shaharda joylashgan subyektlar uchun moliyaviy hisobotni topshirgan kuni deb uni tegishli joyga haqiqiy taqdim etgan kuni hisoblanadi. Boshqa shaharlarda joylashgan subyektlar uchun moliyaviy hisobotni pochta orqali jo'natgan kuni hisoblanadi (bu kun pochta korxonasini qo'ygan shtampasida ma'lum).

Basharti hisobotni jo'natgan sana dam olish kuniga to'g'ri kelsa, hisobot topshirish sanasi dam olish kundan keyingi kunga ko'chiriladi.

Choraklik yoki yillik hisobotlarni o'z vaqtida tuzishni ta'minlash uchun buxgalteriyaning barcha bo'limlarini ishlarni bajarish muddatlarini ko'rsatib yig'ma ish grafigi tuziladi. Buxgalteriya hisobi quyida yuritilsa, grafik bilan belgilangan muddatlarda jurnal - orderlarning jami chiqariladi, zarur bo'lsa bir registrdagi summa boshqa registr'larga o'tkaziladi va korrespondentlanuvchi schyotlar o'zaro muqobil tekshiriladi.

Moliyaviy hisobotga tushuntirishlarning asosiy maqsadi korxonaning moliyaviy ahvoli va uning mahsulot, tovar, ish va xizmatlar bozoridagi o'rni to'g'risida to'liqroq axborotlar olish uchun hisobot shakllarining mazmunini to'ldirishdan iborat.

Ushbu vazifani amalga oshirish uchun hisobot davridagi va o'tgan shu davrdagi ko'rsatkichlar taqqoslanuvchanligi, buxgalteriya balansi (1-shakl) va

moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot(2-shakl)da umumiy summa bilan keltirilgan ayrim, eng muhim mulklar va majburiyatlarni turlarining baholash uslublarini qo'llashda yagonalikni ta'minlashdan iborat.

Buxgalteriya hisobini yuritishda u yoki bu qoidalar qo'llanilishi mumkin bo'lmagan vaqtdagi faktlarni ko'rsatish va tegishli asoslashlarni tushuntirish xatida keltirish zarur. Aks holda bunday qoidalarni qo'llash ushbu vaziyatni mazkur qoidalarni qo'llashdan bosh tortish deb qaraladi va korxonada tomonidan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi amal qilayotgan qonunchilikni buzish deb tan olinadi.

Tushuntirish xatining mazmuni korxonaning joriy investitsion va moliyaviy faoliyatining asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini, jumladan korxonada ixtiyorida qoladigan foydaning taqsimlanishi yoki taqsimlanmasligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Hisob siyosatining tovar-moddiy zahiralarni baholash, ularning tayyorlanishi va ishlatilishi, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisoblash hamda ular faol qismidan foydalanishning samaradorligini tahlil qilish, mahsulot (ish, xizmat) realizatsiyasidan olinadigan tushumlarni hisoblash variantlari, yangi mahsulotlarni ishlab chiqishga doir turli investitsion loyihalarning rejalashtirilish va amalga oshirilishi, uning sifatini yaxshilash va hokazolar bo'yicha batafsil ma'lumot beriladi.

6.4. Buxgalteriya balansini tuzish tartibi

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar faoliyatining natijalarini boshqaruv, moliyaviy va statistik hisobotlarda ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Mazkur hisobotlar tarkibida moliyaviy hisobotlarning ahamiyati bir qadar yuqori deb hisoblanadi. Hisobotlarni tuzish va ularni tegishli nazorat organlariga taqdim etish bu buxgalteriya hisobining asosiy vazifasiga kiradi. Buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy maqsadi ma'lum bir xo'jalik sub'ektining barcha xo'jalik muomalalarini rasmiy ravishda hisobda aks ettirish va ma'lum bir davrlarda foydalanuvchilarga zaruriy ma'lumotlarni berish hisoblanadi.

Buxgalteriya balansini moliyaviy hisobotning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. U korxonada mablag'larini guruhlash va tarkibini pul bahosida aks ettirish hamda pul mablag'larini, ularni hosil etish manbalarini muayyan sanaga joylashtirish usulidan iborat.

Shunday qilib, buxgalteriya balansini quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- korxonada egalik qiladigan vositalarni aks ettiruvchi aktivlar;
- korxonada tasarrufidagi o'z sarmoyasi;
- keyinchalik belgilanishi bo'yicha qaytarilishi lozim bo'lgan aktivlarni sotib olish, hosil qilish natijasida yuzaga kelgan majburiyatlar.

Buxgalteriya balansida korxonada aktivlari ikki guruhda: uzoq muddatli va aylanma aktivlarda aks ettiriladi.

Uzoq muddatli aktivlarga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli investitsiyalar, sotib olingan aktsiyalar va zayomlar kiritiladi. Korxonaning ishlashi bilan bu vositalar o'z qiymatini o'zgartirmaydi. Masalan, asosiy vositalar qiymati

qisqa vaqt bo‘lagi mobaynida miqdoran jiddiy o‘zgarmaydi va u faqat ularning ishlash muddati tugashiga ko‘ra qoplanadi.

Joriy aktivlar, odatda, naqd mablag‘larni, iste‘molchilar hisobraqamlarini va naqd mablag‘lar shaklini egallashi lozim bo‘lgan zahiralarini o‘z ichiga oladi. Joriy xo‘jalik davri mobaynida bu aktivlar doimo o‘zgarishi mumkin. Naqd mablag‘larga aylantirilishi oson bo‘lgan joriy aktivlar oson realizatsiya qilinadigan aktivlarga kiritiladi.

Xo‘jalik mablag‘lari va uning manbalari xo‘jalik jarayonida doimo harakatda bo‘ladi. Sodir bo‘layotgan jarayonlarning har birini o‘z vaqtida hisobga olib borish zarurdir. Chunki har kuni korxonada ko‘plab xo‘jalik muomalalari amalga oshiriladi, bularning ta‘sirida xo‘jalik mablag‘larining tarkibi, joylanishi va ularning tashkil topish manbalari o‘zgarishi mumkin. Bu o‘zgarish oqibat natijada buxgalteriya balansining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, chunki balansning aktiv va passiv tomonida xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalari aks ettiriladi. Lekin balansning tengligi saqlanib qolinadi. Bu mablag‘lar holatini balans usuli bilan umumlashtirishning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Yillik moliyaviy hisobotni tekshirish davomida ishlab chiqarish xarajatlarga (yoki muomala chiqimlariga) u bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlarni kiritish natijasida daromadlarni yashirish yoki moliyaviy natijalarni pasaytirish hollari aniqlanganda o‘tgan yil uchun buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritilmaydi, balki hisobot davrida aniqlangan o‘tgan yillar foydasi sifatida joriy yilda aks ettiriladi.

Buxgalteriya balansini (bundan keyin - balans) tuzishga qadar tahliliy hisobvaraqlar bo‘yicha oborotlar va qoldiqlar hisobot davri oxirida Bosh daftar hisobvaraklari bo‘yicha oborotlar va qoldiqlar bilan solishtirilishi kerak.

3-ustunda balans bo‘yicha yil boshidagi ma‘lumotlar, ya‘ni avvalgi yil uchun yillik moliyaviy hisobot balansi 4-ustunining ma‘lumotlari ko‘rsatiladi.

Yil boshi va oxiridagi balans ma‘lumotlarini taqqoslab olish uchun tasdiqlangan balans moddalari nomenklaturasi yil oxiridagi balans uchun belgilangan ulardagi bo‘limlar va moddalarning nomenklaturasi va guruhlanishiga muvofiqashtirilishi kerak.

«Asosiy vositalar» moddasi bo‘yicha (010-satr) amaldagi va konservatsiyadagi asosiy vositalarga doir ma‘lumotlar ko‘rsatiladi.

Mol-mulkni asosiy vositalar tarkibiga kiritishni buxgalteriya O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 1998 yil 7 sentyabrda 46-son bilan tasdiqlagan «Asosiy vositalar» O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (5-son BHMS)ga (ro‘yxat raqami 491, 1998 yil 23 sentyabr, «O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarining me‘yoriy hujjatlari axborotnomasi», 1999 yil, 6-son) binoan va pasport hamda tavsiflar, foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalar va ularni xarid qilish chog‘ida olingan boshqa texnik hujjatlarga asosan amalga oshiradi.

Ushbu modda bo‘yicha erlarni yaxshilash (meliorativ, quritish, irrigatsion va boshqa ishlar)ga kapital qo‘yilmalar ham aks ettiriladi. Korxonadan qonun hujjatlariga muvofiq mulk sifatida xarid qilingan er uchastkalari ushbu modda

bo'yicha xaridga doir haqiqatdagi xarajatlar hajmida ko'rsatiladi.

Ushbu modda bo'yicha asosiy vositalarga taalluqli, «Uzoq muddatga ijaraga olinadigan asosiy vositalar» hisobvarag'ida hisobga olingan uzoq muddatga ijaraga olinadigan binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa ob'ektlar ham aks ettiriladi.

Alohida modda bo'yicha (011-satr) korxonadan «Asosiy vositalar» va «Uzoq muddatga ijaraga olinadigan asosiy vositalar» hisobvaraqlarida hisobga olingan asosiy vositalar bo'yicha eskirishning hisoblab yozilgan summasi keltiriladi. Asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 7 sentyabrda 46-son bilan tasdiqlagan «Asosiy vositalar» O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (5-son BHMS) (ro'yxat raqami 491, 1998 yil 23 sentyabr, «O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining me'yoriy hujjatlari axborotnomasi», 1999 yil, 6-son)da nazarda tutilgan belgilangan me'yorlar va usullar bo'yicha hisoblab yoziladi.

«Nomoddiy aktivlar» moddasi bo'yicha (020-satr) korxonaning uzoq muddatli davr davomida xo'jalik faoliyatida ishlatiladigan va daromad keltiradigan nomoddiy ob'ektlarga, tabiiy resurslar, er uchastkalari, patentlar, litsenziyalar, intellektual mulk, tashkiliy xarajatlardan foydalanish huquqiga doir sarf-xarajatlari ko'rsatiladi.

«Kapital qo'yilmalar» moddasi bo'yicha (030-satr) xo'jalik va pudrat usullari bilan amalga oshiriladigan tugallanmagan qurilishning qiymati ko'rsatiladi.

Ushbu modda bo'yicha asosiy podani shakllantirish bo'yicha, geologiya-qidiruv ishlari xarajatlari, shuningdek korxonalar tomonidan ana shu maqsadlar uchun berilgan bo'naklar va bo'nak ko'rinishida vaqtincha foydalanishga doir mablag'lar summalari aks ettiriladi.

Ushbu modda bo'yicha o'rnatiladigan va korxonada omborlarida bo'lgan uskunalar zaxiralari haqiqiy qiymati bo'yicha aks ettiriladi.

«Sho'ba xo'jalik jamiyatlaridagi aksiyalar» moddasi bo'yicha (040-satr) sho'ba xo'jalik jamiyatlari aksiyalariga qo'yilgan, tahliliy tarzda «Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar» hisobvarag'ida («Pay va aksiyalar» ilova hisobvarag'i) hisobga olinadigan mablag'lar summasi ko'rsatiladi.

«Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga berilgan qarzlar» moddasi bo'yicha (050-satr) sho'ba xo'jalik jamiyatlariga berilgan, «Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar» hisobvarag'ida («Berilgan qarzlar» ilova hisobvarag'i) hisobga olinadigan qarzlar summasi aks ettiriladi,

«Tobe xo'jalik jamiyatlaridagi aksiyalar» moddasi bo'yicha (060-satr) tobe xo'jalik jamiyatlari aksiyalariga qo'yilgan, tahliliy tarzda «Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar» hisobvarag'ida («Pay va aksiyalar» ilova hisobvarag'i) hisobga olinadigan mablag'lar summasi ko'rsatiladi.

«Tobe xo'jalik jamiyatlariga qarzlar» moddasi bo'yicha (070-satr) tobe xo'jalik jamiyatlariga berilgan, «Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar» hisobvarag'ida («Berilgan qarzlar» ilova hisobvarag'i) hisobga olinadigan qarzlar summasi aks ettiriladi.

«Uzoq muddatli investitsiyalar» moddasi bo'yicha (080-satr) korxonaning

davlat daromadli aktivlari (qimmatli qog'ozlar - aktsiyalar, obligatsiyalar)ga, O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida tashkil etilgan boshqa korxonalarining (sho''ba va tobe xo'jalik jamiyatlaridan tashqari) ustav fondlariga va hokazolarga uzoq muddatli (bir yildan ortiq muddatga) investitsiyalari, korxonalar tomonidan boshqa korxonalariga berilgan qarzlardan tashqari ko'rsatiladi.

Moliyaviy qo'yilmalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda haqiqiy xarajatlar summasida hisobga olinadi.

To'liq to'lanmagan aktsiya va paylar balans aktivida ularning to'liq xarid qiymatida ko'rsatiladi, investor dividend olish huquqiga ega bo'lgan va ushbu qo'yilmalar uchun to'liq javobgar bo'lgan hollarda kreditorlar moddasi bo'yicha so'ndirilmagan summa balans passiviga kiritiladi. Qolgan hollarda xarid qilinadigan aktsiya va paylar hisobiga kiritilgan summalar balans aktivida debitorlar moddasi bo'yicha ko'rsatiladi.

«Boshqa qarzlarda» moddasi bo'yicha (090-satr) yuqorida sanalgan moddalarda hisobga olinmagan va «Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar» hisobvarag'ida hisobga olinadigan uzoq muddatli qarzlarda summalar ko'rsatiladi.

«Boshqa aktivlar» moddasi bo'yicha (100-satr) oldingi moddalarda sanalmagan boshqa uzoq muddatli mablag'lar va qo'yilmalar ko'rsatiladi. Xususan, mazkur modda bo'yicha ijaraga beruvchi korxonalar uzoq muddatli ijaraga berilgan, «Tushumga doir ijara majburiyatlari» hisobvarag'ida qayd qilingan asosiy vositalar bo'yicha qarz qoldig'ini ko'rsatadi.

«I bo'lim bo'yicha jami» moddasi bo'yicha (110-satr) satrlar bo'yicha summa ko'rsatiladi: 012-satr+022-satr+030-satr+040-satr+050-satr+060-satr+070-satr+080-satr+090-satr+100-satr.

Balans aktivining «Joriy aktivlar» degan II bo'limida korxonalar joriy aktivlarining summasi ko'rsatiladi.

«Ishlab chiqarish zaxiralari» moddasi bo'yicha (120-satr) xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, qaytarma chiqindilar, yoqilg'i, xarid qilingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar, idishlar va «Materiallar» hisobvarag'ida hisobga olinadigan boshqa moddiy boyliklarning haqiqatdagi tannarxi, arzon va tez eskiruvchan buyumlar, shu jumladan maxsus asboblar va maxsus moslamalar, maxsus poyabzal va choyshab-yostiqlar, yozuvchizuv anjomlari va ovlash qurollari (trallar, yoyma to'rlar, to'rlar, matraslar va hokazo) xizmat muddatidan qati nazar, shuningdek bir yildan kam muddat foydalaniladigan almashtiriladigan uskunalarda ko'rsatiladi.

«Tugallanmagan ishlab chiqarish» moddasi bo'yicha (130-satr) hisobi korxonalar moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasining «Ishlab chiqarish xarajatlari» bo'limi buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida amalga oshiriladigan tugallanmagan ishlab chiqarish va tugallanmagan ishlar (xizmatlar)ga doir xarajatlar ko'rsatiladi.

«Tayyor mahsulot» moddasi bo'yicha (140-satr) buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomaning shartlariga ko'ra sinovdan o'tgan va qabul qilingan, barcha qismlar bilan butlangan hamda texnik shartlar va standartlarga muvofiq keladigan, ishlab chiqarilishi tugallangan buyumlar qoldig'ining haqiqatdagi ishlab chiqarish

tannarxi ko'rsatiladi.

«Qayta sotish uchun tovarlar» moddasi bo'yicha (150-satr) o'z faoliyatini savdo va umumiy ovqatlanishda amalga oshiradigan korxonalar xarid qiladigan tovarlar qoldig'ining qiymati ko'rsatiladi. Bunda umumiy ovqatlanish korxonasi ushbu modda bo'yicha oshxona va omborxonalaridagi xom ashyo qoldiqlari, bufetlardagi tovarlar qoldiqlarini ham aks ettiradi.

«Bo'lg'usi davrlar xarajatlari» moddasi bo'yicha (160-satr) hisobot yilida qilingan, lekin ular taalluqli bo'lgan muddat davomida xarajatlarga kiritish yo'li bilan keyingi hisobot davrlarida so'ndirilishi kerak bo'lgan xarajatlar summasi ko'rsatiladi. Bunday xarajatlarga, shu jumladan, ommaviy axborot vositalariga obuna xarajatlari, oldindan to'langan ijara to'lovi, manfiy kurs farqi va hokazolar kiradi.

«Pul mablag'lari» moddasi bo'yicha (170-satr) korxonaning «Hisob-kitob varag'i», «Banklardagi maxsus hisobvaraqlar», «Pul hujjatlari», «Yo'ldagi o'tkazmalar» hisobvaraqlarida hisobga olinadigan pul mablag'lari qoldig'i so'mlarda ko'rsatiladi. Balansning ushbu moddasida aks ettirilgan summalar bank ko'chirmalariga muvofiq kelishi kerak.

«Valyuta mablag'lari» moddasi bo'yicha (180-satr) korxonada banklardagi valyuta hisobvaraqlari va korxonaning valyuta kassasida bo'lgan, hisobot davrining oxirgi sanasida O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki kursi bo'yicha milliy valyutada baholangan valyuta mablag'lari qoldig'ini ko'rsatadi.

«Kassadagi pul mablag'lari» moddasi bo'yicha (190-satr) hisobot davrining oxirgi sanasida korxonada kassalarida bo'lgan, milliy valyutadagi pul mablag'larining qoldig'i ko'rsatiladi.

«Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar» moddasi bo'yicha (200-satr) korxonalariga qisqa muddatli (bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga) moliyaviy qo'yilmalar (investitsiyalar), boshqa korxonalarining qimmatli qog'ozlari, davlat va mahalliy zayomlarning foizli obligatsiyalari va hokazolar, shuningdek korxonada tomonidan boshqa korxonalariga berilgan qarzlari ko'rsatiladi.

«Sotib olingan o'z aksiyalari» moddasi bo'yicha (210-satr) korxonada tomonidan chiqarilgan va keyin tarqatish uchun chiqarilgan kundan boshlab bir yil davomida korxonada bo'lgan sotib olingan o'z aksiyalarining summasi ko'rsatiladi. Sotib olingan o'z aksiyalari «Pul hujjatlari» hisobvarag'ida hisobga olinadi.

«Debitorlar, jami» moddasi bo'yicha (220-satr) 230-satr+240-satr+250-satr+260-satr+270-satr+280-satr+290-satr+300-satrlar yig'indisi ko'rsatiladi.

221-satrdagi ma'lumot uchun hisobot davridagi muddati kechiktirilgan debitorlik qarzi ko'rsatiladi.

«Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar» moddasi bo'yicha (230-satr) ular uchun korxonaning hisob-kitob varag'iga (yoki boshqa hisobvarag'iga) to'lovlar kelib tushishi yo'li bilan ushbu qarzni so'ndirish paytiga qadar buyurtmachilar (xaridorlar)ga sotilgan mahsulot, tovarlar, topshirilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarz ko'rsatiladi.

«Bo'nak to'lovlari» moddasi bo'yicha (240-satr) bo'lajak hisob-kitoblar

bo'yicha boshqa korxonalariga to'langan bo'naklar summasi ko'rsatiladi. Berilgan bo'naklar hisobi «Berilgan bo'naklar bo'yicha hisob-kitoblar» hisobvarag'ida yuritiladi.

«Byudjet bilan hisob-kitoblar» moddasi bo'yicha (250-satr) soliqlar, yig'implar va byudjetga boshqa to'lovlarga doir ortiqcha to'lovni qo'shganda moliya va soliq organlarining qarzi ko'rsatiladi. Ushbu modda bo'yicha umumbelgilangan tartibda hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'ining summasi ham ko'rsatiladi.

«Xodimlar bilan boshqa operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar» moddasi bo'yicha (260-satr) korxonada xodimlarining ushbu korxonaga mablag'lari yoki bank krediti hisobiga ularga berilgan ssudalar va qarzlari, korxonaga etkazilgan moddiy zararni qoplash bo'yicha va hokazo qarzlari ko'rsatiladi

Balans aktivi va passivida «Sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlari bilan hisob-kitoblar» moddasi bo'yicha (270-satr va 520-satr) hisobi «Sho'ba korxonalar bilan hisob-kitoblar» hisobvarag'ida yuritiladigan, sho'ba va (yoki) tobe xo'jalik jamiyatlari bilan joriy operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar (balanslararo hisob-kitoblar) aks ettiriladi.

Balans aktivi va passivida «Ichki xo'jalik hisob-kitoblari» moddasi bo'yicha (280-satr va 530-satr) ularning o'zaro hisob-kitoblari hisobi «Ichki xo'jalik hisob-kitoblari» hisobvarag'ida yuritiladigan, vakolatxonalar, filiallar va yuridik shaxs hisoblanmagan boshqa alohida bo'linmalar bilan joriy operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar aks ettiriladi.

«Muassislari bilan hisob-kitoblar» moddasi bo'yicha (290-satr) muassislarning «Muassislari bilan hisob-kitoblar» hisobvarag'ining «Ustav sarmoyasiga (fondiga) ulushlar bo'yicha muassislari bilan hisob-kitoblar» ilova hisobvarag'ida hisobga olinadigan ustav sarmoyasiga ulushlar bo'yicha qarzlari ko'rsatiladi.

«Boshqa debitorlarning qarzi» moddasi bo'yicha (300-satr) hisobot beruvchi shaxslarning qarzlari, qabul qilish chog'ida aniq tovar-moddiy boyliklar kamomadi bo'yicha mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha qarzlari ko'rsatiladi.

«II bo'lim bo'yicha jami» moddasi bo'yicha (310-satr) 120-satr+130-satr+140-satr+150-satr+160-satr+170-satr+180-satr+190-satr+200-satr+210-satr+220-satrlar yig'indisining natijasi ko'rsatiladi.

«Balans aktivi bo'yicha jami» moddasi bo'yicha (320-satr) 110-satr+310-satrn qo'shish yo'li bilan olingan aktivning yakuniy summasi ko'rsatiladi.

«Ustav sarmoyasi (fondi)» moddasi bo'yicha (330-satr) ta'sis hujjatlarida korxonada muassislari ulushlari (hissalari, nominal qiymat bo'yicha aksiyalari, pay badallari)ning jami sifatida ro'yxatga olingan ustav sarmoyasining miqdori ko'rsatiladi.

«Qo'shilgan sarmoya» moddasi bo'yicha (340-satr) aksiyalarni nominal qiymatdan yuqori narxlarda birlamchi sotish chog'ida olingan emission daromad summasi ko'rsatiladi. Qo'shilgan sarmoyaning hisobi «Ustav sarmoyasi» hisobvarag'ining «Qo'shilgan sarmoya» ilova hisobvarag'ida yuritiladi.

«Zaxira sarmoya» moddasi bo'yicha (350-satr) korxonalar ustaviga ko'ra foyda hisobiga barpo etilgan zaxiralar, pul mablag'lari va korxonalar mol-mulkini ko'paytiradigan boshqa tushumlardan tashqari, mol-mulkni qayta baholash chog'ida hosil bo'ladigan inflyatsion zaxiralar summasi ko'rsatiladi. Zaxira sarmoyaning hisobi «Ustav sarmoyasi» hisobvarag'ining «Zaxira sarmoya» ilova hisobvarag'ida yuritiladi.

«Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» moddasi bo'yicha (360-satr) choraklik hisobotlarda foyda-netto, ya'ni tayyor mahsulot, yarim tayyor mahsulotlar, xarid qilingan buyumlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar realizatsiyasidan olingan moliyaviy natija, shuningdek operatsion daromad va tushumlar, «Davrlar xarajatlari» hisobvarag'idan o'tkaziladigan xarajatlari, korxonalarining moliyaviy faoliyatiga doir daromad va xarajatlari, tasodifiy, mazkur korxonalar uchun tipik bo'lmagan foyda va daromadlar aks ettiriladigan «Foyda va zararlar» hisobvarag'i bilan korxonalar hisobot yili davomida soliqlar to'lanishini, shuningdek daromad (foyda) solig'ining pirovard hisob-kitobiga doir soliq va mahalliy yig'imlar summalarini aks ettiradigan «hisoblab yozilgan va to'langan foyda (daromad) soliqlari» hisobvarag'i o'rtasidagi farq aks ettiriladi.

Yillik hisobotda «Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» hisobvarag'i kreditiga ko'chirilgan foyda 360-satr bo'yicha ham ko'rsatiladi. Bunda, agar ushbu hisobvaraqda (alohida ilova hisobvarag'ida) ilgari o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi qoldig'i bo'lsa, hisobot yili uchun taqsimlanmagan foydaning qoldig'i qo'shiladi va jamlangan foyda ko'rsatiladi.

«Maqsadli moliyalash va tushumlar» moddasi bo'yicha (370-satr) «Maqsadli moliyalash va tushumlar» hisobvarag'ida hisobga olingan maqsadli tadbirlarni amalga oshirish uchun byudjetdan, tarmoq va tarmoqdan tashqari maxsus jamg'armalar, boshqa korxonalar, jismoniy shaxslardan olingan pul mablag'larining qoldiqlari ko'rsatiladi.

«Bo'lg'usi xarajatlari va to'lovlar zaxiralari» moddasi bo'yicha (380-satr) xarajatlarni mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga bir me'yorda kiritish maqsadida asosiy vositalarni kapital ta'mirlashni amalga oshirish uchun korxonalar tomonidan zaxira qilingan mablag'lar ko'rsatiladi.

«Bo'lg'usi davrlar daromadlari» moddasi bo'yicha (390-satr) hisobot yilida olingan, lekin Bo'lg'usi hisobot davrlariga taalluqli mablag'lar (ijara to'lovi va hokazo), shuningdek amaldagi tartibga muvofiq «Bo'lg'usi davrlar daromadlari» hisobvarag'ida hisobga olinadigan boshqa summalar ko'rsatiladi.

«I bo'lim bo'yicha jami» moddasi bo'yicha (400-satr) 320-satr+330-satr+340-satr+350-satr+360-satr+370-satr+380-satrlar summasi ko'rsatiladi.

«Uzoq muddatli qarzlari» moddasi bo'yicha (410-satr) boshqa korxonalar va muassasalardan (banklardan tashqari) olingan uzoq muddatli (so'ndirish muddati bir yildan ortiq bo'lgan) qarzlari bo'yicha qarz summalarini ko'rsatiladi.

«Banklarning uzoq muddatli kreditlari» moddasi bo'yicha (420-satr) banklar bilan kelishilgan va ulardan olingan uzoq muddatli (so'ndirish muddati bir yildan ortiq bo'lgan) kreditlari bo'yicha qarz summalarini ko'rsatiladi.

«Qisqa muddatli qarzlari» moddasi bo'yicha (430-satr) boshqa korxonalar va

muassasalardan (banklardan tashqari) olingan, «Qisqa muddatli qarzarlar» hisobvarag'ida hisobga olingan qisqa muddatli (so'ndirish muddati bir yildan kam bo'lgan) qarzarlar bo'yicha qarzar summalarini ko'rsatiladi.

«Banklarning qisqa muddatli kreditlari» moddasi bo'yicha (440-satr) banklar bilan kelishilgan, ulardan olingan (so'ndirish muddati bir yilgacha bo'lgan) kreditlar bo'yicha qarzar summalarini ko'rsatiladi.

«Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar» moddasi bo'yicha (450-satr) «Olingan bo'naklar bo'yicha hisob-kitoblar» hisobvarag'ida hisobga olingan Bo'lg'usi hisob-kitoblar bo'yicha chet tashkilotlardan olingan bo'naklar summasini ko'rsatiladi.

«Kreditorlar, jami» moddasi bo'yicha (460-satr) 470-satr+480-satr+490-satr+500-satr+510-satr+520-satr+530-satr+540-satr+550-satrlarni qo'shish bilan korxonaning kreditorlik qarzi summasini aks ettiriladi.

461-satrdan ma'lumot uchun hisobot davrida muddati kechiktirilgan kreditorlik qarzi ko'rsatiladi.

«Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar» moddasi bo'yicha (470-satr) kelib tushgan moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun mol etkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzarlar summasini ko'rsatiladi.

«Byudjet bo'yicha qarzar» moddasi bo'yicha (480-satr) byudjetga to'lovlarning barcha turlari, shu jumladan jismoniy shaxslarning daromad solig'i summasini bo'yicha qarzarlar ko'rsatiladi.

«Hukumat qarorlariga ko'ra kechiktirilgan qarzarlar» moddasi bo'yicha (481-satr) hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha hukumat komissiyasining qaroriga ko'ra byudjetga to'lovlar kechiktirilgan va (yoki) ular bo'lib-bo'lib to'lash huquqi berilgan byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzarlar summasini aks ettiriladi.

«Mulkiy va shaxsiy sug'urta bo'yicha qarzarlar» moddasi bo'yicha (500-satr) korxonada xodimlarining mol-mulkni majburiy va ixtiyoriy sug'urtalash hamda korxonada sug'urtalovchi bo'lgan sug'urtaning boshqa turlari bo'yicha to'lovlarga doir qarzarlar ko'rsatiladi.

«Byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzarlar» moddasi bo'yicha (510-satr) korxonaning davlat maqsadli jamg'armalari (Respublika yo'l jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Davlat bandlikka ko'maklashish jamg'armasi)dan, shuningdek qonunda belgilangan tartibga muvofiq O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashidan qarzlari ko'rsatiladi.

«Boshqa kreditorlar» moddasi bo'yicha (540-satr) korxonaning kreditorlar guruhi boshqa moddalari bo'yicha o'z aksini topmagan hisob-kitoblar bo'yicha qarzi ko'rsatiladi.

«II bo'lim bo'yicha jami» moddasi bo'yicha (550-satr) 400-satr+410-satr+420-satr+430-satr+440-satr+450-satr+460-satrlarni qo'shish natijasi ko'rsatiladi.

«Balans passivi bo'yicha jami» moddasi bo'yicha (560-satr) 400 va 550-satrlar bo'yicha summalar natijasi sifatida olingan passivning yakuniy summasini

aks ettiriladi.

6.5. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002 yilning 27 dekabrda 140-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalar" barcha hisobot shakllarini, jumladan "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"ni tuzish tartibini belgilab beradi. Mazkur Qoidalarga muvofiq moliyaviy hisobotni mulkchilikning barcha shakllariga mansub, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko'ra yuridik shaxs hisoblangan korxonalar va tashkilotlar (bundan sug'urta tashkilotlari va banklar mustasno), shuningdek mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balans va hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan, soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchi hisoblanadigan alohida bo'linmalar taqdim etadi.

Moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2000 yil 15 iyunda 47-son bilan tasdiqlangan Choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari to'g'risida nizom (ro'yxat raqami 942, 2000 yil 3 iyul, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining me'yoriy hujjatlari axborotnomasi, 2000 yil 13-son) bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida" qonunning 10-moddasida (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 yil 5-son) ko'rsatilgan yuridik shaxslar soliq organlariga auditorlik tekshiruvini o'tkazilganidan keyin 15 kun davomida, lekin hisobot yilidan keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmay, moliyaviy hisobotning to'g'riligi to'g'risida auditorlik xulosasi nusxasini taqdim etadilar.

Tashabbusli auditorlik tekshiruvini o'tkazilgan taqdirda korxonalar moliyaviy hisobotining to'g'riligi to'g'risida auditorlik xulosasining nusxasi soliq organlariga auditorlik tekshiruvini o'tkazilganidan keyin 15 kun davomida taqdim etiladi.

Moliyaviy hisobot shakllarining manzil qismi quyidagi tartibda to'ldiriladi:

a) "Korxonalar, tashkilotlar" rekviziti - korxonaning to'liq nomi (belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan ta'asis hujjatlariga muvofiq) va KTUTga ko'ra uning kodi ko'rsatiladi;

b) "Tarmoqlar" rekviziti - korxonalar tarmog'i va XXTUTga ko'ra tarmoqlar kodi ko'rsatiladi;

v) "Tashkiliy-huquqiy shakl" rekviziti - korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli va THTga ko'ra tashkiliy-huquqiy shaklning kodi ko'rsatiladi;

g) "Mulkchilik shakli" rekviziti - korxonaning mulkchilik shakli va MShTga ko'ra mulkchilik shaklining kodi ko'rsatiladi;

d) "Vazirliklar, idoralar va boshqalar" rekviziti - ixtiyorida korxonalar turgan (agar u mavjud bo'lsa) va unga moliyaviy hisobot yo'naltiriladigan organning

nomi hamda DBPBTga ko‘ra ushbu organning kodi ko‘rsatiladi;

e) “Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami” rekviziti - STIR bo‘yicha korxonaning identifikatsiya raqami ko‘rsatiladi;

j) “Hudud” rekviziti - MHOBT bo‘yicha kod ko‘rsatiladi;

z) “Manzil” rekviziti - korxonaning to‘liq yuridik manzili ko‘rsatiladi.

Moliyaviy hisobotni tuzish chog‘ida O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Buxgalteriya hisobi milliy standartlariga, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish masalalari bo‘yicha boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanish lozim.

Hisobot yilida tugatilgan yoki qayta tashkil etilgan korxonalar yil boshidan tugatish (qayta tashkil etish) paytigacha bo‘lgan davr uchun yillik moliyaviy hisobotning amaldagi shakllari bo‘yicha hisobot taqdim etadi.

1 oktyabrga qadar yangi barpo etilgan korxonalar moliyaviy hisobotda mablag‘lar va ularning manbalarini ular belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan oyning 1-kunidan boshlab hisobot yilining 31 dekabriga qadar, hisobot yilining 1 oktyabridan keyin barpo etilgan korxonalar esa - davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan boshlab keyingi yilning 31 dekabrighacha (31 dekabr ham kiradi) ko‘rsatadilar (ko‘rsatilgan tartib tugatilgan (qayta tashkil etilgan) korxonalar va ularning alohida bo‘linmalari bazasida barpo etilgan korxonalariga tatbiq etilmaydi).

Korxonalar balansining moddolari aktivlar va majburiyatlarning puxta o‘tkazilgan inventarizatsiyasi bilan asoslangan bo‘lishi kerak. Bunda yillik moliyaviy hisobotni taqdim etishga qadar doimiy ishlab turgan inventarizatsiya komissiyalari tomonidan inventarizatsiya davomida anio‘langan, boyliklar haqiqiy mavjudligining buxgalteriya hisobi ma‘lumotlariga qaraganda tafovutlari tartibga solinishi kerak. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni inventarizatsiyalashlar ham o‘tkazilishi kerak, ular o‘zaro hisob-kitoblar saldosi tasdiqlaydigan solishtirish dalolatnomalari yoki xatlar bilan rasmiylashtiriladi. O‘tkazilgan inventarizatsiyalar soni va natijalari, shuningdek ularni o‘tkazmaslik sabablari yillik moliyaviy hisobotga ilova qilinadigan tushuntirish xatida aks ettirilishi kerak.

Moliyaviy hisobot shakllariga rahbar va bosh buxgalter imzo chekadi, imzolar muhr bilan tasdiqlanadi.

Moliyaviy hisobotda o‘chirish va ustiga yozishlar bo‘lmasligi kerak. Xatolar tuzatilgan taqdirda tegishli qaydlar qilinadi, ularni moliyaviy hisobotlarga imzo chekkan shaxslar tasdiqlab, tuzatish sanasini ko‘rsatadilar.

Joriy hamda o‘tgan yil hisobot ma‘lumotlaridagi (ular tasdiqlanganidan keyin) tuzatishlar uning ma‘lumotlarini buzishlar anio‘langan hisobot davri uchun tuzilgan hisobotda amalga oshiriladi, bunda tuzatishlar hisobot davri (chorak, yil boshidan) uchun ma‘lumotlarga kiritiladi.

Yillik moliyaviy hisobotni tekshirish chog‘ida daromadlarni yashirish yoki ular bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlarni davr xarajatlariga (yoki muomala chiqimlariga) kiritish natijasida moliyaviy natijalarni kamaytirib ko‘rsatish anio‘langan holda buxgalteriya hisobi va o‘tgan yil uchun moliyaviy hisobotga

tuzatishlar kiritilmaydi, balki joriy yilda hisobot davrida aniqlangan o'tgan yillar foydasi sifatida aks ettiriladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda quyidagilarni ochib berish zarur:

- savdo-sotiqdan tushgan sof tushum;
- savdo-sotiqning yalpi moliyaviy natijalari;
- asosiy faoliyatdan keladigan boshqa operatsion daromadlari va xarajatlari;
- asosiy xo'jalik faoliyati moliyaviy natijalari (foyda yoki zarar);
- moliyaviy faoliyatga doir boshqa daromadlar va xarajatlar;
- xo'jalik umumiy faoliyatining moliyaviy natijasi;
- favqulodda foyda va zarar;
- daromad solig'i to'langunga qadar umumiy moliyaviy natijalar (foydalar yoki zararlar);
- hisobot davridagi sof foyda (zarar).

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002 yilning 27 dekabrda 140-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalar"ga asosan "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot"ni tuzish tartibi quyida bayon qilinadi.

"Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum" moddasi bo'yicha (010-satr) mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan olingan tushum ko'rsatiladi, bunda soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i) hamda qaytarilgan tovarlar va tayyor mahsulotning qiymati, xaridorning sotish narxlaridan chegirmalari chegiriladi.

010-satr 9000 - asosiy (operatsion) faoliyatdan daromadlarni hisobga olish hisobvaraqlari ma'lumotlari bo'yicha to'ldiriladi.

Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga (lizingga) berish hisoblangan korxonalar 010-satr bo'yicha joriy hisobot davriga tegishli bo'lgan daromad summasini aks ettiradilar.

Vositachi korxonalar 010-satrdan komission haqlar summasini aks ettiradilar.

"Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi" moddasi bo'yicha (020-satr) sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) tannarxini hisobga olish hisobvaraqlarida (9100) hisobga olingan, sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) tannarxining summasi ko'rsatiladi.

Savdo korxonalari ushbu satr bo'yicha sotilgan tovarlarning xarid qiymatini aks ettiradilar. Tovar aylanmasida (tovarlarni qabul qilish va sotishda) ishtirok etmasdan, xizmatlar uchun haq ko'rinishida daromad oladigan vositachi tashkilotlar ushbu satrni to'ldirmaydilar.

"Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan yalpi foyda (zarar)" (030-satr) mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum bilan sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi o'rtasidagi farq (010-satr-020-satr) sifatida aniqlanadi.

"Davri xarajatlari, jami" moddasi bo'yicha (040-satr) 050, 060, 070, 080-satrlar bo'yicha yakuniy summa aks ettiriladi.

"Realizatsiya xarajatlari" moddasi bo'yicha (050-satr) hisobi 9410- "Realizatsiya xarajatlari" hisobvarag'ida yuritiladigan: mahsulotni realizatsiya

qilish xarajatlari, ya'ni mahsulotni iste'molchiga etkazish, transport vositalariga ortish bilan bog'liq xarajatlar, marketing bilan shug'ullanadigan bo'limlar va xodimlarning xarajatlari va hokazolar aks ettiriladi.

“Ma'muriy xarajatlar” moddasi bo'yicha (060-satr) hisobi 9420-“Ma'muriy xarajatlar” hisobvarag'ida yuritiladigan: korxonani boshqarish xarajatlari, boshqaruv xodimlari mehnatiga haq to'lash xarajatlari, umumma'muriy maqsaddagi asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari, umumxo'jalik maqsadidagi xonalarning ijara haqi va boshqa ma'muriy xarajatlar aks ettiriladi.

“Boshqa operatsion xarajatlar” moddasi bo'yicha (070-satr) hisobi 9430-“Boshqa operatsion xarajatlar” hisobvarag'ida yuritiladigan: kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari, axboriy, auditorlik va maslahat xizmatlariga haq to'lash xarajatlari, kompensatsiyalaydigan va rag'batlantiradigan xususiyatdagi to'lovlar, ish haqini hisoblab yozishda hisobga olinmaydigan to'lovlar va xarajatlar, bank va depozitariy xizmatlariga haq, zararlar, jarimalar, penyalar va operatsion faoliyat jarayonida yuzaga keladigan, ishlab chiqarish jarayoni, moliyaviy faoliyat bilan bog'lanmagan va xarajatlarning favqulodda moddalari sifatlariga ega bo'lmagan boshqa xarajatlar aks ettiriladi.

“Kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari” moddasi bo'yicha (080-satr) O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 146-moddasida keltirilgan, kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari aks ettiriladi va 9440-“Kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari” hisobvarag'ida umumlashtirilgan hisob ma'lumotlari bo'yicha to'ldiriladi.

“Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar” moddasi bo'yicha (090-satr) hisobi asosiy faoliyatdan boshqa daromadlarni hisobga olish hisobvaraqlarida (9300) yuritiladigan: asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda, undirilgan jarimalar, penya va neustoykalar, o'tgan yillar foydasi, operativ ijaradan daromadlar, kreditorlik va deponentlik qarzini hisobdan chiqarishdan daromadlar, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarning daromadlari, tekin moliyaviy yordam va boshqa operatsion daromadlar ko'rsatiladi.

“Asosiy faoliyatdan foyda (zarar)” moddasi bo'yicha (100-satr) korxonalar asosiy faoliyatining moliyaviy natijalari ko'rsatiladi, ular mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan yalpi foyda (zarar)dan (030-satr) davr xarajatlari summasini (040-satr) ayirish hamda asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar summasini (090-satr) qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

“Moliyaviy faoliyatdan daromadlar, jami” moddasi bo'yicha (110-satr) 120, 130, 140, 150, 160-satrlar bo'yicha yakuniy summa aks ettiriladi.

“Dividendlar ko'rinishida daromadlar” moddasi bo'yicha (120-satr) hisobi 9520-“Dividendlar ko'rinishida daromadlar” hisobvarag'ida yuritiladigan: O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida boshqa korxonalar faoliyatida ulushbay ishtirok etishdan olingan daromadlar, korxonalar egaligida bo'lgan aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha dividendlar aks ettiriladi.

“Foizlar ko'rinishida daromadlar” moddasi bo'yicha (130-satr) hisobi 9530-

“Foizlar ko‘rinishida daromadlar” hisobvarag‘ida yuritiladigan, uzoq muddatli va joriy investitsiyalar bo‘yicha foizlar ko‘rinishida daromadlar ko‘rsatiladi.

Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga (lizingga) berish hisoblangan korxonalar “Moliyaviy ijaradan daromadlar (lizing)” moddasi bo‘yicha (140-satr), hisobi 9550-“Moliyaviy ijaradan daromadlar” hisobvarag‘ida yuritiladigan, mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berishdan olgan daromadlarini aks ettiradilar.

“Valyuta kurslaridagi farqlardan daromadlar” moddasi bo‘yicha (150-satr) hisobi 9540-“Valyuta kurslaridagi farqlardan daromadlar” hisobvarag‘ida yuritiladigan, shu jumladan balansni tuzish sanasida balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan, valyuta operatsiyalari bo‘yicha musbat kurslardagi farqlardan daromadlar aks ettiriladi.

“Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar” moddasi bo‘yicha (160-satr) hisobi 9510-“Royalti ko‘rinishida daromadlar”, 9560-“Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan daromadlar”. 9590-“Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar” hisobvaraqlarida yuritiladigan: qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashlarni o‘tkazishdan daromadlar, royalti ko‘rinishida daromadlar va moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar ko‘rsatiladi.

“Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar, jami” moddasi bo‘yicha (170-satr) 180, 190, 200, 210-satrlar bo‘yicha yakuniy summa aks ettiriladi.

“Foizlar ko‘rinishida xarajatlar” moddasi bo‘yicha (180-satr) hisobi 9610-“Foizlar ko‘rinishida xarajatlar” hisobvarag‘ida yuritiladigan, banklar kreditlari va qarzlarni bo‘yicha foizlarni to‘lash xarajatlari ko‘rsatiladi.

“Moliyaviy ijara (lizing) bo‘yicha foizlar ko‘rinishida xarajatlar” moddasi bo‘yicha (190-satr) hisobi 9610-“Foizlar ko‘rinishida xarajatlar” hisobvarag‘ida yuritiladigan, moliyaviy ijara (lizing) bo‘yicha foizlarni to‘lash xarajatlari aks ettiriladi.

“Valyuta kurslaridagi farqlardan zararlar” moddasi bo‘yicha (200-satr) hisobi 9620-“Valyuta kurslaridagi farqlardan zararlar” hisobvarag‘ida yuritiladigan, valyuta operatsiyalari bo‘yicha va balans tuzish sanasida balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan manfiy kurslardagi farqlar aks ettiriladi.

“Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar” moddasi bo‘yicha (210-satr) hisobi 9630-“Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish xarajatlari” va 9690-“Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar” hisobvaraqlarida yuritiladigan, qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar hamda moliyaviy faoliyatga doir boshqa xarajatlar aks ettiriladi.

“Umumxo‘jalik faoliyatidan foyda (zarar)” moddasi bo‘yicha (220-satr) korxonaning umumxo‘jalik faoliyatiga doir, asosiy faoliyatdan foyda (zarar) summasiga (100-satr) moliyaviy faoliyatdan daromadlar summasini (110-satr) qo‘shish va moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar summasini (170-satr) ayirish yo‘li bilan belgilanadigan moliyaviy natijalar ko‘rsatiladi.

“Favqulodda foyda va zararlar” moddasi bo‘yicha (230-satr) favqulodda voqealar natijalari ko‘rsatiladi, “Daromadlar (foyda)” ustuni 9710-“Favqulodda foydalar” hisobvarag‘ining ma‘lumotlari, “Xarajatlar (zararlar)” ustuni esa 9720-“Favqulodda zararlar” hisobvarag‘ining ma‘lumotlari bo‘yicha to‘ldiriladi.

“Daromad (foyda) solig‘ini to‘lashga qadar foyda (zarar)” moddasi bo‘yicha (240-satr) +/- belgisini hisobga olgan holda 220 va 230-satrlarni qo‘shish natijalari aks ettiriladi. Ushbu satr natijasi daromad (foyda) solig‘ining hisob-kitobi chog‘ida asos bo‘lib hisoblanadi.

“Daromad (foyda) solig‘i” moddasi bo‘yicha (250-satr) hisobot davri boshidan hisoblab yozilgan, 9810-“Daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha xarajatlar” hisobvarag‘ida hisobga olingan summa ko‘rsatiladi.

“Foydadan boshqa soliqlar va yig‘imlar” moddasi bo‘yicha (260-satr) yil boshidan hisoblab yozilgan, qonun hujjatlariga muvofiq korxonada o‘z foydasidan to‘laydigan soliqlar va yig‘imlar summasi aks ettiriladi.

Ular uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq solishning maxsus tartibi nazarda tutilgan korxonalar 260-satr bo‘yicha hisoblab yozilgan yagona soliq, yalpi daromaddan soliq, yagona er solig‘i summasini aks ettiradilar.

“Hisobot davrining sof foydasi (zarari)” moddasi bo‘yicha (270-satr) hisobot davrining pirovard moliyaviy natijasi ko‘rsatiladi, u 240-250-260-satrlar ayirmasi sifatida belgilangan.

“Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha ma‘lumotnoma”da (280-430-satrlar) korxonalar tomonidan soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab yozilgan va to‘lanadigan soliqlar turlari bo‘yicha byudjetga to‘lovlar ko‘rsatiladi. Mazkur ma‘lumotnomada 440-satr bo‘yicha korxonalar tomonidan hisoblab yozilgan va to‘lanadigan byudjetga to‘lovlarning yakuniy summasi ko‘rsatiladi.

6.6. Pul oqimlari va hamda taqdim etish tartibi

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq hisobotliklarga kiritilgan bo‘lib, mazkur moliyaviy hisobot xujjatida pul mablag‘larining xarakati nuqtai nazaridan sub‘ektning mulki bo‘lgan moliyaviy resurslarining o‘zgarishi aks ettiriladi. Bu hisobot yordamida inflyatsiya sharoitida boshqa moliyaviy hisobot shakllarini to‘ldirishda hisoblash uchullaridan foydalanishni e‘tiborga olgan holda, sub‘ektning likvidligini ob‘ektiv taqqoslash imkonini yaratiladi.

Ushbu shakl “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot” beshta bo‘limdan tashkil topgan:

1. Xo‘jalik faoliyatida pul mablag‘larining xarakati.
2. Investitsiya foydasi va moliyaviy xizmat ko‘rsatishdan olingan va to‘langan mablag‘lar.
3. Soliqni to‘lash uchun sarflangan mablag‘lar.
4. Investitsiya faoliyati uchun sarflangan va olingan mablag‘lar.
5. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha sarflangan va olingan mablag‘lar.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotda pul mablag‘larining xarakati nuqtai nazaridan korxonada moliyaviy zaxiralarining o‘zgarishi aks ettiriladi. Korxonada joriy xo‘jaligi investitsion va moliyaviy faoliyatda barcha pul mablag‘larining o‘zgarishi, pul va unga tenglashtirilgan mablag‘ qoldiqlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni hisobot boshi va oxiriga nisbatan o‘rnatish imkonini beradi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot sub'ektning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatining o'z pul mablag'lariga ma'lum hisobot davri ichida tasirini aks ettiradi, shu davr ichida pul mablag'larining o'zgarishini tushuntiradi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (shakl 4) 9- sonli BHMS "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" asosida tuziladi. Pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotni qo'llash quyidagilarni aniqlashga yordam beradi:

- tashkilotning pul mablag'larini va ularning ekvivalentlarini topa olish qobiliyatini va tashkilotning shu kabi Pul oqimlarini ishlatishga ehtiyojini aniqlash;
- tashkilotning sof aktivlaridagi o'zgarishlar, uning moliyaviy tuzilishini (uning likvidligini va to'lov qobiliyati bilan birga) va uning o'zgarib turgan sharoit va imkoniyatlarga moslashish uchun uz vaqtida pul miqdoriga va Pul oqimlariga ta'sir etish qobiliyatini aniqlash;
- xar xil tashkilotlarning operatsion faoliyatlarini taqqoslash, chunki bu ayni operatsion va xo'jalik faoliyatining xodisalari uchun xar xil hisoblash usullarini qo'llanishni inkor etadi.

Pul oqimlarini tasniflash. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda hisobot davri davomidagi Pul oqimlari aks ettiriladi va ular quyidagi shakllarga tasniflanadi:

- operatsion faoliyati;
- investitsion faoliyati;
- moliyaviy faoliyat;

Operatsion faoliyati. Operatsion faoliyatidan pul oqimlarining hajmi tashkilotning ssudalarni to'lash uchun etarli pul mablag'larini yigish, ishlab chiqarish darajasini saklash, dividendlarni to'lash va tashki moliyalashtirish manbalarni jalb qilmay yangi kapital qo'yilmalarni amalga oshirish ishlarini qila olishining asosiy ko'rsatgichidir. Operatsion faoliyatidan pul oqimlari birinchi navbatda, asosiy faoliyatdan daromad olishning natijasi bo'lib hisoblanadi.

Operatsion faoliyat jarayonida sodir bo'lgan pul mablag'larining xarakatlari

Pul mablag'larining okib kelishi	Pul mablag'larining okib ketishi
Mahsulot, tovar va xizmatni sotishdan	Tovar va xizmatlar uchun mol etkazib beruvchilarga to'lovlar
Royaltlardan (patentni, avtorlik huquqi qo'llanilganligi va boshqalar uchun), xar-xil xarakterdagi mukofotlardan, foiz daromadidan, komission yigimlardan va boshqa daromadlardan	Korxonada xodimlariga pul to'lovlari, operatsion xarajatlari
Tovar moddiy zaxiralarining qisqarishi	Tovar moddiy zaxiralarini ko'payishi
Savdo va vositachilik maqsadlarida tuziladigan bitimlar bo'yicha pullarning kelib tushishi	To'langan foizlar
Joriy majburiyatlarining ko'payishi, jumladan investitsion va moliyaviy faoliyatga kirmaydigan daromad soligi bo'yicha.	Joriy majburiyatlarining kamayishi, jumladan investitsion va moliyaviy faoliyatga kirmaydigan daromadga soligi bo'yicha
Pulsiz xarajatlar: a) asosiy mablag'larining va nomoddiy aktivlarining amortizatsiyasi, tabiiy resurslarining kamayishi b) qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha chegirmalarining amortizatsiyasi	Pulsiz muomalalari: a) qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha ustamaning amortizatsiyasi

Investitsion faoliyat – bu pul ekvivalentlariga kirmaydigan uzoq muddatli aktivlarni va

boshqa investitsiyalarni sotib olish va sotish, to'lanadigan kreditlarning berilishi va olinishi. Investitsion faoliyat natijasida sodir bo'ladigan pul mablag'larining xarakatlariga quyidagilar misol bo'lishi mumkin.

Investitsion faoliyat jarayonida sodir bo'lgan pul mablag'larining xarakatlari

Pul mablag'larining okib kelishi	Pul mablag'larining okib ketishi
Er, binolar, jixozlarning, nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlarning sotishdan tushumlar	Erni, binolarni, jixozlarni, nomoddiy (masalan, patentlarni) va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish to'lovlari, tajriba-konstruktorlik ishlari, hamda er bilan bog'liq kapital xarajatlar to'lovlari, pudratchilarni jalb qilmasdan korxonadan yaratilgan bino va jixozlar
Boshqa tashkilotlarning aksiyalarini yoki boshqa qarz majburiyatlarini chikib ketishidan, sotilishidan kirimlar (pul mablag'larining ekvivalentlari deb hisoblangan yoki sotuv uchun saklangan majburiyatlar uchun bo'ladigan to'lovlardan tashqari)	Boshqa korxonalarining aksiyalariga yoki qarz majburiyatlariga qo'yilmalar. Kapitalda ishtirok etish ulushiga badallar (pul mablag'larining ekvivalentlari hisoblanadigan yoki sotish uchun saklanayotgan to'lov xujjatlari bo'yicha to'lovlardan tashqari)
Boshqa korxonalariga berilgan bunaklarning qaytarilishi va qarzlarning to'lanishidan kirimlar (operatsion faoliyat bo'lgan, foiz daromadidan boshqa)	Boshqa korxonalariga berilgan bunak to'lovlari va qarzlilar
Fyuchers, forvard, opsiyon va svop-bitimlari bo'yicha kirimlar, diler va savdo maqsadlari uchun bo'lgan kontraktlar yoki kontraktlar moliyaviy faoliyat sifatida turkumlanganlaridan tashqari.	Fyuchers, forvard, opsiyon va svop-bitimlari bo'yicha chikimlar, diler va savdo maqsadlari uchun bo'lgan kontraktlar eki kontraktlar moliyaviy faoliyat sifatida turkumlanganlaridan tashqari.

Moliyaviy faoliyat - bu faoliyat natijasida tashkilotning xususiy kapitalining va qarzlarning hajmida va tuzilishida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Quyidagilar moliyaviy faoliyatdagi pul oqimlariga misol bo'ladi:

Moliyaviy faoliyat jarayonida sodir bo'lgan pul mablag'larining xarakatlari

Pul mablag'larining okib kelishi	Pul mablag'larining okib ketishi
Aksiyalarning chiqarishdan kelgan pul mablag'lari	Sotib olingan xususiy aksiyalar uchun to'lovlar
Qarz mablag'laridan kelgan tushum (chiqarilgan veksellar, obligatsiyalar, garovlar va boshqa qisqa va uzoq muddatli qarzlilar)	Qarzlarning to'lanishi (operatsion faoliyatning qarzlilar bo'yicha foizlardan tashqari)
	Aksionerlarga dividendlarning to'lanishi va kapitalning boshqa turda taqsimlanishi
	Moliyaviy ijara bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar bo'yicha to'lovlilar.

Investitsion va moliyaviy faoliyat bilan bog'liq pulsiz muomalalar. Faqat asosiy vositalarga, uzoq muddatli kreditlarga yoki aksionerlik kapitaliga tegishli bo'lgan investitsion va moliyaviy xarakterdagi pulsiz muomalalarga uzoq muddatli kreditlar hisobiga asosiy vositalarni sotib olish, kreditorlik qarzni kreditorlarga qo'shimcha aksiyalarni berish va chiqarish orqali to'lash va boshqalar kiradi.

Operatsion faoliyatdan pul mablag'larining harakati. Operatsion

faoliyatdan pul oqimlari “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotda” quyidagilarni qo‘llash bilan aks ettirilishi mumkin:

a) *to‘g‘ri usul*, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning xar bir moddasini o‘zgartirishni ko‘zda tutadi. To‘g‘ri usul kelgusidagi pul oqimlarini aniqlashda kerak bo‘lishi mumkin bo‘lgan axborot bilan ta‘minlaydi;

b) *egri usul*, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni xar bir moddasini o‘zgartirishni talab etmaydi. Egri usul qo‘llanilganda, operatsion faoliyat natijasida vujudga keladigan, shuningdek investitsion va moliyaviy faoliyatdan pul mablag‘lari xarakati bilan bog‘liq bo‘lgan daromadlar va xarajatlar moddalari pulsiz muomalalar, xar kanday muddatni uzaytirishlar, utgan va kelgusi hisobot davrlari uchun kirimlar va chikimlar erdamidagi ta‘sirni aks ettirish uchun sof foyda va zarar miqdori butunlay tuzatiladi.

To‘g‘ri usul. To‘g‘ri usul qo‘llanilganida, asosiy yalpi tushum va pul mablag‘larining yalpi to‘lovi to‘g‘risidagi ma‘lumot quyidagilardan olinishi mumkin:

1) hisob registrlaridan;

2) sotishdan olingan daromadni, sotishning tannarxi va quyidagilar hisobga olingan holda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning boshqa moddalarini tuzatish orqali:

a) hisobot davri davomida TMZdagi, debitorlik va kreditorlik qarzlardagi o‘zgarishlar;

b) pulsiz moddalar;

c) natijalari pul mablag‘larining xarakatiga ta‘siri kuprok investitsion va moliyaviy faoliyatga tegishli bo‘lgan boshqa moddalarni (berilgan eki olingan kreditlar bo‘yicha foizlar va boshqalar).

Egri usul. Egri usul qo‘llanilganda, operatsion faoliyat natijasida pul mablag‘larining xarakati, quyidagilarni hisobga olgan holda sof foyda yoki zararni tuzatish orqali aniqlanadi:

- hisobot davrida sodir bo‘lgan operatsion faoliyatdan debitorlik va kreditorlik qarzlarda tovar moddiy boyliklarda o‘zgarishlarni;

- eskirish, zaxiralar, muddati uzaytirilgan soliqlar, chet el valyutasining milliy valyutaga almashtirishdagi sotilmay kolgan tushumlar va zararlar, uyushgan kompaniyalarda taqsimlanmagan foyda va aktsiyalarning ba‘zi paketlari kabi pulsiz moddalarni;

- natijalari pul oqimlariga ta‘sir etadigan investitsion va moliyaviy faoliyatga tegishli boshqa barcha moddalarni (asosiy vositalarning sotishdan tushumlar, zararlar va boshqalar).

To‘g‘ri va egri usullarining qo‘llanilishi bir natijaga olib keladi va buxgalteriya hisobining xalkaro standarti bo‘yicha qo‘mita ikki usulni ham tan oladi, ammo to‘g‘ri usulni qo‘llanishni tavsiya qiladi. To‘g‘ri va egri usullarning qo‘llanish bilan tuzilgan pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotlari orasidagi farq, faqat operatsion faoliyat natijasidagi pul oqimlarini aks ettirgan bo‘limida o‘z aksini topadi.

Investitsion va moliyaviy faoliyatdan pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot.

Sub'ektlar pul oqimlari netto-asosida (sub'ektning nakd pulning tushum va to'lovi orasidagi farq) aks ettirilgan xodisalardan tashqari, investitsion va moliyaviy faoliyatdan kelib chiqadigan asosiy yalpi tushumlar va pul mablag'larining yalpi to'lovlari bo'yicha alohida hisobot beradilar.

Pul mablag'larining chet el valyutasidagi xarakati. Chet el valyutasi muomalalaridan kelib chiqadigan Pul oqimlari muomala amalga oshirilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki kursi bo'yicha milliy valyutada ko'rsatilishi kerak. Chet el karxona sho''basining pul oqimlari xarakati muomala amalga oshirilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki kursi bo'yicha milliy valyutaga almashtirilishi kerak. Valyutalarning kursi o'zgarishlardan kelib chiqadigan realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar pul oqimlariga kirmaydi.

Favqulotdagi moddalar bilan bog'liq bo'lgan pul oqimlarining xarakati. Favqulotda moddalar bilan bog'liq bo'lgan pul oqimlari, moddalarning xarakteriga kura operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdan vujudga keladigan pul oqimlari sifatida klassifikatsiyalanadi. Favqulotdagi moddalarni tushuntirish va ularni hozirgi va kelajakdagi pul oqimlari xarakatiga ta'sirini aniqlash uchun, Favqulotdagi moddalar bilan bog'liq pul oqimlar "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda" operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlar bo'limlarida alohida ko'rsatiladi.

Foizlar va dividendlarni to'lash va olish bilan bog'liq pul oqimlari. Foizlar va dividendlar to'lash va olish bilan bog'liq bo'lgan pul mablag'larining xarakati alohida ochib beriladi. Ular sub'ektning xo'jalik faoliyati turiga bir hisobot davridan keyingisiga bir maromda operatsion, investitsion eki moliyaviy faoliyat kabi tasniflanadi. Hisobot davri davomida to'lanadigan foizlarning umumiy summasi ularni xarajat sifatida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda tan olinishi eki olinmasligiga karamasdan pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda ochib beriladi. Moliyaviy muassasalarda to'lanadigan foizlar va olinadigan foizlar, hamda dividendlar pul mablag'larining xarakati sifatida klassifikatsiyalanadi.

Boshqa korxonalar uchun esa to'lanadigan foizlar va olinadigan foizlar hamda dividendlarni operatsion faoliyatdan pul oqimlari sifatida tasniflash mumkin, chunki ular sof foyda eki zararni aniqlashda ishtirok etadilar. Lekin ular moliyaviy va investitsion faoliyatdan pul oqimlari sifatida ham tasniflanishi mumkin. Bunga sabab, ular olingan moliyaviy resurslar uchun to'lov yoki investitsiyalardan daromad hisoblanadi.

Sub'ektlar «Xodimlarga va xodimlar nomidan to'langan pul mablag'lari» moddasida (012 satr) xodimlarga mehnat haqi va mukofot ko'rinishida, hamda pensiya jamg'armasiga, bandlik jamg'armasiga, shaxsiy sug'urta uchun davlat va nodavlat sug'urta jamg'armalariga, daromad solig'i uchun byudjetga, kasaba uyushmalariga, alimentga, uy joy jamg'armasiga, xodimlarga berilgan bank kreditlari uchun xodimlarga ko'rsatilgan xizmatlar uchun va boshqa xarajatlardan uchun g'aznava bank schyotlaridan xodimlarga va ular nomidan to'langan pul va unga tenglashtirilgan mablag'larning miqdorini ko'rsatadilar.

Investitsiya va moliyaviy xizmat ko'rsatish faoliyati bo'yicha «olingan foizlar» va «to'langan foizlar» moddalariga mos ravishda bankdagi

schyotlarga, kassaga kelib tushgan va to‘langan foizlarning miqdorlarini ko‘rsatadilar. Olingan va to‘langan foizlar yuzasidan ma‘lumotlar 9530 va 9620 schyotlarda olinadi.

«Olingan dividendlar» va «To‘langan dividendlar» moddalarida pul va unga tenglashtirilgan mablag‘lar ko‘rinishida olingan va to‘langan dividendlarning miqdorlari ko‘rsatiladi.

Olingan va to‘langan foizlar bo‘yicha ma‘lumotlar tegishli 9420 va 6610 schyotlardan olinadi.

«Foydadan to‘langan soliq» moddasida foydadan to‘langan soliqning miqdori ko‘rsatiladi. Bu ma‘lumotlar 6410-4510 schyotlardan olinadi.

«Boshqa to‘langan soliqlar» moddasida daromad solig‘idan tashqari barcha to‘langan soliqlar, schyotlar va shularga tenglashtirilgan yig‘im va ajratmalar ko‘rsatiladi. Foydadan olinadigan soliqlar va daromad soliqlari bu moddada aks ettirilmaydi.

«Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish» moddasining (040s) chiqim ustunida nomoddiy aktivlarga egalik qilish uchun mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘langan pul mablag‘lari va unga tenglashtirilgan mablag‘larning miqdori ko‘rsatiladi.

Sub‘ektlar «Uzoq muddatli moddiy aktivlarni sotib olish va sotish» moddasining (041) «chiqim» ustunida uzoq muddatli moddiy aktivlarni ya‘ni, ko‘chmas mulk, bino, jixoz va boshqa asosiy vositalarni sotib olish uchun mol etkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari va unga tenglashtirilgan mablag‘larning miqdorini ko‘rsatadilar.

Sub‘ektlar «Xarid qilingan uzoq va qisqa muddatli qo‘yilmalar» moddasining (042s) «kirim» ustunida o‘zining to‘lmagan qimmatbaqog‘ozlarni, shu bilan birga bank va boshqa yuridik shaxslarning qisqa va uzoq muddatli krediti va qarzlarni sotishdan tushgan tushum ko‘rsatiladi.

Mazkur moddada kapitalizatsiya qilinadigan tajriba konstruktorlik ishlariga to‘lovlar ham ko‘rsatiladi.

«Aktsiya chiqarishdan kapitalga kelib tushgan daromad» moddasida (050 s) hissadorlarning hisobot davrida aktsiya chiqarishdan kelib tushgan pul mablag‘larining miqdori aks ettiriladi.

«Uzoq va qisqa muddatli qarzlarning kelib tushishi» moddasining (051 s) «kirim» ustunida, sub‘ektlar hisobot davrida kelib tushgan kreditga va qarzga olgan pul mablag‘larini, «chiqim» ustunida kredit va qarzlarning jamg‘arilishini aks ettiradilar.

Sub‘ekt «ijara majburiyatlari bo‘yicha tushum va to‘lovlar» moddasining (052 s) «chiqim» ustunida ijaraga beruvchiga to‘langan, «kirim» ustunida ijarajan kelib tushgan ijara haqi, ya‘ni pul va unga tenglashtirilgan mablag‘larni ko‘rsatadilar.

Sub‘ektlar «Pul mablag‘lari va unga tenglashtirilgan mablag‘larning hisobot yili boshiga holati» moddasida (070 s) hisobot yilining 31 dekabr holatiga pul mablag‘lari schyotlaridagi (5000, 5100, 5200, 5500, 5600, 5700) qoldiq va balansning «olingan vositalar» schyotida hisobga olingan qisqa muddatli

qimmatbaho qog'ozlarning miqdorlarini ko'rsatadilar.

«Pul va unga tenglashtirilgan mablag'larning hisobot davri oxiriga oxiriga holati» moddasida (020 s) hisobot davrining oxirgi kalendar kuniga pul mablag'lari schyotlaridagi (5000, 51000, 5500, 5600, 5700, 5800) qoldiq va balansning «olingan vositalar» schyotida hisobga olinadigan qisqa muddatli qimmatbaho qog'ozlarning miqdorlari ko'rsatiladi.

«Xorij valyutasidagi mablag'larning xarakati to'g'risidagi ma'lumot» bo'limida sub'ektning hisobot yilidagi valyuta mablag'larining xarakati ko'rsatiladi.

«Yil boshiga qoldiq» moddasida (90s) sub'ektning 5200 xorij valyutasi schyotida ko'rsatiladi.

«Jami sarflangan» moddasida (110s) sub'ekt tomonidan turli maqsadlarda sarflangan umumiy xorij valyutasidagi mablag'lari aks ettiriladi. Xorij valyutasidagi mablag'larning sarflanishi 111-116 satrda yoritiladi.

111 satrda «Ishlab chiqarish sarflariga ko'shilgan xarajatlar» - mahsulotlarni tannarxi va davr xarajatlariga qo'shilgan xorij valyutasidagi mablag'lari sarflarining yig'indisi ko'rsatiladi;

112 satr «Ishlab chiqarish» rivojlanish xarajatlari» - asosiy vositalarni, jixozlarni sotib olish va boshqa kapitallashtirish xususiyatidagi xarajatlar uchun sarflangan xorij valyutasidagi mablag'larning yig'indisi ko'rsatiladi.;

113 satr «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lovlar» - xom ashyo, material, tovar va boshqa oborot mablag'larini sotib olishga uzoq muddatli aktivlarni yaratishga sarflangan xorij valyutasidagi mablag'larning yig'indisi ko'rsatiladi.

Sub'ektlar «Hisobot davri oxiriga qoldiq» moddasida (120 s) hisobot davri oxiriga xorij valyutasidagi schyotlari (5200) va g'aznasidagi (5020) xorij valyutasidagi mablag'larining qoldiq miqdorini aks ettiradilar. Bu miqdorda 100-110 satrlar yig'indisining natijasiga teng bo'ladi.

6.7. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tuzish

Xususiy kapital buxgalteriya hisobining muhim fundamental tamoyillaridan biri bo'lgan ikki yoqlama yozuv tamoyiliga asoslanildi. Buning zahirida quyidagi tenglik yotadi:

$$\text{Aktiv} = \text{Xususiy kapital} + \text{Majburiyatlar}$$

Bu tenglikdan ko'rinib turibdiki, xususiy kapital har bir kichik tadbirkorliksub'ektlar faoliyatining mulkiy va moliyaviy holatini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1997 yil 15 yanvaridagi 5-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan moliyaviy hisobotning 5-shaklda xususiy kapitalning tuzilmasi quyidagilardan iboratdir, deb ko'rsatilgan: ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda, xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

Xususiy kapital deganda kichik tadbirkorliksub'ektga tegishli bo'lgan mulkning qiymati tushuniladi. Bu kapital jami kapital bilan qarzga olingan kapitalning o'rtasidagi farq sifatida aniqlanishi mumkin, ya'ni

$K_x = K_j - K_q$.

Bunda, K_x -xususiy kapital, K_j -jami kapital, K_q -qarzga olingan kapital.

Xususiy kapitalni buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun ularni bir qancha belgilari bo'yicha tasniflashni taqozo qiladi. Aksariyat olimlar xususiy kapitalni tasniflash belgilari sifatida ularning turlarini, xizmat muddatlarini, tashkil etish manbalarini olish zarur deb hisoblaydilar.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tuzish maqsadi bo'lib, xususiy kapitalning hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan holati va hisobot davri mobaynida uning tarkibidagi o'zgartirishlar haqidagi axborotni ochib berish hisoblanadi.

Xususiy kapital tushunchasi O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1996 y., 9-son, 142-m.), O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 26 iyulda 17-07/86-son bilan tasdiqlangan (ro'yxat raqami 475, 1998 yil 14 avgust, Me'yoriy hujjatlar axborotnomasi, 1999 y, 5-son) Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 26 iyulda 17-07/85-son bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining "Hisob siyosati va moliyaviy hisobotlar" Buxgalteriya hisobi milliy standarti (1-son BHMS) da (ro'yxat raqami 474-son 1998 yil 14 avgust, Me'yoriy hujjatlar axborotnomasi, 1999 yil, 5-son) keltirilgan.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning manzillar qismida hisobot sanasi, kichik tadbirkorliksub'ektning nomi, tarmog'i, mulkchilik shakli, tashqiliy-huquqiy shakli va to'liq yuridik manzili, uning tasarrufida mazkur kichik tadbirkorliksub'ekt bo'lgan organning nomi, xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning tayyorlanishi chog'ida foydalanilgan o'lchov birligi ko'rsatilishi kerak.

Hisobotda xususiy kapital va uning tarkibiy qismlari to'g'risidagi, ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) sotib olingan o'z aksiyalari va boshqa xususiy kapital elementlari haqidagi axborot ochib berilishi kerak.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot xususiy kapital to'g'risidagi hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan tegishli axborotni ochib berishi kerak.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda ma'lumotlarni aks ettirishda ularning yil boshidagi qoldig'i 010-satrdan keltiriladi.

020-satrdan qimmatli qog'ozlarning emissiyasi haqida ma'lumot beriladi.

"Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash" moddasi (030-satrdan)da korxonadagi uzoq muddatli aktivlarni qayta baholanishi natijasidagi xususiy kapitalining, ya'ni rezerv kapitalining oshishi aks ettiriladi.

Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo'lgan valyuta kursi farqlari haqidagi ma'lumot esa, 040-satrdan uz aksini topadi.

"Rezerv kapitaliga ajratmalar" moddasi (050-satrdan) da hisobot yilida rezerv kapitalining hajmini oshirish maqsadida amalga oshirilgan ajratmalar miqdori ko'rsatiladi.

Hisobot yilidagi taqsimlanmagan foyda (zarar) ning holati haqidagi ma'lumotni "Xususiy kapital to'g'risida" gi hisobotning "Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)" moddasi (060-satr)da kurish mumkin bo'ladi.

Korxonaga xususiy kapitalining bepul olingan mol-mulk hisobiga ko'payishi bilan bog'liq ko'rsatkich esa, "Tekinga olingan mol-mulk" modda (070-satr) da aks ettiriladi.

"Maqsadli foydalanish uchun olingan mablag'lar" (080-satr) moddasida korxonaning hisobot yilidagi maqsadli tushumlarining miqdori haqidagi ma'lumot keltiriladi.

Korxonaning taqsimlanmagan foydasi hisobidan hisobot yilida to'langan dividendlarining miqdori "To'langan dividendlar" moddasi (090-satr) da ko'rsatiladi.

Korxonaning xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari haqidagi ma'lumotlar shu nom bilan ataluvchi modda (100-satr) da keltirib o'tiladi.

Xususiy kapitalning turlari bo'yicha yil oxiriga qoldig'i 110-satrida keltiriladi.

Korxonaga xususiy kapitalining hisobot yilidagi ko'payishi (+) yoki kamayishi (-) 120-satrdan aks ettiriladi.

5-shakldagi hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar uchun qo'shimcha axborot sifatida yana quyidagilarning holati haqida ham ko'rsatkichlar keltirib o'tiladi:

- Chiqarilgan aksiyalar soni, (dona). Shu jumladan: imtiyozli, oddiy;
- Aktsiyaning nominal qiymati;
- Muomaladagi aksiyalar soni, (dona). Shu jumladan: imtiyozli, oddiy.

"Xususiy kapital to'g'risida" gi hisobot shaklini korxonaga raxbari, bosh buxgalter imzolari bilan tasdiqlaydilar.

BUXGALTERIYA HISOBI
AMALIY MASHG'ULOT
MATERIALLARI

1-mavzu. Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq xarajatlar hisobi hamda mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilish

Masala 1.

“Nur” firmasi asbob-uskunalar savdosi bilan shug'ullanadi va u qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi hisoblanmaydi. Joriy yilning hozirgi davrigacha korxonalar har biri 4800,0 ming so'mdan 10 ta, 3420,0 ming so'mdan 20 ta uskuna sotgan. Firma quyidagi sarflarni amalga oshirgan (ming so'm):

- uskunalar uchun mol yetkazib beruvchilarga 100000,0;
- mehnat haqi to'lovlari 2500,0;
- uskunalar o'rnatib berishda foydalanilgan materiallar 1500,0;
- internet va aloqa xizmatlari 500,0;
- firma joylashgan binoni saqlash xarajatlari 400,0.
- transport sarflari 600,0.

Agar firma qo'shimcha ravishda har biriga 500,0 ming so'm maosh to'lanadigan uch nafar ishchi jalb qilsa, internet va aloqa xizmatlari 20%, transport xizmatlari 17%, material xarajatlari 15% ga ortadi. Bu esa, qo'shimcha 5 ta (sotib olish narxi 4000,0 ming so'm, sotish bahosi 4800,0 ming so'm) uskuna sotish imkoniyatini ochib beradi.

Aniqlang:

1) “Nur” firmasining qaysi xarajatlari:

- a) doimiy
- b) o'zgaruvchan

Hisob-kitoblarni amalga oshiring va sotish hajmini oshirish/oshirmaslik to'g'risida qaror qabul qiling.

Masala 2.

“Osiyo” YoAJ oltita javobgarlik markaziga ega.

Javobgarlik markazlarining choraklik faoliyatini tavsiflovchi ma'lumotlar

Javobgarlik markazlari	Ishlab chiqarilgan mahsulot, dona	Hodimlar soni, kishi	Joriy xarajatlar, ming so'm	Shu jumladan material xarajatlar, ming so'm	Tushum, ming so'm
1-ishlab chiqarish sexi	480	12	12 216	7 329,6	17 400
2- ishlab chiqarish sexi	320	8	8 144	4 886,4	11 600
3-ishlab chiqarish sexi	240	6	6 108	3 664,8	8 700
Ma'muriyat		4	1 160		
Qadoqlash sexi		6	1 784,1	802,85	
Moddiy-texnika ta'minot bo'limi		3	985		

Jami	1 040	39	30 397,1	16 683,65	37 700
-------------	--------------	-----------	-----------------	------------------	---------------

“Osiyo” YoAJda noishlab chiqarish xarajatlari qadamli usulda taqsimlanishini nazarda tutib, ishlab chiqarish bo‘limlari faoliyatiga baho bering.

Masala 3.

“Navruz” mas’uliyati cheklangan jamiyati maishiy kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi.

Ishlab chiqarish hajmi va ishlab chiqarish xarajatlari

Ko‘rsatkichlar	Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun
Ishlab chiqarilgan kukun, paket	800	820	770	830	840	830
Asosiy materiallar tannarxi, sh.b	580000	594500	558250	601750	609000	601750
Ishlab chiqarishdagi ishchilarga ish haqi, sh.b	160000	164000	154000	166000	168000	166000
Jihozlardan foydalanish xarajatlari, sh.b	200000	210000	210000	200000	210000	210000

Qo‘shimcha ma’lumotlar: har oylik inflyatsiya 2 %, aprel oyida “Navruz” MChJ ishchilarining ish haqi miqdori 20 % ga oshgan.

Eng kichik va eng katta miqdor usulidan foydalanib xarajatlarni baholang.

Masala 4.

Korxonada ishlab chiqarish maqsadida mol yetkazib beruvchidan 15 ta transformator sotib oldi. Korxonada qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) to‘lovchisi hisoblanmaydi.

Mol yetkazib beruvchilarning schot-fakturasidagi ma’lumotlar: miqdori 15 dona, har birining bahosi 180000 sh.b., yetkazib berish summasi 3200000 sh.b.

Korxonada tovarlarni olishda quyidagi qo‘shimcha xarajatlarni amalga oshirgan:

transport xarajatlari — 240000 sh.b.;

maslahat xizmati xarajatlari — 50000 sh.b.

Korxonada to‘lovni amalga oshirish uchun yiliga 24 foiz stavkadagi bank kreditini olib, kredit to‘lovlarini bir oy ichida qaytardi.

Transformatorlarning haqiqiy tannarxini hisoblang, materiallarning kirim bahosi bo‘yicha hisob yozuvlarini keltiring.

Masala 5.

Quyidagi jadvalda ishlab chiqarish korxonasi sentabr oyida materiallar kirimi va xarajatlari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Sana	Miqdor, dona	Narx, sh.b.	Summa, sh.b.	Hisobdan chiqarish sanasi	Miqdor, dona
-------------	---------------------	--------------------	---------------------	----------------------------------	---------------------

01.09	70	185	12 950		
10.09	100	200	20 000	08.09	50
15.09	120	215	25 800	13.09	100
20.09	110	190	20 900	22.09	200
25.09	100	205	20 500	27.09	120
28.09	105	215	22 575	30.09	90

Ishlab chiqarishga materiallarni quyidagi usullardan foydalanib hisobdan chiqaring:

- 1) AVECO;
- 2) FIFO;

Har bir usulning foydali tomonlarini keltirib o‘ting.

Masala 6.

“Kulcha” MChJ quyidagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi: non, hamir, qandolat mahsuloti va pryanik. Aprel oyidagi bilvosita xarajatlar 26 000 sh.b.ni tashkil etgan (muhandis-texnik ishchilarga ish haqi, ishlab chiqarish binosining ijarasi, asosiy vositalar amortizatsiyasi, elektrenergiya xarajatlari, yoritish, isitish xarajatlari va boshqalar).

Ishlab chiqarilgan mahsulot turlari	Sotishdan daromad, sh.b.	Ishlab chiqarish hajmi, sh.b.	To‘g‘ri xarajatlar, sh.b.	Ish vaqti, mashina-soat
Non	66 000	95 200	65 280	96
Hamir	16 500	16 800	14 400	12,8
Qandolat mahsulotlari	13 200	13 300	8 640	15,2
Pryanik	14 300	14 700	7 680	36
Jami:	110 000	140 000	96 000	160

Aniqlash lozim:

- 1) turli taqsimot bazalaridan foydalanib bilvosita xarajatlarni mahsulot turlari bo‘yicha taqsimlang;
- 2) taqsimot natijalarini solishtiring;
- 3) bilvosita xarajatlarni taqsimlashda eng optimal taqsimot bazasini aniqlang.

Masala 7.

Jadvalda “Behruz” firmasining joriy yil II kvartalida amalga oshirgan xo‘jalik muomalalari keltirilgan.

№	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, sh.b.
1	Asosiy ishlab chiqarishga berilgan materiallar	86 000
2	Umumxo‘jalik maqsadida berilgan materiallar	22 000

3	Umumishlab chiqarish maqsadlarida foydalanilgan inventarlar	8 000
4	Asosiy ishlab chiqarish ishchilariga hisoblangan ish haqi	42 000
5	Boshqaruv xodimlariga hisoblangan ish haqi	12 000
6	Sotish bo‘limi ishchilariga hisoblangan ish haqi	18 000
7	Asosiy ishlab chiqarish vositalariga hisoblangan amortizatsiya	24 500
8	Boshqa uskunalar amortizatsiyasi	17 300
9	Hisoblangan xizmat safari xarajatlari	6100
10	Patent uchun amortizatsiya hisoblangan	620
11	Elektrenergiya xarajatlari	450
12	Mahsulotlarni ombordan xaridorning omborigacha yuklab jo‘natish xarajatlari	960
13	Mahsulotlarning sertifikatitsiyasi bo‘yicha xarajatlar	1800
14	Boshqa sotish xarajatlari	1300
15	Yagona ijtimoiy to‘lov	24 000

Aniqlang:

- 1) o‘zgaruvchan xarajatlar bo‘yicha mahsulotlar tannarxini;
- 2) ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar sotilganligini hisobga olib, to‘liq tannarxni.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sotilishini hisobga olib, buxgalteriya o‘tkazmalarini yozing.

Masala 8.

“Olimp” korxonasi mebel ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Mebellarni ishlab chiqarish jarayoni uch bosqichdan iborat. Korxonaning hisob siyosatida buxgalteriya hisobini tashkil etishda 2110 “Yarim tayyor mahsulotlar” schotidan foydalanish keltirib o‘tilgan.

Joriy yilning mart oyida korxonada 63 ta yumshoq stul ishlab chiqarib, ulardan 53 tasini sotgan. I bosqich bo‘yicha asosiy material xarajatlari 30 618 sh.b.ni tashkil etgan. I bosqich bo‘yicha qo‘shimcha xarajatlar 18 900 sh.b.ga, II bosqich bo‘yicha 15 561 sh.b.ga, III bosqich bo‘yicha 11 970 sh.b.ga teng. Sotish xarajatlari 8 000 sh.b.ga teng. Bir dona stulning sotilish narxi 1 800 sh.b.ga teng.

Mahsulotlar ishlab chiqarish va sotishga oid buxgalteriya yozuvlarini keltiring.

Masala 9.

Ishlab chiqarish jarayoni 5 bosqichdan iborat. I-bosqich bo‘yicha asosiy material xarajatlari ishlab chiqarilgan birlik mahsulot uchun 800 sh.b.ni tashkil etadi.

Barcha ishlab chiqarish bosqichlari bo‘yicha qo‘shimcha xarajatlar

Ko‘rsatkichlar	Bosqichlar				
	I	II	III	IV	V
Yarim fabrikatlar miqdori (tayyor buyumlar), dona.	900	750	670	580	500

Qo'shimcha xarajatlar, sh.b.	108000	105000	100500	104400	105000
------------------------------	--------	--------	--------	--------	--------

III bosqichida yarim tayyor mahsulotlar tannarxini 500 birlik tayyor mahsulot sotilganligini va sotish xarajatlari 3 500 sh.b.ni tashkil etganligini hisobga olgan holda hisoblang.

Masala 10.

Ishlab chiqarish korxonasi rezinadan tayyorlangan texnik buyumlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Texnik jarayon ikkita bosqichdan iborat. "A" sex quyadi, "B" sex qayta ishlaydi.

"A" sexning hisobot oyidagi faoliyatini tavsiflovchi ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Miqdor, dona	Summa, sh.b.
Davr boshiga tugallanmagan ishlab chiqarish	4 000	8 080
Shu jumladan:		
Asosiy materiallar		5 280
Qo'shimcha xarajatlar (tugallanmaganlik darajasi 40%)		2 800
Qayta ishlash boshlangan mahsulotlar	55 000	
Oy oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarish (tugallanganlik darajasi 30%)	3 000	
Ishlab chiqarishga berilgan asosiy materiallar		71500
Qo'shimcha xarajatlar		40 875

A sexda ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarning tannarxini hisoblang, shartli birliklar usulidan foydalanib tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini hisoblang.

Masala 11.

Korxonada yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda.

Bir dona mahsulotga sarflanadigan xarajat me'yorlari

Xarajatlar	Miqdori	Bir dona narxi, sh.b.
Asosiy materiallar, kg:		
A	12	85
B	3	260
C	17	46
Asosiy ishchilarning mehnat xarajatlari, soat	0,5	28
O'zgaruvchan ustama xarajatlar		126
Doimiy ustama xarajatlar		62

Yangi ishlab chiqarilayotgan mahsulot bo'yicha bir kunlik xarajatlar smetasi tuzilsin, agar ish ikki smena ko'rinishida tashkil etilgan bo'lsa, har bir smena 8 soatdan iborat.

Masala 12.

Joriy yilning avgust oyida 2000 dona mahsulotni ishlab chiqarish uchun

haqiqatda 7400 kg xom ashyo (13 320 000 so‘mlik) sarflangan. Me‘yorlar ko‘rsatkichlarga binoan 1 dona A mahsulotiga 3,6 kg xom ashyo sarflanishi, 1 kg 1800 so‘mdan sotib olinishi kerak.

Xom ashyo bo‘yicha tafovutlar (og‘ishish) summasini aniqlang, tafovutlarni tahlil qiling va “standart-cost” tizimida xom ashyo harakati bo‘yicha buxgalteriya provodkalarini keltiring.

Masala 13.

“Xumo” xususiy korxonasi yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarishni o‘rganmoqda. Bir dona yangi turdagi mahsulotning me‘yoriy tannarxi 2600 so‘mni tashkil qiladi. Rejalashtirilgan ishlab chiqarish hajmi 1000 dona va rejalashtirilayotgan sotish narxi 4000 so‘mdan.

Haqiqatda rejalashtirilgan miqdorda mahsulot ishlab chiqardi, ammo bir donasining haqiqiy tannarxi me‘yoriy tannarxidan 240 so‘mga qimmatroq bo‘lib chiqdi. Shu sababdan sotish narxi ham 300 so‘mga oshirildi.

Aniqlang:

- 1) “Xumo”ning olgan haqiqiy foydasini;
- 2) haqiqiy foyda me‘yoriy foyda ko‘rsatkichi bilan mos keldimi?

Agar foyda ko‘rsatkichida farqlar paydo bo‘lgan bo‘lsa ularni tahlil qiling.

Masala 14.

“Bahor” korxonasi trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqaradi. 1 dona mahsulotga to‘g‘ri keladigan xarajat me‘yorlari keltirilgan:

Asosiy materiallar xarajati 0,6 kg
1 kg asosiy materialning narxi 240 sh.b.

Ishlab chiqarish ishchilarining mehnat samaradorligi 1,6 mahsulot/soatiga

Ishlab chiqarish ishchilarining soatbay stavkasi 36 sh.b.

O‘zgaruvchan umumishlab chiqarish xarajatlari 24 sh.b.

Keyingi oyda 105 trikotaj mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda. Keyingi oydagi xarajatlar smetasi tuzilsin, doimiy umumishlab chiqarish xarajatlari 17850 sh.b. miqdorida rejalashtirilgani hisobga olingan holda, trikotaj mahsulotning minimal sotish narxini aniqlang.

Masala 15.

“Qurilish” zavodida uch hil turdagi mahsulot ishlab chiqariladi: laklar, bo‘yoqlar, asos uchun qorishmalar. Sotish bo‘yicha rejaga binoan sotish ko‘rsatkichlari quyidagi tuzilishda kutilmoqda: laklar – 20%; bo‘yoqlar – 50%; asos uchun qorishma – 30%.

Ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq xarajatlarning reja ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Laklar	Bo‘yoqlar	Asos uchun qorishma
Bir dona mahsulotga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajatlar, sh.b.	120	80	40
Sotish narxi, sh.b.	180	110	60

Agar zavod ma'muriyati 500000 sh.b. foydaga erishmoqchi bo'lsa, qancha lak, bo'yoq va asos uchun qorishmalardan sotishi lozim, doimiy xarajatlar 600000 sh.b. tashkil etgan holda.

Masala 16.

“Safo” MChJning sexlaridan biri dazmollash uchun uskunalarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Fevral oyida 500 dona tayyor mahsulot ishlab chiqargan. Sex binosining ijara haqi fevral oyi uchun 102000 sh.b.ni tashkil etdi, kommunal to'lovlar bo'yicha xarajatlar 84000 sh.b., asosiy ishlab chiqarish uskunalarning amortizatsiya va ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlari 45000 sh.b. Umumzavod xarajatlari sexlar bo'yicha taqsimlanadi, jumladan dazmollash uchun uskuna ishlab chiqaradigan sexga to'g'ri keladigan ma'muriy xarajatlar 28000 sh.b.ni tashkil etdi, boshqa xarajatlar 16000 sh.b.

Doimiy nazorat ostida bo'lgan ishchi me'yorlarga binoan, bir dona moslamaga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlar 250 sh.b.ni tashkil etadi.

Sexning fevral oyi uchun moliyaviy natijasini aniqlang, agar bir dona dazmol qilish uchun moslamaning sotish narxi 750 sh.b.ni tashkil etsa. Mazkur sex uchun ishlab chiqarishning zaruriy minimal ishlab chiqarish hajmini aniqlang.

Masala 17.

“Meros” AJ nazorat-o'lchash moslamalarini ishlab chiqaradi. Shartli-doimiy xarajatlar bir oyda 10000 dona moslama ishlab chiqarish hajmidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Bir dona moslamani ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlar

Xarajatlar	Summa, sh.b.
Material xarajatlar	200
Asosiy ishlab chiqarish ishchilariga ish haqi xarajatlari	20
Asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari	0,8
Asosiy ishlab chiqarish fondlarining amortizatsiya xarajatlari	2
Yordamchi ishchilarining ish haqi	1,5
Bino ijarasi bilan bog'liq xarajatlar	2,3
Ma'muriy xarajatlar	3,2
Bank xizmatlari uchun to'lov xarajatlari	0,2
Kommunal to'lovlar	1,4

Vazifa:

Bir dona mahsulotning sotish narxi 300 sh.b. bo'lgan holatda zararsizlik nuqtasini miqdor va qiymat ko'rsatkichlarda aniqlang.

Agar oyiga 500 dona mahsulot ishlab chiqarilsa, korxonaning bir oylik foyda yoki zararini aniqlang.

Masala 18.

“Imkon plus” firmasi yangi mahsulot turini ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda. Firmaning doimiy xarajatlari ilgari 300000 sh.b.ni tashkil etgan

bo'lsa, qo'shimcha yangi mashina va uskunalardan foydalanganligi sababli doimiy xarajatlarni 50% ga o'sishi kutilmoqda. Rejadagi hisob-kitoblarga binoan: bir dona yangi mahsulotga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlar 12000 sh.b.ni, sotish narxi 14000 sh.b. tashkil etadi. Ishlab chiqarish quvvati oyiga 500 dona.

Grafik usulidan foydalangan holda, yangi turdagi mahsulot uchun zararsizlik nuqtasini aniqlang. "Imkon plus" firmasining eng yuqori ishlab chiqarish quvvati ko'rsatkichida olinadigan marjinal daromad va foydani hisoblang.

Masala 19.

"Dur" AJ ikki turdagi *A* va *B* mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Quyidagi jadvalda jamiyat faoliyati ko'rsatkichlari keltirilgan.

Jamiyat faoliyati ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Mahsulot		Jami
	<i>A</i>	<i>B</i>	
Bir dona mahsulotga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajat, sh.b.	800	1200	
Sotish hajmi, dona	500	1000	
Bir donasining narxi, sh.b.	1000	1500	
Doimiy xarajatlar, sh.b.			200 000

A va *B* turdagi mahsulot uchun zararsizlik nuqtasini aniqlang, sotish ko'rsatkichlari bo'yicha bir dona *A* turidagi mahsulotga ikkita *B* turdagi mahsulot to'g'ri kelishini inobatga oling.

B mahsulot bo'yicha zararsizlik nuqtasini aniqlash uchun grafik tuzing, faraz qiling *A* mahsulot turi ishlab chiqarishdan olib tashlangan.

Masala 20. "Temiruskunatrans" MChJ temir yo'l uchun asbob ukunalarni ishlab chiqaradi. "BSB" blokining yasash uchun maxsus materialdan yasalgan ustki qism zarur. "Temiruskunatrans"ning bir oylik ustki qismlarga talabi 500 dona.

Korxonah rahbari, mazkur qismlarni o'zlari ishlab chiqarishlari yoki tashqi ta'minotchi korxonalaridan sotib olishlari to'g'risida qaror qabul qilishi kerak. Qaror qabul qilish uchun korxonah rahbari hisobchi-tahlilchiga mavjud yechimlarning taqqoslovchi tahlilini o'tkazib, ma'lumot taqdim etish to'g'risida topshiriq berdi. Hisobchi-tahlilchi bir dona mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar hisob kitobini keltirdi, ishlab chiqarish hajmini 500 ta deb olgan holda.

Asosiy materiallar, sh.b.	500
Asosiy ishchilarning ish haqi, sh.b.	150
O'zgaruvchan ustama xarajatlar, sh.b.	50
Doimiy ustama xarajatlar, sh.b.	250
Jami to'liq tannarx, sh.b.	950

Tashqi yetkazib beruvchilar o'rganilganda 500 dona qismni bir donasini 850 so'mdan sotib olish mumkin. Shunday qilib tahlil qilish uchun yyetarli ma'lumotlar jamlandi. Tahlilni oxiriga yetkazing va korxonah rahbariga qaror qabul qilishga yordam bering.

Masala 21.

“Tezlik” XKning javobgarlik markazlarining biri ikki turdagi elektrdviqatellarni ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda: X, Y. “Tezlik” XKda xarajatlarni hisobga olishning me’yoriy usuli qo’llaniladi.

Elektrodviqatellarni ishlab chiqarish bilan bog’liq ko’rsatkichlar

Ko’rsatkichlar	Elektrdviqatel	
	X	Y
Bir oylik rejalashtirilgan sotish hajmi, dona	910	1200
Bir dona mahsulot narxi, sh.b.	700 000	600 000
Bir dona mahsulotga sarflanadigan materiallar me’yoriy xarajatlari, sh.b.	372 000	267 000
Bir dona mahsulotga sarflanadigan me’yoriy vaqt, soat	5	3
Yordamchi ishchilar sarflaydigan me’yoriy vaqt, soat	1,5	0,5
Asosiy ishlab chiqarish ishchilarining ish haqi bo’yicha vaqtbay stavkasi, sh.b./soat	15 000	15 000
Yordamchi ishchilarning ish haqi bo’yicha vaqtbay stavkasi, sh.b./soat	12 000	12000

Bir oylik rejalashtirilgan doimiy xarajatlar 12 000 000 sh.b.ni tashkil etadi.

Hozirgi paytda ko’rib chiqilayotgan javobgarlik markazida 80 ta asosiy ishchi bor, har biri oyiga o’rtacha 160 soatdan ishlaydi. Elektrdviqatellarni rejalashtirilgan ishlab chiqarish va sotish hajmini bajarish uchun shtatdagi ishchilar yetarli emas. Elektrdviqatellarni sotish bo’yicha ma’lumotlar aniq bo’lmaganligi sababli korxonada rahbariyati vaqtincha ishga qabul e’lon qilmasligi to’g’risida qaror chiqardi. Yordamchi ishchilarni boshqa javobgarlik markazlaridan olinishi mumkin.

Maksimal foyda olish uchun qaysi turdagi elektrdviqatellar necha donadan ishlab chiqarilishi va sotilishi zarurligini aniqlang, agar asosiy ishlab chiqarish ishchilarining tarkibi va ish vaqti o’zgarmagan holda qolsa.

Har bir partiya elektrdviqatellarning to’liq tannarxini aniqlang, o’zingiz taklif qilgan ishlab chiqarish hajmini asos qilib olgan holda. Doimiy ustama xarajatlarini taqsimot bazasi deb foydalanilgan asosiy materiallar olinadi.

Masala 22.

Ishlab chiqarish korxonasi oyiga 5000 kg makaron mahsulotlari ishlab chiqaradi va chakana savdo tizimi orqali sotadi. Ishlab chiqarish quvvatidan 80% foydalanilmoqda.

1 kg makaron mahsulotlariga to’g’ri keladigan o’zgaruvchan xarajatlar

Xarajatlar	Summa, so‘m
Xom ashyo xarajatlari	1040
Asosiy ishlab chiqarish ishchilarining mehnat xarajatlari	230

Yordamchi ishchilarning mehnat xarajatlari	120
Qadoqlash materiallari xarajatlari	100
Ustama xarajatlar	50

Doimiy xarajatlar 1 000 000 sh.b, 1 kg makaron mahsulotlarining narxi 1900 sh.b..

Ulgurji savdo bilan shug‘ullanadigan korxonada oylik yetkazib berish hajmi 6000 kg, 1 kg narxi 1700 sh.b.dan yoki oyiga yetkazib berish hajmi 1000 kg, 1 kg narxi 1800 sh.b.dan shartnoma tuzishni taklif qilmoqda,. Ishlab chiqarish korxonasi uchun qaysi shartnoma foydaliroq? Javobingizni hisob-kitoblar bilan izohlang.

Masala 23.

Korxonada bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar keltirilgan.

O‘zgaruvchan xarajatlar:

- material xarajatlar 1850 sh.b.
- ish haqi 425 sh.b.
- yordamchi materiallar 110 sh.b.
- sotish xarajatlari 280 sh.b.
- boshqa xarajatlar 195 sh.b.

Doimiy xarajatlar:

- sotish xarajatlari 66000 sh.b.
- ma’muriy boshqaruv xarajatlari 26400 sh.b.

Sotish bahosi 5500 sh.b.

Topshiriq:

- 1) Kritik nuqtani (pulda, birlikda) aniqlang.
- 2) 70224 sh.b. foyda olish uchun mahsulot hajmini toping.
- 3) Tasavvur qiling sotish xarajatlari 40000 sh.b.ga oshgan, 139520 sh.b. foyda olish uchun qancha mahsulot ishlab chiqarish lozim?
- 4) Sotish hajmi 15000 dona, sotish bahosi 5200 sh.b. bo‘lsa, 251000 sh.b. foyda olishi mumkinmi, sotish xarajatlari qanchaga oshiriladi?

Masala 24.

Korxonada 200000 dona mahsulot sotishni rejalashtirgan. Doimiy xarajatlar 400000 sh.b., o‘zgaruvchan xarajatlar sotish bahosining 60%ga teng. 125000 sh.b. foyda olish uchun mahsulotni qanchadan sotishi lozim.

Masala 25.

Firma o‘z mahsulotini 65000 sh.b.dan sotmoqchi. Har bir dona mahsulotga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajatlar 48850 sh.b. Doimiy xarajatlar oyiga 1972900 sh.b. Zararsizlik nuqtasini aniqlang. 2 mln. sh.b. foyda olish uchun qancha mahsulot sotish lozim.

Masala 26. “Tikuvchi” fabrikasining 2-sexi ayollar ko‘ylagi va shimlarini tikishga yo‘naltirilgan. Marketing bo‘limi tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra III kvartalda mahsulotlarni sotish hajmi: shim – 3000 dona;

ko‘ylak – 2000 dona, rejalashtirilgan narxi — 22000 sh.b. va 19000 sh.b.

“Tikuvchi” fabrikasining hisob ma’lumotlariga ko‘ra joriy yilning II kvartalinig oxiriga tayyor mahsulotlar omborida 200 dona shim va 100 dona ko‘ylak bor. Chakana savdo magazinining uzluksiz faoliyat ko‘rsatishi uchun, III kvartal oxiriga tayyor mahsulot qoldig‘i 500 dona shim va 300 dona ko‘ylak miqdorida rejalashtirilmogda.

Mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida quyidagilarni tuzing:

- 1) joriy yilning III kvartali uchun sotish budjetini;
- 2) joriy yilning III kvartali uchun natural o‘lchovida tuzilgan ishlab chiqarish budjetini.

Masala 27. “Tikuvchi” fabrikasining 2-sexida ayollar shimi va ko‘ylaklari ishlab chiqariladi.

Me‘yor bo‘yicha materiallar sarfi va qoldiqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar

Ko‘rsatkichlar	Asosiy xom ashyo	Yordamchi xom ashyo
III-kvartal boshiga ombordagi xom ashyo qoldig‘i, m	400	600
1 ta shimga sarflanadigan xom ashyo, m	2	2,5
1 ta ko‘ylakka sarflanadigan xom ashyo, m	1	1,5
1 metr xom ashyoning narxi, sh.b.	5000	2000
III kvartal oxiriga xom ashyo qoldig‘i, m	1000	1200

1 ta ko‘ylak tikish uchun sarflanadigan ish vaqti – 2 soat, 1 ta shimga – 3 soat. Soatbay ishlaydigan asosiy ishchilarning ish haqi stavkasi 500 sh.b./soatiga.

Joriy kvartal uchun ustama xarajatlar ro‘yxati va miqdori

Xarajatlar	Summa, sh.b.
Yordamchi materiallar	8 000
Asbob uskuna amortizatsiyasi	5 000
Yordamchi ishchilarning ish haqi	2 450
Elektrenergiya	3 500
Sexni ta’mir olish bilan bog‘liq xarajatlar	1500
Kommunal to‘lovlar	2 000

26-masalada tuzilgan budjetlardan va mazkur masala ma’lumotlaridan foydalangan holda joriy yilning III kvartali uchun quyidagilarni tuzing:

- 1) natura o‘lchovida ishlab chiqarish budjetini;
- 2) natura o‘lchovida materiallar sotib olish va sarflash budjetini;
- 3) pul o‘lchovida to‘g‘ri materiallar sarfi budjetini;
- 4) natura va pul o‘lchovlarida asosiy materiallar sotib olish budjetini;
- 5) to‘g‘ri ish haqi sarflari budjetini;
- 6) tikuv fabrikasida kalkulyatsiya qilishni to‘liq tannarx usuli qo‘llanishini hisobga olgan holda, tayyor mahsulot tannarxi budjetini, ustama xarajatlar taqsimoti uchun baza – asosiy ishchilarning sarflaydigan ish vaqti olinishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi;
- 7) sotilgan mahsulot tannarxi budjetini tuzing.

Masala 28. “Tikuvchi” fabrikasining marketing va boshqa operatsion xarajatlari doimiy bo‘lib, bir kvartalda 5000000 sh.b.ga teng. Fabrikada soliqlar bo‘yicha imtiyozlardan foydalanilmaydi.

5.2-masaladagi ma‘lumotlarga asoslanib, rejalashtirilgan kvartal uchun “Tikuvchi” fabrikasining foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotini tuzing.

Masala 29. “Tikuvchi” fabrikasida xaridorlar bilan hisoblashuvlar tizimida kechiktirilgan to‘lovlarga yo‘l qo‘yiladi. Shunday qilib jo‘natilgan tayyor mahsulot qiymatining 50% joriy oyda, qolgan 50% — keyingi oyda amalga oshiriladi.

Jo‘natilgan mahsulotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

Ko‘rsatkichlar	Iyun	Iyul	Avgust	Sentabr	Jami
Tushum, sh.b.	2 000 000	1 600 000	1 300 000	1 700 000	6 600 000

III kvartalda rejalashtirgan oylik pul tushumining hisob-kitoblarini keltiring.

Masala 30.

Korxonada faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (sh.b.)

Oy	Hisoblangan ish haqi	Sotib olingan materiallar	Hisoblangan ustama xarajatlar	Sotish hajmi
Yanvar	15 000	50 000	25 000	75 000
Fevral	20 000	75 000	30 000	100 000
Mart	25 000	62 500	40 000	150 000
April	22 500	87 500	35 000	125 000
May	30 000	75 000	45 000	175 000
Iyun	25 000	62 500	30 000	150 000
Iyul	22 500	62 500	35 000	125 000
Avgust	22 500	75 000	40 000	125 000
Sentabr	32 000	87 500	35 000	175 000
Oktabr	25 000	75 000	35 000	150 000
Noyabr	30 000	62 500	30 000	150 000
Dekabr	32 000	75 000	45 000	125 000

Pul mablag‘lari budjetini tuzing, agar:

- 1 yanvar holatiga pul mablag‘lari qoldig‘i 15000 sh.b.ga teng bo‘lsa;
- ish haqi hisoblangan oydan keyingi oyda to‘lanadi;
- shartnomalarga binoan korxonada sotib olgan materiallar bo‘yicha kreditorlik majburiyatlarini material kelib tushganidan so‘ng ikki oy o‘tgach to‘laydi;
- ustama xarajatlar tarkibiga har oy 15000 sh.b. asbob uskunalarga hisoblanadigan amortizatsiya xarajatlari kiritiladi;
- xaridorlar bilan hisob-kitoblarda to‘lovlarni kechiktirish tizimi mavjud: 50% mahsulotni yetkazib berish oyida kelib tushadi, 50% keyingi oyda.

Masala 31. “Qurilish servis” MChJ ikki turdagi qurilish anjomlarini ishlab chiqaradi: X va Y. Ishlab chiqarish jarayonida ikkita sex ishtirok etadi: sex №1 yarim tayyor qismlarni ishlab chiqaradi, sex №2 anjomlarni yig‘ish bilan shug‘ullanadi.

Ishlab chiqarilayotgan anjomlar to‘g‘risida ma’lumotlar

Ko‘rsatkichlar	Anjomlar	
	X	Y
Yil davomida ishlab chiqariladigan va sotilishi rejalashtirilgan mahsulot hajmi, dona	160 000	240 000
Davr boshiga tayyor mahsulot qoldig‘i, dona	5 000	10 000
Davr oxiriga tayyor mahsulot qoldig‘i, dona	15 000	15 000
Bir dona mahsulotning sotish bahosi, sh.b.	1800	4 500
Bir dona mahsulotga sarflanadigan asosiy materiallar me‘yori, kg	2	3
Bir dona mahsulotga sarflanadigan ish vaqti me‘yori, soat:		
sex №1	1,5	2,2
sex №2	0,6	1,4

Qo‘shimcha ma’lumotlar:

1) sex №1 asosiy materiallar sarfi: 1 kg asosiy materiallar bahosi 300 sh.b.; joriy davr boshiga va oxiriga materiallar qoldig‘i mavjud emas;

2) sexlar bo‘yicha 1 soatlik ish haqi stavkasi 100 sh.b./soatiga; sex №2 60 sh.b./soatiga;

3) ishlab chiqarish ustama xarajatlari sex №1 bo‘yicha 80 000 sh.b.; sexga №2 bo‘yicha 40 000 sh.b.; ustama xarajatlar mehnatga asoslanib taqsimlanadi.

Ma’lumotlar asosida quyidagi budjetlarni tuzing:

- 1) ishlab chiqarish budjetini natural o‘lchovida;
- 2) tayyor mahsulot tannarxi budjetini.

Masala 32. “Sitara” MChJ bir nechta javobgarlik markazlaridan iborat, har bir markaz bitta turdagi mahsulot ishlab chiqariladi.

Birinchi javobgarlik markazi bo‘yicha o‘zgaruvchan smeta (loyihasi)

Ko‘rsatkichlar	Ishlab chiqarish kuvvatining taqsimlanishi			
	40%	50%	60%	70%
Asosiy materiallar sarfi	124 200	155 250	186 300	217 350
Asosiy ishlab chiqarish ishchilariga ish haqi xarajatlari	66 000	82 500	99 000	115 500
O‘zgaruvchan ustama xarajatlar	26 400	33 000	39 600	46 200
Doimiy ustama xarajatlar	35 000	35 000	35 000	35 000
Jami xarajatlar	251 600	305 750	359 900	414 050

Vazifa: 85% va 100% ishlab chiqarish hajmiga mos o‘zgaruvchan budjetni tuzing.

Masala 33. Asosiy materiallar sotib olish budjetiga ko‘ra, “Tikuvchi” fabrikasining 2-sexi uzluksiz faoliyatini yuritish uchun 3565000 sh.b. material sotib olishi zarur. (1200000 - aprelda, 1200000 – mayda, 1165000 - iyunda). Mol yetkazib beruvchilar bilan hisoblashuvlar naqdsiz pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi: 40% mahsulot jo‘natilgan davrda to‘lanadi, 60%ga to‘lov bir oyga kechiktiriladi.

Iyun oyida 2-sex ehtiyojlari uchun 1500000 sh.b. materiallar sotib olinganligini hisobga olgan holda “Tikuvchi” fabrikasi tomonidan sotib olingan materiallar uchun to‘lovlar bilan bog‘liq hisob-kitoblarni keltiring.

2-mavzu. Tayyor mahsulot va uning sotilishini hisobga olish

Masala. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish uchun quyidagi xarajatlar qilindi:

- a) Xom-ashyo va materiallar sarflandi 12000000 so‘m
- b) Ishchilarga ish haqi hisoblandi 10000000 so‘m
- c) Ish haqidan ijtimoiy sug‘urtaga 15 % ajratma qilindi so‘m
- d) Asosiy ishlab chiqarish vositalariga amortizatsiya hisoblandi 2500000 so‘m
- e) Elektr-energiya 1500000 so‘m
- f) Boshqa ustama xarajatlar 2200000 so‘m
- g) Reja tannarxida mahsulot omborga topshirildi 28000000 so‘m

Vazifa: 1. Tayyor mahsulot 35000 ming so‘mga sotildi. Korxonada QQS to‘lovchisi. Xujjatlar tuzilsin

2. Mahsulotning haqiqiy tannarxi hisoblansin. Muomalalar buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilsin.

№ YuK XATI “ ” 201 y.dan

Kimdan: _____

Kimga: _____

Asos: _____

№	Tovar (ish, xizmat) lar nomlanishi	O‘lch. birl.	Miqdori	Narx	Summa
	Jami summasi				

Topshirdi
Rahbar

Qabul qildi
Bosh buxgalter

HISOBVARAQ - FAKTURA

№ « » Yanvar 201 yil

№ tovar-yuklash hujjatlari uchun «__» _____ yil

Etkazib beruvchi: _____

Xaridor: _____

Manzil: _____

Manzil: _____

Telefon: _____

Telefon: _____

H/r: _____

H/r: _____

Bank _____

Bank _____

Bank kodi _____

Bank kodi _____

STIR: _____

STIR: _____

XXTUT bo‘yicha kod: _____

XXTUT bo‘yicha kod: _____

Tovar (ish, xizmat)lar nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Etkazib berish qiymati	Aksiz solig'i		QQS		Etkazib berishning QQS hisobga olingan qiymati
					Stavkasi	Summasi	Stavkasi	Summasi	
1	2	3	4	5	6	7	6	7	8
Jami to'lashga:									

Rahbar _____

Bosh buxgalter _____

M. O'.

Tovarni berdim _____
(etkazib beruvchining mas'ul shaxsi imzosi)Oldim _____
(xaridor vakilning imzosi)201__ yil " __ " _____ dagi
____ - sonli ishonchnoma bo'yicha_____
(tovar oluvchining F.I.Sh.)

Masala. Firmasi muzlatgichni 3 yil davomida servis ko'rsatish kafolati bilan 1020 ming so'mga QQS bilan sotdi. 3 yil davomida ko'rsatiladigan xizmat QQS bilan 180 ming so'm. Muzlatgichning tannarxi 550 ming so'm.

Masala. Korxonada o'z mahsulotini AQSh dollarida baholab sotadi. Sotilayotgan mahsulot narxi 6000 dollarni, uning tannarxi esa 9500 ming so'mni tashkil qiladi. Sotilayotgan mahsulot uchun 16.12.15 y.da 100% avans kelib tushgan. (1\$-2810 so'm) Mahsulot ortib jo'natilgan vaqti 03.01.16 y. (1\$-1825) so'm.

Vazifa: Tayyor mahsulot qayta sotish uchun olinmoqda. Ikkala tomonda ham provodkalarini ko'rsating.

Masala. Korxonada doimiy mijoziga 4000 ming so'mlik mahsulotni (QQS inobatga olmaganda) 10% chegirma bilan sotdi. Mahsulotni tannarxi 2500 ming so'm.

Vazifa: Muomalalarni sotuvchi va xaridor tomonidan aks ettiring

Tayyor mahsulotlar va ularning sotilishi hisobi

«Guliston» hissadorlik jamiyatining 20.. yil uchun xo'jalik muomalalarini hisobga olish daftari.

Muomalalar mazmuni	Asos bo'luvchi hujjat	Summa	Schyot aloqasi.	
			Dt	Kt
Mahsulot ishlab chiqarishda chet	Bajarilgan ishlarni			

tashkilotlar xizmatlar ko'rsatdi	qabul qilish topshirish dalolatnomasi.			
A mahsulot uchun		30000		
B Mahsulot uchun		40000		
JAMI		70000		
Mahsulot ishlab chiqarishda yordamchi ishlab chiqarish bo'linmalari xizmat ko'rsatdi reja tannarxda:	Buxgalteriya ma'lumotnomasi dalolatnoma, yuk xati va boshq.			
A mahsulot uchun		200000		
B mahsulot uchun		160000		
Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha tannarx tafovuti aniqlandi.				
ijobiy yoki salbiy		?		
Umumishlab chiqarish xarajatlari aniqlandi va hisobdan chiqarildi.(teng bo'lindi)	Buxgalteriya ma'lumotnomasi			
A mahsulot uchun		?		
B mahsulot uchun		?		
JAMI				
Tayyor mahsulot kirim qilindi. Reja bahosi bo'yicha	Yuk xati, kirim orderi.			
A mahsulot		?		
B mahsulot		?		
JAMI		1350000		
Qabul qilingan mahsulotning reja va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi tafovut aniqlandi	Buxgalteriya ma'lumotnomasi			
Ijobiy yoki salbiy		?		
Tayyor mahsulot sotildi. A Mahsulot bo'yicha				
A) Ishlab chiqarish tannarxi		30000		
B) SHartnoma bahosi		600000		
S) QQS		120000		
Tayyor mahsulot sotildi. B Mahsulot bo'yicha				
A) Ishlab chiqarish tannarxi		5000		
B) SHartnoma bahosi		300000		
S) QQS		10000		
Tayyor mahsulot korxonadan xaridorga etkazib berish uchun quyidagi xarajatlar amalga oshirildi. A va B mahsulotlarga teng miqdorda.				
A) Avtobaza xizmati	Bajarilgan ishlarni qabul qilish topshirish dalolatnomasi.	11000		
B) Ta'minot bo'limi xodimi kunlik xarajati xizmat safari bo'yicha korxonadan olish sharti bilan o'zini mablag'i hisobidan	Avans hisoboti	2000		
Tayyor mahsulotlar korxonada xodimlariga	Kassa kirim orderi.			

naqd pulga sotildi.				
A) Ishlab chiqarish tannarxi		10000		
B) Sotish bahosi		15000		
Ombordagi saqlanayotgan tayyor mahsulot bo'yicha inventarizatsiya natijasida kamomad aniqlandi.	Dalolatnoma	1000		
Kamomad ombor mudiridan undirilishi belgilandi		1000		
Ombor mudiri ish haqidan kamomad ushlab qolindi.	Hisob to'lov vedomosti.	1000		
Tayyor mahsulot boshqa korxonaga tekinga berildi.	Dalolatnoma, yuk xati	3000		

Vazifa:

1. Muomalalarning noma'lum summaları topilsin, buxgalteriya o'tkazmalari berilsin.
2. Quyidagi shaklda oborot vedomosti tuzilib schyotlarga tarqatilsin.

Schyot №	Schyotlar nomi	Boshlang'ich qoldiq		Oborot		Oxirgi qoldiq	
		Dt	Kt	Dt	Kt	Dt	Kt
	JAMI						

3. Tayyor mahsulotlar harakati bo'yicha dastlabki hujjatlarni rasmiylashtiring (yuk xati, schyot faktura va boshqalar).
4. Asosiy ishlab chiqarish bo'yicha shaxsiy hisob varaqasi tuzilsin

№	Xarajatlar nomi	A Mahsulot		B Mahsulot		JAMI	
		Oy davom	Yil bosh	Oy davom	Yil bosh	Oy davom	Yil bosh
2010 schyotning debeti bo'yicha							
1	Ish haqi						
2	Ish haqiga ajratma						
3	Xom ashyo va materiallar						
4	Ish va xizmatlar						
5	Asosiy vositalar amorti.						
6	Umumishlab chiqarish. xaraj						
7	Boshqa xarajatlar						
	Hammasi						
2010 schyot krediti bo'yicha							
	A Mahsulot						
	B Mahsulot						
	Hammasi						

4. Tayyor mahsulotlar harakat vedomostini rasmiylashtiring.
(soʻmda)

Tayyor mahsulot nomi	Boshlangʻich qoldiq		Aylanmasi		Oxirgi qoldiq	
	Dt	Kt	Kirim	CHiqim	Dt	Kt
A Mahsulot						
B Mahsulot						
Jami						

5. Tayyor mahsulotlarni sotish vedomosti tuzilsin.

Tayyor mahsulot nomi	Ishlab chiqarish tannarxi	Sotish bahosi	QQS	Sotish xarajatlari	Asosiy faoliyat foydasi.
A Mahsulot					
B Mahsulot					
Jami					

Misol. Ixtiyoriy tarzda QQS toʻlovchi savdo korxonasi qayta sotish uchun tovarlarni xarid qiladi, Tovarlarning qiymati — QQSsiz 12 000 ming soʻm. Tovar etkazib beruvchiga toʻlangan QQS summasi 2400ming soʻmni tashkil qiladi va hisobvara-faktura asosida hisobga kiritishga qabul qilinadi.

Misol. Savdo korxonasi bir toʻplamining narxi 45 ming soʻm boʻlgan 10ta oshxona servis toʻpamini sotib oldi. Xaridning umumiy qiymati — 450 ming soʻm. Toʻlov 100 % miqdorida oldindan toʻlov tarzida amalga oshirildi. Toʻplamga ustama 25 % miqdorida belgilandi.

Misol. Korxonaga oqartirilmagan gazlamani QQSsiz narxidan 10 %lik chegirma bilan xarid qiladi. Chegirmalarni hisobga olgan holda gazlamaning narxi 108 ming soʻmni tashkil qiladi, shu jumladan QQS — 18 ming soʻm.

Misol. Magazin ishlab chiqaruvchidan toʻlovni 2 oy muddatga kechiktirish sharti bilan tovarlarni sotib oladi. Tovarining narxi 120 ming soʻm, shu jumladan QQS — 20 ming soʻm. Shartnomaga koʻra (50% miqdorida) toʻlovni kechiktirganlik uchun xaridor sotuvchiga tovar qiymatining 2 %i miqdorida haq toʻlaydi.

Misol. Korxonada xarid qiymati 950 ming soʻmlik tovarni 15 %lik oldindan toʻlov sharti bilan 1330 ming soʻmga sotdi. Xaridor 385 ming soʻmlik tovarning bir qismini sifati yomon boʻlgani sababli qaytardi (qaytarilgan tovarning xarid qiymati —275 ming soʻm). Korxonada QQS toʻlovchisi emas.

Misol. Ixtiyoriy ravishda QQS toʻlovchi hisoblangan ulgurji savdo korxonasi QQS hisobga olingan holda 24 000 ming soʻmlik tovarlar sotdi. Tovarlar hisobi xarid qiymati boʻyicha yuritiladi. Mol etkazib beruvchiga tovarlarning mazkur turkumi uchun toʻlangan QQS 3 000 ming soʻmga teng.

Misol. Chakana savdo korxonasi 10 toʻplam oshxonada servisini 1 toʻplam uchun 55ming soʻm narx boʻyicha sotdi. Bir toʻplam servising xarid qiymati — 45ming soʻm.

Misol. Korxonada tovarlarni sotish chogʻida doimiy xaridorlaridan biriga buyurtma qiymatining 10 %i miqdorida chegirma taqdim etdi. U xarid qilingan tovar turkumining realizatsiya qiymati 2500 ming soʻmni, ushbu turkumning xarid qiymati 1500 ming soʻmni tashkil etadi.

Misol. Korxonada shartnoma boʻyicha narxi 1 200ming soʻmni tashkil qilgan tovarni sotadi. Sotilgan tovarning tannarxi 820ming soʻm, Shartnoma shartiga koʻra xaridor bilan hisob-kitobning quyidagi tartibi belgilangan:

- tovar qiymatidan 20 % oldindan toʻlov;
- tovar qiymatining qolgan qismi u olingandan soʻng 30 kun oʻtgach toʻlanadi;
- boʻnak tariqasida toʻlanmagan tovar qiymatidan 5 % miqdorida foizlar toʻlanadi.

Misol. Ulgurji savdoni amalga oshirish huquqini beradigan litsenziyaga ega boʻlgan foyda soligʻi va QQS toʻlovchi korxonada komissiya shartnomasiga koʻra tovarlarni sotishga beradi. Shartnomaga koʻra tovarlar KDS hisobga olingan holda 12 000 ming soʻmga sotilishi kerak. Tovarlarining tannarxi 6 000 ming soʻmni tashkil etadi. Vositachilik haqi summasi sotilgan tovarlar qiymatining 10 %i mitsdorida belgilandi. Vositachi hisob-kitoblarda qatnashmaydi.

Misol. Chakana savdo korxonasi tovar (shakar)ni foizsiz qarz shartnomasi boʻyicha 3 oyga beradi. Tovarning xarid qiymati — 560 ming soʻm.

Misol. Korxonada qarz shartnomasi boʻyicha 2 000ming soʻmlik tovarlarni berdi, Karz muddati tugagach (olti oydan keyin) 2 000ming soʻmlik xuddi shunday tovarlar qarz oluvchi tomonidan qaytarildi. Karz shartnomasi boʻyicha foizlarni toʻlash nazarda tutilmagan.

3-mavzu. Xususiy kapital hisobi

Misol. AJustav kapitali har birining nominal qiymati 1 000 so‘m bo‘lgan 304 400 ta oddiy aksiyalarni tashkil qiladi. 2016 yil noyabrda tashkilot jamg‘arilgan foyda hisobiga aksiyalarning nominal qiymatini 1 000 so‘mdan 1500 so‘mga oshirish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Misol. «Rastr» MChJ 10 000 ming so‘m ustav kapitaliga ega. Jamiyat ishtirokchilari tarkibiga 2 ta shaxs kiradi, birinchisiga ustav kapitalining 40 %i (4 000 ming so‘m), ikkinchisiga — 60 %i (6 000 ming so‘m) tegishli. Aprelda yakunlangan yil uchun hisobot topshirilgandan so‘ng ishtirokchilarning yig‘ilishida jamiyatning ixtiyorida qolgan foyda hisobiga ustav kapitalini ko‘paytirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Balans ma‘lumotlari-ga ko‘ra jamiyat sof aktivlarining qiymati 25 000 ming so‘mni tashkil qildi.

Misol. Ustav kapitali miqdori 20 000 ming so‘mni tashkil qiladigan «TEK» MChJustav kapitalini ishtirokchilarning qo‘shimcha hissalarini hisobiga 30 000 ming so‘mga ko‘paytirish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Jamiyat ishtirokchilari ulushlarining miqdori va nominal qiymati quyida keltirilgan:

Ustav kapitalini ishtirokchilarning qo‘shimcha hissalarini hisobiga ko‘paytirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan paytdagi jamiyat ishtirokchilari ulushlarining miqdori va nominal qiymati

Ishtirokchi	Ustav kapitalidagi ulush miqdori, %	Ulushning nominal qiymati, ming so‘m
1-chi	40	8 000
2-chi	60	12 000
Jami	100	20 000

Misol. Aktsiyadorlik jamiyati tomonidan 5000 so‘m nominal qiymatida 300 000 dona aktsiya chiqarildi. Ular bir dona aktsiya uchun 6000 so‘m narx bo‘yicha sotildi.

Misol. Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning ustav kapitali ta‘sis hujjatlariga muvofiq 200 ming AQSh dollarini tashkil qiladi. Xorijiy ta‘sischining ulushi 40 %ga teng. Ulush sifatida 80 ming AQSh dollari qiymatidagi uskuna kiritiladi.

Dollar kursi quyidagicha bo‘lgan:

hujjatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish paytida — 1 AQSh dollari uchun 3920so‘m;

ulushni kiritish paytida — 1 AQSh dollari uchun 3940 so‘m.

Misol. Korxonaga qimmatli qog‘ozlarni 5 000 so‘mlik nominal qiymati bo‘yicha 100 dona miqdorida sotib olingan aksiyalarni sotadi. Aksiyalarning qiymati bozor qiymati — bitta aktsiya uchun 5150 so‘mga qadar qo‘shimcha baholandi. Aktsiyalar xaridorga qayta baholangan qiymati bo‘yicha, ya‘ni bitta aktsiya uchun 5150 so‘mdan sotildi.

4-mavzu. Majburiyatlar hisobi

1-Masala.

Korxonaga ofis mebelini QQS hisobga olingan xolda 640 ming so‘mga sotdi. Shartnomaga ko‘ra mebel xaridorga u tomonidan 50% oldindan to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng topshiriladi.

Mebelning boshlang‘ich qiymati 700 ming so‘m. Mazkur asosiy vositalar obekti bo‘yicha hisoblangan amortizatsiya 96 ming so‘mni tashkil qiladi. 8510-hisobvaraqlarning kredit tomonidan saldo-10 ming so‘m.

Topshiriq:

1. Quyidagilarni amalga oshiring;

№	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Summasi, (ming so‘m)	21-son BHMS bo‘yicha hisobvaraqlar korrespondentsiyasi	
			debet	kredit
1	Ofis mebeli etkazib berilishi uchun xaridordan bo‘nakning kelib tushishi aks ettirildi			
2	Sotilgan mebel uchun bo‘nakni hisobga olinishi aks ettirildi			
3	Sotilgan mebel uchun xaridorning qarzi aks ettirildi			
4	Mebelni sotishda QQS bo‘yicha byudjet oldidagi qarzi aks ettirildi			
5	Sotilgan mebelning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarildi			
6	Sotilgan mebelning hisoblangan amortizatsiyasi summasi hisobdan chiqarildi			
7	Mebelni qayta baholash saldosi hisobdan chiqarildi			
8	Sotilgan ofis mebeli uchun xaridordan yakuniy to‘lov kelib tushishi aks ettirildi			
9	Sotishdan moliyaviy natija (foyda) aks ettirildi			

2-Masala.

Korxonaning marketing bo‘limi xodimi yanvar oyi uchun 520 000 so‘m ish xaqi; yil yakunlari bo‘yicha 250 000 so‘m mukofot oldi. Yanvar oyi uchun shkala bo‘yicha hisoblangan daromad solig‘i summasi 180 701 so‘mni tashkil qildi.

Bundan tashqari hisoblangan summalardan 2,5% stavka bo‘yicha ish haqidan majburiy sug‘urta badallari ushlab qolindi.

Topshiriq:

1. Quyidagilarni amalga oshiring;

№	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Summasi, (ming so‘m)	21-son BHMS bo‘yicha hisobvaraqlar korrespondentsiyasi	
			debet	kredit
1	Yanvar oyi uchun ish haqi hisoblandi			
2	Yil yakunlari bo‘yicha mukofot hisoblandi			
3	Daromad solig‘i hisoblandi			
4	Majburiy sug‘urta badallari ushlandi			
5	Daromad solig‘i bo‘yicha qarzni qoplash aks ettirildi			
6	Majburiy sug‘urta badallari to‘landi			
7	Ish haqi va mukofot to‘landi			

3-Masala.

Maqsad – sug‘urta bo‘yicha va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobini o‘rganish.

Masalani bajarish uchun ma‘lumotlar.

Yanvar oyida ishlab chiqarish bo‘limi xodimlariga 12 000 ming so‘m miqdorida ish haqi hisoblandi. Yagona ijtimoiy to‘lov 24 % stavka bo‘yicha mehnatga haq to‘lash fondidan hisoblanadi. Bundan tashqari korxonada buxgalteriyasi xodimlarning ish haqidan 2,5 % stavka bo‘yicha majburiy sug‘urta badallarini ushlab qoladi.

Topshiriq:

1. Quyidagilarni amalga oshiring;

№	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Summasi, (ming so‘m)	21-son BHMS bo‘yicha hisobvaraqlar korrespondentsiyasi	
			debet	kredit
1	Ishchilarga ish haqi hisoblandi			
2	Mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov hisoblandi			
3	Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari ushlab qolindi			
4	Daromad solig‘i hisoblandi			
5	Yagona ijtimoiy to‘lov bo‘yicha qarzlarni to‘lash aks ettirildi			
6	Sug‘urta badallari bo‘yicha qarz to‘landi			
7	Ish haqi to‘landi			

4-Masala.

Maqsad – dividendlar hisoblash va ularni hisobga olishni o‘rganish.

Masalani bajarish uchun ma’lumotlar.

Aktiyadorlik jamiyati 1000 ming so‘m miqdorida dividendlarni tayyor mahsulotlar bilan to‘lashga qaror qildi. Tayyor mahsulotlarning tannarxi 800 ming so‘mni tashkil qiladi.

Topshiriq:

1. Quyidagilarni amalga oshiring;

№	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Summasi, (ming so‘m)	21-son BHMS bo‘yicha hisobvaraqlar korrespondentsiyasi	
			debet	kredit
1	Dividentlar hisoblandi			
2	Dividentlardan soliq ushlab qolindi			
3	Dividentlardan soliq o‘tkazildi			
4	Mahsulotlarni sotishdan QQS hisoblandi			
5	Mahsulotlarning sotilishi aks ettirildi			
6	Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi hisobdan chiqarildi			
7	Hisobvaraqlarning yopilishi va moliyaviy natijani aniqlanishi			

5-mavzu. Moliyaviy natijalar hisobi

1-Masala.

Maqsad – moliyaviy natijani aniqlash va hisobga olish tartibini o‘rganish.

Masalani bajarish uchun ma’lumotlar.

Korxonada hisobot yilida 14 400 ming so‘mlik mahsulot sotdi, shu jumladan QQS – 2 400 ming so‘m.

Sotilgan mahsulotlarning tannarxi 6 000 ming so‘mni tashkil qilgan.

Xarid qilingan materiallar bo‘yicha 1 000 ming so‘m miqdorida QQS hisobga olish uchun qabul qilindi.

Davr xarajatlari 2 900 ming so‘mni tashkil qilgan, ulardan 900 ming so‘m daromad (foyda) solig‘ini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazaga teskari tartibda qo‘shiladi.

Ushbu yilda korxonada mulkni ijaraga berishdan 2 400 ming so‘m summada daromad oldi, shu jumladan QQS – 400 ming so‘m. Mulknini ijaraga berish korxonada uchun asosiy faoliyat turi hisoblanmaydi.

600 ming so‘m miqdorida daromad (foyda) solig‘i hisoblandi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i – 360 ming so‘m.

Hisobot yilining 1 yanvar holatiga ko‘ra korxonada taqsimlanmagan foydaga ega bo‘lmagan.

Topshiriq:

1. Korxonaning soliq to‘lagunga qadar daromad (foyda)sini aniqlang;
2. Korxonada tomonidan to‘lanadigan daromad (foyda) solig‘ini aniqlang;
3. Korxonaning hisobot davridagi moliyaviy natijasini hisoblang;
4. Quyidagi amallarni aks ettiring:

№	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Summasi, ming so‘m	21-son BHMS bo‘yicha hisobvaraqlar korrespondentsiyasi	
			debet	kredit
1	Mahsulotlarni sotish aks ettirildi			
2	QQS aks ettirildi			
3	Sotilgan mahsulotning tannarxi hisobdan chiqarildi			
4	Davr xarajatlari hisobga olindi			
5	Mulkni ijaraga berishdan olingan daromad aks ettirildi			
6	Ijara haqi bo‘yicha QQS aks ettirildi			
7	Daromad (foyda) solig‘i hisoblandi			
8	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i hisoblandi			
9	Hisobot davrining oxirida			

	moliyaviy natija aniqlandi			
10	Hisobot davrining sof foydasi (zarari) hisobdan chiqarildi			

2-Masala.

Maqsad – moliyaviy natijani aniqlash va hisobga olish tartibini o‘rganish.

Masalani bajarish uchun ma’lumotlar.

Korxonada hisobot yilida 12 000 ming so‘mlik mahsulot sotdi.

Sotilgan mahsulotlarning tannarxi 6 000 ming so‘mni, mahsulotlarni sotish xarajatlari 1 700 ming so‘mni tashkil qilgan.

Korxonada hisobot yilida boshqarish bo‘yicha joriy xarajatlar 1 200 ming so‘mni tashkil qilgan.

Ushbu yilda korxonada mulkni ijaraga berishdan 2 400 ming so‘m summada daromad oldi. Mulknini ijaraga berish bilan bog‘liq xarajatlar (amortizatsiya ajratmalari, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalarning tegishli ulushi) 1 600 ming so‘mni tashkil qilgan.

1 440 ming so‘m summada yagona soliq to‘lovi hisoblangan.

Hisobot yilining 1 yanvar holatiga ko‘ra korxonada taqsimlanmagan foydaga ega bo‘lmagan.

Topshiriq:

1. Korxonaning soliq to‘lagunga qadar daromad (foyda)sini aniqlang;
2. Korxonada tomonidan to‘lanadigan yagona soliq summasini aniqlang;
3. Korxonaning hisobot davridagi moliyaviy natijasini hisoblang;
4. Quyidagi amallarni aks ettiring:

№	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Summasi, ming so‘m	21-son BHMS bo‘yicha hisobvaraqlar korrespondentsiyasi	
			debet	kredit
1	Mahsulotlarni sotish aks ettirildi			
2	Sotilgan mahsulotning tannarxi hisobdan chiqarildi			
3	Sotish xarajatlari hisobdan chiqarildi			
4	Joriy xarajatlar hisobdan chiqarildi			
5	Mulkni ijaraga berishdan olingan daromad aks ettirildi			
6	Ijara bo‘yicha xarajatlar hisobdan chiqarildi			
7	Yagona soliq to‘lovi hisoblandi			
8	Hisobot davrining oxirida moliyaviy natija aniqlandi			
9	Hisobot davrining sof foydasi (zarari) hisobdan chiqarildi			

KEYSLAR TO‘PLAMI**Keys-1.****1-guruh uchun:**

Tuzilgan kontraktlarga asosan xaridorlarga tayyor mahsulotlar jo‘natildi:

- | | |
|----------------------------------|-----------|
| • Rejadagi tannarxi | 2 500 000 |
| • Haqiqiy tannarxi (tejalgan 3%) | _____? |
| • Shartnomadagi baho | 4 000 000 |
| • QQS (20%) | _____? |

Vazifa:

1. Sotilgan mahsulotning tannarxi schyotlarda qayd qilinsin.
2. Sotilgan mahsulotdan olingan daromad tegishli schyotlarda aks ettirilsin.
3. QQS aks ettirilsin.
4. Moliyaviy natija aniqlansin.

2-guruh uchun:

Tuzilgan kontraktga asosan xaridorlarga tayyor mahsulot sotildi.

- | | |
|--|-----------|
| • Rejadagi tannarxi | 2 500 000 |
| • Haqiqiy tannarxi (ortiqcha sarflar 2%) | _____? |
| • Shartnomadagi baho | 4 000 000 |
| • QQS (20%) | _____? |

Vazifa:

1. Sotilgan mahsulotning tannarxi schyotlarda qayd qilinsin.
2. Sotilgan mahsulotdan olingan daromad tegishli schyotlarda aks ettirilsin.
3. QQS aks ettirilsin.
4. Moliyaviy natija aniqlansin.

3-guruh uchun:

Tuzilgan shartnomaga muvofiq xaridorlarga bajarilgan ish topshirildi.

- | | |
|---|-----------|
| • Kontraktda ko‘rsatilgan qiymat | 4 500 000 |
| • Ishning rejadagi tannarxi | 3 000 000 |
| • Ishning haqiqiy tannarxi (tejalgan 3%) | _____? |
| • Muomala natijasi bo‘yicha olingan foyda
yoki zarar summasi | _____? |

Vazifa:

1. Sotilgan mahsulotning tannarxi schyotlarda qayd qilinsin.
2. Sotilgan mahsulotdan olingan daromad tegishli schyotlarda aks ettirilsin.
3. QQS aks ettirilsin.
4. Moliyaviy natija aniqlansin.

6-mavzu. Hisobotlarni tuzish va taqdim etish

1-Masala.

Maqsad – buxgalteriya balansidagi o‘zgarishlar tartibini o‘rganish.

Masalani bajarish uchun ma’lumotlar.

“FAYZ” korxonasining 200 yil 30 sentyabrdagi aktiv va majburiyatlarining holati keltirilgan:

Aktiv	Summa (ming so‘mda)	Passiv	Summa (ming so‘mda)
1. Asosiy vositalar	35000	1. Ustav kapitali	40000
2. Materiallar	10000	2. Foyda	3000
3. Kassa	100	3. Bankning qisqa muddatli krediti	2000
4. Hisob-kitob schyoti	15000	4. Xodimlar bilan ish haqi bo‘yicha hisob kitoblar	500
5. Ombordagi tayyor mahsulot	900	5. Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar	4500
6. Kelgusi davr xarajatlari	500	6. Rezerv kapitali	2500
7. Qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar	3500	7. Uzoq muddatli bank kreditlari	15000
8. Tugallanmagan ishlab chiqarish	5000	8. Tekinga olingan mulk	8100
9. Tashkiliy xarajatlar	5600		
Balans	75600	Balans	50 000

Korxonada oktyabr oyida quyidagi xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirgan:

- Xaridorlarga pul o‘tkazib berdi – 2600 ming so‘m;
- Kassaga pul olib kelindi – 5600 ming so‘m;
- Ishchilarga ish haqi hisoblandi – 4200 ming so‘m;
- Ustav kapitaliga tasischilarning ulushi asosiy vosita tariqasida kiritildi – 8900 ming so‘m;
- Ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarga eskirish hisoblandi – 1500 ming so‘m;
- Qisqa muddatli bank kreditlari to‘landi – 1000 ming so‘m;
- Ishchilarga ish haqi berildi – 4700 ming so‘m;
- Materiallar harid qilindi – 2500 ming so‘m.

Topshiriq:

- “FAYZ” korxonasining oktyabr oyida amalga oshirilgan xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiring;
- 200 yil 1 noyabr holatiga buxgalteriya balansini tuzing.

2-Masala.

Maqsad – buxgalteriya balansidagi o‘zgarishlar tartibini o‘rganish.

Masalani bajarish uchun ma’lumotlar.

«M» kompaniyasi 200 yil 30 noyabr holatidagi balansini quyidagi ko‘rinishga ega:

Aktivlar	Summa (ming so‘m)	Majburiyatlar	Summa (ming so‘m)
Kassa	263 389	To‘lanadigan vasiqalar	83 361
Olinadigan schyotlar	339 798	To‘lanadigan schyotlar	229 453
Tovarlar	387 660	Boshqa majburiyatlar	300 847
Mulklar	330 455	Majburiyatning jami	613 661
Boshqa aktivlar	99 800	Hususi kapital	807 441
Jami aktivlar	1 421 102	Jami passivlar	1 421 102

Dekabr oyida korxonada tomonidan quyidagi muomalalar sodir bo‘ldi (ming so‘mda):

Mulk egaligidan naqd pulda omonatlar qabul qilindi – 1 800 so‘m;

Kompaniyaga investitsiya ko‘rinishida maxsus uskuna olindi – 4 000 so‘m;

Oddiy vasiqa berilib naqd pul kirim qilindi – 10 000 so‘m;

Nakd pul to‘lanib uskuna sotib olindi – 12 500 so‘m;

Mol etkazib beruvchilardan TMZ sotib olindi – 9 000 so‘m;

Kreditor qarzlari (schyotlar) nakd pulda to‘landi – 5 400 so‘m;

Boshqa kompaniyaga uskuna sotildi – 1 400 so‘m;

Debitorlik qarzlari (olinadigan schyotlar) nakd pulda kirim qilindi – 8 400 so‘m;

Topshiriq:

1. Ushbu oyda sodir bo‘lgan muomalalarni taxlil qiling.

2. Taxlildan keyin «Aktiv = majburiyat + xususiy kapital» tenglamani isbotlang.

3-Masala.

Maqsad – buxgalteriya balansidagi o‘zgarishlar tartibini o‘rganish.

Masalani bajarish uchun ma’lumotlar.

Bosh buxgalter kasal vaqtida uning yordamchisi firmaning balansini tuzdi va bir necha xatoliklarga yo‘l qo‘ydi. Lekin mablag‘ va manbalarning teng kelish shartiga amal qilib balansga keltirish uchun xususiy kapital summasiga manbadagi farqni qo‘shdi. Natijada ushbu bo‘limdagi summa noto‘g‘ri bo‘ldi, lekin boshqa hamma ma’lumotlar to‘g‘ri.

Aktivlar	Summa	Majburiyatlar	Summa
Kassa	200 000	Olinadigan schyotlar	300 000
Kontselyariya tovarlari	100 000	Xizmat ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar	3 500 000
Er	2 200 000	Mulk solig‘i bo‘yicha sarflar	80000
Tashviqot xarajati	50 000	To‘lanadigan schyotlar:	800000
Idora mebeli	1000000	Xusiy kapital	

To‘lanadigan vasiqa	1 600 000	Xususiy kapitalning jami	870 000
Ijara bo‘yicha sarflar	400 000		
Aktivning jami	5 550 000	Passivning jami	5550000

Topshiriq:

1. 30 aprel kuniga buxgalteriya balansini tuzing. Aktiv va majburiyatlar summasini aniqlang, keyin xususiy kapital summasini aniqlash uchun aktivdan va majburiyat summasini chegiring.

2. Buxgalteriya balansida va ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan schyotlarni aniklang.

4-Masala.

Maqsad – moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzish tartibni o‘rganish.

Masalani bajarish uchun ma‘lumotlar.

“Chiroy” nomli ishlab chiqarish korxonasi bo‘yicha hisobot davri oxiriga quyidagi ma‘lumotlar keltirilgan:

No	Xarajatlar moddalari	Summa (ming so‘mda)
1.	Mahsulotlarni sotishdan tushgan tushum	7 020
2.	Asosiy ishlab chiqarish ishchilarining ish xaklari	1 000
3.	Boshkaruv xodimlarining ish xaqi	600
4.	Boshqaruv xodimlarining safar xarajatlari (belgilangan me‘yor bo‘yicha)	4
5.	Boshqaruv xodimlarining safar xarajatlari (belgilangan me‘yordan oshiq qismi)	2
6.	Ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish buyicha transportlarga yoqilg‘i sarfi	40
7.	Ishlab chiqarish ishchilarining ish haqlari va tarif stavkalariga tungi ishlaganligi uchun qo‘shimchalar	20
8.	Ma‘muriyat binosining amortizatsiya ajartmalari	200
9.	Belgilangan me‘yordan oshiqcha bo‘lgan vakolatlik xarajatlari	40
10.	Kadrlar tayyorlash xarajatlari	120
11.	Reklama xarajatlari	18
12.	Boshqaruv vositalarini xosil qilish va takomillatirish xarajatlari	240
13.	Korxonada ta‘sischilarining talabi bo‘yicha auditorlik xizmati uchun to‘lovlar	12
14.	Xukumat qarorlari bo‘yicha baholarning oshishi munosabati bilan xodimlarga berilgan kompensatsiya to‘lovlari	18
15.	Boshqaruv xodimlarining qo‘shimcha ta‘tillari uchun to‘lovlar	20
16.	Asosiy ishlab chiqarish vositalari amortizatsiyasi	200
17.	Idish (tara) operatsiyalari bo‘yicha zararlar	4

№	Xarajatlar moddalari	Summa (ming so'mda)
18.	Daromadni yashirganlik uchun shtraflar	14
19.	Qisqa muddatli kreditlar bo'yicha MB tomonidan belgilangan hisob stavkalari doirasidagi to'lovlar	120
20.	Muddati o'tgan ssudalar bo'yicha to'lovlar	18
21.	Asosiy mol mulkni sotishdan olingan daromad	140
22.	Debitor qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan zarar	30
23.	Xizmat ko'rsatish ishlab chiqarishi extiyojlariga sarflangan materiallar	400
24.	Umidsiz qarzlarni bo'yicha rezerv	300
25.	Da'vo muddati o'tgan kreditorlik qarzlari	6
26.	"Qizil tong" aksiyadorlik jamiyati aksiyalari bo'yicha dividendlar	80
27.	Ishlab chiqarish jihozlarini ta'mirlash bo'yicha boshqa tashkilotlarning xizmatlari	120
28.	Telegraf-telefon tashkilotlarining xizmatlari	10
29.	Bekor qilingan buyurtmalar bo'yicha xarajatlar	80
30.	Ishlab chiqarish zaxiralari va tayyor mahsulotlar bahosini tushirishdan yo'qotishlar	14

Topshiriq:

1. Berilgan ma'lumotlardan foydalanib, korxonaning moliyaviy natijalarini aniklang, ularning hisobini yuritishning o'ziga xos tomonlarini aytib bering hamda ularni tegishli hisobotlarda aks ettiring va operatsiyalarning hisob registrlarida tegishli buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring.

2. Keltirilgan ma'lumotlar asosida sotishdan olingan yalpi daromad, operatsion foyda, moliyaviy faoliyat bo'yicha natijalar, soliq to'lagunga qadar bo'lgan foyda aniqlansin.

Qo'shimcha ma'lumot: Foyda soligi stavkasi 8 %.

5-Masala.

Maqsad – asosiy vositalar kamomadini hisobga olish tartibini o'rganish.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.

"ABS" ishlab chiqarish korxonasiga tegishli asosiy vositalar inventarizatsiya tekshirish natijasida 1 dekabr 2010 yilda quyidagilar aniqlandi:

№	Asosiy vositalar turlari	Baxosi so'mda	Haqiqiy		Hisob bo'yicha	
			Soni	Summa	Soni	Summa
1.	Tikuv dastgoxilari	250000	15	3750000	16	4000000
2.	Divan-kreslo	65000	2	130000	2	130000
3.	Xolodilnik	50000	3	150000	2	100000
4.	Konditsioner	45000	4	150000	3	135000

5.	Stol-stullar	25000	5	125000	6	150000
Jami:		210000		930000		4515000

Topshiriq:

Milliy buxgalteriya hisobining №19 sonli “Inventarizatsiya o‘tkazish to‘g‘risida”gi standartiga binoan quyidagilar bajarilsin:

1. Taqqoslama vedomosti tuzilsin, hamda inventarizatsiya natijasi aniqlansin;
2. Kamomad va ortiqcha chiqqan asosiy vositalar hujjatlashtirilib hisobdan chiqarilsin yoki kiringa olinsin.
3. Ushbu operatsiyalarga buxgalteriya provodkalari berilsin.

KEYSLAR TO‘PLAMI**1-guruh uchun:**

«Mahmud» firmasining 30 sentyabr 200_ yil holatidagi aktiv va majburiyatlarining holati keltirilgan. Bundan tashqari sentyabr oyidagi oligan daromadlari va amalga oshirilgan sarflari keltirilgan.

Xizmat ko‘rsatishdan olgan daromadi	3 500 000	
Olinadigan schyotlar		900 000
To‘lanadigan schyotlar		750 000
Kapitali		_____?
Mehnat haqi bo‘yicha sarflar	1 000 000	
Keltiriladigan uskunalar	9 500 000	
Materiallar	600 000	
To‘lanadigan vasiqalar	5 000 000	
Ijara bo‘yicha sarflar	500 000	
Kassa	650 000	

Vazifa:

Ushbu firma biznesning qaysi turiga ta’lluqli? Buni qanday aniqlash mumkin?
200_ 30 sentyabr holatiga balansini tayyorlang.

Izoh: Buxgalteriya balansi faqat aktiv, majburiyat va xususiy kapitaldan tashkil topgan.

2-guruh uchun:

Bosh buxgalter kasal vaqtida uning yordamchisi firmaning balansini tuzdi va bir necha xatoliklarga yo‘l qo‘ydi. Lekin mablag‘ va manbalarning teng kelish shartiga amal qilib balansga keltirish uchun xususiy kapital summasiga manbadagi farqni qo‘shdi. Natijada ushbu bo‘limdagi summa noto‘g‘ri bo‘ldi, lekin boshqa hamma ma’lumotlar to‘g‘ri.

Firmaning 30 aprel kunidagi balansi

№	Aktivlar	Summa	Majburiyatlar	Summa
	Kassa	200 000	Olinadigan schyotlar	300 000
	Kontselyariya tovarlari	100 000	Xizmat ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar	3 500 000

Er	2 200 000	Mulk solig'i bo'yicha sarflar	80 000
Tashviqot xarajati	50 000	To'lanadigan schyotlar	800 000
Idora mebeli	1 000 000	Xususiy kapital	?
To'lanadigan vasiqa	1 600 000	Xususiy kapitalning jami	870 000
Ijara bo'yicha sarflar	400 000		
<i>Aktivning jami</i>	<i>5 550 000</i>	<i>Passivning jami</i>	<i>5 550 000</i>

Vazifa:

30 aprel kuniga buxgalteriya balansini tuzing. Aktiv va majburiyatlar summasini aniqlang, keyin xususiy kapital summasini aniqlash uchun aktivdan va majburiyat summasini chegiring.

Buxgalteriya balansida va ko'rsatilishi lozim bo'lgan schyotlarni aniqlang va ko'rsatmaslik sababini kiriting.

3-guruh uchun:

«M» kompaniyasi 200_ 30 noyabr holatidagi balansi quyidagi ko'rinishga ega (ming so'm).

№	Aktivlar	Summa	Majburiyatlar	Summa
	Kassa	263 389	To'lanadigan vasiqalar	83 361
	Olinadigan schyotlar	339 798	To'lanadigan schyotlar	229 453
	Tovarlar	387 660	Boshqa majburiyatlar	300 847
	Mulklar	330 455	Majburiyatning jami	613 661
	Boshqa aktivlar	99 800	Xususiy kapital	807 441
	Jami aktivlar	1 421 102	Jami passivlar	1 421 102

Dekabr oyida quyidagi muomalalar sodir bo'ldi (ming so'mda):

Mulk egalardan naqd pulda omonatlar qabul qilindi	1 800	
Kompaniyaga investitsiya ko'rinishida maxsus uskuna olindi		4 000
Oddiy vasiqa berilib naqd pul kirim qilindi	10 000	
Naqd pul to'lanib uskuna sotib olindi		12 500
Mol etkazib beruvchilardan TMZ sotib olindi	9 000	
Kreditor qarzlari (schyotlar) naqd pulda to'landi	5 400	
Boshqa kompaniyaga uskuna sotildi		1 400
Debitor qarzlari (olinadigan schyotlar) naqd pulda kirim qilindi	8 400	

Vazifa:

Ushbu oyda sodir bo'lgan muomalalarni tahlil qiling.

Tahlildan keyin «Aktiv + majburiyat + xususiy kapital» tenglamani isbotlang.

4-guruh uchun:

Tuzilgan kontraktlarga asosan xaridorlarga tayyor mahsulotlar jo'natildi:

- Rejadagi tannarxi 2 500 000

- Haqiqiy tannarxi (tejalgan 3%) _____?
- Shartnomadagi baho 4 000 000
- QQS (20%) _____?

Vazifa:

5. Sotilgan mahsulotning tannarxi schyotlarda qayd qilinsin.
6. Sotilgan mahsulotdan olingan daromad tegishli schyotlarda aks ettirilsin.
7. QQS aks ettirilsin.
8. Moliyaviy natija aniqlansin.

5-guruh uchun:

Tuzilgan kontraktga asosan xaridorlarga tayyor mahsulot sotildi.

- Rejadagi tannarxi 2 500 000
- Haqiqiy tannarxi (ortiqcha sarflar 2%) _____?
- Shartnomadagi baho 4 000 000
- QQS (20%) _____?

Vazifa:

5. Sotilgan mahsulotning tannarxi schyotlarda qayd qilinsin.
6. Sotilgan mahsulotdan olingan daromad tegishli schyotlarda aks ettirilsin.
7. QQS aks ettirilsin.
8. Moliyaviy natija aniqlansin.

6-guruh uchun:

Tuzilgan shartnomaga muvofiq xaridorlarga bajarilgan ish topshirildi.

- Kontraktda ko'rsatilgan qiymat 4 500 000
- Ishning rejadagi tannarxi 3 000 000
- Ishning haqiqiy tannarxi (tejalgan 3%) _____?
- Muomala natijasi bo'yicha olingan foyda
yoki zarar summasi _____?

Vazifa:

5. Sotilgan mahsulotning tannarxi schyotlarda qayd qilinsin.
6. Sotilgan mahsulotdan olingan daromad tegishli schyotlarda aks ettirilsin.
7. QQS aks ettirilsin.
8. Moliyaviy natija aniqlansin.

**MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI MAVZULARI
VA ULARNI O'ZLASHTIRISH BO'YICHA ZARUR
USLUBIY KO'RSATMALAR**

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim talabaning bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, auditni o'rganishda fanning biror bir mavzusini to'laroq o'zlashtiradi va mavzu belgilangan shaklda bajariladi. Mustaqil ishni bajarishdan maqsad, talabaning o'qishi davomida olgan bilimni mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi. Mustaqil ta'lim uchun o'quv va ishchi o'quv rejada 52 soat ajratilgan. Ushbu soat talabaning amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, oraliq nazoratlarda, yakuniy nazoratda va boshqa mustaqil shug'ullanishini o'z ichiga oladi.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi lozim:

- o'qish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi. Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va xajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestr-ga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o'rgatib borish kerak bo'ladi.

Fanni tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- o fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- o amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- o ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- o hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- o maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash;
- o amaliyotdagi mavjud muammoning echimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- o ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;
- o amaliy mazmundagi nostandart masalalarni echish va ijodiy ishlash;
- o uy vazifalarini bajarish va boshqalar;

Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish,

kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

Mustaqil ish tayyorlashning mazmuni va shakllari

Mustaqil ish tayyorlashning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi. Mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida talabalar mavzuga oid darsliklardan foydalanish tavsiya etiladi. Mavzuni yoritish jarayonida moliyaviy boshqaruv, moliyaviy nazorat, davlat byudjeti, sug'urta hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga taaluqli va ularni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni o'rganishga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Bunda O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlarining asosiy mazmuni talabalarga etkazilishi, ularning mavzuga oid qismlaridan ko'chirmalar tarqatma material sifatida o'rganilishi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlarini o'rganishda axborot tizimlaridan foydalanish mumkin. Internet saytlari ma'lumotlaridan samarali foydalanish, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ishlar, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va ularning rasmiy saytlaridan yangi ma'lumotlarni olib foydalanish lozim. Mustaqil ish tayyorlashni shakli bo'lib quyidagilar hisoblanadi: taqdimot tayyorlash, ilmiy loyiha yozish, tarqatma materiallar (jadval, grafik, chizma, sxemalar) tayyorlash.

Bundan tashqari, fan mazmunini boyitish va uning ma'lumotlarini yangilab borishda axborot resurslaridan foydalanishni yo'lga qo'yish; fanning mazmunini yanada takomillashtirish maqsadida tavsiya etilgan chet el adabiyotlari ma'lumotlarini tarjima qilish va fanni chuqurroq o'rganish; talabalar fanni mukammal o'zlashtirish maqsadida mazkur fanga oid muammolarni hal qilish yo'llarini izlab topish va muammolarni maqolalar orqali yoritishlar ham kiradi.

Mustaqil ish bajarilishi va jihozlash

Mustaqil ish bajarilishi jarayonida turli manbalardan axborotlar yig'ish va ularni jamlashda, yozma ravishda o'zining fikrini bayon etishda, auditoriya oldida o'zining ravon nutqi bilan chiqishda talabaning malakasi shakllanadi va oshadi. Talaba kutubxonalarda faqat adabiyotlar bilan ishlashda cheklanmasdan, balki davlat tashkilotlari, statistika boshqarmasi, jurnal, gazeta va internet saytlari ma'lumotlaridan foydalanishini bilish lozim. Shuningdek, har bir talaba olingan zaruriy ma'lumot va axborotlarni to'g'ri va aniq tahlil qilish muhimdir. Mustaqil ishlarning keng tarqalgan shakli taqdimotdir. Talabalar taqdimotni seminar darslariga tayyorlab kelishlari mumkin. Taqdimotni adabiyotlarni o'rganib, tanlangan mavzuga chuqur yondashib, o'z kuzatishlarini ham ishlata bilgan holda tayyorlashlari kerak. Taqdimot tayyorlash jarayonida talaba adabiyotlar bilan ishlash, turli manbalardan olgan materiallarini umumlashtirish va xulosa qilishga o'rganadi.

Taqdimot tayyorlash uchun talaba, avvalo, fanni nazariy jihatdan puxta o'zlashtirishi kerak. Tanlab olingan mavzuni yoritish uchun kirish, 3-4 reja tuziladi va shu reja asosida mavzu yoritiladi. Mustaqil ta'lim taqdimot ko'rinishida bo'lsa, u PowerPoint dasturida tayyorlanadi va unda titul varog'i, mavzu, reja va slaydlardan iborat bo'lishi kerak.

Mustaqil ishning yana bir shakli “Ilmiy loyiha”dir. Ilmiy loyihani talabalarning ilmiy ish yozishi, tadqiqot o‘tkazishini dastlabki shakli sifatida ko‘rish mumkin. Ilmiy loyiha (lotincha refero- axborot beryapman) - biror ilmiy asar, o‘qilgan kitob, maqola kabilar mazmunining qisqacha yozma yoki og‘zaki bayoni, o‘rganilgan ilmiy masalaning natijasi haqidagi axborot, tegishli adabiyot va boshqa manbalar obzorini o‘z ichiga olgan ma‘lum mavzudagi doklad. Ilmiy loyiha odatda, ilmiy axborot vazifasini o‘taydi. Unda muayyan mavzu bilan birgalikda, tegishli ilmiy nazariyalar, xulosalar yoritilishi va tanqid qilinishi mumkin. Ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlarida ilmiy dokladlar sifatidagi “Ilmiy loyiha”lar keng tarqalgan. Odatda talabalarning seminar mashg‘ulotlariga tayyorlab keladigan maxsus axborotlari ham “Ilmiy loyiha” deyiladi.

Ilmiy loyiha yozish bilan talaba ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni, statistik ma‘lumotlar va boshqa materiallarni to‘plash, ularni qayta ishlash, ya‘ni hisob kitob qilish, tahlil qilish, o‘rganilayotgan hodisalarga tanqidiy ko‘z bilan qarashni, baholashni, nazariyani amaliyot bilan bog‘lashni o‘rganadi.

Ilmiy loyiha mustaqil yozilib, uni yozish qoidalariga amal qilinsa, darslik bo‘yicha savolga tayyorlanib kelib, seminar darslarda so‘zga chiqishga qaraganda katta foyda beradi. Talaba “Ilmiy loyiha”da bildirgan o‘z fikrini auditoriya oldida himoya qila olishi kerak.

Mustaqil ish bajarishda talaba o‘rganilayotgan mavzuning mohiyati va mazmunini faqatgina asosiy matnda nazariy jihatdan yoritmasdan, balki mavzu bo‘yicha amaliy ma‘lumotlardan sxema, grafik, diagramma, jadvallar ko‘rinishida tarqatma materiallartayyorlashlari va ularni tahlil qilish talablari qo‘yilgan. Chunki, har qanday mavzuning nazariy qismi amaliy topshiriqlar bilan to‘ldirilganda dars samarasi yanada yuqori bo‘ladi

Shunday qilib, taqdimot tayyorlash, ilmiy loyiha va amaliy materiallar foydalanish bir tomondan, ilmiy ishlarning yakuni sifatida, o‘z ustida ishlashlari, izlanishlariga yakun yasasa, ikkinchi tomondan, ularni yanada yangi ishlarga rag‘batlantiradi, dunyoqarashini rivojlanishi, o‘z faoliyatini aniq maqsadga yo‘naltirishga, yanada chuqurroq bilim olish, o‘z ustida ishlashga, iqtisodiy fikrlash, ilmiy izlanishga, fikrini mantiqiy izchillikda ham og‘zaki ham yozma ravishda bayon qilishga o‘rgatadi.

Mustaqil ishni bajarilishida talaba bu ishga ijodiy yondoshmog‘i kerak. Talabalarni fanini mustaqil o‘zlashtirishlari uchun quyidagi talablar qo‘yilgan:

-bir mavzuni yoritishda talaba faqatgina ilmiy adabiyotlardan emas, balki ham ilmiy maqolalar, ham axborot vositalari, ham internet tarmoqlaridan birgalikda foydalanishi lozim;

-o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribalari qay darajada ekanligiga e‘tibor berilishi lozim;

-ilmiy loyiha reja asosida va talab darajasida tayyorlangan bo‘lib, har bir reja bo‘yicha talaba o‘z fikr mulohazalarini bayon etishi shart;

-mavzuni yoritishda keltirilgan statistik ma‘lumotlar aniq va to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish uchun manbasi ko‘rsatilishi shart;

- ilmiy loyiha tarzda (kompyuterda) yoziladigan bo'lsa (A4 format qog'oz, 14 shrift, 1 interntervalda yozilishi kerak) 14-15 betdan va taqdimot ko'rinishida 10-15 slayddan iborat bo'lishi kerak, tarqatma materiallar esa 8-10 tadan kam bo'lmasligi lozim.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish

Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzu bo'yicha Loyiha ishi, taqdimot va slaydlar, keys stadilar tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar etishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

Mustaqil ishlarni baholash tartibi

Talabalarning reyting asosida baholash tizimida mustaqil ishning bajarilishi yakuniy sinov sifatida xizmat qiladi. Albatta, mustaqil ishning talabalar tomonidan bajarilish muddati, yozma yoki Ilmiy loyiha ishlariga qo'yilgan talabga qay darajada javob berilishi, tavsiya etilgan adabiyotlardan qanday foydalanganligi baholash me'zonida nazarda tutiladi. Mustaqil ishning bajarilishini nazorat qilish oraliq nazoratlarda olib boriladi. Mustaqil ishlarning baholash me'zoni quyidagicha tashkil etish mumkin:

Mustaqil ishga ajratilgan maksimal 10 ball o'quv semestri davomida 2 marta (5/5 nisbatda), oraliq ballarni rasmiylashtirishga mos ravishda talabalar tomonidan tayyorlangan mustaqil topshiriqlarni topshirilishi asosida guruh jurnali va elektron jurnalida rasmiylashtiriladi va talabalar e'tiboriga etkaziladi.

Talaba yuqori saviyada va mukammal yozgan mustaqil ishi bilan kafedra tavsiyasiga binoan fakultet yoki oliy o'quv yurti darajasida o'tkaziladigan talabalarning ilmiy-amaliy anjumanida ishtirok etishi mumkin.

BUXGALTERIYA HISOBI
FANI BO`YICHA
GLOSSARIY

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
aktiv	asset	АКТИВ	lot. activus — faol, ta'sirchan, ishchan) — 1) buxgalteriya balansining chap qismi, korxonaning muayyan sanada va pul ifodasida barcha vositalarini, ularning tarkibi va joylashuvini (asosiy fondlar, aylanma vositalar, pul vositalari, kapital sarflar, qarzdorlik talabnomalari va b.) aks ettiradi; 2) korxonaga yoki tashkilotning mulki yoki resurslari (bino, mashina, naqd pul, qimmatbaho qog'ozlar va b.). Pulga tez sotilishi (aylanishi) mumkin bo'lgan, bozori chaqqon A. (veksellar, qimmatbaho qog'ozlar, oltin, nakd pul va b.) likvid A. deyiladi.
aktiv schyotlar	active accounts	активные счета	korxonaga mablag'larini hisobga oladigan buxgalteriya hisobi schyotlari. Ular mavjud mablag'lar, ularning tarkibi va joylashishi to'g'risidagi ko'rsatkichlarni beradi. Aktiv schyotlarda mablag'larning ko'payishi debetda, kamayishi kreditda aks ettiriladi. Oxirgi qoldig'i faqat debetda ko'rsatiladi va buxgalteriya balansining aktivida ko'rsatiladi.
aktsiyadorlar	shareholders	акционеры	aktsiyadorlik jamiyatining a'zosi bo'lib, bunga bir yoki bir necha aktsiyalarni sotib olish orqali erishadi.
aktsiyadorlar jamiyati	shareholder society	акционер общества	ishlab chiqarish fondlari aktsiyadorlarning aktsiyalarni sotib olish yo'li bilan qo'shgan ulushlari hisobiga tashkil topadigan korxonadir.

amortizatsiya	depreciation	амортизация	foydali xizmat muddati mobaynida aktivning amortizatsiyalanadigan qiymatini asosiy vositalarning vazifasidan kelib chiqqan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga yoki davr xarajatlariga muntazam taqsimlash va o'tkazish ko'rinishida eskirishning qiymat ifodasi.
amortizatsiyalanadigan qiymat	depreciable value	остаточная стоимость	bu aktivning moliyaviy hisobotlarda ko'rsatilgan boshlang'ich (tiklanish) qiymatidan uning likvidatsiya qiymatini ayirgan holdagi summasi.
analitik hisob	analytical account	аналитический учет	pul va zarur bo'lgan hollarda natura shaklida detallashtirilgan ko'rsatkichlar-ni beruvchi hisob
analitik hisob schyotlari	the account of analytical accounting	счёта аналитического учета	analitik hisob yurituvchi buxgalteriya hisobi schyotlari. Ular ma'lum sintetik schyotning ko'rsatkichlarini detallashtirish uchun ochiladi. Analitik schyotlar faqat murakkab sintetik schyotlarga ochiladi. Analitik hisob schyotlari sintetik hisob schyotlariga o'xshab debet va kreditga ega. Ular bo'yicha aylanmalari va saldosi chiqariladi. Bunda bir sintetik schyot bo'yicha ochilgan barcha analitik schyotlarning debet va kredit aylanmalarining jami hamda saldolarining jami so'm hisobida shu sintetik schyotning debet va kredit aylanmalari hamda saldosi teng bo'lishi kerak. Buxgalteriya hisobini takomillashtirish jarayonida

			analitik hisobni yuritishning samaraliroq prinsiplari ishlab chiqildi. Hisobning jurnal-order shaklida analitik hisob yordamchi (jamg'aruvchi) vedomostlarda yuritiladi, ayrim hollarda esa sintetik schyotlar bilan birga bir jurnal-orderda olib boriladi.
asosiy vositalar	the main means	ОСНОВНЫМ СРЕДСТВОМ	korxonadan tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar.
avans	prepaid expense	АВАНС	korxonaning bajariladigan ish, yetkazib beriladigan mol-mulk, ko'rsatiladigan xizmatlar va boshqalar uchun to'lanadigan to'lovlar hisobiga beradigan dastlabki pul summasi.
aylanma vedomostlar	negotiable statement	ОБОРОТНАЯ ВЕДОМОСТЬ	buxgalteriya hisobi schyotlarining hisob registrlari ma'lumotlarini umumlashtirish usuli. Aylanma vedomostlar schyotlarning oy boshiga va oxiriga qolgan qoldig'i hamda oy bo'yicha aylanma ma'lumotlarga asosan oy oxirida tuziladi, aylanma vedomostlar sintetik va analitik schyotlar bo'yicha tuzilishi mumkin. Aylanma vedomostda uch juftxonalar mavjud bo'lib, ularda har bir schyot bo'yicha oy boshiga qoldiq, oy aylanmalari va oy oxiriga qolgan qoldiq ko'rsatiladi. Aylanma vedomostdagi o'zaro tenglik debet va kredit

			aylanmalari registratsiya jurnalining jamiga ham teng bo'lishi kerak. Aylanma vedomostning schyotlar bo'yicha qoldiqlariga asosan buxgalteriya balansi tuziladi.
baho	price	цена	tovar qiymatining pul ko'rinishida ifodalanishi
baholash	valuation	оценка	xo'jalik mablag'lari, majburiyatlar va xo'jalik jarayonlarini pul o'lchov birligida aks ettirish usulidir.
balans	balance	баланс	doimo o'zgarib turadigan, o'zaro aloqada bo'lgan holatini ta'riflovchi ko'rsatkichlar tizimining tengligi. Balans ikki qismdan iborat bo'lgan jadval shaklida ma'lum bir sanaga tuziladi. Balans qandaydir voqeani ta'riflab, uning qismlarga munosabatini ko'rsatadi. Balans alohida korxonada, ishlab chiqarish birlashmasi (buxgalteriya balansi, korxonaning daromad va xarajatlar balansi) yoki xalq xo'jaligi (aholining daromad va xarajat balansi, to'lov balansi, savdo balansi, qishloq xo'jalik mahsulotlari balansi va b.) masshtabida tuziladi.
balans qiymati	the book value	балансовой стоимости	aktivning buxgalteriya balansida aks ettirilgan summasi.
balansdan tashqari schyotlar	off-balance account	внебалансовых счетах	qoldig'i buxgalteriya balansiga kirmaydigan buxgalteriya hisobi schyotlari. Bu schyotlar korxonada vaqtincha turgan va boshqa korxonalariga (ijaraga olingan asosiy vositalar, masul saqlashga qabul qilingan moddiy qiymatliklar va h.k.) tegishli bo'lgan tovar-moddiy qiymatliklarni hisobga olish uchun tayinlangan. Balansdan

			tashqari schyotlarda shuningdek qat'iy hisobot blankalari, zararga hisobdan chiqarilgan debitorlik qarzlari ham hisobga olinadi. Balansdan tashqari schyotlarda hisob oddiy tizimda, ya'ni ikki yoqlama yozuv qo'llanmasdan yuritiladi. Bu schyotlar o'zaro yoki balansli schyotlar bilan korrespondentlanmaydi.
birlamchi hujjatlar	primary documents	первичные документы	buxgalteriya hujjalari bo'lib, xo'jalik jarayoni sodir bo'lgan vaqtda tuziladi va ularning sodir etilganligi haqida birlamchi guvohnoma hisoblanadi.
bosh daftar	main book	главная книга	sintetik hisob yuritish uchun tayinlangan hisob registri
bosh jurnal	main magazine	главная журнал	– buxgalteriya hisobining eskirgan shakli. U hisobning memorial-order shaklidagi varianti bo'lib hisoblanadi. "Bosh daftar" deb nomlangan yagona hisob registrida bosh daftar va registratsiya jurnali birlashtirilgan.
boshlang'ich (haqiqiy) qiymat	initial cost (real)	начальная стоимость (реальное)	asosiy vositani sotib olish yoki uni qurish (bino qurish va qurilishni tugallash) bilan bog'liq barcha xarajatlar, shu jumladan, to'langan soliqlar, bojxona bojlari va yig'inlari, hamda etkazib berish, montaj, o'rnatish va ishga tushirish bilan bog'liq bevosita aktivdan belgilangan maqsadda foydalana olish uchun uni ishchi holatiga keltirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa barcha xarajatlarning summasidir.
brutto	brutto	брутто	tovarlarning idishi yoki o'rovi bilan birgalikdagi og'irligi.
brutto-balans	brutto-balance	брутто-баланс	tartibga soluvchi moddalarni o'z ichiga oluvchi balansdir.

			“Asosiy vositalarning eskirishi”, “Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi”, “Sotib olingan xususiy aksiyalar” singari tartibga soluvchi moddalarni o‘z ichiga oladi
buxgalter	accountant	бухгалтер	ichki boshqarish va tashqi iste’molchilarning maqsadlari uchun joriy va yakuniy axborotni olish bilan korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning xo‘jalik faoliyati ustidan uzluksiz va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan kuzatish va nazorat qilish tizimidan iborat
buxgalteriya	counting-house	бухгалтерия	1) buxgalteriya hisobini tashkil etadigan va yuritadigan hisob apparati. 2) korxonalar, muassasalarning moliyaviy ishlarini qayd etib borish, nazorat qilish, jumladan xodimlarga ish haqi yozish, buxgalteriya hisoboti va boshqa hisobotlar tuzish bilan shug‘ullanuvchi maxsus bo‘limi. Odatda Buxgalteriyani bosh hisobchi (buxgalter) boshqaradi. Buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va buxgalterning huquq, burchlari 2016 yil 13 aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun bilan belgilangan.
buxgalteriya hisobi	accounting	бухгалтерский учет	xo‘jalik hisobi turlaridan biri; xo‘jalik faoliyati jarayonida korxonalar mablaglarining aylanishi va mulk harakatini ifodalovchi ma’lumotlar majmuasi. Buxgalteriya hisobi joriy hujjatlarga asoslanadi, uzluksiz, o‘zaro bir-biriga

			bog'liq bo'lgan mablag'lar va xo'jalik operatsiyalarini va boshqalarning xo'jalik faoliyatini uzlukiz ravishda kuzatish va nazorat qilish tizimi
buxgalteriya hisobi metodining elementlari	elements of accounting methods	элементы методы бухгалтерского учета	bu buxgalteriya hisobining ayrim usullariga aytiladi. Ular quyidagilardan iborat: hujjatlashtirish va inventirizatsiya qilish, baholash va kalkulyatsiya qilish, schyotlar tizimi va ikki yoqlamali yozuv usuli, buxgalteriya balansi va hisobot.
buxgalteriya hisobi schyotlari	accounting accounts	бухгалтерские счета	mol-mulkni uning tarkibi, joylashtirishi va shakllantirish manbalari hamda operatsiyalar bo'yicha joriy aks ettirish, guruhlash hamda nazorat qilish usulidir.
buxgalteriya hisobining obyektleri	objects of accounting	объекты бухгалтерского учета	asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, o'z kapitali, rezerv, daromad, harajatlar va h.k.
buxgalteriya hisobining predmeti	the subject of accounting	предмет бухгалтерского учета	korxonani xo'jalik mablag'lari va ularni tashkil topish manbalarini, ularni xo'jalik jarayonlari natijasida o'zgarib borishlarini yoppasiga, uzluksiz, qonun-qoidalarga asosan hujjatlarda to'liq, aniq, to'g'ri aks ettirib borishdir
buxgalteriya hisobining subyektlari	subjects of accounting	субъекты бухгалтерского учета	davlat boshqaruv organlari, boshqarmalar, O'z.R.da ro'yhatdan o'tgan yuridik shaxslar.
buxgalteriya hisobining usullari	accounting methods	методы бухгалтерского учета	uni o'rganishga qaratilgan usullar yig'indisiga aytiladi. Ayrim usullar uning elementlari deb atalib, qo'yidagilardan iborat bo'ladi: hujjatlashtirish va invertarizatsiya qilish, baholash

			va kalkulyasiya qilish, schyotlar tizimi va ikki yoqlama yozish usuli, buxgalteriya balansi va hisobot.
dastlabki hujjatlar	primary documents	первичные документы	xo‘jalik muomalalari sodir bo‘lgan paytda tuziladigan va ular amalga oshganligining birinchi guvohi bo‘lgan buxgalteriya hujjatlari. Dastlabki hujjatlar tuzilishi xo‘jalik muomalalari hisob registratsiyasining boshlanishi bo‘lib hisoblanadi. Dastlabki hujjatlarga g‘azna kirim va chiqim orderlari, yukxatlar, kvitantsiyalar va h.k. kiradi. Hisobni soddalashtirish va hisob registratsiyasini tezlashtirish uchun ko‘pincha dastlabki hujjatlarga asosan yig‘ma hujjatlar tuziladi. Buxgalteriya hujjatlari tuzish tartibi bo‘yicha tasniflanganda hujjatlar dastlabki va yig‘ma hujjatlarga bo‘linadi.
debet	debit	дебет	buxgalteriya hisobi schyotining bir qismi. Aktiv schyotlarning debeti bo‘yicha hisob ob‘yektining ko‘payishi aks ettiriladi, passiv schyotlarning debeti bo‘yicha esa kamayishi yoziladi.
depozit sertifikat	certificate of deposit	депозитный сертификат	ma’lum bir muddatga pul mablag‘larini bankka qo‘ygan shaxslarga bu haqda tasdiqlovchi qimmatbaho qog‘oz bo‘lib, uning egasi daromad manbai hisoblanadi.
dividend	the dividend	дивиденд	aktsiyadorlik jamiyati foydasining bir qismi bo‘lib, aktsiyadorlar o‘rtasida soliqlarni, ishlab chiqarishni kengaytirishga ajratmalarni, zaxiralarni tashkil etish,

			obligatsiyalar bo'yicha foizlarni va boshqa to'lovlarni amalga oshirilganidan so'nggina taqsimlanadi.
ehtiyotkorlik	foresight	предвидение	qarorlar qabul qilishda ehtiyotkorlik qoidasiga rioya qilish aktivlar va daromad qaytadan baholanmasligi, majburiyatlar yoki xarajatlar esa etarlicha baholanmasligiga yo'l qo'ymaslik maqsadida noaniqlik sharoitida baho chiqarish uchun zarurdir.
funktsiya	function	функция	lot. functio — bajarish, amalga oshirish) (tilshunoslikda) — muayyan til, til birligi, lisoniy shaklning u yoki bu vazifani bajarish qobiliyati; tilning kishilik jamiyatidagi roli, vazifasi; til tizimining barcha sathlaridauning birliklari o'rtasidagi bog'liqlik yoki munosabatlar.
hisob	account	счет	biror narsa mavjudligini belgilash, uni o'lchash va son hamda sifat tomonidan qayd etish
hisob siyosati	accounting policy	учетная политика	bu buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ekt qo'llaydigan usullarning jamlamasidir.
hujjat aylanishi	flow of documents	документооборот	hisob jarayonida hujjatlarni tuzish vaqtida ularni arxivga topshirishgacha bo'lgan hujjatlar harakati. Korxonalarining xo'jalik bo'limlari (boshqaruv bo'limi, ishlab chiqarish sexi, uchastka, brigada va h.k.) da tuzilgan hujjatlar buxgalteriyaga topshiriladi. U yerda shaklan va mazmunan tekshiriladi, bir xillik belgilariga qarab guruhlanadi va hisob

			registrarlariga yozilgandan so'ng papkalarga tikilib, turli ma'lumotlar berish va turli tekshirishlar uchun foydalaniladi. Ilmiy – tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar davlat arxiviga topshiriladi, qolganlari yo'q qilinadi. Har bir korxonada hujjatlarni tuzish kimga yuklatilganligi, kim kimga qaysi muddatda hujjatlarni taqdim etishi, hujjatlarning hisobda foydalanilishi ko'rsatiladi.
hujjatlashtirish	documentary expediency	документальное обоснование	xo'jalik muomalalarini hujjatlar bilan rasmiylashtirish. Hujjatlashtirish yordamida xo'jalik muomalalari yoppasiga muomala sodir bo'lgan joyda va vaqtda aks ettiriladi. Hujjatlashtirish buxgalteriya hisobining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, yozuvlar faqat hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.
ikkiyoqlama yozuv	double entry	двойная запись	– xo'jalik muomalalarini buxgalteriya hisobi schyotlarida registrasiya qilish. Bu usul shundan iboratki, har bir xo'jalik muomalasi ikkita schyotga yoziladi – bir schyotning debeti va ikkinchi schyotning kreditiga. Ikkiyoqlama yozuv buxgalteriya hisobi ob'yektlarida o'zgarishlarni vujudga keltiradigan xo'jalik muomalalarining iqtisodiy mohiyati bilan bog'liq.
imtiyoz	privilege	привилегия	ma'lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman yoki to'liq ozod etishdir.
inventarizatsiya	inventory of	инвентаризация	natura shaklidagi mavjud mablag'lar haqiqiysining

			<p>buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga to'g'ri kelishini, majburiyatlar hisobda to'g'ri aks ettirilishini tekshirish usuli. U buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlari ishonchliligini va korxonada mulki butligini ta'minlaydi. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt, shu jumladan asosiy faoliyati byudjet mablag'lari hisobiga moliyalanadigan tashkilot tomonidan mol-mulk hamda moliyaviy majburiyatlarni inventarizatsiya qilish va uning natijalarini rasmiylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasining 19-Buxgalteriya hisobi milliy standarti "Inventarizatsiya qilishni tashkil etish va o'tkazish" bilan tartibga solinadi. Rejali va rejadan tashqari inventarizatsiya ham bo'lishi mumkin. Rejali inventarizatsiya yo'riqnomalarda ko'rsatilgan muddatlarda o'tkaziladi, rejadan tashqarisi zaruriyat tug'ilishiga qarab, odatda to'satdan o'tkaziladi.</p>
investitsiya	investment	ИНВЕСТИЦИЯ	<p>foyda, dividend yoki daromadlarning boshqa shakllarini olish maqsadida sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarga shuningdek qimmatli qog'ozlarga sarmoya qo'yish.</p>
investor	investor	ИНВЕТОР	<p>qimmatli qog'ozlarni sotib oladigan va bu bilan o'zlarining bo'sh moliyaviy resurslarini joylashtiradigan yuridik hamda jismoniy shaxs.</p>
ishlab chiqarish	manufacture of	ПРОИЗВОДСТВО	<p>kishilik jamiyatining hayoti va rivojlanishi uchun zarur</p>

			bo‘lgan mahsulotlarni vujudga keltirish jarayoni. Bu jarayonida ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari birlashadi. Ishlab chiqarish, iste’mol kabi uzluksiz davom etadi, ya’ni takror ishlab chiqarish amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish xarajatalari, olingan mahsulotlar va ularning iste’moli aks ettiriladi.
ishlab chiqarish vositalari	the means of production	средства производства	mehnat vositalari va mehnat buyumlari majmuasi. Ishlab chiqarish zahiralari – korxonadagi barcha materiallar majmuasi. Ishlab chiqarish zahiralari 1000 “Materiallarni hisobga oluvchi schyotlar” va boshqa schyotlarda hisobga olinadi.
ishonchlilik	reliability	достоверность	axborot, unda jiddiy xatolar va taxminlar bo‘lmasa va unga foydalanuvchilar asoslanishsa, ishonchli bo‘la
joriy balans	current balance	текущий баланс	korxonada qonunchilik bilan belgilangan muddatlarda vaqti-vaqti bilan tuzilib turiladi. (Oylik, choraklik, yarim yillik, yillik).
joriy qiymat	current value	текущая стоимость	ma’lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo‘yicha aktivlarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o‘rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun etarli bo‘lgan summa.
kalkulyatsion schyotlar	calculation accounts	калькуляционные счета	ishlab chiqarilgan mahsulot va bajarilgan ishlarning tannarxini hisoblashda zarur bo‘ladigan ma’lumotlarni olish uchun xizmat qiladigan buxgalteriya

			hisobi schyotlari.
kalkulyatsiya	calculations	калькуляция	xarajatlarni guruhlash va sotib olingan moddiy qiymatliklarni, tayyorlangan mahsulot va bajarilgan ishlar tannarxini aniqlash usuli. kalkulyatsiya tannarxi bo'yicha reja bajarilishi, uning pasayishi va haqiqiy xarajatlarning rejadagidan farqlanishini aniqlash imkoniyatini beradi. Tuzulgan vaqti va tayinlanishiga qarab kalkulyatsiya rejali, normativ va hisobot kalkulyatsiyasiga bo'linadi.
kalkulyatsiya ob'yekti	costing objects	объекты калькуляции	tannarxi aniqlanadigan sotib olingan moddiy qiymatliklar, tayyorlangan buyum yoki bajarilgan ishlarning turi yoki bir xil guruhi.
kapital	capital	капитал	bu o'z egasiga daromad keltiruvchi mablag' va resurs
kapital qo'yilmalar	capital investments	капитальные вложения	natijada asosiy vositalarni ko'paytiradigan xarajatlar.
kassa limiti	limit cash	лимит денежных средств	korxonada kassasida doim bo'lishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining summasi.
kirish balansi	entrance balance	входной баланс	korxonaning tashkil topish paytida tuziladi. U korxonada o'z faoliyatini boshlayotgan boyliklar summasini belgilaydi. Kirish balansida ustav kapitali ta'xis hujjatlari bo'yicha va unga doir badallar pul mablag'lari, boshqa mol-mulk ko'rinishida aks ettiriladi va hokazo.
ko'chmas mulkka investitsiya	real estate investment	инвестиции в недвижимость	investitsiya qiluvchi sub'ektning yoki investitsiya qiluvchi sub'ekt guruhiga kiruvchi boshqa sub'ektning ishlab chiqarish faoliyati davomida foydalanilmaydigan

			yer uchastkalariga yoki imoratlarga investitsiyalar.
konsalting	consolting	КОНСАЛТИНГ	ishlab chiqarishga ish yuzasidan xizmat ko'ratish sohasida ixtisoslashgan firmalarning o'z mijozlariga maslaxat xizmati ko'rsatish va texnikaviy loyihalarni ekspertiza qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyatdir
kontr-aktiv schyotlar	account counter-asset	счета контр-актив	aktiv schyotlarning ko'rsatkichlarini tartibga solish uchun tayinlangan kontrar schyotlar. Kontraktiv schyotlarga 0200 "Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar", 0500 "Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar", 2980 "Savdo ustamasi", 4910 "Dargumon qarzlari bo'yicha rezerv" schyotlari kiradi
kontr-passiv schyotlar	counter-passive accounts	счета контр-пассив	passiv schyotlar ko'rsatkichlarini tartibga keltirish uchun tayinlangan kontrar schyotlar. 8600 "Sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlar", 9040 "Sotilgan tovarlarning qaytishi", 9050 "Haridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar" schyotlari kontrpassiv schyotlarga misol bo'ladi.
korxonalar aktivlari	assets of a company	активы компании	mazkur korxonalar yoki muassasaga tegishli bo'lgan barcha moddiy boyliklarning, tarkibi va joylashuvi nuqtai nazaridan olganda, pul tarzida aks etuvchi buxgalteriya balansining bir qismi.
kredit	credit	кредит	pul mablag'lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama to'lab qaytarib berish sharti

			bilan ma'lum muddatga qarzga berish.
likvidatsiya qiymati	liquidation value	ЛИКВИДАЦИОННАЯ СТОИМОСТЬ	bu asosiy vositalarning taxmin qilinayotgan foydali xizmat qilish muddati oxirida ularni likvidatsiya qilish bo'yicha, kutilayotgan xarajatlarni ayirgan holda aniqlanadigan qiymatidir
lizing	leasing	ЛИЗИНГ	lizing beruvchi bilan lizing oluvchi o'rtasida lizing oluvchiga xo'jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirish maqsadida ko'char va ko'chmas mulkni vaqtinchalik foydalanish uchun berish to'g'risida lizing bitimi (shartnomasi, kontrakt)ni tuzish natijasida vujudga kelgan xo'jalik qarz munosabatlari.
majburiyat	commitment	ОБЯЗАТЕЛЬСТВО	bu fuqarolik huquqiy munosabatlari bo'lib, uning vositasida bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs foydasiga (kreditor) muayyan xatti xarakatlar qilishi, aytaylik: mulkni o'tkazish, ishni bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lashi va xonoz yoki muayyan xatti-xarakatdan o'zini tiyishi kerak, kreditor esa qarzdordan o'z vazifasini bajarishni talab qilish huquqiga ega.
mehnat buyumi	subject of labour	предмет труда	moddiy boyliklar ishlab chiqarish maqsadida kishining mehnati yo'naltirilgan buyumlar. Mehnat buyumlariga xom ashyo, asosiy materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar kiradi. Mehnat buyumlari aylanma

			mablag'larga kirib, mehnat qurollari bilan birga ishlab chiqarish vositalarini tashkil etadi.
mehnat o'lchov birligi	labor a unit of measure	трудова́я единица измерения	mahsulotni ishlab chiqarish yoki sarf qilingan mehnat sarfini o'lchash uchun mo'ljallangan. Ularning o'lchov birligi bo'lib minut, soat, kun va dekadalar hisoblanadi. Ular yordamida mahsulot ishlab chiqarish me'yorlari, mehnat unumdorligi, ish haqini hisoblash va boshqalar nazorat qilinadi. Mehnat o'lchov birligi yordamida mehnat unumdorligini aniqlash imkoni natura o'lchov birligi bilan birga ishlatilgandagina aniqlash mumkin. Mehnat o'lchov birligi ko'p hollarda bir turli xo'jalik munosabatlarini o'rganishda ishlatiladi
mehnat vositalari	instruments of labor	средства труда	mehnat quroli bo'lib, uning yordamida kishilar mehnat buyumlariga ta'sir etadi, shuningdek normal ishlab chiqarish jarayoni uchun zaruriy sharoit yaratadigan ob'ektlardir. Ishlab chiqarish qurollariga mashinalar, asbob-uskunalar, dvigatellar va h.k. kiradi. Mehnat vositalari asosiy vositalar hisoblanadi.
memorial-order	memorial warrant	мемориальный ордер	buxgalteriya provodkasi aks ettiriladigan hujjat. Unda orderning nomeri, oy, yil, yozuvning mazmuni, summa, debetlanuvchi va kreditlanuvchi schyotlarning nomi ko'rsatiladi. Memorial-orderlar maxsus blankalarda tuziladi va bosh (katta)

			buxgalter yoki uning yordamchisi tomonidan imzolanadi. Memorial-orderlar o'rniga tegishli shakldagi shtamplar qo'llanishi mumkin. Ayrim hujjatlarning blankalarida memorial-order rekvizitlari mavjud, ya'ni schyotlar korrespondentsiyasi nazarda tutilgan. Hisobning jurnal-order shaklida memorial-orderlar tuzilmaydi.
moliyaviy axborot	financial information	финансовой информации	bo'lajak korxonani faoliyatining moliyaviy tamonlarini baholashda qo'llaniladi. Bulajak korxonani qurish, ishga solish, boshlang'ich davrda moliyaviy qo'llash va umuman sarflangan sarmoyalarni qaytarish bilan birga loyihani rentabellik darajasi aniqlanadi.
moliyaviy investitsiyalar	financial investments	финансовые инвестиции	xo'jalik yurituvchi sub'ekt tasarrufidagi daromad olishga (foiz, royalti, dividend va ijara haqi shaklida) mo'ljallangan, investitsiya qilingan sarmoya qiymatining ortishi yoki investitsiya qiluvchi kompaniya boshqa naf olish uchun foydalanadigan aktivlar.
moliyaviy natija	financial results	результаты финансовой деятельности	korxonani, tashkilot, birlashma, aksionerlik jamiyati va hokazolarning ma'lum hisobot davrida, uning tadbirkorlik jarayonida qilgan xarajatlari va tushimi o'rtasidagi farqdir.
natural o'lchovlar	natural measurement	натуральный измерение	buxgalteriya hisobidagi o'lchovlarning biri bo'lib, uning yordamida buxgalteriya hisobi ob'yektlari to'g'risida natural (massa, uzunlik, metr va h.k.) ko'rinishidagi ko'rsatkichlar olinadi. Natural o'lchovlar asosiy vositalar,

			materiallar, tovarlar va boshqa moddiy qiymatliklarni hisobga olish uchun qo'llaniladi. Natural ko'rsatkichlar katta nazorat ahamiyatiga ega. Bu ko'rsatkichlar xo'jalik mablag'larini baholash yo'li bilan pul o'lchoviga aylantiriladi.
netto-balans	netto-balance	НЕТТО-БАЛАНС	qiymatidan tartibga soluvchi moddalar summasi chegirilgan balans bo'lib, bunga tozalash deyiladi. O'zbekistondagi barcha korxonalar netto-balans tuzadi (1993 yildan boshlab), ya'ni balans yakuniga asosiy vositalar, arzon baholi va tez eskiruvchi buyumlarning qoldiq qiymatda, qayta sotiladigan tovarlar esa tannarxi bo'yicha kiritiladi.
nomoddiy aktivlar	intangible assets	нематериальные активы	korxonalar maxsulot ishlab chikarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki maxsulotni realizatsiya qilish maqsadida yoki uzoq vaqt mobaynida ma'muriy yoki boshqa funktsiyalarni amalga oshirish uchun saqlaydigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan mol-mulk ob'ektlari.
passiv	passive	пассив	buxgalteriya balansining bir qismi bo'lib, unda korxonalar mablag'lari tashkil bo'lish manbalari va tayinlanishi ko'rsatiladi. Balansning passivi aktiviga o'xshab ikkita bo'lim va bir qancha moddalardan iborat.
passiv schyotlar	passive accounts	пассивные счета	o'z mablag'lar manbaini va majburiyatlarni hisobga oluvchi buxgalteriya hisobi schyotlari. Mablag'lar manbalari ko'payishi passiv

			<p>schyotlarning kreditiga, kamayishi debetiga yoziladi. Qoldig'i kreditida bo'lib, balansning passivida ko'rsatiladi. Schyotlar rejasida passiv schyotlarning ro'parasiga "P" (passiv) harfi qo'yilgan.</p>
pul	money	деньги	<p>umumiy ekvivalent rolini bajaruvchi aloxida tovar turi, ayirboshlash va qiymat shakllarini o'z-o'zida rivojlanishi mahsuli</p>
pul o'lchov birligi	the monetary unit of measure	денежная единица измерения	<p>korxonaning moddiy va mehnat resurslaridan foydalanish bilan bog'liq, mahsulotning aniq turlarini tayyorlash, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishga doir xarakatlarni hisoblash imkonini beradi. Bu vazifani O'zbekiston Respublikasida milliy valyuta so'm va uning tiyini bajaradi. Pul o'lchovi yordamida boshqa ko'rsatkichlarni olish, ulardan hosila ko'rsatkichlarni korxonada darajasida ham iqtisodiyot darajasida ham hisoblash mumkin.</p>
qo'shilgan kapital	added capital	добавочного капитала	<p>oddiy va imtiyozli aktsiyalarni sotishdan olingan summalarining nominal qiymatidan oshiqcha summalarining, bundan tashqari qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mulklar qiymatining yig'indisidan tashkil topadi.</p>
qoldiq qiymat	residual value	остаточная стоимость	<p>– bu aktivning boshlang'ich (tiklanish) qiymatidan yig'ilgan eskirish summasini ayirish orqali aniqlanadigan qiymatidir. a) bank faoliyatida bank xizmatlarini ko'rsatish</p>

			jarayonida, ijaraga berish uchun yoki ma'muriy maqsadlarda ulardan foydalaniladi; b) xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lmagan.
haqiqiy qiymat	real value	реальная стоимость	bu aktivning joriy bozor qiymati yoki qonunchilikka muvofiq baholash faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan mustaqil ekspertlar tomonidan aniqlangan qiymatidir
realizatsiya qilish	realization	реализация	sotish, ayriboshlash, beg'araz berish maqsadida tovarlarni jo'natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, shuningdek garovga qo'yilgan tovarlarga bo'lgan mulk huquqining garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirilish.
rentabellik	profitability	рентабельность	ishlab chiqarish samaradorligining ko'rsatkichi bo'lib, foydaning asosiy ishlab chiqarish fondlari va aylanma mablag'larining o'rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi.
